

M. R. Bakiev, N. Rahmatov


GIDROTEXNIKA INSHOOTLARIDAN FOYDALANISH



**Тошкент
2019**

M. R. Bakiev, N. Rahmatov

GIDROTEXNIKA INSHOOTLARIDAN FOYDALANISH



Тошкент - 2019

**O'ZBEKISTON RESHUBLIKASB OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

Bakiev M.R., Rahmatov N.

**GIDROTEXNIKA INSHOOTLARIDAN
FOYDALANISH**

O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
oliy o'quv yutlararo ilmiy – uslubiy birlashmasi faoliyatini
Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan darslik sifatida
tavsiya etilgan

Toshkent - 2019

QO'MISH, yang 27.12.2019 y. № 1186 – sonli buyrug'iiga asosan darslik sifatida chop etishga ruxsat etilgan.

UDK 626/627.004.67 (075.8)

Бакиев Masharif Ruzmetovich
Rahmatov Norqobul.

GIDROTEXNIKA INSHOOTLARIDAN FOYDALANISH. –
Toshkent, 2019. – 362 b. (darslik).

Taqrizchilar: Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiya-lash muxandislari instituti “Suv energiyasi va nasos stansiyalardan foydalanish” kafedrasi mudiri, professor, t.f.d. Bazarov D.R.

“Davsuvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi bosh mutaxassisi Irisbaev Z.

Mazkur darslikda Respublikamizda mavjud bo‘lgan gidrotexnika inshootlarini ishslash sharoitlari, suv xo‘jaligi ekspluatatsiya xizmati tuzilmasi va ular tomonidan bajariladigan ish turlari, gidrotexnik inshootlarni texnik holatini kuzatish, gidrotexnik inshootlaridagi gidromexanik jihozlar ekspluatatsiyasi, suv tindirgichlarni ishlatish, gidrotexnika inshootlari va ular gidromexanik jihozlari-dagi buzulish va avariya holatlarining tahlili, ta’mirlash va qayta tiklash ishlari, shuningdek gidrotexnika inshootlarini rekonstruksiya qilish masalalari ko‘rib chiqilgan.

So‘z boshi

Respublikaning «Ta’lim to‘g‘risida»gi (1997 y.) qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997y.) larni bajarish, Respublikamizdagi mavjud gidrotexnika inshootlarini ishlatish, ta’mirlash, qayta qurish va ularni loyihalash, xizmat muddatlarini cho‘zish suv xo‘jaligi ta’limini tubdan isloh kilishni, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma’naviy, madaniy va axloqiy talablarga javob beradigan vatanparvar, yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni taqazo qiladi.

Suv xo‘jaligi ta’limi chet el va respublikamizdagi gidrotexnika sohasida erishilgan yutuqlar va xalqimizning boy tarixiy qadriyatları zamirida tashkil etilishi zarur.

SHuning uchun ham mualliflar yuqorida aytigan omillarni e’tiborga olib, o‘zlarining xayotiy tajribalari, gidrotexnika inshootlarini be’vosita tadqiq qilish natijalaridan kelib chiqib mazkur darslikni o‘quvchilar etiboriga havola qilmoqdalar. Tayyorlangan darslikda yurtimiz va xorijiy davatlarda mavjud bo‘lgan gidrotexnika inshootlarini ekspluatatsiya qilish tajribalari keng yoritilgan.

Darslik **5340700 – Gidrotexnika qurilishi (suv xo‘jaligida) bakalavriatura ta’lim yo‘nalishlari** uchun mo‘ljallangan bo‘lib «Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish» fanining amaldagi namunaviy dasturlari asosida yozilgan. SHuningdek, ushbu darslikdan gidrotexnika inshootlarni ekspluatatsiya qiluvchi injener - texniklar, o‘rtacha maxsus kasb-xunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilari va talabalari, ilmiy tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Mualliflar ushbu darslikni mazmunini yaxshilashga o‘z hissalarini qo‘shtigan prof. D.R. Bazarov va "Davsuvxo‘jaliknazorat" inspeksiyasi bosh mutaxassis Z. Irisbaevlarga o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

Darslik sifatini yanada yaxshilash bo‘yicha takliflarni Toshkent shahri Qori Niyoziy ko‘chasi 39 - uya yuborishlaringizni so‘raymiz.

I. Kirish. Respublikamiz territoriyasida gidrotexnika inshootlarini rivojlanish tarixi

Er yuzining dehqonchilik uchun yaroqli kattagina qismida, shu jumladan Markaziy Osiyoda ham nam tanqisligi mavjud va shu boisdan insonlar, qadim zamonlardan boshlab, tabiiy omillar nomutano-sibligini tuzatish hamda erlarni suv bilan ta'minlanganligini oshirish uchun juda ko'p kuch va mehnat sarf qilib kelgan.

Markaziy Osiyoning jug'rofiy joylashgan o'rni, uning arid iqlimi, ya'ni havoning o'ta quruqligi, yozning issiq va yog'insiz bo'lishi, qishning nam va sovuq kelishi, ya'ni iqlimning keskin kontinental ekanligi va o'simliklar vegetatsiyasi davrida atmosfera yog'inlari kam bo'lishi sababli bu erdalarda sug'orish yo'li bilan dehqonchilik qilishni taqozo etgan.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan sug'orma dehqonchilik tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi, ya'ni u qariyb 10 ming yillik tarixga ega. Sug'orish bilan bog'liq kanallar va inshootlar qurish ishlari Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari vodiysida qadim zamonlardan boshlab olib borilgan. Mavjud tarixiy ma'lumotlar va arxeologik qazishmalar natijalariga ko'ra, Markaziy Osiyoda sug'orish ishlari bilan eramizdan avvalgi IX-VII asrlarda ham ota - bobolarimiz shug'ullanishgan. qadimgi Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm davlatlari, Farg'ona vodiysida sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanganligi, sug'orish tarmoqlari va suv saqlash inshootlarini qurbanligi bunga misol bo'ladi.

Misol uchun Zarafshon daryosida bundan 2,5 ming yil avval qo'l kuchi bilan bunyod etilgan va hozirgacha saqlanib qolgan Darg'om kanalini olib qaraydigan bo'lsak, ajdodlarimiz zukko mirob bo'lganligiga ishonch hosil qilamiz.

Bundan tashqari, Zarafshon daryosidan suv oluvchi qadimiy va hozirgi paytda ham foliyat ko'rsatayotgan Narpay, Mirzaariq, Shohrud, Vobkent, Pirmast, Sultonobod va boshqa ko'pgina kanallarni sanab o'tish mumkin.


Qadimiy davrda ko'pgina davlatlarning poytaxtlari daryo yoki kanal bo'yida barpo etilgan. Masalan Darg'om kanali Samarqand (Marokand) ni suv bilan ta'minlagan bo'lsa, Shohrud kanali Buxoro shahri ichidan o'tgan.

Olib borilgan arxeologik tadqiqot natijalarilari shuni ko'rsatdiki, Amudaryo ning quyi qismida irrigatsiya tarmoqlarini eng rivojlangan davri eramizdan avvalgi VI asrdan to eramizning III asrlarigacha bo'lган vaqtga to'g'ri keladi.

Saqlanib qolgan tarixiy hujjalarga ko'ra, Xorazm vohasi Markaziy Osiyoda sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanish maqsadida qurilgan eng qadimiy gidrotexnik inshootlar tizimiga ega bo'lgan hudud hisoblanadi. Fikrimizning dalili sifatida Amudaryodan Xorazmnинг o'ng qirg'og'idan to Sultoniztrog' balandligiga bo'lgan joylarni sug'orish uchun eramizgacha bo'lgan birinchi ming yillikning o'rtalarida qurilgan Gauxvar (Gavhar) kanalini keltirish mumkin.

Eramizning I-asrlarida Sultoniztrog' yon bag'irlarini sug'orish uchun Tuproq-qal'a kanalidan suv oluvchi kattagina tarmoq qurib bitkaziladi, G'aznaobod-Chermen-Yab kanalidan sug'oriladigan erlar ko'lami kengayadi, III-asrda g'arbiy qiyot kanali qurib bitkaziladi, IV asrda Guldursin va Berkut qal'a kanallari atrofida vohalarda sug'orma dehqonchilik ishlari yo'lga qo'yiladi. IX asrda Gurganj (ko'hna Urganch), G'aznaobod (Madra) kanali quyi qismida dehqonchilik tiklanadi, Amudaryoning quyi deltasi rayonlarini irrigatsiya o'zlashtirishi boshlanadi. SHu davrda SHovot (Shoxobod) va Buve kanallari qurilgan, X asrda Amudaryoning chap qirg'og'ida Xiva kanalidan ikkita tarmoq kanallari bunyod etilgan.

VIII asrda suv ko'tarib beruvchi qurilmalarning dastlabki vakillari-chig'iriqlar (1.1; 1.2 – rasmlar) Xorazmda birinchi bo'lib ishlataligan.




1.1 - rasm. Suv chiqaruvchi chig'ir



1.2 - rasm. Suv ko'taruvchi chig'ir.

SHuningdek, VIII asrdan Markaziy Osiyoda korizlar yordamida er osti suvidan sug'orish maqsadida foydalanish (1.3, 1.4 - rasmlar) amalga oshirigan.



1.3 – rasm. Koriz sxemasi:
1 – quduq; 2 – tunnel qismi; 3 – chiqish qismi (otverstie).



1.4 – rasm. Koriz qudug'i va undan suv chiqadigan joyi

Koriz – er ostidan o'tkazilgan murakkab suv inshootidir. Bunday irrigatsiya inshootini qurish nixoyatda og'ir va murakkab bo'lган. U mashaqqatli qo'mehnatidan tashqari er osti suvlari to'planadigan qatlamlari yil mavsumlarida bu

suvlari sathida ro'y beradigan o'zgarishlar va koriz chiqariladigan joy relefidagi nishablikni juda aniq belgilashni talab etgani.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra XII-XIII asrlarga kelib Xorazmda irrigatsiya ishlaringin biroz jonlanganligini guvohi bo'lamiz: G'aznaobod (g'azavot) kanali CHermen – YAb arig'i orqali SHohsanamgacha, Girya kanali Qavatqal'a rayoni-gacha etkaziladi.

Markaziy Osiyoda qadimiy va eng yirik kanal hisoblangan Toshsaqa kanali o'zining tarmoqlari hisoblanmish SHovot, Polvon va G'azovot kanal-lari ayni kunlarda ham faoliyat ko'rsatayotganligini aytib o'tish mumkin.

Toshkent vohasidagi sug'orish tizimlari asosan CHirchiq va Angren daryolarida qurilgan. Grek tarixchilarining ta'kidlashicha, Toshkent atrofidagi yirik kanallar eramizdan avvalgi III - II asrlarda ham mavjud bo'lgan.

SHosh vohasi shimoli - g'arbdan ko'chmanchi qabilalar hujumidan qadimiy Bo'zsuv arig'i va salobatli devor bilan himoyalangan edi, mazkur ariq shu kunga qadar saqlanib qolgan. Qadimiy kanallar masalan, Zax, Salor kanallari islam dini kirib kelgunga qadar bo'lgan nomlari bilan atalib kelinmoqda. Sirdaryo daryosining o'rta oqimida ikkala qirg'oq bo'ylab yirik sug'orish kanallari, shahar va qishloqlar izlari qolgan bo'lib, bundan 700...800 yil avval bu erlar kanallar bilan sug'orilishi natijasida voha gullab yashnagan. Aris daryosining Sirdaryoga quyilish joyida esa qachonlardir yirik savdo markazi bo'lgan O'tror shahri qurilgan bo'lib bugungi kunda uning xarobalari yastanib yotibdi.

Farg'ona vodiysida dehqonchilik qilish madaniyati asosan CHotqol va Farg'ona tog' tizmalaridan oqib tushadigan suvlardan shakllaniladigan Norin va Qoradaryo daryolarining qirg'oqlarida rivojlangan. Eramizgacha bo'lgan X asrlarda bu daryolarni suvidan erlarni sug'orish uchun foydalilanilgan. Farg'ona vodiysida joylashgan daryolarning bo'ylarida yirik qishloq va shaharlar: Kosonsoyda Kosonsoy va Axsikent; Marg'ilonsoyda Marg'ilon; Isfarasoymda Isfara; Xo'jabaqirgansoyda Xo'jand; Oqbura daryosida O'sh kabi shaharlar bunyod etilgan.

Keyinroq barpo etilgan shaxarlarga esa So'x daryosi bo'yida yuzaga kelgan Qo'qon (200 yil avval), Namangansoyda esa Namangan (350 yil avval) shaharlarni misol keltirishimiz mumkin.


Taniqli sharqshunos olim V.V.Bartoldning fikriga ko'ra, Farg'ona vodiysi-dagi kanallar Xorazm vohasidagi, Zarafshon va CHirchiq daryo-lariga qurilgan inshootlarga nisbatan ancha keyinroq, ya'ni XVI - XVII asrlarda paydo bo'lgan. Uning yozishchicha ana shu davrda Qoradaryo va Norin daryolaridan kanal qazib chiqarilgan. Qo'qon xonlari davrida qurilgan kanallardan so'g'orilgan maydonlar o'z o'lchamiga ko'ra, Turkiston tarixida beqiyos o'rinni tutadi.

Biroq, Markaziy Osiyoda tez-tez bo‘lib turgan qirg‘inbarot urushlar, nizolar va kelishmovchiliklar sug‘orish tizimlari va shahar, qishloqlarni vayronaga aylantirgan. Birgina necha asrlarga iz qoldirgan XIII asrdagi CHingizzon boshchiligidagi mo‘g‘ul bosqinchilari yurishlarini esga olish kifoya. Ularning istilosи tufayli yuzlab shahar va qishloqlar vayron qilindi, irrigatsiya inshootlari, shu jumladan Amudaryodagi to‘g‘on buzib tashlandi, natijada Xorazmshohlar davlati poytaxti bo‘lgan Gurganj shahri suv ostida qolib ketdi.

Olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Jizzax va Samarqand viloyatlari hududida suv omborlari barpo qilish maqsadida toshdan qurilgan bir nechta to‘g‘onlar qoldiqlari topildi. Mazkur to‘g‘onlar ishlash tamoyiliga ko‘ra, hozirgi qurilayotgan suv omborlaridan farq qilmasligi o‘sha davrlarda ham ajdodlarimiz bu sohada malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar bo‘lganidan dalolat beradi.

Nurota, Forish va qo‘shni tuman hududlaridagi soylarda suv ombor-lari bunyod etish maqsadida qurilgan to‘g‘onlarni uchratish mumkin. Misol tariqasida Forish tumanida X asrda Osmon soyida qurilgan Xon to‘g‘onini, Kattaqo‘rg‘on tumanida XII asrda qurilgan g‘isht to‘g‘onni va Nurotaning sharq tomonidagi Axchop soyida qurilgan Abdullaxon to‘g‘onlarini keltirish mumkin.

Xon to‘g‘oni ikki tomoni qattiq tog‘ jinslaridan iborat bo‘lgan Osmon soyining tor erida barpo etilgan bo‘lib, uning uzunligi 50 m, balandligi esa 15,2 m ni tashkil etgan (1.5 - rasm.).



1.5 - rasm “Xon” to‘g‘oni qoldiqlari

Xon to‘g‘onini qurishda qattiq tog‘ jinslari (toshlar) ishlataligan, ular ganch yordamida birlashtirilgan. Suv omboridagi suv sathi uzunligi 700 m, to‘g‘on


oldidagi kengligi 50 m, suv dami etib borgan erdag'i kenglik 200 m ga teng bo'lib, hajmi 1,5 mln. m³ ni tashkil qilgan. Bu esa Kaltepa cho'lidagi 2...3 ming ga erni sug'orish imkonini bergen. Toshqin vaqtida to'plangan suvlarni suv omboridan chiqarish va undan ekinlarni sug'orish maqsadida foydalanish uchun to'g'onning o'ng tomoniga, qirg'oqqa yaqin qilib ravoq shaklida kengligi 50 sm va balandligi 7 m bo'lgan quvur o'rnatilgan. To'g'on hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan, biroq suv ombori asrlar davomida Osmon soyidan oqib kelgan tosh va loyqa hisobiga o'z hajmini yo'qotgan.

Abdullaxon to'g'oni XVI asrda qurib bitkazilgan bo'lib, o'zining tuzilishi va konstruksiyasi jihatdan juda hayratlanarlidir. To'g'onning balandligi 15 m, ustki qismining uzunligi 73 m, eni 4,5 m, tag qismining uzunligi 73 m va eni 15 m ni tashkil etadi. To'g'on oldidagi suv chuqurligi 15 m bo'lganida suvning dami 1250 m masofagacha suv omborida to'plangan suv 2,5...3,0 ming ga erni sug'orish imkonini bergen (1.6 - rasm)



1.6 - rasm. "Abdullaxon" suv ombori to'g'onining qoldig'i

Abdullaxon to'g'oni ortiqcha suvlarni chiqarib yuborgich (tashlama) vazifasini bajargan. Sug'orish ehtiyojlari uchun esa suv omboridan suv chiqarish boshqariladigan quvurlar orqali amalga oshirilgan. Mazkur to'g'on hozirgi paytgacha saqlanib qolgan (1.7 - rasm).



1.7 - rasm. "Abdullaxon" suv ombori to'g'onining bugungi kundagi holati

XIX asr o'rtalarida, hozirgi O'zbekiston hududida Buxoro amirligi. Qo'qon va Xiva xonliklariga tegishli ma'muriy hududlar mavjud bo'lga. Bu hududlarda 3,5 millionga yaqin aholi istiqomat qilgan. Aholining 90 % qishloq xo'jaligi – dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Usha davrdagi so'g'oriladigan erlar maydoni 1,6 – 1,8 millionga yaqin bo'lganligi taxmin qilinadi. Demak, o'sha davrda jon boshiga o'rtacha 0,45 – 0,5 ga so'g'oriladigan er maydoni to'g'ri kelgan.

O'tgan asrlarda kanallarning bosh inshooti muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan, u ehtiyyotlik bilan qo'riqlangan, chunki ularni egallab olish yo'li bilan sug'orish tizimini suvsiz qoldirib, aholini bo'y sun-ishga majbur qilgan. Misol uchun X asrda Darg'om kanalini boshini qo'riqlash Vargsar qishlog'i aholisiga topshirilgan, ular o'z navbatida er solig'idan ozod qilingan (Bertold, 1965).

O'tgan asrlarda qurilgan gidrotexnika inshootlar loyihasiz, hashar usuli bilan qurilgan, ularning qurish muddati cho'zilib ketgan, inshootlarni texnik holatini kuzatish, ularga texnik xizmat ko'rsatish (texnik qarov) etarli bo'limganligi sababli, ular bahorgi birinchi sel va toshqin oqibatida buzulib ketgan. XIX asrga kelib Rossiya imperiyasi paxta etishtirishni oshirish maqsadida, yangi kanallar qurish yo'li bilan, Mirzacho'lda (1869 y) va Farg'ona vodiysida (1887 y) qo'shimcha erlar o'zlashtirishga harakat qilishgan. Sug'orma dehqonchilik rivojlangani sari unga bog'liq bo'lgan muammolar ham paydo bo'la boshlagan, yani dalalari yonma-yon bo'lgan va bir ariqdan suv ichadigan dehqonlar o'rtasida suv ustida har xil nizolar kelib chiqsa boshlagan. Qadim davrda suvni ta'qsimlash masalasida janjal ko'tarilganda

ularni shariat qoidalar va yo'l - yo'riqlardan foydalanib echishga xarakat qilingan. SHunday qoidalardan biri tarixshunos Davletshinning «Suvdan foydalanish va erdan foydalanish soxasida musulmon (shariat) huquqshunosligining ko'rsatmalar majmun» asaridir. Muallif qo'l yozmani tuzishda, o'rta asrlarda yashab o'tgan, fikx ilmining yirik namoyanlaridan Fatx al - Qodir, Ibn Abidin, SHayx Ilyos va boshqalarning asarlariga murojat qilgan. SHuningdek, o'rta asrda yashab o'tgan Fatxal - Kodir asari ham suv muammolarini echishga bag'ishlangan. Kitoblar o'sha davrda arab tilida chop qilinganligi sababli ulardan foydalanish, aholisi arab tilini bilmaydigan davlatlarda, mushkul bo'lgan. SHu sababli, yuqorida nomlari ta'kidlangan kitoblarda keltirilgan shariat ko'rsatmalarining eng asosiyilari – xayotda tez-tez uchrab turadigan xolatlar va munosabatlarga bag'ishlanganlari, shariat bilimdonlari tomonidan o'z tillariga ag'darilgan. Bu ko'rsatmalar maxalliy aholining turmush tarzida, ulf - odatlarida o'zaro munosabat-larida o'z aksini topgan va «Odat» nomi bilan avloddan avlodga og'zaki o'tib kelgan.

Suvdan foydalanish soxasida «Odat» nomi bilan atalmish shariat ko'rsatmalari tarkibiga quyidagilar kirgan:

- daryo va ko'llarning suvini ko'pchilikka tegishlilagini tan olish;
- suvning ersiz sotilishini ma'n qilish;
- manbada suv kamchil bo'lgan xollarda uni insof bilan hammaga barobar (er maydoniga mutanosib) bo'lish;
- suvni ariqlarga bo'lganda ulushlarga (ayni vaqtida manbadan oqib o'tayotgan suv miqdoriga mutanosib ravishda) asoslanish yoki galma-gal ravishda (ariqlarda suv etishmaganda) ma'lum vaqt foydalanish;
- har bir suvdan foydalanuvchining o'z shaxsiy mehnat va kerakli qurilish ashyolari bilan irrigatsiya ishlarida (qurishda, tozalashda) qatnashishi, uning burchi ekanligini tan olish;
- suvdan foydalanishni o'z-o'zini boshqarish prinsipida amalga oshirilishi;
- nisbatan ko'p suv talab qilganligi uchun sholi eqiladigan maydonlarni chegaralash, ma'lum ariqlar tizimidan suv ichadigan barcha suvdan foydalanuvchilarning roziligi bilangina sholini ekishga ruhsat berish;
- o'zgalar erlаридан ariq o'tkazganda bundan keladigan zararlarni er egalariga to'lash majburiyati va boshqalar.

To'la bo'limasa ham ushbu ko'rsatmalardan ko'rinish turibdiki, ota-bobo-larimiz mavjud suv resurslaridan insof bilan, oqilona foydalanishga xizmat qiluvchi, ko'pchilikning manfaatlariga mos tushadigan xayotiy qoida va tadbirlarni yarata bileganlar.


Daryolardan ariqlar orqali oqizib kelgan suvni suvdan foydalanuvchilar o'rtasida ~~o'satishda~~ bo'lishda suv o'lchov asboblari xali noma'lum bo'lgan davrlarda «bir

tegirmon, yoki ikki tegirmon suv», yoki ko'za «suv» yoki «mardi-kurak» atalmish prinsiplarda o'zaro taqsimlangan. Bunday taqsimlash usuli o'tgan asrning 20-30 yillarigacha Markaziy Osiyo davlat-larida, jumladan O'zbekiston xududidagi erlarda ariq oqsoqoli, mirob va to'g'onchilar tomonidan qo'llanilib kelingan.

Ariq oqsoqoli, mirob yoki to'g'onchi bir tomonidan shu nom bilan ataluvching lavozimi bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu uning bilimi va tajribasi uchun berilgan unvon ham hisoblangan. Mirob ma'lum bir ariqdagi suvni xaydab kelish va uni suvdan foydalanuvchilarga bo'lib berish, tashkiliy ishlarda (ariq qazish, inshoot qurish, tozalash va ta'mirlash) dehqonlarga yaqindan yordam berishi kabi ishlar bilan shug'ullangan. Mirob mahsus amaliy bilim va tajribalardan tashqari shariat qonun - qoidalaridan xabardor va dexqonlarni boshini qovushtirib ishlatish ko'lidan keladigan qobiliyatga ega bo'lishi lozim bo'llgan.

Ariq oqsoqoli odatda bir nechta qishloq erlariga suv beradigan yirik kanal (ariq) boshida to'rgan, uning qo'l ostida bir nechta miroblar o'z ariqlarida ish boshilik qilganlar. Ariq oqsokoli lavozimiga mirob-lar ichidan eng obro'li va ish bilarmoni tanlab olingan. SHuningdek, sug'orish tizimida «To'g'onchi» lavozimi ham mavjud bo'lgan, bu lavozimga saylangan kishi asosan to'g'on qurish bilan mashg'o'l bo'lgan. Ular «sepoya» (1.8 – rasm), «chorpoya», «qora buyra» kabi moslamar yordamidan manbadan suv olish ishlariga bevosita rahbarlik qilganlar.

Turkiston o'lkasida CHor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati davrida ham sug'orish turmoqlaridan foydalanish maxalliy urf - odatlar asosida amalga oshirilgan. Faqat «Irrigatsiya amaldorlari, uezd boshliqlari ariq oqsokollari va miroblarning huquqlari va vazifalari to'g'risida ko'rsatmalar» ishlab chiqilgan. Ariq oqsokollari harbiy gubernator tomonidan tayinlangan. CHor Rossiyasining Turkiston o'lkasida, so'g'oriladigan maydonlarni ko'patirish maqsadidagi xarakatlari maxalliy xalqlar xayotida ma'lum darajada ijobiy rol o'ynagan.



1.8 - rasm. Daryo o'zaniga sepoya o'rnatish.

Bu davrlarda Turkiston o'lkasiga CHor Rossiyasi va boshqa Evropa mamlakatlaridan, turli soxaga mansub yuqori malakali mutaxassis olimlarning katta guruhi ko'chib kelib faoliyat ko'rsata boshladi. Ular O'rta Osiyoga Evropa madaniyatini, ilmiy tarraqiyotini va o'sha davrda ilg'or hisoblangan texnikalarni ham olib keldilar. Ayniqsa ular tomonidan irrigatsiya soxasiga ilk bor irrigatsiya inshootlarini loyiha va smetalar asosida qurish; loyihalashni dala - qidiruv ishlari natijalariga tayangan xolda amalga oshirish tajribasini qo'llay boshladilar. Ular tomonidan gidrotexnik inshootlarni qurishda yangi qurilish materiallari beton, temir beton va metal konstruksiyalar ishlatala boshlandi, daryolarning gidrologiyasi, ob - havoni o'rganish stansiyalarini qurish; erlarning tuproq tarkibi va ekinlarni gidromodulini o'rganish masalalari kabi ilmiy - amaliy ishlar olib borildi. Keyinchalik bu ishlar biri qator loyiha - qidiruv va ilmiy-tekshirish institutlarini tashkil bo'lishiغا, oliv ta'lim institut-larida mutaxassislik kafedralari tashkil qilinishiga asos bo'ldi.

Ayni paytda Respublikamizda sug'orish uchun yaroqli erlar 15,9 mln. gektarga teng bo'lib, bugungi kundagi so'g'oriladigan maydon 4,3 million gektarni yoki umumiyl maydonning 9,3 % ini tashkil etadi. qishloq xo'jaligida olinadigan mahsulotlarning 95 % dan ko'prog'i so'g'oriladigan erlar hissasiga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda Respublikamiz qudratlari suv xo'jaligi majmuasiga ega, uning tarkibida umumiyl suv sarfi sekundiga 2500 m^3 dan ortiq 75 ta yirik kanal, umumiyl hajmi 20 mlrd, m^3 atrofida bo'lgan 55 suv va 25 sel omborlari, 230 ta xo'jaliklararo sug'orish tizimida 117 mingdan ortiq gidrotexnika inshootlari, 32,4 ming km xo'jaliklararo kanallar, 176,4 ming km ichki s o'g'orish tarmoqlari, 31 ming km xo'jaliklararo, 106,3 ming km xo'jalik ichki zovur tarmoqlari, 13 mingga yaqin nasos agregatlari, 2 mingdan oshiqlar, sug'orish quduqlari, 4800 dan oshiqlar.

zovur quduqlari mavjud. Bugungi kunda Respublikamizda ishlab to'rgan asosiy yirik kanallar va suvomborlari haqidagi ma'lumotlar 1.1; 1.2 – jadvallarda keltirilgan.

Respublikadagi asosiy yirik kanallar

1.1-jadval

Kanallar nomi	Suv olish manbai	suv sarfi, m ³ /sek	Uzunligi, km	Foydalanish boshlangan yil	Sug'orishn maydoni (ming.ga)
SHahrixon	Qoradaryo	115	114,8	1987	141,0
Andijon	Qoradaryo	45	81,9	1903	46,7
Savvoy	Qoradaryo	25	47,8	1926	18,0
Paxtaobod	Qoradaryo	30	40,9	1936	17,4
YUqori Ulug' nor	Qoradaryo	30	190,4	1960	9,7
Janubiy Farg'ona	SHaxrixon kanali	100	57,0	1939	75,8
Katta Namangan	Norin daryosi	61	90,0	1974	24,0
Katta Farg'ona	Norin va Qoradaryo	150	249,0	1939	263,4
Katta Andijon	Norin daryosi	200	102,0	1970	70,2
SHimoliy Farg'ona	Norin daryosi	113	165,0	1940	74,0
Oxunboboev nomli	Sirdaryo	80	48,4	1949	36,0
Janubiy Mirzacho'l	Sirdaryo	300	124,0	1960	290,5
CHap qirg'oq Qorasuv	CHirchiq daryosi	160	594,0	1922	150,0
Parkent	CHirchiq daryosi	57	58,0	1979	40,0
Bo'zsov	CHirchiq daryosi	290	138,0	1900	99,0
YUqori CHirchiq	CHirchiq daryosi	87	35,0	1943	6,0
Eski Tuyaortar	Zarafshon	32	108,3	1912	32,0
O'ng qirg'oq	Zarafshon	117	71,4	1930	82,8
Darg'om	Zarafshon	120	10,2	1930	9,0
Eski Anhor	Zarafshon	60	88,0	1973	49,0
Zang	Surxondaryo	85	88,0	1955	49,3
SHerobod magistral kanali	Surxondaryo	150	12,7	1970	52,6
Amu - zang magistral kanali	Amudaryo	50	56,0	1973	143,0

Qarshi magistral kanali	Amudaryo	220	86,0	1972	260,0
Amu-Buxoro magistral kanali	Amudaryo	300	186,0	1965	250,0
Toshsoqa	Amudaryo	480	100,0	1939	300,0
Urgancharna	Amudaryo	35	53,5	1937	9,7
Oktyabrarna	Amudaryo	133	54,0	1933	14,0
Kattag'or	Amudaryo	75	16,6	1979	9,0
Raushan	Amudaryo	150	43,4	1975	7,9
SHox-rud shaxobchasi	Amu-Buxoro mashina kanali	100	11,0	1937	91,7

Respublikadagi yirik suv omborlar

1.2-jadval

Suv omborlarining nomi	Suv olish manbai	Joylashgan o'rni (viloyat)	Suv omborining turi	Loyihaviy hajmi, mln. m ³
Andijon	Qoradaryo	Andijon	o'zanli	1900,0
SHo'rko'l	Zarafshon daryosi	Buxoro	quyilma	450,0
Jizzax	Sangzor daryosi	Jizzax	quyilma	87,5
Zomin	Zomin daryosi	Jizzax	o'zanli	35,0
Qorovultepa	Eski tuyaortar kanali	Jizzax	quyilma	53,0
Quyimozor	Amu-Buxoro kanali	Navoiy	quyilma	350,0
To'dako'l	Amu-Buxoro kanali	Navoiy	quyilma	1000,0
Tallimaron	Qarshi bosh kanali	Qashqadaryo	quyilma	1525,0
Pachkamar	G'uzor daryosi	Qashqadaryo	o'zanli	260,0
CHimqo'rg'on	Qashqadaryo	Qashqadaryo	o'zanli	500,0
Hisorak	Oqsuv daryosi	Qashqadaryo	o'zanli	170,0
Dehqonobod	Kichik O'ra daryosi	Qashqadaryo	o'zanli	18,4
Qamashi	Langardaryo	Qashqadaryo	quyilma	25,0
Oq daryo	Oqdaryo	Samarqand	o'zanli	130,0
Qattaqo'rg'on	Zarafshon daryosi	Samarqand	quyilma	900,0
Janubiy Surxon	Surxondaryo	Surxondaryo	o'zanli	800,0

To'polang	To'polang daryosi	Surxondaryo	o'zanli	500,0
Uchqizil	Zang kanali	Surxondaryo	quyilma	160,0
Ohangaron	Ohangaron daryosi	Toshkent	o'zanli	200,0
Tuya bo'g'iz	Ohangaron daryosi	Toshkent	o'zanli	250,0
CHorvoq	CHirchiq daryosi	Toshkent	o'zanli	2000,0
Karkidon	Quvasoy daryosi	Farg'ona	quyilma	218,0
Tuyabo'yin	Amudaryo	Xorazm	quyilma	7800,0

II. Gidrotexnika inshootini foydalanishga topshirish

2.1. Inshootni qurish davrida bajariladigan nazorat ishlari

Qurilayotgan suv xo'jalik inshootlarining sifati loyiha mos kelishini nazorat qilish maxsus tuzilgan ishchi gurux va inshoot loyihasini bajargan tashkilot tomonidan olib boriladi. Kuzatish natijasida qurilayotgan inshootni loyiha mos kelishi ta'minlanadi. Qurilish davrida o'tkazilgan kuzatishlar inshootning ishlatish davridagi kuzatish natijalarini tahlil qilish uchun boshlang'ich ma'lumot sifatida xizmat qiladi. Gidrotexnik inshootiga o'rnatilishi lozim bo'lgan nazorat o'lchov apparaturalarini (NO'A) joylashtirish qurilish davrida quruvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

Qurilish davrida bevosita kuzatish ishlarni olib boruvchi guruh tarkibiga: guruh rahbari, o'rinnbosari, asbobshunoslar, slesarlar, slesar-elektriklar, operatorlar, kuzatuvchilar, texnik-chizmakashlar kiradi. NO'Alarni o'rnatish yoki ko'p sonli kuzatishlar olib borish bo'yicha katta hajmdagi ishlarni bajarish davrida, guruh tarkibi ko'paytiri-lishi, keyinchalik ish hajmi kamayganda esa kamaytirilishi mumkin. Bevosita kuzatishlarni olib borayotgan guruhning a'zolarini kuzatish ishlari aloqasi bo'lmaganboshqa ishlarga jalb qilishga ruxsat berilmaydi. Qurilish jarayonida vaqtincha kuzatishlarolib borishga uchun ishchiguruuhga qurilish – montaj ishlari bo'yicha mutaxassislar (geodeziyachilar, armaturachilar, kovsharlagichlar, yog'och ustalari, burg'u-lovchilar va boshqalar) jalb qilish mumkin. Ishchi guruh rahbari bevosita texnika bo'limi boshlig'iga yoki bosh injenerga bo'ysinadi.

Gidrotexnika inshootlarni qurish davrida NO'Alar va ularning elementlarni shikastlanmasligi uchun barcha choralarini ko'rish lozim. Buning uchun NO'A yaqinida ko'p sonli texnika va ishchilarni to'plab qurilish – montaj ishlarni olib borishga yo'l qo'yilmaydi .Bundan tashqari NO'Alarni montaj qilish texnologiya-

sini bajarilish sifati, ularning gidroizolyasiya qilinishi va o'rnatilgandan so'ng ularni ishslash holati kuzatib boriladi.

2.2. Qurilishi tugallangan gidrotexnika inshootni foydalanishga topshirish

Qurib bitkazilgan gidrotexnika inshootni o'z vaqtida ishga tushirishga tayyorlash uchun buyurtmachi tashkilot mas'ul hisoblanadi.

Loyiha tashkilot esa gidrotexnik inshootning ishga tushirish quvvatlari va boshqa texnik -iqtisodiy ko'rsatgichlarini loyihada ko'zda tutilgan qiymatlarga mos bo'lishi uchun javobgar hisoblanadi.

Qurilish - montaj tashkilotlari, qurilish - montaj ishlarini sifatli va standart (me'yor)lar talablariga javob beradigan qurilish materiallari va konstruksiyalaridan sifatli qilib, loyihada belgilangan muddatlarda bajarilishi, montaj qilgan uskunalarini sinovdan o'tkazishi, qurilish -montaj ishlari va uskunalarni kompleks sinovdan o'tkazish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishi, hamda ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirilishi uchun javobgar hisoblanadi.

Respublikamizda qurilishi tugallangan ob'ektlar, shu jumladan gidrotexnika inshootlarini foydalanishga qabul qilishiga tayyorgarlik va qabul qilish shaharsozlik normalari va qoidalari SHAQ 3.01.04-04 «Qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilish. Asosiy holatlar» bo'yicha amalga oshirish tartibi o'rnatilgan. Unga muvofiq qurilishi tugallangan gidrotexnika inshootni ishga tushirishga tayyorlash uchun buyurtmachi (qurilish egasi) tomonidan ishchi xayat tuziladi, uning tarkibiga buyurmachining vakili - hay'at raisi, foydalanuvchi tashkilot-lar, bosh pudratchi, sub pudrat tashkilotlari, bosh loyihami va arxitektura tashkiloti, sanitariya nazorati, yong'in nazorati organlari, Davlat arxitektura va qurilish nazorati, Davlat mehnat texnik inspeksiyasining vakili, shuningdek manfaatdor tashkilotlar va nazorat organlari vakillari kiritiladi.

Qurilishi tugallangan gidrotexnika inshootlarini Davlat qabul hay'atiga taqdim etishga tayyorgarlik davrida, Bosh pudrati ishchi hay'at a'zolariga quyidagi hujjatlarini taqdim qiladi:

- bajarilgan ish turlarini bajarishda bevosita ishtirok etgan qurilish-montaj tashkilotlarining ro'yxati;

- loyiha tashkilotlari ishlab chiqqan, qabul qilinayotgan ob'ektning qurilishi davrida kiritilgan o'zgartirishlari asoslangan yozuvlari bilan ish chizmalari komplekti, ya'ni ijro hujjatlari;

- qurilish-montaj ishlarida qo'llanilgan materiallari, konstruksiyalar va detallarning sifati va xavfsizligini tasdiqlovchi sertifikatlar, texnik pasportlar va boshqa hujjatlar;

- bekilib qoladigan ishlar, ayrim mas'ul konstruksiyalar (tayanchlar, oraliqqrilmalar, ravoqlar, tayanch devorlar, tutib turuvchi metall va temir-beton konstruksiyalar), choklar, kotlovanlar, asoslar, NO'Alarini qabul qilish dalolatnomalari, shuningdek gruntlar, qurilish materiallari va konstruksiyalarini laboratoriya sinovlari natijalari (dalolatnomalar);

- montaj qilingan uskunalarining sinov dalolatnomalari; texnologik quruv o'tkazgichlar, suv ta'minoti, kanalizatsiya, isitish va havo almash-tirish, kanalizatsiya, drenaj tizimlari, yog'-bosimli qurilmalar, boshqa tarmoqlarining sinab qo'riganligi to'g'risidagi, inshootlarning er osti qismi gidroizolyasiyasi, choklar germetikligi to'g'risidagi dalolatnomalar;

- telefon, radio, telemetrik qurilmalar, signalizatsiya va avtomatizatsiya qurilmalarining sinovlari dalolatnomalari;

- ichki va tashqi elektr qurilmalari va elektr tarmoqlari sinovlari to'g'risidagi d alolatnomalari;

- portlash, yong'in xavfsizligi va chaqmoqdan muhofaza qilish qurilmalarining sinovlari dalolatnomalari;

- ishlarni bajarilishi ustidan loyiha tashkilotlari o'tkazgan mualliflik nazorati jurnallari va davlat hamda nazorat organlari o'tkazgan tekshirish va sinovlar materiallari;

- qurilish montaj ishlari sifatini tasdiqlovchi *kafolat pasporti*.

Bosh pudratchi yuqorida sanab o'tilgan hujjatlardan tashqari, gidrotexnika inshootlarning texnik ishlatish qoidalari va ko'rsatmalari, gidrotexnik va elektr-kuchlanish qurilmalarini, NO'Alarini zavodlardan olingan texnik pasportlari va ishlatish qoidalari, inshootlar qurilgan, tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari, lavozimiylar ko'rsatmalari, texnika xavfsizligi qoidalari, gidrouzeldalolatnomalari, toshqin va sel suvlarini o'tkazishdda e'tiborga olish lozim bo'ladigan tavsiyalar, inshootlarni qish davridaishlashini xarakterlaydigan materiallar, inshootlar deformatsiyalari, beflardagi suv sathlarini o'lchash, inshootlar cho'kishi, pezometrik sathlar albomlari va jurnallari hamda sh.o'. materiallarni ishchihay'atga taqdimqladi.

Gidrotexnika inshootlari pasportlarida: inshootning nomi, vazifasi, qurilishni boshlangan va ishlatishga topshirilgan yoki rekonstruksiya qilingan yili (sanasi), balans bahosi, xavfli shikastlanish yoki deformatsiyalari ko'rsatilib, inshootlarning holati to'risidagi ma'lumotlar, nazorat-inspektorlik tekshiruvlarining qisqacha natijalari, o'tkazilgan kapital ta'mirlashlarva sh.o'. ko'rsatiladi. Inshoot ishlatishga topshirilayotganda uning pasportiga amaldagi o'zgarishlar, qo'shimchalar, loyihadan chetga chiqishlar, qurilishni bajarishda yo'l qo'yilgan buzulish (defekt)lar ko'rsatilib, aniqlik kiritiladi. Bunda pasportga inshootning asosiy qirqimlari, lozim bo'lsa fotosuratlari va sh.o'. ilova qilinadi. Undan keyin, ishlatish

davrida, har yili, pasportga tekshirib chiqish, kuzatish ishlari va sh.o'. ishlarning natijalari qo'shilib boriladi. Inshootining texnik pasporti uni ekspluatatsiya qiluvchi va uning yuqori tashkiloti arxvida saqlanadi. NO'Alarining pasportlari ekspluatatsiya tashkilotida saqlanadi. Pasportlarni saqlash va ularga o'z vaqtida aniqliklar kiritib, to'ldirib borish uchun mas'uliyat ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot boshlig'i yoki uning bosh injeneri zimmasiga yuklanadi.

Qurilishi tugallangan gidrotexnika inshootlarini ishlatishga topshirishga tayyorgarlik davrida, ishchi hay'atlar quyidagi ishlarni amalga oshirishlari shart bo'ladi:

- bajarilgan qurilish-montaj ishlari, inshootlar konstruksiyalari, o'rnatilgan jihozlarni loyiha, shuningdek sanitariya, yong'in xavfsizligi qoidalari hamda qurilish me'yorlari va qoidalari mosligini tekshirib chiqiladi, lozim bo'lsa, belgilar tekshiriladi, konstruksiyalar (choklar) sinab ko'rildi, zilzilabardoshlik tadbirlarini bajarilishini tekshirib chiqiladi;

- o'rnatilgan uskunalarni (jihozlarni) yakka sinovdan o'tkazadi va dalolatnoma asosida kompleks sinovdan o'tkazish uchun qabul qiladi, ularni kompleks sinovdan o'tkazib, dalolatnoma tuzadi va davlat qabul hay'atiga taqdim etishga mumkin ekanligi to'g'risida qaror qabul qiladi;

- Davlat qabul hay'ati foydalanishga taqdim etilalayotgan ob'ektning texnologik ko'rsatkich (suv sarfi, napor, elektr energiyasi ishlab chiqarishi, suv hajmi va sh.o'.) larni ta'minlashi bo'yicha tekshiruvlar o'tkazadi hamda ob'ektni ishlatuvchi kadrlar – ekspluatatsiya xizmati xodimlari bilan to'ldirilganligini, barcha texnik hujjatlar, materiallar va jihozlarning zahira hajmlari mavjudligini tekshirib chiqadi

Tayyorgarlik ishlari tugagandan so'ng ishchi hay'at ob'ektni ishlatishga tayyorligi to'g'risida belgilangan shaklda dalolatnoma tuzadi hamda jamlanma materiallarni tayyorlaydi.

Gidrotexnika inshootlarini foydalanishga qabul qilish Davlat qabul hay'ati tarkibiga: burtmachi (qurilish egasi), foydalanuvchi tashkilot, bosh pudratchi, xoqimiyat, bosh loyihami, Davlat arxitektura va qurilish nazorati, sanitariya, yong'in nazorati, tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, mexnat muxofazasi inspektori, mablag' bilan ta'minlagan bank, «Davsuvxo'jalik-nazorat» inspeksiysi, Davlat energetika nazorati, Suv xo'jaligi vazirligi, texnologik uskunalarni tayyorlagan zavodlar vakillari kiradi.

Buyurtmachi yuqorida sanab o'tilgan hujjatlarga qo'shimcha, Davlat qabul hay'atiga quyidagi hujjatlarni taqdim qiladi:

- qabul qilish dalolatnomasi va ishchi hay'atlar tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartarf etilganligi to'g'risida ma'lumotnoma;

- foydalanishga qabul qilinayotgan ob'ektni loyihalashda ishtirok etgan loyihalash va ilmiy - tadqiqot tashkilotlari ro'yxati;
- er uchastkasi ajratish hujjatlari, qurilishni amalga oshirishga Davlat arxitektura va qurilish nazorati tomonidan berilgan ruxsatnoma;
- suvdan foydalanuvchilar ro'yxati;
- qurilish uchun geodezik rejalash asosi, shuningdek qurilish davrida amalga oshirilgan geodezik ishlar hujjatlari;
- qurilish maydonining geologiya va gidrogeologiya tuzilishi, grunt va sizot suvlarini tahlili natijalari bo'yicha hujjatlar;
- ishchi hay'at tomonidan tuzilgan dalolatnomalar;
- ob'ektni ekspluatatsiya xizmati bilan sanitariya – maishiy ta'minlanganligi to'g'risidagi ma'lumotnomada;
- elektr ta'minoti va aloqa kommunikatsiyalari, nazorat yo'llari bilan ta'minlanganlik to'g'risidagi ma'lumotnomalar;
- qurilishning haqiqiy narxi to'g'risidagi (buyurtmachi va pudratchi imzolagan) ma'lumotnomada;
- ishchi hay'at tayyorlagan jamlanma materiallar va hujjatlar.

Davlat qabul hay'ati ishchi hay'atlar tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etilganligini, ob'ektni foydalanishga tayyorligini tekshirib chiqadi. Ob'ektning umumiy texnologik va me'moriy-qurilish echimlarini progressiv baholaydi, ob'ekt bahosini haqiqiy narxga mosligini tekshiradi, chetga chiqishlar bo'lsa ularni vujudga kelish sabablarini tahlil qiladi hamda natijalarni takliflar bilan birga hay'atni tayinlagan organga taqdim etadi, lozim bo'lsa sinovlar, tekshirishlar belgilaydi.

Davlat qabul hay'ati barcha yig'ilgan hujjatlar bilan birga ob'ektni qabul qilish to'g'risidagi dalolatnomani hay'atni tayinlangan organga taqdim qiladi. Organ o'z navbatida buyruq bilan dalolatnomani tasdiq-laydi va barcha hujjatlarni foydalananuvchi tashkilotga saqlash va foyda-lanish uchun beradi. Qurilish boshlangan davrdan boshlab kuzatish ishlarini olib borgan guruh tarkibi to'lig'icha foydalananuvchi tashkilot ekspluatatsiya xizmati tarkibga o'tkaziladi.

2.3. Gidrotexnika inshootini ekspluatatsiya qilish qoidalari tuzish bo'yicha ko'rsatmalar

Har bir gidrotexnika inshootining ekspluatatsiya xizmati o'z funksiyasini yaxshi bajarishi, o'z vaqtida inshootlarga texnik qarovni o'tkazishi, kuzatish ishlarini olib borishi, ta'mirlash va qayta tiklash, zamonaviylashtirish ishlarini amalga oshirishi. inshootlardagi ushbu ekspluatatsion tadbirlarni rejalashtirish va hisobot ishlarini, shu-ningdek suv taqsimlash ishlarini to'g'ri bajarilishini ta'minlash maqsadida inshootlarni ishlatish qoidalari (ko'rsatmalar) ishlab chiqiladi. Ishlatish

bo'yicha qoidalarni tuzish uchun esa davlatimiz organlari tomo-nidan qobil qilingan me'yoriy hujjatlar asos bo'ladir.

Ishlatish qoidalari tuzilishi lozim bo'lgan gidrotexnika inshootlari qatoriga barcha gidrotexnika inshootlari: shu jumladan suv ombor-lari, daryoga qurilgan gidrouzellar, yirik magistral kanallar, yirik nasos stansiyalari va ularning kaskadlari, barcha turdag'i GESlar va ularning kaskadlari va sh.o.'lar kiradi.

Har bir holat uchun texnik ishlatish qoidalari inshootlar turiga va vazifasiga qarab o'z xususiyatiga ega bo'ladi, ularning prinsipial farqi judayam kam bo'ladi. Quyida misol tariqasida suv ombori gidrouzelini texnik ishlatish qoidalarni tarkibini ko'rib chiqamiz, u qo'yidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Daryo, suv ombori, gidrotexnika inshootlari va suvdan foydalanuvchilarga qisqacha xarakteristikalar.
2. Suv resurslaridan foydalanish rejimi va gidrouzel inshootlarini ishlatish xususiyatlari.
3. Gidrometeorologik xizmat ko'rsatish va sanitariya muhofazasi.
4. Gidrouzel inshootlari texnik holatini kuzatish va nazorat qilish ishlarini tashkil etish. Kuzatish ishlarining masalalari, nazorat qilish turlari, nazorat qilish xizmatini tashkil qilish, inshootlarni NO'A bilan jihozlash belgilanadi
5. Texnik ishlatishning asosiy qoidalari. Ekspluatatsiya xizmatini texnik hujjatlar, pasportlar, ko'rsatmalar, kuzatishlarni o'tkazish va natijalariga ishlov berishni ta'minlash masalalari ko'rib chiqiladi.
6. Ko'z bilan kuzatishlar. CHo'kish, qoplama va mustahkamlovchilarni deformatsiyalari, filtratsiya, beton inshootlar holati ustidan instrumentlarsiz kuzatishning asosiy qoidalari ishlab chiqiladi.
7. Gruntli inshootlar (to'g'onlar, dambalar, o'rab turuvchi konstruksiyalar va sh.o.')ni texnik holatini kuzatish. Reperlar, markalar, pezometrlar, sizib o'tgan suv sarfini o'lhash uchun qurilmalar va boshqa NO'A joylashuv sxemalari, ular konstruksiyalari, kuzatishlar uslublari, davriyligi, olingan natijalarga qayta ishlov berish va tahlil qilish keltiriladi.
8. YAxlit beton inshootlarini texnik holatini kuzatish. Inshootlar-ning turg'unligini xarakterlaydigan kuzatishlar, filtratsion vaziyat, choklar va bo'lishi mumkin yoriqlarni ochilishi, beton korroziyasi va u orqali filtratsiya, betonga texnik qarov kabi ishlarini nazarda tutadi. Boshqa barcha holatlardagidek kuzatishlar davriyligi aniqlanadi va olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi.

9. Suv o'tkazuvchi inshootlar va gidromekanik jihozlarni ishlatish. Muz va mayda muz bo'laklari to'plamini hosil bo'lishi, ularni o'tkazib yuborish xususiyatlari, pastki bef ishi, suv tashlama elementlaridagi kavitsiya, tebranishlar, dinamik ta'sirlar, korroziya hosil bo'lishiga va o'sishga qarshi kurashish masalalari yoritiladi.

10. Toshqin va sel suvlarini o'tkazib yuborish. Gidrotexnika inshootlarini toshqini va sel suvlarini o'tkazishga tayyorlash, ularni o'tkazish hamda toshqin va sel suvlari o'tgandan keyingi davrlarda ishlatalish xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

11. Suv ombori zaruriy texnik holatini ushlab turish bo'yicha tadbirlar. Tabiatni muhofoza qilish va sanitariya zonalari bo'yicha tadbirlar, loyqa bosishini oldini olish, suv sathi, harorati va bug'lanishini, muz hosil bo'lish rejimi, o'simliklar o'sib ketishi, to'lqinlanish jarayonlari, qirg'oqlarni qayta shakllanishi (emirilishi), shuningdek o'prilish deformatsiyalarini kuzatishlar bayon qilinadi.

12. Texnika xavfsizligi, yong'inga qarshi tadbirlar.

13. Hujjatlashtirish va hisobot.

14. Gidrouzelning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruva shtati.

15. Gidrouzelni ta'mirlash va ishlatalish uchun loyiha-smeta hujjatlarini tuzish (saraf-xarajatlarni aniqlash) tartibi.

16. Gidroezelni ta'mirlash va ishlatalish uchun kerakli mexanizmlar, jihozlar, transport vositalari, moddiy-texnik resurslar, me'yorlarini hisoblash.

17. Ehtiyyot qismlar, materiallarning avariya zahirasi (me'yori yoki loyiha bo'yicha).

18. Kerakli ekspluatatsion – ta'mirlash ishlarini bajarishni tashkil qilish va texnologiyasi.

Ishlatish bo'yicha ko'rsatma (qoida)larni loyiha va ilmiy-tekshirish tashkilotlari tuzadi. Ishlatish davrida esa foydalanuvchi tashkilot unga gidrouzel ish tajribasi va kuzatish ishlari natijalaridan kelib chiqib aniqlik kiritib boradi.

Suv omborini ishlatalish bo'yicha ko'rsatma (qoida) lar ishlab chiqilishi jarayonda mahalliy: davlat sanitariya nazorati, veterinariya nazorati, baliqlar zahirasini himoya qilish tashkiloti, gidromet va boshqa manfatdor organlar bilan kelishib olinadi va bu haqidagi kelishuv varaqasi unga ilova qilinadi.

2.4. Qurilishi tugallangan inshootda tadqiqot ishlari

Gidrotexnika inshootlarini texnik holatini va bexatar ishlashini bevosita kuzatish ekspluatatsiya davridagi kuzatish ishlari deb ataladi. Ekspluatatsion kuzatishlar gidrotexnika inshootlarini ishi va holatini tezkor nazorat qilib borish uchun o'tkaziladi.

Maxsus masalalarni tadqiq qilish loyihada qabul qilingan qarorlar va dastlabki shartlarni to'g'riligini, nazariy qoidalarga aniqlik kiritish va bevosita olingan ma'lumotlar (aeratsiya, kavitatsiya, tebranish, suv changi, tomchilari va sh.o'. hosil bo'lishini modellashtirish) bo'yicha kiritilgan aniqliklar asosida, modellashtirish usulularini mukammallashtirish, inshootlarni er qimirlashga xavfli joylarini aniqlash va ularni kuchaytirish usullarini ishlab chiqish va sh.o'. masala-

larni nazarda tutishi kerak. Bundan tashqari ular loyihalash, qurish va ishlatish davrida yo‘l qo‘yilgan, keyinchalik kuchaytirilgan ravishda nazorat (kuzatib) qilib borishni talab qiladigan defektlar, omillarni aniqlash uchun ham o‘tkaziladi.

Ishga tushirish sinovlari inshootlarni ishlatishga qisman yoki to‘liq kiritish davrida o‘tkaziladi.

YUqori naporli gidrouzellarda qo‘llaniladigan bevosita kuzatishlar va tadqiqotlar, ayrim holatlarda, boshqacha klassifikatsiya qilinadi. Masalan, Gidroproekt bevosita kuzatishlar va tadqiqotlarni jamlab 2.1- jadvalda keltirilgan klassifikatsiyani taklif qilgan, u kuzatishlarning tayinlanishi, masalalari va qo‘llanish sohasini to‘liq ifoda qiladi.

Bevosita (kuzatishlar) tadqiqotlar tarkibi va hajmi loyiha tashkiloti tomonidan loyihani tuzish davrida ishlab chiqiladi va u ishlatish loyihasida beriladi. Bevosita kuzatishlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish yuqorida tilga olingan sxemaga mos, bovosita kuzatishlar loyihasi tuzilib amalga oshiriladi.

Bevosita kuzatishlar loyihasi tushintirish xati, NO‘A joylashtiruv sxemasi, qurilib qoldirilgan qismlar, asboblarni joylashtirish va mahkamlab o‘rnatish hamda kabel kommunikatsiyalari ish chizmalari, jihozlarni joylashtirish uchun kerakli binolarning qurilish chizmalari, asboblar va kabellarning tavslot ro‘yxati, asboblar, jihozlar, ishga tushirish ishlari smetalari, pasportlar, ko‘rsatmalar va kerakli smeta-moliyaviy hisob kitoblarni o‘z ichiga oladi.

Bevosita kuzatish ishlarini moliyalashtirish qurilish davrida loyiha bo‘yicha nazarda tutilgan mablag‘, ishlatish davrida esa – inshootlarni ishlatishga ajratilgan sarf-xarajatlar hisobidan yoki maqsadli ajratilgan mablag‘ hisobidan ta‘minlanadi.

Gidrotexnika inshootlarida bevosita kuzatish ishlarini (tadqiqotlarini) olib borish uchun NO‘A lardan foydalaniladi. Ulardan loyiha bilan belgilangan sonigina muayyan gidrotexnika inshootlarida ishlatiladi, bu NO‘A tabel NO‘A ham deb ataladi. Tabel NO‘A tarkibidagi almashtirgichlarning bir necha turi, inshootning xususiyatdan kelib chiqib o‘rnatilishi mumkin.

Suv sathini o‘lchovchi almashtirgichlar barcha inshootlarda, harorat, zo‘riqish, siljishni o‘lchaydigan almashtirgichlar beton va gruntli to‘g‘onlarda ko‘proq qo‘llaniladi.

Tabel NO‘A ning soni inshootlar bir xil parametrlarga ega bo‘lsa ham napor oshishi bilan oshib boradi. Buning ustiga har xil almashtirgichlar soni ham oshib 10...15 turga etadi. Bunday hajmdagi o‘lchov ishlarini natijalariga qayta ishlov berish, ma’lumotlarga statistik qayta ishlov berishsiz qiyin kechadi.

SHuning uchun ham ahborotlarni ro‘yxatga olish va qayta ishlov berish uchun har xil NO‘A, EXM va nazoratni avtomatizatsiyalashgan tizimi pulti (PASK) qo‘llaniladi. SHunday qilib yuqori tezlikli oqim o‘tayotgan sirtlardagi erroziya jarayonlarini, shuningdek toshqin o‘tish paytida uzandagi mahalliy

yuvilishlarni kuzatishda navbatchi operator yoki PASK vaqt – vaqt bilan almashtirgichlar o'zi yozar ko'satkichlarini ulab (qo'shib) kuzatish tizimi qurilmalarining ishini nazorat qilib boradi. Yo'l qo'yib bo'lmaydigan erroziya buzulishlari yoki mahalliy yuvilishlar vujudga kelganda almashtirgichdan signal kelib tushadi. YUqori yuvilishlar haqida signallar yakka bo'lganda toshqindan keyin sirtlar suvga tushuvchilar tomonidan tekshirilib chiqiladi, signallar soni ko'p bo'lsa zudlik bilan inshootning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'riladi.

Bevosita kuzatishlar va tadqiqotlarning klassifikatsiyasi (Gidroproekt tavsiyasi)

2.1 - jadval

Turi	Tayinlanishi	Masalalari	Qo'llanish sohasi
Ishga tushirish	Nazorat kuzatuvlari	Suv tashlovchi inshootlarni amaldagi xarakteristikalarini loyiha bilan solishtirish. Vajtingchilik va doimiy ishlatalish ko'rsatma (qoida) larini ishlab chiqish va aniqlik kiritish.	Suv tashlovchi inshootlar va ular gidromexanik jihozlarini qurish va ishlatalish
Ekspluatatsiya	Nazorat kuzatuvlari	Suv tashlovchi inshootlar va ular gidromexanik jiozlarining ishonchiligidini nazorat qilish.	Xuddi o'sha soha uchun
Diagnostik	Maxsus tadqiqotlar	Suv tashlovchi inshootlar va ular jihozlarining nazorat qilinadigan o'lchamlari (parametrlari) ning me'yoriy qiymatlardan cheunga chiqish sabablарini aniqlash. Suv tashlovchi inshootlar va ular gidromexanik jihozlarini vaqt omilimi hisobga olib ishonchli ishlatalishini ta'minlash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish.	Suv tashlovchi inshootlar va ular gidromexanik jihozlarini model tadiqotlari, joyihalash, qurish va ishlatalish
Uslugiy	Maxsus tadqiqotlar	Suv tashlovchi inshootlar va ujar gidromexanik jihozlarining hisoblash va modellashtirish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish.	Xuddi o'sha soha uchun
Tadqiqot	Maxsus tadqiqotlar	Suv tashlovchi inshootlar va ular gidromexanik jihozlarining yangi konstruksiyalarini yaratish yoki mavjudlarini takomillashtirish	Xuddi o'sha soha uchun

Xuddi shunday, nazorat qilinadigan omillar chegaraviy yo‘l qo‘yiladigan qiymatga etganda va qayt qilinganda ham shunday ish tutiladi: dinamik yuklamalar, inshootlar tebranishlari, tebramma siljishlar, deformatsiyalar, zo‘riqish, seysmik ta‘sirlar va sh.o‘. Dinamik jarayonlarning statistik xarakteristikalarini aniqlash uchun avtomatik ravishda grafik qurgichlari bilan butlangan maxsus EXM – kompyuterlar qo‘llaniladi.

Tadqiqotlar natijalariga ishlov berish tezkor va kompleks (to‘la) bo‘ladi. Tezkor ishlov berish bevosita tadqiqotlarni o‘tkazish davrida bajariladi va bevosita inshootlarni ishlatish davrida olinadi hamda inshootlar ish rejimini o‘zgartirish yoki aniqlangan kamchiliklar, buzulishlarni bartaraf qilish bo‘yicha choralar ko‘rish uchun xizmat qiladi. Kompleks qayta ishlov berish ko‘p holatlarda ilmiy-tekshirish tashkilotlari tomonidan, inshootlar ishini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, ishlatish sharoitlariga aniqliklar kiritish, ta‘mirlash – qayta tiklash ishlarining va boshqa sh.o‘. ishlarning zarurligini asoslash uchun olib boriladi.

Tadqiqotlar materiallari qayta ishlov berilgandan so‘ng, barcha xulosa va tavsiya bilan hisobot sifatida rasmiylashtiriladi hamda foydalanuvchi tashkilotga foydalanish uchun topshiriladi.


III. Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar

3.1.Gidrotexnikak inshootlarini ishlash sharoitlari.

Ma’lumki mavjud gidrotexnika inshootlarga havo atmosferasi, suvning muhiti, to‘lqinlar, mayda muzlar va muz, past yoki yuqori harorat, atmosfera yog‘ingarchiligi, shamollar va dovullar, quyosh radiatsiyasi, seysmik kuchlar va boshqa shunga o‘xhash omillar ta‘sir qiladi.

Havo atmosferasi gidrotexnika inshootlarini buzulishiga olib keladigan kimyoiv birikmalar, chang va gazlar massalari bilan to‘yingan bo‘ladi. Havo tarkibidagi kimyoiv birikmalar, xususan, nam bilan qo‘shilganda beton konstruksiyalarda, mexanik jihozlar va ularning asosiy qismlarida korroziya (zanglash) hosil qiladi, yorilishni keltirib chiqaradi, konstruksiyalar va jihozlarni ifloslantiradi va buzulishiga olib keladi. Bunga misol qilib Janubiy Mirzacho‘l (1966 yil) kanalining o‘ng tarmog‘i-dagi PR-3 kanaliga suv beradigan to‘svuchi inshoot zatvorlari va ulardagi boltlarni korroziyasini keltirishimiz mumkin. 2005 yilning 17 iyulida suv to‘svuchi inshootda o‘tkazilgan kuzatish natijalariga ko‘ra zatvor-larning tepa qismi, zichlagichni qotirish uchun o‘rnatalgan yog‘och reykaning suvdan tashqari qismi chirigani, diametri 10 mm. lik boltidan diametri 4 mm. li bolt qolgan aniqlangan. SHunga o‘xhash emirilish holati Do‘stlik kanalida (PK 460) joylashgan gidrouzelning segmentli zatvori tayanch boltlarida ham ko‘zatilgan (2014 yil. 3.1 - rasm).

Zatvorning suv ostidagi qismida emirilish (korroziya) tepadagi qismiga nisbatan ancha kam bo'ladi. Toza (emiruvchi kimyoviy brikmalarsiz) suvda betonning mustahkamligi oshishi tajribalardan ma'lum. Xuddi shunday quruq va toza atmosfera sharoitida beton, metall, tosh inshootlar yuz yillab buzulmasdan saqlanishi ham kuzatilgan. Har xil yonilg'ilarni yonishidan hosil bo'lgan mahsulotlar va kimyoviy korxonalarini tashlamalari muhit-ning emiruvchanligini oshishiga olib keladi va asosiy ifloslantiruvchi hisoblanadi.



3.1 - rasm. Do'stlik kanalining PK 460 dagi inshootini pastki b'efdan ko'rinishi.

Suvli muhitning gidrotexnika inshootlariga jadal mexanik, fizik-kimyoviy va biologik ta'sirlari bor.

1. Mexanik ta'sirlar statik, dinamik va abraziv ta'sirlarga bo'linadi. Statik ta'sirlarga suv, muz, teskar to'kilmadagi grunt, inshootlar oldidacho'kib qoladigan oqizindilar va sh.o'. larning bosimlari kiradi.
2. Dinamik ta'sirlarga suv oqimi, muzlik, suzib oquvchi jinslar, yo'l qo'yilmaydigan darajadagi to'lqinlar zARBALARI, gidravlik zarba va seysmik kuchlar va shunga o'xhash zARBALARI kiradi.
3. Mexanik abraziv ta'sirlar ostida gidrotexnika inshootlarini emirilishi Kam-pirrovot gidrouzelini vodosliv qismidagi shovva (vodoskat) da (2002 y. 25.03), Oqsuv gidrouzeli tez oqarining chapki proleti pastki befi (2003 y. 18.06) da,

YUqori CHirchiq suv uzelining to‘g‘onini vodosliv qismida, chap qirg‘oq proletlari (8,9,10 proletlar) shovvosida (2001y. 20. 04), Do‘stlik kanalini PK 580 da joylashgan tashlama inshootning pastki b‘efida (2012 yil.3.2 – rasm) va boshqa bir qancha inshootlarda kuzatilgan.



3.2 - rasm. Do‘stlik kanalining PK 580 da joylashgan tashlama inshootni pastki b‘efidagi abraziv emirilishlar

4. Inshootlarga suvning fizik - kimyoiy ta’siri metallar va betonning korroziysi, betonning muzlashi va erishidagi buzulishlar, oqimni sizib o‘tishi natijasidagi grunt va betonning suffoziysi shaklida namayon bo‘ladi. Inshootlar elementlari sirtidan yuqori tezliklarda suv oqqanda, oqim bilan sirt orasida past bosimli maha-lliyl zonalar hosil bo‘lib beton sirtida koverna (o‘yiq, chuqurga) hosil bo‘lishga va sirtni kavitations emirilishiga olib keladi (3.3 - rasm)

Metallar korroziyasiga misol qilib Respublikadagi ko‘pchilik gidrotexnika inshootlari gidromexanik (zatvorlari) jihozlaridagi zanglashlarni keltirish mumkin. Misol uchun metallar korroziysi (2003 y. 25.08) Beshariq gidrouzeli, Qatta Farg‘ona kanalini qo‘srimcha to‘yintirish kanalidagi to‘suvchi inshoot (2003 y.11.05), Xarxur gidrouzeli (2002 y.28.01) ,Do‘stlik kanalining PK 580 da joylashgan gidrouzelda va boshqa bir qancha inshootlarda ham kuzatilgan (2012 yil. 3.3 - rasm)




3.2 - Kalkauz kanalidagi tezoqar



3.3 - rasm. Do'stlik kanalini PK 260 va PK 580 da joylashgan gidrouzellarga o'rnatilgan zatvorlarda yuz bergen karroziya xodisasi

Betonlar korroziyasi Janubiy Farg'onan kanali 1-GES to'suvchi inshooti ustunlarida (2005 y.12.09) kuzatildi, betonlar umalanib 5-8 sm qalinlikda tushib ketgan. SHunday holat Do'stlik kanalining PK 460 da joylashgan gidrouzel oraliq ustunlarida ham yuz bergen (2012 yil. 3.4 - rasm).



3.4 - rasm. Do'stlik kanali PK 460 da joylashgan gidrouzel oraliq ustunlarining emirilish holati

Suvning inshootlarga biologik ta'siri suvli muhit va inshootlar elementlarida hayot kechirayotgan mikroorganizmlarning ta'sirida har xil elementlar (yog'och, metall) chirib, quvurlar sirti o'sib ketadi, inshootlarning ba'zi bir qismini mollyuskalar bosib panjaralarini berkitib qo'yadi. Chaqmoq kanali (Toshkent viloyati) o'zanini (2006 y.15.12) har xil mayda chig'onoqlar bosib suv o'tkazish qobiliyatini pasaytirib, kanalni dim holatda ishlashishga olib kelganligi kuzatildi. Doimo oddiy va toza suvdaturuvchi yog'och materiallar ham mustahkamligini o'n yillab, hattoki yuz yillab o'zgartirmasligi mumkin. Misol uchun Karmana gidrouzeli 1973 yilda qurilgan, 1998 yilda toshqin gidrouzeli Fletchinger polini buzub ketgan, ekspluatatsiya xizmati o'shanda 25 yil suvda bo'lib, buzulgandan keyin oqib chiqqan yog'ochlarni xuddi yangidek saqlanganligini guvohi bo'lishgan. SHuning bilan birga suv sathini o'zgarib turadigan zonasida, vaqt - vaqt bilan atmosfera ta'siriga uchraydigan yog'ochlarda buzulish, chirish jarayonlari jadal kechishi barchaga ma'lum. Shuning uchun ham inshootlarning yog'och konstruksiyalari antisептик ishlov berilib, yog'ochga neft mahsulotlari shimdirilib, bo'yalib va sh.o'. tadbirlar qo'llanilib ishlataladi.

To'lqinlar gidrotexnika inshootlari elementlariga dinamik ta'sir ko'rsatadi. To'lqinning qiyalikka urilib sapchishi natijasidakanal dambasidan suv oshib o'tishi yoki kanal qig'oqlarini yuvishi mumkin.

Mayda muz va muz hosil bo'lishi havoning manfiy haroratli kunlaridan boshlab to daryo yoki kanal muzi erib, muzdan tozalangan davrigacha davom etadi. Kanaldagi suvning muzlashi gidrouzelga o'rnatilgan zatvorlarni ishlashiga halaqt beradi (3.5 - rasm). Kanal o'zanidagi yaxlit muz eriy boshlashi natijasida kichik – kichik parchalarga ajralib oqib kelishi yuz bergan taqdirda gidrouzelning yuqori b'efiga tiqilib *shovush* (zajor) hosil qiladi. Agarda gidrouzel oqizindagi jismlarni tashlashga moslan-magan bo'lsa, muz parchalarini to'planishi oqibatida gidrouzelning yuqori qismida suv dimlanishi yuz beradi.



3.5 - rasm. Gidrouzelagi suvning muzlash holati

Past harorat kanal qirg'og'ida yoriqlar hosil bo'lishiga, zichlagichlarni ochilishiga, quvurlarni muzlashiga, gil tuproqni shishib chiqishiga olib kelishi mumkin. Bulardan tashqari mexanik jihozlarni moylari qotib qoladi, panjaralar, zatvorlar yurish yo'l (paz) lari va zichlagichlari muzlab qoladi, sun'iy materiallar - plastmassa, polietilin, rezinalarning mustahkamlik va elastik hususiyatlari pasayadi.

Yuqori harorat - beton va jihozlarning metall qisimlarinikengayishiga olib keladi, shikastlantiradi. mikroyoriqlar hosil qiladi. Juda katta haroratda moylash

materiallari oqib chiqib ketadi, qiyalaklarni mustahkamlovchi plitalar choklaridagi bitum yumshab chiqib ketadi va h.k.

Atmosfera yog'ingarchiligi - uzoq muddat va ko'p miqdorda bo'lsa suv omborlarini to'ldirib, toshishiga, natijada to'g'onne yuvilishiga olib kelishi mumkin. 1968 yil 27-28 apreldagi yog'ingarchilik va sel Toshkent suv omborini to'ldirib yuborgan, xavfni oldini olish maqsadida favqulodda suv tashlamadan $300 \text{ m}^3/\text{s}$ suv tashlangan, bu suv yo'ldagi yog'ingarchilik va sel suvlari bilan bilan qo'shilib $500 \text{ m}^3/\text{s}$ miqdorida Oqqo'rg'on gidrouzeli oldida to'plangan, so'ng himoya dambalarini yuvib ketgan.

Shamol va to'zonlar - ta'sirida cho'l zonalarda joylashgan kanallarning o'zanida qum bosish holatlari kuzatiladi. Misol uchun qum bosish holati Qarshi magistral kanalining nasos stansiyalari kaskadida, Xorazm viloyati Divanko'l kollektorida, Buxoro viloyatining GVST kollektorlarida kuzatilgan. To'zonlar inshoot zatvorlari ko'targichlari moyini qotirib, ko'targichlarni ishlashishini cheklab qo'ygan holatlari ko'p kuzatilgan.

Quyosh radiatsiyasi - qorlarni erishini tezlashtirib toshqin bo'lishiga olib keladi, rezina materiallari, plastmassa va boshqa sun'iy materialarga salbiy ta'sir qiladi.

Seysmik ta'sirlar - er qimirlash balliga bog'liq ravishda gidrotexnika inshootlarini to'lig'icha buzulishiga olib kelishi mumkin. Kichik balli silkinishlarda inshoot elementlarida yoriqlar hosil bo'ladi, zatvorlar qiyshayib yurmaydigan bo'lib qoladi, choklar zichlagichlari joyidan chiqib ketadi, drenaj tizimlar konstruksiyalari buzuladi va h.k.

Inshoot va asosning bir-biricha o'zaro ta'sirida - suv to'lish darajasiga qarab zo'riqish holati, egiluvchanlik moduli, asos, qirg'oqning geologik tuzilishi o'zgaradi. Grunt asosli inshootlarda ba'zi hollarda inshoot elementlarining notekis cho'kishi kuzatiladi. Inshoot elementlarini notekis cho'kishi inshoot tanasida yoriqlar hosil bo'lishiga, ularga o'rna-tilgan suvni sizib o'tishiga qarshi qurilmalarini buzulishiga, yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajada suvning sizib chiqishiga, yoxud inshootning turg'un-ligini yo'qolishiga olib keladi. Ba'zi holatlarda zatvorlar qiyshayib qoladi.

3.2. Respublikamizda suv va gidrotexnika inshootlaridan foydalanish to'g'risida qabul qilingan qonunlar, qarorlar va hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng uning iqtisodi-yotining muxum sektorlaridan bo'l mish Qishloq xo'jaligi sektorida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bunga Oliy Majlis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va xukumati tomonidan qabul qilingan Qishloq va suv xo'jaligiga oid qonunlar, farmonlar

hamda karorlar sohani rivoj-lantirish bilan bog'lik bo'lgan imkoniyatlarni olib berdi.

Respublikada paxta yakka xoqimligini tugatish va ekin maydonlari tarkibini ilmiy asosda qaytadan kurib chiqish tadbirlari yaratildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida Respublikada eng muxum hisoblangan ozik ovkat resurslari bilan ta'minlashga erishish vazifasi quyildi.

Respublikani g'alla mustaqilligini ta'minlash maqsadida paxta maydonlari qisqartirildi, erlarning meliorativ xolatini yaxshilashga katta ahamiyat berilmoqda. Qishloq xo'jalik soxasidagi zarar kurib ishlayotgan davlat xo'jaliklari, iqtisodiy jixotdan o'zini oklamagan xo'jaliklar xo'jalik yuritishning fermer va dehqon xo'jaliklari shakllariga o'tkazilib erlardan iqtisodiy samara ko'prok olina boshlandi.

Qishloqlarda yangicha iqtisodiy munosabatlarni kengrok va chukurroq joriy etilishi, ularni qonuniy asoslarda mustaxkamlanishini taqazo etadi.

SHu manoda Qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan isloxaarning qonuniy zaminini yaratish, ijtimoiy siyosiy xayotning huquqiy asoslarini izchillik bilan mustaxkamlash muhim ahamiyatga egadir. SHuning uchun qonunlarni va ayniqsa idoraviy normativ xujjatlarni o'z vaqtida o'rghanish va chukur bilish salmoqli ahamiyatga egadir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng Respublikadagi mavjud gidrotexnik inshootlarning texnik holatini ishonchliliqi va xavfsizligini ta'minlash, ularni to'g'ri ishlatish yo'lida ta'sirchan va samarali tadbirlar belgilandi. Xususan «Suv va suvdan foydalanish» (1993y) va «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida» (1999y) qonunlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risi»gi qonun 29 bob 119 moddadan iborat bo'lib unga 1993 yil 6 may kuni imzo cheqilgan. Qonunning vazifalari suvga doir munosabatlari tartibga solish, aholi va xalq xo'jaligi extiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanishdan, suvni bo'lq'anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlashdan, suvning zararli ta'sirlarini oldini olish va uni bartaraf qilishdan, suv ob'ektlarining xolatini yaxshilashdan, shuningdek suv munosabatlari soxasida korxonalar, muassasalar tashkilotlar, dehqon xo'jaliklari va fukorolarning huquqlarini himoya qilishdan iboratdir (1-modda).

Suv to'g'risidagi qonunda suvga davlat egaligi (3-modda) va yagona davlat suv fondi tarkibi (4-modda) belgilangan.

Qonunning 5, 6, 7 moddalaridadavlat xoqimiysi va boshqaruvi organlari-ning suvga doir munosabatlarni tartibga solish soxasidagi vakolatlari belgilangan.

Suvdan foydalanish va uni muxofaza qilish soxasida davlat boshqaruviga nazorati vakolatlari qonunning 8, 9 va 10 moddalarida keltirilgan bo'lib O'zbekiston

Respublikasi Qishloq va suv vazirligi er usti suvlari bo'yicha o'z vaqolati doirasida suvdan foydalanishni tartibga solish soxasida mahsus vaqolati bo'lgan davlat organi hisoblanadi.

Qonunda shuningdek suvdan foydalanuvchilar, suvdan foydalanish ob'ektlari, suvdan foydalanish turlari jumladan suvdan birlamchi va ikkilamchi foydalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar ham belgilangan.

Qonunning 30 muddasida suvdan limit bo'yicha foydalanish barcha suv iste'molchilariga nisbatan majburiyligi, hamda suv tarmoqlari ob'ektlarini asrash va tiklash, bu soxada xizmat qiluvchi xodimlarni moddiy ta'minlash maqsadida foydalanilgan suvga to'liq yoki qisman xak to'lash joriy etilishi ko'rsatilgan. Qonunning 32 muddasida suvdan foydalanuvchilarning huquqlari 35 moddada esa burchlari sanab o'tilgan.

Suvdan foydalanuvchilarning huquqlaridan:

- beriladigan suvni miqdori va sifatini tekshirish;
 - shartnoma bo'yicha olinmay qolgan suv uchun tavon tullanishini talab qilishi.
- Qonunning XSH bobi suv ob'ektlaridan Qishloq xo'jaligi extiyojlari uchun foydalanishga bag'ishlangan bo'lib uning 48 muddasi Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanishni rejalashtirish qoidalari keltirilgan bo'lib suvdan foydalanish rejalarini: tuman ahamiyatidagi tizimlar bo'yicha – tuman xoqimiyat organlari; viloyat (Respublika) ahamiyatiga ega tizimlar bo'yicha viloyat (Respublika) Qishloq va suv xo'jaligi organlari tasdiklaydilar.

49 moddaga binoan erdan foylanish mulkchiligining kaysi shakliga asoslanganligidan kat' nazar, suv fondi erlaridan so'g'oriladigan erlar doirasidagi xo'jaliklararo kanallar va inshootlardan, er osti suvi chiqargichlari yagona tizimi sifatida foydalaniladi va ular davlat mulki hisoblanib, ularni xususiylashtirish mumkin emas.

Qonunni 54 muddasida suvdan foydalanuvchilarning suv olishni ko'paytirish yoki kamaytirish maqsadida xo'jaliklararo ahamiyatga ega bo'lgan kanallardagi va suv omborlardagi gidrotexnika inshootlarni o'zboshim-chalik bilan boshqa maromga solishlari, shuningdek ularga vaqtinchalik tusiklar, nasoslar va boshqa inshootlar qurishlari taqiqlanishi ko'rsatilgan.

Kanallar va boshqa gidrotexnika inshootlari ustidan traktorlar, Qishloq xo'jalik mashinalari, avtomobil va boshqa transporti vositalarini xaydab o'tish, shuningdek mo'ljallanmagan joylardan chorva mollarini xaydab o'tish qonunni 55 muddasida keltirilgan.

Qonunning 78.79 80.81.82 modallari suv inshootlaridan foydalanishga bag'ishlangan bo'lib jumlan 82 moddadi gidrouzellar, hamda daryolar, soylar, magistral va xo'jaliklararo kanallar, kollektorlardagi boshqa gidrotexnika inshootlar davlat suv ob'ektlari hisoblanib, ana shu inshootlardan foydalanishni ularni loyihalash

vaqtida ishlab chiqarilgan qoidalarga muvofiq Qishloq va suv xo‘jaligi organlari amalga oshiradilar. Qonunning XXVI va XXVIII boblari suv to‘g‘risidagi qonunlarni buzganlik uchun javobgarlik va etkazilgan zararlarni undirish tartiblariga bog‘ishlangan.

Suv resurslari taqchilligi kuchayotgan sharoitda aholi va xalq xo‘jaligini suv bilan kafolatli ta‘minlash va undan tejamli, hamda samarali foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 avgustda «O‘zbekiston Respublikasida suvdan cheklangan miqdorda foydalanish bo‘yicha vaqtinchalik tartib» to‘g‘risidagi № 385 sonli karori qabul qilindi. Unda suv xo‘jaligi organlari bilan suvdan foydalanuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlар tartibi belgilangan.

Suvdan foydalanuvchilar tomonidan «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» gi qonun va Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 avgustdagи № 385-sonli karorida ko‘rsatilgan talablarni bo‘zilganda «O‘zsvvnazorat» Respublika inpeksiyasi tomonidan suvdan foydalanish qonun va qoidalarini buzganlik uchun «Dalolatnomा» tuzilib jarima solinadi (Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 21 iyuldagи № 320 –sonli qarori).

Gidrotexnika inshootlari (GTI) xavfsizligi (murakkab tabiiy-texnik tizimlar sifatida), ularning kelajakdagi holatini bashorat qilish o‘ta muhim, juda murakkab va o‘ziga xos vazifa hisoblanadi. GTI baholanadigan barcha ko‘rsatkichlar orasida ularni ishonchliligi va xavfsizligi muammosi eng asosiyisi hisoblanadi. Ayniqsa, bu 1999 yilda O‘zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida” gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 20 avgustdagи 398-sonli “Yirik va o‘ta muhim suv xo‘jaligi ob‘ektlarini xavfsiz ishlashi va foydalanish davridagi ishonchliligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi Qarorini qabul qilinishi bilan yana ham dolzarb masalaga aylandi.

“Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida” gi Qonun 15 moddadan iborat bo‘lib, uning 1-moddasida Qonunning maqsadi yoritilgan ya‘ni gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruksiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdir.

Qonunning 2-moddasi “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari” va 3-moddasi esa “Asosiy tushunchalar” deb atalib, ularda gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat ekanligi, ushbu Qonunda esa asosiy tushunchalarga gidrotexnika inshootlari, foydalanuvchi tashkilot, favqulodda vaziyat, gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi deklaratsiyasi, gidrotexnika

inshootining xavfsizligi mezonlari, gidrotexnika inshooti avariysi xavfining yo‘l qo‘yiladigan darajasi kabilar kirishi belgilab qo‘yilgan va ularga tavsif keltirilgan.

Qonunning 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi sohasidagi vakolatlari, 5-moddasida Mahalliy davlat hokimiyati organlarining gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi sohasidagi vakolatlari haqida so‘z borsa, 6-modda “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi ustidan davlat nazorati”ga bag‘ishlangan.

Qonunning 7-moddasida gidrotexnika inshootlarining kadastri, 8-moddasida gidrotexnika inshootlarining xavfsizligini ta‘minlashga qo‘yiladigan asosiy talablar, 9-moddada gidrotexnika inshootlarining xavfsizligini ta‘minlash yuzasidan foydalanuvchi tashkilotning majburiyatları o‘z ifodasini topgan.

Gidrotexnika inshootining xavfsizligi deklaratsiyasi 10-moddada bayon qilingan bo‘lib, unda gidrotexnika inshootini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, undan foydalanish, uni foydalanishdan chiqarish bosqichlarida, shuningdek, uni rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash, tiklash yoxud konservatsiyalashdan keyin foydalanuvchi tashkilot gidrotexnika inshootining xavfsizligi deklaratsiyasini tuzish, deklaratsiyani tuzish tartibi haqida so‘z boradi.

Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi deklaratsiyalarining davlat ekspertizasi Qonunning 11-moddasidan gidrotexnika inshootlarini tekshirish 13-moddada, gidrotexnika inshootlarining xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan avariya moddiytexnika zahiralarini yaratish va ulardan foydalanish 14-moddada, gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik 15-moddada keltirilgan.

Mazkur Qarorga ko‘ra “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni matbuotda e’lon qilingan kundan, ya’ni 1999 yil 20 avgustdan e’tiboran amalga kiritilishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hukumat qarorlarini “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida” gi Qonunga muvofiqlashtirish, vazirliklar va idoralar mazkur Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta‘minlash belgilab qo‘yildi va ushbu Qonunning barcha moddalari bo‘yicha tegishli ishlar mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda

Magistral kanal boshqarmasi to‘g‘risida namunaviy nizom

1. Magistral kanallar boshkarmasi (keyingi o‘rinlarda matnda Boshkarma deb yuritiladi) Irrigatsiya tizimlari xavza boshkarmasiga tegishli suv resurs-larini tartibga solish buyicha tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi .
2. Boshqarma o‘z faoliyatida Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Uzbekiston Respublikasi qonunlariga, Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari va boshqa qaror xujjalariiga, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining

farmonlari va farmoyishlariga, Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari va Farmoyishlariga, Uzbekiston Respublikasi qishloq va suv xujaligi vazirligi xay'ati qarorlariga, Vazirlikning buyruqlariga va boshqa qarorlariga, Irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi buyruqlariga xamda boshqa qonun xujatlariga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

3. Boshqarma yuridik shaxs xisoblanadi, Uzbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muxrga, bank muassasalarida xisob raqamlariga ega bo‘ladi.

Boshqarmaning vazifalari va funksiyalari

Boshqarma tizimda suv resurslarini tartibga solishda texnika siyosatini amalga oshirish uchun mas’ul xisoblanadi.

Quyidagilar Boshqarmaning asosiy vazifalari xisoblanadi:

- magistral kanallar (tizimlar) va inshootlar suv resurslarini oqilona boshqarish va uning tezkorligini oshirish;
- magistral kanal (tizim) bo‘yicha suvdan foydalanishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini ta’minlash;
- magistral kanallar (tizimlar) va suv xo‘jaligi inshootlarining texnik ishonchliligini ta’minlash;
- magistral kanalni (tizimni) ishonchli foydalanish uchun tayyoerlash va uni ish xonalida saklash;
- suv olish va suv berish to‘g‘risida ishonchli hisob va hisobot yuritish;
- suvni tejaydigani texnologiyalarni joriy etish, ajratilgan mablag‘lar, moddiy – texnik resurslar, texnika va asbob-uskunalaridan foydalanish samaradorligini oshirish va ulardan maksadli foydalanish.

Boshqarma kuyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- suv resurslarini boshqarishni va Irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi tomonidan belgilangan limitlarga muvofik suv berishni amalga oshiradi;
- irrigatsiya tizimlari xamda nasos stansiyalari, energetika va aloka boshkar-malari bilan suv berish yuzasidan shartnomalar tuzadi, tizimning ichki nasos stansiyalari va agregatlaridan foydalanish rejiminib gelgilaydi;
- umumiy suv xo‘jaligi axvolini hisobga olgan xolda irrigatsiya tizimlariga suv berish jadvallariga tuzatishlar kiritadi;
- suvdan foydalanishning bozor prinsiplari va mexanizmlari joriy etilishini ta’minlaydi;
- tizimning aloxida kanallari suv ta’minotini oshirishga doir takliflarni tayyorlaydi va amalga oshiradi;
- umuman tizim bo‘yicha suv olish va suv berish hisobini yuritadi, tizim buyicha suv resurslari balansini tuzadi;

- magistral kanallar (tizimlar) va suv xujaligi inshootlari bo'yicha suv resurslari oqilona boshqarilishini nazoratkiladi;
- umuman suv xo'jaligi tizimidan ishonchli foydalanishni ta'minlaydi;
- tizimni suv o'chash qurilmalari bilan zarur miqdorda ta'minlaydi, suv resurslarini boshqarishda aloqa, avtomatika va telemekhanikaning zamonaviy tizimlarini joriy etadi xamda ularni takomillashtiradi;
- mukammal va joriy ta'mirlash buyicha kompleks tadbirlar tuzadi, ushbu maksadlarga ajratiladigan mablaglardan maksadli va samarali foydalanishini ta'minlaydi;
- ta'mirlash ishlarni arzonlashtirish va sifatini oshirish maqsadida resursni tejaydigan texnologiyalami, ishlarni bajarishning maqbul shakl va usullarini ishlab chiqadi va joriy qiladi;
 - tasarrufidagi kanallar tizimlarida ishlarni tashkil etishdagi ilg'or tajribani, suv xo'jaligiga oid fan yutuqlarini ommalashtiradi;
 - qurilaetgan korxonalar birlashgan direksiyalari bilan birgalikda investitsiya dasturlariga kiritish uchun tizimni va inshootlarni zamonaviylashtirish, rekonstruksiya qilish xamda texnika bilan qayta jixozlash buyicha takliflar tayyorlaydi, magistral kanal (tizim) buyicha investitsiya dasturlari bajarilishini tashkil kiladi;
 - irrigatsiya tizimi bo'yicha suv xo'jaligini istiqbolli rivojlantirish sxemalarini tuzish bo'yicha takliflar tayyorlaydi.

Boshqarmaning xuquqlari.

Boshqarma quyidagi xuquqlarga ega:

- o'z vakolatiga kiruvchi masalalarni xal etish uchun zarur bo'lgan materiallarni korxonalar, muassaslar va tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish;
- kelishish uchun o'ziga taqdim etiladigan suv resurslarini boshqarish bo'yicha qarorlar loyixalari yuzasidan xulosalar berish;
- boshqa tizimlarda va ichki xo'jalik gidromelioraitiv tarmoqlarda ta'mirlash ishlarni shartnomalar bo'yicha bajarish;
- suv xo'jalik tizimlarida foydalanish qoidalari, suvdan limit bo'yicha foydalanish tartibi buzulganligi uchun aybdor shaxslarni tegishli javobgarlikka tortish to'g'risida belgilangan tartibda taqdimnoma kiritish;
- irigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan suv resurslari limitlariga vujudga kelgan suv xo'jaligi axvolini xisobga olgan xolda 10 foiz doirasida tuzatish kiritish va qonun xujatlarida nazarda tutilgan boshka xuquqlarga ega.

Boshqarmaning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari joylardagi boshqaruv organlari, xo'jalik yurutuvchi sub'ektlar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqorolar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Boshqarma faoliyatini tashkil etish.

Boshqarmani tanlov asosida O'zbekiston respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligining buyrug'i bilan tayinlanadigan boshliq boshqaradi. Tanlov irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi boshlig'ining takdimnomasiga ko'ra suv xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan o'tkaziladi.

Boshliq o'rinnbosarlari lavozimga boshqarma boshlig'ining takdimnomasiga ko'ra suv xo'jaligi bosh boshqarmasi bilan kelishgan xolda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'ining buyrug'i bilan tanlov asosida tasdiqlanadi.

Tanlovlarni o'tkazish tartibi suv xujaligi bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi

Boshqarma boshlig'i:

- boshqarma faoliyatiga raxbarlik qiladi xamda boshqarmaga yuklangan vazifalar va majburiyatlarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;
- irrigatsiya tizimlari xavza boshkarmasiga boshqarma boshlig'i urinbosarlari lavozimiga tayinlash uchun suv xo'jaligi bosh boshqarmasi bilan kelishilgan nomzodlarni takdim etadi;
- boshqarma apparati xodimlarini, shuningdek tasarrufidagi kanallar tizimlari raxbarlarini irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi bilan kelishgan xolda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod kiladi;
- bo'linmalar raxbarlari va mutaxasislarini tanlov asosida tayinlaydi. Tanlov o'tkazish tartibi suv xo'jaligi bosh boshqarmasi bilan kelishgan holda boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi va qonun xujatlarida belgilangan vakolatlar doirasida boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Gidrouchastkalar va gidrouzellar (yuridik shaxs makomisiz) boshqarma-ning tarkiybiy bo'linmalari hisoblanadi , ular o'z faoliyatini irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tasdiklaydigan nizomga muvofiq amalga oshiradi. Byudjetdan ajratmalar hamda xo'jalik faoliyatidan va suv iste'molchilariga xizmat ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar, shuningdek konun xujjatlarida taqilanganmagan boshqa manbalar boshqarmani mablag' bilan ta'minlash manbalari hisoblanadi. Boshqarma faoliyati qonunida belgilangan tartibda to'xtatiladi (Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 21 iyuldag'i № 320 - son qarori).

3.3. Gidrotexnika inshootini ishonchli va barqaror ish faoliyatiga ta'sir siluvchi omillar

Gidrotexnika inshootlarining ishonchliligi – gidrotexnika inshootlarini yoki ularning ba'zi bir elementlarini mo'tadil (normal) ishlatalish (ekspluatatsiya) sharoitida, belgilangan xizmat muddatlari davomida, o'z funksiyasini inkorsiz bajarish xususiyatidir.

Ekspluatatsiya ishonchliligi ning asosiy ko'rsatkichlari quyidagicha bo'linadi: konstruktiv ishonchlilik ko'rsatkichlari – mustahkamlik , turg'unlik , suv o'tkazmaslik , sovuqqa chidamlilik (morozostoykost) va boshqalar; texnologik ishonchlilik ko'rsatkichlari – suv sarfi, suv omboridagi suv hajmi, elektr energiyasi ishlab chiqarish, suv olish va suv uzatishni ta'min etish, baliqlarni, kemalarni o'tkazib yuborish va sh.o., arxitekturaviy mutonosiblik ko'rsatkichlari fakturasiga, rang, tashqi ko'rinishga va boshqalarga rioya qilish.

Gidrotexnika inshootlarining ishonchliligi loyiha kiritilgan, yuqoridagi sanab o'tilgan ko'rsatkichlar va inshootlarni tiklash (qurish) davridagi bajarilgan ishlarning sifati bilan belgilanadi. Ishlatish jarayonida gidrotexnika inshootlarining ishonchliligi amalda o'sha darajada qolishi, ortishi yoki pasayishi mumkin. Ishlatishning dastlabki yillarda (5...7 yil) ba'zi bir inshootlar va ularning elementlarini ishga tushishi kiyin kechadi, ko'p sonli inkor kuzatiladi, ya'ni ishonchlilik past qiymatlarga ega bo'ladi. Undan keyingi davrlarda inshootlarning mo'tadil ish davri boshlanadi, inkorlar soni kamayadi. Xizmat muddatlaridan kelib chiqib yirik va o'rta inshootlarda, bu davr 30...70 yilni tashkil etadi. Undan keyin inshootlarning ishonchliligi pasayib, inkorlar soni o'sib boradi.

SHuni ta'kidlash lozimki, gidrotexnika inshootlarining ba'zi bir elementlari ishonchlilikning har xil taqsimlangan qonuniyatlariga ega bo'lishi, yuqoridagi ko'rib o'tilganlardan vaqt bo'yicha farq qilishi mumkin. Misol uchun, dastlabki davrda, drenaj tizimi eng yuqori ishonchlilikga ega bo'lishi mumkin, keyin esa u pasayadi, suvni sizib o'tishiga qarshi konstruksiylar dastlabki davrda kam ishonchlilik bilan ishlashi mumkin, ba'zi bir elementlarida kolmatatsiya jarayoni bo'lgandan so'ng esa ishonchliligi oshadi yoki, teskarisi, agar ishlatish jarayonida suvni sizib o'tishiga qarshi elementlarda grunt zichlashgandan keyingi shikastlanish (buzulish) hosil bo'lsa, pasayadi.

Gidrotexnika inshootlarining ishonchliligi inkor qilmaslik (bezotkaznost), uzoq muddat ishslashlik (dolgovechnost) va ta'mirlashga yaroqlilik (remontno-prigodnost) bilan belgilanadi. Bu tushunchalar ehtimollik tavsifi (xarakter) ga egadir. *Inkor qilmaslik* – inshootning berilgan vaqt davomida ba'zi bir ekspluatatsiya sharoitida, o'z ishchanlik qobiliyatini saqlab qolish ehtimolligi bilan xarakterlanadi. *Uzoq muddat ishslashlik* deganda inshootning o'z ekspluatatsion ko'rsatkichlarini berilgan chegarada, ishdan chiqish paytigacha saqlab qolish xususiyati tushuniladi. *Ta'mirlashga yaroqlilik* shikastlanish yoki inkor qilish (otkaz) ni bartaraf qilish uchun kerak bo'ladigan vaqt va qiymatni o'zida qamrab oladi. Bu texnik-iqtisodiy asoslash bilan belgilanadi.

Inshootlar yoki ular elementlarining talab qilingan ekspluatatsion sifatlarini yo'qotilishi eskirish (starenie) yoki eyilish (iznos) deyiladi.

Ikki xil eskirish farqlanadi: qachonki inshootlar o'zining dastlabki fizik-tehnik (mustahkamlik, turg'unlik, suvni ortiqcha energiyasini so'ndirishni ta'minlashlik, suv o'tkazmaslik, sovuqqa chidamlilik va h.k.) xususiyatlarini yo'qotsa *jismonyj eskirish* (fizicheskoe starenie) bo'ladi va zamonaviy talabga javob bermaydigan hamda ilmiy-texnik progressning zamonaviy darajasiga mos bo'limgan texnologik nomutonosiblik kuzatilganda – *ma'naviy eskirish* (moralnoe starenie) bo'ladi. Gidrotxnika qurilishi amaliyotida ko'pchilik holatlarda jismoniy eskirish omili poya bo'lib inshootlarda ta'mirlash-qayta tiklash yoki qurish ishlarini olib borishga to'g'ri keladi.

Gidrotxnika inshootlarini ishonchlilagini belgilashda maxsus adabiyotlardan foydalanishni tavsiya qilamiz. Bundan tashqari statistik tahlil uchun kuzatish ma'lumotlari kompleksiga ega bo'lish va inshootlarning quyida keltirilgan xizmat muddatlarini hisobga olish lozim bo'ladi. (3.1 – jadval)

Gidrotxnika inshootlarining xizmat muddatları

3.1 – jadval


Ob'ektlarning nomlari	O'rtacha xizmat muddati, yil
Gruntli, betonli, temir-betonli to'g'onlar	100
Magistral sug'orish kanallari (qoplamasiz va qoplamali)	100
Vodoslivlar, suv olgichlar, suv tindirgichlar, novlar, lotoklar, dyukerlar, baliqlarni o'tkazuvchi va himoya qiluvchi inshootlar	80
Tuproq to'g'onli suv omborlari (yirik GES suv omborlaridan tashqari)	100
Betonli va temir-betonli suv tashlamalar va hovuz (prud) lar oldi suv qabul qilgichlari	40
Gidrotxnik tunnellar	70
Tartibga soluvchi (o'zanni to'g'rilovchi) fashinli, sepoyali, gabionli, tosh-qamishli dambalar	10
Gidrotxnika inshootlari:	
xo'jaliklararo kanallarda	40
xo'jaliklar ichki kanallarida	30
Xo'jaliklar ichki sug'orish tarmoqlari:	
tuproqdagi (erdagi) kanallar:	
qoplamasiz	40
tosh, beton, temir-beton qoplomaliklari	30
temir-betonli lotoklar	25

Uzoq ishlashlik va ta'mirlashlar oralig'ini cho'zilish davrlariga ta'sir qiladigan asosiy omillarga gidrotexnika inshootning loyihani tuzish davridagi qabul qilingan texnik qarorning darajasi, qurilish ishlarining bajarilish sifati, ishlatish darajalari kiradi. SHuning uchun ham inshootlarning ishonchliligin oshirish va ta'mirlashlar oralig'ini ko'paytirish maqsadida loyihani tuzayotganda va qurilishda hisobiy sxemalarni farq qilishiga, geologik, gidrogeologik, injenerlik-geologik, iqlimiylar va texnik yoki texnologik xarakteristikalarini etarli hisobga olmaslikka, loyihachilar tomonidan mualliflik nazoratini pasaytirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Qurilish davrida loyihadan asossiz chetga chiqishga, qurilish-yig'ish (montaj) ishlarining past sifatda bajarishga, texnologiyaga rioya qilmaslikga, loyihada ko'zda tutilmagan qurilish materiallarini asossiz qo'llashga yo'l qo'yilmaydi. Ekspluatatsiya xodimlari inshootlarni ishlatishga oxirigacha bitmagan, loyihadan chetga chiqishlar bilan qabul qilmasliklari kerak. Buning ustiga ekspluatatsiya xizmatining o'zları etarli malakaviy tayyorgarlikka ega bo'lishlari, o'z vaqtida inshootlarga texnik qarovni amalga oshirishlari, texnik holatini nazorat qilish ma'lumotlarini muntazam tahlil qilib borishlari, o'z vaqtida ta'mirlash – qayta tiklash ishlarini o'tkazishlari zarur.

3.4. Respublika suv xo'jalik soxasida ekspluatatsiya xizmati

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan suv xo'jalik ob'ektlarining asosiy qismi Respublikaning Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan ishlatalidi. Ularga suv etkazib beruvchi manbalardan hisoblan mish Amudaryo va Sirdaryo transchegaroviy daryolar hisoblanadi. Ularning o'zanida joylashgan inshootlar Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jalik komissiya (MKVK) nin (3.2 - jadval) "bajaruvchi" organi bo'lmish "Amudaryo" va "Sirdar" havzasi suv xo'jaligi birlashmalari (HSXB) tomonidan ishlatalidi.


3.2 - jadval




Sirdaryo transchegaroviy suvini taqsimlash bilan shug'ullanuvchi «Sirdaryo» HSXB (Toshkent shahri) tasarrufida 198 gidrotexnika inshooti bo'lib, ular Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston Respublikalari xududlarida joylashgan. Bu inshootlar tarkibga $3000 \text{ m}^3/\text{s}$ suv o'tkazish qobiliyati ega bo'lgan Norin daryosidagi Uchqo'rg'on gidrouzeli (3.6 - rasm); $1800 \text{ m}^3/\text{s}$ suv o'tkazish qobiliyati ega bo'lgan CHirchiq daryosidagi YUqori CHirchiq gidrouzeli (3.7 - rasm); $1400 \text{ m}^3/\text{s}$ suv o'tkazish qobiliyati ega bo'lgan Qoradaryodagi Kuyganyor gidrouzeli (3.8 - rasm), umumiy hajmi $2,05 \text{ km}^3$ - CHorvoq suv ombori kabi inshootlar kiradi. Mazkur inshootlar Sirdaryo» HSXB tarkibidagi quyidagi boshqarmalar:

- Norin - Qoradaryo gidrouzellar boshqarmasi (Kuyganyor shahri);
- Mirzacho'l gidrouzellari va Do'stlik kanali boshqarmasi (Guliston sh);
- YUqori CHirchiq gidrouzellari boshqarmasi (CHirchiq shahri);


- CHorvoq suv ombori boshqarmasi (CHorvoq shaxri.) tomonidan ishlataladi.



3.6 - rasm. Uchqo'rg'on gidrouzelini yuqori b'efdan kurnishi



3.7 - rasm. YUqori CHirchiq gidrouzelini yuqori b'efdan ko'rinishi



3.8 - rasm. Kuyganyor gidrouzelini pastki b'efdan ko'rinishi

«Amudaryo» HSXB (Urganch shahri) 84 gidrotexnika inshooti (shu jumladan 36 daryodan suv olgich bosh inshoot), 169 gidropost, 386 km davlatlararo kanallar, shuningdek ishlatish bilan bog'liq ko'p sonli kommunikatsiya (yo'llar, elektr ta'minoti, texnik vositalar va boshq.) ni ishlatadi.

«Amudaryo» HSXB o'ziga yuklatilgan vazifalarini amalga oshirish uchun tarkibida suv oluvchi inshootlar, gidrouzellar, davlatlararo kanallarni ishlatish bo'yicha quyidagi xududiy boshqarmalarni tashkil qilgan:

- YUqori Daryo boshqarmasi (Tojikiston. Qo'rg'ontepa shahari) 8 suv oluvchi inshootni ishlatadi, Vaxsh, Pyandj, Kofirnigon daryolaridan Amudaryoning Kelif gidropostigacha bo'lgan 246 km uchastkasidan suv olishni nazorat qiladi.
- O'ttadaryo boshqarmasi (Turkmaniston. Turkmanobod shahri) Amudaryoning Kelif gidropostidan Darg'onati gidropostigacha bo'lgan uchastkasida suv olishni nazorat qiladi, balansida 8 yirik daryo gidrouzeli bor.
- Amudaryo respublikalararo kanallar boshqarmasi (Upradik, Urganch shahrida joylashgan) 11 daryodan suv olgich inshootlar, magistral kanallardagi 52 gidrotexnika inshootni, 385 km magistral kanallarini ishlatadi, Amudaryoning Tuyamo'yin gidrouzelidan Qipchoq gidropostigacha bo'lgan uchastkasi (167 km) bo'ylab suv olishni nazorat qiladi. Tarkibida Toshsaka, Qilichniyozboy va Qipchoq - Bo'zsuv yirik sug'orish tizimlari mavjud.

- Pastkidaryo boshqarmasi (Qoraqolpog‘iston. Taxiatosh shahri) Taxiatosh gidrouzelni (3.9 - rasm), Xon-yop va Jumaboy saka kanallarini daryodan suv olgich bosh inshootlarni ishlataladi, Amudaryoni Qipchoq gidropostidan Orol dengizigacha bo‘lgan (283 km) uchastkasida suv olishni nazorat qiladi.

«Amudaryo» va «Sirdaryo» HSXB lari Qozoqiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, O‘zbekiston Respublikalari tomonidan moliyalashtiriladi Respublikadagi mavjud gidrotexnika inshootlarining loyihalari tarkibida ekspluatatsiya xizmatini tashkil qilish bo‘limi bo‘lib, unda shu xizmatning tarkibi, vazifalari, ta’mirlash, ekspluatatsiya ishlarining hajmi va texnologiyasi keltirilgan. Ular uchun texnik ishlatish qoidalari ishlab chiqilgan.



3.9 – rasm. Taxiatosh gidrouzelini yuqori b’efdan ko‘rini

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi PF - 3226сонли Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 28 iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tashil etishni takomillashtirish to‘g‘risida»gi 290-sonli qarori qabul qilinib, unga ko‘ra vazirlikka irrigatsiya tizimlarini havzalar bo‘yicha boshqarish prinsiplari asosida er usti va suv resurslarining davlat boshqaruvini amalga oshirish va barcha darajalarda suvdan foydalanishning bozor prinsiplarini joriy etish vazifasi yuklatilgan. SHu maqsadda Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 21 iyulda «Suv

xo‘jaligini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida» gi № 320-sonli qarori qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasining ushbu qarori Respublikamizda suv xo‘jaligini boshqarish administrativ – hududiy boshqaruv prinsipidan havza bo‘yicha boshqaruv tizimiga o‘tkazildi Respublika hududi 10 ta havzaga (Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi; Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi; Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi; quyi-Sirdaryo irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi; CHirchiq - Ohangaron irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi; Amu-Surxon irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi; Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi; Amu-Buxoro irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi; quyi-Amudaryo irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi; Zarafshon irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi) bo‘linib, ularning tarkibida 52 ta irrigatsiya tizim boshqarmasi (ITB) tashkil qilindi.

YUqorida ko‘rsatilib o‘tilgan Prezident Farmoni, Vazirlar Mahkamasining Qarorlaridan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi qishloqxo‘jaligi vazirligining 165, 210-sonli buyruqlari qabul qilinib, ularda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalarida suv resurslarini boshqarish va suvdan foydalanuvchilarga suvni etkazish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish haqida vaqtinchalik tartib” hamda irrigatsiya tizimlarida suv hisob-kitobini olib borish, olingan suv to‘g‘risida hisobotlar shakllari tasdiqlanib, ularni joylarda tadbiq etish belgilangan. Bundan tashqari, suvni olish, uni iste’molchilarga etkazish va foydalanish to‘g‘risidagi kundalik tezkor ma’lumotlar, dekadalik, oylik, choraklik, kuzgi-qishgi va yozgi sug‘orish mavsumlari hamda gidrologik yil bo‘yicha ma’lumotlar va hisobotlarni sifatli tayyorlash va yurgazish, o‘z vaqtida tegishli boshqarmalarga va tashkilotlarga, vazirlikka etkazishga Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, birlashgan dispetcherlik markaziga ega bo‘lgan Farg‘ona vodiysi magistral kanallari tizimi boshqarmasi, qoraqalpog‘iston respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmalari, «O‘zuvta‘mirfoydalanish» respub-lik aholisiga birlashmasi hamda “Suv resurslari balansi va suvni tejayidigan texnologiyalarni rivojlantirish» boshqarmalari mas‘ul etib tayinlangan.

Suv xo‘jaligini havza tizimida boshqarishni ko‘p yillik tajribalari uni ya’nada takomillashtirish kerakligini ko‘ratdi. SHu sababli 2017 yilning 4 - avgustida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi faoliya-tini yanada takomillashtirish chora – tadbirleri to‘g‘risida” gi PQ – 3172 sonli qarori qobul qilindi. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jalik vazirligiga markaziy apparatida Suv xo‘jaligi Bosh boshqarmasi tuzildi (3.3 - jadval). Uning tarkibiga 13 ta (Norin-Qoradaryo, Norin-Sirdaryo, Sirdaryo-So‘h, Quyi Sirdaryo, CHirchiq-Oxangaron, Amu-

Surxon, Amu-Qashqadaryo, Amu-Buxoro, Quyi Amudaryo, Amudaryo chap qirg'og'i, Zarafshon, Sirdaryo –Zarafshan, Quyi Zarafshon) irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari; “O‘zsvut’mirfoydanish” Respublika birlashmasi; Suv xo‘jaligi sanoati assotsiatsiyasi; Respublika va Qaraqalpog‘iston Respublikasidagi “Suvqurilishinvest”; “Suvloyiha” va “Suvekspertiza” davlat unitar korxonalari; Markaziy dispetcherlik va komunikatsiya xizmati, Ilmiy - axborot va resurslar markazi (MKVK ning “Ilmiy - axborot markazi” O‘zbekiston filiali); “O‘zsvvnazorat” Respublika inspeksiysi kabi tashkilotlar kiradi.

Qishloq va suv xo‘jalik vazirligining suv xo‘jalik bosh boshqarmasi apparatining tuzilishi

3.3 - jadval



Ilmiy - axborot va resurslar markazi (MKVK ning “Ilmiy - axborot markazi” O‘zbekiston filiali); “O‘zsvvnazorat” Respublika inspeksiysi kabi tashkilotlar kiradi.

SHuningdek, Bosh boshqarma O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Qoraqolpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hoqimliklari bilan birgalikda suv xo‘jaligi ob’ektlarining qirg‘oq bo‘yi polosalari va suvni muhofaza qilish zonalarini belgilashda qatnashadi. Vazirlik tizimidagi yirik gidrotexnika inshootlarini ishlatalish «O‘zsvut’mirfoydanish» Respublika birlashmasiga qarashli Qarshi Magistral kanalidan, Amu-Buxoro mashina

kanalidan, Tuyamo'yin gidrouzelidan, Andijon suv omboridan foydalanish boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi. Quyidagi 3 - jadvalda magistral kanal boshqarmasini namunaviy tuzilish keltirilgan. Suv resurlarini to'g'ri taqsimlash va ulardan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish Vazirlikning «O'zsuvnazorat» Respublika inspeksiyasiga yuklatilgan.

Vazirlik tizimiga kiruvchi suv xo'jaligi ob'ektlarini qurish, qayta jihozlash, rekonstruksiya qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq loyiha - qidiruv ishlari «Suvloyiha» davlat unitar korxonasi, hamda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalarining loyiha - qidiruv guruhlari tomonidan o'zaro xo'jalik hisobi asosida bajariladi.


Suv xo'jaligi soxasi bilan bog'liq ilmiy - tadqiqot ishlarini esa ISMITI, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti, Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlash-tiruvchi komissiyaning ilmiy-axborot markazi O'zbekiston filiali va boshqa ilmiy - tekshirish institutlari olib boradi.

Tizim uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni malakalarini oshirish Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti zimmasiga yuklatilgan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvaridagi № 8 – sonli qaroriga binoan tumanlarda fermer xo'jaliklari va boshqa suv iste'molchilarga xizmat ko'rsatuvchi suv iste'molchilar uyushmalari (SIU) tashkil etilgan. Xo'jaliklarni ichki tizimida mavjud bo'lgan barcha inshootlarni ishlatish viloyatga qarashli tumanlardagi Qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Магистрал канал бөшкәрмасы аппаратининг намунавий түзилмаси

3 - жадвал



Respublikamizda suv xo'jalik soxasini tutgan o'rmini etiborga olgan holda 2018 yilning 17 aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish chora – tadbirlari" to'g'risida PQ - 3672 – son qarori qabul qilindi. Qobil qilingan qarorga ko'ra suv xo'jalik soxasi alovida vazirlik bo'lib ajralib chiqdi.

Uning vazifasi sifatida suv xo'jaligi sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishini ta'minlash uchun quyidagilar belgilab qo'yildi:

a) O'zbekiston Respublikasining suv xo'jaligi vaziri quyidagilar uchun shaxsan javobgardir:

O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar talablarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi;

Vazirlik zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalar bajarilishini tashkil etish, Vazirlik faoliyatini rejalashtirish, shuningdek, uning faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlariga erishilishini so'zsiz ta'minlash;

suv xo'jaligini rivojlantirish, shuningdek, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va suv xo'jaligi sohasidagi muammoli masalalarni hal etish bo'yicha dasturlar, chora-tadbirlar rejali, «yo'l xaritalari» va boshqa dasturiy hujjatlarni samarali amalga oshirish;

suv resurslarini boshqarish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish, suv xo'jaligi tizimining faoliyat ko'rsatishi hamda uni takomillashtirish, mamlakat suv xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

suv resurslari samarali boshqarilishini ta'minlash, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini suv resurslari bilan barqaror hamda oqilona ta'minlash, suv xo'jaligi ob'ektlaridan foydalanish, ularni rivojlantirish va qurishni tashkil etish;

Vazirlik tarkibiga kiruvchi barcha suv xo'jaligi tashkilotlari, shuningdek, davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlarning suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish, suvg'a zararli ta'sir ko'rsatishning oldini olish va uni bartaraf etish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha ishlarni tashkil etish, ular samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, mehnat intizomini va qonun hujjatlari talablarini qo'pol ravishda buzgan xodimlarga nisbatan intizomiya va boshqa turdag'i javobgarlik choralarini ko'rish;

xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning suv xo'jaligi organlari, birinchi navbatda, hududidan Amudaryo va Sirdaryo oqib o'tadigan mamlakatlar bi-

lan Orol dengizi havzasida transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo'yicha samarali hamkorlikni rivojlantirish;

 suv xo'jaligi tashkilotlari va muassasalari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha ishlarni samarali tashkil etish, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, fuqarolar shaxsiy qabulini tizimli ravishda o'tkazib borish;

 b) suv xo'jaligi vazirining birinchi o'rinnbosari quyidagilar uchun shaxsan javobgardir:

 suv xo'jaligi ob'ektlarini qurish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha ustuvor hamda istiqbolli loyihamalar va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

 suv xo'jaligi ob'ektlarida pudrat ishlarini tashkil etish va monitoring qilish, Vazirlikning qurilish va pudrat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish, suv xo'jaligi sektorida sanoatni rivojlantirish;

 sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish, er osti suvlarining maqbul sathlarini ta'minlash va sug'oriladigan erlarning sho'rланishini kamaytirish, erlarning meliorativ holatini yaxshilash va barqarorligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish;

 v) suv xo'jaligi vazirining o'rinnbosarlari quyidagilar uchun shaxsan javobgardirlar:

 suv resurslarini boshqarishni havza tamoyili asosida tashkil etish va suvni cheklangan tarzda ishlatish hamda undan foydalanish tartibini amalda ro'yobga chiqarishni ta'minlash, suv resurslari balansini ishlab chiqish, davlat suv kadastri va suv hisobini yuritish, barcha manbalarning suv resurslari bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yaratish hamda rivojlantirish;

 irrigatsiya va melioratsiya tizimlaridan, boshqa suv xo'jaligi va gidrotexnika inshootlaridan lozim darajada foydalanilishini, ularning uzlusiz ishlashini va muntazam ravishda modernizatsiya qilinishini ta'minlash, Vazirlik tasarrufida bo'lgan yirik va o'ta muhim suv xo'jaligi ob'ektlari xavfsizligini ta'minlash va muhofazasini tashkil etish, ularning texnik jihatdan ishchonchlilagini oshirish;


 suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari, shu jumladan, tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimlari qo'llanilishini rivojlantirish, shuningdek, suvni tejab ishlatishni taqdirlash va rag'batlantirish mexanizmlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish, suv iste'molchilari uyushmalari faoliyatini muvofiqlashtirish, qo'llab-quvvatlash, ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlari hamda ularning gidrotexnika inshootlarini ekspluatatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish;

 Vazirlikning suv xo'jaligi foydalanish tashkilotlarini zarur zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash, ularning maqsadli va samarali ishlatilishi bo'yicha zarur choralar ko'rish, suv xo'jaligi sektoriga zamonaviy, innovatsion hamda resurs

tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, suv resurslarini boshqarish va ulardan foy-dalanish sohasidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va ilg'or xorijiy usullarni keng qo'llash;


sohaga xalqaro moliya institutlarining grantlari va kreditlarini jaib qilish, ulardan maqsadli va samarali foydalanish, xalqaro tashkilotlar faoliyatida Vazirlikning faol ishtirokini ta'minlash, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, suv xo'jaligi tashkilotlarining ta'lim va ilmiy muassasalar bilan o'zaro integratsiyasini kuchaytirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilish chora-tadbirlarini ko'rish. Quyidagi 1.5; 1.6; 1.7; 1.8 - jadvallarda Suv xo'jalik vazirligini tarkibiy tuzulmasi keltirilgan.

Ўзбекистон Республикаси Сув ўзгалик назаритиги




Хабарласуу Республикасы Ода күнжалыши взаимодиши маказалык аппаратининг түзүлдүмсүү

1.6. Жадвал




Ирригация түзүлмөлөрдөн баштап көмөрдөкчөлөөнүн
Намунашының түзүлүштөрү

Бонлік



**Ирригация тийзимләрдә көзә башкарумалары күзүрнәләр түмәнләр (Кувасой шахар)
ирригация бүлмәләрди аштаратынның**

НАМУНАВИЙ ТҮЗҮЛМЕСИ



Башкаруя ходжасарларектен үзүлмәй штадар сони — 2 — 5 бирдик.

Ирригация тийзимләрдә көзә башкарумалары күзүрнәләр түмәнләр (Кувасой шахар) ирригация бүлмәләрди холындаштырып.

* Үзүлмәй штадар сони — 565 бирдик.

* Иштәб эквирини, техник ва хемзат күйсүлдөн көзлөндөр сони үзүннелештеп мөмкүнлөрдөрдөн аныктаналы.

3.5. Suv xo‘jalik tizimida dispetcherlik xizmati.

Co‘g‘orish tizimida suvni taksimlash tasdiqlangan grafik asosida dispetcher tomonidan amalga oshiriladi. Dispetcherlik grafigi tizimning suvdan foydalanish rejasi (SFR) va suv manbasini ayni shu davrga to‘g‘ri keladigan imkoniyatlaridan kelib chickan xolda, vegetatsiya davrini har bir dekadasiga (10 kun), tuziladi. Unda bosh gidrouzeldan tortib to SIU (suv iste’molchilar ushmasi)gacha taqsimlanadigan suv sarf miqdori ko‘rsatiladi.


Kanal tizimda dispetcherlik grafigini bajarilish nazorati navbatchi dispetcherga yuklatiladi. Navbatchi dispetcherning yana bir vazifasi suv manbasining suv sarf va suv sathni kun davomida ko‘zatib borishdir.

Maboda suv manbasidan olinadigan suv sarf mikdori rejaviy mikdordan ko‘p bo‘lsa, unda suv taqsimlovchi inshootlar yordamida iste’molchilarga rejada ko‘rsatilgan suvni taqsimlashi shart. Agarda suv manbasidagi suv sarfi rejadagi miqdoridan kam bo‘lsa dispetcherlik grafigiga o‘zgartirish kiritiladi. Suv manbasidagi suv miqdori 10 % gacha kamaygan bo‘lsa dispetcher dekada uchun tasdiqlangan grafikda iste’molchilar uchun ko‘rsatilgan limitni teng kamaytirish yo‘li bilan ishlaydi. Fark 10 % dan ortiq bo‘lsa unda tizimni suv taksimot rejasiga yuqori tashkilotlar tomonidan o‘zgartirishlar kiritiladi.

Kanallarning suv olish limiti qish – baxor fasllarida daryo havzasiga yoqqan yog‘ingarchilik miqdoriga va ular suv etkazib berishi lozim bo‘lgan iste’molchi (foydalanuvchi)ning suvgaga bo‘lgan dekadalik talabiga bog‘liq. Vegetatsiya davrida suv taqsimot rejasiga o‘zgartirishlar ham kiritib boriladi.. Buning uchun suv manbasida ko‘tilayotgan oylik suv mikdorini oz yoki ko‘pligini oldindan aniqlash (prognoz) natijalariga va ekin ekilgan maydonning xakiykiy miqdori va ekin turiga qarab kiritiladi. Sug‘orish tizim bo‘yicha ekin ekilgan maydonlarining miqdori va ekin turi yozgi ekinlar uchun 1- iyun, qishki ekinlar uchun 1- dekabrdagi holati bo‘yicha aniklanilishi kerak. Tizim suv taqsimot rejasiga kiritilgan barcha o‘zgartirishlar to‘g‘risida suvdan foydalanuvchi xo‘jaliklar xabardor kilinadi.

Xar bir xisobiy davr uchun tizimda o‘rnatalgan suv taqsimot muvozanati bo‘yicha navbatchi dispetcher tizimning barcha suv taqsimlovchi inshoot-lariga formoish beradi. Dispetcher tomonidan berilgan farmoish tizimni barcha xodimlari va qisimlari uchun tegishli bo‘lib uni bajarish majburiydir. Navbatchilikga kirishayotgan har bir dispetcher o‘zidan oldingi navbatchi dispetcherdan tizimni holati, o‘zining navbatchiligi davrida boshliqlardan olingan ko‘rsatmalari va buyrukları bajarilish darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olishi shart.

Suv xo'jaligi vazirligi bo'yicha suv xo'jaligi siyosatini amalga oshirish. suv resurslarini boshqarish va o'zining balansidagi inshoot-lardan foydalanish Markaziy texnologik va dispatcherlik xizmati hamda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalar, ularning tarkibidagi irrigatsiya tizimlari boshqarmalar, magistral kanallar boshqarmalarining dispatcherlik xizmati orqali amalga oshiriladi. Gidrotexnika inshoot-larida yuqori texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish uchun aloqa texnika vositalari, signalizatsiya, telemekhanika va avtomatika yordamida ishlab chiqarishni nazorat qilish va boshqarishni markazlashtirish va koordinatsiyalash maqsadida har bir suv xo'jaligi tizimida dispatcherlik xizmati tashkil qilingan va ular zamonaviy dispatcherlik punktlari bilan ta'minlangan.




3.10 - rasm. Katta Farg'ona kanali bosh inshootidagi dispatcherlik punkti

Gidrouzelda joylashgan dispatcherlik punkti mahalliy dispetcherlik punkti deb ataladi (3.10 - rasm), ularda dispetcherning ish joyi - operatorlik xonasi va apparatlar xonasi mavjud. Kanal tizimidagi dispatcherlik xizmatini takomillashtirish masalasi bilan ilmiy – tadqiqot va loyiha institutlari XX – asrning 70 yillaridan boshlab shug'ullana boshlagan. NPO SANIIRI mutaxasislari tomonidan Respublikamizdan yirik kanallar hisoblanmish Katta Farg'ona, Kirov (Do'stlik) va shularga o'xshash kanallarga "Temir -2" rusumli avtomatik boshqaruv tizimini joriy qilgan (3.11 - rasm)




3.11 - rasm. Katta Farg'ona kanalining dispatcherlik punkti

Hozir kunda dispatcherlik punktlari zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan (3.12 - rasm).



3.12 - rasm. Uchqo'rg'on gidrouzelidagi dispatcher xonasi

Dispatcherlik ishida aloqa masalasi muxim masala hisoblanadi. O'zaro aloqa orqali dispatcher tizimdagi holatni boshqaradi. Bugungi kunda dispatcherlar aloqa vositasi sifatida simli telefon, uyali tele-fon, radioaloqa va internet vositalaridan foydalanmoqda (3.13 - rasm)



3.13 - rasm. Dispatcher xonasidagi aloqa vositalari (telefon, radsiya)

Dispatcher xonasiga shematilgan dispatcherlik pulti - bu gidrotexnika inshootlarni bashqaruvchi qurilmadir (3.14 - rasm). U inshootdagi holat to'g'risida ma'lumotlarni ko'rsatib turadi. Pult ko'rsatgichlari asosida dispatcher qaror qabul qiladi va pult yordamida qabul qilgan qarori bo'yicha inshootdagi zatvorlar holatiga o'zgarishlar kiritadi. Dispatcherlik pultida tizimdagи inshootlar va ularga o'rnatilgan nazorat-o'lchov asboblarini joylashuvini aks ettirilgan sxemalar, suv taqsimlash grafigi, nazorat ish, texnik qarov va ta'mirlash ishlari grafigi, yuqori tashkilotlar bilan bog'lanish uchun telefon raqamlari va ish faoliyatini yuritish uchun kerak bo'ladigan boshqa ma'lumotlar bo'lishi shart



3.14 - rasm. Uchqo'rg'on gidrouzelidagi dispatcherlik pulti

Bugungi kunda gidrouzelda joylashgan dispatcherlik pultlari zamonaviy informatsion texnologiyalar bilan jihozlangan. Ular yordamida zatvirlarni distansion boshqarish, kanaldagisuv sarfi holati to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish, hisoblash,jamlash va ma'lumotlarni markaziy dispatcherlik punktlariga o'zatish kabi ishlар bajariladi.

Respublikamiz suv xo'jalik tizimidagi markaziy dispatcherlik xizmati viloyatlarningirrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, magistral kanal boshqarmalari va suv xo'jaligining boshqa tashkilotlari dispatcherlik punktlari bilan aloqaga ega bo'lishi shart.

Markaziy dispatcherlik punkti - ishlab chiqarish yoki suv resurslarini boshqarish, inshootlarga qarov, ularning texnik holatini nazorat qilish va ta'mirlash ishlarining borishi, transport xizmati, er qazish texnikaari ishi, elektr va texnik ta'minot va boshqa ishlар to'g'risida axborot to'playdigan markazi hisoblanadi.

Suv xo'jaligi vazirligi markaziy dispatcherlik punkti Respublikadagi sug'orish manbalaridagi suv miqdori, magistral kanallarga suv olish, suv omborlari, yirik nasos stansiyalari ish rejimlari to'g'risidagi aniq ma'lumotlarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Dispatcherlik xizmati suvni tezkor taqsimlashni amalga oshiradi. Dispatcherning o'z vaqtida bergen ko'rsatmalari avariyalar, sel, toshqin xavflarini va sh.o'. oldini oladi. Ma'lumotlar (axborotlar)ni muntazam olib turish

vazirlik va uning joylardagi tashkilotlariga barcha masalalarni tezkor hal qilishga yordam beradi. SHuningdek dispatcherlik xizmati "Sirdaryo" va "Amudaryo" havzalari suv xo'jalik birlashmalariga qarashli gidrouzellarda ham tashkil qilingan, ular mos ravishda birlashmalar va DAK markaziy dispatcherlik xizmati bilan bog'langan.

3.6. Suv xo'jalik tizimida suv taqsimlash ishlari

Suv xo'jalik tizimida suv taqsimlash ishlari ekspluatatsiya xizmati tomonidan Respublika Suv xo'jalik vazirligi tasdiqlagan limit asosida amalga oshiriladi. Suv is'temolchi (foydanuvchi) larga ajratiladigan limit miqdori quyi tashkilotlarning hisob – kitobiga asoslangan holda belgilanadi (3.4 - jadval).


Suvdan foydalanish rejasini tuzish va tasdiqlash sxemasi

3.4 - jadval



Suv tanqis paytlarida, limitdan chiqmagan holda, sersuv kanal tizimidan kansuvli kanal tizimga suv tashlash orqaliregiondagи suv ta'minotini normallashtirish vazirlikning vakolatiga kiradi. Amudaryo va Sirdaryodan O'zbekiston Respublikasi kanallari Davlatlararo suv resurslarini muvoffiq-lashtiruvchi komissiya tomonidan tasdiqlagan limit bo'yicha suv oladi (3.5 - jadval)

Suv taqsimlash limitini o'rnatish tartibi



Suv taqsimlash ishlari suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Uni amalga oshirish uchun quyidagilar bajarilishi lozim:

1. (Fermer, dehqon) xo'jaliklarining suvdan foydalanish rejalari (SFR)ni suv is'temolchilardan uyushmasi (SIU) xududi bo'yicha tuzishda suv xo'jalik xodimi qatnashadi hamda SIU lardan quyidagi kerakli me'yoriy hujjatlar bo'lishini talab qiladi:

a) SIU xizmat ko'rsatadigan arning plani, unda har bir fermer (dehqon) xo'jaliklarning chegaralari, xo'jaliklarni sug'orish ichki tarmoqlari, sug'orish uchastkalarining tartib raqamlari, kollektor – drenaj tizimi (KDT) va suv

tashlash tarmog‘i, suv olish nuqtalari, gidrotexnik inshootlari, gidropostlar, yo‘llar, o‘rmon – daraxtzorlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak;

b) so‘g‘oriladigan arning ekin maydonlari va gidromodul hududi ko‘rsatilgan hamda tuman hoqimiyatidan tasdiqlangan rejasি;

v) gidromodul hududlari bo‘yicha ekinlarni sug‘orish tartibi (rejimi).

2. SIU tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan xo‘jaliklar uchun tuzilgan (suv taqsimlash nuqtalari bo‘yicha) SFR tumanlar hoqimiyatidan tasdiqlatib olinadi;

3. Tuman (tumanlararo) suvdan foydalanish jamlanma rejasи ishlab chiqiladi, so‘ng Boshgidromet (yoki uni joylardagi tashkilot-lari)dan SFR tuzilayotgan yil uchun suv manbasining bashorati tarti olinadi;

4. Sug‘orish tarmog‘ining (o‘tgan yillarda o‘lchab olingan yoki boshqa usullarda aniqlangan) foydali ish koeffitsienti inobatga olinib :

a) suv manbasidan (dekadalar bo‘yicha) kelishi kutilayotgan suv sarfiga SFRni solishtirib ekilishi mumkin bo‘lgan maydonga va ekin turiga aniqlik kiritiladi va uni tuman hoqimiligiga bildiriladi;

b) suv ta’minoti 75 % dan kam bo‘lganda suv ta’minotini yaxshilash (almashlab sug‘orish, kechasi sug‘orish, so‘g‘orib ishlov berish, er osti suv zahiralaridan foydalanish va b.sh.o.) usullarish qo‘llash tavsiya-larini berib, suv taqsimlash limiti va svn (dekadalar bo‘yicha) taqsimlash rejasи ishlab chiqiladi (tuziladi) va u vazirlikdan tasdiqlatib olinadi.

5. Sug‘orish mavsumi boshlanguncha xo‘jaliklarni erlarni o‘z vaqtida tekislash, sug‘orish texnikasini tayyorlash, vaqtinchalik ariqlar, jo‘yaklarni kerakli uzunlikda oldirish, suvchilarni malakasini oshirish, sug‘orishga tayyorgarligini nazorat qilish, lozim bo‘lsa kamchiliklarni tuzatish bo‘yicha ishlarini o‘rganib chiqib (hoqimiyatga bildirish uchun) dalolatnomalar tuziladi.

6. Xo‘jaliklararo kanallar, xo‘jaliklarning ichki ariq, kanal va zavurlarini tozalanganligi, gidropostlarini tayyorligi va shahodat-lashdan o‘tkazilganligini tekshirib chiqib tavsiyalar beriladi.

7. Inshootlardan SFRda ko‘zda tutilgan suv sarfini (limitini hisobga olib) ko‘rsatilgan muddatlarda o‘tkazib borish va suv taqsimlash amalga oshiriladi.


8. Suv berish bilan birga kanallarni (dekadalar bo‘yicha) FIKga aniqlik kiritilib boriladi.

9. Suv berish va qabul qilib olish jurnallari tutiladi va ularda berilgan suv miqdori aniqlanadi hamda suvdan foydalanish nazorat qilinadi, suvdan foydalanish natijalarini har 10 kunda tahlil qilib boriladi.

Suv xo‘jalik ob‘ektlarini ekspluatatsiya qilishda suv o‘lchash ishlari o‘ta muxim masala hisoblanadi. Amaliyotda suv o‘lchash maqsadida o‘zgarmas o‘zandan, tarirovka (graduirovka) qilingan gidrotexnik inshootlardan va maxsus

suv o'lhash inshootlari yoki qurilmalaridan foydalaniadi (3.15; 3,16; 3,17 – rasmlar).

O'zgarmas o'zanli usulda suv o'lhash kanal ko'rinishida qurilgan qirg'oqlari va tagi mustaxkamlangan o'zanda amalga oshiriladi. O'zgarmas o'zan qurish uchun kanalning to'g'ri chiziqli uchastkasi tanlab olinadi. Misol uchun gidrouzel pastki befida o'lchov stvoridan yuqori bef tomonga 30...40 h uzunlikda hamda pastki bef yo'naliishida 10...15 h uzunlikda uchastka amalda o'zgarmas tirik kesimga ega bo'lishi lozim (bu erda h – oqim chuqurligi). O'lchov stvorining o'zini uzunligi esa (5...6) V qabul qilinadi (V – kanaldagi suv sathini kengligi). Quriladigan stvorda gidrometrik usulda chuqurlik h, tezliklar, sathlar o'lchanadi hamda suv sarfi Q hisoblanadi, so'ngra $Q = f(h)$ grafigi quriladi. O'lchov stvori reyka, sath datchik-lari, o'zi yozar qurilmalar bilan jihozlanadi. Ishlatish davrida yiliga kamida 2 marta (toshqin o'tgandan so'ng va kuzda muzlashdan oldin) oqim bo'yicha yuqori va pastda, bir necha stvorda chuqurliklar, shu jumladan o'lchov stvorida (gidropost)da ham o'lchanadi, olingan ma'lumotlar nazorat ko'rsat-gich miqdorlari bilan solishtiriladi. O'zan loyqa bosgan, o'simlik o'sib chiqqan yoki yuvilgan holatlarda o'lchansa xatolik 10% dan ko'p bo'lishi mumkin. Undan tashqari suv o'lchanayotgan uchastkadagi o'zanni holati ustidan ham nazorat o'rnatilishi lozim, chunki yuvilish hisobiga kanal tagi pasaygan bo'lishi mumkin. Bu holatda, o'sha suv sathida oqim tezligi o'zgaradi va ko'rsatkichlar noto'g'ri bo'ladi.



3.15 - rasm. O'zgarmas o'zan tipidagi gidropost



3.16 - rasm. Uchqurg'on kanalida suv o'lhash ishlari



3.17 - rasm. KFK da suv o'lhash ishlari


Gidrotexnika inshootlarini (graduirovka) tarirovka qilish usuli eksperimental yo'1 bilan suv sarfi va ishlab turgan suv o'tkazuvchi oraliqlar o'lchamlari o'rtasidagi doimiy bog'lanishni belgilash imkoniyatini beradi. Tarirovka qilishni, misol uchun, o'zanli usulda suv sarfini aniqlashda amalga oshirish mumkin. Bunda nazorat stvori muntazam foydalanish uchun emas balki faqat tarirovka qilish davrida ishlatiladi. Tarirovka qilishda suv sarfi 6...8 m naporda gidrometrik usulda o'lchanadi, so'ng zatvorlarni har xil ochilishi, ustun va yon devorlar konfiguratsiyasi, inshoot o'rakchiga nisbatan napolarlarni hisobga olgan oraliqning

o'tkazuvchanlik qobiliyatini xarakteristikalarida $Q=f(H)$ egri chiziqlari quriladi. Bu usul gidrotexnika inshootlarini ishlatalish sharoitida eng maqsadga muvofiq va gidromelioratsiya tizimlarida suvni hisobga olishni avtomatizatsiya-lashtirishda iqtisodli usul hisoblanadi. Inshootlar uzoqvaqt ishlataligandan so'ng zatvorlari ishdan chiqishi, ta'mirlanishi yoki almashtirilishi, pastki kromkasini konfiguratsiyasi o'zgarishi mumkin. Bu holatlarda oraliqlar yangitdan tarirovka qilinishi lozim, bu ularning o'tkazuvchanligi to'g'risida yangi, aniqma'lumotlarni beradi. Ko'p oraliqli inshootlarni tarirovka qilishda ikki – uch oraliqni birdaniga tarirovka qilish muhim hisoblanadi, chunki bunda aralash oraliqlarning o'zaro bir biriga ta'siri hisobga olinadi. Ko'milmagan oraliqlarni tarirovka qilish oddiy, ko'milgan holatda ishlayotgan igitli inshootlarni tarirovka qilish esa murakkab. Keyingi holatda suv sarfi, yuqori bef belgisi, pastki bef belgisi va zatvorni ko'tarilishlarini aniqlash lozim. Qiyatlarni o'lhash aniqligiga alohida ahamiyat beriladi.


Suv sarfini o'lchov moslamalari yordamida aniqlash asosan kichik daryo, soy, nov va sug'orish tarmoqlarida suv sarfini o'lhash uchun mo'ljallangan. Bunda tashqari, bu usuldan gidrouzellar orqali oqib utayotgan suv sarfini aniqlash maqsadida foydalilanadi.

Suv o'tkazgichlar yordamida 0,0005 dan 10 m³/s gacha bo'lgan suv sarfini o'lchash imkoniyati mavjud. Gidromeliorativ tarmoqlarda suv sarfini aniqlash keng tarqalgan suv o'tkazgichlarga - trapetsiodal, uchburchak shakldagi suv o'tkazgichlarni misol qilishimiz mumkin.


Suv sarfini o'lhash uchun maxsusuv o'lhash inshootlari sifatida o'lchov vodoslivlari (trapetsiodal, yon qirrasi (qiyaligi) 1:4 CHipoletti yoki 1:1 A.I. Ivanov, uchburchak va boshqa vodoslivlilar), keng ostanali vodosliviga yaqin yoki maxsus o'yig'i bilan SANIIRI suv o'lhash ostonasi, Venturi, Parshall, SANIIRI va boshqa suv o'lhash lotoklari; yon diafragmasi bilan o'lhash qurilmalari, ochiq, quvur turlaridagi suv o'lhash inshootlaridan foydalilanadi (3.18 - rasm).




CHipolettisuv o‘tkazgichi




Tomson suv o'tkazgichi



Ivanov suv o'tkazgichi



Standart parabolik nov



SANIIRIning suv o'lchash novi

3.18 - rasm. Suv o'lchash qurilmalari

Trapetsiodal (CHipoletti) suv o'tkazgich amaliyotda keng qo'llanilib, ko'p hollarda uning yon devorlarining qiyalik koffitsienti $m=0,25$, tubining kengligi (3-4)N ga teng bo'ladi. Suv o'tkazgichdan o'tadigan suv sarfi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Q = 1.86bH^{3/2}$$

bu erda: b- suv o'tkazgich tubining kengligi,

N - suv o'tkazgichdan oqib o'tayotgan suv balandligi.

Uchburchakli suv o'tkazgichning uchburchak qirqimining burchagi o'lchanadigan suv sarfining miqdoriga qarab 20 dan 120° ga teng bo'lishi mumkin. Amaliyotda ko'proq $\alpha = 90^\circ$ bo'lgan suv o'tkazgichlar ishlataladi.

Uchburchakli (Tomson) suv o'tkazgichdan o'tadigan suv sarfi quyidagi formula yordamida aniqlanadi. ($\alpha = 90^\circ$ bo'lganda):

$$Q = 1.4H^{5/2}$$

To'g'ri burchakli suv o'tkazgichdan oqib o'tadigan suv sarfi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Q = m_0 b \sqrt{2g} H^{3/2}$$

Bu erda m_0 - oqib kelayotgan suv tezligini e'tiborga oluvchi sarf koffitsienti, b- suv o'tkazgichning kengligi

Standart parabolik novlarda suv sarfini o'lchashda ($V = 0,6N$ - tezlikni o'lchash nuqtasi) quyidagi formuladan foydalanish mumkin

$$Q = 0.576 M H^2 \quad M = 2,768 \cdot \sqrt{P}$$

$$R = 0,2 \text{ (LR } - 40; 60; 80 \text{ uchun); } \quad R = 0,35 \text{ (LR } - 100 \text{ uchun); }$$

IV. Gidrotexnika inshootlari ekspluatatsiya xizmati tomonidan bajariladigan asosiy ishlar

4.1. Umumiy qoidalar

Irrigatsiya tizimlari havza va tizim boshqarmalari, viloyatlarning gidrogeologiya-melioratsiya ekspeditsiyalari yoki kollektor-drenaj tizimlari, yirik nasos stansiyalari yoki ular kaskadining boshqarmalari, mashina kanallari, yirik kanallar, yirik gidrouzellar, suv omborlari boshqarmalari, viloyatlar nasos stansiyalari boshqarmalari, kurilayotgan ob'ektlarni vaqtincha ishlatish boshqarmalari, shuningdek GESlar kaskadi, «Sirdaryo», «Amudaryo» HSXB tashkilotlari balanslaridagi gidrotexnika inshootlarini ishlatish bilan shug'ullanadi. Bu tashkilotlarning shtat ro'yxatidagi boshqaruva apparati mutaxassislari, muxandis – texnik va yordamchi xodimlarining tarkibi ekspluatatsiya xizmatini tashkil qiladi.

Gidrotexnika inshootlarining ekspluatatsiya xizmati o'z ishini O'zbekiston Respublikasining «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida»gi qonuni, suv, mehnat va ma'muriy qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Respublika Prezidenti va Hukumatining Farmon, Farmoyish, buyruq va ko'rsatmalari, vazirliklar hamda yuqori tashkilotlarining buyruq va ko'rsatmalari, tashkilotlarining Nizomlari, me'yoriy hujjatlar, gidrotexnika inshootlarini texnik ishlatish qoidalari va ko'rsatmalari, gidromexanik va elektr – kuchlanish qurilmalarini, nazorat o'lchov asboblarini (NO'A) zavodlardan olingan texnik ishlatish qoidalari, Gidrotexnika inshootlari qurilgan loyiha-smeta hujjatlari, nazoratchi tashkilotlarning buyruq va ko'rsatmalari, shuningdek Respublikaning qonunchiligiga muvofiq gidrotexnika inshootlarini ishlatishga taalluqli boshqa hujjatlar asosida tashkil qiladi hamda ularga bo'ysunadi.

Gidrotexnika inshootlarining ekspluatatsiya xizmatlarini asosiy vazifalari va ishini tashkil qilish tartibi jamiyat (bozor iqtisodi, kapitalistik, nokapitalistik va hakozo) tuzilishi, suvdan (pullik, pulsiz, suvdan foydalanuvchilar assotsiatsiyasi tuzib yoki boshqa sh.o.) foyda-lanish, gidrotexnika inshootlarini ishlatalishni (ta'minoti) moliyalashtirilishi (byudjet hisobi, xo'jalik hisobi yoki boshqa manba) shakllaridan qat'iy nazar, suv taqsimlash ishlariga va moliyaviy – xo'jalik rejaga kiritilishi mumkin bo'ladigan ba'zi bir aniqliklarni e'tiborga olmaganda, deyarli o'zgarishsiz qoladi. Ammo hamma ish turlari ham barcha tashkilotlarda, tashkilotning turiga qarab, bir xil hajmlarda bajarilmasligi mumkin.

4.2. Gidrotexnika inshootlari ekspluatatsiya xizmatining asosiy vazifalari

Gidrotexnika inshootlarining ekspluatatsiya xizmati bajaradigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Tashkilot tasarrufidagi barcha gidrotexnika inshootlari, suv ombor (havza)lari va ulardagi gidromexanik uskunalar, qurilmalar, suv o'lhash qurilmalari, nazorat-o'lchov asboblari (NO'A), yordamchi va ishlab chiqarish binolari, aloqa vositalari, nazorat yo'llari, er qazish texnikalari, mashina va mexanizmlarini mo‘‘tadil (normal), bexatar ishlashi hamda ularni texnik soz holatini ta'min etish;
2. Suv manbalaridan, rejali ravishda, suvni olish va uni belgilangan muddatlarda iste'molchi — xo'jaliklarga etkazib berish. SHu maqsadda suvdan foydalanish rejasи (SFR)ni tuzishda qatnashish, uni bajarilishini ta'min etish, sug'orishning eng zamonaviy texnikasi va usullarini qo'llash, xo'jaliklarni sug'orishga tayyorgarligi, suvdan foydalanishi va agrotexnika talablarini bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish, barcha gidrotexnika inshootlari, texnik qurilmalarini har kuni, tezkor va bexatar boshqarish, mumkin bo'lsa, er osti suv zahiralarini sug'orish maqsadlari uchun ishlatalish;
3. Melioratsiyalanadigan erlarning suv (grunt suvlarining sathi va tuproqning namligi) tartibi, suvning mineral tartibi ustidan muntazam ravishda kuzatish ishlarini, suv qabul qiluvchi (vodopriyonik)ga tashlanadigan drenaj, tashlama suvlari va ulardagi tuzlarning hisob-kitobini olib borish; Gidroizogips kartasini tuzish va meliorativ tumanlashuv kartasiga aniqliklar kiritish, qishloq xo'jaligida sug'oriladigan erlardan to'liq foydalanish bo'yicha texnik va tashkiliy-xo'jalik tadbirlarini o'tkazish;
4. Barcha gidrotexnika inshootlari va ulardagi gidromexanik uskunalar va qurilmalar, suv o'lhash qurilmalari, aloqa vositalari, nazorat yo'llarini texnik holatini *ko'z bilan kuzatib chiqish* hamda ularga *texnik qarovni* amalga oshirish.

5. «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi qonun, texnik ishlatish qoidalari, me’yoriy hujjatlar, ko‘rsatmalar, nizomlarga muvofiq nazorat – o‘lchov asboblari yordamida gidrotexnika inshootlarini texnik holatini *kuzatish* va o‘lchash ishlarini olib borish, ushbu ma’lumotlarga, o‘z vaqtida, qayta ishlov berish va natijalarini tahlil qilib chiqish, ishlatish tajribalarini umumlashtirish;

6. Inshootlar va qurilmalarni buzulish, shikastlanish yoki ishdan chiqish (avariya) holatlarini o‘z vaqtida aniqlash, lozim bo‘lsa, ularni texnik holatlarini qayta tiklash va yanada yaxshilash chora – tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish, kanallar va kollektorlarni loyqa bosishi va o‘zanlardidan o‘simpliklar o‘sib chiqishiga qarshi kurashish;

7. Sug‘orish tarmoqlaridan suvni behuda yo‘qolishiga qarshi kurashish va tarmoqdan olinadigan suvdan unumli foydalanishni ta‘min etish; tarmoqlarni foydali ish koeffitsientlari (FIK) ni oshirish choralarini ko‘rish, bundan qo‘sishma suv resurslarini hosil qilish, inshootlarni ishonchli va bexatar ishlashini ta‘min etish va ularni qayta qurish hamda mukammallashtirish, fan va texnika yutuqlarini suv xo‘jaligi amaliyotiga qo‘llash;

8. Ishlab chiqarish tadqiqotlari, maxsus kuzatishlarni o‘tkazish, iloji boricha, ularni hajmini kamaytirish chora–tadbirlarini amalga oshirish;

9. *Ta’mirlash* – qayta tiklash ishlarini, o‘z vaqtida, sifatlari qilib amalga oshirilishini ta‘min etish;

10. Inshootlarni ishlatish bo‘yicha texnik hujjatlarni yuritish, kundalik, har o‘n (yoki o‘n besh) kunlik, oylik, choraklik, yarim yillik, yillik *hisobotlarni* tuzish;

11. Gidrotexnika inshootlarining *xavfsizlik deklaratsiyasini* tuzish va belgilangan tartibda nazorat organiga taqdim qilish;

12. Gidrotexnika inshootlarini *kadastr ishlarini* olib borish va hisobotini tuzish;

13. Asosiy va yordamchi inshootlarni *qo‘riqlash*, tashqi muhitni muhofaza qilish; texnika va yong‘in xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalarini bajarilishini ta‘min etish;

14. Sug‘orish tarmoqlari, inshootlarni boshqarishga avtomatika va telemechanikani joriy qilish va h.k..

4.3. Gidrotexnika inshootlari ekspluatatsiya xizmati ishini tashkil qilish

Ekspluatatsiya xizmatini ishini rejalashtirishdan oldin barcha gidrotexnika inshootlari, ulardagi gidromexanik uskuna va qurilmalar, yordamchi qurilma

va uskunalar, mashina va mexanizmlar, er qazish mexanizmlari, transport vositalari, aloqa tizimi, nazorat yo'llari, ma'muriy, ishlab chiqarish, yordamchi binolar, muhofaza mintaqalari, har yili, texnik ro'yxatdan o'tkazilishi, gidro-texnika inshootlarining kadastr hisoboti tuzilishi shart.

Undan so'ng texnik ro'yhatdan o'tkazish natijalari va kadastr hisobotiga asoslanib ekspluatatsiya xizmati amalga oshirishi mo'ljallanayotgan ishlar hajmi aniqlanadi, barcha ishlarni inobatga olib shtat jadvali tuziladi. Har bir mutaxassis, ishchi – xizmatchilarning xizmat vazifalari aniqlanadi, ular xizmat vazifalari ro'yxati bilan ta'minlanadi.

Ekspluatatsiya xizmati amalga oshiradigan (boshqarish, suv taqsimlash, nazorat (kuzatish), texnik qarov, ta'mirlash, zamonaviy (mukammal)lashtirish, hisobot) ishlari, shuningdek materiallarning avariya zahirasi hajmi belgilanib, kelayotgan yil uchun ekspluatatsiya tadbirlari rejasি ishlab chiqiladi, u albatta vazirlikda tasdiqlanishi shart. Bu rejaning bir nusxasi bajarilishi kutilayotgan ishlarni mablag'lashtirish uchun talabnomha sifatida vazirlikda qoldiriladi.

Ekspluatatsion tadbirlarni tasdiqlangan rejasи tashkilotda bajarilishi kutilayotgan ta'mirlash ishlarni amalga oshirish uchun vazirlikning ruxsatnomasi hisoblanadi. Rejada ko'zda tutilmagan, buzulishlar oqibatida vujudga kelgan ta'mirlash ishlarni olib borish uchun vazirlikdan qo'shimcha ruxsat olish zarur, mazkur ruxsatnomasi yillik rejaga o'zgartirish kiritishga asos bo'ladi.

Foydalanuvchi tashkilotning yillik moliyaviy – xo'jalik rejasи ekspluatatsiya tadbirlari sarf – xarajatlari, transport, er qazish texnikasi xizmati, shtat jadvali bo'yicha ish haqi, xizmat (servis)larga to'lovlar, kadrlarni tayyorlash va mutaxassislarini qayta tayyorlash, malakasini oshirish xarajatlari, boshqa tashkilotlar bajarishi kutilayotgan ta'mirlash ishlari bo'yicha to'lovlar, elektr ta'minoti, yangi texnika va asbob – uskunalar, mashina – mexanizmlar, NO'A, qurilmalar sotib olish xarajatlari va boshqa xarajatlarni e'tiborga olib tuziladi. Uni bajarilishi, har yili, auditorlik xizmati tomonidan tekshirilib, tahlil qilib borilishi kerak.

Ekspluatatsiya xizmatining suv taqsimlash ishlari qat'iy ravishda, Suv xo'jalik vazirligi tasdiqlagan limit bo'yicha amalga oshiriladi. Suv tanqis paytalarida, limitdan chiqmagan holda, sersuv tizimdan kansuvli tizimga suv tashlab suv ta'minotini yaxshilash vazirlikning vakolatiga kiradi.

Ekspluatatsiya xizmati ob'ektlarni ekspluatatsiya qilish xususiyatlaridan kelib chiqib, texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi ko'rsatmalariga anqliklar kiritishi, anqliklar kiritilgan ko'rsatmalarini barcha ishchi – xizmatchi, muxandis – texnik xodimlar tomonidan bajarilishiga erishishi zarur. Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi rejasи ishlab chiqiladi, uni bajarilishi ta'minlanib, yil oxirida hisoboti tuziladi. Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalarini ba-

jarilishi doimiy nazoratda bo'lishi, uni o'tkazish tadbirlari mablag' bilan ta'minlanishi shart.

Ekspluatatsion tadbirlarni bajarilishi ustidan yuqori tashkilotlarga har kunlik axborotlar, o'n kunlik yoki o'n besh kunlik, oylik tezkor hisobotlar berib boriladi. Axborotlar va ma'lumotlarni ishonchliligi uchun tashkilotning boshlig'i yoki bosh muxandisi javobgar bo'ladi. Ekspluatatsion tadbirlar va kapital ta'mirlash, tizimni va ob'ektlarni qayta qurish, yangilash va yaxshilash bo'yicha hisobot belgilangan shakllarga muvofiq yuqori tashkilotlarga taqdim qilinadi. Uning boshliq imzolagan va tarkibi quyida keltirilgan tushuntirish xatida solishtirma ko'rsatgichlar bilan hisobot yilida erishilgan yutuqlar, ishdagi kamchiliklar va tizimning ishini yaxshilash bo'yicha takliflar keltirilishi zarur.

Ekspluatatsion tadbirlarni bajarilishi bo'yicha yillik-texnik hisobotining tarkibi

1. Kirish

2. Umumiy bo'lim.

- 2.1. Tashkilotning tuzilmasi (strukturasi), shtatidagi yillik o'zgarishlar. Mutaxassislarni malakasini oshirish va ularni ijtimoiy himoyalash.
- 2.2. Tashkilot tasarrufidagi gidrotexnika inshootlari va suv xo'jaligining boshqa yordamchi ob'ektlarining tarkibi va texnik xarakteristikalaridagi o'zgarishlar.
- 2.3. Tashkilot tasarrufidagi ob'ektlarning texnik holatini ta'mirlash bo'yicha servis (xizmat) ko'rsatish (mashina – mexanizmlar, texnik qurilmalar tarkibi va xarakteristikalaridagi o'zgarishlar).
- 2.4. YOrdamchi – xo'jaliklar va tashkilotning ishi, xarakteristikalarini o'zgarishi.
- 2.5. Olingan (byudjetdan va xo'jalik hisobidan ~~usloviy yoki boshqa mablag'~~, hamda sarflangan mablag'lar.
3. Suvni rejali taqsimlash va etkazib berish.
- 3.1. Suv manbalarining xarakteristikasi va suv ~~taqsimish hamda etkazib berish~~ rejasি.
- 3.2. Suv taqsimlash limiti va suvni iste'molchilariga etkazib berish. Suv iste'molchilariga berilgan ruxsatlar va iste'molchilarning ro'yhatining o'zgarishlar.
- 3.3. Suv o'lchash ishlari va joriy yilda suvdan ~~foydalanishning~~ Tizimni foydalish koeffitsienti.
4. Tashkilot tasarrufidagi gidrotexnika inshootlari, ~~ma'muriy va xo'jalik~~ binolar, yordamchi ob'ektlar, mashina va mexanizmlarni ~~soderjanie~~ oshlat turish.
- 4.1. Kuzatish (nadzor) ishlari.
- 4.2. Inshootlarga texnik qarov ishlari.
- 4.3. Inshootlarni (rejali va rejasiz) ta'mirlash ishlari.
- 4.4. Inshootlarni texnik mukammallashtirish (modernizatsiya yoki usovershenstvovanie) ishlari.

5. Mashina, mexanizmlar va er qazish texnikalarining ishlarini tahlili.
 6. Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va fuqarolar mudofaasi ishlari.
 7. Yillik ish yakunlari, solishtirma ko'rsatgichlar, xulosa va takliflar.
- Ekspluatatsiya xizmati zimmasidagi ekspluatatsion tadbirlarni o'z vaqtida, sifatli qilib bajarilishi uchun tashkilot kadrlarni tayyorlash, mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturini ishlab chiqishi, uni mablag' bilan ta'minlashi zarur. Tashkilotda mutaxassislarini kasb mahoratini yaxshilash maqsadida muntazam ravishda seminar – o'quvlar, tanlovlari, musoboqalar, iqtisodiy – texnik o'quvlar o'tkazilib turilishi lozim.
- Foydalanuvchi tashkilot «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi deklaratsiyasi va xavfsizlik deklaratsiyasining davlat ekspertizasi tug'risi»dagi Ni-zomga muvofiq gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi deklaratsiyasini tuzishi va uni davlat ekspertizasiga topshirishi lozim bo'ladi. Gidrotexnika inshootining xavfsizligi asoslab berilgan hujjatga gidrotexnika inshootining xavfsizlik deklaratsiyasi deyiladi.
- «Gidrotexnika inshootlarining kadastrini yuritish tartibi»ga muvofiq inshootlarni kadastro ma'lumotlarini to'plashi, tayyorlashi, kadastro ro'yxatidan o'tkazishga erishishi, kadastro hisobotini tuzishi kerak bo'ladi. Davlat suv kadastrini yuritadi.
- Ekspluatatsiya xizmati atrof – muhit va ekologiyani saqlash dasturini ishlab chiqishi, uni bajarilishi va amalga oshirilishini ta'minlashi zarur.
- Ekspluatatsiya xizmatini ishini olib borishga mo'tadil sharoit yaratish maqsadida, lozim bo'lsa, tashqi – iqtisodiy, hamdo'stlik, hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish zarur.
- #### **4.4. Gidrotexnika inshootlarida ekspluatatsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun ko'rsatiladigan xizmat (servis) turlari**
- Gidrotexnika inshootlaridan foydalanuvchi tashkilotlar gidrotexnika inshootlarini normal texnik holatini ta'minlash, ularga o'z vaqtida texnik qarovni o'tkazish maqsadida gidrotexnika inshootlariga o'z kuchi va tashqi (begona) tashkilotlarini jaib qilib bir qancha xizmat servis) turlarini ko'rsatadi. Ulardan tashkilotning o'z kuchi bilan amalga oshiradigan xizmat turlariga: ta'mirlash ishlari uchun loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, material – texnika ta'minoti, transport xizmati, qurilish-ta'mir texnikasini tayyorlash, texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish, elektr ta'minoti, aloqa xizmati, kommunal xizmat, kommunikatsiya xizmati, avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish, gidromexanik uskunalarini soz-lashlar kiradi

Tashqi (begona) tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlariga esa: t'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha - smeta hujjatlarini tayyorlash, qayta qurish va zamonaviylashtirish ishlarini loyiha-smeta hujjatlarini ekspertiza-dan o'tkazish, gidrotexnika yirik inshootlarini texnik holatining puxtaligi va bexa-tar ishlashi, xavfsizligini ekspertizasi, material – texnika ta'minoti, transport xiz-mati; qurilish – ta'mirlash ishlarini amalga oshirish, NO'Alariga texnik xizmat ko'rsatish, qurilish va er qazish texnikasiga xizmat ko'rsatish, avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish, elektr ta'minoti, nasos agregatlariga texnik xizmat ko'rsatish, gidromexanik uskunalarini sozlash, yonilg'i – moylash materiallarini et-kazib berish, pochta, telefon, telegraf xizmati, meteorologik va gidrologik xizmat, kompyuter texnologiyasiga xizmat ko'rsatish, sanitariya – epidemiologiya xizmati, (issiqlik ta'minoti, ichimlik suv, gaz va sh.o.) kommunal xizmatlar, arenda xizma-ti, ilmiy – tekshirish ishlari, suv osti – texnik xizmati, audit ishlari kiradi.

4.5. Gidrotexnika inshootlarni bexatar ishlatalish ko'rsatkichlari

Inshootlar quyidagi ko'rsatkichlar ta'minlanganda bexatar ishlatalayotgan hisoblanadi:

- Inshootlar loyiha bo'yicha eng ko'p (katostrofik) suv sarfini bemalol o'tkazish qobiliyatiga ega, buzulmagan, sinmagan, yorilmagan, cho'kmagan bo'lishi; to'g'onlar loyihada ko'zda tutilgan suv bosimini (naporini) ushlab tu-ra oladigan, bosimli qiyaligi qoplamlari buzulmagan, shishib chiqmagan, bosimsiz qiyaligi buzulmagan, suvni sizib o'tishi belgilari bo'lмаган.

- YUqori befida dam (podpor) hosil bo'lmaydigan, pastki va yuqori beflarida eng kam va eng ko'p (katostrofik) suv sarfi oqqanda yuvilish va loyqa cho'kishi bo'lmaydigan;

- Suv olib keluvchi va suv olib ketuvchi kanallarining o'zanlarini inshootga tutash qismlari buzulmagan, loyihada belgilangan eng ko'p suv sarfini (loyqa cho'ktirmasdan va o'zanini yuvdirmasdan) o'tkazadigan, o'zanlar bilan tutash qismlaridagi qoplamlari buzulmagan, sinmagan;

- Gidromexanik (zatvorlari, ularni ko'targichlar va b.sh.o.) uskunalarini kor-roziyaga uchramagan, chirimagan, zichlagichlari butun, suvni sizib o'tishiga yo'l qo'ymaydigan, ko'targichlari yog'langan va oson hamda tez boshqariladigan, qo'qim (musor) ushlovchi panjaralari chirimagan, inshootni mo'tadil ishlashiga halaqt qiladigan qo'qim, to'nka, shuningdek suvgaga tushib o'lib qolgan mayda va qora mollarni ushlab qoladigan, ularni chiqarib tash-lash uskunasi mavjud va u texnik soz bo'lган;

- YOg'ochli qismlari chirimagan, sinmagan, zamburug'li kasallikkarga uchramagan;

- Inshootlarni avtomatika va telemexanika qurilmalari texnik soz, suv o'lhash postlari va qurilmalari tarirovka qilingan, shahodatlangan, texnik xizmat uchun etarli texnika, mashina va mexanizmlarga ega;
- Inshootlarga keluvchi yo'llar soz holatda, aloqa tizimi bekamu- ko'st, nuqsonsov ishlaydigan, yuqori tashkilotlar, qo'riqlash idoralari, mahalliy hoqimiyatlar, ichki ishlari, favqulotda vaziyatlar idoralari, qurilish va transport tashkilotlari, ekspluatatsiya xizmati xodimlari bilan bog'lanish imkoniyatiga ega;
- Inshootlarning (flyutbeti) ostidan sizib o'tayotgan suvning bosimi (napori) so'ndiriladigan, teskari filtri va drenaj tizimi mo'tadil ishlaydigan;
- Inshootlarda o'rnatilgan barcha NO'A texnik soz va mo'tadil ishlaydigan, o'lhash ishlari, muddatlariga rioya qilinib, muntazam olib boriladigan;
- Material (qum, shag'al, tosh, yog'och – taxta, sement, qoplar va b.sh.o'.)larning avariya zahirasi, har bir material turidan Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi belgilagan me'yordagi hajmda, qoplar soni esa barcha qum va shag'alni solib buzulgan joyni berkitishga etarli miqdorda bo'lgan; Ehtiyyot qismlarning avariya zahirasi, belgilangan me'yorga muvofiq, son jihatidan etarli va asosiy hamda yordamchi gidromexanik uskuna va jihozlarni to'xtovsiz ishlatishini ta'minlay oladigan bo'lishi;
- Inshootlarni ishlatish qoidalari, loyihamalar, qabul qilish – topshirish dalolatnomalari kabi texnik hujjatlar mavjud, kuzatish natijalari yoziladigan va kundalik tezkor olib boriladigan hujjatlar jamlangan;
- Inshootlarning nomi, texnik tavsifi, qurilgan va qayta qurilgan yili, loyihami tashkiloti yozilgan taxta o'rnatilayotgan va reperlar ro'yxati bo'lgan;
- Ekspluatatsiya xizmati boshqaruv apparati mutaxassislari, Gidrotexnika inshootlariga xizmat ko'rsatuvchi muxandis – texnik, yordamchi mutaxassislari zaruriy malakaga va kasbga ega bo'lishlari shart.

4.6. Gidrotexnika inshootlarining texnik holati va bexatar ishlashini nazorat qilish (kuzatish) ishlari

Gidrotexnika inshootlarini texnik holatini nazorat qilish (kuzatish) ishlari nazorat – o'lchov asbob (NO'A)larini tayyorlash va ularni shahodatlash. kuzatish jurnallarini tutish hamda bevosita kuzatishlarni olib borishdan iboratdir. u ko'z bilan, NO'A yordamida va maxsus kuzatishlarni o'z ichiga oladi (+4.1 – jadval).


Ko'z bilan kuzatish muntazam (doimiy) va davriy bulib **har kunlik** va loyihamda belgilangandek davriy ravishda gidrotexnika inshootlarini texnik holatidagi o'zgarish va buzulishlarni tavsiloti hamda tasvirini chizib ko'rib chiqishdan iborat bo'ladi.

Gidrotexnika inshootlari va ulardag'i gidromexanik uskuna hamda qurilmalarning texnik holatidagi o'zgarishlar, buzulishlar, shuningdek tozalash va ta'mirlash ishlari hajmi, gidravlik elementlarini o'lchash, NO'A yordamida, ekspluatatsiyaning dastlabki, birinchi yillarda, deyarli har kuni yoki loyihada belgilangandek, keyingi yillarda esa ishning turiga qarab har 5 – 10 kunda yoki 4.2 – jadvalda tavsiya qilingan muddatlarda, yoki umuman loyihada belgilangan muddatlarda, jurnallarga yozilib, olib boriladi.

Yil boshida kuzatish ishlarini yillik kalendar grafigi (rejasi) tuzilishi lozim, unda har bir gidrotexnika inshooti (gidrouzel)ni texnik holatini kuzatish ishlari turlari ko'rsatilgan, ularni olib borish muddatlari belgilangan bo'lishi kerak.

Avariya holatlarida, kuzatish ishlarining yillik grafigidan tashqari, vaziyatdan kelib chiqib, muntazam ravishda, avariya holati bartaraf qilinguncha kuzatish ishlari olib boriladi.

Kuzatish ishlarini natijalari bo'yicha beflardagi suv sathlarini o'zgarish grafigi, inshootlardagi balandlik markalarini vaqt bo'yicha cho'kish grafiklari, harakterli stvor (kesim)larni cho'kish profillari, depressiya egi chizig'ini o'zgarish grafigi, mahalliy yuvilishlarni (geologiyasini ko'rsatib) bo'ylama va ko'ndalang profillari, yuvilish va loyqa cho'kishini gorizontallar orqali ko'rsatilgan plani (rejasi), suv omborida loyqa cho'kishini bir birini ustiga tu-shirilgan profillari, vaqt bo'yicha suv sarfini o'zgarishi grafigi, suvni uyurma(vodovorot)si planlari, tranzit oqimlarni planlari, harakterli stvorlardagi tezliklar epyuralari.



Kuzatish ishlarini o'tkazishni tavsiya qilinadigan davriyiligi

4.2 – jadval

No	Kuzatish ishlarini nomlari	Davriyiligi (muddatlari)
1	2	3
1	Gidrotexnika inshootlarining texnik holatidagi o'zgarish va buzulishlarni (tavsifini yozib va tasvirini chizib) ko'rib chiqish hamda kuzatish jurnaliga qayt qilib borish.	Har kuni
2	Gidrotexnika inshootlari beflaridagi suv sathini kuzatish va o'lhash	Har kuni, 2 marta, ertalab 8:00 da, kechqurun 20:00 da.
3	Inshootlar va ulardagi gidromexanik qu-rilmalarni texnik holatidagi buzulishlarni o'lhash, shuningdek reperlar, markalar va pezometrlar quvurlarini og'zini nivelirlash	Har kunda 1 marta, buzulishlar turg'unlashganda oyiga 1 marta
4	Huddi shunday buzulishlar rivojlanayotgan davrda, suv ombori tezlik bilan to'ldirilayotgan yoki bo'shatilayotgan davrda; sel va toshqin, kuchli yomg'ir, shamol bo'lganda	5 kunda kamida 1 marta, bu holatlar vujudga kelganda muntazam ravishda
5	Drenaj va filtratsiya (sizib o'tish) manbalaridagi suv sarfimi o'lhash (pezometrlarni o'lhash)	Filtratsiya paydo bo'lгanda har kuni, keyin oyiga kamida 2 marta
6	Huddi shunday toshqin va kuchli yomg'ir paytida	Har kuni
7	Beton galereyalar, tezoqarlar, boshqa sh. o': inshootlardagi vaziyatni tasvirini chizib ko'rib chiqish	Har oyda 1 martadan choraklikda 1 martagacha
8	Inshootlarning suv ostidagi qismlarini g'ovvoslar yordamida ko'rib chiqish	Yiliga 1 marta
9	Sel va toshqin suvlarini o'tkazib yuboruvchi inshootlar, drenaj qurilmalarini ko'rib chiqish	Sel va toshqin paytida har 2 soatda, sel va toshqin suvlari o'tgandan so'ng, har chorakda 1 marta
10	Qirg'oqlarni yuvilishi va oqizindilarni cho'kishini kuzatish	Har oyda 1 marta, toshqin payti, suv omborini tezkorlik bilan bo'shatishda har kuni
11	Muz hosil bo'lishi va erishini kuzatish	5 sutkada kamida 1 marta
12	Kimyoiy tahvil uchun namuna olish	Har 3 oyda 1 martadan yiliga 1 martagacha
13	Kanallar, kollektorlardagi suvning sarfi, tezliklari, gidravlik elementlari, loyqalik (g'adir – budurlik koeffitsienti bilan) foydali ish koeffitsientini o'lhash	Har 10 kunda 1 marta, yuvilish va loyqa cho'kishi kuzatilganda shu joyni o'zida iloji boricha, har kuni
14	Inshootlardagi zo'riqishni o'lhash	Loyha bilan belgilangan muddatlarda
15	Grunt g'ovvakligi pezometrik bosimi va zo'riqish holatini kuzatish	Qurilish davrida har 1-2 oyda 1 marta, suv ombori

		to‘ldirilayotganda 7-10 kun-da 1 marta. inshootni ishlati-lishini 1 - yilda – har oyda. inshootni ishlatishni keyingi 2-4- yilda – har chorakda. undan keyingi yillarda esa – har yarim yilda 1 marta
16	Suv haroratini o‘lchab borish	Boshgidrometni tavsiyasiga muvofiq
17	Erdan foydalanish koeffitsientini o‘lhash	Yiliga kamida 1 marta
18	Kuzatuv quduqlari yordamida erni, meliorativ ho-latini nazorat qilish	Har chorakda, yiliga kamida 2 marta
19	Nasos stansiylarida elektr dvegatellarani tok kuchi va quvvati, aylanish tezliklarini nazorat qilib borish	Nasos stansiylarini ishlatish qoidalariga muvofiq
20	Gidrouzel inshootlarini komissiya tuzib ko‘rib chiqish (obsledovanie), tozalash va ta’mirlash ishlari hajmini o‘lhash, defekt dalolatnomalari tuzish	Bahorda sel va toshqin o’tgandan so‘ng, sug‘orish mavsumida va undan so‘ng ko‘zda

Eslatma: Har bir gidrotexnika inshootining xususiyatlardan kelib chiqib, kuzatishlarni olib borish muddatlari va kuzatish ishlari ro‘yxatiga o‘zgartirishlar kiritish har bir ob‘ektning ishlatish qoidalarida nazarda tutiladi.

(vaqt bo‘yicha) choklarni ochilishi grafiklari va loyiha bo‘yicha boshqa shularga o‘xshash grafiklar chiziladi.

Inshootlarni mo‘‘tadil ishlatish nuqtai nazaridan kelib chiqib barcha o‘lchamlarni loyihaga nisbatan o‘zgarishi tahlil qilinadi, inshootlarni ishonchli ish-lashi (otsenka nadyojnosti) baholanadi, ta’mirlash – tiklash, qayta qurish ishlarni amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi;

Kuzatish ishlari natijalari bo‘yicha hisobot tuziladi, u yillik ekspluatatsion tadbirlar hisobotiga kiritiladi va unga barcha grafiklar va tahlillar, taklif va tavsiyalar ilova qilinadi.

4.7. Gidrotexnika inshootlariga texnik qarov ishlari

Barcha turdaggi gidrotexnika inshootlari, ularning gidromexanik uskunala-ri, suvni o‘lhash va hisob-kitobini olib boruvchi qurilmalariga texnik qarov (uxod) har kunlik, davriy va maxsus qarovalarni, mo‘‘tadil texnik holatini ta’mirlash uchun zarur bo‘ladigan ekspluatatsion tadbirlarni o‘z ichiga olib, ularni qo‘riqlash, ularga texnik xizmat ko‘rsatish, ularni mayda – chuyda ta’mirlash ishlarni bajarish kabi bir necha ishlardan iborat bo‘ladi.

Inshootlar va ularning gidromexanik uskunalari ustidagi qo‘qimlar har kuni ~~sururib~~ olinishi, artib tozalanishi shart. Nasos agregatlari, elektr dvigatellarini ish ~~so‘zlarini~~ hisobga olinib, tayyorlovchi zavodlarning ko‘rsatmalariga muvofiq,

ularga texnik qarov amalga oshirilishi, zatvorlar, qo'qim ushlovchi panjalarlar oldidagi suzib, oqib kelgan qo'qimlar, xas-xus yig'ishtirilib olinishi, zatvorlarini o'zi ko'rikdan o'tkazilishi, lozim bo'lsa, ko'targichlari yog'lanishi kerak.

Beton sirtlardan ko'chib tushgan kichik hajmdagi betonlar o'rinalarini, yoriqlarni, ko'chgan suvoqlarni suvab qo'yish, er teshar hayvonlar (zararkunandalari)ni inlarini buzush, izolyasiyani kemiruvchi hayvonlar kemirib, ochilib qolgan joylarni izolyasiya qilib qo'yish, zatvorlar osti, inshootlar teshiklaridagi cho'kindi va qo'qimlarni tozalash (ba'zi bir inshootlarda yuqori beflarda to'planib qolgan cho'kindilarni mexanik yoki gidravlik usulda yuvib tozalash), uzilgan simlarni ulash kabi ta'mirlash ishlari bajarilishi kerak.

(Suvdan tashqaridagi) metall sirtlar ustidagi korroziya (zang)lar tushirilishi, zanglashga qarshi bo'yash, mo'mlash, bo'shagan bolt – gayka (murvat)larni burab, qisib tortib qo'yish, tayyorlovchi zavodlarning ko'rsatmalarga muvofiq nazorat – o'chov asboblarini to'g'rilash (regulirovka qilish), lozim bo'lsa, mayda – chuyda ta'mirlash ishlarni bajarish va ularni texnik soz holatga keltirish.

Er teshar, kemiruvchi (zararkunanda) hayvonlar paydo bo'lganligi (belgilari) sezilsa, ularga qarshi kurashish xizmatiga buyurtma berish va bunday zararkunandalarni yo'qtish choralarini ko'rish lozim.

Sel kelishi mumkin bo'lgan joylar, sel va toshqin bo'ladigan muddatlar o'rganilishi, bu muddatlardan oldin barcha inshootlarni teshiklari toshqin va sel suvlarini betalofat o'tkazib yuborishga tayyorlab qo'yilishi kerak, buning uchun, ogohlantirish vositalari tekshirilishi, inshootlarni qo'qim ushlovchi panjaralari, teshiklari oldida to'planib qolgan cho'kindi va qo'qimlar har kuni tozalab olib tashlanishi shart. Sel va toshqin kutilayotgan muddatdardan oldin toshqin komissiyasi tuzilishi, kechasiyu – kunduzi navbatchilik tashkil qilinishi, aloqa vositalari, er qazish texnikasi, mashina va mexanizmlar tayyorlab qo'yilishi, shuningdek kerakli materiallarning avariya zahirasini o'rni har kuni to'ldirilib borilishi shart.

Inshootlar qishqi mavsumga tayyorlab qo'yilishi, har kuni muzlash jayroni kuzatilishi, inshootlarning teshiklari, qo'qim ushlovchi panjaralari oldidagi muz maydalanishi (sindirilishi), zatvorlar ishonchli ishlatalishini ta'minlash uchun, lozim bo'lsa, ko'targichlar va zatvorlarni isitish choralarini ko'riliishi zarur.

Inshootlar va ularning gidromexanik qurilmalari, jihozlarini o't (olov) chiqishi mumkin bo'lgan joylari oldida chekish, kavsharlash, olov yoqish, shuningdek olov chiqishiga olib keladigan barcha tadbirlarni amalga oshirilishiiga yo'l qo'yilmaydi.

Kundalik texnik hujjatlar, jurnallar to'lg'azilishi, ularni yo'qolmasligi uchun barcha choralar ko'riliishi zarur.

Inshootlar atrofidagi ekinzor, daraxtzorlarga qarab turish, ularni sug'orish, eriga ishlov berish, daraxtlarni butash, sel va toshqin paytida, kam vaqt ichida, toshqinni yo'lini to'sish (berkitish)ga kesib oladigan qilib, tayyorlab qo'yish lozim. Suv muhofazasi mintaqalaridan unumli va maqsadli foydalaniladi.

V. Kanal tizimida ekspluatatsiya xizmati.

5.1 Ishchi – xizmatchilarni sonini belgilash

Kanal tizimiga xizmat ko'rsatuvchi ishchi - xizmatchilar soni Respublika qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan 1997 yilning 26 – noyabrida tasdiqlagan me'yoriy hujjat asosida aniqlanadi. Tasdiqlangan me'yoriy hujjatga ko'ra shtat belgilashda kanal tizimi-ning sinfi e'tiborga olinadi. Kanal so'g'oradigan maydon miqdoriga qarab kanal sinfi QMQ 2.06.03 - 97 dan aniqlanadi. Agarda sug'orish maydoni:

- 300 ming gektardan ortiq bo'lsa 1- sinfga;
- 100 ming dan 300 ming gektargacha bo'lsa II - sinfga;
- 50 ming dan 100 ming gektargacha bo'lsa III- sinfga
- 50 ming dan kam bo'lsa 1V - sinfga mansub bo'ladi..

SHunigdek, Respublikamizda mavjud gidromeliorativ tizimlarning texnik ta'minoti ham uni sinfiga qarab belgilanishi me'yoriy xujjat-larda qayd etilgan. Masalan: 50 ming gektardan ortiq sug'orish maydoni bo'lgan gidro-meliorativ tizim uchun 450 ta suv o'lhash posti, 350 km telefon a'loqa simi va 200 ta xizmat qiluvchi xodim shtati ajratilsa , 50 ming gektardan kam sug'orish maydoniga ega gidromeliorativ tizim uchun esa 300 ta suv o'lhash posti 200 km telefon a'loka simi 150 xizmat qiluvchi xodim shtati ajratildi.

Sug'orish tizimlarini boshqarish apparatini xodimlari soni ham tizim sinfiga karab belgilaniladi. Masalan: 60 ming gektar maydonni so'g'oradi-gan tizimidagi markaziy boshqaruv apparati xodimlari soni 20 ta bo'lsa 3 - 5 ming gektar maydonni so'g'oradigan tizimida 5 ta bo'ladi.

Apparat xodimlarining soni va mutaxassisligi, ular bajaradigan ishning hajmi va mohiyatiga karab belgilanadi. Gidromeliorativ tizimda uchastka gidrotexnigi, texnik, gidrometr, inshoot gidrotexnigi, kuzatuvchilar va yordamchi xodimlar (farrosh, karovul va x.k.) shtatlari mavjud bo'ladi.

Ishchi – xodimlar tarkibi va sonini belgilash kanalga biriktirilgan sug'orish maydoniga yoki bosh kanal suv sarfiga bog'liq holda tuziladi

Birinchi usulda:

- uchastka gidrotexnigi shtati - har 3000 ga sug'orish maydoniga yoki 25 km sug'orish tizimi uchun bir kishi;
- gidrometr – har 3000 ga so'g'oriladigan maydon uchun bir kishi;
- suv nazoratchilari - har 100 ga sug'orish maydoni yoki 1-212 km sug'orish tarmog'i uchun bir kishi;

- kuzatuvchi – gidrometr – gidrometrik postlarning o‘zaro uzoq yaqinligiga karab 5-10 postga (suv sarfi $5 \text{ m}^3/\text{sek}$ dan kam bo‘lmagan inshootlar uchun) bir kishi ajratilishi tavsiya etiladi.

Ikkinci usulda esa bosh kanal suv sarfi, kanalning xar 10 km uzunligidagi inshootlar va gidropostlar soniga qarab gidrouzelga va kanal uchastkasiga xizmat ko‘rsatuvchi rostlovchilar, kuzatuvchilar, chilangir ta‘mirlovchi va elektr - gaz payvandchi shtatlari belgilanadi (5.1 - jadval)

5.1 – jadval


Kanalning 10 km uzunligida joylash- gan gidrotexnik inshootlar va gidropostlar soni	Bosh kanaldagi suv sarfiga bog‘liq 10 km kanal uzunligi uchun belgilangan ishchi - xizmatchilar me’yoriy soni, m^3/s .					
	2,0 gacha	2,1-10	11-25	26-50	51-100	100 dan ortiq
5 tagacha	0,5	0,8	1	1,3	1,5	1,8
6-10	1	1,3	1,5	1,8	2	2,3
11- 15	1,5	1,8	2	2,3	2,5	2,8
16-20	2,0	2,3	2,5	2,8	3,0	3,3
21-25	2,5	2,8	3,0	3,2	3,5	3,8
26-30	3,0	3,2	3,5	3,7	4,0	4,2

Bundan tashkari gidrouzel uchun injener-texnik xodimlar belgilangan me’yorlar asosida qobul qilinadi, 5.2 - jadvalda Mirzacho‘l gidrobog‘-lamalari va Do‘stlik kanali boshqarmasining tarkibiy tuzilishi, 5.3 - jadvalda esa ekspluatatsiya ishchi - xizmatchilari tomonidan amalga oshiradigan asosiy ish turlari ro‘yhati keltirilgan.

Magistral kanal ekspluatatsiyasini tashkil qilish uchun kanal uzunligi bo‘yicha bo‘limlarga ajratiladi. Har bir bo‘lim 50 ...120 km uzunlikka ega bo‘lishi lozim Bo‘lim esa uzunligi 20 ... 25 km bo‘lgan gidrotexnik uchastkalarga bo‘linadi. Ishlarini tashkil qilish uchun uchastkaning 10 ...13 kmga bir dona kuzatuvchi, har bir gidrouzeliga esa texnik va 3 ...4 rostlovchi shtati belgilanadi.

Mirzacho'1 gidrobog'lamalari va Do'stlik kanali boshqarmasining tarkibiy tuzilishi

5.2 - jadval



Ekspluatatsiya xizmati amalga oshiradigan asosiy ish turlari.

5.3 - jadval

Tashkilotni boshqarish	<ol style="list-style-type: none"> 1. SHtat va kadrarni tarkibini belgilash; 2. Moddiy texnik va moliyaviy ta'minot; 3. Transport; 4. Dispetcherlik xizmati; 5. Komunikatsiya (aloqa, nazorat yo'llari); 6. Xizmat vazifalarining taqsimoti; 7. Texnik kengash; 8. Loyiha va ilmiy tekshirish institutlari bilan aloqa; 9. YORDAMCHI xo'jalik va muhofaza mintaqalari; 	<ol style="list-style-type: none"> 10. Jamoat tashkilotlari; 11. Xo'jalik hisobidagi qurilish – ta'mirlash tashkilotlarini ishini tashkil qilish; 12. Ishchi xodimlarni malakasini oshirish (seminar, o'quv ko'rgazmalar boshqalar); 13. Sel va toshqin komissiyalarini tashkil qilish; 14. Xujjatlar to'liqligini ta'minlash (loyihalar, qaror va ko'rsatmalar, hisobotlar); 15. Hamdo'stlik aloqalarini tashkil qilish va boshqalar.
Suv tiaqsimoti	<ol style="list-style-type: none"> 1. "Is'temolchi" larni suvdan foydalanish rejasini tuzishda qatnashish; 2. Kanalning yillik limitini o'rnatish; 3. Inshootlar va gidropostlarni tayyorlash va shaxodatlash; 	<ol style="list-style-type: none"> 4. Is'temolchilarni suv olishga tayyorgarligini nazorat qilish; 5. Suv berishni hisobi; 6. Berilayotgan suvning har dekadadagi taxlili; 7. Tarmoqlararo suv taqsimlash. 8. Suv taqsimoti bo'yicha yillik hisobtni tayyorlash.
Nazorat (ko'zatish)	<ol style="list-style-type: none"> 1. NO'A larini tayyorlash va shaxodatlash; 2. Ko'z bilan xar kunlik ko'zatish va natijasini qayd qilish; 3. NO'A yordamida davriy kuzatish va natijasini qayd qilish;; 	<ol style="list-style-type: none"> 4. Texnik holatni aniqlash maqsadida komissiya tuzish va xulosalarini rasmiylashtirish; 5. Kuzatish natijalarini taxlil qilish.
Texnik qarov	<ol style="list-style-type: none"> 1. Xar kunlik supurib va artib tozalash; 2. Inshoot qirg'oqlari va atrofida o'smag'an o'tlarni chopish; 3. Mexanik qismalarni yog'lab turish; 4. Inshootni oqizindisi jismlardan tozalash; 	<ol style="list-style-type: none"> 5. Er teshar va kemiruvchi jonzotlarga qarshi kurashish; 6. Ko'chgan yoki uvalangan kichik kichik hajmdagi ishlarni bajarish; 7. Inshootni quriqlash; 8. Sel va toshqin suvlarini o'tkazish,

Ta'mirlash	1. Ta'mirash turini aniqlash; 2. Ta'mirlash ishlarini bajarish rejasini tuzish; 3. Ta'mirlash ishlarini bajarishni tashkil qilish; 4. Ta'mirlash ishlarini bajarish sifatini nazorat qilish;	5.6. Bajarilgan ishlarni qabul qilish; 7. Filtratsiya, loyqa bosish va o't o'sishiga qarshi tadbirlar; 8. Avariya – ta'mirlash ishlarini bajarish uchun materiallar zaxirasini yaratish; Sel yoki toshqin suvlar o'tkazilgach o'zanda ta'mirlash ishlarini o'tkazish.
Hisobot	1. Suv taqsimoti bo'yicha kunlik, dekadalik, oylik, yillik; 2. Rejani bajarilishi bo'yicha yillik hisobot; 3. Sel va toshqin komissiyasi hisoboti;	4. Chorak va yillik moliyaviy hisobot; 5. Kadastr hisoboti; 6. Mexnat muxofazasi va texnika xavfsizligi hisoboti; 7. Yordamchi xo'jalik hisoboti; 8. Kuzgi – qishki ishlar hisoboti; 9. Kuzatish ishlari hisoboti.
Rejalashtirish	1. Yillik moliyaviy xo'jalik reja; 2. Ekspluatatsiya tadbirlarini yillik rejası; 3. Inshootni zamonaviy-ashtirishni kelajak rejası;	4. Ishchi – xizmatchilarni himoyalash rejası; 5. Sel va toshqin suvlarini o'tkazish rejası; 6. Kuzatish ishlari rejası rejasi.

5.2.. Kanalni foydalanishga topshirish davrida ularni suvgaga to'ldirish va suvdan bo'shatish rejimi. Kanaldaғi filtratsiya jarayoni.

Kanal trassasi cho'kadigan gruntlardan o'tgan bo'lsa uni *ishga tushirish davrida to'ldirish rejimiga* katta ahamiyat beriladi. Grunt ni yuvilish jadalligi gruntuning fizik-mekanik xossalariiga bog'liq bo'lmay balki uning namligiga ham bog'liqdir. Misol uchun, T.G.Jordaniya ma'lumotlariga ko'ra gil grunt havodagi – quriqholating 10...13% namligida yuvilishga yo'l qo'ymaydigan tezligi $v_{yu y q} = 0,3 \text{ m/s}$. Ayni paytda gilning namligi 30...34 va 40...42% bo'lganda mos ravishda yuvilishga yo'l qo'ymaydigan tezlik 0,5 va 0,75 m/s tashkil etadi. SHuning uchun ham kanal ishga tushirilayotganda oralari dambalar qilinib kanal uchastkalari to'ldirilib namlandi. Ko'p holatlarda kanal to'ldirilgandan 10 minutdan o'tgandan so'ng kanalni yuvilish jadalligi namlanmagan xolatiga nisbatan 5...6 martaga kamayadi. Kanalni namlash vaqtida 1 soat bo'lishi lozim.

Kanalni namlash usullari bo'yicha har xil takliflar mavjud. Ayni paytda bu masala kam o'rganilgan bo'lishiga qaramasdan bu sohada ma'lum bir ishlar qilingan. Misol uchun ISMITI (SANIIRI) kanalga qisqa vaqtga (1 soat atrofidagi vaqt) uncha katta bo'Imagan miqdorda suv qo'yishini tavsiya qiladi. Bunda kanal qirg'oqlari cho'kadi, zichlashadi, gruntning mayda zarrachalari esa bir biri bilan birikishib sementlashadi. Undan keyin sekin astalik bilan kanalni to'ldirish uchun suv sarfi oshirib boriladi.

Toshkent viloyati Parkent magistral kanalini ($57 \text{ m}^3/\text{s}$) qurilishida gruntni namlash to'kma grundagi transheya yordamida amalga oshirilgan. Bu transheya bo'ylab suv o'tkazilgan, keyin bir yildan so'ng u kengaytirilgan. Uch yillik namlash va kengaytirishlardan so'ng kanalga loyihibiy kesim berilgan. Gruntlarni namlash va qazishning boshqa usullari ham mavjud, misol uchun Qoraqum kanalida kanal kovlama (въемка) dan o'tgan uchastkalarida pioner (dastlab) kesimi (прорез) qilib grunt yuvilgan. Kanalni asta-sekin suv bilan to'ldirish shuning uchun kerakki, kichik chuqurliklarda grunt g'ovvakliklaridagi havo kam gradientda siqib chiqariladi. Bu holda grunt sekin qayta zichlashadi.

Kanal to'ldirilayotganda uning tubini, qiyaliklari va dambalarini cho'kishiga ahamiyat beriladi, chunki suglinokli grunt (soz tuproqli)larda yoriqlar hosil bo'ladi. CHO'kish 10...15 sm va undan ko'p bo'lishi mumkin. Y.U.M. Kuzminov ma'lumotlariga ko'ra Toshkent viloyati Jun kanalida dastlabki namlashsiz suglinokdan qilingan dambalarни cho'kishi 23 yil ichida 57% tashkil qilgan.

Ishlatishning dastlabki yillarda kanal dambalarini suv yorib o'tishi ham mumkin, ISMITI (SANIIRI) ma'lumotlariga ko'ra Jizzax magistral DM-3 kanali ($18.6 \text{ m}^3/\text{s}$) o'zani suglinok va qumoq gruntuдан o'tgan. Kanal ishga tushirilguncha trassadagi grunt suvlarining sathi 18...20 metrni tashkil qilgan. Kanalni ishga tushirish maqsadida 6 2 soat namlanganda uning dambasi uch uchastkada yorilgan (yorilgan joylar kanalni kollektorlar bilan kesishgan joyiga to'g'ri kelgan ya'ni kontakt filtratsiya hosil bo'lishi natijasida sifatsiz zichlangan to'kma damba yorilgan).

Kanal to'ldirayotgan payti unga alohida e'tibor qilinadi, har 0.5...1 km ga nazoratchi tayinlanib kanal holati ustidan nazorat olib boriladi. Kanalni boshlang'ich to'ldirish davrida avariya brigadalari, mashina va mexanizmlar taxt turishi lozim. ayrim xavfli joylarda shikastlanish va avariyalarni tezkor bartaraf qilish uchun materiallarning zahiralari tayyor turishi kerak. ISMITI (SANIIRI) ma'lumotlariga ko'ra yirik kanallarda to'ldirish jadalligi $0.15 \text{ m}/\text{сут}$.dan oshmasligi kerak. Bu qiymat Tuyamuyin magistral kanali va boshqa kanallarni ishga tushirish tajriba-laridan kelib chiqib belgilangan.

Ta'mirlashdan keyin ham kanalni to'ldirish rejimi ma'suliyati davr hisoblanadi. Bunda ham kanal holatini uzlusiz kuzatib borish nazardan chetda qolmasligi kerak. Bu holatda suv sarfi kam-kam berilib to'ldirilmasa tubi va qiyaliklarini yuvilishi kuzatilishi mumkin. Kanal to'ldirilayotganda to'lqin tezligi tekis harakat paytida yo'l qo'yiladigan suv tezligidan 2...3 marta kam bo'lishi kerak, aks holda kanal qiyaliklari va tubini deformatsiyalanishiga olib keladigan noxush jarayonlar vujudga kelishi mumkin. Kanalni to'ldirish moboynida suv sarfi sekinlik bilan ko'paytirib boriladi. Bu ish pastki to'suvchi inshootlarni ochish bilan birga olib boriladi va kanalning hisobiy suv sarfiga etguncha to'ldirish davom etkiziladi. Ekspluatatsiyaning dastlabki yillarda kuzatishlar kuchay-tirilgan rejimda olib boriladi, kuzatishlar suvni sizib o'tishi (filtratsiya), drenaj tizimlarini ishlashi, shuningdek kanalda qurilgan gidrotxnika inshootlarining holati ustidan olib boriladi. Kanalni to'ldirish va dastlabki yillarda ishlatish davrida aniqlangan barcha deformatsiyalar, oqimning xarakterli rejimlari diqqat bilan maxsus jurnalga yozib quylindi. Jurnalda deformatsiya aniqlangan vaqt, shikastlanish yoki defekt tavsifi va uning tasviri ko'rsatiladi.

Bo'shatish rejimi - suvni tekis harakatiga hisoblangan kanal tagiva qiyaliklarini yuvilishi odatdag'i ekspluatatsiya sharoitlariga nisbatan ancha xavfsiz. Ammo kanalda suv sathi birdan tushganda er osti suvlaridan kelayotgan filtratsion oqim qiyalik tomon yo'naladi, bu gruntga qo'shimcha gidrodinamik bosim hosil qiladi. Bu holatda qiyalikning turg'unligi buzuladi va u o'pirilib tushadi. Agar qiyalik drenaj tizimlarisiz qoplamaga ega bo'lsa filtratsion oqim uni mustahkamlovchi plitasini siqib chiqaradi. Bunday holat ko'proq mashina kanallarida uchraydi, chunki undagi suv sarfi nasos aggregatlari soniga proporsional, bitta bo'lsayam ishlamay qolsa suv sathi bardaniga sezilarli darajada pastga tushadi. Xuddi shunday shikastlanish Qarshi magistral kanalining koplamada qurilgan № 3 va № 4 nasos stansiyalari oralig'ida kuzatilgan. O'shanda (2002 y.) № 3 nasos stansiyasida elektr toki o'chib qolgan, № 4 nasos stansiyasi esa ishlab turgan, suvsiz qolgan kanaldagi mustahkamlovchi plitalar ko'tarilib o'zanga tushgan. Plitalar ostidagi filtratsiyaga qarshi qo'yilgan plenka shishib chiqqan, u sim bilan teshilganda bosim ostidaturgan suv buloq – (fontancha) bo'lib otildi. Bu filtratsiya oqimi gidrodinamik bosim hosil qilganligini bildiradi.

Kanalda suv sathini maksimal tushish tezligi har doim muayyan sharoitdan kelib chiqib kanal o'tgan geologik tuzilma va kanal qoplama-sining konstruksiyasiga bog'liq. Bunday tezliklarni taxminan 5.4 - jadval bo'yicha aniqlash mumkin. Har xil bo'shatish qatlamlari uchun suv sathini tushishining maksimal tezliklari (m^3/s)

To‘g‘on, damba va kanallar grunt suvlari qiyaliklari	Bo‘shatish qatlami		
	0...1	1...2	2 dan ko‘p
Tosh yoki beton plitalar bilan mustahkamlangan	0,6...0,4	0,3...0,25	0,2...0,15
mustahkamlanmagan	0,4...0,25	0,25...0,2	0,15...0,1

Ishga tushirish va ekspluatatsiyaning boshilanishi davrida kanallarda, SANIIRI ma’lumotlariga ko‘ra, sathini tushish tezligi 0,15...0,2 m/sut dan oshmasligi kerak, bunda qiyaliklarda yoriqlar va buzulishlar hosil bo‘lmaydi.

Suv berish grafigini bajarish maqsadida, ba’zan qisqa vaqt ichida (1...2 sut) sarfni 50...60 % tushirishga, undan keyin esa ya’ni oshirishga to‘g‘ri keladi. Bu holatda to‘ldirish yoki bo‘shatish rejimi ma’lum bir miqdorda bosh reguliyatoridagi zatvorlarni manyovrlashga ham bog‘liq bo‘ladi. Bunda har xil rejimlar kuzatilishi mumkin, ular orasidan asosiyisini ajratib olish mumkin.

Kanalda inshootdan o‘tayotgan suv miqdorini oshirish pastki b‘efda to‘ldirish to‘lqinini hosil qiladi, suv miqdorini kamaytirish esa qaytish to‘lqinini hosil qiladi. Kanal oxirida joylashgan regulya-torni zatvorlari zudlik bilan yopilganda oqim bo‘yicha tepaga harakat qilayotgan kuchaygan (ko‘tarilgan) to‘lqin vujudga keladi. Hosil bo‘lgan to‘lqin kanal o‘zaniga xavf to‘g‘diradi, chunki bunday holatda, kanalda suv tashlama inshoot mavjud bo‘lmasa, suv kanal qirg‘oqlaridan oshib tushishi, oqimni dim egri chizig‘ini hosil qilishi yoki kanal dambalarini yuvishi mumkin. Kanal oxiridagi inshoot oraliqlari tezlik bilan ochilganda esa oqim bo‘yicha t epaga harakat qilayotgan t ushish t o‘lqini hosil bo‘ladi.

Kanal ishini nazorat qilish uchun gidravlika kursidan ma’lum bo‘lgan formulalardan foydalanilib kanalning ko‘riladigan kesimdagisi chuqur-likni aniqlash imkoniyatini beradigan tranzit sarflarni hisobga olib oqim bo‘yicha yuqorida va pastda joylashgan reguliyator zatvorini manyovrlashiga bog‘liq grafik va nomogrammalar quriladi.

Kanalning ishslash rejimi suv tashlama inshootlarni konstruk-siyasiga, joylashgan o‘rnini va mavjudligiga ham bog‘liq. Kanalni eksplua-tatsiya qilishning optimal rejimi uni tekis harakat rejimiga yaqin shart sharoitda eng kam suv tashlama sarfiga ega qilib yoki umuman suv tashlamasdan to‘ldirish va bo‘shatishdan iborat.

Nisbatan katta uzunlikka ega kanal uchastkasiga suv berish to‘xtatila-yotganda yuqorida joylashgan to‘suvchi inshootlar yopiladi, so‘ng esa bir muncha vaqt o‘tgandan so‘ng – pastda joylashgan inshootlarning oraliqlari yopiladi. Suv

o'tkazuvchi inshootlar oraliqlarini yopish yuqoridagi tavsiya asosida amalga oshirilsa pastda joylashgan inshootlar oraliqlari yopilganda suv sathi ko'tarilishi oqibatida kanal qирғоziغا suv toshib chiqmaydi.

Suv taqsimlash noto'g'ri amalga oshirilganda ham kanal o'zani to'lib suv dambalar ustidan oshib tushishi mumkin. Bunday holat suv iste'mol-chilari suv olishni ogohlantirmsandan to'xtatishganda, kanalni qazish ishlari sifatsiz olib borilishi natijasida kanal g'adir-budurligi oshganda yoki kanal o'zanidan o'simliklar o'sib chiqqanda (Qoraqum kanali Kelef ko'lidan keyingi uchastkasida o'zandan o'tlar o'sib chiqqanda g'adir-budurlik koeffitsienti loyihaga $n = 0,025$ nisbatan 0,88 qiymatiga o'sgan), sezilarli darajada kanalga uzliksiz yomg'ir va sel suvlari tushganda, (qish payti) tigilish yoki shovush bo'lganda, har qanday sabab bilan to'suvchi inshootlar zatvorlari ishlatmay qolganda, nasos stansiyalarida elektr energiyasi berish to'xtatilganda suv olib keluvchi kanalda vujudga kelishi mumkin. Kanallarni ishlatish tajribalari shuni ko'rsatadiki, kanalda suv sathini uzoq vaqt o'shab turish suvni kata qismi filtratsion natijasida yo'qolishiga, er osti suvlari sathini ko'tarilishiga, kanal yonidagi erlarni botqoqlanishi va sho'rланishiga olib keladi. Sug'orish kanallarida suzish vositalarini harakatlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Suv o'Ichash ishlari uchun foydalilaniladigan motorli qayiq bundan mustasno, chunki uning tezligi 5 km/soat dan ortiq bo'lmaydi. Kanalga o'rnatilgan nasos stansiyalarini ogohlantirmsandan to'satdan uchirish, shuningdek to'suvchi inshoot zatvorlarini birdan yopishga ham ruxsat berilmaydi.

Kanal ekspluatasiyasini dastlabki yillarda uning o'zanidan suvni sizib o'tishi (filtratsiya) natijasida katta miqdordagi suv yo'qoladi. Grunt o'zanli kanaldan sizib o'tadigan suv sarfi (m^3/s) kanal ko'ndalang qirqimi shakliga ko'ra quyidagi ifodalar yordamida aniqlanadi:

ko'ndalang kesimi poligonal va parabola shakliga ega bo'lganda

$$Q_f = 0,0116 K_f (B + 2d_c) L_c \quad (5.1)$$

trapetsioda shakl bo'lganda,

$b / d_c < 4$ bo'lsa,

$$Q_f = 0,0116 K_f \mu (B + 2d_c) L_c \quad (5.2)$$

$b / d_c > 4$ bo'lsa,

$$Q_f = 0,0116 K_f (B + Ad_c) L_c \quad (5.3)$$

Bu erda: K_f filtratsiya koeffitsenti, m / sut ;

V va d - suvniyuqori sathi bo'yicha kanal kengligi va chuqurligi, m :

L_c - kanal uchastkasini uzunligi, km;

b - kanal tagini kengligi, m;

μ va A - koeffitsentlar, qiymati 5.5 - jadvaldan olinadi.

Filtratsiya miqdorini o'rganish maqsadida o'tkazilgan tajribalar taxlili asosida kanal o'rtacha suv singdiruvchi gruntu qurilgan bo'lib undagi suv sarfi ($30 \dots 100 \text{ m}^3/\text{s}$) bo'lsa uning har bir kilometriga to'g'ri keladigan yo'qotish 0,2 ... 0,5 % ni; suv sarfi ($1,0 \dots 30 \text{ m}^3/\text{s}$) bo'lganda esa 3 ... 4 % teng bo'lishi aniqlangan .

Kanal ishga tushirilgach vaqt o'tishi bilan kolmatatsiya natijasida filtratsiya miqdori kamayib boradi

μ va A koeffitsentlarni qiymatlari

5.5 - jadval

v/d_c	$m = 1,0$		$m = 2,0$		$m = 3,0$	
	A	μ	A	μ	A	μ
2	-	0,98	-	0,78	-	0,62
3	-	1,00	-	0,98	-	0,82
4	-	1,14	-	1,04	-	0,94
5	3,0	-	2,5	-	2,1	-
6	3,2	-	2,7	-	2,3	-
10	3,7	-	3,2	-	2,9	-
20	4,2	-	3,9	-	3,6	-

Kolmatatsiya hisobiga qumli gruntu larda filtratsiya koeffitsienti 500 martagacha kamayishi mumkin. ISMITI (SANIIRI) ma'lumotlariga ko'ra gruntu kolmatatsiyasi quyidagi uch shartni bajarganda muvaffaqiyatli amalga oshadi:

$$d_{sk} \leq 0,3 D_0;$$

$$\omega < v_f;$$

$$\rho = \pi d_{sk} n / (6D_0) \quad (5.4)$$

bu erda d_{sk} va ω - kolmatatsiya qiladigan zarrachalarning diametri va gidravlik kattaligi;

D_0 - grunt g'avakligi diametri;

v_f - filtratsiya tezligi;


ρ - suspenziya konsentrasiyasi;

n - grunt g'ovvakligi.

Kanallardangi filtratsiya miqdoriniva gruntu cho'kishini kuzatish uchun har bir xarakterli stvorga 3...5 pezometr va markalar o'matiladi (5.1 -rasm). NO'A joylashtirish uchun kanalning eng xarakterli uchastkalari sifatida yarim kovalma – yarim

to'kma, to'kmi yoki suvga turg'un bo'limgan uchastkalari olinadi. Filtratsiya va bo'g'lanish natijasida bo'ladigan yo'qolishni aniqlash maqsadida o'chov stvorlari orasidagi masofa(bir jinsli gruntlarda) kanaldagi suv sarfiga bog'liq ravishda quyidagicha qabul qilinadi:

suv sarf 1 m ³ /s bo'lganda	2 km dan kam bo'limgan uzunlikda;
suv sarf 1...10 m ³ /s oraliqda	3 km dan kam bo'limgan uzunlikda;
suv sarf 10...30 m ³ /s oraliqda	5 km dan kam bo'limgan uzunlikda;
suv sarf 30...100 m ³ /s	10 km dan kam bo'limgan uzunlikda.



5.1 - rasm. Kanalda pezometrlar va markalarini joylashtirish sxemasi:
1 – pezometrlar, 2 – markalar. O'chamlari m.da

Filtratsiya miqdori katta bo'lganda (asosan kanal ishga tushirila-digan paytda sezilarli cho'kish, yoriqlar hosil bo'lganda) ISMITI (SANIIRI) tomonidan kanal o'zanidagi gruntu suv ostida portlatish usuli (X.A.Asqarov usuli) bilan mahalliy zinchlashni tavsiya qiladi. Bunda o'zan gruntu kuchli zinchlashadi, filtratsiya kamayadi va gruntu mustahkamligi oshadi.

5.3. Kanal o'zanida loyqa cho'kishi va o'simliklar o'sishiga qarshi kurash. Qish davrida kanaldan foydalanish xususiyatlari


Kanallarni ekspluatatsiya qilish sharoitida unda o'sgan o'simliklar (taroqqa o'xshash suv o'ti, boshqoli urut, kovg'a (rogoz) va boshq.)ga qarshi kurashish muommasi yuzaga keladi. Kanal qirg'og'ini (5.2 -rasm) va o'zanini (5.3; 5.4; 5.5 -rasmlar) o'simliklar bosganda uning g'adir-budurlik koefisienti (2...3 marta va undan ko'pga) oshadi, bu kanalning suv o'tkazuvchanlik qobiliyatini sezilarli pasaytiradi.

Kanal o'zanida o'simliklarni o'sish jarayoniga oqim chuqurligi, suvning tiniqligi va kimyoiy tarkibi, tub yotqiziqlarini strukturasi va organik tarkibi, suv sathini ko'tarilib tushishi, suvning harorati, tezligi va boshqa omillar ta'sir qiladi.


Oqim chuqurligi qanchalik katta bo'lsa, kanal o'zanida shunchalik o'simliklar kam bo'ladi, chuqurlik 6...7 m.dan oshganda o'simliklar amalda kanal o'zanida o'smaydi. Kanalda oqayotgan suv tiniq bo'lib chuqurligi 3...4 m bo'lsa unda nilufar, rdest (suv o'simligi), urut; chuqurlik 3 m.gacha bo'lsa qamishlar o'sadi. Suvda tuz bo'lishi suzib o'suvchi o'simliklarni yo'qolishiga olib keladi. Ammo qamish va rdest suvning tezligiga ancha mustahkam. Il yotqiziqli kanalda tiniq suv oqsa uning o'zanini o'simlik bosib ketadi.



5.2 - rasm. Kanal qirg'og'ini o't bosish holati



5.3 - rasm. Kanal o'zanida o'sgan suv o'tlarni faydo bo'lishi



5.4 - rasm. YAngi Uchqurg'on kanali o'zanida o'sgan suv o'tlar



5.5 - rasm. Janubiy Mirzacho'l kanalining PK 145 dagi gidrouzelni yuqori b'efi o'zanida o'sgan suv o'tlari


O'simlik o'sishini kamaytirish uchun suvning loyqaligi $0,1 \text{ kg/m}^3$ dan ko'p bo'lishi kerak (5.6 - rasm).



5.6 - rasm. Mang'it arna kanalida oqayotgan suvning ko'rinishi

SHag‘al toshli va qumli yotqiziqlarda o‘simliklar juda kam o‘sadi. Suv sathini ko‘tarilib tushishi o‘simliklar paydo bo‘lishiga qulay sharoit yaratadi. Unchalik katta tezlikka ega bo‘lmagan issiq suvda o‘simlik o‘sishi va svjni «gullashi» uchun yaxshi sharoit mavjud bo‘ladi. Kanallarda suv havzalarida o‘sadigan o‘simliklarning barcha turlaridan 10...20 turi o‘sadi. Bundan tashqari kanal qirg‘og‘i va o‘zanida o‘simliklarni o‘sishi oqibatida, kanalda loyqa cho‘kishi jadalligi oshadi. Misol uchun Jizzax magistral kanali 7 yil ishlatishdan so‘ng qamish zichligi 1 m^2 da 300 tupga to‘g‘ri kelgan (ISMITU ma’lumoti), bunda o‘zanni bandlik koefitsienti (qamish o‘sib turgan yuzanining umumiy tirik kesim yuzasiga nisbati) 0,4...0,6 bo‘lgan.

Ba’zi hollarda loyihalangan kanallarni qurib bitkazish uchun o‘zoq vaqt sarflanadi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, agar kanal bir necha yil qurilsa va buning ustiga kanal tagi er osti suvlariga yaqin bo‘lsa, kanal ishga tushirilganga qadar uning o‘zanida o‘simliklar o‘sib ketishi Tuyamo‘yin magistral kanali va Janubiy Mirzacho‘l kanali uchun qurilayotgan yangi bosh suv olib inshooti patki qismida kuzatilgan (5.7 - rasm).



5.7 - rasm. Janubiy Mirzacho‘l kanali uchun qurilayotgan yangi suv olib inshootidan suv olib ketuvchi kanal o‘zaning (2012 yil) holati

Ba'zi hollarda betonli kanal chetlarida ham o't bosishi kuzatiladi (5.8 - rasm), misol uchun Toshkent viloyati «2-sovxozniy» kanali chetlari-dan o'sib chiqqan qamish hatto kanal ustini berkitib qo'ygan. (11.01.07). Kanallar chetini o't bosishiga qarshi qurashish, bu o'z vaqtida o'tni o'rib olib, o'sishga yo'l qo'ymaslikdir. Kanallarini o't bosishiga qarshi kurashish texnik qarov ishlariga kiradi va bu ish bilan kanalning ekspluatatsiya xizmati xodimlari shug'ullanishi shart.

SHuning bilan birga kanal o'zanida o'sgan o'simliklar kanalda oqayotgan suvni gidravlik holatini keskin o'zgartirmasa ya'ni gidravlik qarshilikni sezilarli darajada o'zgarishiga olib kelmasa, kanal qirg'og'ida o'sgan o'simlik foydali hisoblanadi, chunki bu holatda o'simliklarni ildiz tizimi kanal qiyaliklarini buzulishdan saqlaydi, o'simliklar kanal suvini neft mahsulotlaridan, bakterial ifloslanishdan tozalaydi va suvni «gullashi»ni oldini oladi. SHuning uchun ham kanalda kam miqdorda o't bo'lishi muhim hisoblanadi.




5.8 - rasm. Beton kanallar chetini o't bosishi

Kanallarda yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajada o'simliklar bosishiga qarshi qo'yidagilarni amalga oshirish tavsiya qilinadi. Kanallar soya qilinadi, buning uchun ularni tozalash mexanizmlari yurmaydigan qirg'oqlariga tol, terak, sada qayrog'och, chinor kabi daraxtlar ekish lozim bo'ladi (5.9 - rasm).

Ulardan, birinchidan, qurilish materiallari sifatida foydalanilsa, ikkinchidan. dambalarni suv yorganda ular shoxlaridan kesib olinib ustiga qumlar solingan qoplar qo'yilib suv yo'li berkitiladi. Ammo bunday daraxtlarni qoplamasni bor kanallarda; ildizi qirg'oqga etadigan masofada ekib bo'lmaydi, ildiz qoplamlarini ko'tarib buzushi mumkin.

Loyqa suv ham yorug'liq yo'lini to'sib o'simliklar o'sishini kamay-tiradi.O'rni kelganda shuni aytish kerakki oqimni loyqani transportlash qobiliyati miqdoridagi loyqa kanal o'zanini kolmatatsiya qiladi, undagi organik va mineral o'g'itlar dalaga etib borsa, tuproq unumadorligini oshiradi. Bulardan tashqari kanal o'zanidagi o'tlar maxsus mashinalar yordamida o'rib olinadi. O'simliklar o'sishiga qarshi kimyoiy usul ham mavjud, ammo bu usulda qo'llaniladigan gerbetsidlar suvdagi hayvonot dunyosiga zaharli ta'sir qiladi va kimyoiyishlov berilgan bunday suvdan ichimlik maqsadida foydalanib bo'lmaydi.




5.9 - rasm. Katta Farg'ona kanali qirg'oqlariga ekilgan daraxtlar

O'simliklarga qarshi kurashishning biologik usulida kanalda oq amur, laqqa baliq kabi o't bilan oziqlanadigan baliqlar urchitilib rivojlantiriladi. Kanal trassasida suv oqmaydigan, kam chuqurlikka ega uchastkalar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qum qo'zg'aladigan zonalardan o'tgan kanallarning xar ikki yoniga o'rmon himoya tasmalari ekilib, qum ko'chishini oldini olish choralarни qo'llanilib, qum bosishidan saqlanadi.

SHuningdek, kanal o'zani buriladigan joylaridda xam suv tezligini qirg'oqlar bo'yicha notejis taqsimlanishi oqibatida kanal o'zanining qoboriq qismida katta miqdorda loyqa to'planish holati Do'stlik kanalining PK 530 da ko'zatilgan (2012 yil. 5.10 – rasm).



5.10 - rasm. Do'stlik kanalining qabariq qismidagi loyqa cho'kish holati

Kanalarni loyqa bosishiga qarshi kurashish uchun har xil usullardan foydalilanadi. Loyqa cho'kishga qarshi kurashishni asosiy usullardan biri kanaldagi suv tezligini yuvmaydigan va loyqa cho'ktirmaydigan miqdorda ushlab turishdir. Amalda bunday rejimini amalga oshirishishning har doim ham imkoniyati bo'lmaydi.

Tog' yon bag'ridan o'tgan kanallarni ishlatalishda ularga tepadan tosh tushishi katta xavf soladi (5.11 -rasm), tog'dan tushayotgan tosh nafaqat o'zanlarni, balki kanalda qurilgan suv o'tkazuvchi quvur, dyukerlarni to'ldirib qo'yadi. Bunday salbiy

holatga qarshi kurashishning yagona usuli kanalga tushgan toshlarni qo'l kuchi yoki mexanik usulda olib tashlashdir. Buning uchun texnik soz nazorat yo'liga ega bo'lish kerak. 5.11 - rasmdagi holat nazorat yo'li bo'lmaganligi sababli kanal o'z vaqtida tozalanmaganligi natijasida vujudga kelgan.



5.11 – rasm. Tog' yon-bag'ridan o'tgan kanal o'zanini tosh bosishi holati.

Qishki sharoitda kanalni ishlatish xususiyatlari

Respublikamizning Qaraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyat-larida qishda faslida kanal o'zanida suv muzlash holati ko'zatiladi. Havo isiy boshlagach kanal o'zanida mayda muz bo'lakchalari xarakatlana boshlaydi. Ular shovush yoki muzlarni tigilishini keltirib chiqaradi. Kanallardagi suvlarni muzlashi ularni ishlatish xususiyatini belgilaydi: - eng kam g'adir-budurlik shartidan kelib chiqib qalinligi 0,5...1 m dan ko'p bo'lmagan muz qoplamasini bilan ishlatish; - kanaldagi oqim tezligi 0,4 m/s dan ko'p bo'lmagan mayda muz bo'lakchalari to'plamini tranzit rejimini hosil qilib ishlatish; - suvning ochiq sirtini hosil qilib ishlatish; sun'iy termo (issiqlik) izolyasiyasi bilan ishlatish.

Kanalda mayda muz bo'laklari to'plamining harakati (V.M.Potapov bo'yicha) tezligi:

uzluksiz tasma yoki ayrim gilamchalar shaklida bo'lsa , $D < D_1$

bo'lishi lozim. Bu ifodadagi ν_1 quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\nu_1 = 0,067 \frac{c}{\sqrt{c+0,8}} \sqrt[3]{\frac{t_f}{d_{red}}}, \quad (5.5)$$

bu erda S – SHezi koefitsienti; t_f – mayda muz bo'laklari qatlaming qalinligi; d_{red} - taxminan 5 mm qabul qilinadigan mayda muz bo'laklarining shartli diametri. butun tirik kesim bo'ylab tekis o'lchamli muz parchalari shaklida, $\nu > \nu_2$ tezlikda o'tkaziladi.

$$\nu_2 = 0,725 \frac{c}{\sqrt{c+0,8}} \sqrt[3]{d_c t_f}, \quad (5.6)$$

bu erda d_c – kanalda suv chuqurligi.

ν_1 va ν_2 larning taxminiy qiymatlari mos ravishda 1,5 va 2...2,5 m/s larni tashkil qiladi. Mayda muz bo'laklari to'plamining birinchi shaklida kanalda qarshilik kam bo'ladi. Kanalda shovush hosil bo'lmaslik shartidan kelib chiqib kanal burilishlari radiusi (V.M.Potapov bo'yicha)

$$R = \frac{0,03 \cdot t_f}{\alpha(v - 0,8)^2}, \quad (5.7)$$

dan kam bo'lmasligi kerak.

bu erda α - kanalning burilish burchagi, u

$$\alpha = \frac{0,00114}{\sqrt[3]{c^{(1-\alpha)}}}, \quad (5.8)$$

formula bilan aniqlanadi; $\alpha = t_f / d_c$;

v - suvning o'rtacha oqish tezligi.

Kanallar ishlatalayotganda, ko'pholatlarda, misol uchun muz yurishi davrida muzni o'tkazish sharoitini bashorat qilish uchun hosil bo'lgan muz qalinligini bilish lozim bo'ladi, u burg'ulanib o'lchanadi yoki V.I.Bereza formulasi ($v < 1$ bo'lganda) dan aniqlanadi:

$$t_{id} = \frac{2,5}{1-v^2} \sqrt{\sum Q}, \quad (5.9)$$

bu erda $\sum Q$ – muz turish davrida manfiy havo haroratining o'rtacha kunlik yig'indisi.

Muz qalinligini bilib, muz bilan qoplangan kanalning o'tkazuvchanlik qobiliyati aniqlanadi. SHu maqsadda SHezi formulasidan foydalilanildi:

$$Q = \omega_{icl} C_{ml} \sqrt{R_{icl} J}, \quad (5.10)$$

$$C_{ml} = \frac{1}{n_{ml}} R_{icl}^{1/6}, n_{me} = \frac{n_{icl} \chi_{icl} + n_s \chi_s}{\chi_{icl} + \chi_s}, R_{icl} = \frac{\omega_{icl}}{\chi_s + \chi_{icl}}, \quad (5.11)$$

bu erda n_{me} - keltirilgan g‘adir-budirlik koeffitsienti;

n_{icl} va n_s - muz va kanal o‘zanining xo‘llangan sirtlarini g‘adir-budurlik koeffitsientlari;


R_{icl} va ω_{icl} - muz bilan qoplangan kanalning gidravlik radiusi va tirik kesimi yuzasi;

χ_s va χ_{icl} - o‘zan va muz qatlaming xo‘llangan perimetrlari.

To‘suvchi va suv o‘tkazuvchi inshootlar oldida qish davrida, muz hosil bo‘lishini oldini olish va muzlamagan akvatoriyalarni ushlab turish uchun havjqrilmalari (pnevmostnovki) dan foydalanadi, zatvorlar va ular izlari isitiladi.

5.4. Kanaldagi tutashtiruvchi va suv o‘tkazuvchi inshootlarni ishlatish

Tutashtiruvchi (tezoqarlar, sharsharalar, quvurli sharsharalar va boshq.) va suv o‘tkazuvchi (akveduklar, dyukerlar, quvurlar, sel o‘tkazgichlar va boshq.) inshootlarini ishlatish o‘ziga xosligi bilan bir – biridan farqlanadi. Misol uchun sel o‘tkazuvchi inshootlar davriy ravishda ishlaydi. SHuning uchun ham ularning pastki b’efi sel o‘tgach kuchli yuvilishga uchraydi, bu oqimning statsionar bo‘lmagan rejimiga xosdir.




5.12 - rasm. Katta Farg‘ona kanali Norin uchastkasidagi sharsharlar

5.13 - rasm. Jun
kanali PK 64 +
20 dagi tezoqar –
sharshara.



5.14 - rasm.
SHimoliy Farg'ona
kanali bilan
Janjalsoy kesishgan
joydagi akveduk





5.15 - rasm. SHimoliy Farg'onan kanali bilan Namangansoy kesishgan joydagisi akveduklar

Ekspluatatsiya davrida tutashtiruvchi va suv o'tkazuvchi inshootlarning umumiyligi holati va ayrim elementlarini ishlash holatiga alohida ahamiyat beriladi. Ularning beton qoplamlarini buzulishga olib kelishi mumkin bo'ladi. Shikastlanish va deformatsiyalar bo'lmashliklari lozim. Qo'qim ushlovchi panjaralari muntazam ravishda tozalanib turishi shart. Inshootga kiraverishda suzib yuruvchi qo'qim, narsalar va sh.o'. lar bo'lmashligi kerak. Suv tashlovchi trakt oraliqlarni suv o'tkazuvchanlik qobiliyatini pasaytiruvchi narsalarini (toshlar, to'nkalar, cho'kib qolgan yog'ochlar va sh.o'.) bo'lishi, shuningdek inshootlar ishlayotganda uni sirtini emiradigan (qurilish qo'qimi qoldiqlari, beton bo'laklari, metallolom va sh.o'.) mavjud bo'lmashligi taminlanishi shart. Inshoot asosidan va ularni yon tomonidan aylanib o'tuvchi filtratsiyaga ahamiyat beriladi. Qiyaliklar, yon-bag'irlardan suvni sizib turishi drenaj tizimi yomon ishlayotganidan dalolat beradi, zudlik bilan filtratsiyani kelib chiqish sababi aniqlanishi va uning manbalari bartaraf qilinishi lozim. Drenaj quduqlarini qishda muzlab qolishdan saqlash uchun issiq izolyasiyalovchi material bilan o'ralsadi. Drenajlardan olingan namuna (filtrat)ning davriy ravishda loyqaligi va kimyoviy tarkibi tekshirilib boriladi. Tiniq filtrat mehanik suffoziya yo'qligini bildiradi. Tik yon bag'irlarda, agar suriluvchanligi past xarakteristikaga (φ va S) ega gruntlar bo'lsa, qiyaliklarni siljib tushishi ustidan kuzatib borilishi kerak.

Pastki bef qurilmalari muntazam ko‘z bilan kuzatib turiladi. Ishlamay turgan inshootning suv urilma qudug‘idan, qish boshlanishidan oldin, suv chiqarib tashlanadi, toshqin o‘tkazilishidan oldin esa muz va qordan tozalanadi. Ishlamay turgan dyukerdan ham suv chiqazib tashlanib, cho‘kindi va boshqa narsalardan tozalanadi.

Toshqin o‘tgandan so‘ng pastki bef holati va mahalliy yuvilish voronkasi tekshiriladi. Kuzatish jarayonida mustahkamlovchilari, ustinxilar, teskarri devorlar va sh.o‘elementlar ostining yuvilishiga ahamiyat beriladi. Yo‘l quyib bo‘lmaydigan deformatsiyalanish aniqlanganda, ularni bartaraf qilish bo‘yicha zudlik bilan choralar ko‘rilishi kerak.

Muntazam ravishda choklar va zichlagichlar holati tekshirilib borilishi zarur. Napor ostida ishlayotgan inshoot elementlari, quvurli inshoot yoki dyuker choklarining buzulishi grunt zarrachalarini olib chiqadigan jadal filtratsiyaga sabab bo‘lishi mumkin. va buning oqibati inshootni buzulishiga olib kelishi mumkin. SHuning uchun choklarni buzulishi zudlik bilan bartaraf qilinib suv chiqishi to‘xtatilishi kerak. Issiq iqlimli sharoitda ba‘zida inshootdagagi choklardan yumshab qolgan bitumli mastika oqib chiqib ketishi holati kuzatilgan.. Bunday holat yuz bermasligi uchun inshoot joyning tabiiy xususiyatidan kelib chiqib inshoot choklarissiqlikka (+30°S dan to 120°S gacha)chidamli mastika bilan to‘ldiriladi. Manfiy haroratli iqlim sharoitlarida beton elementlarni o‘zi va choklarida yoriqlar hosil bo‘lishi mumkin, agar shishib chiqadigan gruntlar mavjud bo‘lsa, muzlash keltirib chiqargan do‘ppayish orqasida inshootlar deformatsiyasi vujudga kelishi mumkin.

Dyukerlarda oqizindilarni cho‘ktirmasdan transportirovka qiladigan tezliklar ushlab turiladi. SHuning bilan birga iflosliklar yig‘iladigan quduqlar va dyukerning boshqa pasaygan joylarida ko‘p miqdorda loyqa to‘planmasligi ustidan kuzatib boriladi. Dyuker quvurlarida loyqa o‘tirgan taqdirda gidravlik yoki mexanik usulda tozalab turiladi. Quvurlar va dyukerlar besh yilda kamida 1 marta quritilib uning texnik holati tekshirib chiqiladi, lozim bo‘lsa ta‘mirlanadi. Undan tashqari dyukerlar va quvurli suv o‘tkazichlarhar yili g‘avvoslar tomonidan tekshirilib ular cho‘kib qolgan oqizindi miqdori va korroziya darajasini aniqlab berishadi.


Dyukerlar suv tashigichlarini texnik holatini kuzatish yoki unda ta‘mirlash ishlarini bajarish uchun dyukerning kirish qismi shandor o‘rnatuvchi pazlar bilan jihozlanadi. SHuningdek dyukerni kirish qismiga qo‘sim ushlovchi panjara o‘rnataladi. Dyukerlarning katta uzunlikga ega metall suv tashigichlari zanglashdan maxsus qurilmalar yordamida tozalanadi. Bu qurilmalar quvur ichida harakat qilib, quvur ichini samarali himoya qiladigan ingibitorlar bilan ishlov beradi.

Sel o'tkazuvchi inshootlardan sel o'tgandan so'ng inshoot holati diqqat bilan tekshirib chiqish talab qilinadi, chunki katta miqdordagi narsalarni (galka, shag'al, toshlar, yirik toshlar, to'nkalar, xodalar va sh.o'.) o'zi bilan oqizib kelgan oqimning kuchli ta'siriga sel o'tkazuvchi inshootelementlari uchraydi. SHuningdek, sel oqimi o'tgach sel o'tkazuvchi inshootning kirish, tranzit va chiqish qismi tozalanishi shart. Tutashtiruvchi inshootlar orqali suv tashlanganda zatvorlarni manyovrlashga alohida ahamiyati beriladi, bunda beflarini tutishtirish rejimi buzulishi mumkin. Zatvorlarni eng qulay ochish bu barcha zatvorlarni bir tekis yoki simmetrik ravishda ochishdir. Pastki befda qayshiq oqim yoki qayshiq gidravlik sakrash hosil bo'lishiga, shuningdek suv olib ketuvchi kanalda, qiyshiq oqim hosil bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, bu yo'l qo'yib bo'lmaydigan yuvilishlarni vujudga keltirishi mumkin. Ochiq suv o'tkazuvchi inshootlardan suvni toshishiga, dumalaydigan to'lqin hosil bo'lishiga, ko'p miqdorda suvni sachratadigan va chayqaladigan oqim hosil bo'lishiga ham yo'l qo'yilmaydi.

YOpiq inshootlar orqali suv o'tkazilganda havoli urilish, havoli pufak (ko'pik) yorilishi bilan bog'liq «otish»lar hosil qilmaydigan rejimi ta'minlanishiga ahamiyat beriladi, bunday jarayonlar ma'lum bir dinamik yuklamalar bilan bog'liq bo'lib, inshootlar choclarini buzulishi va elementlarini shikastlanishiga olib keladi. Agar loyiha bilan belgilangan rejimda nazarda tutilmagan bo'lsa, quvurlarda gidravlik sakrash hosil bo'lishiga yo'l qo'yish tavsiya qilinmaydi. Aks holda, xuddi shunday, yuqorida takidlanguandek, suv o'tkazgich devoriga yuqori dinamik yuklanma hosil bo'lishi va choclar buzulishi mumkin.

Oqim mit ostidan oqib chiqqanda zatvorlar tebranish hosil qilmasligi kuzatib boriladi.

Grunt ichiga yotqizilgan quvur bo'ylab yo'nalgan kontakt filtratsiyasini ham kuzatib borish zarur, quvurni grunt bilan kontaktlashgan joyida sezilar – sezilmas filtratsiya oqimini hosil bo'lishi bilan, uning sababini zudlik bilan aniqlash hamda manbasini zudlik bilan bartaraf qilishi zarur bo'ladi.



5.16 - rasm. Janubiy Farg'ona kanalini Aravansoy bilan kesishgan joyidagi dyuker va tashlama

VI. Suv tusuvchi grunt inshootlarni texnik holatini kuzatish

6.1. Ko'z bilan kuzatish

Inshootlarni ishlashi to‘g‘risidagi dastlabki tassavurni ko‘z bilan kuzatib chiqish ishlari beradi, shuning uchun ham ular inshootlarni bevosita (naturada) kuzatish ishlarning bir qismi bo‘lib hisoblanadi va kapitallikning barcha klasslariga mansub inshootlarda o‘tkaziladi. Ularning asosida keyingi nazorat-o‘lchov asboblari yordamidagi kuzatish ishlarning tarkibi aniqlanadi. Ko‘z bilan kuzatish inshootlar va uning elementlarini, shu maqsad uchun tuzilgan ko‘rsatmalarga muvofiq ko‘rib chiqish yo‘li bilan bajariladi. Aniqlangan nuqsonlar, chetga chiqishlar, buzulishlar kuzatish jurnalliga yozib boriladi. Unda kuzatish olib borilgan kun, aniqlangan nuqsonning inshootni biror elementi (piketi) ga bog‘langan o‘rni, tavsifi, o‘lchamlari, uni kelib chiqishini

taxmin qilinayotgan sababi, eskizi yoki tasviri, uni bartaraf qilish uchun ko‘rilgan chora va takliflar ko‘rsatiladi. Ko‘z bilan kuzatish ishlarini odatda texnik-gidrotehnik yoki tartibga soluvchilar, maxsus o‘rgatilgan va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatilgan tajribali xizmatchilar olib boradilar. Ko‘z bilan kuzatish ishlari natijalarini nazoratchi (tartibga soluvchi) imzolaydi, chunki u lavozimiga kirish payti inshootni haqiqiy holatini dalolatnomada ko‘rsatib qabul qilib olgan bo‘ladi. Agar bunday ish qilinmagan bo‘lsa, keyinchalik shikastlanish, ba‘zi holatlarda esa jiddiy buzulishlarni bartaraf qilish choralarini ko‘rish qiyinlashadi. Nazoratchi aniqlagan nuqsonlar maxsus tayyorlangan sxemaga shartli belgilar qo‘llab kiritiladi. Kuzatuvchi inshootlar elementlaridagi aniqlangan shikastlanishlar va ishidagi chetga chiqishlar haqida kechiktirmasdan ekspluatatsiya xizmati bo‘linmasining rahbariga bildirishi lozim.

Gruntli inshootlarni kuzatish, shartli ravishda qoplama va mustahkamlovchi qismlar holatidagi buzulishlarni kuzatish, inshoot va uni asosidan qirg‘oqlarga tutash uchastkalardan suvni sizib o‘tishini kuzatishlarga bo‘linadi.

Gruntli inshootlarning buzulishlarini kuzatish jarayonida uning umumiy (yuvilish, cho‘kish, tuproqqa kirib ketishi, o‘prilish, yorilish, grunt massasini siljishi, qirg‘oqga tutashtirmalarning holati va sh.o.) holati va mahalliy buzulishlarga ahamiyat beriladi. Ularning xarakterlarini kuzatish jurnallarida yozishda quyidagi tushunchalardan foydalanish lozim: *qulash (obval)* lar – qo‘srimcha yuklanish ta’siri ostida ayrim grunt massasini uzilib va qulab tushishi; *o‘prilish (opolzeni)* lar – suvda ho‘llangan (glinali) har xil qatlamlili grunt massasini qatlamlararo chegara bo‘ylab o‘pirilib tushishi; *erib o‘prilish (oplyavni)* lar – suv bilan kuchli to‘yinish ta’sirida gruntu o‘pirilib tushishi; *to‘kilish (osyipi)* lar – qiyalik yoki tik yon bag‘irlardan quruq sochilgan gruntu siljib yoki to‘kilib tushishi; *yoriq (treučiny)* lar – inshoot sirtida notejis cho‘kish, qulash, erib o‘prilish, o‘prilish yoki tashqi yuklama ta’sirida gruntuning uzilishi; *egat (borozdy)* lar – qiyaliklardan tushayotgan yomg‘ir suvi oqimi bilan gruntuning yuvilishi; *tuproqqa kirib ketish (prosadki)* lar – gruntu mahalliy zinchlashuvi yoki suffoziyasi ta’sirida inshoot sirtida gruntu mahalliy chuqurcha (cho‘kma) hosil bo‘lishi; *cho‘kish yoriq (prosadochnye treučiny)* lari – tuproqqa kirib ketish ostida yoriq hosil bo‘lishi; *do‘ppayish (vyipor)* – inshoot va sizib o‘tayotgan suvning bosimi ostida gruntu inshoot tanasi yoki uning asosidan gruntu mahalliy ko‘tarilib qolishi; *shishish (puchenie)* – suvga to‘yingan gruntu muzlashi va erishidan mahalliy ko‘tarilib qolishi; *yuvilish (razmyavni)*lar – oqayotgan suv ta’sirida qiyaliklar yoki gorizontal uchastkalardan gruntu yuvilishi; *to‘lqinning qirg‘oqga urilish chizig‘i (polosy priboya)* – to‘lqin ta’sirida gruntu yuvilish ketish chegarasi; *muzning yoki suzuvchi jism larning urilish chizig‘i (polosy navala lida ili plavayuuqix*

tel) – yon bag‘ir yoki qiyaliklardi gruntning muz yoki suzuvchi jismlar ta’sirida o‘rnidan qo‘zg‘alishi.

YUqori qiyalikdagi mustahkamlovchining holati toshlar orasidagi oraliq va buzulishlar, choklarni ochilishi va shikastlanishi, plitalarni siljishi yoki surilishi va sh.o‘. lar bo‘yicha aniqlanadi.

Pastki qiyaliklarning holati ustidan o‘sib chiqqan o‘simliklarning holati, er teshar hayvonlar buzushlari (ini, tirkab tushirgan izlari), yuvilishlar va shikastlanishlar bilan xarakterlanadi.

Ko‘z bilan kuzatishda yomg‘ir suvini to‘plib tushirib yuboradigan tarmoqning holatiga ahamiyat beriladi. U ifloslanib, qo‘qimga to‘lib qolgan, uni loyqa bosgan, o‘simliklar bosib ketgan, lotoklari, xandaq (kyuyvet)lari va suv to‘plovchi ariqlari shikastlangan bo‘lishi mumkin.

Ochiq yoriqlar, qiyaliklarda joylashgan lotoklarni surilishi va boshqa shikastlanishlar, shuningdek qo‘qimga to‘lib qolishni mavjudligi to‘xtovsiz yog‘ingarchilik paytida suvning markazlashgan (yig‘ilgan) oqimini qiyaliklarga tushishini keltirib chiqaradi, bunda suv o‘z navbatida katta tezlik bilan oqib, inshootni yuvilishiga, ba‘zi holatlarda elementlarini buzulishiga olib keladi. Bundan tashqari teskarri to‘kilmalar, ustunlar atrofi bo‘shliqlari, inshootlarini tuproqli va betonli qismlarini tutashgan zonalari cho‘kishi mumkin.

Kuzatish va tadqiqotlar olib borishda foydalananiladigan nazorat-o‘lchov asboblar ($\text{NO}^{\circ}\text{A}$), piketlar, stvor belgilari va boshqa nazorat moslamalari, drenaj suvleri oqizib yuboriladigan kanalchalar, qirg‘oqlar, gidrouzel joylashgan xududdagi jarliklarning holatini ko‘rib chiqish ham muhimdir. Ba‘zi holatlarda, bunday joylarda filtratsiya oqimi keltirib chiqargan, kutilmagan jarayonlarga duch kelish mumkin.

Gruntli to‘g‘onlarda suvni sizib o‘tishini kuzatish uning ba‘zi bir elementlarining mustahkamligi va turg‘unligini kuzatishga nisbatan ma’suliyatlidir. Ko‘z bilan kuzatish davrida o‘ta xavfli bo‘lgan quyidagi jarayonlarni kuzatish mumkin: qiyalik, qirg‘oqqa tutash, drenaj qurilmasi (drenaj prizmasi) ustidagi joylardan suvni sizib chiqishi; inshootning pastki qiyaligidan keyin gruntni do‘ppayib chiqishi; suffoziya zonasida sezilar cho‘kishlarni hosil bo‘lishi; teshikdan chiqish, grifon, buloq (klyuch) shaklida suvni sezilarli sizib o‘tishi.

Tashqi sizib o‘tishni xarakterlashda quyidagi tushunchalardan foydalaniлади:
ho‘l dog’ (mokrье pyatna) – suvni quruq grunta dog‘ shaklida zaif sizib o‘tishi;
sizish (prosachivanie) – qiyalik bo‘ylab alohida tomchi shaklida suvni dumalab sizib tushishi yoki grunt sirtida ko‘rinar-ko‘rinmas ko‘lchalar hosil bo‘lishi; *oqib o‘tish (protechki)* – gruntdan, yoki ko‘lchalardan suvni zaif struyka shaklida sizib o‘tishi;

teshik (sviuchi) – suvni alohida struyka shaklida, to‘g‘on tanasidan yoki gruntli inshootning betonli inshoot bilan tutashgan (kontakt) joyidan, markazlashgan holda sizib o‘tishi; *grifon* – xuddi oldingidek, ammo gruntni suv bilan aralashmasidan iborat kichik-kichik fontanchalar shaklida sizib o‘tishi; *buloq* (klyuchi) – suvni alohida struykasi shaklida, qirg‘oqlardan, qiyaliklardan, kotlovanlardan, pastki befini «*quruq*» o‘zanidan yoki yon bag‘irdagi to‘g‘onning pastki qiyaligidan keyin markazlashgan holda sizib o‘tishi.

Sizib o‘tishning markazlashgan joylarida suvni olib ketish va sarfini (o‘lchov moslamalari, po‘kaklar yoki ko‘z yordamida) o‘lhash uchun kichik-kichik kanalchalar qilinadi. Bunda, albatta sizib chiqayotgan suvda loyqa struyka, glina grunti zarachalari, qum paydo bo‘lishiga alohida ahamiyat beriladi. Inshoot tanasidan chiqayotgan cho‘kindilarni aniqlash uchun kanalchadan keyin kichik suv tindirgich qilinadi.

Manfiy haroratlari kuzgi-qishqi davrida, suvni markazlashgan sizib o‘tish joyida, muzlash hosil bo‘ladi. Bunday holat pastki qiyalik ostonasida, drenaj tizimi quyladigan (uste) zonada ham kuzatilishi mumkin.

Xuddi yuqorida ko‘rsatilgandek, inshoot elementlarining mo‘‘tadil bo‘lmagan ishlashi omillari, sizib o‘tish joylari diqqat bilan ko‘riladi va yuqori darajadagi sizib o‘tishning joyi (piketning tartib raqami va undan joylashgan masofasi), o‘lchami va xarakterining bayoni, rasmli yoki fotosurati olinib jurnalga yoziladi. Jurnalda, albatta yozilgan yoki rasm solingenan kun, shuningdek kuzatish olib borilgandan oldingi kun va kuzatish olib borilgan kungi obi - havo sharoitlariga xarakteristika beriladi.

Gruntli inshootlar qoplamlari va mustahkamlovchilar holati ustidan nazorat (kuzatish), odatdagi sharoitda, boshqa ko‘z bilan kuzatishlar kabi har kuni, ta’sirli dovul keltirib chiqaradigan kuchli shamol yoki to‘zon paytida, dovulli obi-havo boshlangandan suv sathidagi kuchli to‘lqin tugaguncha, bir necha marta olib boriladi. Bunda qoplama, qobiq yoki mustahkamlovchilar holatlarni xarakterlash uchun o‘rnatilgan NO‘Alaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Kuzatish davrida quyidagi larga alohida ahamiyat beriladi; to‘lqin, suv sathi o‘zgarib (tebranib) turgandagi sizib o‘tayotgan oqim ta’sirida mustahkamlovchi elementlar choklaridan zichlagich materiallarni chiqishi va buzulishi, qoplamlarni zichlagich choklari yorig‘idan, yorilgan joylaridan graviy -qumli to‘shama (podgotovka) ni chiqishi; qoplamlar tagiga yomg‘ir suvlari oqib kirishi, grunt suvlari harakati keltirib chiqargan, er teshar hayvonlar izi, qurilish kamchiligi orqasida hosil bo‘lgan o‘pqon, bo‘shliqlarni hosil bo‘lishi; gorizontal yoki vertikal yo‘nalishda plitalarni bir biriga nisbatan siljishi; plitalarni bir biriga mustahkam bog‘lanishining holati.

Kuchli shamol paytida to'lqinning ta'siri va haydab kelinib qiyalikka urilishini kuzatib borish zarur. Ba'zi bir holatlarda suv tepa (o'rkach) dan oshib quyilishi mumkin, bu inshootni va pastki qiyalikni buzulishiga olib keladi.

Qishda suv omborini bo'shatishda, yuqori qiyalikni mustahkamlovchisiga yopishib qolgan va pastga tushayotgan muz plitalarni asosidan uzib olishi va buzushi mumkin. Suv oqish davrida esa muz qiyalikka urilishi mumkin. Muzning dinamik ta'siri (zarbasi) ostida, ayniqsa oqim tezligi oshib suv o'tkazuvchi teshik joylashgan zonada qoplamlalar shikastlanishi mumkin.

6.2. Inshootdagি holatni kuzatish uchun qo'llaniladigan reperlar, markalar va asboblarning konstruksiyalari hamda ularning joylashuvi

Har xil ta'sirlar ostida gidrotexnika texnika inshootida yuz beradigan o'zgarishlarni aniqlash geodezik asboblar va reper, marka, stvor belgilari va ko'rsatkichlaridan foydalaniб amalga oshiriladi.


Reperlar – butun ishlatish (ekspluatatsiya) davrida, amalda qo'zg'almas bo'lgan balandlik asosining dastlabki (boshlang'ich) belgilari. Ular inshootlarning ayrim nuqtalarini balandlik holatini nivellirlash orqali aniqlashga xizmat qiladi.

Markalar – tadqiq qilinayotgan inshoot yoki asosga qurilgan va ular bilan birga siljyidigan, reja (plan) da belgilab qo'yilgan nuqtasi bilan qurilma. Reperlarga nisbatan markalarni siljishiga qarab inshootni siljishi haqida xulosa qilinadi.

Ko'rsatkichlar – inshootlar o'qlari, ularni burilishi, berkitilgan (yopilib qolgan) konstruksiya va qurilmalar (drenajlar, ekranlar, o'Ichov o'qlari, o'Ichov stvorlari va sh.o.) ning boshlanishi va oxirini ko'rsatadigan er ustti belgilari.

Stvor belgilari – inshootlar uzunliklari bo'ylab masofani belgilash uchun o'matiladigan ko'rsatkichlar.

Gidrotexnika inshootining qurilishi va ishlatilishi davrida foydalilanadigan reperlar (6.1 - rasm) kapitalligi bo'yicha – geodeziya va kartografiya boshqarmasining fundamental reperlari, joylashuvi bo'yicha – yuzadagi, chuqurlikdagi va devordagi reperlar, qurilishi bo'yicha – kotlovan kovlash va skvajina burg'ulash yo'li bilan qurilgan, devorlar va boshqa konstruksiyalarga qo'yib yuborilgan reperlar, iqlimiш sharoit bo'yicha – oddiy iqlimda va ko'п yillik muzliklar sharoitdagi reperlarga ajratiladi.



6.1 – rasm. Reperlarning joylashish sxemasi.


Dastlabki reperlar tayanch reperlar ham deyiladi. I va II klass inshootlari uchun ularni, odatda, pastki befda, stvorlardan 1,5...3 km uzoqlikda har xil qirg‘oqlarda 3 ta reperdan iborat to‘p (kust) qilib joylashtiriladi (6.1-rasm). Planda reperlar to‘g‘ri chiziq yoki uchburchak bo‘ylab, to‘pdagi reperlar orasi 20 ...30 m qilib, joylashtiriladi (6.2 – rasm).

III klass inshootlari uchun reperlarni geodeziya va kartografiya boshqarmasi reperlaridan uncha ko‘p uzoq bo‘limgan masofada, bir to‘p o‘rniga bir reper qilib qurishga ruxsat beriladi.

Inshootlarda joylashdigan markalarning dastlabki reperlargacha bo‘lgan masofasi, odatda 1 km dan ko‘p bo‘limgan masofada qabul qilinadi, bunda inshootlarini shikastlanishi reperlarni siljishini keltirib chiqarmasa bo‘lgani. Ba’zi bir holatlarda dastlabki reperlar katta masofaga uzoqlashgan bo‘lishi ham mumkin.

Dastlabki reperlarni o‘rnatish chuqurligiga gruntlar harorati, grunt suvlari sathlarining o‘zgarishlari, shuningdek tub jinslarning chuqurligi ta’sir qiladi. Agar grunt suvlari sathida qoya toshli (skala) yoki yarim qoya toshli jinslar yotsa, reper yakori grunt suvlari ko‘tarilib tushish amplitudasining 3 karrasi miqdorida sathdan pastga o‘rnatiladi. Javobgarligi kam bo‘lgan inshootlarda muzlash chuqurligi 1,5 m. gacha

bo'lganda, Gidroproeektning dastlabki reperi 2,5 m. dan kam bo'lmanan chuqurlikga o'mnatiadi, eng ko'p muzlash chuqurligi 1,0 m. bo'lganda esa, 1,5 m. dan ko'p



6.2 – rasm. Chorvoq gidrouzeli tayanch tarmog‘i sxemasi


bo'lmagan chuqurlikga o'rnatiladi. Glina va qum gruntilarda dastlabki reper (6.3,a – rasm) diametri 80 mm. dan kam bo'lmagan, kesilgan to'rtburchakli pramida (5) ga o'rnatilgan po'lat quvur (4)dan tashkil topadi. Quvurga 3 ta marka kavsharlanadi: tepadagi kesilgan joy (2) ida, uning yon sirtlari (4) da va uchinchisi pramidaning tepe qirrasi (5) ga bir butun qilib o'rnatiladi. Bu markalar zanglamaydigan va okislanmaydigan metalldan tayyorlanadi hamda u qizil rangga bo'yab qo'yiladi. Quvur ichi beton yoki bitum bilan to'ldiriladi, tashqarisidan esa asfaltli lok, kuzbasslok yoki boshqa korroziyaga qarshi qoplamlar qilinadi va qop - qanor materiali yoki bitum shimdirligani (2-3 qatlama) oynali material o'rabi qo'yiladi.

Qoya toshli gruntlar yaqin joylashganda dastlabki reper diametri 120...160 mm (6.3,b – rasm) li skvajinagi o'rnatiladi. Uzunligi 60...80 sm bo'lган yakor mustahkam qoya toshga joylashtirilishi lozim. Skvajinaga nivelirovka qilinadigan markasi (boshchasi) bilan zanglamaydigan metalldan reper quvuri joylashtiriladi. Quvur pastida teshikchalarga ega bo'ladi. Skvajinani pastki qismi beton bilan to'ldiriladi. Skvajinaning tepe qismiga himoya quvuri hamda bir va undan ko'p halqalardan iborat temir-betonli, usti qopqoq bilan yopiladigan quduq (kolodets) qilinadi. Skvajina va halqa orasidagi bo'shliq, haroratni saqlovchi shlak, yog'ochni bitumli qirrindisi va sh.o'. material bilan to'ldiriladi.

Yirik gidrouzellarda, tub jinslar chuqur joylashgan sharoitda hamda qoya toshli grunt bo'lmagan dastlabki reperlar sezilarli 15...25 m. gacha bo'lган chuqurlikga (6.3,v - rasm) o'rnatiladi. CHuqurlikda joylashgan reperlarning kamchiligi – bu reper quvurining uzunligini harorat o'zgarishiga bog'liq o'zgarishidir.

Dastlabki reperlarni maxsus shtolnyada joylashtirilgan holatlari ham mavjud, qirg'oqdan tog' yon - bag'ri (sklon) bo'lab 10-15 m ichkariga kiriladi. Bunday holatda reper odatdagisi yuza markasi ko'rinishida yasaladi. Mustahkam qoya toshli er sathiga (3...3,5 m. gacha) yaqin joylashgan holatda, ma'suliyatliligi kam bo'lган inshootlarda dastlabki reperning soddalashtirilgan konstruksiyasi (6.3,g- rasm) qo'llaniladi.

Ko'p yillik muzlik sharoiti uchun chuqurlik reperlarini sim torli, qalinligi 1,5...1,7 mm. li, skvajinada yakorlar orasiga tortilgan, yaxlit betonga shtok bilan o'rnatilgan invar simli qilinadi. Himoya quvuriga bir uchiga yuk osib, quvurda shkalani kuzatish uchun tirqish yasaladi.




6.3 – rasm. YUzadagi dastlabki reperlar:

v – mas'uliyatli inshootlarda, mos ravishda qoya toshli (skala) grunt yaqin va tub jinslar chuqur joylashganda; g – mas'uliyati kam bo'lgan inshootlarda, qoya toshni er sathiga yaqin joylashgan holatlarda; 1 – kyuvet; 2 – nivelirlash markalari; 3 – to'kma balandlik; 4 – po'lat qurvur; 5 – betonli to'rt burchakli piramida (tumba); 6 – himoya qurvuri; 7 – qopqoq; 8 – quduq (kolodets); 9 – haroratni saqlaydigan material; 10 – yakor; 11 – oraga quyiladigan material (prokladka); 12 – beton yostiq (podushka); 13 – diafragma; 14 – salnik; 15 – latta tampon; 16 – bashmak. O'lchamlari m.da.

Ishchi reperlarni ba'zan gruntli deb ham atashadi, ular ixtiyoriy holda inshootlarga yaqin o'rnatiladi. YUmshoq gruntlarda ularning ostona (podoshva) sieng ko'p muzlash chuqurligidan 0,5...0,7 m. pastga joylashtiriladi. Dastlabki reper-

larga o‘xshab, ishchi reperlarni kotlovan kovlash (6.4,a –rasm) yoki skvajina burg‘ulash yo‘li bilan quriladi. Ishchi reperlarni pastki qismini yaxlit beton (tumba)dan qilib o‘rnatilgan turlari ham mavjud (6.4,v – rasm) .




6.4 – rasm. Ishchi reperlar:

a – kotlovanda; b – burg‘ulangan skvajinada; v – asosida yaxlit betonli; 1 – himoya qopqog'i; 2 – nivelerlanadigan marka; 3 – quduq ; 4 – diametri 40...50 mm li po'lat quvur; 5 – issiqlik saqlaydigan material; 6 – beton plita; 7 – beton qatlami va o'lchamlari 40x40x5 sm bo'lgan anker plitalardan iborat yakor; 8 – himoya quvuri; 9 – teshiklar (perforatsiya); 10 – yaxlit beton. O'lchamlari m.da.

Devoriy dastlabki reperlar yaqinida joylashgan va fundamenti muzlash chuqurligidan pastga qo'yiladigan yaxlit betonli yoki temir-betonli inshootlar devorlarga o‘rnatiladi. Ular judayam kam qo'llaniladi, chunki yuqorida ko'rsatilgan talabga javob beradigan qurilmalar yaqin joyda bo‘lmasiligi mumkin.

Devoriy ishchi reper va devoriy markalar bir xil,bir biriga o'xshash. Faqat biringchisi cho'kishi turg'unlashgan inshootlarda, ikkinchisi esa cho'kishi kuzatish jarayonida aniqlanadigan inshootlar elementlarida o'rnatiladi. Devoriy ishchi reper (marka) ning boshchisi (6.5 – rasm) sfera yoki yarim sfera shaklida bo'lishi mumkin. Uni odatda ustiga reyka qo'yishiga qulay bo'ladigan qilib devordan 3- 4 sm. chiqazib qo'yishadi. Devoriy reperni (markani) atmosfera ta'siridan himoya qilish uchun uni qopqoq 1 bilan berkitiladi (3.5,a – rasmga karang) yoki olib qo'yiladigan (6.5,b-rasm) qilinadi. Devoriy yashirin reper S.YA. Juk nomidagi Gidroproekt tomonidan ishlab chiqilgan, buraladigan qopqoq bilan himoya qilinadigan markadan iborat. Markaning asosi vint yordamida devordan chiqib turgan shvellerga yoki anker plitaga mahkamlanadi.




6.5 – rasm. Devoriy ishchi reperlar: a – yon tomonda doimiy; b – vertikal devorda vaqtinchalik; 1 – qopqoq; 2 – marka; 3 – mustahkamlovchi vintlar; 4 – marka asosi; 5 – devorga biriktiriladigan shveller; 6 – devordagi to'liq silindr; 7 – kronshteyn; 8 – xvostovik; 9 – yarim sferali bo'rtiklar.

Inshootlarni deformatsiya (odatda cho'kishini) sini o'lchaydigan markalar, joylashuvi bo'yicha-yuza va chuqurlikdagi markalarga; joylashgan o'mni bo'yicha – gruntli, devoriy markalarga; tayinlanishi bo'yicha – doimiy va vaqtinchalik markalarga bo'linadi.

YUza markalari to'g'on tanasi va asosining cho'kishini yig'indi qiymatini o'lhashga xizmat qiladi. Ular gruntli inshootlarni tepasi (o'rkachi), qiyaliklari yoki bermalariga joylashtiriladi.YUza markalariga asos bo'lib, kesilgan to'rt burchakli piramida (6.6,a- rasm) shaklidagi tumba yoki ro'mol shaklida kavsharlangan metall tayanch flanslar (6.6,b- rasm) xizmat qiladi. Markaning asosi mavsumiy muzlash chuqurligidan 0,5 m. pastga qo'yiladi. Markani shikastlanishdan saqlash uchun tepe qismida usti yopiladigan quduq (kolodets) qilinadi. Diametri 200...250 mm.li quvurdan yasalgan kolodetsning tepasi er ustidan 0,3 m. chiqib turadi. Grunt to'g'lonni pastki qiyaligi ostonasidagi gruntni shishib chiqishini kuzatish uchun (diametri 18...20 sm va uzunligi 2 m yog'ochdan ishlangan) yuza grunt markalari ham ishlataladi.Bunda kuzatish olib boriladigan nuqta sifatida yog'och tepasiga qoqilgan metall mix (shtir) xizmat qiladi.

CHuqurlik markalari yordamida asoslarning cho'kishi o'chanadi. Ularning konstruksiyalari ularni qurish sharoitlariga qarab farqlanadi. 6.7,a – rasmida quruq

uchastkalarda yig‘iladigan chuqurlik markasi ko‘rsatilgan. U o‘lchami $1,5 \times 1,5 \times 0,5$ m. li temir-beton plitadan iborat bo‘lib unga diametri 40...50 mm.li metall shtanga mahkamlangan, shtanga tepasiga esa okislanmaydigan metalldan yarim bo‘rtik boshcha shaklida yasalgan marki kovsharlangan.




6.6-rasm. Gruntli inshootlarning yuza markalari:

a – betonli tumba; b – metall tayanch flans bilan; 1 – qopqoq; 2 – quvur; 3 – nivelerilanganadigan marka; 4 – ro’molcha; 5 – flans; 6 – beton yoki bitum mastikasi bilan to ‘ldirilgan quvur; 7 – beton tumba; 8 – ankerlar.

O‘lchamlari m.da.

Bunday shtanga zanglamaydiga metalldan bo‘lgan, yo‘naltiruvchi disk (shayba) bilan ta’minlangan, ikki quvurdan iborat teleskopik zveno bilan himoyalangan bo‘ladi. Yig‘ishga qulay bo‘lishi uchun teleskopik zveno svinetsli yoki alyuminli mixparchin (zaklepka) bilan yig‘iladi, bu zaklepka grunt qatlamlari siljiganda uzilib markani ko‘rsatkichiga ta’sir qilmaydi. O‘zanda gidrotexnika inshooti qurilayotgan holatda, markani o‘lchamlari $0,8 \times 0,8$ m va qalinligi 6...8 mm bo‘lgan ro‘molcha (kosinka) bilan kuchaytirilgan teshikli, metall (perforatsiya qilingan) plitaga o‘rnatish qulay bo‘ladi. SHuningdek metall plitaga diametri 40...50 mm li quvur va himoya quvuri biriktiriladi. Uning balandligi qurish paytida quvurga suv tushmaydigan qilib olinadi. Marka quvurini teleskopik zveno ham himoyalaydi. Markaning baracha metall qismlari zanglashga qarshi moddalar bilan ham ichidan ham tashqarisidan ishonchli qilib ishlanadi.



6.7 – rasm. Gruntli to'g'onlar tanasidagi cho'kishni o'lchash uchun qo'llaniladigan chuqurlik markalari:

a – temir-beton plita bilan; 1 – qopqoq; 2 – diametri 150 mm bo'lgan quvur; 3 – marka; 4 – markazlashtiruvchi qopqoq; 5 – svinetsli parchinlar; 6 – himoya quvuri; 7 – shtanga; 8 – halqa shaklli prokladka; 9 – shtangani yo'naltiruvchi disk; 10 – himoya quvurining teleskopik zvenosi; 11 – temir-beton plita; b – metall plita bilan; 1 – diametri 200 mm, tuynigi bilan quvur; 2 – himoya qopqog'i; 3 – marka; 4 – plita; 5 – yo'naltiruvchi disk; 6 – marka quvuri; 7 – smola shimdirlig'an arqon; 8 – vint-shponka; 9 – qo'shimcha halqa; 10 – himoya quvuri; 11 – ichki quvuri; 12 – yo'naltiruvchi halqa; 13 – asos plitasi; 14 – qattiqlik qobirg'asi; 15 – alyuminli parchinlar; v – teleskopik ko'p yarusli; 1 – himoya qopqog'i; 2 – markalar; 3 – plita; 4 – truba; g – gidravlik markalar; 1 – himoya g'ilofi (metall quti); 2 – ichki idish; 3 – to'kish quvuri; 4 – ularsh quvuri; 5 – pezometr; 6 – nasos. O'lchamlari m.da.

Asoslar va to'g'on tanasi qatlamlarini cho'kishini alohida o'lchash lozim bo'lganda, asos va to'g'on tanasiga teleskopik, ko'p yarusli markalar o'rnatiladi (6.7 v

– rasm). Marka bir necha, har xil diametrli va bir biriga kiritilgan, asosida metall plita bilan ta'minlangan quvurlardan iborat bo'ladi. Quvurning tepe qirqimi yuzaga chiqariladi va himoya qopqog'i bilan berkitiladi. To'g'on tanasiga yotqizilgan plita grunt cho'kishiga qarab cho'kishi mumkin, u o'lchanadigan qatlama bilan harakat qiladi va o'zi bilan quvurni birga harakatlantiradi. Marka bilan ta'minlangan quvur qirqimining siljishiga qarab cho'kish haqida xulosa qilinadi. Kuzatish nivellirlash orqali olib boriladi. Ko'p yarusli teleskopik marka past va o'rta bosim (napor) li (50 m.gacha) to'g'onlarda qo'llaniladi.


To'g'on tanasining alohida qatlamlarini siljishini o'lhash uchun gidravlik markalar ham qo'llaniladi (6.7,g – rasm), bunday markalar tutash idishlar qonuniyati (tamoyili) asosida ishlaydi. Bunda bir idish (metall quti yoki yaxlit betonda) to'g'on tanasiga joylashtiriladi, boshqasi esa inshoot qiyaligiga joylashgan ko'rish qudug'i (smotrovoy kolodets) ga mahkamlangan p'ezometrik quvurchadan tashkil topadi. Bu idishlar o'zaro qurilish paytida o'rnatilgan quvurlar bilan tutashgan bo'ladi. Tizim nasos yordamida suvga to'ldiriladi. Idish joylashgan metall qutidan ortiqcha suv to'kib tashlangandan so'ng p'ezometr meniski bo'yicha hisobot olinadi. P'ezometr meniski ko'rish qudug'ida o'rnatilgan bo'ladi, uni ko'rsatishiga qarab inshootni cho'kishi bo'yicha xulosa qilinadi. Bunday asbob yordamida cho'kishni o'lhash xatoligi 1 sm. gacha aniqlikda bo'ladi.

To'g'on tanasining har xil nuqta va yo'nalishlarini nisbiy deformatsiyasi elektr o'tkazmaydigan, belgilangan yo'nalishda yotqizilgan, aylanasi bo'ylab har joyida metall plastinkalar qo'yilgan quvurdan iborat chuqurlik markalari (6.8,a – rasm) yordamida o'lchanadi. Bu plastinkalar holati 3...4 mm. ga o'zgarganda quvur ichidan o'tgan zond 4 elektr signalini beradi. Bu gruntuning gorizonttal siljishidan darak beradi. Vaqt bo'yicha elektr signalini o'zgarishi yotqazilgan elektr o'tkazmaydigan quvur bo'ylab siljish vujudga kelganini bildiradi. Zondlar konstruksiyalari har xil bo'lishi mumkin, shu jumladan izotop holati va sh.o'. belgilaydigan elektromagnitli zond ham (6.8,b – rasm). YUk osilgan yumshoq plastinkaga elimlangan tenzdatchikli inklinometr quvur bo'ylab siljib quvurni tiklikka nisbati surilishiga bog'liq ravishda tenzometrdan uzatilayotgan elektr signalini belgilaydi. Gorizontal siljishlarni o'lhash uchun mayatnik, fotoqurilma yoki konstruksiya tamoyillariga asoslangan inklinometr qo'llaniladi. Strunali marka Chorvoq to'g'onida o'rnatilgan. Nisbiy siljishlar plastinkalarni joylashuviga bog'liq elektr signalidan foydalanishga asoslangan ekstenzometr bilan o'lchanadi. Plastinkalarni har xil sirtlarga joylashtirib siljishni uch yo'nalishda o'lhash mumkin. Bunday asbobning sxemasi 6.8,v –rasmda keltirilgan.

To‘g‘onlar tepasi yoki bermasini planda siljishni kuzatish stvorlar, triangulyasiya va kombinatsiyalashtirilgan usullarda bajariladi. To‘g‘ri chiziqli o‘qga ega bo‘lgan to‘g‘onlar stvorlar usulida kuzatiladi. Agar to‘g‘on stvori bir necha to‘g‘ri chiziqli uchastkalardan tashkil topgan bo‘lsa kombinatsiyalashgan usuldan foydalaniladi, to‘g‘ri chiziqli uchastkalarida stvorlar usuli, o‘qlarni sinish nuqtalarida triangulyasiya usuli qo‘llaniladi. Triangulyasiya usuli tog‘li xudud gidrouzellarida, arkali to‘g‘onlarda amalga oshiriladi.

Yirik Nurek to‘g‘onida gorizontal va balandlik bo‘yicha siljishlarni o‘lchash uchun yadroning uch sathida joylashgan galereyadan foydalanilgan. Bu galereyalar va kolodetslarga kommunikatsiyalar chiqarilgan, NO‘A ni boshqarish, yadro orqali suvni sizib o‘tishini kuzatish pultlari joylashtirilgan.


Gorizontal siljish daryo o‘zani bo‘ylab yuqori yoki pastki beflar tomonga ko‘proq bo‘ladi. To‘g‘oning ayrim massasi o‘zining xususiy og‘irligi ta’sirida tik yonbag‘ir bo‘ylab siljiydi. Eng ko‘p siljish to‘g‘on cho‘kishining 15...30% ga etadi va shu joyni o‘zida, asosdan 0,3...0,5 to‘g‘on balandligida bo‘ladi. Qurilish davrida, suv ombori to‘ldirilayotganda va ishlatilayotganda gorizontal siljish har bir sharoitda har xil bo‘ladi.



6.8 – rasm. To'g'on tanasining gorizontal va boshqa siljishlarini aniqlaydigan asboblar:

a – chuqurlik markasining umumiy ko'rinishi; b – elektromagnit zond; 1 – elektr o'tkazmaydigan quvur seksiyasi; 2 – ulanish muftasi; 3 – po'lat disk (plastina); 4 – o'lchash zondi; 5 – galvanometr; 6 – kabel; 7 – trossni mustahkamlovchi skoba; 8 – plastmassa qopqoq; 9 – g'altak o'rami bilan; 10 – magnit; 11 – zond korpusi; v – ekstenzometr; 1 – plastina; 2 – chiziqli potensiometr; 3 – quvurlar siljish tizimi; 4 – kabel. O'lchamlari m.da.

Drenaj, ekran, mustahkamlovchilar, diafragma va sh.o'. lardan yotqizilgan har xil kommunikatsiyalar o'qlarining holatini belgilash uchun belgi-ko'satkichlar va stvor belgilari qo'llaniladi. Ular har xil material (yog'och, metall, temir-beton, plast-massa) dan yasaladi va mos yozuvlarga ega bo'ladi.




6.9- rasm. Ko'rsatkich belgilari (a) va stvor balgilari (b):

1 – stvor o'qi belgisi; 2 – yog'och yoki beton tayanch; 3 – metall tayanch; 4 – bordyur toshlari; 5 – shебен yoki galka tosh. O'lchamlari sm.da.

Balandlik markalarini soni va ularni joylashtirilishi gidrotexnika inshootlarining o'lchamlari va konstruksiyalariiga, shuningdek ular tanasi va asosning geologik tuzilishiga bog'liq. Markalar joylashtirilayotganda kuzatishlarni o'tkazish maqsadi hisobga olinadi. Qachonki inshootning holatini bevosita (naturada), loyihada qo'llash uchun nazariy va hisobiy bog'lanishlar aniqliklarini o'rGANISH zarur bo'lsa, markalar soni - ko'p, joylashuvi esa ishlatish nuqtai – nazaridan emas, balki ilmiy-tadqiqot nuqtai nazaridan kelib chiqib belgilanadi.

Ishlatish (ekspluatatsiya) nuqtai nazaridan balandlik markalari bo'ylama yoki ko'ndalang o'qlar bo'yicha joylashtiriladi (6.10 – rasm): bo'ylama – tepasi, bermalari

va pastki qiyalik ostonasi bo'ylab, ko'ndalang – 100...250 m masofada poyma qismida va 50...100 m masofada o'zan qismida, agar burilish 15° dan ko'p bo'lsa to'g'onnei burilish joylarida o'rnatiladi. Bundan tashqari pastki qiyalikda grunt do'ppayishini aniqlash uchun harn qo'llaniladi. Odatda bo'ylama stvorlar markalarini joylashuvni bo'yicha ko'ndalang qo'yilganlarig'i mos tushadi. CHuqurlik va teleskopik markalar shu stvorlarda yuzadagidan 1...1,5 m masofada joylashtiriladi. Ularni har 20...30 m masofada to'g'on tanasi ko'ndalang kesimi chegara chizig'inинг singan joylarida, konstruksiyani o'zgargan chegarasida va har xil geologik tuzilma bo'lgan joylarda joylashtirishadi. Odatda, qo'ndalang kesimda (3 tadan kam bo'limgan) bir necha marka balandlik bo'yicha 10...20 m da joylashtiriladi. YUqori qiyalikda markalar o'rkachdan NDS gacha va o'lik hajm sathi (O'XS) dan 1...2 m. baland joylashtiriladi.



6.10 – rasm. Grunti to'g'onda markalar va stvor belgilarini joylashtirish sxemasi:

1 va 2 – bo'ylama va ko'ndalang cho'kishni aniqlash uchun; 3 – do'ppayish hosil bo'lishini belgilash uchun; 4 – stvor belgilari; I ...IV – buylama stvorlar; A,B,V – ko'ndalang stvorlar.

Qo'yilgan (o'rnatilgan) reperdan 10...15 sut o'tgandan so'ng foydalaniladi. YUza markalari bevosita inshoot qurilishi tugallangandan so'ng qo'yiladi, aks holda dastlabki, cho'kish holatini baholashga imkon qolmaydi. CHuqurlik markalari ikki bosqichda o'rnatiladi. To'g'on qurilayotganda plitalar yotqiziladi, grunt to'kilgandan keyin skvajina burg'ulanadi va markalar o'rnatiladi. Bunday usulning afzalligi shundaki inshootlarni qurish texnologiyasi qulay bo'ladi, markani saqlab qolinishi kafolatlanadi.

Texnologik jihatdan to'g'on ko'tarilishi mobaynida marka ko'tarilib boriladi. Markalar joylashadigan og'iz (uste) har xil belgiga ega, plita qancha past bo'lsa, uning joylashuvini belgilaydigan quvur shunchalik ingichga, uning markasi baland bo'ladi. Markalarni odatda qizil ranggi bo'yab, vazilin bilan yog'lab qopqoq bilan yopib qo'yishadi. Reperlar, markalar va boshqa belgililar dalolatnomaga yozib belgilab qo'yiladi: unda o'rnatilgan kun, koordinatalari, xizmat muddati, yakor yoki

boshmoqning belgisi, skvajinaning geologik qirqimi ko'rsatiladi. O'rnatilgan va nivellirlangan reperlar yuqori malakali mutaxassis tomonidan qayta nivellirlanadi. Nivelirlash bir yildan keyin qaytariladi. Ishdan chiqqan belgi «a» indeks bilan qayta tiklanadi. Ba'zida ishdan chiqqan reperlarga «n» indeksi qo'yiladi, ikkinchi marta ishdan chiqsa «nn» belgisi qo'yiladi, masalan «23n» qayta tiklanadi.

CHo'kish ustidan olib borilgan kuzatishlarni ordinata o'qi bo'ylab cho'kishlarni, absiss o'qi bo'ylab vaqt (dekadalar, oylarni) qo'yib grafik shaklida rasmiylashtirish qulay bo'ladi. CHo'kish grafisigi bilan birga harorat yoki suv omborlaridagi suv sathini o'zgarish grafisigi keltiriladi. SHuningdek har xil stvorlar, to'g'on uzunligi bo'ylab cho'kish grafiklari ham taqdim etiladi.

CHo'kishlarni kuzatish davriy ravishda markalarni nivelirovka qilish, cho'kishlarni aniqlash va natijalarni tahlil qilishdan iborat. Davriy nivellirlash to'g'on va asosning geologik tuzilishi, ekspluatatsiya muddati davomiyligi, inshootlarni ishlash sharoitlari va boshqa sh.o'. omillarga bog'liq. Gruntli inshootlarni ishlatish tajribasi ishlatishning dastlabki yillarda – oyiga 2 marta, undan keyin har kvartalga – 1 marta cho'kishini o'lchab borishni tavsiya qilmoqda. Ishlatishning ikkinchi yili o'tgandan so'ng bahor va kuzda, cho'kish turg'unlashgandan so'ng esa yiliga 1 marta cho'kish o'lchab boriladi. Qumli gruntlardan qilingan inshootlarda cho'kish asosan qurilish davrida kechadi, glina gruntli inshootlarda cho'kish judayam sekin kechadi.

To'g'onlar asoslarining cho'kishlari har xil qiymatda bo'ladi. Masalan, Kremenchug GESi to'g'oni 200...610 mm cho'kkani va loyiha belgilagan chegaradan chiqmagan. Gvadelupe (Meksika) tosh-tashlama to'g'oni (30 m balandlikda) 2.1 m. ga cho'kkani. Balandligi 58 m bo'lgan Tabka (Siriya) gruntli to'g'oni o'zanda bor yo'g'i 89 mm. ga cho'kkani, qirg'oqqa tutash joylarida esa 550 mm. ga cho'kkani (to'g'on dolomitdan yadroli qilib qurilgan).


Gruntli gidrotexnika inshootlarining siljishi ustidan olib borilgan kuzatishlar natijalariga qayta ishlov beriladi. Qurilish davrida siljishlar aniq qonuniyatga bo'ysunmasligi e'tiborga olinadi. Ammo doimiy va mo''tadil ishlatilgan inshootlarning siljishlari ma'lum bir qonuniyatlar asosida kechadi. Qonuniatlardan chetga chiqishlar diqqat bilan tahlil qilinadi, lozim bo'lsa siljishni to'xtatish bo'yicha zudlik bilan choralar ko'rildi. Bir xil gruntlardagi cho'kish grafiklarini bir-biriga o'xshamasligi qurilish (ish) sifatining yomon bajarilganligini, suvni kuchli sizib o'tishi mavjudligi yoki muzlagan grunt yotqizib yuborilganligini, o'prilish va sh.o'. jarayonlar borligini ko'rsatadi. CHo'kishning uzlusiz o'sib borishi kuchli mexanik va kimyoiy suffoziya borligini bildiradi.

6.3. Grunt to‘g‘onlardan suvni sizib o‘tishini kuzatish uchun qo‘llaniladigan pezometrlar va ularni joylashishi

Inshootlar tanasi va asosining ayrim nuqtalaridagi pezometrik sath (napor) larni o‘lhash uchun qo‘llaniladigan asboblarga pezometrlar deyiladi. Ularning yordamida suvni sizib o‘tishiga qarshi qurilmalarning ishi baholanadi.

Pezometrlar: o‘rnatish usuli bo‘yicha – *qurilish paytida joylashtirilgan; tu-shirilgan* (yig‘ilgan holda qurilayotgan yoki qurilib bitkazilgan inshootda burg‘ulangan skvajinaga tushiriladi); suv qabul qiluvchisining joylashuvi bo‘yicha - *asosiy* (yuza) (gruntli to‘g‘onlar tanasi yoki qirg‘oqga tutashgan joylaridagi depressiya egri chizig‘ini holatini aniqlash uchun); *chuqurlikdagi* (to‘g‘on asosidagi qarshi bosimni aniqlash uchun); *nuqtalardagi* (drenaj qurilmalari va boshqa xarakterli nuqtalardagi suvni o‘tish rejimini nazorat qilish uchun); tepe qismining joylashgan o‘rni bo‘yicha – *ochiq* (naporsiz) (tepe qismi (ustya) eng ko‘p pezometrik sathdan yuqori joylashgan); *naporli* (suv quyilib chiqadigan) (tepasi eng kam pezometrik sathdan pastda joylashgan); *naporli-naporsiz* (tepe qismi pezometrik sath ko‘tarilib-tushish zonasida joylashgan, ya’ni sath yuqori bo‘lgan paytida ular naporli sifatida, sath tushib ketganda esa naporsiz bo‘lib ishlaydigan) p‘ezometrlar sifatida klassifikatsiyalanadi.

Pezometrlar quvurlari suv qabul qiluvchi (filtrlari) va tepe qismidan tashkil topadi (6.11-rasm). Suv qabul qiluvchi joylashgan o‘rnidagi pezometrik naporni o‘ziga qabul qilish uchun xizmat qiladi. Unga qo‘yiladigan asosiy talab loyqa cho‘ktirmaslik va oksidlanishga qarshilik qilishdir. Quvur suv qabul qilgichni pezometrni tepasi bilan tutashtiradi. U suv o‘kazmaydigan va zanglashdan himoyalangan bo‘lishi lozim. Pezometr tepasi – chiqish qismi bo‘lib suv qabul qiluvchi joylashgan nuqtadagi pezometrik napor (sath)ni o‘lhash imkoniyatini beradigan asbob va moslamalarni o‘rnatishga xizmat qiladi.



6.11 – rasm. Ochiq pezometrlar:

a – asosiy (yuzadagi); b – nuqtadagi; 1 – qopqok; 2 – usti (tepasi) 3 – shag'alli to'shama; 4 – suglinoki tompon; 5 – mufta; 6 – diametri 60...70 mm li quvur; 7 – yirik kattalikdagи qum yoki mayda shag'al; 8 – suv qabul qilgich; 9 – quvurni tushirish joyi; 10 – suv tindirgich; 11 – probka; 12 – shag'al yostiq; 13 – gruntli to'shama; 14 – inshoot ostonasi. O'lchamlari m.da.

Qurilish paytda joylashtiriladigan pezometrlarning suv qabul qiluvchilarini konstruksiyalari qaysi gruntda o'rnatilishiga qarab har xil bo'ladi. Ular diametri 50...100 mm. li, mayda to'r bilan o'ralgan va teskari filtr bilan himoyalangan perforatsiya (teshikchalar) qilingan quvur bo'lagidan tashkil topadi. Suv qabul qiluvchilar konstruksiyalarini har xil bo'lishiga qaramasdan, ko'pchilik paytda ularni silindr yoki prizma shaklida yasashadi. Gruntli inshootlarda, odatda, suv qabul qiluvchilar silindr shakliga ega bo'ladi. Suv qabul qiluvchining quvurida shaxmat tartibida joylashgan, diametri 5...8 mm teshikchalar bo'ladi. Teshikli suv qabul qiluvchi latun metalli, vinylplast yoki boshqa sun'iy materialdan yacheykasi o'lchami 2...3 mm bo'lgan to'r bilan o'rab quvurga mahkamlab qo'yiladi. Undan keyin teshikchalar ochilgan quvurga shisha tolali material o'rab har joyidan 8...10 m oraliqda sim bilan boylab qo'yiladi.

Suv qabul qiluvchining pastki qismi, bir bo'lak yaxlit quvurdan, tagi yopilib tayyorlanadi, u quvurga tushadigan mayda zarrachalarni tindirish uchun xizmat qiladi. Suv tindirgich qismining uzunligini 0,2...0,5 m. qilinadi. Quvurning teshikchalar ochilgan qismining uzunligi pezometr konstruksiyasiga, qaerga va qaysi gruntga

o'rnatilishiga bog'liq, qumli gruntlarda 0,5 m. dan kam bo'limgan uzunlikda, glinali gruntlarda esa 1 m. dan kam bo'limgan uzunlikda qilinadi.

Asosiy (yuza) pezometrlarini suv qabul qiluvchilar depression egri chiziq sathining barcha ko'tarilib-tushishini qamrab oladigan bo'lishi kerak. Ular to'g'on tasnasa depression egri chiziqning eng past holatidan 1...1,5 m chuqurlikda o'rnatiladi.


CHuqurlikdag'i pezometrlarning suv qabul qiluvchisi inshoot ostonasidan 0,5...1 m. pastga o'rnatiladi. Inshootlar elementlariga suvni sizib o'tish bosimini aniqlash zaruriyati tug'ilgan holatda pezometrlar bevosita o'lchanadigan (inshoot ostonasi ostiga) nuqtaga o'rnatiladi.

Tushiriladigan pezometrlar diametri 150 mm. dan kam bo'limgan burg'ulangan skvajinaga o'rnatiladi. Pezometr diametri 50 mm. dan kam bo'limgan va suv qabul qiluvchisi bor bo'lgan quvurdan tashkil topadi (6.12 -rasm). Quvur oxiriga devorini qalnligi 3 mm bo'lgan stakan – suv tindirgich (otstoynik) kiydiriladi va boltlar bilan qotirib qo'yiladi. Odatda stakan uchi o'tkir qilib yasaladi. Gidravlik usulda (yuvish yo'li bilan) skvajina kovlanganda kapron kojux va qum filtrli pezometr qo'llaniladi (6.12,b – rasm). Latun to'rli pezometrlar kam muddat xizmat qiladi, ular. ba'zan har 2...4 yilda, po'lat korpusini zanglashidan hosil bo'lgan maxsulotlar va to'mni o'zini okislanishi natijasida, to'r yacheykalari to'lib qolib, ishdan chiqadi. SHuning uchun sun'iy materiallardan keng foydalaniladi, chunki ular nisbatan ko'p ishlaydi. SHuningdek to'siz suv qabul qilgichlar mavjud bo'lib, ular orasiga (filtrlovchi material) qum solinadigan teshikchalar bilan yasalgan ikki silindrda tashkil topadi.


Beton inshootlarni qoya toshli asosiga o'rnatiladigan pezometrlarning suv qabul qilgichlari har xil konstruksiyalarga ega bo'ladi. ulardan ba'zi birlari 6.13 – rasmda keltirildi. Aso-sida mayda zarrachali qum

6.12 – rasm. Tushiriladigan pezometrlarning suv qabul qilgichlari:

a – viniplast tur va shisha ipli mato bilan;
 1 – burama taram-taram qilingan (porfirovanniy) viniplastli to'r; 2 – yo'naltiruvchi skoba;
 3 – po'lat quvur; 4 – shisha ipli mato; 5 – plast-massali quvur; 5 – kopronli g'ilof (kojux) va qumli filtr bilan; 1 – musta; 2 – kopronli quvurdan kojux; 3 – kopronli quvur; 4 – yirik zarrachali qum; 5 – uch (nakonechnik); 6 – uzunligi 50 mm gacha, kengligi 1,5 mm gacha bo'lgan tirqishlar. O'lchamlari m.da.



bo'lgan beton inshoot (suv tashlama, suv tushirma, suv qo'ygich va sh.o.) larga pezometrlarni suv qabul qilgichi joylashtirilayotganda kichikroq kotlovan kovlanadi va tubida teshikchalar bo'lgan yog'och quti o'rnatiladi. O'lchami 30x30x40 sm. bo'lgan quti teskari filtr tamoyilida tanlangan filtrovchi material qatlami bilan to'ldiriladi. Bunda tagiga kichikroq fraksiyali, tapasida teshikchalar bo'lgan stakan o'rnatiladigan joyida, yirik fraksiyali graviy solinadi (6.13,a -rasm). YOpishqoq grunt (supes, suglinok, glina) lar past filtratsiya koeffitsientiga va past suv berish qobiliyatiga ega, shuning uchun pezometrlar suv qabul qilgichi katta maydondan suv oladigan qilinadi. SHu maqsadda kovlangan kotlovanchaga qalinligi 1,5...2 mm po'lat listdan teshikchalar qilingan metall quti o'rnatiladi. Qutining o'tasiga latunli to'r yoki viniplast o'ralgan hamda perforatsiya qilingan suv qabul qilgich quvuri o'rnatiladi, uning yoniga esa filtrlaydigan material solinadi. O'rnatishga qulay bo'lsin uchun metall shakllardan foydalaniladi, keyin esa u sug'urib olinadi, quti tepasiga suglinok solinadi, undan keyin betonli tayyorlama solinadi (6.13, b - rasm).



6.13 – rasm. Qoya toshsiz asosdagi beton inshootlar ostidagi pezometrlar suv qabul qilgichlari:

a – yog'och quti shaklida; 1 – pezometrik quvur; 2 – tubi teshikchalaraga ega kesilgan po'lat stakanli quti qopqog'i; 3, 4 va 5 – teskari filtr qatlamlari; 6 – zanglamaydigan to'rlili

perforatsiya (teshikchalar) qilingan tub; b – perforatsiya qilingan metall quti yoki g'alvir shaklida; 1 – quvur; 2 – betonli to'shamma; 3 – suglinok qatlami; 4 – mufta; 5 – diametr 3...4 mm li perforatsiya qilingan quvur shaklidagi suv qabul qilgich. O'lchamlari m.da.

Qoya toshli asoslarda kattaligi 8...10 mm. li bir qatlam graviy, filtrovchi material o'rnini bosishi mumkin. Agar qoya toshda yoriq bo'lsa va undan filtratsiya oqimi yorinqi to'ldirgan moddalarni olib chiqadigan bo'lsa sun'iy viniplast, shisha tolali material kabi materiallardan to'r o'rnatiladi va filtrning mos fraksiyasi yotqiziladi.

Xozirgi paytda ko'pchilik gidrouzellarda filtrovchi material sifatida geotekstil (texnik mato) ishlatalmoqda. Bunday materiallar qatoriga netron chiqindilaridan olin-


gan materiallar, polietilen tolali materiallar, viskoza tolali, melioratsiya materiallari kiradi.

Sementatsiya qilish yoki gruntlarni qotirish zarur bo'lib qolganda pezometrlar ushbu ishlar bajarilgandan so'ng o'rnatiladi.

Ishlash sharoitidan kelib chiqib pezometrlar naporli (6.14,a – rasm), naporli-naporsiz (614,b – rasm) qilib tayyorlanadi. Pezometr trotuarda (65,14,v – rasm) yoki yo'lni haydov qismida (6.14,g – rasm) joylashganda usti tirkishi yopiladigan quduq ichida joylashtiriladi.

Suvning pezometrik sathi har xil usul va asboblar bilan o'lchanadi. Naporli pezometrlarda zavodlarda tayyorlangan manometrlardan keng foydalaniлади. Naporli-naporsizlarida esa suv sathi napori manometr yordamida yoki ochiq usulda o'lchanadi. Naporsiz pezometrlarda suv sathini o'lhash uchun lot – shaqidoq, lot – hushtak, elektr kontaktli, pnevmatik, akustik sath o'lchagichlar, torli pezodinamometr va boshqalar ishlataladi.


Agar quvur ustidan o'lchanadigan sathgacha 20 m. dan kam bo'lsa lot – shaqidoq, lot – hushtak yoki elektr kontaktli asbob qo'llaniladi, ular pezometr usti orqali po'lat sim, tasma, tross yoki tarirovka qilingan kapronli ip yordamida suvg'a tekguncha, tegish ovozi eshitilguncha yoki elektr signali paydo bo'lguncha tushiriladi. Bu asboblarning aniqligi ko'p emas, lekin odatdag'i o'lhash ishlarini olib borish uchun etarli, 0,5...1 sm tashkil qiladi.



6.14 – rasm. Pezometrlar usti konstruksiyalari:

a – naporli; b – naporli – naporsiz; v va g – trotuar yoki yo'lni xaydov qismida mos ravishda joylashgan; 1 – suv sarfini o'lhash va suvdan namuna olish uchun jo'mrak; 2 – monometr; 3 – uch harakatli jo'mrak; 4 – vintel; 5 – quvur; 6 – qopqoq; 7 – mufta; 8 – uchlik; 9 - pezometr; 10 – tirkish qopqog'i; 11 – himoya quvuri. O'lchamlari sm.da.

Lot – shaqildoq diametri 25...38 mm. li, uzunligi 10...12 sm bo‘lgan bir tomoni stakan shaklida kovsharlangan quvur bo‘lagidan iborat. Tubiga qulogcha qilinib, unga tross bog‘lanadi. Ochiq tomoni bilan tushirilgan shaqildoq suvgaga tekkanda ovoz chiqaradi. Asbob tushirib bo‘lingandan so‘ng o‘lchov tasmasi bo‘ylab chuqurlik o‘lchanadi. Pezometrdagi suv sathi belgisi pezometr ustini qirqimi belgisi va o‘lchov tasmasi hamda lot –shaqildoq umumiy uzunliklarining farqi sifatida aniqlanadi.



6.15

rasm.
Pezometrlardagi suv sathini o‘lhash uchun asboblar:

a – lot –xushtak; b – asbobni pezometr ichiga tushirish moslamasi; v – elektrokontaktli asbob; 1 – trossni birkirtiruvchi skoba; 2 – xushtak; 3 – burama kesilgan ichi bo‘sh silindr; 4 – tross; 5 – asbob; 6 – pezometr quvuri; 7 – izolyasiya qilingan o‘tkazgich; 8 – ebonit diafragma; 9 – silindrik po‘kak; 10 – silindrik quvur.


Lot – hushtak (6.15,a – rasm) zanglamaydigan materialdan diametri 40 mm uzunligi 150...189 mm qilib tayyorlangan ichi bo‘sh silindr dan iborat bo‘ladi. Silindrni tashqi sirtida oralig‘i 1 sm. dan qilib tarelka shaklida halqali tarnov o‘yilgan. Silindrni tepasida hushtak bilan birkirtirilgan tirkish bor. Lot – hushtak suvgaga tushirilganda hushtak ichidagi havo siqiladi va hushtak ovoz chiqaradi (6.15,b – rasm). Asbobni tepaga ko‘tarib olib trossni uzunligi suv bilan to‘lgan tarelka shaklidagi halqali tarnovgacha o‘lchanadi va pezometr ustidan suv sathgacha bo‘lgan masofa aniqlanadi.

Pezometrlardagi suv sathini o‘lhash uchun qo‘llaniladigan elektr kontaktli asbob (6.15,v – rasm) sathni aniqroq o‘lchaydi. Asbob (mis yoki latunli) ichi bo‘sh va germetik berkitilgan, diametri 30 mm va uzunligi 250 mm bo‘lgan silindr dan iborat, uning tepe qismiga izolyasiya qilingan o‘tkazgich bilan o‘rtasidan birkirtirilgan ebonitli diafragma o‘rnatalilgan. Silindrning pastki qismida quyma po‘kak

harakatlanadi. O'tkazgich va pezometrik quvur korpusi orasiga lampochka yoki elektr qo'ng'iroq'i ulagan bo'ladi. Asbobni pezometrik skvajinaga tushira borib po'kak suvgan tekkan va korpusi bilan o'tkazgich va pezometrik quvur orasidagi kontaktni ulagan vaqt belgilanadi. Bu holatda lampochka yonadi yoki qo'ng'iroq jiringlaydi

Pnevmatik sath o'lchagich (6.16 – rasm) yupqa plastmassa, rezini yoki metall trubka, suvli yoki simobli manometr, havo (velosiped) nasosi va rezinli trubkadan iborat. Plastmassa trubka (shlang) ning oxiri pezometrغا suvni minimal sathidan pastga tushiriladi. Trubkani manometr bilan ulaydigan jo'mrakni yopib, ichidan suvni to'liq siqib chiqarguncha havo haydaladi. Jo'mrakni ochib va pezometrdagi suv sathi va trubka oxirini o'rab turgan suyuqlik ustuni hosil qilgan tizimdagagi napor aniqlandi. Dastlab asbob tarirovka qilinadi. Har bir o'lhashda havoni sezilarsiz oqib chiqishi hisobiga bo'ladigan noaniqlikni yo'qotish uchun havo nasos yordamida siqib kiritiladi. Asbob ishlatalayotganda unga quyosh nuri tushmasligi lozim, aks holda issiqliqdan asbob ko'rsatkichi noto'g'ri ko'rsatadi yoki haroratga tuzatma kiritish zarrati paydo bo'ladi. Bu asbobning afzalligi shundaki, uning yordamida tiklikka nisbatan har qanday burchak ostida yotqizilgan pezometrlardagi, shuningdek quvurlar burilishlaridagi pezometrik sathni o'lhash mumkin bo'ladi.

6.16 – rasm. Pnevmatik sath o'lchagich:
1 – havo nasosi; 2 – trubka; 3 – jo'mrak;
4 – monometr; 5 – pezometr.



Akustik asbob naushnik (qulogga tijiladigan eshitish asbobi) orqali tovushli signalni eshitishga asoslangan, naushnik trubka bilan tutashtirilib pezometrغا tushiriladi. Qo'zg'algan ovoz akustik trubka pezometrdagi suv sathiga etgandan so'ng eshitilmay qoladi.


Ko'p sonli pezometrlari bor yirik gidrouzellarda, signallarni, inshootlarni holatini nazorat qilishni avtomatlashtirilgan markaziy pulti orqali distansion (uzoq masofadan) olish maqsadga muvofiqidir. Bu holda Gidroproekt konstruksiyalagan torli pezodinomometrlardan foydalilanadi. Bunday asboblar pezodatchiklar tizimi bilan bi-

riktirilgan membrana bilan ta'minlanadi. Asbob diametri 60 mm va undan ko'p bo'lgan quvurlarda joylashtiriladi.

Pezometrik napolarni o'lchaganda odatda 2...3 o'lchov amalga oshiriladi va jurnalga ularning o'rtacha qiymati yoziladi. O'lchovlar orasidagi farq 1...2 mm oshmasligi lozim deb qabul qilingan. Hamma pezometrlarni o'lchash bir kun moboynida amalga oshiriladi. Bunda albatta yuqori va pastki beflardagi suv sathlari aniqlanishi zarur. Pezometrlar o'rnatilgandan so'ng suv ombori suvgaga to'lishini kutmasdan undagi suv sathlari o'lchab boriladi.

Pezometrlarning soni va joylashuvi har bir muayyan holat uchun to'g'on tanasi konstruksiyasi, o'lchamlari, geologik tuzilishi, qirg'oqqa tutashuvi va inshoot joylashgan xududning gidrogeologik xususiyatlari va boshqa shart-sharoitlariga bog'liq. Stvorlar yo'nalishi iloji boricha to'g'ri chiziqli, filtratsiya oqimi tok chiziqlariga parallel qilib olinadi. Odatda markalar va pezometrlar stvorlari yopilgan daryoning eski o'zani bo'ylab, yorib o'tilgan joylar to'kilmasida, grunt va beton inshootlar tutashgan joylarda, qirg'oq ustunlari orqasida va sh.o'. joylarda birqalikda joylashtiriladi.

To'g'on va dambalarning holi uchastkalarida, o'zanli qismida har 100...150 m. da va poyma qismida har 150...250 m va undan ko'p masofada stvorlar joylashtiriladi. Tor daralarda stvorlar orasi 40...50 m.gacha qisqartiriladi. To'g'on tanasida uchtadan kam bo'lмаган, qirg'oq tutashmalarida ikkitadan kam bo'lмаган stvorlar joylashtiriladi. Har bir stvorda depression egri chiziqni xarakterini aniqlash uchun etarli bo'lgan pezometrlar soni bo'lishi kerak, ammo ular soni to'g'on tanasida uchtadan kam bo'lmasligi lozim va pastki befda bir yoki bir necha bo'lish mumkin (6.17 – rasm). Suvni sizib o'tishiga qarshi qurilma oldida, qurilma ishini baholash uchun bittadan pezometr joylashtiriladi. O'lchov stvoridagi pezometrlardan birini pastki qiyalikka filtratsiya oqimi sizish mumkin bo'lgan drenaj yaqinida joylashtiriladi. Stvorda har 10...20 m va ko'p masofada o'rnatilgan jami 5...10 ta gacha pezometr bo'lishi mumkin.



6.17 —

rasm. Pezometrlarni joylashtirish sxemasi:

a – bir jinsli to‘g’onda; b va c – ekrani to‘g’onlarda

O‘rnatilgan pezometrlar grunt suvlari sathini o‘zgarishini o‘zida yaxshi aks ettirishi lozim. Quvurlar o‘lchov asboblarni erkin kirib chiqishiga halaqt qiladigan g‘adir-budurlikka, pachaqlangan va boshqa nuqsonlargi ega bo‘lmasligi lozim. Pezometr quvurlarining diametri 50 mm kam bo‘limgan diametrda qabul qilinadi, bu sath ko‘rsatishlarini noto‘g‘ri bo‘lishidan saqlaydi. Pezometrlar o‘rnatilishidan oldin metall qismlariga zanglashga qarshi ishlov beriladi. Undan keyin burg‘ulash yoki yuvish usuli bilan diametri 150 mm. dan kam bo‘limgan skvajina kovlanadi, unga diametri kam bo‘lgan quvur tushiriladi. Skvajina tubiga 0,5...1 sm. li shag‘al tosh 0,2 m qalinlikda solinadi. Yig‘ilgan pezometr tushirilgan quvur ichiga holatini markazlashtirib beradigan yo‘naltiruvchi bilan kiritiladi. Pezometr va tushirilgan quvur orasiga suv qabul qiluvchi zonasida filtrlovchi material solinadi. Tushirilgan quvur, keyin ehtiyyotlik bilan ko‘tarib olinadi, quvurlararo bo‘shliqga suglinokdan tampon qilinadi. Qoya toshli asoslarda ham diametri 150 mm. dan kam bo‘limgan, perforatsiya (teshik ochilgan) qilingan suv qabul qiluvchisi bilan pezometr tushiriladi, pezometr va skvajina orasiga skvajina tubidan 1,25...1.5 m. masofaga tozalangan mayda shебen yoki shag‘al solinadi. Tepasida quvurlararo bo‘shliqka 0,5...1 m balandlikda glinadan tampon qilinadi, skvajinaning bir qismi beton bilan to‘ldiriladi. Pezometr o‘rnatilib bo‘lingandan so‘ng uni tepasi nivelirovka qilinadi va belgisi jurnalga yoziladi. Hisob olish nuqtasi bo‘yoq bilan belgilanadi. Pezometr qopqog‘i

yoki uning chiqib turgan qismiga berilgan tartib raqami yozib qo'yiladi, u yana pezometrlar ro'yxatiga (vedomost pezometrov) yoziladi. Ishlatishdan oldin pezometrlarni ish qobiliyati suv quyish yoki suvini so'rib olish yo'li bilan tekshiriladi. Suv quyishda u to'lig'icha suvgaga to'ldiriladi va undagi suv sathini pasayishi kuzatiladi. Yig'ilgan va o'rnatilgan pezometrlar ekspluatatsiyaga tartib raqami, o'rnatilgan kuni, konstruksiyasi, sezuvchanlik bahosi, ishchanlik qobiliyatini ko'rsatuvchi ma'lumotlari ko'rsatilgan dalolatnomaga bilan topshiriladi. Dalolatnomaga piketlarga bog'langan pezometrlarni joylashuv sxemasi, gruntlarni filtratsion xarakteristikalarini ko'rsatilib inshootlar plani va kesim (profil) lari, pezometrlar pasportlari, bajarilishi chizmalari, pezometrlar texnik ma'lumotlarining jamlanma ro'yxati, bekilib qolgan ishlarning dalolatnomalari va sh.o'. ilova qilinadi. Pezometrlar xarakteristikalarini o'zgarganda barcha o'zgarishlar pezometrlariga kiritiladi.

Ishlatish jarayonida, pezometrlar ba'zan 3...4 yilda ishdan chiqadi, ishdan chiqish ularning konstruksiyalari va suv qabul qiluvchisiga ishlatilgan materiallar, gruntlar va suvning xossalari va sh.o'. larga bog'liq. Buning sabablari pezometr elementlarini mexanik, harorat ta'sirida shikastlanishlari, perforatsiya teshiklarini okisanishi, ularni kolmatatsiyasi, mexanik va kimyoiy suffoziya hamda noto'g'ri tanlangan filtrllovchi materialdan gruntni chiqib ketishi va sh.o'. lar bo'lishi mumkin. SHuning uchun pezometrlarga muntazam texnik qarovni amalga oshirish va ularni ishslash qobiliyatlarini tekshirib borish zarur bo'ladi. Ulardagi o'zgarmas (qo'zg'almas) suv sathi, pezometrlar ish qibiliyatini yo'qtganligini bildiradi. Bunda albatta past sathlar kolmatatsiya natijasida, yuqori sathlar esa to'lib qilish orqasida vujudga keladi. Pezometrlarni to'lib qilishini unga egiluvchan vosita orqali tushirilgan yukni tushishi bilan aniqlashadi. Agar pezometr tepasidan tubigacha bo'lgan masofa ishchi qismida taxminan 50% ga qisqargan bo'lsa, demak pezometr to'lib qolgan bo'ladi. Ulardan il va qum zarrachalari jelonka (quduqlarni parmalash va ularni tozalash uchun ishlatiladigan asbob) yoki qattiq narsalarni tutib (ushlab) olib chiqadigan burg'ulash asboblari yordamida tozalab olinadi. Ba'zan pezometrlar shlang yordamida berilayotgan suv bilan ham yuviladi, bunda suv cho'kindilarni o'rnidan quzg'atib tepaga olib chiqadi.

YUvish tugagandan so'ng pezometrnii sezuvchanligi tekshiriladi, sezuvchanlik undagi suv sathini qayta tiklash uchun ketadigan vaqt (s) bilan baholanadi,

$$t = \frac{d_p^2}{4\kappa_p D} \ln \frac{h_0}{h} \quad (6.1)$$

bu erda d_p – pezometr quvurining diametri, sm.;

κ_j - suv qabul qiluvchi atrofidagi gruntning filtratsiya koeffitsienti, sm/s; D – teskari filtni qo'shib suv qabul qiluvchi skvajina diametri, sm;

h_0 – dastlabkiga nisbatan pezometrdagi qo'yish yoki so'rib olish balandligi, sm;

h - dastlabkiga nisbatan t vaqt o'tgandan keyingi pezometrdagi suv sathini oshishi, ± 10 sm qabul qilinadi.

Agar hisoblangan va kuzatilgan (amaldagi) vaqt sezilarli farq qilmasa pezometrni sezuvchanligi qanoatlantirarli hisoblanadi. Pezometrdagi sathni qayta tiklanishiga ketayotgan vaqt juda katta bo'lsa pezometrni ishchi qismi to'lib qolganligini yoki kolmatatsiya bo'lganligini, kam vaqt – tutashmalardan yoki boshqa joylardan suvni oqib ketishini yoki gruntning filtratsiya koeffitsienti pezometr o'rnatilgan joydagi gruntning qatlamlashuvi va katta filtratsiya koeffitsientiga egaligini hisobga olmasdan qabul qilinganligini bildiradi. Keyingi holat uchun pezometrni o'rab turgan gruntlarning amaldagi filtratsiya koeffitsientini aniqlash zarur bo'ladi va suv sathini qayta tiklanish vaqtini qayta hisoblanadi. Undan keyin sezuvchanlikni dastlabki (etalon) safatida qabul qilinadi. Yil davomida sezuvchanlik 2 marta aniqlanadi. YUvish va tozalash pezometrni ishchi holatiga keltirmasa, u almashtiriladi. Qum va supes gruntlarda o'rnatilgan pezometrda suv sathi suv quyilgan yoki tortib olingandan so'ng 1 soatdan ko'p bo'lmagan vaqtda qayta tiklanadi, glinali yoki suglinokli gruntlarda – 6...12 saat davomida qayta tiklanadi. P'ezometrlar 20...40 m naporga ega suv bilan yuviladi. Agar yuvish ijobiy effekt bermasa, pezometrdan suvni tortib olish amalga oshiriladi.

Naporli pezometrlarni ishchanligi manometr oldidagi uchlikka o'rnatilgan maxsus jo'mrak yordamida naporni 5...10 m tushirish yo'li bilan va naporni qayta tiklanish davri bilan aniqlanadi.

Simobli monometr uchun pezometr qanoatlantirarli ishlaganda naporni qayta tiklash vaqtini quyidagicha hisoblanadi:

$$t \approx \frac{d_m^{-2}}{50 \cdot \kappa_j \cdot D} \ln \frac{H_0}{H}, \quad (6.2)$$

bu erda d_m – monometr trubkasining diametri, sm;

N_0 va N – mos ravishda dastlabki va t vaqt o'tishi bilan o'zgargan naporlar, sm.

Membranali manometrlar uchun naporni qayta tiklanish vaqtini (s)

$$t \approx \frac{d^2 \cdot \ell \cdot 10^{-8}}{\kappa_j \cdot D} \ln \frac{H_0}{H}, \quad (6.3)$$

bu erda ℓ - pezometr quvurining suv qabul qilgichidan monometrgacha bo'lgan uzunligi, sm. Qolgan belgililar oldingi bog'lanishlarda gidek.

O'lchanishdan oldin tizimda siqilib qolgan havo bo'lmasligi uchun u bosimni tushirish yo'li bilan dam berib tozalanadi. Naporli pezometr filtratsiya qilingan suv bilan, monometr echib qo'yilib yoki jo'mrak ochilib yuviladi.

Qishda pezometr tepasi isitiladi. Ular joylashgan joylarga qo'rsatgich qoziq (vexa) o'matiladi. Pezometrdagi suv sathi muzlash zonasiga tushib qolgan bo'lsa bu zona ham isitiladi.

Ba'zi holatlarda pezometrlarga suv nafaqat to'g'on yuqori befidan, balki grunt suvlari ham kelib tushishi mumkin. Bu holatda pezometrdagi suvning harorati suv omboridagi, tubidan 3...5 m chuqurlikda o'lchanish harorat bilan solishtiriladi. Harorat ip bog'lash uchun qulqochasi bo'lgan maxsus gardishga o'rnatilgan buloq termometri, distansion elektrotermometr va boshqa asboblar yordamida o'lchanadi. Ochiq pezometrlarda harorat suyuqlik ustuning ikki nuqtasi (tubi va yuzasi) da $\pm 0,5^\circ$ S aniqlikda o'lchanadi. Haroratni o'lchanish uchun ulardan namuna hajmi 1 l. dan kam bo'lmagan idish bilan olinadi.

Asos yoki to'g'on tanasi orqali filtratsiya oqim tezeligini aniqlash uchun har xil usul va indikatorlardan foydalaniladi: bo'yoqlar (fluoressein), tuzli aralashmalar, radioaktiv moddalar va boshqalar. Indikatorga qarab kimyoviy, elektritolit, kolorimetrik va radioizotop usullariga bo'linadi. Kimyoviy usulda natriy xlor (osh tuzi), kalsiy xlor, ammoniy xlor va boshqalar qo'llaniladi. Elektritolit usilida suvdagi tuzning tarkibiga qarab elektr o'tkazuvchanligi aniqlanadi. Kolorometrik usul bo'yoq aralashmasining o'tish vaqt bilan xarakterlanadi. Bo'yatmalar shunday moddalar bo'lishi mumkinki, ular filtratsiya suvining kislota-ishqorlik holatiga qarab rangini o'zgartiradi: kislotalilari uchun – metilenli sin, shuningdek, qizil yoki anilinli havo rang bo'yoq; ishqorlilari uchun – fluorescen, eritrozin, eozin, qizil kongo, flyuorantan va boshq.; neytral eritmalilari uchun – yuqorida sanab o'tilgan bo'yamalardan har qanday qo'llaniladi. Nashatir spirti yoki uksus kislotasini kam tarkibli aralashmasiga eritilgan bo'yatma yoki boshqa indikator yuqorida yoki to'g'onning yuqori befida (tubini ponur boshlanish joyida) joylashgan pezometrga tushiriladi, bir necha vaqt o'tgandan so'ng ularni pastki pezometrlarda mavjudligini suvdan namuna olish yo'li bilan aniqlanadi. Indikatorni filtratsiya suvida o'tish vaqtini va ikki nuqta orasi masofasini

bilgandan so'ng, filtratsiya oqimining tezligi aniqlanadi. Radioaktiv usuli ancha aniq usul, lekin radioaktiv moddalar bilan ishlash maxsus tayyorgarlikni talab qiladi.

Filtrlanib o'tayotgan materiallarni kimyoviy tarkibini aniqlash uchun suv namunasining kimyoviy tahlili o'tkaziladi, bunda gruntning kimyoviy suffoziyasi mavjud yoki mavjud emasligi haqida xulosa qilinadi. Buning uchun to'g'onning yuqori befidan suv namunasi olinadi va u pezometrdan, drenaj qudug'idan, mahalliy sizib o'tish o'choqlaridan olingen suv namunasi tarkibi bilan solishtiriladi.

Suv namunasi toza idishga: yuqori besda beton, metall va boshqa sirtlardan 0,5...1 m masofada; pezometrlarda – suvi chiqarib tashlangandan va yangilangandan keyin olinadi. Namuna olinayotgan idish namuna uchun olinayotgan suv bilan 2...3 marta chayib tashlanadi. Suvning tahlili standart metodikali laboratoriyalarda har choraklikda 1 marta o'tkaziladi.

Gruntli inshootlarni ishlatish jarayonida loyqalikni (suvdagi grunt tarkibini) aniqlash uchun xuddi kimyoviy tahlildagidek sizib o'tgan suvdan namuna olinadi. Loyqalik uchun sizib o'tishning barcha o'choqlaridan namunalar olinadi. Filtratsiya suvida qum va il zarrachalarini mavjudligi mexanik suffoziya hodisisi borligini bildiradi. Ishlatishning dastlabki yillarda loyqalik oyiga 1 marta, undan keyin har choraklikda 1 marta olinadi. Ayrim holatlarda, masalan filtratsiya suvida yuqori loyqalik bo'lganda, filtratsiya suvining sarfi oshganda ham namuna olinadi.

Sizib o'tgan suvning sarfi hajmiy, o'lchov vodoslivlari yordamida, maxsus kanallarda po'kak tashlash, distansion boshqarish bilan suv o'lchagich yordamida o'lhash usullari bilan o'lchanadi. Unchalik ko'p bo'lman (3...10 l/s gacha) sarflar hajmiy usulda aniqlandi. O'lchov idishining to'lish vaqt 20 s qabul qilingan. Sarf olingen hajmni vaqtga bo'lish orqali hisoblanadi. Katta sarflarda uchburchak, 50...10 l/s dan ko'p sarflarda trapetsiodal o'lchov vodoslivlaridan foydalaniladi. Uchburchakli burchagi 90° bo'lgan vodosliv uchun sarfning (Q , m^3/s) vodosliv ustidagi napor N_s (m) ga bog'liqligi qo'yidagi formula bilan belgilanadi:

$$Q = 1,336 \cdot H_s^{2.48} \approx 1,4H_s^{5/2}, \quad (6.4)$$

trapetsiodal, qiyaligining yotishi $m = 0,25$, bo'lgan vodoslivlar uchun

$$Q = 1,86 \cdot \nu \cdot H_s^{3/2}, \quad (6.5)$$


bu erda N_s – vodoslivdan (4...5) N_s masofada o'lchang'an, vodosliv ustidagi napor;
 ν – trapetsiyaning pastki kengligi, m;

Sochilgan filtratsiya joylariga suv yig'uvchi kanalcha qilinadi, undan suv o'lchov qurilmasiga tushadi. Po'kak yordamida suv sarfini o'lhash yaxshi tozalangan

kyuyvetlar, etarli darajada, g'adir-budurligi katta bo'Imagan kanallarda olib boriladi. Po'kaklar kanalda kamida 20 s. suzib borishi lozim va sekundomer yordamida hisobga olinadi. O'Ichov qurilmalariga tartib raqami beriladi, joylashgan o'rni, o'Ichov olib borilgan kun, yuqori va pastki beflardagi suv sathlari va boshqa omillar ko'rsatilib o'Ichov natijalari jurnalga yoziladi.

Kam suv o'tkazuvchi (glina) gruntlar g'ovvakligi bosimi ustidan kuzatishni pezometrlar orqali olib borish mumkin emas, chunki bunday sharoitda pezometrlarni to'lishi juda sekin kechadi. Pezometr sust bo'lib qoladi, uning qo'rsatkichlari qaralayotgan davr uchun amaldagi naporga javob bermaydi. Bu holatlarda g'ovvaklik bosimi va filtratsiya naporini har xil konstruksiyali pezodinamometrlar yordamida o'lchanadi. Ikki trubkali pezometrlar to'g'on tanasi yoki asosiga qurilish davrida o'rnatiladi. To'g'on tanasi g'ovvaklik bosimini o'lchaydigan asboblar ham pezometrlar singari joylashtiriladi. G'ovvaklik bosimini kuzatish ishlari balandligi 25 m. dan ko'p bo'lgan, glinali materialdan tiklangan to'g'onlar elementlari va asoslarida olib boriladi. Agar suvgaga tuproq to'kish yoki yuvish orqali to'g'on yadrosi tiklangan bo'lsa bundan past to'g'onlarda g'ovvakli bosimi ustidan kuzatish olib boriladi.

Gidroprekt konstruksiyalagan tor turidagi pezodinamometr (6.18,a – rasm) silindr shaklidagi qattiq metall quti ko'rinishdagi g'ilof (1), g'ilof ichida qopqoq (2), membranalni va elektromagnit (katushka) g'altakli (6) korpus (5) lardan iborat. Ikki kronshteynda (4) uzunligi 80 mm va qalinligi 0,15 mm. li ingichki tor qotirilgan. Membrana teshikchali to'r (7) va grunt bilan kontakt qiladigan qattiq filtrlaydigan material (8) bilan himoyalangan. To'r va membrana orasiga suvda erimaydigan yopishqoq suyuqlik (vazelin, tavot) qo'yilgan.



6.18 – rasm. Grunt g'ovvakligidagi pezometrik naporni o'lchash uchun asboblar:

a – Gidroproekt konstruksiyalagan tor turidagi pezometrlar; 1 – g'ilof; 2 – qopqoq; 3 – tor; 4 – kronshteyn; 5 – korpus; 6 – elektromagnit g'altak; 7 – panjara; 8 – filtrlovchi material; b – «Telemak» firma siniki; 1 – kabel; 2 – tor; 3 – elektromagnit; 4 – siqiluvchan trubka; 5 – g'ovvak tosh; v – AQSH melioratsiya byurosi konstruksiyalagan ikki trubkali nuqtali pezodinamometr; 1 – korpus; 2 – suv o'tkazuvchi trubkalar; 3 – suv singdiradigan element; g – (GFR) Gletsli pezodinamometri; 1 – g'ovvak disk; 2 – membrana – klapan; 3 va 4 – olib keluvchi va olib ketuvchi quvurchalar.

Suv bosimi ostida egilib membrana kolka (yoriq) ni qandaydir burchakka bura-di. Bunda torni tortilishi o'zgaradi. G'ovvaklik bosimini boshqaruva pultidan o'lchash jarayonida katushkaga elektr impulsi uzatiladi, u o'z navbatida tortilgan torni mu-vozanatdan chiqaradi. Torni (o'zgarish) tebranishlari soni bo'yicha tarirovka qilingan eksi chiziqlar yordamida grunt g'ovvakligi bosimi aniqlanadi. Bunday asboblarning har xil modifikatsiyalari mavjud. Masalan, xorij amaliyotida «Telemak» (Fransiya) firmasining pezodinamometrlari (6.18.b – rasm), ikki trubkali nuqtali pezometr

(AQSH) (6.18.v – rasm) va gidravlik ta'sirli (GFR) (6.18.g – rasm) pezodinamometrlar qo'llaniladi. «Telemak» pezodinamometri ham tor turiga mansub, elektromagnit g'altagi bilan ta'minlangan. Ish prinsipi bo'yicha Gidroproekt konstruksiyasidan juda ham kam farq qiladi. Ikki trubkali nuqtali (yopiq) pezodinamometr (6.18.v – rasm) suv o'tkazuvchi elementli suv qabul qiluvechi bilan ta'minlangan, uning ichiga ikki trubka chiqarilgan. Ular yordamida pezodinamometr korpusi ichidan havo chiqariladi (bir trubkaga havo haydaladi, ikkinchisidan suv haydab chiqariladi). Bosimni o'lhash jarayonida trubkalarga manometrlar ulanadi. Gletsl asbobining (6.18, g – rasm) ish prinsipi g'ovvak disk bilan ta'minlangan membrana- klapanga tutashgan sirkulyasiya tizimi bosimini o'lhashga asoslangan. Bosim ostida qanchaga membrana-klapan egilsa shuncha tizimda bosim hosil bo'ladi. Tizimdag'i bosimni belgilab tarirovka qilingan grafiklar yordamida gruntdagi bosim aniqlanadi. Inshootlar tanasi, asosi orqali, uni aylanib o'tadigan filtratsiyani xarakterlaydigan o'lchamlarni o'lhash natijalariga jadvallar, grafiklar, nomogramma va sh.o'. lar tuzish yo'li bilan qayta ishlov beriladi. Grafiklar ko'rib chiqiladigan parametrni vaqtি bo'yicha, filtratsiya yo'nalishi, yuqori va pastki beflardagi suv sathlarini o'zgarishlari bo'yicha taqdim qilinadi. Tik o'q bo'yicha odatda filtratsiyani o'lchangان parametr (sarfi, sathi, sizib o'tish tezligi, loyqaligi va sh.o'.) lari qo'yiladi. SHuningdek to'g'on tanasidagi filtratsiya oqimining gorizontal sirtlari kartasi – gidroizogipslar yoki pezometrlar ko'rsatkichlari bo'yicha pezoizogipslar quriladi. Gidroizogipslarga perpendikulyar o'tkazilgan chiziqlar grunt suvlar harakat traektoriyalari bo'ladi. Naporli filtratsiya bo'lganda to'g'on ostonasi, yoki filtratsiya oqimi naponi ostida bo'lgan, suv o'tkazmaydigan qatlamni bosimiga qarshi bosim epyurasi quriladi. Ekspluatatsiya xizmati muntazam ravishda kuzatish va tadqiqot natijalarini tahlil qilib borishi, lozim bo'lsa o'z vaqtida oldini olish choralarini ko'rishi zarur.


Depression egri chiziqni loyiha bilan belgilangan holatidan ortib ketishi, filtratsiya suv sarfini, filtratsiya tezligini, loyqalikni, qarshi bosimlarni oshishlari, filtratsiyaning yangi o'choqlarini paydo bo'lishi va sh.o'. noxush omillar hisoblanadi.

6.4. Gruntli inshootlardagi zo'riqish holatni kuzatish

Gruntli inshootlar mustahkamligi va turg'unligini baholash uchun ularning zo'riqish holati kuzatiladi. To'g'on tanasi va ular elementlaridagi zo'riqishni aniqlashda asosan ikki usulidan foydalilanadi: grunt deformatsiyasini o'lchab so'ng ularni egiluvchanlik va plastiklik nazariyasi usullarida qayta hisoblab zo'riqishni aniqlash yo'li bilan yoki zo'riqishni bevosita o'lhash yo'li bilan deformatsiyalarni ekstenzometr yordamida o'lhash mumkin. Ammo deformatsiyani zo'riqishga qayta

hisoblash murakkab ish va etarli darajada aniqlikka ega emas, shuning uchun bunday usuldan keng foydalanilmaydi.

Siqiluvchi zo'riqishini bevosita o'lhash usulidan keng foydalaniladi. To'g'onlarni zo'riqish holatini baholash uchun gruntdag'i zo'riqish va g'ovvaklik bosimini bilish zarur. SHuning uchun o'lhash joylariga, qoidasi, gruntli dinamometr va pezodinamometrlar birgalikda o'rnatiladi. Gruntli dinamometrlar torli, gidravlik, pnevmatik va boshqa turlarga ajratiladi. Gidroprektning torli grunt dinamometri (6.19 – rasm) konstruksiyasi bilan pezometrlardan juda kam farq qiladi. U silindr shaklidagi quti bo'lib, silindrning tubi grunt bosimini o'zida qabul qilib oladigan membrana hisoblanadi. Membranada mixchalar bilan tor biriktirilgan. Torning tebranishlari soni elektromagnit g'altak bilan boshqarish pultdan muvozonatdan chiqarish yo'li bilan aniqlanadi. Grunt bosimi ostida membranadan mixchalar ajralib chiqadi va ip qo'shimcha tortiladi, uning tebranishlar soni o'zgaradi. Tarirovka qilingan egri chiziq yordamida tebranishlar sonini o'zgarishiga qarab gruntaing zo'riqishi topiladi.



6.19 – rasm. Gidroprektning torli grunt dinamometri:

1 – korobka; 2 – qopqoq; 3 – uzunligi 110 mm li tor; 4 – g'altak; 5 – mustahkamlash vinti.

Glinali va mayda zarrachali qum gruntlarda grunt dinamometrlari to'g'on tanasida; glinali ekran yoki yadroda; filtratsiyaga qarshi element (ekran, yadro, diafgramma) larini to'g'onnei tayanch prizmasi bilan tutashgan sirtlarida; gruntli to'g'on tanasiga yopishgan beton inshootlar elementlari sirtlarida o'rnatiladi.

Glinali materiallardan qurilgan, yuqori prizmasi bilan bir jinsli va tosh-gruntli to'g'onlarda, gruntli pezodinamometrlar gorizontal kesimlarda yaruslar bo'ylab o'rnatiladi. Bunda ularning joylashuv o'rni o'prilish, deformatsiya, shikastlanish va sh.o'. lar ehtimol qilinayotgan joylar qilib belgilanadi. Bundan tashqari to'g'on o'qi bo'ylab dinamometrlar pezodinamometrlar bilan birgilikda joylashtiriladi. Zo'riqish o'lchanadigan joyga bir pezodinamometr va gorizontal, vertikal va gorizontga nisbatan 45° burchak ostida joylashgan uchtadan kam bo'limgan gruntli dinamometr o'rnatiladi. Pezodinamometr har doim gorizontal o'rnatiladi. To'g'onlar yadrosi va

ekranlariga gruntli dinamometrlar yadroni qaliligi bo'ylab va bir necha yarusida bir necha nutasiga har bir guruhda uchtdan kerak bo'ladi. Filtratsiyaga qarshi elementlari diafragmalardan iborat bo'lgan to'g'onlarda gruntli dinamometrlar diafragma va to'g'on tanasi tutashgan oraliqdagi zo'riqishni o'lhash uchun xizmat qiladi. Odatda ikki tomonidan uchta dinamometrdan iborat guruh qilib pezometrlar diafragmani yaqiniga qo'yildi. YAdro va ekrani to'g'onlarda eng ko'p deformatsiya bo'ladigan (nishoblik, daralar yaqinida) zonalarda gruntli dinamometrlar bilan birga deformatsiyalarini o'lchaydigan asboblar o'rnatiladi, bu zo'riqish va deformatsiya ko'rsatkichlarini birgalikda tahlil qilishga imkon beradi. Suv o'tkazuvchi quvurni to'g'on tanasi bilan tutashgan sirtlariga gruntli dinamometrlar va pezometrlar yoki pezodinamometrlar joylashtiriladi, bu quvurga grunt bosimini baholash imkonini beradi.

Zo'riqish va g'ovvaklik bosimini kuzatib borish quyidagicha amalga oshiriladi: qurilish davrida – har 1...2 oyda; suv ombori to'ldirilayotgan vaqtida – har 7...10 kunda; ishlatishning dastlabki yillarda – har oyda; keyingi 2...4 yilda – har choraklikda; undan keyin – yarim yilda.

Grundagi normal zo'riqish σ va g'ovvaklik bosimi σ_n larni o'lchab, grunt skeletining normal zo'riqishi σ_{sk} hisoblanadi:

$$\sigma_n = \sigma - \sigma_{sk} \quad (6.6)$$

Grunt skeletining 45° va 90° burchak ostida uch yo'nalishi bo'yicha normal zo'riqishini bilib, Mor doirasi yordamida bosh zo'riqish va zo'riqishning bosh o'qlari yo'nalishlari topiladi, bu bosh zo'riqish traektoriyasini qurish imkonini beradi.

To'g'onnasi bilan tutashgan chegarasidagi zo'riqishlarni asboblar yordamida, masalan Gidroproyekt loyihalagan grunt zo'riqishini (pereobrazovatel) qayta tashkil etuvchi asbob yordamida aniqlash mumkin.

VII. YAxlit beton inshootlarini texnik holatini kuzatish

7.1. Ko'z bilan kuzatish

YAxlit beton inshootlar (massivnye betonnye soorujeniya) (suv tashlovchi yoki sidirg'a (gluxoy) betonli to'g'on, tirkak devorlar, ustunlar va sh.o'. ni ishlatish davrida muntazam ravishda ko'z bilan kuzatish va nazorat-o'lchov asboblari yordamida kuzatish ishlari olib boriladi.

Ko'z bilan kuzatish ishlari ilmiy-tekshirish tashkilotlari ishlab chiqqan dasturlar bo'yicha:

- betonning umumiy holati;
- beton inshootlar orqali suvni sizib o'tishi;

- choklar zichlagichlari, ularni ochilishi va yoriqlar hosil bo‘lishi;
- beton inshootlarining ishlatish ishonchligini baholash uchun o‘rnatilgan nazorat-o‘lchov asboblari (NO‘A) ning holati ustidan olib boriladi.

Beton holatini kuzatishning maqsadi – yoriqlar, oqish dog‘i (potek), ishqorlanish mahsulotlari bilan g‘uborlanish (nalet) va qat-qat o‘tirish (naplastovanie); o‘yiq (rakovina), bo‘shliq hosil bo‘lishi, betonni qat-qat bo‘lib ko‘chishi (otslaivanie) va bo‘yalishi (vlykhrashivanie), armaturalarini ochilib qolishi va sh.o‘. larni hosil bo‘lishi ustidan kuzatishlar olib borishdan iborat.


Bo‘lishi mumkin bo‘lgan defektlar va buzulishlarni rasmini solishni osonlashtirish uchun beton sirti eyilgan sxemada ko‘rsatib alohida uchastkalarga ajratiladi. Beton sirtni ko‘z bilan kuzatish sirtqi va ichki (bo‘shlig‘i, kuzatish galereyasi, quduqlar, quruq holatdagi suv tashuvchilar) zonalarda olib boriladi. Beton inshootlarni o‘zgaruvchan sath zonasidagi sirtlari yozda, sath tushganda (lodka) kayiqchadan turib, qishda-mustahkam muz qatlami ustida turib kuzatiladi.

Suv ombori to‘ldirilayotgan payti va ishlatishning birinchi yili kuzatishlar har kuni olib boriladi, keyingi 3...4 yilda – haftasiga 1...2 marta, undan keyin inshootlar mo‘‘tadil ishlaganda – haftasiga kamida 1 marta kuzatiladi. YOriqlar mavjudligi aniqlanganda, uning kengayishi ustidan nazorat 3...5 kunda yoki har kuni o‘tkaziladi.

Toshqin paytida kuzatishlar har kuni o‘tkaziladi.

Betonning mustahkamligini ko‘z bilan kuzatishda diqqat bilan kuzatishdan tashqari beton sirti davriy ravishda bolg‘a bilan urib, undan chiqqan tovush eshitilib ko‘riladi, zubilo bilan sinab quriladi. Qattiq jarangligan urilash mustahkamlikni yaxshi ekanligini, jarangsiz urilish esa, buning ustiga beton uchib ketsa yoki o‘yiq (pachoq) bo‘lsa – betonning mustahkamligini past ekanligini bildiradi. Plita-qobiqlar yaxlit betonga zich o‘tirmagan holatda yoki beton katta maydonda qatlamlashib tushayotgan bo‘lsa yopiq bo‘shliq uchun xarakterli tovush chiqadi.

Beton orqali svnni sizib o‘tish o‘choqlarini kuzatishni kuzatish jurnaliga yozganda quyidagi qabul qilingan tushunchalardan foydalilanadi: nam dog‘ (vlajnye pyatna) – beton ushlab ko‘rilganda nam bo‘ladi; ho‘l dog‘ (mokrye pyatna) – qo‘l tekizilganda ho‘l bo‘ladi; sirtning ho‘llanib turgan uchastkalari – beton dog‘ bilan koplangan ammo oqim yo‘q; oquvlar: kam-tomchi shaklida oqib tushish; o‘rtastruya shaklida oqib tushish; katta-beton bo‘yicha uzliksiz oqayotgan suv qatlamining mavjudligi; teshik (sviishi) – betondan ajralgan holda ayrim struyka shaklida tushayotgan suv; beton sirtida ishqorlanish mahsulotlarini qat-qat bo‘lib o‘tirishi va g‘uborlanishi(poteki i nalyoty).




7.1- rasm. Nasos stansiyasi ichida devor sirtida hosil bo'lgan g'uborlanish (1) va oqish dog'i (2).

Ko'z bilan kuzatish jarayonida aniqlangan barcha defektlar jurnalga yoziladi, rasmi solinadi, rasmi olinadi, kuzatilgan kun yoziladi, hajmi va joylashgan o'rnini bog'lanishi ko'rsatiladi.

7.1-rasmda nasos stansiyasi ichida devorlarda hosil bo'lgan g'uborlanish (1) (oqish rang) va oqish dog'i (2) (qoraygan dog') lar suratini o'quvchi tassavur qilishi oson bo'lsin uchun keltirdik.

Jurnalga rasm solinganda barcha defektlarga tartib raqami beriladi va mos ravishda shartli belgililar bilan belgilanadi (7.2 – rasm). Bunda yoriqlarni, choklarni o'lchamlari, ochilish jadalligi, choklarni to'ldiruvchi materiallarni chiqish izlari, chetlarini shikastlanishi, dog' namligining darajasi, betondagi yoriqning kelib chiqish tabiatini, ularni ochilish jadalligi, o'yiqlar, qat-qat o'yilib tushishlar chuqurliklari, betonni edrilish kattaligi, ochilib qolgan armaturani mavjudligi, g'uborlanish va dog'larning maydoni, rangi, qalinligi, namligi, filtratning mavjudligi va boshqalarga alohida ahamiyat beriladi. Aniqlangan defektlar inshootlar va ularning elementlarini eyilgan sxemalariga belgi qo'yib belgilanadi.



7.2.- rasm. Beton sirtlardagi nuqsonlarning shartli belgilari:

1 - yoriq; 2- oqimi bor yoriq; 3 - quruq g'uborlanishi bor yoriq; 4- xo'l dog'; 5- oq g'uborlanishi bor ho'l dog'; 6 - qoramtilr g'uborlanishi bor oqish dog'i; 7 - zang olib chiquvchi filtratsiya; 8 va 9 -tomchili va struykali oqish; 10 - mastikani oqib chiqishi; 11 - oq quruq dog'lar; 12 - qoramtilr quruq dog'lar; 13- o'yiq; 14- plita ostidagi bo'shliq; 15 - plitani sezilarli emirilishi; 16- ochilib qolgan armaturasi bilan plitani buzulishi

Gidrotexnika inshootlarida hosil bo'ladigan yoriqlar torayish (usadochnye), cho'kish, harorat va ishlatish natijasida hosil bo'ladi. Torayish materiallarning qis-qarish jarayoni keltirib chiqirgan beton siqilib qotishi natijasida hosil bo'ladi. CHo'kish yoriqlari gidrotexnika inshootlarini qurish va ishlatish davrida notejis cho'kish yoki ko'tarilishi natijasida hosil bo'ladi. Ular ko'pchilik paytda inshootni sezilarli qismiga yoki qalinligi bo'ylab o'tadi. CHo'kish yoriqlari eng xavfli. Ularni kelib chiqish tabiatи seysmik, tog' jinslarining siljishi va boshqa jarayonlar bilan xarakterlanadi. Harorat yoriqlari ham betonni qotish jarayonida (soch tolali mikroyoriqlar) va ishlatishda harorat yoki harorat- namlik ta'sirlar bo'lganda hosil bo'ladi. Ishlatish yoriqlari, shuningdek inshootlarni butunligicha yoki ayrim elementlariga yuklamani oshib ketishi sababli vujudga keladi. Ular ham xavfli yoriqlar toifasiga mansub, vaqt o'tishi bilan o'z geometrik o'lchamlarini o'zgartiradi. YOriqlarni rivojlanish xarakteriga qarab vaqt o'tishi bilan jadal faol rivojlanadigan; barqarorlashgan (so'nadigan)- rivojlanishi kamaygan; faol bo'lmagan (passiv) – amalda barqaror o'lchamlarga ega turlariga bo'linadi. CHoklarni ko'z bilan kuzatishda ular zinchlagichlarining to'laligi va ularda muzlash hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka alohida ahamiyat beriladi. CHok orqali sezilarli darajada suvni sizib o'tishi zinchlagich buzulganligini bildiradi. CHoklarni eng ko'p ochilishi qish davriga, kam bo'lishi – yoz davriga to'g'ri keladi. Boshqa davrlarda chok ochilishining o'sib borishi notejis

cho'kish yoki gorizontal siljish vujudga kelganligini bildiradi. Bu holda choklarni muntazam va ko'proq asboblar yordamida kuzatishga o'tiladi. YOriqlarni ochilishini u orqali suvni sizib o'tishi bilan ko'proq tahlil qilinadi. Suvni sizib o'tishi ko'p bo'lsa yoriq ko'proq kengaygan bo'ladi yoki yoriq o'lchamlari o'zgarmagan bo'lib sizib o'tish qo'paysa betonda jadal ishqorlanish jarayoni ketayotgan bo'ladi. Sizib o'tishni kamayishi yoriq yoki ochilgan chokda kolmatatsiya holati vujudga kelganligini bildiradi. YOriqlarni kuzatishda ularni eng ko'p cho'zuvchi zo'riqish yo'nalishiga nisbatan baholanadi. YOriqlar odatda cho'zilish yo'nalishiga perpendikulyar ravishda ochilib boradi.

Ko'z bilan kuzatish jarayonida NO'A ning texnik sozligi va ularda shikastlanishlarning yo'qligiga ishonch hosil qilish zarur.

Beton inshootlarni ko'z bilan kuzatish inshootlarni qishqi ishlatishdan, toshqin, tabiiy jarayonlar va avariyalardan keyingi, shuningdek suv omborini tezlik bilan bo'shatish va undan keyingi umumiy ko'rib chiqishning asosiy qismi hisoblanadi.

7.2. Inshootlarni cho'kishi, gorizontal siljishi va egilishini kuzatish uchun qo'llaniladigan asbob - uskunalar

Betonli inshootlarni cho'kishini kuzatish, ular elementlarini cho'kishini boshqalariga nisbatan cho'kishini baholash, amaldagi cho'kishini loyihibaviy cho'kish bilan taqqoslash va cho'kishni to'xtatish tadbirlarini belgilash uchun amalga oshiriladi.

Betonli inshootlarni cho'kishi asosan geometrik, trigonometrik yoki gidrostatik nivelerlash orqali aniqlanadi. Asosi qoya toshli va qoya toshsiz betonli inshootlarda qo'llaniladigan birinchi va ikkinchi klass nivelerlashda xatoning o'rtacha kvadratik qiymati mos ravishda ± 1 va ± 2 mm.dan oshmasligi kerak.

Beton inshootlarda yuz beradigan o'zgarishlarni aniqlash uchun o'rnatiladigan markalar gruntli to'g'onlarniki singari yuza, devoriy, chuqurlikdagi, vaqtinchalik va doimiy, qurilish davrida qo'llaniladigan turlarga bo'linishi mumkin (7.3 –rasm).

YUza markasi ustiga reyka qo'yilishiga va belgisini aniqlashga xizmat qiladi, u betonga qotirilgan flans yoki silindrga joylashtiriladi. Markaning tepasi ochiq bo'lishi yoki burab kiritiladigan qopqoqli bo'lishi mumkin. O'Ichov olib borilgandan so'ng marka boshchasiga zanglashdan saqlash uchun texnik vazelin surtib qo'yiladi. YUza markalarining ikki turi 7.3,a - rasmda ko'rsatilgan. YUza markalari qirg'oq ustunlari va to'g'onning barcha saksiyalariga joylashtiriladi, bu inshootning fazoviy cho'kishini, ya'ni inshoot o'qi va oqim harakati yo'nalishlari bo'yicha baholash imkoniyatini beradi. Qoya toshli asosdagisi baland to'g'onlarda markalar betonni pastki


qirrasida, suv bosmaydigan ko‘rish galereyasining asosiga yaqin joyda qotiriladi, uning chetlariga bittadan marka joylashtiriladi. Bundan tashqari markalar ko‘ndalang galereyalarda har 8...10 m. da ustunlararo chocklar chegaralarida o‘rnatiladi.

Devoriy (konsol) marka beton sirtga qotirilgan shveller konsoli ustiga qo‘yiladi. U yopiq yoki yashiringan holatda o‘rnatilishi mumkin (7.3,b – rasm). Devoriy markalarning ko‘rsatib o‘tilgan konstruksiyalari agar belgilari vaqt bo‘yicha o‘zgarmasa har xil inshootlar reperlari sifatida ham qo‘llanishi mumkin.

CHuqurlik markalari beton inshootlar asoslari yoki vodoslivli to‘g‘on fundament plitasi ostilaridagi deformatsiyalarni o‘lchash uchun o‘rnatiladi (7.3,v – rasm). U tadqiq qilinayotgan gruntga o‘rnatilgan metall tayanch yoki temir-beton plitaga, usti burama bilan yopiladigan qopqoqli himoya quvuriga joylashtiriladi. Asos gruntining har xil qatlamlari chegarasiga o‘rnatilgan bir necha chuqurlik markasi, beton inshootlarni cho‘kish qiymatlarini baholash va sabablarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Gorizontal va vertikal sirtlar uchun qo‘llaniladigan vaqtinchalik markalar konstruksiyalari 7.3,g - rasmda keltirildi.


Qurilish quvur-markasi (7.3,d – rasm) inshoot asosining qurilish davridagi cho‘kishini aniqlash uchun xizmat qiladi va u ikki tomonidan flanslar bilan yopilgan qattiq quvurdan iborat qilib yasaladi. Tepadagi flansga marka kovsharlanadi, u qopqoq bilan berkitiladi. Quvurning pastki oxiri beton tayyorlamada sementli aralashma bilan qotiriladi. Quvur o‘rtasidan qo‘shmixlar yordamida armaturaga kovsharlanadi. Betonning birinchi yarusi yotqizilgandan so‘ng (2...4 m) marka ko‘tariladi (o‘stiriladi). Markani betonni har xil sathda yotkazilishi davrida nivelirlab inshootni fundament qismini, qurilish davrida, asosining cho‘kish diagrammasi olinadi. Quvur ko‘rish galereyasiga yoki inshoot tepasiga etgandan so‘ng qurilishning keyingi va ishlatish davrlaridagi inshootning cho‘kishini kuzatish uchun doimiy marka o‘rnatiladi.



7.3.-rasm. Betonli inshootlarning balandlik markalari:

a – yuza; b – devoriy markalar; v – chuqurlik markasi; g – vaqtinchalik markalar; d – qurilish quyur markasi; 1 – marka; 2 – flans; 3 – tayanch; 4 – qopqoq; 5 – shveller; 6 – shar boshli bolt; 7 – kalit; 8 – korpus; 9 – skoba(qo'sh mix); 10 – armatura; 11,14 – quvurlar; 12 – betonga qotirilgan shtraba; 13 – betonli tayyorlama; 15 – tutashtiruvchi mufta; 16 va 17 – metall va beton plita; O'lichamlari mm. da

O'zgarmas haroratlari gelereysi bor to'g'onlarni cho'kishi gidrostatik niveler (7.4 - rasm) bilan o'chanadi. Asbob suv bilan to'ldirilgan ikki tutash idishdan iborat. Gidrostatik niveliirdagi suv sathi bo'yicha inshootning cho'kishi to'g'risida xulosa qilinadi.



7.4-rasm. Gidrostatik niveler:

1- diametri 100 mm, uzunligi 2 m. li sath quvuri; 2- chaspak (xomut) gaykasi; 3- devordagi (anker) tayanch; 4-polixlorvinilli shlang; 5- himoya quvuri; 6- quvur bekitgichi (zaglushka); 7 – mustahkamlash chaspaklari; 8 – suv bilan to 'ldirish uchun teshik; 9 – cho 'kish o 'Ichagichi; 10 – o 'Ichagich uchun vtulka; 11- bo 'linish bahosi 0,01 bo 'lgan MK-25-27 o 'Ichagich mikrometri; 12- nippel.

Trigonometrik nivelirlash yordamida bir markani boshqasiga nisbatan, vizir nurini qiyalik burchagi va asbobdan markagacha bo'lgan masofani o'Ichab, ortishi aniqlanadi.

To'g'on tiklanishi davrida cho'kishni kuzatish oyiga kamida 2 marta, suv ombori to'ldirilayotganda – har kuni, ishlatalishning dastlabki yillari – yiliga 2 marta, undan keyingi cho'kishni so'nish jarayoni yillarda – yiliga 1 marta o'tkaziladi.

Nivelirlash, asboblar va reykalarni tekshirish, shuningdek yozuvlarni olib borish va o'Ichov natijalariga ishlov berish Geodeziya kursi yoki Geodezik usullarda Gidrotexnika inshootlari va ular asoslarini deformatsiyalarini bevosita kuzatish bo'yicha texnik adabiyotlarga mos ravishda olib boriladi.


Beton to'g'onlarning nisbiy gorizontal siljishlarini o'lchash uchun to'g'ri va teskarli otves (osma, tosh bog'langan ip) lardan foydalilanadi.

To'g'ri otves (7.5.a - rasm) to'g'onning konstruksiyasi, balandligi yoki siljishni o'lchash maqsadiga qarab to'g'oni tepasi, o'rtasi va asosida osish nuqtasiga osilgan oddiy otvesdan iborat. Pastki qismiga boylangan yukni, odatda, tebranishni tinchlantiruvchi (dempfirovaniya) suyuqlik solingen idishga joylashtiriladi. Otveslar vertikal shaxtalarga yoki maxsus o'rnatilgan quvurlarga o'rnatiladi. Siljishni ikki o'zaro perpendikulyar yo'naliishlarga ega, yuk ustiga yig'ilgan, koordinatomer bilan o'chanadi. To'g'ri otveslar soni to'g'on balandligi va eng asosiysi geologiyasiga bog'liq ravishda aniqlanadi. Bir turli seksiyalar va geologik sharoitda otveslar har 100

m. da joylashtiriladi. Qoya tohsiz asosdagи to'g'onlarda otveslar 3...4 seksiyadan keyin o'rnatiladi.

Teskari otves (7.5,b – rasm) pasti yakor yordamida qotirilgan, tepasi esa suyuqlik solingen bakka tushirilgan halqali po'kak yordamida ushlab turiluvchi tortilgan ipdan iborat. Asosgacha burg'ulangan va tushirish quvuri bilan himoyalangan skvajina zaboyida yakor yaxlitlanadi. Teskari otvesda koordinatomer po'kakli bakdan bir mucha pastga joylashtiriladi. Teskari otves - ancha universal asbob hisoblanadi, chunki uning yordamida asosini berilgan nuqtasiga nisbatan to'g'on o'rkachi va otves yakori qotirilgan nuqtaga nisbatan to'g'on podoshvasi siljishlari aniqlanadi. Asosning har xil chuqurligiga bir necha otvesni o'rnatib, uning faol zonasini chuqurligi va boshqa siljishlarni aniqlash mumkin. Ko'pincha, bir vaqtida to'g'ri va teskari otveslar qurilmasi (7.5,v – rasm) ishlataladi.

Ayrim seksiyalarning nisbiy gorizontal siljishi, ko'rish galereyasiga tortilgan va to'g'on seksiyalariga o'rnatilgan, markalar bo'yicha chetki seksiyalarga mahkamlangan, 600 m. gacha uzunlikga ega ip yordamida o'lchanadi.




7.5.- rasm. Nisbiy gorizontal siljishlarni o'lchash uchun asboblar:

a va b – to'g'ri va teskari otveslar; v – to'g'ri va teskari otveslardan birgalikda foydalanish sxemasi; 1- tushirish quvuri; 2 – ilgak; 3 – invar sim; 4 – tinchlantiruvchi (dempfiruyuuşa) suyuqlik bilan bak; 5 – yuk; 6 – koordinatomer uchun stolcha; 7 – koordinatomer; 8 – optik qurilma; 9 – kronshteyn; 10 – po'kak; 11 – otves boshi; 12 – po'kak shtoki; 13 – himoya quvuri; 14 – yakor.

Gidrotexnika inshootlari yoki ular elementlarining engashish qiyaligi, inshootni bosimli (naporli) va pastki qirralariga gidrostatik nivelerlash ma'lumotlari bo'yicha yoki qoplanadigan yoki distatsion klinometr yordamida (7.6 - rasm) joylashtirilgan markalarini geometrik nivelerlash yordamida aniqlanadi.

7.6 - rasm. Qoplanadigan klinometr sxemasi:

1 – o'q; 2 – plastina; 3 – silindrik sath (uroven); 4 – prujina; 5 – igna; 6 – mikrometrenli vint; 7 – shkalasi bilan baraban; 8 – hisob ko'rsatgichi; 9 – mikrometren o'chagich korpusi; 10 – stanina; 11 – asbobni mahkamlash uchun taglik.



Har xil davr uchun qiya maydonchaga o'matilgan mikrometren vint hisobining farqi bo'yicha klinometr yordamida qiyshayish (egilish) burchagi aniqlandi. Mikrometren vint (qurilma) bilan silindrik sathga o'chov va hisob olish vaqtida gorizontal holat beriladi. Vertikal sirtlar egilish (qiyshayish) burchagini o'chash uchun inklinometr, uklonometr kabi asboblar ham ishlataladi.


7.3. Inshootdag'i yoriq va choklarni kuzatish uchun qo'llaniladigan asboblarning konstruksiyalari hamda joylashtiruvি

Gidrotexnika inshootlari elementlarida yoriqlar notekis cho'kish, tashqi yuklanmadan zo'riqish, shuningdek harorat-torayish natijasida vujudga keladi. Yoriqlarni kuzatish to'g'on elementlarini o'zaro siljishlarini tahlil qilish, inshootlar mustahkamligini baholash va yoriqdan usti ochilib qolib jadal zanglashga moyil armaturalarning holatini aniqlash maqsadida olib boriladi.

Yoriqlar ustidan kuzatish olib borishning oddiy usuli bo'yoyq yoki o'tkir asbob bilan yoriq chegarasini belgilab qo'yishdir. Ma'lum bir vaqt o'tgandan so'ng yoriq oxirlari yangitdan belgilanadi va vaqt o'tishi bilan yoriqni rivojanishi aniqlanadi. Etarli kenglikdagi (> 1 mm) yoriqlarni nafaqat uzunligini, balki chuqurligini ham o'chash mumkin bo'ladi. Buning uchun nupdan foydalaniladi yoki yoriqga bo'yoyq quyiladi. Bo'yoyq qurigandan so'ng betonni bir tomoni chtiyoqkorlik bilan uchirib tuishiriladi. Buyoqni kirgan izining uzunligi bo'yicha yoriq chuqurligi aniqlanadi. Agar beton sirti yaqinida armatur joylashib qolgan bo'lsa bunday usulni qo'llab bo'lmaydi. Bu holda o'chashlar millimetrla bo'laklarga ega lineyka yoki shtangensirkul bilan bajariladi.

Inshoot elementi chegarasidagi yoriqning holatini baholash uchun gips, alebastr, sementli aralashmalardan iborat mayaklardan keng foydalaniladi. Ba'zan mayaklar organik oyna yoki metalldan qilinadi. Ammo ularni yasash yuqorida sanab o'tilganlarga nisbatan ko'p mehnat talab qiladi, shuning uchun ham ular juda kam ishlataladi. Mayaklar o'rnatiladigan joylar diqqat bilan chang va ifloslikdan tozalanadi, siqilgan havo bilan puflanadi va suv bilan yuviladi. Mayak ustiga yoki unga yaqin joyga tartib raqami va o'rnatilgan sana (kun) yoziladi. YOriqni holatini oddiy baholash quyidagicha: agar vaqt o'tishi bilan yoriq joylashgan joyda mayak ustida yoriq hosil bo'lmasa, demak yoriq ochilmayapti (kengaymayapti, rivojlanmayapti); mayakda yoriq hosil bo'lsa tahlil qilinayotgan yoriq rivojlanmoqda.

Gipsli mayak kengligi 5...10 sm, qalinligi 1...3 sm va uzunligi 10...20 sm qilib quyuq aralashmadan shpatel yordamida tayyorlanadi (7.7,a –rasm).



7.7- rasm. YOriqlarni kuzatish uchun mayaklar:

a-gipsli; b va v – organik va oddiy oynadan; g – alebastrlı; d – metalli;
e, j – I.M.Litvinov konstruksiyalagan mayak; z – F.A.Belyakov konstruksiyalagan
mayak; 1 – yoriq; 2 – mayak.

Organik oyna yoki oddiy oynadan iborat mayaklar (7.7,b,v – rasmlar) qalinligi 3...10 mm. li 2 plastinadan iborat. Plastinalar bir uchi bilan aralashmaga, ikkinchi oxiri bilan bir birini ustini 2...3 sm yopadigan qilib qavat-qavat qo'yiladi. Qo'yishdan oldin har bir plastinkada chiziqlar orasini ochilishiga qarab yoriqning holatiga baho beriladi.

Nam joylarda mayaklar sementli aralashma yoki ivimaydigan (metall, tekstolit, plastmassa va boshq.) materiallardan yasaldi. Bir qator holatlarda alebastrdan mayak yasaladi (7.7,g – rasm).

Metall mayaklar diametri 3...4 mm. li, uzunligi 20...30 sm. li, yoriqga ko'ndalang o'rnatiladigan simdan yasaladi. YOriq ochilganda simni qotirish uchun qo'yilgan sementli aralashma buzuladi. YOriqni ochilishi simni siljishi bo'yicha aniqlanadi. Ba'zan chiziqchalar chizib oddiy shakldagi metall plastinkalar ishlataladi (7.7,d – rasm). Ularni bir birini ustiga yoki tutashtirib qo'yishadi.


Mayak turi va o'rnatish usuli yoriqni joylashgan o'rni, qo'l ostidagi material va inshootning ma'suliyatligiga qarab tanlanadi.

Oddiy mayaklar va yoriq o'lhagich (щеломеры) lar orasida konstruksiyasi bo'yicha murakkab bo'lgan mayaklar ham mavjud. Masalan, I.M. Litvinov konstruksiyalagan mayaklar (7.7,e,j – rasmlar) yoriqni son va sifat ko'rsatkichlarini olish imkoniyatini beradi. SHTangelsirkul bilan o'lhangan mayaklar ilgaklari orasi yoriqni ochilish qiymati to'g'risida xulosa qilishga imkon beradi. Bunda o'hash aniqligi 0,02 mm. dan ko'pni tashkil qilmaydi. Inshootlar elementlarining burchaklarida vujudga kelgan yoriqlar uchun 7.7, j – rasmda keltirilgan konstruksiyali mayaklar qo'llaniladi. F.A.Belyakov yoriqni ikki tomoni bo'ylab ikki gipsli, alebastri yoki sementli aralashmali 10 x 6 x 2 sm (7.7,z – rasm) o'lchamli plitkalarini o'rnatishni taklif qilgan. Aralashmalar qurishidan oldin har bir plitkaga beshtagacha nina joylashtiriladi, ular sirtdan 1...2 mm chiqib turadi. Plitkalar shunday joylashtiriladi, bunda ninalarning yuqorigi qatori bir chiziqda, pastkisi esa ikkinchi chiziqda, ikkala plitkalar uchun birinchi qator parallel bo'ladi. Faneraga qotirilgan qog'oz varag'ini ninalar ustiga davriy ravishda qo'yib qog'ozda teshikchalar olinadi. Nuqtalar orasi masofalari bo'yicha yoriq holati to'g'risida xulosa qilinadi. O'rnatilgan mayaklar ustidan dastlabki ikki-uch haftada har kuni, undan so'ng turg'unlanishiga qarab 7...10 kunda bir kuzatiladi.

Ma'suliyatli (kapitalligi I..III klass bo'lgan) inshootlarda yoki elementlarda ko'pchilik holatda qurilish paytida o'rnatilib qoldirilgan yoki ustiga qo'yiladigan (nakladnaya) yoriq o'lhagich (щеломер) lar yordamida kuzatishlar olib boriladi, ular shartli ravishda bir o'qli, sirtga va fazoviy o'rnatiladigan turlarga bo'linadi.

Bir o'qli yoriq o'lchagich (7.8 – rasm) belgilab qo'yilgan boshchasi (mixparchin) bilan yoriqning ikkala tomoniga qotiriladigan ikki metall elementdan iborat, shtangensirkul yoki mikrometr yordamida ular orasidagi masofa o'lchanadi.

Tekislik yoriq o'lchagichlari ikki yo'nalishda shkala o'yilgan va tayanch chiziqchalari bilan bir birini ustini yopadigan plastinkalarga ega.



7.8 – rasm. Bir o'qli yoriq o'lchagichlar:


a – vaqtinchalik kuzatishlar uchun shturli qurib qoldirilgan; b – uzoq kuzatishlarni olib borish uchun qurib qoldirilgan; v – Lengidep konstruksiyalisi; g – aniqligi 0,01 mm. gacha bo'lgan soat turidagini; d – (ugolok) burchaklik materialidan ustiga qo'yiladigan; e – keng (50...60 sm) choqlarni ochilishini kuzatish uchun; 1 – chok (yoriq); 2 – belgilab qo'yilgan boshcha; 3 – tayanch; 4 – soat turidagi indikator; 5 – kronshteyn; 6 – qisadigan vintli tayanch tekislik; j – ustiga qo'yiladigan yoriq o'lchagich; 1 – metall plita; 2 – sterjenlar; 3 – shtangensirkul; 4 – shariklar; 5 – gayka; 6 – tayanch; 7 – tayanch qo'shmixi; 8 – chok. O'lchamlari mm. da.

Fazoviy yoriq o‘lchagichlarning har xil konstruksiyalari 7.9 – rasmda qo‘rsatilgan. Ular sterjenli (7.9,a – rasm) va markirovka qilingan (7.9,b – rasm) tur-larga bo‘linadi.

Sterjenli yoriq o‘lchagichlar ikki po‘lat sterjen yoki plastinkadan iborat, ular orasida ikki tekislik bo‘yicha o‘lchov olib borish mumkin bo‘ladigan qilib qiyshaytirib qo‘yilgan. YOriqlarni ikki tekislik bo‘yicha ochilishini aniqlash uchun, shuningdek, Lengidep konstruksiyalagan yoriq o‘lchagichlardan (7.9,v – rasm) foydalilanildi. Bu konstruksiyalar tayanch chiziqlarga ega bo‘lishi lozim. V.P. Bomb-chinskiyning markirovka qilgan yoriq o‘lchagichlari keng tarqalgan (7.8,b – rasm). U tomonlari 200...600 mm bo‘lgan teng tomonli uchburchak uchiga o‘rnataladigan uch marka tizimidан iborat. CHokga parallel yo‘naltirilgan uchburchakni bazis tomoniga ikki marka joylashtiriladi, boshqa tomoniga – bitta. YOriq o‘lchagichning markalarini balandlik markalari sifatida ham ishlatish mumkin. Markalardagi silindrik teshiklarning mayjudligi shtangen yoriq o‘lchagich yordamida ular orasidagi masofani o‘lhash imkoniyatini beradi (7.9,v – rasm).

Ochiq kuzatishning imkoniyati bo‘lmagan, tashqi sirtga 1,5...2 m yaqinlashmagan joylarda distansion o‘rnataladigan yoriq o‘lchagichlarning odatda, torli turidan, shuningdek teletenzometrlardan foydalilanildi.

YOriq o‘lchagichlar shablon (qolip) yordamida o‘rnataladi, so‘ng qolip olinadi va 7...10 kun o‘tgandan keyin nul sanog‘i olinadi. YOriq hosil bo‘lgan dastlabki davrda har kuni kuzatishlar olib boriladi. YOriq ochilishi turg‘unlashgandan so‘ng yoki ishlatishning birinchi yili har 7...10 kunda 1 marta olib boriladi. Inshoot 3 yil ishlatilangan so‘ng oyiga 1 marta kuzatish amalga oshiriladi. YOriq o‘lchagichlar ko‘rsatkichlarini yozayotganda havo va suvning harorati (agar yoriq o‘lchagich suv sathidan pastda bo‘lsa) ham ko‘rsatilishi zarur. Kuzatish jurnalida yoriq o‘lchagich tartib raqami, kuzatish olib borilgan sana, dastlabki sanoq, keyingi sanoqlar ham yozi-ladi. Keyingi sanoqlar bo‘yicha dastlabki sanoqdan qanchalik chetga chiqilganligi aniqlanadi.




7.9 – rasm. CHoklar (yoriqlar) tekislikda (a), fazoda (b) ochilishini o'chash uchun yoriq o'chagichlar va shtangen yoriq o'chagich (v) : 1 – tayanch ninasi; 2 va 3 – halqali va silindrik sath; 4 – shkalasi bilan lineyka; 5 – ninalar barabani; 6 – dvijok; 7 – mikrometrik nina. O'chamlari mm. da.

7.4. Betonning mustahkamlik xarakteristikalari va zo'riqish-deformatsiyalangan holatini aniqlash

Beton va temir-beton inshootlarni mustahkamligi har xil usullar bilan aniqlanadi, ular ikki asosiy guruhlarga bo‘linadi: buzadigan (ahamiyatsiz, unchalik katta va sezilarli bo‘limgan) va buzmaydigan. Buzadigan usullar ko‘p mehnat talab qiladi, murakkab va ularni har doim ham qo‘llab bo‘lmaydi, chunki bunda tadtiq qilinadigan elementning mustahkamligini kamayishiga va tashqi ko‘rinishini yomonlashuviga olib kelinadi. SHuning uchun ham konstruksiyalarni mustahkamligini nazorat qilishi buzmaydigan usullari keng qo‘llanilmoqda. Ularga: ultratovushli – ultratovushli; rezonansli va yuza to‘lqinli; radiatsion – neytronli, gamma-nurlanishli; elektromagnitli – yugori chastotalik (SVCH) nurli singdiradigan va boshqa usullar mansubdir.

Konstruksiyaning qaliligi 15 m. gacha bo‘lganda eng ko‘p ultratovushli usuldan foydalaniladi. Bunda; UKB-1, UKB-1M (7.10,a – rasm), «Kvars-6» (7.10,b – rasm), ITP-1 (7.10,g – rasm) , UK-16P, UF-90PS, «Beton-8-URS», UK-10P va boshqa asboblardan foydalaniladi. Ultra tovushli usul tadqiq qilinayotgan ob’ekt orqali signalni o’tishi, uni aks etishi va o‘chishiga asoslangan. Konstruksiyaning qaliligi 30 m. gacha bo‘lganda beton sifatini nazorat qilishni zarbali usulidan foydalaniladi.




7.10- rasm. Temir-beton konstruksiyalarni buzmasdan nazorat qilish asboblarining tashqi ko‘rinishlari:

a – ultratovushli UKB-1M asbobi; b – ultratovushli «Kvars-6» qalilik o‘lchagichi; v – zo‘riqish va yoriqlarni o‘lchovchi INT-M2 asbobi; g – yopilma qaliligini o‘lchovchi ITP-1 asbobi; 1 – (ro‘yxatga oluvchi) qayd qiluvchi asbob; 2 – pereobrazovatel (qayta tashkil qiluvchi)

KB-1M asbobi betoning ichki defekti va uning sifatini, «Kvars-6» esa – beton inshootlar va metall konstruksiyalar qaliligini aniqlash uchun xizmat qiladi. INT-M2 asbobi beton inshootlarni yashiringan yoriqlarini topish va metall qismlari kovsharlangan choklarining zo‘riqishini qanchaligini aniqlash imkoniyatlarini beradi.

Betonni ahamiyatsiz ravishda buzadigan usullar orasida inshootlarni sirtqi mustahkamligini aniqlash uchun xizmat qiladigan usullar keng qo‘llanilmoqda. Ularga plastik deformatsiyalash usullari mansub bo‘lib, bunda Gubber DPG-4 diskli asbobi, Kashkarovning etalonli bolg‘asi, Fizdel bolg‘asi, Skramtaev pistoleti, SMP-1, KM, PM, DIG-4 qurilish-yig‘ish pistoletlari, SHmidt sklerometrini qo‘llash bilan zarbalab sakratish usuli va boshqalardan foydalaniladi.



7.11-rasm.Betonni ahamiyatsiz buzush bilan inshootlar sirti mustahkamligini aniqlaydigan asboblar:

a-DPG-4; 1-dumcha(xvostovik); 2-tayanch qurilmasi; 3-mufta; 4-sharnir; 5-o'q; 6-sterjen; 7-disk; 8-sementlashitirilgan hoshiya (qirra); 9-burchak o'lchash shkalasi; 10-strelka-shokul(otves); b-Kashkarov bolg'asi va kalibrovka qiladigan grafik; 1-boshcha; 2-stakan; 3-korpus; 4-prujina; 5-etolon qilingan sterjen; 6-yuqori mustahkamlikka ega metalldan qilingan sharik; 7-sop (dasta); v-Fizdel bolg'asi va kalibrovka qiladigan grafik; 1-korpus; 2-sharik; 3-dasta. O'lchamlari mm.da

DPG-4 diskli asbobi (7.11,a – rasm) A.M. Gubber tomonidan ishlab chiqilgan, undan quyidagiicha foydalaniladi: tadqiq qilishga tayyorlanayotgan uchastka tadqiqdan 1 soat oldin namlanadi.Asbob o'matiladi, so'ng disk (belgilangan) berilgan qiyymatga olib boriladi. Disk xususiy og'irligi ta'sirida pastga tushadi va beton sirt us-tida iz qoldiradi. Izning uzunligi va kalibrovka qilingan egri chiziq bo'yicha betonning mustahkamligi aniqlanadi. Tadqiq qilinayotgan (maydoni 0.5 m^2 gacha) sirtga kamida12 iz qoldiriladi.

Betonning mustahkamligi quyidagi bog'lanish bilan aniqlanadi:

$$R = \frac{A \cdot H}{\ell^3 \cdot a}, \quad (7.1)$$

bu erda: A – empirik koeffitsient, betonni vertikal sirti uchun 4850 kg/sm, gorizontal sirti uchun – 5600 kg/sm qabul qilinadi;

N – diskni tushish balandligi, $N = \ell \sin \varphi$ - bog'lanish bilan aniqlanadi;

φ - asbob sterjenini burilish burchagi;


ℓ - iz uzunligi, sm. da;

a – diskdan vtulkagacha bo'lgan masofa 25 sm. ga teng.

Kashkarov bolg'asi (7.11,b – rasm) etolonli po'lat sterjenlarning mexanik xususiyatlaridan foydalanishga asoslangan. Tadqiq qilinayotgan sirtga bolg'a bilan zarba berilgandan so'ng betonda hosil bo'lgan chuqurchaning diametri d_b va va etalon sterjenining diametri d_e o'lchab olinadi. CHuqurcha diametri 15 mm. li po'lat sharik-chadan qolgan bo'ladi. Betonning siqilishga mustahkamligi kalibrovka qilingan grafik yordamida (7.11,b – rasm) diametrlar bo'yicha 10 tadan kam bo'lmagan tamg'a, dastlabki zo'riqtirilgan (plita, balka va boshq.) elementlarda esa 5...20 dan kam bo'lmagan tamg'a bo'yicha aniqlandi. Kashkarov bolg'asi bilan o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar aniqlik 4...6% bo'lishini ko'rsatgan.

Fizdel bolg'asi (7.11,v – rasm) bir tomonida, zarba berganda betonda chuqurcha iz qoldiradigan diametri 17,463 mm. li po'lat sharikga ega. CHuqurcha diametrini aniqlab kalibrovka qilingan egri chiziqdan betonning siqilishga mustahkamligi aniqlanadi.

Inshoot elementlariga sezilarli buzush ta'sirini beruvchi asboblari ham mavjud. Ularga: disk bilan betonni uzib oladigan GPNV-5 (7.12,a – rasm), URS moslamasi (4.12,b – rasm) bilan GPNV-5, konstruksiyanı qirib oluvchi qobirg'asi (rebro), uzib oladigan va qirib oladigan GPNS-4 asboblari kiradi.



7.12- rasm. Inshootlar elementlarini buzush ta'siriga asoslangan asboblarning ishlash sxemalari: a - GPNV-5; b - URS moslamasi bilan GPNV-5; c - GPNS-4; 1 - buzuvchi element; 2 - tadqiq qilinadigan namuna


YAxlit inshoot chiqurligidagi betonni, ishlatishni kiyungi davrlardagi yaroqliligini aniqlash maqsadida, mustahkamligini tekshirish uchun namunalar (diametri 100 mm) burg'ulab olinadi va so'ng ular maxsus stendlarda mustahkamlikka tekshiriladi. Bunda namunaning namligi massivning namligiga mos bo'lishi kerak, chunki betoning mustahkamligi suv shimish darajasiga qarab sezilar o'zgaradi. Malakali mutaxassis massiv chiqurligidan betonni namunasini ko'z bilan kuzatish (rangi, g'ovvakligi, zichligi, to'ldiruvchilarining mavjudligi) asosida betonni mustahkamligini etarli darajada aniq baholab berishi mumkin. Beton mustahkamligini dastlabki baholash uchun Gidroprouekt konstruksiyalagan yig'ma fotoburoskopdan foydalaniadi. Olingen namunalar laboratoriya jo'natiladi, u erda «Gidrotexnika betoni. Betonni sinash usullari» QMQ bo'yicha beton sinab ko'riladi. Betonni yaxlitligini ta'minlash uchun namunalar olingen skvajinalar tebrantirish yo'li bilan beton qilinadi yoki torkret qilinadi va sterjenlar yoki tayachli to'r qo'yilab armatura qilinadi. Ba'zida burg'ulangan skvajinalardan betonni suv singdirmasligini baholash uchun ham foydalilaniladi. Betonni suv singdirmasligi solishtirma suv sig'dirishi bilan aniqlanadi.

Inshootlarning zo'riqish-deformatsion holati quyidagi parametrlar bilan xarakterlanadi: zo'riqish va deformatsiya bilan; qoya toshning (podoshva) asosga bergen bosimi bilan (kontakt mo'tadil zo'riqishi); asosdagi va qirg'oqqa tutashgan joylardi qoya toshning deformatsiyalanishi bilan; ustunlararo, bloklararo, seksiyalararo choclar yoriqlarni ochilishi; betondagi g'ovvaklik bosimi; to'g'onga berilayotgan asosiy yuklamalar va ta'sirlar (sathlar, harorat va sh.o.).

Asosan zo'riqishni o'lchashning ikki usuli qo'llaniladi: tenzometrik usul va qo'yiladigan datchiklar yordamida. Tenzometrik usul tenzometrlar yordamida betonni nisbiy deformatsiyalanishini aniqlash va ular bo'yicha zo'riqishni hisoblashdan iborat.

Bu usul asosiy usul sifatida tan olingan, chunki uni yordamida nafaqat deformatsiya olinadi, balki (normal va urinma) zo'riqish olinadi. Bu usul nafaqat jism ustidagi o'lchashlarni olib borish balki jism ichidagi zo'riqishni o'lchash uchun ham etarli.

Bevosita urinma zo'riqishni aniqlash qiyin, shuning uchun uch yo'naliш bo'yicha (ortogonal o'q va unga nisbatan 45°) nisbiy deformatsiya o'lchanadi, so'ng tekislikdagi zo'riqish holatini hisoblaganda nisbiy deformatsiya olti, ba'zan o'n ikki yo'naliishi bo'yicha o'lchanadi. CHiziqli zo'riqish, bloklarni harorat holati, shuningdek boshqa holatlar tadqiq qilishda yakka tenzometrlar o'matiladi. Tenzometrik rozetkalar sxemalari 7.13 – rasmida ko'rsatilgan. Ularni joylashtirish, yig'ish va tadqiq qilish uslubiyati batafsil shu mavzuga bag'ishlangan tavsyanomalarda berilgan [49]. O'lchash nuqtasi asboblari tarkibiga «zo'riqmagan» tenzometr (namuna) qo'shiladi, nuqtaga ta'sir qiladigan kuchlar bilan bog'liq bo'lмаган harorat va beton namligini o'zgarishlari keltirib chiqargan deformatsiyalarni u hisobga olmaslik uchun xizmat qiladi.




713- rasm. Tenzometrik rozetkalar sxemalari:

a – to'g'ri burchakli; b – delta ko'rinishli; c – elpig'ich ko'rinishli; g – rozetka tekisligiga normal bo'yicha joylashgan beshinchgi tenzometr bilan elpig'ich ko'rinishli; d – olti tenzometr dan tashkil topgan hajmiy; e – har bir koordinata tekisligida elpig'ich tashkil qilgan to'kkiz tenzometr bilan hajmiy yulduzcha; f – qoya toshdagisi tekis rozetka.

Beton, qoya tosh va inshootlar metallokonstruksiyalari statik nisbiy deformatsiyalanishini teleo'lhash uchun chiziqli deformatsiyali torli (PLDS) pereobrazovateli xizmat qiladi (7.14,a – rasm). Asbob elastik element, (tor) rezonatori, elektromagnitli qo'zg'atish tizimi va korpusdan tashkil topgan. Betondagi mavjud bo'lgan deformatsiya elektr signali bilan tor ko'tarilib tushishi (kolebaniysi) ni muvozanatdan chiqarish orqali torni qattiq tortilishiga olib keladi. Xuddi shunday tamoyilda Gidroprekt, VNIIG ko'p sonli NO'A ishlab chiqqan, ular amaliyotda qo'llanilmoqda. Xuddi shunday torli turga mansub asboblarga: choklar, yoriqlar ochilishi, qoya toshli asosning deformatsiyalanishini teleo'lhash uchun (PLPS) torli

chiziqli siljishlarni o'lchaydigan pereobrazovatel (7.14,b – rasm), armaturadagi kuchni torli (PSAS) (7.14,v – rasm) pereobrazovateli. pezometrlardagi gidrostatik bosimni, g'ovvaklik bosimini, gruntdagi normal zo'riqishni o'lchash uchun torli (PDS) (7.14,g – rasm) bosim preobrazovateli; inshootlar va asoslar haroratini – 30° dan + 60° gacha o'lchash uchun torli (PTS) (7.14,d – rasm) harorat pereobrazovateli; avtomatik nazorat tizimida to'g'ri va teskari otveslari jihozlash uchun unifikatsiya qilingan torli (PSUS) (7.14,e – rasm) kuch pereobrazovateli va boshqalar kiradi.



7.14.– rasm. Torli o'lchov pereobrazovatellari:
a – PLDS; b – PLPS; v – PSAS; g – PDS; e – PSUS; 1 – elastik element; 2 – rezonator (tor); 3 – qayta tashkil etuvchi (pereobrazovatel) element (elektromagnit qo'zg'atish tizimi)

Bevosita kuzatishlarni avtomatizatsiyalashtiradigan komutatsion, distatsion va boshqa turdag'i apparatlar mavjud. Ular bir vaqt ni o'zida 24 pereobrazovateli ulashga hisoblangan KP-24 turidagi pereobrazovatel komutatori, PSP-1 turidagi raqamli davr o'lchagich va inshootlarni holatini avtomatizatsiya qilingan nazorat tizimi pulti (PASK) lar kiradi.

Kuzatishlarni taxminan quyidagi davriylik bilan olib borish tavsiya qilinadi: qurilish davrida, dastlabki kunlari, preobrazovatel o'matilgandan va ular beton bilan yopilgandan so'ng – har 4 soatda: keyingi 1 kun ichida – har 8 soatda; birinchi oy moboynida – har kuni; undan so'ng uchinchi oyni oxirigacha – haftasiga 2 marta; undan keyin – 7...10 kunda 1 marta. Ishlatishning dastlabki davrida 10...15 kunda 1 marta kuzatish olib boriladi. keyinchalik betonda kechayotgan jarayon turg'unlashgandan so'ng – oyiga 1 marta. ba'zan kam kuzatiladi.

7.5. Gidrotexnik inshooti tanasi va asosdan o'tayotgan filtratsiya suvini ta'sirini kuzatish

Beton inshootlar orqali suvni sizib o'tishini kuzatish betonda yoriq hosil bo'lishi va g'ovvakligi, uni sizib o'tayotgan suv bilan ishqorlanishi, choklar va zichlagichlar ishlashining sifati, shuningdek betonni boshqa filtratsion xususiyatlari xaqida xulosa qilish imkoniyatini beradi.

Sizib o'tishning kichik suv sarflari sizib o'tish (filtratsiya) manbai (o'chog'i)ga nam yutadigan materiallar (paxta, flenal yoki boshq.) ni ma'lum bir vaqt ichida qo'yish orqali aniqlanadi. Iltini qo'yguncha va u qo'yilgandan keyin torozida tartib, nam chiqishini, ya'ni sizib o'tgan suvning sarfini aniqlash mumkin. Bu usul oddiy, ammo uning aniqligi kam, shunday bo'sada bu usul to'la, etarli darajada filtratsiyani baholash imkonini beradi.

Sizib o'tishning sezilarli darajadagi suv sarfi hajmiy usulda aniqlanadi. Buning uchun sizib chiqayotgan suv (filtratsiya) maxsus kanalchalar orqali o'Ichov idishiga yo'naltiriladi. Bunda filtratsiya o'chog'iga zichlagichlar bilan zich qo'yiladigan daganak (voronka) dan foydalaniladi. Sizib o'tayotgan suvni yig'ish vaqt filtratsiyani jadalliliga qarab 10 min. gacha qabul qilinadi.

YOriq orqali suvni sizib o'tishi qishda ko'payadi, yozda – kamayadi. Bunday muvofiqlik buzulsa, demak, yoriq kolmatatsiyaga uchragan yoki beton ishqorlanib yoriq ochilgan bo'ladi.

Sizib o'tgan suvning sarfi, agar inshootga bir xil napor ta'sir qilayotgan va harorat bir xil bo'lsa, solishtiriladi.

Inshootning suv va er ostidagi qismlaridan suvni sizib o'tishini aniqlash uchun suv tortib olinib yoki maxsus burg'ulangan skvajinalar orqali bosim bilan suv yuborilibrani aniqlanadi.

Suvni sizib o'tish tezligi, yumshoq grunddagidek, skvajinaga bo'yoq yoki kimyoiviy birikmalar yuborish yo'li bilan aniqlanadi.

Ba'zida beton orqali filtratsiyani xarakterlash uchun kern (quduqcha) o'yiladi, bu ko'p mehnat talab qiladi, yoki skvajina (diametri 45...78 mm) burg'ulanadi va unga bosim orqali suv yuboriladi. Solishtirma suv yutilishi (singishi) ga qarab beton orqali suvni sizib o'tishi to'g'risida xulosa qilinadi.

To'g'on podoshvasiga berilayotgan qarshi bosim er osti konturi bo'yicha xarakterli nuqtalardagi pezometrik sathlar orqali nazorat qilinadi. To'g'onnini asos bilan tutashgan joylari yaqinida o'rnatilgan pezometrlarga nuqtali pezometrlar deyiladi.

Qoya toshli asoslarda sementatsiya yoki maxsus galereyalardan ikki tomonga qiya skvajinalar burg'ulanadi. Drenaj galereyalarining ikki tomoni bo'ylab odatda pezometrlar vertikal joylashtiriladi. Ko'p qatlamlili asosda har bir geologik qatlamda zavesa (dorpech) ning ikki tomoniga pezometrlar to'p qilib quriladi. To'g'on turi, asosining geologiyasi, er osti konturining konfiguratsiyasi va boshqa omillarga qarab

filtratsiyani kuzatishning muayyan sxemasi qabul qilinadi. Bunda to‘g‘on asosi orqali va ayanlib o‘tuvchi filtratsiyaga katta ahamiyat beriladi.

Beton to‘g‘onlarda suvni to‘g‘on tanasi va inshoot asosi orqali sizib o‘tishini o‘lchash lozim bo‘ladi. Bu ma‘lumotlar asosida drenaj tizimi ishiga, to‘g‘onni naporli qiyaligi va asosdagи jinslarning suv sizib o‘tish xususiyati, filtratsion rejim, suffoziya jarayonlariga baho beriladi. To‘g‘onni naporli qirrasi orqali sizib o‘tgan suv vertikal drenaj bo‘ylab kuzatish galereyasiga oqib tushadi. Undan keyin (nishoblikka ega) kyuvet bo‘ylab suv yig‘uvchi quduqqa, u erdan o‘z oqimi bilan yoki nasoslar yordamida pastki befga tashlanadi. Sarfni o‘lchash uchun ma‘lum bo‘lgan hajmi, po‘kak tashlash, o‘lchov vodoslivlari, gidrometrik vertushka, sarf o‘lchagichlar va nasos sarfi orqali bilish usullardan foydalaniladi. Ko‘p holatlarda, ma‘suliyatli inshootlarda sizib o‘tgan suv sarfi qo‘srimcha ravishda nazorat qilib boriladi. Bu holda naporli qirra yoriqlari yoki choklar holatini baholashdagidek, bu zona izolyasiya qilinadi.

Keyingi yillarda suvni sizib o‘tish sarfini haroratni kuzatish yordamida aniqlash ham yo‘lga qo‘yiladigan. Bu usul pezometrlar bo‘ylab tarqalgan haroratni o‘lchashga asoslangan. Bu maqsad uchun MMT-54 va boshqa termodatchiklardan foydalaniladi.

Ko‘pchilik holatlarda suvni sizib o‘tishi, beton sirti va uning ichida hosil bo‘ladigan kimyoviy reaksiyalar natijasida, betonni korroziyasiga olib keladi, bu betonni mustahkamlit xususiyatlarini kamaytiradi. Beton korroziyasining xarakteri beton tarkibi, muhit (suv, havo, suv-havo birikmalari va sh.o.) ga, beton sirtidagi muhitning almashish tezligiga, suv naporining gradientiga, beton zichligiga, uning zo‘riqish holatiga va himoya qatlaming mavjudligiga bog‘liq. Korroziyaning asosiy manbalari yomon zichlangan uchastkalarga to‘g‘ri keladi. Bu joylarda, birinchi navbatda, kalsiy gidrookisi $\text{Ca}(\text{ON})_2$ ishqorlanadi va oq yoki sariq dog‘lar paydo bo‘ladi, ularga fenolftalin surtilsa (ohak mavjud bo‘lsa) rangi qizil bo‘ladi. Ohakning sizib o‘tgan suvdagi miqdori suv namunasini laboratoriyada titplash orqali aniqlanadi. Sezilarli hidrokarbonat qattiqligiga ega suv (agressiv uglekislota SO_2 mavjud bo‘lmaganda) beton sirtqi qatlamini zichlashuviga yordam beradi. Suvning agressivligini aniqlash bo‘yicha kimyoviy tahlil 2...3 yilda 1 marta maxsus standart metodikaga ega laboratoriyada o‘tkaziladi. Agar suvning agressivligi oshsa har yili tahlil qilinadi. Sizib o‘tgan suvda Sa^{2+} ionlarini mavjudligi betonda erigan ohak borligini va u erib chiqayotganligini bildiradi. Sizib o‘tgan suvda SO^{2-} ionlarni ko‘payishi gips kristallarini hosil bo‘lish jarayonini xarakterlaydi, bu betonni buzulishiga olib keladi.

7.6. YAxlit beton inshootlardagi nazorat-o'Ichov asboblarini shartli belgilash va ularni joylashishiga misollar

Loyha hujjatlari, kuzatishlarni olib borish bo'yicha har xil sxemalarni tuzish uchun 7.1-jadvalda keltirilgan shartli belgilardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Gravitasjon to'g'onlarda zo'riqishni bir qancha, to'g'oni qundalang kesimi bo'yicha har xil sathda joylashgan, ko'p holatlarda ustunlararo choclar orqali o'tgan nuqtalarda o'Ichashadi.


Ust-Ilim GES gravitatsion to'g'oni tanasidagi nazorat o'Ichov asboblarini va uning seksiyalari asosidagi pezometrlarini joylashuv sxemasi mos ravishda 7.15 va 7.16 – rasmlarda keltirildi. Volgograd va Kaxov to'g'onlari vodosliv plitasi asosidagi armaturalangan dinomometrlar va asosidagi pezometrlar mos ravishda 7.17 va 7.18-rasmlarda ko'rsatildi. Tirkak devor va vodoslivli to'g'on sirtida joylashgan NO'A sxemalari mos ravishda 7.19 va 7.20- rasmlarda berildi.

Beton to'g'onlar holatini kuzatish uchun NO'Aning shartli belgilari

4.1 - jadval

Nomlari	Harfiy belgisi		Tasviri
	Ruschasi	O'zbekchasi	
Beton zo'riqishi datchigi	DN	3D	
YAkka tenzometr	TZ	YAT	
O'zaro perpendikulyar yo'nalishlar bo'yicha uch tenzometrlardan iborat guruh	GT	TG	
Tekis rozetka	RP	TR	
Rozetka tekisligiga perpendikulyar joylashgan qo'shimcha datchik bilan tekis rozetka	RP	TR	
Hajmiy rozetka	RO	XR	
Zo'riqtirilмаган намуна	NO	ZN	
Uzun bazali deformometr	DD	UBD	
Armaturalangan dinamometr	AD	AD	
Grunt bosimi datchigi (gruntli dinamometr)	DG	GD	
Betondagi termometr	Tb	Tb	
Tepa qirrasidagi (suvdag'i) termometr	Tv	Ts	
Pastki qirradagi (havo) termometr	Tvoz	Thavo	
Kabel chizig'i	KL	KCH	
O'Ichov pulti	PI	O'P	
To'g'ri shoql (otves)	OP	TO	
Teskari shoql (otves)	OO	TiO	

SHoqul bo'yicha sanoq olish stansiysi	SO	OSS	
Balandlik elevatori	EV	BE	
Distansion yoriq o'Ichagich	IID	DYOO'	
Bir o'qli yoriq o'Ichagich	IQO	BYOO'	
Fazoviy yoriq o'Ichagich	IPR	FYOO'	
O'rnatilib qoldirilgan klinometr	K	K	
Olinadigan klinometr bazasi	BK	OKB	
Fundamental reper	RF	FR	
Ishchi reper	RR	IR	
Nivelirlash yo'li			
CHo'kish markasi: yuza yonidan	MP MB	YUM YOM	
Pastki qirradagi planli marka	MPa	PaM	
Triangulyasiya tayanch punkti			
Poligonometriya tayanch punkti			
Stvor tayanch punkti			
Planda-balandlik belgisi	PVZ	PBB	
Torli stvor			





7.15- rasm. Usti-Ilim GES to'g'onidagi NO'A joylashtirilish sxemasi:

1 – termometr; 2 – yakka tenzometr; 3 – chokda o'sha; 4 – uch o'zaro perpendikulyar tenzometr; 5 – tekisligiga perpendikulyar bo'lgan tenzometri bilan elpig'ich shaklli rozetka; 6 – to'g'ri to'rt burchakli rozetka; 7 – qoya toshda xuddi o'sha; 8 – taynoriq o'lchagich; 9 – pezodinamometr; 10 – zo'riqish datchigi



7.16- rasm. Usti-Ilim gravitatsion to'g'oni seksiyalari asosida pezometrlarni joylashtirilish sxemasi:

1 va 2 – chuqurlikdagi va kontakt pezometrlarini sur qabul qilgichlari; 3 – drenaj galereyasi; 4 – sementlash pardasi (zavesa); 5 – drenaj skvajinasи; 6 – diabazalar; 7 – cho'kma jinslar






7.17 – rasm. Vodoslivli to'g'on poydevor plitasi (2) dagi armaturalashtirilgan dinamometrlar (1) ni joylashtirishi sxemasi




4.18 – rasm. Qoya toshsiz asoslar ustidagi to'g'onlar asosidagi pezometrlarni joylashtirilish sxemasi:

a – Volgograd GESi; b – Kaxov GESi; P1, P2... – pezometrlar tartib raqamlari; PD – qo'shimcha pezometr



7.19 – rasm. Qoya toshsiz asos ustidagi suv o'tkazuvchi inshoot seksiyalari va qirg'oq ustunlarida NO'A joylashtirilish sxemasi: 1 – balandlik markalari; 2 – pezometrlar; 3 – yoriq o'lchagichlar; 4 – shpunkt o'qi



7.20 – rasm. Tirkak devorda NO 'A joy-lashtirish sxemasi:

1 – termometr; 2 va 4 – gruntli va armaturalashtirilgan dinamometrlar; 3 – yoriq o'chagich; 5 – yuza markasi; 6 - shoqul

7.7. YAxlit inshootlar holatini kuzatish ma'lumotlarini tahlil qilish

Kuzatishlar va tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish uchun natijalar grafiklar ko'rinishida rasmiylashtiriladi va hisobiy yoki avval olingan natijalar bilan solishtiriladi. Grafiklar: yuqori va pastki beflar suv sathlarini vaqt bo'yicha o'zgarishi, inshootlarni qurish va ishlatalish davridagi cho'kishi, inshootlar seksiyalarini siljish epyurasasi va qiyshayish burchagi, inshootlarni ayrim nuqtalari yoki elementlarida vaqt bo'yicha haroratni ko'tarilib – tushishi ko'rinishlarida beriladi.

Ko'pchilik paytlarda inshoot va uning elementlarini holatini o'zgarishi ma'lum bir qonuniyat xarakteriga ega bo'ladi. Bundan chetga chiqishlar vujudga kelganda o'chov natijalari, kuzatishlarni olib borish uslubiyati, chetga chiqish sabablari tahlil qilinadi. Qachonki inshoot ishidan chetga chiqish noxush oqibatlarga olib keladigan bo'lsa buzulishlarni bartaraf qilish bo'yicha zudlik bilan choralar ko'rildi.

YAxlit beton inshootlar seksiyalarining sezilarli deformatsiya-lanishining sababi asosning noto'g'ri ishlashi bo'lishi mumkin. SHuning uchun asosning geologik tuzilishi tekshirib ko'riliishi zarur. Asosda suvgaga chidamsiz qo'shilmalar bo'lsa

kimyoviy suffoziya hosil bo‘ladi, tektonik sinish chizig‘i sirti bo‘ylab yaxlit qoya tosh asos siljigan, karast yoki o‘pirilish oldi jarayonlari bo‘lishi mumkin.

Inshootlarning yuqori qismini eng ko‘p kuch tomoniga siljishi turg‘un bo‘limgan asos bo‘yicha asosni notekis cho‘kishi orqasida hosil bo‘ladigan qiyalik yoki inshoot elementlarining egilishi, shuningdek u yoki bu jarayonni birlgilikda kelishi natijasida yaxlit betonni surilishini bildiradi. Ayrim seksiyalarini surilishi asosda past suriluvchan xarakteristika ega uchastkalar mavjudligidan hosil bo‘ladi.

Baland inshootning o‘rkachini qo‘zg‘alishini aniqlash otveslar ko‘rsatkichlarini tahlil qilish asosida aniqlanadi. Uning balandlik bo‘yicha tekis siljishi inshoot asosi yoki inshootning beton – qoya tosh bilan tutashgan joyi (kontakt) bo‘ylab siljishini bildiradi. Agar siljish balandlik bo‘yicha proporsional ko‘payib borsa, inshoot qiyshaygan bo‘lishi mumkin.

Inshoot egilganda nuqtalar (elementlar) ning siljishi egri chiziq xarakteriga ega bo‘ladi. Ularni sabablarini tahlil qilayotganda haroratni o‘zgarishi va seysmik (4...5 balli silkinishlarda) ta’sirlarni unitmaslik lozim. Inshootlarni ishlatalish jarayonida siljishlarni harorat o‘zgarishiga bog‘liqlik (o‘zgarmas napor va har xil harorat ta’sirlarida) qonuniyatini belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Siljishni bilib, zo‘riqishni aniqlash mumkin bo‘ladi.

CHoklar, yoriqlarni ochilishi bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilish inshootga harorat ta’siri, tekis va notekis cho‘kishlar bilan birlgilikda olib borilishi zarur. Qurilish davridan to ekzotermik jarayonlar tugaguncha choclar va yoriqlar ochilishida ma’lum bir qonuniyat kuzatilmaydi. Ular tugagandan so‘ng choc va yoriqlarni eng ko‘p ochilishi sovuq davming ikkinchi yarmiga, eng kam bo‘lishi esa yilning eng issiq davring ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu qonuniyatdan boshqa chetga chiqishlar inshoot qismlarini deformatsiyalanishi, siljishini, shuning uchun ham choclar ochilib yopilayotganligini bildiradi. To‘g‘on o‘qi bo‘ylab asosni notekis cho‘kishi choclar ochilishini o‘zgarishiga olib keladi.

CHokning birdan ochilishiga seksiyalar yaxlitligi buzulganligidan tahlil qilish mumkin. Bunda seksiyalar diqqat bilan ko‘zdan kechiriladi, chunki yoriqlar hosil bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

YOriqlarni ochilishi ham harorat ta’siri va choc orqali suvni sizib o‘tishi bilan birlgilikda tahlil qilinadi: yilning sovuq davrida choc ko‘p ochiladi, sizib o‘tayotgan suvning jadalligi oshadi, issiq payti esa – teskarsi kuzatiladi.

Agar beton mustahkamligi burg‘ulangan kern bo‘yicha aniqlansa, demak bilish kerakki siqilishga mustahkamlik amalda bir muncha past bo‘ladi va cho‘zilish ham

sezilarli darajada past bo‘ladi. Agar kern chiqmasa, demak beton past mustahkamlikka egaligini bildiradi.

VIII. Suv o‘tkazuvchi inshootlar va ularning mexanik jihozlarndan foydalanish

8.1. Suvni muzlash holati. Muz va qorlarni tiqilib qolishiga qarshi kurashish

Havoda manfiy harorat paydo bo‘lishi bilan daryoda muzlanish: mayda muz to‘plami, suv tubida muz to‘plami, qirg‘oq muzlashi, muz turib qolishi va ularning har xil ko‘rinishlari hosil bo‘lishi mumkin. Ularning xarakteri havo va suvning harorati, suvning tezligi, oqim chuqurligi, o‘zan lojasining konfiruratsiyasi va uning ustidagi cho‘kindi mahsulotlariga bog‘liq. *Mayda muz to‘plami* (shuga) bu – 0,02...0,05⁰ S haroratgacha suv sovuganda oqim qalinligi bo‘ylab hosil bo‘ladigan muz zarrachalaridir. *Mayda muz* zarrachalari nina, yosmiq (chechevitsa) yoki no‘xatcha donalari, plastinka, muz ushoqlari va sh.o‘. ko‘rinishlarda bo‘ladi. *Suv tubida muz* – suv ichidagi muz bo‘lib, tubi toshli, katta toshli va sh.o‘. suv oqarlarda hosil bo‘ladi. *Qirg‘oq muzlashi* – bu qirg‘oqga yopishgan va qirg‘oq bo‘ylab joylashgan qo‘zg‘almas muzdir. *Muz turib qolishi* – bu hovuz va suv oqarlarda qo‘zg‘almas muz tarkibini hosil bo‘lishidir.

Markaziy Osiyo sharoitida oqimning 0,5...0,6 m/s tezligida suv yuzasida yupqa uzlusiz muz qatlami, katta tezligida esa faqat qirg‘oq bo‘ylab muz hosil bo‘ladi.

YUqorida aytib o‘tilgan muzlash holatlari tiqilish yoki shovush hosil qiladi. *Tiqilish* – bu tirik kesimi siqilgan o‘zanda muzning to‘planishi va suv yo‘lini to‘sib qo‘yishidir, bu suv sathini ko‘tarilishiga olib keladi. Suzib kelayotgan muzchalar oqim bilan muz tagiga kiradi yoki muzni itaradi va *muztog‘* (torosiy) hosil qiladi. *Shovush* – bu mayda muz bo‘laklari yoki boshqa suv ichi muzchalarni daryo o‘zanida to‘planib qolishidir, bunda o‘zan torayadi, suv dimlanadi, o‘zan yoki inshootning suv o‘tkazuvchanlik qobiliyati pasayadi.

SHovush odatda tiqilishga nisbatan sezilarli katta uzunlikga ega bo‘ladi. Ular suzib kelayotgan mayda muz gilamchalari va ularni muzlashi natijasida vujudga keladi. Gilamchalarni to‘xtab qolishi o‘zanni birdan burilishi, orolchalar, ko‘priklari va sh. o‘. oldida yoki oqim tezligini (daryo nishabligi pasaygan, suv omboriga kiraverishda va sh.o‘.) kamaygan uchastkalarida mavjud bo‘ladi. Suv ichi muzchalarni shovush tagiga kirib tirik kesim yuzasini 70...85% berkitib qo‘yadi. SHunday qilib qo‘shimcha dimlanish hosil qiladi. Gidravlika nuqtai nazaridan tiqilish bu o‘sha joyda

sathlarni mahalliy farqlanishiga olib kelgan mahalliy (birdan toroyish) gidravlik qarshilikdir, shovush esa – suv o'tkazgichning yuqori qarshilikga va uzunlik bo'yicha naporni yo'qolishiga olib kelgan uchastkasidir. Ko'p holatlarda tiqilish va shovush bir biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. SHovush ko'pincha kuzda muz turib qolganda, har-har zamonda bahorda hosil bo'ladi. Tiqilish bahorda muz ko'chish davrida vujudga keladi. SHovush va tiqilish suvni toshishiga olib keladi, o'rab turuvchi dambalardan suv oshib tushadi, shuningdek gidrotexnika inshootlariga statik va dinamik ta'sirlar ko'rsatadi.

Bunday holatlarga misol qilib Niagr gidrouzelida (Kanada) muzdan 20 m. ga dimlanish hosil bo'lganligi, muz GESni romlari orqali binosiga kirib ketganligi va bino yuk ko'tarish krani balandligicha suvgaga to'lganligini ko'rsatish mumkin. G'arbiy Dvinada Kegum GESi dimlash egri chizig'ini yuqorisida, ostonasi joylashgan zonada qalin muz va mayda muzni tiqilishi kuzatilgan, suv sathidan muz 10 m. dan ko'pga ko'tarilgan.

Suv o'tkazuvchi oraliqlar panjaralarini muzlashi natijasida suv o'tkazuvchanlik qobiliyati 50...60% gacha pasayadi, ba'zi holatlarda muz umuman suvni o'tkazmay qo'yadi. Oraliqlarni bekilishi suzib keluvchi qor hisobiga ham yuzaga keladi, bu jadal qor payti va havoning manfiy haroratiga to'g'ri keladi.

Mayda muz va muzning hosil bo'lishiga ta'sir qiluvchi shovush va tiqilishni vujudga keltirmasdan oqim harakatiga yordam beruvchi ekspluatatsion tadbirlar mavjud. Texnik tadbirlarni to'g'ri rejalshtirish uchun: *birinchidan* – oldindan diqqat bilan shovush va tiqilish hosil bo'ladigan zonalar o'rganib chiqilishi lozim; tiqilish hosil bo'ladigan xarakterli joylar – bu o'zanni katta nishoblikdan kichik nishoblikka o'tish joylari hisoblanadi, bunda oqim tezligi, mayda muz to'plami va muz tezligi pasayadi. SHuningdek suv omborining dimlanish egri chizig'ini odatdag'i suv sathi bilan tutashadigan joylarida ham bunday holatlarda vujudga kelishi mumkin. Tiqilishlar tabiiy o'zanlarda, toraygan uchastkalarda ham vujudga keladi. *Ikkinchidan* – tiqilish va shovush hosil bo'lishiga qarshi kurashish choralarini ko'rildi; *uchinchidan* – hosil bo'Igan tiqilish va shovushlarni bartaraf qilishni texnik usullari qo'llaniladi. Ba'zi bir gidrouzellarda tiqilish va shovush suv omborini dimlash egri chizig'iga surib yuboriladi. Kichikroq gidrouzellarda muz (ledokol yordamida) maydalaniib chiqarib tashlanadi. Muz maydalaniishi bilan suv tashlovchi oraliqlar ochib yuborilsa yaxshi natija beradi. Bunday ishlar kuniga 3...4 marta o'tkazilsa yaxshi bo'ladi. Yirik gidrouzellarda ba'zi holatlarda muzni to'plab turadigan akvatoriyalarni tashkil qilinishi o'zini oqlagan. Daryolarida muzni oqizishga yaxshi sharoit yaratish maqsadida o'zan to'g'rilash ishlari amalga oshiriladi. Muz oqizish trassasini loyihalashda

trassani to‘g‘ri chiziqli yoki silliq buriluvchi qilib loyihalashadi. Suv oqizgichlar burilishlarida muzni tiqiltirmasdan oqizadigan kengaygan joylar qilinadi. Lozim bo‘lsa muzni ushlab qolish uchun (svaylar to‘pi, yarim zapruda va sh.o‘.) inshootlar quriladi. Dubossar suv omborida dimlanish egri chizig‘i zonasida tiqilishni yarim zapruda qurish orqali oldi olingan (5.1- rasm). O‘zan to‘g‘rilash ishlarini amalga oshirishda o‘zanni bir engli (rukava) ko‘rinishda hosil qilishga harakat qilinadi. Agar o‘zan ikki engli bo‘lsa, unda bo‘luvchi orolcha o‘tkir burchagi doira shakliga keltiriladi.


Tiqilish vujudga kelishida, daryo ochilish jarayoniga ta’sir qilish yo‘li bilan muz oqimini tartibga solib, oldi olinadi: bunda muz kuchsizlantiriladi va parchalanadi yoki, teskarisi muz qatlami kuchaytiriladi. SHu usulda muz oqish davri daryoni har xil uchastkalarida o‘zgartiriladi. Muzni kuchsizlantirish tiqilish hosil bo‘ladigan uchastkalarda amalga oshiriladi. Suvning kam chuqurligida muz qalinligi 1 m va kesish kengligi 0,25 m bo‘lganda 300 m/soatiga muz kesadigan mashinalardan foydalilaniladi. Muz maydaligich pushkalar yordamida ham tiqilishlar bartaraf qilinadi. Muz kamasi (ledoviy strug) 1 m qalinlikdagi muzni 2...4 km uzunlikda maydalaydi. Daryoning ochish yoki tezkorlik bilan tiqilishni bartaraf qilish uchun havodan bomba tashlash ham amalga oshiriladi. Bunda zaryad massasi (kg)

$$Q = K \omega^3 \quad (8.1)$$

formula bilan aniqlanadi.

Bu erda, K – portlatuvchi moddaning solishtirma sarfi ($0,3\dots1,5 \text{ kg/m}^3$) portlatiladigan maydon diametri, muzni maydalanish darajasi va uni sochilishiga bog‘liq;

ω – taxminan snaryadni suvgaga cho‘kish chuqurligiga teng qabul qilinadigan hisobiy qarshilik chizig‘i, m.



8.1 – rasm Tiqilish hosil bo‘lishiga qarshi kurashish uchun Dubossar suv omboridagi yarim zaprudalarini joylashuvni:

1- daryoda kam suvli davridagi sath; 2 – tiqilish paytidagi maksimal sath; 3 – yarim zapruda.

Muz qalınlığını kamaytırish uchun qor, penolda va sh.o⁴.lar. yordamida issiq izolyasiya qılısh ham qo'llanılatdı. Daryo ochilishini sekinlashtırış talab qılınatılgan joylarda muz qatlami su'niy ravishda kuchaytirılıdı. Buning uchun qishda muz usti qordan tozalanadi va muz muzlatılıdı. Lozim bo'lganda qirg'oqlarga tross boylab, yog'och, svay va sh.o⁴. qoqib muz ushlab kuchaytirılıdı.

SHovushga qarshi kurashishning gidravlik, termik va mexanik usulları mavjud. Gidravlik usulda oqimda 0,4...0,5 m/s dan katta tezlik hosil qılınadi. Bu suv dimlovchi inshootlar qurish, o'zan to'g'rilash, ko'ndalang sirkulyasiya hosil qılısh va sh.o⁴. yo'llar bilan amalga oshirılıdı. Termik usul oqimga ko'shimcha issiqlik kiritish orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan yuqorida joylashgan suv omboridan nisbatan issiq suv tushirish orqali. Bunda albatta ma'lum bir ishlatish rejimi tashkil qılınadi. Gidravlik va termik usullar o'zaro bir biriga bog'liqdir. SHovush va tiqilişga qarshi kurashishning mexanik usuli yuqorida aytib o'tilganlarga o'xshash bo'ladi. Gidrouzel pastki befidan muz uzoqroqqa ketishi nazorat qilib berılıdı, muz gidrouzelga yaqinlashsa suzuvchi vositalar, portlatish orqali muz gidrouzeladan qochirılıdı.

Respublikamizda manfiy haroratlı kunlar qish davriga to'g'ri keladi, ammo ularning soni kam. SHuning uchun ham yuqorida keltirilgan muz hosil bo'lishi, muz va qorlarni tiqilib qolishiga qarshi kurashish jarayonları va ishlarining barchasi Respublikada uchramasligi mumkin. Bu ishlar inshootlarga texnik qarov ishlari tarkibiga kirganligi, onda-sonda bo'lsa ham uchrab turganligi, mutaxassislar tayyorlash ta'lim standartlarini boshqa chet mamlakatlar bilan tenglashtirish maqsadida mazkur jarayon va ishlarни batafsil ko'rib chiqish lozim bo'ldi.

8.2. Muz, mayda muz bo'lakları to'plami va boshqa suzib yuruvchi jinslarni suv o'tkazgichlar oraliqlari va o'zanni toraygan joylaridan (qurilish davrida) o'tkazish

Muz, mayda muz bo'lakları to'plami va boshqa suzib yuruvchi jinslarni suv o'tkazgichlar oraliqlari va o'zanni toraygan joylaridan qurilish davrida xavfsiz o'tkazish ishlari ham inshootlarga texnik qarov ishlari tarkibiga kiradi va ular qurila-yotgan ob'ektlarni vaqtincha ishlatish boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'lumki muz suzishi oqim tezligi 0,4...0,5 m/s dan ko'p bo'lganda hosil bo'ladi. Unga to'g'on tomonga yo'nalган kuchli shamol qo'shimcha bo'ladi. Muzlarni gidrouzeli yuqori befidan pastki besfiga tashlash uchun to'g'onning vodosliv oraliqlari, tub oraliqlari, qirg'oq va boshqa suv tashlamalardan foydalaniładi. Inshootga kelayotgan muz yo'li (o'zan va kanal) to'g'ri uchastikali, orolchalarsiz bo'lishi, muz harakat qılıshiga to'sqinlik qiladigan ko'priq va har xil inshootlar bo'lmasisligi lozim. Muz daryo o'zaniga to'g'ri yoki o'zan bukilishida botiq qirg'oq oldida joylash-

gan oraliqlar orqali tashlanadi, chunki bunda oqim tezligi yuqori bo'lib shu tomonga muzni qo'zg'alishiga yordam beradi.

Oraliqlar iloji boricha bir xil o'lchamli tanlanadi, aks holda kam suv o'tkazuvchanlik qobiliyatiga ega oroliq oldida tiqilish vujudga kelishi mumkin. Be-flarni tutashtirishning yuza rejimi muzni o'tkazishga qulay hisoblanadi, bu holat o'zan, energiya so'ndirgichlar qoplamlarini buzulishiga va oxirgi uchastkalar qoplamlarini shikastlanishiga olib kelmaydi. Muz o'tkaziladigan davrda oraliqlar zatvorlarini manyovrlash mumkin emas. Aks holda zatvorlarni avariylarini oldini olish (muz yuklamasini hisobga olib zatvorlarni kuchaytirish, oraliqlarga kelayotgan muz tezligi va kattaligi o'lchamlarini kamaytirish) choralarini ko'rish kerak bo'ladi.

Muz o'tkaziladigan zonada joylashgan inshootlar, odatda, muz to'planishi va tiqilishini oldini olish maqsadida suv sathidan 3...5 m baland qilinadi. Gidrouzel ishlatilayotgan davrda iloji boricha muzni suv omborida ushlashga harakat qilinadi, chunki bunday holatda issiq havo kelishi bilan muz parchalari erib maydalanadi.

Gidrouzel qurilayotgan davrda muz siqilgan o'zan orqali o'tkazilishi mumkin. O'zanning kengligi daryoning odatiy kengligini 30% i miqdorida qabul qilinadi. Muz o'tkazish uchun oqim chuqurligi 5...6 m bo'lishi lozim. Qurilishi oxirigi yotkazil-magan inshootlarni o'rab turuvechi suv to'sgich (peremyschka) balandligi yuqorida joylashgan uchastkalardagi tiqilish ta'sirida boshqa suv to'sgichlarni yorib o'tishi

natijasida suv sathini oshishi hisobga olinib qabul qilinadi. Suv to'sgichini oqim bo'yicha yuqori boshchasini mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi. YUqori suv to'sgich muz tushishidan hosil bo'ladigan dinamik va statik ta'sirlarni ko'tara oladigan bo'lishi lozim, uning balandligi murakkab muz sharoitiga ega daryolarda 10...15 m. ga etishi mumkin. Daryo tomonidan muz yuradigan zonada joylashgan rejali suv to'sgichlar ustiga tog' jinsi to'shalib kengligi kamida 10 m qilib himoyalanadi. Murakkab muz sharoitida daryolarda himoya toshini kattaligi 0,3...1 m. qabul qilinadi.

Muzni ochiq oraliqlar yoki beton to'g'on o'rkachi orqali o'tkazish ayrim oraliqlarning kengligi, muz tashlanadigan frontning umumiy kengligi, ustunlar boshchalarining shakllari, yuqori bef tomonidagi ajratish ustunlarining maksimal chiqib turishi, suv chuqurligi, inshoot elementlarini muzchalar bilan buzulishini oldini olish uchun qo'llaniqgan himoya vositalariga bog'liq. Kirishdagi erkin sath nishobligi 0,007 dan yuqori bo'lganda oqim bo'ylab o'lchamlari 50 m va undan ko'p muzlar, ayrim polosa shaklida maydalanadi, ularning o'lchamlari quyidagi bog'lanish bilan aniqlangan qiymatdan ko'p bo'lgmasligi lozim;

$$a_z = 44\sqrt{t_i R_d} \quad (8.2)$$

Bu erda: t_i - muz qalinligi. m;

R_d - muzni egilishga, taxminan 0,45 MPa ga teng bo'lgan, vaqtinchalik qarshiligi.

Muzni tashlash uchun foydalilaniladigan ochiq oraliqning kengligi v_0 bu holatda $0,75 a_z$ dan kichik bo'lmasligi kerak. Bunda oraliqlar oraliqlarga kelish tezligi $V_t = 2,5...6$ m/s va o'rtacha kattaligi ($1...1,5$) a_z bo'lgan muzlarni o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sathlarda farq va suv sathini tushish egri chizig'i mavjud bo'lmaganda

$$V_t = 1,5...2,5 \text{ m/s bo'lsa} \quad v_o \geq (1,1...1,2) a_z$$

$$V_t = 0,7...1,5 \text{ m/s bo'lsa} \quad v_o \geq 1,5 a_z$$

$$V_t = 0,3...0,7 \text{ m/s bo'lsa} \quad v_o \geq (1,9...20) a_z \text{ bo'ladi.}$$

Suv oqimining tezligi $0,3...0,35$ m/s dan kam bo'lganda muz tashlanmaydi, balki suv omborida ushlab qolinadi, u erda muz erib ketadi. Agar oraliqlar yuqorida keltirilgan sharoitga to'g'ri kelmaydigan bo'lsa muz parchalanadi.

Suv o'tkazuvchi oraliqning kengligiga teng yoki uning qiymatini 0,6 kengligidan katta ustunchalari bor oraliqlar orqali muzni o'tkazish tavsiya qilinmaydi, chunki bu holda ustunchalar oldida tiqilish hosil bo'lishi mumkin. Suv tashlovchi oraliqlar orqali muzni o'tkazish oraliqlar ustunchalari yuqori bef tomonga $1,5 N$ (bu erda N – o'rkachi ustidagi napor) dan ko'p chiqmagan bo'lsa, yaxshi bo'ladi. Past ostanali muz tashlovchi oraliqlarda oqim tashlash uchun ko'proq kengligi $10...12$ m dan ko'p bo'lgan oraliqlardan foydalilanadi.

Tub chuqurlik oraliqlari mavjud inshootlar orqali muzni o'tkazishda muzni chegaraviy cho'kishi N_k , suzib tepaga chiqmaslik va inshoot oldida turib qolish shartidan kelib chiqib hisoblab topiladi. Kirishida vixrli daganak (voronka) hosil qilmasdan ishlaydigan, balandligi $5...15$ m bo'lgan past naporli beton to'g'onlar uchun taxminiy bog'lanishlardan foydalilanadi:

yakka oraliqlar uchun

$$H_i \geq 3,8\sqrt{h_b} \quad (8.3)$$

juftalashgan oraliqlar uchun

$$H_i \geq 5,0\sqrt{h_b} \quad (8.4.)$$

bu erda h_b – tub oroliqning balandligi.

Oraliqlar oldida jadal vixrli daganaklar hosil bo'lganda oroliqni cho'kish darajasi taxminan 1,5 martaga ko'paytiriladi. Murakkab muz sharoitiga ega daryolarda muz o'tkazilayotgan tub oraliqlarni cho'kishi oraliqning o'zini balandligidan oshib ketmasligi kerak. Beton to'g'on mustahkamligi sharti bo'yicha muz o'tkazish uchun foydalilanayotgan tub oraliqlarning kengligi balandligi 70 m. dan ko'p to'g'onlar uchun

harorat- cho'kish choklari orasidagi masofaning 50% dan ko'p bo'lmasligi kerak, balandligi 70 m. gacha bo'lgan to'g'onlar uchun esa – 60%. Muz mustahkamligini pasaytirish uchun daryo ochilishi boshlangandan boshlab 5...7 kun muz pastki befda ushlab turilishi lozim. Buning uchun zapon qilinadi yoki akkumulyasiya hajmidan foydalaniлади

Daryoni suv tashlama oldidagi 15 V uzunlikdagi uchastkasida muz siljishini ta'min qiladigan oqim tezligini (m/s) qirg'oqlarining to'g'ri chiziqli shakli uchun quyidagi taxminiy bog'lanish orqali aniqlandi

$$V_m \geq 4,25 \sqrt{\frac{t_i R_d}{B}} \quad (8.5)$$

bu erda t_i - muz qalinligi;

R_d - muzning egilishga vaqtinchalik qarshiligi,

$u \approx 0,45 \text{ MPa}$,

V – o'zan kengligi, m.

Gidrouzel oldida burilish mavjud bo'lsa o'rtacha chegaraviy V_m tezlik taxminan 30% ga oshiriladi.

Muz, mayda muz to'plami, qo'qimni suv omborida ushlab qolish uchun gidrouzellarda suzuvchi zaponlardan foydalaniлади. Zapon ostidan muzni suzib chiqishidagi oqimning kritik tezligi V_{cr} ni quyidagi bog'lanish orqali aniqlash tavsiya qilinadi:

$$V_{cr} = \sqrt{0,035 \cdot q \ell_i} \quad (8.6)$$

bu erda q - erkin tushish tezlanishi;

ℓ_i - muzcha uzunligi.

Mayda muz to'plami yoki suzib yuruvchi ($o't$, buta, yog'och va sh.o.) qo'qimni tashlash uchun xizmat qiladigan zaponlar bir oxiri bilan qirg'oqqa, ikkinchisi bilan pastki befga qo'qimni tashlaydigan qurilma (soyabon (kozlyrek), klapan, tushiriladigan zatvor) bilan ta'minlangan oroliq ustuniga mahkamlanib inshootga burchak ostida joylashtiriladi. Ular tezlik pasaygan joylarga o'rnatiladi. Oqim tezligi $0,25 \dots 0,3 \text{ m/s}$ dan ko'p bo'lganda zaponlar soyabon bilan ta'minlanadi. Agar zapon yordamida ushlab qolning suzuvchi predmetlar maxsus oroliq yoki qo'qim o'tkazgich yordamida tashlanmasa, ular davriy ravishda bagra yoki boshqa moslamalar bilan olib tashlanadi. Oraliqlar oldida vixrli daganak hosil bo'lsa va u suvni pastki befga o'tkazadigan bo'lsa, mayda qo'qim daganakka tushirilib gidravlik usulda chiqarib tashlanadi. Agar pastki befga suv tashlash chegaralangan bo'lsa. bu

holatda qo'qim yig'ilishiga qarab vaqtı-vaqtı bilan oraliq ochiladi va qo'qim davriy ravishda tushirib yuboriladi. Suzuvchi yirik jismlar (yog'och, to'nka, va sh.o.) oraliqlarga tiqilishi yoki inshoot elementlariga mexanik zarar keltirishi mumkin. Ularni olib tashlash yoki zatvor to'la ochiq bo'lganda oraliq orqali o'tkazib yuborish yaxshi bo'ladi, bu ish zatvorlarni manyovrlash sxemasiga bog'liq holda o'tkazilsa yaxshi natija beradi. Suvni iqtisod qilish maqsadida qo'qim, odatda, yuza oqimiga ega oraliqlardan tashlanadi. Suv dimlovchi inshootlar kaskadi mavjud bo'lganda qo'qim va boshqa suzuvchi jismlar mexanik vositalar yordamida tutib olib tashlanadi.

8.3. Pastki befdag'i yuvilishlarni kuzatish

Suv o'tkazuvchi inshootlarni ishlatish davri davomida ularning pastki beflari yiliga kamida 1 marta va toshqindan so'ng tekshirib chiqilishi shart. Bunda albatta mahalliy yuvilish daganagi relefni o'chanadi. Kuzatishlar suzuvchi vositalar ustidan turib yoki suv osti – texnik tekshiruvi yo'li bilan o'tkaziladi.


Suzish vositalari ustidan yuvilish daganagidagi suvning chuqurligi har 5...10 m. da joylashgan ayrim stvorlar bo'ylab o'chanadi. Har bir stvorda o'chashlar har 10 m. da va eng xarakterli nuqtalarda olib boriladi. Bu maqsad uchun reyka, shest, lot, lebedkasi bilan gidrotermik yuk, profilograflar, magnitonstriksion yoki pezolektrik tebrantiruvchi – nurlantiruvchisi bilan ultratovushli exolotlardan foydalaniladi. Exolotlar suvli muhitga ultratovushli impulslarini berish va tubdan urilib qaytgan impuls (exo)larni qabul qilishga asoslangan. Exolot 0,2...20 m. li chuqurliklarda qo'llaniladi. O'chovlar o'zi yozgich (samopis) lentasiga yoki boshqa ro'yxatga oluvchi asbobga yoziladi. LPR-48 turidagi lot 100 m. gacha chuqurlikdagi hovuzlarda o'chashlarni olib borish uchun xizmat qiladi. O'chash texnikasi va uskunalarining turlari va ularni qo'llash usullari shu sohaga taalluqli maxsus adabiyotlarda berilgan. CHuqurliklar o'changandan so'ng absolyut belgi aniqlanadi va yuvilish daganagi gorizontallari quriladi, ular bo'yicha pastki befning holati to'g'risida xulosa qilinadi. O'zanni mustahkamlovchi elementlar bilan tutashgan joylariga alohida ahamiyat beriladi, chunki bu joylarda mahalliy yuvilish chuqurchalari, beton plitalar ostini yuvilishi, toshli yoki boshqa egiluvchan mustahkamlovchilarda deformatsiyalar va sh.o. nuqsonlar uchraydi.

Mahalliy yuvilishlarning gorizontallar orqali ifodalangan tasvirini oldingi yillarda olingen o'zan deformatsiyasini sharoiti bilan solishtirib yuvilish chuqurchasining holati aniqlanadi: yuvilish jarayonini rivojlanishi, kamayishi yoki teskarisi o'zanni yuvilishi. Bundan tashqari olingen yuvilish daganagi modelda olingen yoki mavjud bog'lanishlar asosida qurilganlari bilan solishtirib baholanadi. Bunday

ma'lumotlar pastki bef holatini to'g'ri baholashga va inshootni xavfli yuvilishdan va mustahkamlovchilarini buzulishidan saqlash (o'zanni mustahkamlash, zatvorlarni manyovrlash va sh.o'.) bo'yicha ekspluatatsion tadbirlarni to'g'ri belgilashga xizmat qiladi.

Suv osti-texnik tekshiruvi suv ostiga tushuvchilar tomonidan quyidagi uch usuldan biri bo'yicha o'tkaziladi: chiziqli, siniq chiziqli tarzida yoki radial. CHiziqli usulda tekshirish zonasasi veva yoki buyka (belgi) qo'yib o'raladi va 3...10 m kenglikdagi tasma (polosa)ga bo'linadi, ular tubga yotqizilgan arqon (tross) bilan belgilanadi. Tubning mustahkamlovchi yoki gruntli o'zanning holatini ko'rgan suv ostiga tushuvchi telefon orqali ma'lumotni tepaga beradi yoki ostida rasmga tushiradi. Siniq chiziqli tarzidagi usul chiziqli usulning bir turi bo'lib, katta maydonlarni tekshirishda qo'llaniladi. Radial usul unchalik katta bo'lmagan uchastkalarda qo'llaniladi. Bu maqsad uchun suv ostiga tushuvchi belgilangan nuqtaga suzuvchi vosita ustida belgilab yuk (ballast) tushiradi. YUKKA tekshirish radiusi masofasida belgi qo'yilgan arqonni bog'laydi va doira bo'yicha ko'rildigan uchastkani tekshirib chiqadi. Tekshirish radiusi 10..20 m. ni tashkil qiladi.

Kam chuqurlik va tiniq suvda tekshirishni suv yuzasidan oyna tubli quti yordamida olib borish mumkin. SHu maqsadda suv yuzida quti oynasi bilan pastga qaratib qo'yiladi (8.2 – rasm) va tekshiriladigan yuza kuzatiladi. Ba'zan diametri 50...100 mm. li, pastki qismi germetik illyuminator bilan ta'minlangan ko'rish quvuri qo'llaniladi. Quvurning uzunligi 1,5 m. gacha bo'lishi mumkin. Uning uzunligi katta bo'lsa ishslash noqulay bo'ladi, chunki illyuminatorning uncha katta bo'lmagan diametri kuzatish zonasini chegaralab qo'yadi. SHuningdek optik qurilmaga ega maxsus ko'rish quvurlari, periskop va boshqalardan ham foydalilaniladi.




8.2. – rasm. Oyna tubli quti yordamida suv osti yuzasini ko'rib chiqish: 1 – yog'och quti; 2 – bitum; 3 – oyna.
O'lchamlari mm. da.

Suv tashlovchi inshootlarni ishlatish davrida davriy ravishda, ishlatishning dastlabki yillarida yiliga 1...2 marta, undan keyin 2...3 yilga 1 marta tekshirish

o'tkaziladi. Bunda pastki befning amaldagi suv sathi jami o'tkaziladigan suv sarfini hisobga olib loyihaviy suv sathi bilan solishtiladi. Hisobiy suv sathlarini loyihaga nisbatan 1.0...2 m va ko'pga pasaygan holatlari mavjud (Karmana, Yakkabog' gidrouzellari). Buning asosiy sababi – yuqori befdan oqizindilar tushishini kamayganligi va yuvilish hosil bo'lganligidir.

Pastki befdagi suv sathini umumiy pasayishi gidravlik sakrashni qo'milish darajasini pasaytiradi va uni risbarma yoki mustahkamlovchi oxiri tomon qochiradi, bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi, chunki bunda pastki bef qurilmalari buzuladi, avariya holati vujudga keladi va ta'mirlash zaruriyati paydo bo'ladi. Ma'suliyatli (1...III klass kapitalligiga ega) inshootlar pastki befdi, mahalliy yuvilish zonasida, ba'zan maxsus shurflarda yuvilish almashtiruvchisi (pereobrazovatel) o'rnatiladi (8.3 – rasm), yuvilish to'g'risida o'z vaqtida ma'lumot olish uchun ular beton mastahkamlovchi oxiriga o'rnatiladi.



8.3.- rasm. Dastlabki yuvilish almashtiruvchilarini joylashtirish sxemasi:

1 – yuvilishga qarshiligi bo'yicha tanlangan to'ldiruvchi bilan shurf; 2 – almashtiruvchi; 3 – elektr kabeli; 4 – bitum quyilgan kabel novi.

8.4. Oqimi katta tezikka ega gidrotexnika inshootlarini texnik holatini kuzatish

YUqori tezlikka ega suv tashlamalarni bevosita kuzatish bilan bir qator ilmiy tekshirish institutlari shug'ullanib kelmoqda. Ular qatorida Gidroproektning ilmiy tekshirish sektori (NIS), VNIIG va boshqa institutlar bor. Ular tajribasi bevosita kuzatishlarni kompleks ravishda olib borib oqim bilan o'zaro bir biriga ta'siri to'liq o'rganilishi, inshootlar gidravlikasi, gidrodinamikasi, kavitsiyasi, tebranishi va boshqa jarayonlarga alohida ahamiyat berilishi lozimligini ko'rsatmoqda. Bunday suv tashlamalarda kuzatishlar ularni ishlatishni to'liq davri ichida ko'p maqsadli asbob va apparatlar yordamida olib borilishi kerak. Kuzatishlar gidrotexnika inshootlari ishonchiliginini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish bilan

tugallanishi lozim. Kompleks, uzoq muddatli kuzatishlar barcha yuqori tezlakka ega oqimi bor yuqori naporli inshootlar va naponi 15...25 m bo'lgan yirik gidrotemnika inshootlarida o'tkazilishi kerak. Misol uchun Hisorok suv ombori suv chiqazgich inshooti zatvorlarida (27.09.2000 y), Qizilsuv suv ombori ekspluatatsion suv chiqazgichi metall suv o'tkazgichlarida (22.06.2003 y) tebranishlar kuzatilgan, ma'lumot uchun, ular to'g'onlarining balandligi mos ravishda 138,5 va 46,6 m.

Hozirgi vaqtida Gidroproyekt NISi va boshqa ilmiy-tekshirish tashkilotlarida apparatlardan kelayotgan ma'lumotlarini ro'yxati oluvchi va ma'lumotlarga qayta ishlov beruvchi kompleks almashtirgichlar ishlab chiqilgan, ular 50 m/s gacha tezlikka ega oqimli inshootlaridagi kavitsiya, dinamik yuklamalar, aeratsiya, tebranishlar ustidan kuzatishlar olib borish imkoniyatini beradi.

Suv tashlamalar elementlariga tushayotgan gidrodinamik bosimini aniqlash uchun nuqtadagi o'rtacha bosim va pulsatsiya almashtirgich (datchik)laridan foydalaniadi. Ko'p holatlarda nuqtadagi pulsatsion yuklamani emas, balki plita bo'yicha uning integral (yig'mi) qiymatini aniqlashga to'g'ri keladi. Bu holda bir necha (10...20) almashtirgichlar bir biridan o'zaro korrelyasiya radiusidan katta bo'Imagan masofada o'rnatiladi, bu masofa muayyan sharoit uchun nazariy yoki eksperimental aniqlanadi. Almashtirgichlarni mexanik (suzuvchi jismlar, toshlar, qurilish qo'qimi va boshqa sh.o'.) shikastlanishini e'tiborga olib, ular o'rnatilishida qaytariladigan (har bir joyda ikki asbob yig'iladigan) va olib qo'yiladigan qilinadi. Gidrodinamik bosim o'rganilayotganda, qoidasi, o'sha nuqtalardan pezometrik napor ham o'lchanadi.

Kavitsiya sharoitni aniqlash uchun suv tashlovchi inshootlarga kavitsatsion erroziya, gidrodinamik bosim, tezlikning pulsatsion va o'rtacha tashkil etuvchisi, ultratovush bilan o'rganish almashtirgichlari o'rnatiladi. Mahalliy va umumi kavitsiya o'choqlariga ajratiladi. So'ndirgichlar, suv oqimini parchalagichlar, suv urilma devorlar, zatvorlar izlari (pazlari) va sh.o'. larda mahalliy uchastkalar kuzatiladi. Umumi kavitsiya zonalari, misol uchun, suv tashlamalar kirish qismi (ogolovksi), vodoslivlar va sh.o'. larda bo'lishi mumkin. Oxirgi holatda o'lchov apparati bilan bir nuqta emas, balki o'zaro perpendikulyar yo'naliishlarda bir necha stvorlar tanlandi. Tadqiqot qilinayotgan sirtning kavitsatsion turg'unligini tahlil qilayotganda bevosita inshootni o'zida suv o'tkazuvchi sirtning amaldagi mavjud notekisligi marksheyder yoki stereofotogrammetrik s'emka qilinib o'lchab olinadi.

Bu sirt notekisligining (standart, taqsimlanish funksiyasi va sh.o'.) g'adir - budurligi, notekis burtiklarini qiyshayish burchagi, yo'naliishi va sh.o'. xarakterlaydigan statik baholashni hisoblash imkoniyatini beradi. Bunda kavitsatsion holatni umumi baholash to'g'ri bo'ladi. Bunday yo'l bilan olingan ma'lumotlar sirtning ay-

rim nuqtalaridagi mahalliy kavittsion mustahkamlikni aniqlash imkoniyatini ham beradi.

Elastik to‘lqinlar tarqalish tezligini belgilash uchun gidrotexnika inshootlari asoslariga bir qator seksiyalarda (3...5) tebranish almashtirgichlari montaj qilinadi, ular har bir seksiyani o‘rtaligiga joylashtiriladi. SHuning bilan birga suv tashlagich elementlariga oqimning ta’sirini to‘liq xarakterlash uchun suv sirti (yuzasi) holatini, tezliklarini planda va chuqurlik bo‘yicha qiymati va yo‘nalishlarini davriy ravishda kuzatib borish hamda ularni nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Buning uchun gidrometrik asboblar (vertushka, flyuger va sh.o‘.) yoki stereofotogrammetriyadan foydalaniladi.

Nisbatan yuqori tezlikga ega oqimli suv o‘tkazuvchi gidrotexnika inshootlarida tavsija qilinadigan bevosita tadqiq qilishning namunaviy ro‘yxati 8.1. jadvalda berildi.

Suv o‘tkazuvchi gidrotexnika inshootlarini tavsija qilinadigan bevosita tadqiq qilish ruyxati

8.1 - jadval

Ob’ekt	Bevosita tadqiq qilish		
	ishlab chiqarish	maxsus	ishga tushirish
Vodosliv to‘g‘on o‘rkachi,zatvorlari vodosliv qirrasi pastki bef bilan tutash uchastkasi ustunlari	11	1, 2, 3, 4, 5, 11	1, 2, 11
	11	1, 2, 3, 10, 11	2, 11
	3, 11	1, 2, 3, 4, 5, 10, 11	1, 2, 4, 11
	3, 11	1, 2, 3, 4, 5, 10, 11	1, 2, 4, 5, 11
Tunnelli suv tashlagich (vodovod) kirish qismi (ogolovkasi) zatvorlar uzeli qoplamlalari burilish va diffuzorli uchastkasi oxirgi uchastkasi	3	1, 2, 3, 4	1, 2
	3, 4, 11	1, 2, 3, 4, 5, 11	1, 3, 4, 11
	3, 6, 11	1, 2, 3, 4, 5, 6, 11	1, 2, 5, 6
	3, 6, 11	1, 2, 3, 4, 6, 10, 11	1, 2, 6
	3, 4, 11	1, 2, 3, 4, 6, 10, 11	1, 2
SHaxtali suv tashlama suv qabul qilgichi vertikal o‘zagi (stvoli) burilish uchastkasi suv olib ketuvchi uchastkasi	11	1, 3, 4, 11	1, 4, 11
	3, 11	1, 2, 3, 10, 11	1, 2, 11
	3, 11	1, 2, 3, 10, 11	1, 2, 11
	3, 11	1, 2, 3, 4, 10, 11	1, 2, 11
Tezoqar suv qabul qigichi	11	1, 2, 3, 4, 11	1, 4, 11

shovva (vodoskat)si oxirgi uchastkasi	3, 11	1, 2, 3, 10, 11	1, 2, 4, 11
	3, 4, 11	1, 2, 3, 4, 5, 10, 11	1, 2, 4, 5, 11
Pastki bef suv urilma oqim energiyasini so'ngdirgich risberma mustahkamlanmagan o'zani qirg'oqlari			
	2, 3, 4, 8, 11	1, 2, 3, 4, 5, 8, 10, 11	1, 2, 4, 5, 8, 11
	2, 3, 11	1, 2, 3, 4, 5, 10, 11	1, 2, 11
	3, 7, 8, 11	7, 8, 9, 11	7, 8, 11
	7, 11	7, 9, 11	7, 11

Eslatma: sonlarni belgilanishi: 1 – gidrodinamik bosim (o'rtacha va pulsatsion tashkil etuvchilar); 2 – kavitsiya; 3 – erroziya; 4 – tebranish; 5 – dinamik deformatsiya va zo'riqishlar; 6 – qoplamanı suv tashigich devori bilan kontakti; 7 – pastki bef tubi va qirg'oqlarini yuvilishi; 8 – inshoot ostini yuvilishi; 9 – oqimni planda eyilishi, planda oqim chuqurligi bo'ylab tezliklari; 10 – oqim aeratsiyasi; 11 – gidravlik rejimini, oqim o'tayotgan sirt,zatvorlar, panjaralar holatini ko'z bilan kuzatish.

8.5. Zatvorlarni manyovrash

Ekspluatatsiya sharoitlarida iloji boricha butun front bo'ylab suv sarfini tekis taqsimlab tashlashga harakat qilinadi. Oqimning gidravlik va gidrodinamik xarakteristikalari, shuningdek yuvish qobiliyati suv tashlanayotganda hisobiy qiymatlardan oshib ketmasligi kerak. Kichik suv sarfi oraliqlar orqali o'tkazilganda ham yo'l quyib bo'lmaydigan, yuqori gidrodinamik yuklamalar bilan qiyshiq oqim (sboynoe techenie) va sezilar yuvish qobiliyati vujudga kelishi mumkin. Risberma zonasida va oxirgi mustahkamlovchilar joylashgan joyda umuman qiyshiq uruluvchi oqim, hattoki tezlikni va solishtirma sarfni sezilarli notejis taqsimlanishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Amalda suv sarfi ajratish ustunlari bo'lмаган vodoslivlar orqali suv oqarda oqganda suv tekis taqsimlanadi. Oraliqlararo ustunlari bo'lган (ustunlar qalinligi odatda oraliqning 0,2...0,5 kengligini va ulardan ko'pni tashkil qiladi) suv tashlamalarda bir xil ochilgan oraliqlarda solishtirma sarfni notejis taqsimlanish koeffitsienti $K_n = 1,2 \dots 1,5$ tashkil qiladi, bu erda K_n - maksimal solishtirish sarfni o'rtachasiga nisbati. Oraliqlar notejis ochilganda bu koeffitsient sezilarli oshadi, u haqida quyida bayon qilinadi.

Suv tashlovchi to'g'onlar zatvorlarini manyovrash tartibi qator omillarga: pastki befga tashlanayotgan suv sarfiga; zatvorlar konstruksiyasiga; suv tashlovchi to'g'onga tutash gidrotexnika inshootining ishlashini o'ziga xosligiga; oraliqlar orqali sunvi o'tkazish yo'li bilan hal qilindigan masalalarga; to'g'on va uning pastki befin-

ing konstruktiv xususiyatlariga; pastki bef mustahkamlovchilarining holatiga; suvni olib ketadigan o‘zanning konfiguratsiyasiga va sh.o’.larga bog‘liq. Quyida ushbu omillarga bog‘liq holda zatvorlarni manyovrlashni o‘ziga xosligi ko‘rib chiqiladi.

Pastki befga unchalik katta bo‘lмаган suv sarfi tashlanayotganda bir yoki bir necha oraliq ochiladi. Birinchi navbatda o‘rtadagi oraliqlar ochilsa maqsadga muvofig bo‘ladi. Ammo bunday rejim boshqa oraliqlarni ham ochishni taqozo qilishi mumkin, albatta bunga zatvorlari manyovrlashni yo‘l qo‘yiladigan sxemasi mos kelsa ularni ochish mumkin bo‘ladi. Nisbatan katta sarflarni tashlashda, suv tushirish fronti kengligi bo‘ylab oraliqlar tekis bo‘lingan bo‘lsa, ko‘p sonli oraliqlar ochiladi.

Zatvorlar konstruksiyasi ularning ish rejimini belgilaydi. Klapan bilan jihozlangan zatvorlar orqali unchalik katta bo‘lмаган suv sarfi klapanni tushirish yo‘li bilan o‘tkaziladi. Buning ustiga agar klapan ishlaganda qo‘qim, suzuvchi jismlar ham o‘tkaziladigan bo‘lsa klapan tushiriladi. Tushirilgan zatvorlar orqali sarf faqat tepasidan o‘tkaziladi va sh.o’.

Zatvorlarni manyovrlash sxemasi suv tashlovchi to‘g‘onga kelib qo‘shiladigan inshootning ishlashini gidravlik sharoitiga bog‘liq. Suv oluvchi inshootlar oldida joylashgan oraliqlarni, daryoda ko‘p oqizindi mavjud bo‘lsa, yopiq holda ushslashga harakat qilinadi. Bunday holat shunday qilinadiki bunda suv oluvchi inshootga kirishdagi oqim tezligi nisbatan uncha katta bo‘lmasin va tub osti sohasida harakat qilayotgan oqizindini loyqalanishi (vzmuchivanie) ni keltirib chiqarmasin. Suv oluvchi inshoot oldida cho‘kib qolgan oqizindilarni yuvishda, teskarisi, suv oluvchi inshootga (qo‘shilgan) yondashgan oraliqlar ochiladi. Baliqlarni o‘tkazuvchi inshootlarda oraliqlar shunday ochiladiki, baliqlar harakatlanadigan, inshootga kiraverishda baliqlarni jalb qiladigan tezlikka ega shleyf ta’milansin. SHuning bilan birga kemalar yo‘li zonasida, nisbatan katta ko‘ndalang tashkil etuvchisiga (odatda 0,25 m/s. dan ko‘p bo‘lмаган) ega oqim tezligi hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligiga ahamiyat beriladi. Suv tashlovchi to‘g‘on va GESni ajratib turuvchi devorga tutash oraliqlar GES ish rejimi hisobga olinib ochiladi, bunda GES va suv tashlovchi to‘g‘on pastki befida har xil tezliklar natijasida oqim qiyshayishi hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.



8.4 - rasm. Ta'mirlashdan so'ng g'adir-budurli perepad pastki befida qolib ketgan beton bo'lagi (1) va uning ta'sirida qiyshaygan oqim hosil bo'lishi jarayoni, hamda qiyshagan oqim urilib ochilib qolgan risberma uchastkasi (2) va suv olib ketuvchi kanalni yuvilgan uchastkasi (3) (10.01.2007 y.).

Pastki bef va vodoslivning konstruktiv xususiyatlari ham zatvorlarni manyovrash sxemasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Agar pastki bef qurilmasi oraliqlarni bir tekis ochish sharti bilan ishlab chiqilgan (loyihalangan) bo'lsa, unda oraliqlarni birdan notejis taqsimlangan sarf bilan ochib (ochishga yo'l qo'yib) bo'lmaydi. Ajratish ustunning kengligi oraliqlar kengligi bilan o'Ichovdosh bo'lsa zatvorlarni manyovrash sxemasi va ularni ochish darajasiga o'ta ma'suliyat bilan yondoshish talab qilinadi.

Zatvorlarni manyovrash sxemasiga pastki befda qurilish paytidan yoki ta'mirlashdan so'ng qolgan yirik o'lchamli narsa (predmet)lar, olib tashlanmagan suv to'sqichlar va sh.o'. lar ta'sir qiladi. Misol uchun Toshkent viloyati o'ng tarmoq kanali 122 - piketidagi g'adir- budurli perepad pastki befida ta'mirlashdan so'ng qolib ketgan betonning katta bo'lagi (1) (beton bo'lagi ta'sirida oqim kam suvli bo'lsa ham urilib o'ng tomonga burilishi 8.4-rasmda ko'rinish turibdi) suv sarfi katta bo'lganda oqimni avval pastki bejni so'ngdirgichiga tutash risbermaga (2) (risberma tosh terilib ustiga beton yotqizilgan) qiyshayib urilishiga, so'ng esa urib qaytarilib kanalni risbermaga tutash chap tomonini (3) ichiga 8...10 m. ga yuvib ketishiga olib kelgan.

Boshqa suv oqarlar bilan tutash suv olib ketuvchi o‘zanning birdan qiyshayishi xam oqimini qiyshayishiga olib kelishi mumkin. Bu mustahkamlovchiga yuqori gidravlik yuklama tushishiga, buzulishiga va yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan darajada yuvilishiga olib kelishi mumkin.

Oshib borayotgan toshqin (pavodok) sharoitida to‘g‘on fronti bo‘ylab suvni teng tushishini ta’minalash uchun zatvorlar ketma-ket, tekis, bosqichma-bosqich, to‘g‘onni o‘rtalariidan boshlab qirg‘oq tomon ochilib borilishi zarur. Bunda zatvorlarni ochishni yangi bosqichi barcha zatvorlar ochilishini avvalgi bosqichiga etgandan so‘ng ochiladi. Boshqa inshootlar o‘ziga xosligi bilan belgilangan, pastki bef konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqib yuqorida tilga olingan sharoitlarda ishlaydigan zatvorlarni ochish bundan mustasno. Zatvorni har bir pog‘onaga ko‘tarish balandligi muayyan sharoitidan kelib chiqib tayinlanadi. Uni suv tashlovchi yirik to‘g‘onlar uchun 0,5...1 m. gacha, kichikroq inshootlar uchun esa 0,2...0,5 m. qabul qilinadi. Toshqin tushayotgan paytida zatvorlar teskari tartibda yopiladi. Katta miqdordagi suzuvchi jinslar va muzlarni tashlash sharoitida, to‘g‘onni oraliqlarini to‘la ochish lozim bo‘lganda, zatvorlarni manyovrlashning qabul qilingan rejimidan chetga chiqiladi.

Zatvorlarni ko‘tarish darajasi asosan ikki shart bilan belgilanadi. Laboratoriya va bevosita kuzatishlar asosida, zatvorlar qisman (0,25...0,35)h ga ochilganda uning ostidan muz va boshqa suzuvchi narsalarni o‘tib ketishi aniqlangan. Bunda ular oraliqlarga tiqilib qolishi, zatvorlar zichlagichlarini shikastlanirishi mumkin yoki yuqori dinamik yuklamani keltirib chiqarishi mumkin. SHuning uchun muz yurishida zatvorlar (0,2...0,3) h gacha ko‘tariladi, so‘ng esa lozim bo‘lsa oraliqlar to‘liq ochiladi.

Barcha oraliqlar (0,2...0,3) h qiymaytgacha ochilgan sharoitda suv omborida muz erib ulguradi yoki zichlashmagan holatdan bo‘ladi, ya’ni bunda muzning ochiq oraliq orqali o‘tishi xavfi yo‘qoladi, shundan so‘ng oraliq (0,4...0,5) h gacha, ba’zida 0,6 h gacha ko‘tariladi. Katta ochishlar paytida oqimning, davriy ravishda zatvor ostidan oqib chiqishi bilan almashib turadigan vodosliv orqali erkin oqishi, turg‘un bo‘limgan rejimini keltirib chiqaradi. Bunda oqimni yuqori struykalari zatvorni pastki qoplamasiga tegmasdan o‘tadi. Turg‘un bo‘limgan rejim yuqori dinamik yuklama va zatvorlar tebranishi bilan birga kechadi, shuning uchun ham bunday holatga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Oraliqlarni to‘la ochish lozim bo‘lganda ular aralash oraliqlar orqali qisman ochiqlariga almashtiriladi. Solishtirma sarflarni notekis taqsimlanish koeffitsienti bu holda $K_n = q_n / q_{0,4} = 1,5...1,8$ qiymatga etadi (bu erda q_n va $q_{0,4}$ pastki befdagi mos ravishda to‘la ochiq va 0,4 N qiymatga solishtirma sarflar).

Ayrim holatlarda, zatvor qoplaması va uning pastki brusi po'latdan yasalgan yoki zatvor mustahkamligi suzib yuruvchi jismlar zarbasiga tekshirilgan bo'lsa, qisman ko'tarilgan zatvor ostidan suzib yuruvchi jismlarni so'rish bilan o'tkazishga yo'l qo'yildi. Suzib yuruvchi jismlar ko'p bo'lganda, qisqa vaqtida (10...15 min.ga) navbatma-navbat zatvorlarni to'la balandlikka, pastki befda oqim sezilarli notejis bo'lsa ham ko'tarishiga ruxsat beriladi. Lekin bu holatda pastki befdag'i oqim rejimini diqqat bilan kuzatib turish, qiyshaygan oqimni hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim bo'ladi.

Suv tashlovchi to'g'onlar uchun maxsus ko'rsatma ishlab chiqiladi, unda ekspluatatsiya xususiyatlari xarakterlangan hisobiy rejim, asosiy hisobiy va sinov sarfini o'tkazish; vodosliv fronti kengligi bo'ylab solishtirma sarflarni eng katta notejisligini hosil bo'lishi; boshqa teng sharoitda pastki befda eng kam sathlar va boshqalar ko'rib chiqilishi lozim.

QMQ 2.06.01-97 - Gidrotexnika inshootlari loyihalashtirishning asosiy nizomlariga muvofiq barcha suv o'tkazuvchi inshootlar orqali sinov sarfi o'tkazilayotganda gidrouzel tarkibiga kiruvchi boshqa suv o'tkazuvchi inshootni ish rejimidan chetga chiqishga yo'l qo'yildi. Naporli frontning barcha oraliqlaridan sarflarni o'tkazishga ruxsat beriladi. Bunda oqimni qiyshayishi, suv tashlovchi inshootlar pastki beslarida katta yuvilishlar kuzatilishi mumkin, ular asosiy inshootlarni buzulishiga olib kelmaydi.

8.6. Toshqin davri va avariya sharoitidagi ekspluatatsiya tadbirlari

Suv dimlovchi, umuman barcha gidrotexnika inshootlarini ishlatish davrida, bahorgi – yozgi va sel toshqinlarini talofatsiz o'tkazib yuborish muhim bosqich hisoblanadi. Ularни o'tkazishga barcha gidrotexnika inshootlari puxtalik bilan tayyorlanadi. Majburiy tartibda gidrouzellarni inshootlari: kuzda muz hosil bo'lishidan oldin va bahorgi – yozgi toshqindan oldin va ulardan so'ng tekshirilib chiqiladi. Kuzgi tekshirib chiqish (kuzatish) davrida yoriqlar, o'tirishlar, er teshar hayvonlar izlari, yuqori bef mustahkamlovchilarining shikastlanishlarini bartaraf qilishga ahamiyat beriladi. Oqimning ortiqcha energiyasini so'ndiruvchi, qishda ishlamaydigan suv urilma hovuzlar va boshqa energiya so'ndirgichlar ichidagi suv muzlash hosil bo'lguncha chiqazib tashlanishi lozim. Aks holda bu inshootlar ichida qolgan suv qishda muzlab, toshqin paytigacha erimasligi va inshootlar toshqin va sel suvlarini erta bahorda o'tkazishga tayyor bo'lmasligi mumkin.

Toshqin va sel suvlarini o'tkazish uch davrga bo'linadi: bahorgi – yozgi toshqin va sel suvlarini o'tkazishga tayyorgarlik, toshqin va sel suvlarini o'tkazish hamda

toshqin va sel suvlari o'tgandan keyingi davr. Gidrotexnika inshootlarining o'ziga xosligi, iqlim, gidrogeologiya, topografiya va boshqa sharoitlardan kelib chiqib toshqin va sel suvlarini o'tkazish har doim ham bir xil kechmasligi mumkin. Toshqin va sel suvlarini o'tkazishning umumiy holatlari va tomoiyilari har bir davrda amalga oshiriladigan, qo'yida biz ko'rib chiqadigan tadbirlarda mujasamlangan bo'ladi.

Toshqin va sel suvlarini talofatsiz o'tkazib yuborishga tayyorgarlik davri. Bu davr ma'suliyatli bo'lgani uchun Respublikamizda toshqin va sel suvlarini betalofat o'tkazib yuborishga katta ahamiyat beriladi. SHuning uchun ham Respublika Prezidentining «Toshqin, sel, qor ko'chishi va o'prilish jarayonlari bilan bog'liq favqulotda vaziyatlarni oldini olish hamda ular oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha chora – tadbirlar xaqida»gi qarori e'lon qilingan. Mazkur qaror bilan xavfli gidrometeorologik va geologik jarayonlar bilan bog'liq favqulotda vaziyatlarni oldini olish hamda oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha ishlarni tashkil qilish xaqidagi Nizom tasdiqlangan, toshqin va sel oqimlarini xavfsiz o'tkazish, qor ko'chishi va o'prilish jarayonlarini kamaytirishni ta'minlash bo'yicha Hukumat komissiyasi (qisqacha nomi – Hukumatning toshqinga qarshi komissiyasi) tuzilgan hamda ushbu komissiya ishini tashkiliy – texnik jihatdan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Favqulotda vaziyatlar vazirligiga yuklangan. Hukumatning toshqinga qarshi komissiyasi tarkibiga vazirliklar, idoralar, viloyatlar xoqimliklari va boshqa manfaatdor tashkilotlar hamda muassasalarning rahbarlari kiritilgan. Hukumat komissiyasining raisi etib O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri – Respublika fuqarolar muhofazasi boshlig'i tayinlangan. Komissiya Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hoqimliklari, vazirliklar va idoralarning xavfli gidrometeorologik va geologik jarayonlar bilan bog'liq favqulotda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha faoliyatlarini muvofiqlashtirish maqsadida, doimiy asosda tuzilgan, u hal qiladigan asosiy masalalarga quyidagilar kiradi:

- gidrometeorologik va geologik jarayonlar sababli kelib chiqqan favqulotda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf qilish sohasida bir xil davlat siyosatini shakkantirish va olib borish;

- xavfli gidrometeorologik va geologik jarayonlar bilan bog'liq favqulotda vaziyatlardan aholi va hududlarni himoya qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish uchun joylardagi Davlat hoqimiyati va boshqarish organlari, muassasalar va tashkilotlar faoliyatlarini muvofiqlashtirish va o'zarobir galilikda harakat qilishlarini ta'minlash;

- (O'zgidromet va Davlat Geologiya qo'mitasi tegishli xizmatlarining bashorat qilgan ma'lumotlari asosida) xavfli sel-toshqin, qor ko'chishi va o'prilish zonalarida

joylashgan xo‘jaliklarda yashovchilarni (lozim bo‘lsa) vaqtincha evakuatsiya qilish hamda ularni keyinchalik bosqichma-bosqich xavfsiz joylarga ko‘chirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- xavfli gidrometeorologik va geologik jarayonlar bilan bog‘liq yirik favqulotda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf qilish bo‘yicha ishlarga rahbarlik qilish;

- vazirliklar va idoralarning xavfli tabiiy jarayonlar bilan bog‘liq favqulotda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf qilish bo‘yicha ishlarni holatini joylarda tekshirish, shuningdek ko‘rsatilgan masalalar bo‘yicha mansabdar shaxslarni hisobotlarini eshitish.

Hukumatning toshqinga qarshi komissiyasi kamida 2 marta o‘z yig‘ilishlarini o‘tkazadi, qolgan paytlarda sel va toshqin suvlarini xavfsiz o‘tkazib yuborishga tayyorgarlik, o‘tkazib yuborish va oqibatlarini oldini olish masalalarini tezkor hal qilish uchun vazirliklar, idoralar, joylardagi Davlat organlari vakillaridan iborat hukumatning toshqinga qarshi komissiyasini ishchi guruhi tuzilgan.

Hukumatning toshqinga qarshi komissiyasi joriy yil uchun toshqin, sel, qor ko‘chishi va o‘prilish jarayonlari bilan bog‘liq favqulotda vaziyatlarni oldini olish hamda bartaraf qilish bo‘yicha asosiy chora-tadbirlar ishlab chiqmoqda, uni o‘z yig‘ilishida tasdiqlab, amalga oshirmoqda.

Hukumatning toshqinga qarshi komissiyasi qarorlariga muvofiq yuqorida sanab o‘tilgan masalalarni hal qilish uchun viloyatlar va tumanlar hoqimliklarining shtablarini tuzilgan.

Qoraqolpoqiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hoqimiyatlari:

- jalb qilingan vazirliklar, idoralar va tashkilotlar bilan birga toshqindan oldingi davr ichida gidrotexnika inshootlari, ko‘priklar, qirg‘oqlar, daryolar o‘zanlari va soyollar holatini va xavfli uchastkalarini aniqlash uchun tekshiruvdan o‘tkazadi, bahorgi – yo‘zgi toshqin suvlarini xavfsiz o‘tkazish maqsadida kechiktirib bo‘lmaydigan himoya tadbirlari va avariya – qayta tiklash ishlarini bajarilishini ta‘minlaydi;

- daryolar, kanallar va soylarning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini ruxsat berilmagan qurilishlar va rudasiz materiallarni qazib olish, daryo poymalarida boshqa xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish hisobiga pasayishiga yo‘l qo‘ymaydi va qat’ian oldini oladi;

- xavfli zonalar mavjud bo‘lganda tegishli mamuriy-xududiy birliklarda xavfli gidrometeorologik va geologik jarayonlar keltirib chiqargan favqulotda vaziyatlar vujudga kelishiga o‘z vaqtida reaksiya qiladi, shuningdek aholini o‘z vaqtida ogohlantiradi, xavfli xududlardan zdilik bilan ko‘chirish uchun viloyatlar va tumanlar

shtablarini tuzadi. Bu shtablarni kerakli miqdorda transport, yoqilg'i-moylash materialari va aloqa vositalari bilan ta'minlaydi;

- Davlat hoqimiyatining joylardagi organlari balansidagi qirg'oqlarni mustahkamlash va boshqa himoya ishlari, daryo o'zanlari va soylarni tozalash ishlarini asoslangan hisob-kitoblar asosida mahalliy byudjetning zahira fondidan moliyalashtiradi;

va shularga o'xshash boshqa ishlarni amalgga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, «Davsu-vxo'jaliknazorat» inspeksiyalari:

- Favqulotda vaziyatlar, ichki ishlar vazirliklari va «O'zbekenergo» DAK bilan birgalikda o'zanli suv omborlarini holatini tekshish (nazorat)dan o'tkazadi hamda ularni sel va toshqin suvlarini xavfsiz va avariya qildirmaydigan ish rejimlari ustidan nazoratni amalgga oshiradi;

- Sel va toshqin o'tish davrida joylardagi barcha bo'linma rahbarlaridan iborat har kunlik va kun buyi bo'ladigan navbatchilikni ta'minlaydi hamda suv xo'jaligi ob'ektlarini xavfsiz ishlashlari ustidan nazorat o'rnatadi.

Tasarrufida gidrotexnika inshootlari bo'lgan foydalanuvchi tashkilotlarda ham gidrotexnika inshootlarini ishlatish qoidalariga muvofiq Toshqinga qarshi komissiyalar tuziladi. Ular O'zgidrometning bashorat ma'lumotlari, oldingi yillarda toshqin va sel suvlarini o'tkazishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni inobatga olib o'zlarining ish dasturlari (rejalarini) ishlab chiqadilar hamda mansubligiga qarab hududiy shtablardan tasdiqlatib oladilar.

Foydalanuvchi tashkilotlarning toshqinga qarshi komissiyalari o'zlarining tadbirlar rejalariga kirgan quyidagi asosiy tayyorgarlik ishlarni amalgga oshiradi:

- gidrouzel tarkibidagi barcha inshootlar, yuqori va pastki beflar mustahkamllovchilari, suv olib keluvchi va olib ketuvchi o'zanlar (kanallar)ni umumiyo ko'rikdan o'tkazadi, aniqlangan kamchiliklarni dalolatnomalar bilan rasmiylashtirib, bartaraf qiladi;

- vaqtincha ishlamay turgan suv urilma hovuzlar (energiya so'ndirgichlar) holatini ko'rib chiqadi, lozim bo'lsa ulardan muz qatlamlari, kuzda ta'mirlashdan so'ng qolib ketgan narsa (qo'qim)larni chiqartiradi;

- suv omborida (agar bor bo'lsa)gi muz qatlamini (erishini) bashorat qiladi va favqulotda suv tashlash lozim bo'lsa ular tiqilishini oldini olish choralarini ko'radi;

- suv omborini oldindan bo'shatish va lozim bo'lganda uni to'ldirish grafigini ishlab chiqadi;

-toshqinni o'tkazishga halaqt qilishi mumkin bo'lgan barcha ta'mirlash ishlaringning bajarilishini zudlik bilan ta'minlaydi;

- toshqinni o'tkazish paytida ochilishi vaqt talab qiladigan, qo'l kuchi, mexanik yoki avtomatik usulda ishlaydigan zatvorlar va boshqa mexanik qurilmalarning tayyorgarligi sinab, ishlatib ko'rildi, zatvorlar va ularni ko'taruvchi qurilmalarni ishonchli ishlatilishi ta'minlanadi;

- toshqin payti suv ostida qolishi mumkin bo'ladigan hududlardan jihozlar, mashina va mexanizmlar, materiallar, vaqtinchalik inshootlar, barcha mol-mulk olib chiqi-ladi;

- daryo bo'ylab yuqori va pastda joylashgan gidrouzellar va toshqinni o'tkazishga dahildor tashkilotlar rahbarlari bilan toshqin paytida ishlash rejimini kelishib oladi;

- suv o'tkazuvchi traktlar (kanallar, kollektorlar)dan toshqin o'tishiga halaqt qiladigan narsalar olib tashlanadi;

- grunt inshootlarni yuvilishga moyil uchastkalari mustahkamlanadi, yon-bag'ir kanallari, kyuvetlarga tosh tushishini oldini olishga mo'ljallangan inshootlarni holati yaxshilanadi, toshqin ostida qolishi mumkin bo'lgan tasarrufidagi elektr uzatish lini-yalari tayanchlari mustahkamlanadi va boshqa sh.o'. ishlar amalga oshiriladi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan «Suv omborlari, kanallar, gidrouzellar va nasos stansiyalarida materiallar, instrumentlar va jihozlarning avariya zahirasi xaqidagi Nizom»ga muvofiq materiallar (qum, shag'al, tosh, se-ment, yog'och-taxta, qoplar, sim, trosslar, ko'sh mix va mixlar hamda sh.o.'), mehnat qurollari (lom, belkurak, ketmon, arra, bolg'a, ilgak va sh.o.'), maxsus kiyim –bosh, mashina va mexanizmlar, transport vositalari, yoritish uskunalarining avariya za-hiralari tayyorlanadi yoki lozim bo'lsa ular soni va miqdori to'ldiriladi; ularni turgan joylari aniqlanib kerak bo'lganda olib kelish sxemasi ishlab chiqiladi;

- inshootlar hududini yoritish tizimi tekshiriladi, kamchiliklari zudlik bilan bartaraf qilinadi;

- mavjud tezkor aloqa tizimi tekshiriladi, tumanlar va viloyatlar shtablari, vazirliklar, hoqimiyatlarga (aloqa) chiqishi ta'minlanadi;

- mahalliy hoqimiyatlar shtablari bilan favqulotda vaziyatlar, toshqin va sel paytida birgalikda ishlash rejalari kelishib olinadi;

- favqulotda vaziyatlarda mahalliy aholini ogohlantirish tizimi tekshirib ko'rildi;

- gidrotexnika inshootlari, qurilish materialari zahiralari saqlanayotgan omborlar, suv olib keluvchi va olib ketuvchi kanallar dambalariga olib boruvchi yo'llarning texnik holati o'rganib chiqiladi, lozim bo'lsa ularni ta'mirlash choralarini ko'rildi;

- lozim bo'lsa muzni portlatish uchun portlatuvchi va portlovchi moddalarni mavjudligi yoki qaerdan jalg qilinishi aniqlanadi;
- avariya brigadalar, avariya paytida ishlaydigan xizmatchilar kimlardan iborat va ularni avariya holatida ishlashga jalg qilish sxemasi ishlab chiqiladi, lozim bo'lsa o'qitiladi, instruktaj beriladi;
- navbatchilik grafigi tuziladi va bo'yruq bilan rasmiylashtiriladi.

Avariya brigadalarini o'qitishda bo'lishi mumkin bo'ladigan barcha holatlar bo'yicha mashqlar o'tkaziladi, ular texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga o'rgatiladi. Ular tigilishni bartaraf qilish, suv ostida tosh to'kma inshootlar qurish, suvni yorib o'tishini shox-shabba, qumli (shag'alli) qoplar yordamida bartaraf qilish, zaponlar yig'ish va olib tashlash hamda sh.o'. avariya paytida amalga oshiriladigan ishlarga o'rgatiladi. Avariya brigadalari a'zolarining ro'yxati, yig'ilish joyi, navbatchilik grafigi toshqin boshlanishidan 10-15 kun oldin e'lonlar taxtasiga ko'rinarli qilib osib qo'yiladi.

Toshqin va sel suvlarini o'tkazishga tayyorgarlik davri 1 fevraldan boshlanadi va toshqindan ikki hafta oldin yuqorida tilga olingan barcha tayyorgarlik ishlari tutgililadi.

Toshqin va sel suvlarini o'tkazish davri. Bu davrda foydalanuvchi tashkilotning toshqingga qarshi komissiyasini mas'uliyatlari a'zolari va avariya brigadalaridan iborat navbatchilik tashkil qilinadi. Toshqinga qarshi komissiyasining navbatchisi ixtiyoriga kerakli transport vositalari, mashina-mexanizmlar, qurilish materiallari va sh.o'. lar beriladi. Gidrouzel boshlig'i favqulotda vaziyat vujudga kelganda zudlik bilan, boshqa paytlari grafik bo'yicha yuqori tashkilotlarga mavjud holat bo'yicha ma'lumot berib borishi kerak. Bunday ma'lumotlar tuman va viloyat shtablariga, yuqori va pastki gidrouzellarga ham beriladi.

Pastki befga suv tashlash rejimi oldindan ishlab chiqilgan grafik bo'yicha amalga oshirilishi lozim. Zatvorlarni manyovrlashning asosiy shartlaridan biri gidromexanik jihozlarni, suv tashlovchi trakt va pastki bef qurilmalarini avariyaning ishlatalishdir. Zatvorlarni ochish (manyovrlash) grafigini amalga oshirish yuqori bef holati va pastki befdag'i oqim rejimini mutazam kuzatish bilan birga olib borilishi zarur. Bunda oqimni qiyshayishi, solishtirma sarfni notejis taqsimlanishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Pastki befdag'i suv sathini kuzatib borish kerak, u gidravlik sakrashni suv urilma hovuz ichida ko'milishini ta'min etishi kerak. Zatvorlarni manyovrlash nasos stansiyalari, GESlar va boshqa inshootlarni ishi bilan bog'lanadi. Iloji boricha ular optimal rejimda ishlashlari kerak. YUqori befdag'i suv sathi uning eng ko'p (maksimal) qiymatidan oshib ketmasligi kerak. Ustunlar, qirg'oq ustunlari va sh.o'. larda

o'rnatilgan unchalik katta o'lchamga ega bo'lmanan chuqurlik oraliqlarini toshqinni o'tkazishda tub oldi cho'kindilari bilan to'lib qolishdan saqlash maqsadida. yopib qo'yilishi kerak yoki bu inshootlar chiqish qismlarida uyurma soha hosil bo'lishiha yo'l qo'yib bo'lmaydi. Tun payti juda diqqat bilan kuzatishlar olib boriladi. O'z vaqtida barcha aholi punktlari, korxonalar suv sathini favqulotda ko'tarilishi xaqida ogohlantirilishi zarur. Aholiga beriladigan barcha axborotlar maxsus jurnallarga kun. vaqt, tartib raqami, kimga manzillanganligi, axborot nima xaqida ekanligi, axborot beruvchining lavozimi, ismi-sharifi, imzosi qo'yilib yozib qo'yilishi lozim. Xuddi shunday gidrouzelga kelayotgan axborotnomasi va ma'lumotlar ham rasmiylashtiriladi.

Sel toshqinlarini o'tkazishning xususiyati – unga tayyorlanish davrining mavjud emasligidadir. SHuning uchun O'zgidrometning joylardagi xizmatlarining ma'lumotlaridan foydalanishga harakat qilinadi. Gidrouzelga favqulotda bo'ladigan oqibatlarini hisobdan chiqarish uchun iloji boricha toshqin avjga chiqishini kesish mumkin bo'ladigan zahira, akkumulatsiya qiladigan xajm qoldiriladi.

Suvning ochiq yuzasi va havo haroratining birdan pasayishi bilan birga keladigan qor bilan kuchli shamol sharoitida katta miqdorda mayda muz bo'lakchalari va qor to'plami hosil bo'lishi, ular esa panjaralar bilan ta'minlangan (nasos stansiyalari, GEStlar, suv olgich inshootlar va sh.o'. lar suv qabul qilgichlari) oraliqlariga tiqilib qolishi mumkin.

Suvning harorati $+1\dots1,2^{\circ}$ S gacha tushganda va havoning manfiy haroratida mutazam ravishda mayda muz bo'lakchalari to'plami hosil bo'lishi kuzatib boriladi. Bu maqsad uchun aniqligi $0,02^{\circ}$ S dan kam bo'lgan mikrotermometrlardan foydalniladi. Mayda muz bo'lakchalari to'plamini hosil bo'lischening boshlanishini oqimga simli to'r yoki mayda muz bo'lakchalari to'plami signalizatorlari (shugosignalizator)ni tushirib bilsa bo'ladi. Suv harorati $+0,1^{\circ}$ S yoki mayda muz bo'lakchalari hosil bo'lishi belgilari sezilsa zudlik bilan choralar ko'riladi. Agar mayda muz bo'lakchalari to'plamini tashlash uchun suv tindirgichdan foydalanilayotgan bo'lsa, u ikkidan uch qismiga suvgaga to'ldiriladi. Suv tindirgich to'la to'ldirilsa mayda muz bo'lakchalari muzlab qoladi va ularni yuvishni iloji bo'lmaydi.

Toshqin sarfi sarfning eng ko'p hisobiy qiymatiga etganda gidrouzel rahbariyati yuqori tashkilotga murojaat qilib qo'shimcha avariya brigadalarini chaqirtiradi. Ular zudlik bilan dampalar va boshqa suv dimlovchi inshootlardan suvni oshib tushishini oldini olish maqsadida o'stiradi, bu inshoolarni buzulishdan saqlaydi, yo'l qo'yib bo'lmaydigan filtratsiyani bartaraf qiladi, mustahkamllovchilarini buzulishdan saqlaydi va sh.o'.. Kanallarga eng ko'p (forsirovanniy) sarf qo'yilganda kanal xizmati ogohlantiriladi.

Toshqin va sel suvlari o'tgandan keyingi davr. Toshqin va sel suvlari o'tkazilib bo'lingandan so'ng toshqinga qarshi komissiya aniqlangan kamchiliklar va shikastlanishlarni ko'rib chiqadi, suratga tushiradi, rasmini soladi. Inshootlarni suv osti qismlarini tekshirish toshqin o'tgandan keyingi suv osti – texnik ishlarini o'tkazish rejasiga muvofiq o'tkaziladi. Agar suvga tushuvchilar yordamida suv osti – texnik kuzatishlarini o'tkazish rejalashtirilmagan bo'lsa inshootlar elementlarini suv ostidagi qismlarining holati to'g'risidagi ma'lumotlar qo'ldan keladigan (chukurliklarni o'chash, shestlar yordamida paypaslab ko'rish, tubi oyna quti, illyuminatorli maxsus ko'rish quvurlari, periskoplar va sh.o'. yordamida kuzatish) usullar orqali olinadi. Tekshiruvlar o'tkazilgandan so'ng dalolatnomalardan tuziladi, unda inshootlar elementlarining holatlari, buzulishlar, defektlar paydo bo'lishining kelib chiqish sabablari bilan birga hosil bo'lgan shikastlanish darajasi va sh.o'. inshootlarini kerakli holatga keltirish uchun lozim bo'ladigan asosiy tadbirlar, keyingi toshqin suvlarini o'tkazishda va ta'mirlashda hisobga olinishi lozim bo'lgan xulosalar xaqida yoziladi. Bundan tashqari toshqinini o'tish sharoiti (gidrometeorologik, toshqinni o'sishi va uni pasayishi, muzlash jarayonlari, shu davrda kuzatilgan maksimal sathlar va sarflar), shikastlanish va avariyalarni sabablari va tavsifi, ularni bartaraf qilish usullari, shuningdek sarf qilinadigan pul mablag'i, materiallar, ishchi kuchi, transport, mexanizmlar miqdori batafsil yoritilgan hisobot yoziladi. Avariya xarakteriga ega yirik shikastlanishlarni bartaraf qilish uchun loyiha tashkilotlari loyiha-smeta hujjatlari tayyorlaydi. Hisobotga sxemalar, chizmalar, fotosuratlar, dalolatnomalar va boshqa tushintiruvchi va tasdiqlovchi materiallar ilova qilinadi.

Mazkur mavzuda toshqin va sel suvlarini o'tkazishning umumiy (asosiy) qoidalari keltirildi. Inshootlarning turi va kapitallik klasslariga qarab ularda inshootlarni o'ziga xos ekstremal avariya sharoitlarini xarakterlovchi shikastlanish, buzulish va ishdan chiqishlar vujudga kelishi mumkin. Avariya holatlarining sabablari gidrouzel inshootlarini suv o'tkazuvchanlik qobiliyatidan oshib ketgan favqulotda (katastrofik) suv sarfi, kuchli sel, qor ko'chishi, oshib tushadigan to'lqin keltirib chiqaradigan suv ombori yon-bag'irlarini o'prilishi, inshootlar qiyaliklarini o'pirilib tushishlari, yuqori balli er silkinishlari, inshootlar, ular asoslari va ularni aylanib o'tuvchi favqulotda filtratsiya, muz ta'sirida inshootlar elementlariga yuklamalarni oshib ketishi yoki ularni suv o'tkazuvchi oraliqlarga tizilishi. Inshootlar elementlari yoki mexanik jihozlarining mustahkamlik va turg'unlik xususiyatlarini kutilmaganda pasayishi, bosimli quvurlarda noxush gidravlik (gidravlik zarba, suvni turg'un bo'lmagan harakati va boshq. sh.o'.) jarayonlar va boshqa shunga o'xshash holatlar bo'lishi mumkin.

Favqulotda holatlarni o'z vaqtida oldini olish maqsadida zudlik bilan quyidagi asosiy choralar ko'riliishi lozim: suv omboridagi suv sathini tezkorlik bilan tushirish; zudlik bilan to'g'on va dambalar o'rkachlarini o'stirish hamda qiyaliklarini mustahkamlash va kuchaytirish; toshqin va sel suvlarini bir qismini o'tkazish uchun xavfsiz joylardan qo'shimcha proran va oraliqlar ochish; texnika va jihozlarni himoyalash choralarini ko'rish yoki ularni xavfsiz joylarga ko'chirish; yopishib ko'tarilmay qolgan zatvorlarni portlatish; yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajada suvn sizib chiqishi kuzatilgan joylarga shag'al tosh va yirik o'lchamli toshlarni to'kish; nasos stansiyalarida elektr tokini uzliksiz kelishini ta'min etish va nasos agregatlari ishini o'z vaqtida manyovrlash, tiquiliblarni portlatib yuborish va sh.o'. tadbirlar.

Suv dimlovchi gidrotexnika inshootlarini buzulish xavfi vujudga kelganda barcha ogohlantirish vositalari hamda mahalla qo'mitalari orqali zudlik bilan suv bosishi mumkin bo'lgan hududlardagi aholi ogohlantiriladi, lozim bo'lsa aholi, zavod, fabrikalar, mashina, mexanizmlar xavfsiz joyga evakuatsiya qilinadi, katta moddiy ziyonga olib keladigan yoki odamlar sog'ligi va hayotiga xavf soladigan avariya xarakteriga ega buzulishlar, har qanday usul va hududdagi ishchi kuchi, qurilish texnikasi, tashkilotlardan, lozim bo'lsa harbiy kuchlardan foydalanim zudlik bilan bartaraf qilinadi.


8.7. Inshootdagagi mexanik jihozlarni ishlatish

Gidrotexnika inshootlarini ishlatish sharoiti, ko'p holatlarda, suv o'tkazuvchi oraliqlarni yopish uchun xizmat qiladigan, yuqori befda suv sathi va suv sarfini tartibga solishga imkoniyat yaratadigan, shuningdek suzib keluvchi jismlarni ushlab qoladigan yoki o'tkazib yuboradigan mexanik jihozlarning nomenklaturasi va holatiga bog'liq. Mexanik jihozlarga panjara, panjara tozalovchi mashina, zatvor va unga o'matilgan qurilmalar, kran lebetka va boshqalar kiradi. Gidrouzeldagi mexanik jihozlar va metall konstruksiyalar inshootni ishlatish davrida, doimiy nazoratda bo'ladi, reviziya qilib turiladi, ularda profilaktik, rejali ta'mirlash ishlari o'tkazib turiladi. Bu tadbirlar ularni ishchi holatdaturish imkoniyatini beradi. Kuzatish va reviziya qilish ishlari ekspluatatsiya xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Lozim bo'lgan taqdirda esa loyiha tashkiloti mutaxassislari kuzatish yoki reviziya ishlariiga jalb qilinadi. Aniqlangan kamchiliklarni xavfsizligiga qarab, ularni bartaraf qilish vaqtি belgilanadi, mexanik jihozlarni ishchan holatini ta'minlash bo'yicha muayyan tadbirlar ro'yxati tuziladi. Quyida har xil mexanik jihozlar uchun ekspluatatsion tadbirlarning umumiy (asosiy) qoidalari keltirilgan.

Zatvorlar (8.5; 8.6 - rasmlar).. YAxshi zatvor napor ostida qiyshaymagan, ko'zga ko'rinarli deformatsiyaga ega bo'lмаган va silliq, siltanmasdan, to'xtabqolinmasdan, ishqalanmayharakat qiladigan bo'lishi lozim.



8.5 - rasm Katta Farg'ona kanalining bosh inshootiga o'rnatilgan yassi zatvorlarni pastki b'efdan ko'rinishi.



8.6 - rasm Katta Farg'ona kanaliga o'rnatilgan segmentli zatvorlarni pastki b'efdani ko'rinishi.

Inshootga o'rnatilgach yonlari va tubidagi zichlagichlari orqali suv o'tkazmasligi lozim. YUrish qismi, tutashma (ulangan joylari)lari, zanjirlari, uzatmalari, tormozlari, bog'ichlari o'z vaqtida tuzatilib, ishqalanadigan qismlari yog'lanib turiladi. Qoplamasining kavsharlangan choklari va unga biriktirilgan joylari suv o'tkazmasligi kerak. Zichlagichlari zatvorga zich yopishib, tegmaydigan, shikastlanmagan, ilinib qolmaydigan, o'tkir qirrali bo'lib egilmagan, elektr kovsharlash yoki sement aralashmasi sachratmalarini izi bo'lмаган, yog'langan va balchiqyopishmalarisiz bo'lishi lozim. Profilaktika maqsadida zatvoming tayanch-harakat qismlari, izlari,karkasi va qoplama qismlari muntazam ravishda ifloslanishdan, muzdan, qordan, oqizindagi jismlardan tozalab turiladi. Profilaktik tekshiruvlar va joriy remont davrida: kavsharlangan tutashtirilmalar holati (lozim bo'lsa choklar kavsharanadi) ga; tutashtirilmalarini ishonchliligiga; trosslar, tortuvchi zanjirlar, bloklar, ishqalanadigan qismlarning holatiga; zatvorning podshipniklardagi valining tayanch holatiga; zatvorni yuk ko'taruvchi elementlarida korroziyani paydo bo'lishiga; ko'tarish

mexanizmini elektr-privoddan qo'l bilan boshqarishga o'tkazishda uzadigan, blokirovka qiladigan qurilma va boshqalarga alohida ahamiyat beriladi. Davriy ravishda ularning eski moylari kerosin bilan yuviladi va yangitdan moylanadi; Agar zatvordagi korroziyaning qalinligi metall elementlarning qalinligidan 10 % dan ko'p bo'lsa, ularni almashtirish yoki kapital ta'mirlash masalasi ko'rib chiqiladi. Kam o'lchamli korroziya aniqlanganda metall sirti tozalanib, unga korroziyaga qarshi bo'yoq surtiladi. Sezilarli darajada korroziyaga uchragan, zichlagichlarni qotiruvchi boltlari almashtiriladi. Ko'p yuk tushishi yoki korroziya ta'sirida ochilib qolgan choklar o'yib olinib yangitdan kavsharlanadi.

Agar zichlagich rezinasi zatvor qirralariga sifatsiz qotirilgan bo'lsa, u almashtirilguncha po'latdan, rezinadan yoki yog'ochdan yasalgan pona o'rnatiladi. Pona zatvorga maxkamlangan zichlagich rezinalarni to'g'rilab filtratsiya o'chog'ini bartaraf qiladi. Rezinali zichlagichlar elastik bo'lishi lozim, yoriqlari bo'lmasligi kerak, aks holda ular almashtiriladi.

Tayanch-harakat qurilmasining g'ildiragi normal holatda qo'l bilan erkin buralishi shart. Agar g'ildirak aylanmasa yoki qiyin aylansa, unda u zudlik bilan ta'mirlanadi.

Aylanadigan qismlar bilan kontaktda bo'lgan qulqocha (proushi), barmoqchalar (palsy), vintlar, vallar va boshqa elementlarning teshiklarini eyilish darajasi loyiha hujjatlarining chizmalari va tushuntirish yozuvlari bo'yicha aniqlanadi. Navbatdagi reviziya uchun segmentli zatvor ko'tarilganda zanjirlar tozalanib, korroziyaga qarshi bo'yoq surtiladi va moylanadi. Zanjir yoki po'lat arqonlarni zatvorga qotiruvchi qo'shmixlar (skobiy) deformatsiyaga uchramagan, qiyshaymagan, shikastlanmagan bo'lishi lozim, aks holda ular almashtiriladi. Kojux va lebedkalarning trossi barabanigatekis yopishib o'ralishiga alohida ahamiyat beriladi, shuningdek trossning texnik holatiga ham e'tibor qilinishi shart. Trossning umumiy qalinligini tashkil etuvchi tolalarни 30 % dan kam bo'lgan tolalari uzulgan bo'lsa bunday trossni ishlatishga yaroqli hisoblanadi. Agar trosdagи uzulgan tolalar yuzasi 30 % dan ortiq bo'lsa, u yangi tross bilan almashtiriladi. Barcha trosslar konsistent moy bilan moylab turilishi shart.

Mexanik jihozlarni ishlatish ko'rsatmalariga muvofiq muntazam ravishda zatvor sharnirlardagi moy almashtirilib turiladi. Kuzgi-qishgi davrda, ya'ni zatvorlarni bir qismi amalda ishlatilmaydigan bo'lsa sharnirlar konservatsiya qilib qo'yiladi, bu bilan ular atmosfera yog'ingarchiligidan himoyalanadi. Tayanch sharnirlar o'z vaqtida sentrirovka qilinadi. Agar bu holatdan chetga chiqilsa, unda zatvorni tayanch konstruksiyalari qiyshayib qoladi. Inshoot ishga tushirilishi oldidan

sharnirlar ochiladi, ishqalanadigan sirtlari diqqat bilan tozalanadi va moylanadi. Zatvorlar har kuni diqqat bilan tozalanadi va lozim bo'lganda korroziyaga qarshi hamda sirtini o'sishiga qarshi bo'yq bilan bo'yaladi.

Qish fasilda havo xaroratini noldan pasayishi xisobiga inshootning yuqori va patki b'eclarida suvning muzlashi kuzatiladi Muzlash natijasida zatvorlarni ko'tarish qiyinlashadi, ba'zan ko'tarishni iloji bo'lmaydi. Bunday holatda zatvorni boshqarishni osonlashtirish uchun zatvorni isitish yo'li bilan muzdan ajratishdir.

Isitishning doimiy yoki davriy ravishda ishlaydigan quyidagi tizimlari mavjud: yog'ni tabiiy sirkulyasiya qilish bilan elektr-yog' isitgichlari; yog'ni majburiy sirkulyasiya qilish bilan elektr-yog' isitgichlari; bevosita qurilgan qismlar bo'yicha tok o'tkazib elektr bilan isitish; shinali elektr isitgichlar; induksion elektr isitgichlar.

Tabiiy sirkulyasiya bilan elektr-yog' isitgichlari gorizontal uchastkalarga ega bo'Imagan, qurib qoldirilgan qismlar uchun ko'p qo'llaniladi. Bevosita isitiladigan qurib qoldirilgan qism oldidagi betonga quvur yoki metall quti joylashtiriladi, u transformator yog'i bilan to'ldiriladi. Suyuqlik elektr qizdirgichlari bilan qizdiriladi. Bu tizim samarali tizim hisoblanadi, uning yasalishi oddiy.

Majburiy sirkulyasiya bilan elektr-yog' isitgich gorizontal va vertikal qurib qoldirilgan qismlar uchun foydalaniadi. Isitish uchun bir yoki ikki quvur o'rnatiladi. YOg' isitiladigan uchastka yaqinida joylashgan maxsus elektrik boylerda qizitiladi. Nasoslar yordamida quvurlarga qizdirilgan yog' yuboriladi, so'ng u sovib yana boylerga kelib tushadi. Quvurlar tizimi maxsus flansli biriktirma va jo'mrakka ega bo'ladi, ular beton oraliqlariga joylashtiriladi, bu yog'ni to'kish yoki almashtirish imkoniyatini beradi. Barcha biriktirmalar juda zich, yog' sizib chiqmaydigan qilinadi, aks holda yog' betonga tushib, uni buzushi mumkin.

Zatvorga o'rnatilgan isitgich moslamalargakuchlanishi 220 V bo'lgan toki berib isitish xizmatchilar uchun xavfli hisoblanadi. SHuning uchun bunday usul qo'llanilayotganda tok ko'chini pasaytiruvchi transformator lozim bo'ladi. Bundan tashqari zatvor qismlari bo'yicha tok o'tkazilganda qisqa tutashish hosil bo'lishi mumkin.

SHinali elektr isitgichlar oldingisidan shunisi bilan farq qiladiki, bunda elektr toki qurilgan qismlar bilan emas, balki maxsus shinalar orqali o'tkaziladi. SHinalarni qizdirish harorati 75°С atrofida. SHinalardan qurilgan qismlar isitiladi va ular sirti hamda muz orasida suvli qatlam hosil bo'ladi.


Induksion elektr isitish ferromagnit jismlar elektromagnit maydonni kesib o'tganda vixrli tok chiziqlar hosil bo'lishiga asoslangan. Bunda sanoat chastotasiga ega standart 220 yoki 380 V kuchlanishdan foydalaniadi. Qurilib qoldiriladigan

simlari bor kanallarni buzulish va shikastlanishlardan saqlash maqsadida, ular (MK-45, MBN-2 va boshq.) kabel massasi yoki bitum bilan to'ldiriladi. Induksion usul shinali usulga nisbatan samarali, yog'ni sirkulyasiya qilishga nisbatan iqtisodli, uning xizmat muddati 30 va undan ko'p yilni tashkil qiladi. Kamchiligi – uning yuqori hajmliligi va qo'llanilishini (qattiq sirtlarda) chegaralanganligidir.

Isitilmagan zatvorlarni muzlash sxemasi va har xil isitish qurilmalari mavjud bo'lgandagi sxemalari 8.7 - rasmda ko'rsatilgan.

Ko'pchilik paytda isituvchi qurilmalardan (elektr isitish, havo oqim almash-tirgichlari, issiqlik izolyasiya qiluvchi qoplamarlar va sh.o'.) har-xil kombinatsiyalashgan holatda foydalanish 8.7- rasmdan qurinib turibdi. Hozirgi vaqtida zatvorlarni isitish uchun kaloriferlardan foydalanimoqda, ular zatvorlarni o'zida, ustunchalar yoki qirg'oq devorlarida (ustoy) o'matilishi mumkin. Qoplamalarni isitgich sifatida issiqlik izolyasiya qiluvchi materiallar: penobeton, shlakpaxta (shlakovata), penoplast, yog'och, po'kak va sh.o'. dan foydalaniadi. Katta samara olish uchun qoplama va isitgichlar orasidagi bo'shliqga elektr isitgich qurilmalar joylashtiriladi.

Havo haydaydigan (muzlashga qarshi) qurilmalar zatvor qoplamasini pastki qismi va yon zichlagichlari bo'ylab joylashtirilgan issiq soplidan havoni chiqarish tamoyiliga asoslangan.



8.7 - rasm. Zatvorni isitish qurilmasini joylashish sxemalari:
a – isitish qurilmalari yo‘q bo‘lgan zatvorlarni muzlashi; b va v – zatvor oldida mos ravishda havo haydaydigan qurilma va har xil isitish qurilmalari yordamida mayna hosil qilish; 1 – muz; 2 – zatvor; 3 – muzlash tekisliklari; 4 – havo haydaydigan quvurlar; 5 – isitgich; 6 – elektr isitgich; 7 va 8 – qo‘srimcha isitgichlar; 9 – isiqlikni izolyasiya qiluvchi qoplama.


Qo‘qim ushlavchi panjaralar (8..8 – rasm). Panjara konstruksiyalari, ularni siljish tizimi va ish sharoitiga qarab qo‘qim ushlovchi panjaralarni holatini kuzatish, texnik qarov tadbirlarining tarkibi va hajmi belgilanadi. Ekspluatatsiya davridagi asosiy tadbirlarga tashqaridan ko‘rib chiqish (kuzatish), mustahkamlovchilarini, tayanch uzellarini, g‘ildiraklarini, panjaralar seksiyalari zanjirlarini, shtangasini, aylanuvchi elementlarini ish qobiliyatini baholash kabi ishlar kiradi. Panjaralarda yuz bergan kichik shikastlanishlar ekspluatatsiya xizmati tomonidan tuzatiladi, jiddiy buzulish yuz bersa kuzatish jurnalda qayd qilinadi va alohida chora – tadbir orqali panjaraning texnik holati tiklanadi. Panjaralar holatini kuzatishda uning texnik holatiiga, korroziyaga nisbatan holatiga va kuzgi-qishgi davrda muzlashiga e’tibor qilinadi.




8.8 - rasm. Qo'qim ushlovchi panjaralar

Panjaralarni muzlashdan saqlash uchun, uni suvdan chiqib turgan qismi isitiladi yoki qizdiriladi. Haroratni salgina (gradusni o'ndan bir bo'lagiga) oshishi panjarani muzlashdan saqlaydi va mayda muz bo'lakchilari to'plami uning sterjenlariga yopishmaydi. Panjara har xil usullarda isitiladi: tekis taqsimlangan holda, ro'parasidan, differensiyalashgan. Birinchi holatda issiq panjaraning barcha elementlariga beriladi, misol uchun uning sterjenlari orqali tok o'tkazish usuli bilan. Agar issiq sterjenlarga faqat oqim tomondan berilayotgan bo'lsa bu usulni ro'parasidan isitish usuli deyiladi, bunda misol uchun ro'paridan issiq suv beriladi. Differensiyalashgan usul ayrim uchastkalarga issiq berish bilan xarakterlanadi. $0,1\dots0,3^{\circ}\text{S}$ haroratgacha qizdiriladigan elementlarining talab qilinadigan quvvatini hisoblashda zahira koeffitsienti $1,3\dots1,5$ qabul qilinadi. Elektr bilan qizdiriladigan panjarali suv o'tkazuvchi oraliqlari bor inshootlarini ishlatish tajribasi elektr tokini sezilarli darajada sarf bo'lishini ko'rsatadi, ya'ni sarf qilinadigan quvvat $1\dots5$ kVt/m^2 ni tashkil etadi. Panjaralar oldida qo'qim to'plangan taqdirda qo'qim

tozala-gich mexanizm yordamida o'zandan chiqarib tashlanadi (8.9; 8.10 - rasmlar)




8.9 – rasm. Panjara tozalagich RN-2000 mashinaning sxemasi:
1 – qo'qim yig'iladigan quduq; 2 – kabel yotqizish uchun lotok. O'lchamlari, mm. da




8.10 - rasm. Qo'qim tozalash mexanizmi va uning ishchi organi

Estakadalar, kran osti yo'llari (8.11; 8.12 - rasmlar). Estakada monorels-laridagiqtirgichlar va kran osti balkalarida deformatsiya, shikastlanish hosil bo'lishini muntazam kuzatib borish lozim. Kran osti yo'llarining parametrlari loyiha mos bo'lishi lozim. Kran harakatlanayotganda relslarni qo'zg'alishiga ruxsat berilmaydi. Boltli birikmalari ishonchli qotirilgan bo'lishi shart.



8.11 - rasm. Estakada monoreislari



8.12 - rasm. Kran relsi


Yuk ko'tarish – transportlash mexanizmlari (8.13 – rasm). Kranlar, lebedkalar, gidravlik silindrlar, ilgak to'sinlar va boshqa mexanizmlarni ishlatalish mos ravishda tayyorlovchi zavodlardan olingan pasportlar, xizmat ko'rsatish hamda ishlatalish bo'yicha qo'rsatmalarga mos amalga oshirilishi zarur.




a)



b)



v)



g)

8.13 - rasm. YUK ko'tarish – transportlash mexanizmlari:
a – ilgak to'sini; b – lebedka; v - avtokranlar; g – echkisimon kran

YUK ko'taradigan mexanizmlar (qurilmalar) har yili zanglashga qarshi bo'yabturlishi shart. Agarda yuk ko'tarish mexanizmlarini choklarida yoki boltli birikmalarida defekt aniqlansa choklari o'yib olinadi va yangidan kavsharlanadi, boltlar esa yangisi bilan almashtiriladi. YUK ko'tarish mexanizmlarining ko'rinarli joyiga yuk ko'tarish qobiliyatini bildiruvchi taxta osib qo'yish lozim.

8.8. Gidrotexnika inshooti elementlarining korroziyasi va sirtlarini o'sishiga qarshi kurashish

Korroziyaga qarshi kurashish. Korroziya – bu metall va qotishmalarni tashqi (suv, havo, havo – suv va sh.o'.) muhit bilan o'zaro bir biriga ta'siri natijasida o'z o'zidan emirilishidir. Bunda metall okislar yoki tuzlarga aylanadi, buning natijasida uning mustahkamligi pasayadi. Korroziya g'adir - budurlikni oshiradi, natijada metall

quvurlar va boshqa suv o'tadigan sirtlarda qo'shimcha gidravlik qarshilik vujudga keladi. Korroziyaning ikki asosiy turi mavjud – kimyoviy va elektroqimyoviy.

Kimyoviy korroziyani tashqi muhit bilan kontaktda elektr tokini o'tkazmaydigan suyuq moddalar keltirib chiqaradi: neft maxsulotlari, oltingugurt birikmalari, spirtlar, shuningdek azot okisi, oltingugurt vodorodi (serovodorod), oltingugurtli gaz, xlor vodorodi ko'rinishlaridagi gazlar va sh.o'.


Elektroqimyoviy korroziya elektr toki o'tishi va kimyoviy reaksiya bilan birga kechadi. U metallda sezilarsiz atmosfera nami yoki elektrolit plenkali: kislotalar aralashmalari, tuzlar, ishqorlar, shuningdek ishqorli va kislotali xarakterga ega gazısimon moddalar paydo bo'lishi bilan vujudga keladi.

Korroziyaning jadalligi va xarakteri (8.14 – rasm) metall tarkibi, muhitning namligi va harorati, elektr ta'siri, suvning tezligi, gruntning muallaq holdagi yoki yumalab kelayotgan qismining abraziv ta'siri va sh.o'. larga bog'liq. SHuning uchun korroziya hosil bo'lish jarayoniga sezilarli darajada har xil qimyoviy birikmalari bo'lgan, suv omboriga yoki suv oqarlarga suv tashlamalardagi sulfatlar, xloridlar, kislotali birikmalar, ishqorlar va sh.o'.lar ham ta'sir qiladi. Bu holda korroziya jadalligi bir necha marta oshadi.

Kuzatishlar metalldan bo'lgan yuzalardan o'tayotgan suv tezligi 0 dan 1 m/s gacha bo'lganda korroziya jadalligi taxminan suv tezligiga proporsional o'sishini ko'rsatgan. Daugave daryosidan olingen ma'lumotlar suv tezligi 2 m/s atrofida bo'lganda po'lat korroziysi tinch turgan suvgaga nisbatan deyarli 2 marta yuqoriligini ko'rsatgan. SHuning bilan birga ba'zi holatlarda korroziya jadalligi oqar suvlarda kamayishi ham aniqlangan. Bu masala hozircha kam o'rganilgan. VNIIGda o'tkazilgan tadqiqotlar tekis taqsimlangan (amalda xavfsiz) – 0,001...0,002 mm yiliga va yiliga 1 mm gacha etadigan birdan ko'zga tashlanadigan, undan keyin esa yiliga 0,3...0,4 mm. turg'unlashgan korroziya mavjudligini ko'rsatgan.

Kimyoviy va elektroqimyoviy korroziyalardan tashqari *biologik korroziya* ham mavjud. Uni suvdagi mikroorganizmlar keltirib chiqaradi. Korrozion – xavfli bakteriyalar aerob va anaerob bakteriyalarga bo'linadi. Birinchisi kislorod mavjud bo'lganda rivojlanadi, ikkinchisi – usiz.

Korroziyaga qarshi himoya inshootlar elementlarini xizmat muddatlarini ushlaydi va cho'zadi, gidravlik yo'qotishni pasaytiradi va inshootga yaxshi estetik ko'rinish beradi.



8.14 – rasm. Korroziya turlari:

a – tekis taqsimlangan; b – notejis taqsimlangan; v – strukturali – saylab olvchi; 2 – dog' shakilli; d – yazva shaklli; e – nuqtali shaklda; j – kristallararo; 3 – kristallar ichida; i – sirt ostida.

Metallkonstruksiyalarni xizmat muddatlarini oshirishning uch guruh usullari mavjud: metall sirtini aggressiv muhitdan izolyasiya qilish; dezaktivatsiya yordamida aggressiv muhitga qayta ishlov berish; metallni energetik holatini hosil qilish, bunda uning okislanishi va shundan kelib chiqib korroziyasi to'la tugatiladi yoki kuchli sekinlashtiriladi.

Birinchi guruh to'rt usuldan tashkil topgan: metallni o'ziga kimyoiy va atrof-muhitga inert bo'lgan (bo'yoq, loklar, emallar va sh.o'.) qatlaml bilan yopish, bunda ular metallga yaxshi ushlanishi lozim (bu gidrotexnikada keng ko'llaniladi); metall yaxshi ilashadigan kam aralashmali moddalar (fosfatlash, anodirlash va boshq.) bilan qoplash, bu holda ularning himoya xususiyati ko'p bo'lmaydi, chunki ular g'ovvak; himoyalananadigan sirtga metallning juda yupqa zinch qatlamini surtish, bu mavjud muhitda korroziyaga ancha mustahkam (sink, nikel, xrom, alyuminiy va boshq. qatlamlar); metallga boshqa berilgan muhitda ancha passiv metall bilan legirovka qilish. SHunda masalan zanglamaydigan po'lat olinadi.

Ikkinci guruh o'z ichiga ikki usulni oladi: suvg'a okislanuvchi konsentratsiyasini pasaytiruvchi maxsus ishlov berish (bu usul issiqlik energetikasida qo'llaniladi); aggressiv muhitga korroziya ingibitorlari (sekinlashtiruvchilarini) ni qo'shish (ajratilgan xajmlarda qo'llaniladi).

Uchinchi guruh uch usuldan iborat: katod polyarizatsiyasi yoki katod himoyasi yordamida metallni korroziyaga turg'unligini oshirish (gidrotexnika qurilishida keng foydalaniladi); himoyalananadigan metallni berilgan muhitda katta manfiy elektrodlik soloziyatiga (potensialigi) ega metallga kontaktlash yo'li bilan amalg'a oshirish, masalan po'lat konstruksiyani sink yoki tezroq korroziyaga uchravdigan magniy bilan himoyalash (doimiy ravishda metallprotektor almashtirilishni talab qiladi); musbiy belgi bilan potensial hosil qilish yordamida anodli himoya (ko'proq kimyo ishlab chiqarishida ishlatiladi).

Ko'p holatlarda eng ko'p samaradorlik himoyaning kombinatsiyalashgan usullarini qo'llash orqali erishiladi; misol uchun gidrotexnikada katodli himoya lok-bo'yoq materiallarni surtish bilan birga olib boriladi.

Korroziyadan lok-bo'yoq yordamida himoya qilishning ishonchliligi ko'p holatda bo'yash uchun sirtni tayyorlash sifatiga, bo'yoq surtish texnologiyasiga riosa qilib surtish va quritishga bog'liq. Sirtlarni organik ifloslantiruvchilardan yomon tozalash, zanglash va boshqa qoldiqlar, g'adir-budurlik (zausensi), o'tkir qirralar, yulinishlar korroziyani rivojlanishiga olib keladi, shuning uchun ham bo'yaladigan sirtda bunday holatlarni bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Iloji boricha korroziyani tushirish jarayoni mexanizatsiyalashdirilishi zarur. Bu maqsad uchun qum struykali, gidroqumli struykali, drobstruykali qurilmalar, tozalash mashinalari, шетка, sharashkalar, shuningdek bo'yash uchun tayyorlashning mexanizatsiyalashmagan usullaridan foydalanadi. Metall sirtlardagi korroziyani tushirishning qizdirish, kimyoviy, elektr kimyoviy va boshqa usullari ham mavjud. Eski bo'yoqni tushirish uchun har xil yuvgich materiallardan foydalaniladi. Gidrotexnika qurilishida sanitariya – gigiena sharoitidan kelib chiqib qum struykali qurilmalardan kam foydalaniladi. Gidro qumli struykali quril-malar ancha xavfsiz, bunda maxsus qurilma bosim ostida siqilgan havo yordamida gidroabraziv aralashma hosil qiladi. Bosim hosil qiladigan ejektor yoki haydovchi sopladi bosim 0,5..0,6 MPa qilinadi. Abraviz material sifatida qumdan foydalaniladi. Gidro qumli struykali qurilma-ning ish unumidorligi 15...20 m²/soat, shuning uchun ham u katta maydonlarga ishlov berishda qo'llaniladi. Bu qurilmalarning kamchiliklari shulardan iboratki, ularni qishda ochiq havoda ishlatib bo'lmaydi. abraziv materialni fraksion tarkibiga yuqori talab qo'yildi. u murakkab sanitariya-gigiena sharoitini hosil qiladi. bu mashina va mexanizmlarni tez ifloslantiradi, ishlov berilgan sirtni tezroq korroziyaga uchrashiga olib keladi.

Sochma struykali va sochma otgich qurilmalar yuqorida tilga olingan kamchiliklarni ko'pidan holi, chunki ularda quyilgan cho'yandan, maydalangan

cho‘yan zarrachalari yoki po‘lat simdan kesib olingan sochma metall qumdan foydalilaniladi. Ishni bajarish paytida tozalanadigan sirtga sochma sarfi 100...200 g/m² ga, to‘g‘ri keladi. Unchalik katta bo‘lmagan maydonlardan ish unumdorligi 1...2 m²/soat bo‘lgan PD-1 sochma struykali pistoletlar va boshqa «Kaskad», «Uragan» va sh.o‘. apparatlar yordamida zanglash tushiriladi.

Ish fronti chegaralangan bo‘lsa sirtlarni tayyorlash qo‘l kuchi bilan amalga oshiriladi. Bunda qo‘l bilan ishlatiladigan mexanik instrumentlar (eski bo‘yoqni tushirish, zangning qalin qatlarni va boshq. tushirish uchun) pnevmatik bog‘lam bolg‘alardan (puchkovyimi molotkami), (eski bo‘yoqni tushirish va zangni tushirish uchun reversiv «Volna» turidagi) pnevmatik mashinalardan foydalilaniladi. Ishlov berishga va etishi qiyin joylardagi kavsharlangan choklar UZM-100, UZM-150, UZM-200 markali og‘irligi 1,5... 3 kg bo‘lgan burchak tozalagich mashinalar yordamida tozalanadi. SHpaklevka, eski bo‘yoqlarni ko‘chirish va tekislash uchun UPM-1 turidagi universal pnevmatik mashinkadan foydalilaniladi.

Qizdirish usuli har xil shakldagi maxsus gorelkalardan foydalanishga asoslangan. Sal qizdirilganda zanglar yorilib-yorilib ketadi va ajralib tushadi. Bu usulni kam legirovka qilingan po‘lat sirtlarda, yupqa qalinlikdagi metall konstruksiylarda ishlatib bo‘lmaydi, chunki bunda metallning xususiyati o‘zgaradi. Qizdirilgandan so‘ng zang metall simli ѳetka bilan ishqalab tushiriladi.

Kimyoviy tozalashda kislota, pasta yoki ishqor surtib zanglar tushiriladi. Bu maqsad uchun ishlov beriladigan sirtga ma‘lum bir vaqtga aralashma surtiladi, bu vaqt korroziyani xarakteri va kimyoviy moddaning tarkibiga bog‘liq. Undan so‘ng bu joy yaxshilab yuviladi, bo‘shab qolgan zang ѳetki bilan tozalanadi, neytrallashtiruvchi tarkib surtiladi va yangitdan yuvib tashlanadi. Zang almashtirgichlari yordamida tozalash – kimyoviy usulning bir ko‘rinishidir. Bunda sirt ustidagi zang bilan almashtirgich komponentlari o‘zaro bir biriga ta’sir qiladi. Qalinlik 150 mkm.dan ko‘p bo‘lmaganda almashtirgich surtilgandan so‘ng pasaytiruvchi xususiyatiga ega birikmalar hosil bo‘ladi, u himoya qatlami yoki bo‘yoq qotirgichi rolini bajaradi. SHunday zang almashtirgichlariga ortofosfor kislotosi, tiksotrop fosfatli tarkibli gruntovkalar va boshqalar kiradi.


Metall sirtlar zangdan tushirilgandan so‘ng ulardan yog‘ qoldiqlari yuvib tashlanadi, quritiladi, shundan so‘ng gruntovka surtiladi va bo‘yoq pult (pnevmatik yoki elektrik)lar, valiklar yoki kistlar yordamida bo‘yaladi.

Suv ostida ishlatilish sharoitidagi metall konstruksiyalar bo‘lsa, ularga bir-ikki qatlam gruntovka XV-050, MRTU-6-934-70 lar qilinadi va uch qatlam XV-785 bo‘yoq qilinadi.

Metall konstruksiyalar ochiq havoda joylashganda GF-020 markali bo'yog' bilan gruntovka (bir-ikki qatlam) va ikki qatlam XV-124 markali emal surtiladi.

YOpiq binolarda GF-020 markali bo'yog' bilan (gruntovka) bir qatlam surtish va ikki qatlam PF-115 markali bo'yog surtish tavsiya etiladi. Bu lak-bo'yoqli materiallar zamonaviy, o'xshash va yaxshilangan sifatli materiallar bilan almashtirilishi mumkin.

Katodli himoya (8.15 - rasm) doimiy tok (katod) manbasining manfiy polyusi bilan himoya qilinadigan metall sirt va maxsus o'matilgan anod bilan musbat polyus qo'shilishi vositasida amalga oshiriladi. Katodli himoyani loyihalashning asosiy masalasi – anodni to'g'ri hosil qilish va joylashtirishdir. Odatda ularni qurilmani statsionar shaklda mahkamlash imkoniyatini beradigan (metallkonstruksiyalar, temir-beton devorlar va sh.o'.) joylariga joylashtirishadi. Zatvorlarni himoyalash uchun anodlar qalin muz hosil bo'lish sharoitida zatvorning naporli tomoniga gorizontal yoki vertikal joylashtiriladi, qo'qim ushlovchi panjaralarni himoyalashda esa suv qabul qilgichlarni ajratib turuvchi ustunlarida o'matiladi.



8.15 – rasm. Katodli himoya:

a – suv tashigich (vodovod)da; b – segmentli va tekis zatvorda; c – dastlabki davrda tokning himoya zichligini tanlash uchun diagramma; d – tok zichligining


turg 'unlashgan qiymatlari; I – anod; 2 – katod; 3 – izolyator; I va III - yozgi paytda sirtti o'sishidan himoya toki zonasasi; II va IV – qish payti korroziyadan himoya toki zonasasi; ρ va υ - solishtirma elektrik qarshilik va suv oqimi tezligi.

Zatvorlarni muzlash xavfi bo'lmaganda qoplamadan 0,2...0,5 m ga vertikal qo'yilgan anodlardan foydalaniladi (8.15, b,v – rasm). Bosimli quvurlarda anodlar butun uzunligi bo'ylab quvur ichiga bir tekis aylanasi bo'yicha joylashtiriladi.

Sirtlarni biologik o'sishiga qarshi qurashish. Suvda hayot kechiradigan o'simlik va hayvon organizmlar orasida shunday guruh mavjudki, ular sun'iy hosil qilingan gidrotexnika inshootlari elementlari sirtida yashashni afzal ko'rishadi. Bu jayron biologik o'sish deb ataladi. Odatda bu guruh mikroorganizmlar turlarining majmuidan iborat bo'lib ular panjaralar, zatvorlar, suv tashigichlar, speral kameralar va sh.o'.larga mahkam yopishib olishadi. Bunday biologik massaning zichligi, ayrim holatlarda, 20...30 kg/m² ga etadi. Evropa mamlakatlari suv havzalari uchun o'sish juda xarakterli, chunki u erlarda biomassa uchun extimol etarli sharoit mavjud. Eng ko'p uchraydigan tirik organizm dreyssena molyuskalaridir. Dreyssen chanog'i 15...50 mm. uzunlikga ega bo'ladi. Ular suv harorati +11°S bo'lganda lichinki tashlash yo'li bilan ko'payishadi, lichinkalar 6...10 kunda 160...175 mkm. ga etadi. Ular soni yozda 1 m³ suvda 0,1...2 mln. ga etadi. Qulay sharoitda dreyssenaning urg'ochisi 70.000 mingdan ko'p tuxim qo'yadi. Past haroratda malyuskalar o'yquga ketishada, harorat +11°S bo'lganda yana faol rivojlanishadi. Dreyssenalarning yashash muddati 10...12 yilni tashkil qiladi. Suv tezligi 0,5...0,9 m/s, harorati 18...25°S, tiniqligi 40...200 sm (Sekki bo'yicha), rN=7...9 va kislorod tarkibi 8...10 mg/l bo'lganda faol rivojlanishadi. Dreyssenalar bilan gorizontal sirtlar jadal o'sadi. Ular kichik (1 m/s gacha) tezliklarda shetka ko'rinishida joylashishadi, 2,5...3 m/s tezlikda esa ular hayot kechirishmaydi. Qiya yoki vertikal predmetlarda dreyssenalar tezlik 0,6 m/s bo'lganda yaxshi rivojlanadi. Vertikal predmetlar oqim tezligi 1 m/s dan ko'p bo'lganda dreyssenalar bilan o'smaydi. Suv ta'minoti quvurlari va kanallarida molyuskalar suv omborlariga nisbatan 2 marta tez rivojlanadi.

Simlyansk suv omborida olib berilgan tadqiqotlar mavsum mobaynida qo'qim ushlovchi panjaralar sterjenlari orasi 2 marta qisqarganligini ko'rsatgan (5.8 – rasm), dreyssenalar zichligi bu davrda 1,2 kg/m² ga etgan. Zatvorlarda biomassa qalinligi 3...5 sm atrofida, zichligi – 6...8 kg/m² bo'lgan. Bu zatvorlar og'irligini oshiribgini qolmay, balki manyovrashni ham qiyinlashtirgan. Quvurlar tirik kesimi biomassa zichligi 30 kg/m² gacha bo'lganda 70...80% gacha kamaygan. O'lgan dreyssenalar oqim to'xtaganda, suvni mexanik tozalash filtrlarini yopib qo'ygan holati Voljsk

GESida kuzatilgan. Bundan tashqari ular suv ta'minoti tizimi, isiqlik elektrostansiylarida va boshq. joylarda yig'ilib qoladi.



8.16 – rasm. Simlyansk GES-inning bir mavsum davomida dreyssenalar bilan o'sgan qo'qim ushlagich panjaralari: 1 – panjara sterjenlari; 2 – o'sish biomassasi.

Sirlarni o'sishidan himoyalash usullari mexanik, kimyoviy, termik, fizik, fizik-kimyoviy va biologik usullarni o'z ichiga oladi, ulardan asosiyalarini quyida ko'rib chiqamiz.

Mexanik usullarga (yilliga 1...2 marta) yirik diametrli vodovodlardan dreyssenalarni olib tashlash, drenaj turida suv olish va boshqa usullar kiradi. Ular asosan suv ta'minoti tizimida qo'llaniladi.

Suvdan xolos qilingan suv tashigich (vodovod) sirtidan mollyuskalar qirg'ichlar, turli belkuraklar, tik hurpaygan uentoqlar yoki yuqori bosim ostida (15...40 MPa) gi suv struykasi bilan tozalanadi. Biomassa kuzatish qudug'iga yig'iladi va u erdan badyaga solib chiqazib tashlanadi.

Drenaj turida suv olish uncha ko'p bo'lgan tezliklarda lechinkalarni oqimga qarshi harakat qilishiga asoslangan. Buning natijasida ularning asosiy qismi suv olgichdan uzoqlashadi, qolgani esa kum material yoki sun'iy materialdan qilingan g'ovvak filtr yordamida tutib qolinadi.

Kimyoviy usul davriy ravishda texnik suvni xlorlashga, o'sishga qarshi lok-bo'yoq qoplamarini qo'llashga asoslangan.

Xlorlash uchun suyuq xlor, natriy va kalsiy tuzlaridan foydalilanadi. Suvda mavjud bo'lgan 1...2 mg/l xlor 1 soat ichida dreyssena lichinkalarini, 3...5 kun moboynida balog'atga etgan molyuskalarni o'ldiradi. Suv ta'minoti tizimidan chiqqan suv 1...2% li giposulfat natriy aralashmasi bilan xlorsizlantiriladi.

Lokk-bo'yoqli qoplama qo'qim ushlovchi panjaralar, nasos stansiyalari suv qabul qilgichlarida ko'zg'almas qilib o'rnatilgan to'rlar, gidrotexnika inshootlari zatvorlari va boshqa elementlarini himoyalashda keng qo'llaniladi. Ammo vaqt o'tishi bilan ulardan zaharli moddalar ishqorlanib chiqadi, bu bioorganizmlar hayotiga to'sqinlik qiladi. Hozirgi paytda o'sishga qarshi XS-522, XV-5153, XS-79 bo'yoqlar ishlatalidi, ular yaxshi tozalangan, gruntovka qilingan va korroziyaga qarshi ishlav

berilgan sirtlarga surtiladi. Ko'pchilik XS-720, XV-74, XV-1110, XV-124 yoki epoksid asosdagি EP-44, EP-00-20 va boshqa emallar korroziyaga qarshi himoya (qoplama) qilingan sirtlarga surtiladi. Qachonki qoplamaning xizmat muddatini cho'zish lozim bo'lsa o'sishga qarshi KF-751 emal qo'llaniladi, u yuqorida sanab o'tilgan emallar ikki qatlam surtilgandan so'ng ustiga surtiladi. O'sishga qarshi qoplamlarning xizmat muddati 3...5 yil.

Qizdirish usulida dreysena molyuskalar yo'q qilinadi, bu usul GES va TES texnik suv ta'minoti tizimida ko'p qo'llaniladi. Bu usulni qo'llashda 40...55°S gacha isitilgan suv bilan 30...40 minutga quvur to'ldiriladi, so'ng esa quvur o'lib qolgan dreysenalaridan yuvib tashlanadi. Bunday ish vegetatsiya davrida 3 marta: iyunda, avgust oxirida va sentyabr oxirida amalga oshiriladi.

Fizik va fizik-kimyoviy usullar doimiy elektr toki bilan ta'sir qilish orqali katodli himoya, suvg'a ultratovush va boshqalar bilan ishlov berishlar hisoblanadi.

Katodli himoya diametri 2 m dan ko'p bo'lgan suv tashigichlarning ichki sirtida qo'llaniladi, bunda lok-bo'yoqli qoplama bor yoki yo'qligining ahamiyati yo'q. Doimiy tok manbasidan musbat kontaktli izolyatorlar yordamida quvur ichiga joylashtirilgan anodlar tutashtiriladi (5.7,a – rasm), manfiy qiymatga ega bo'lgani esa himoyalananadigan metall sirt bilan tutashtiriladi. Katodli himoyani ishlatish davrida: har yili tizimdagи kuchlanish va tok nazorat qilib boriladi; oyiga 1 marta himoya potensiali tekshiriladi; katodli himoya buzulishlari zudlik bilan tuzatiladi; yiliga kamida 1 marta katodli himoya tekshiruvdan o'tkaziladi; tavsijyanomalarga muvosiq anodlar almashtirilib turiladi; gidrookisnokarobonat cho'kindilari yig'ilib qolishidan saqlash uchun har 6...10 kunda 0,5...1 soatga himoyaning qutublari o'zgartiriladi (pereklyuchenie). Katodli himoyani profilaktika qilish va ta'mirlash qishda o'tkaziladi.

Biologik usul suv osti inshootlarini dreysenalaridan himoyalashda keng qo'llaniladi. Bu usul taran, guster, polotva, yaz, leq, sazan kabi baliqlarni dreysenalar bor joyga qo'yib yuborishga asoslangan. Bunday baliqlar kuniga 100 tadan ortiq uzunligi 1...5 mm. bo'lgan dreysenalarni eyishadi. Xuddi shunday xususiyatga raklar ham ega, lekin ular 12 mm dan katta molyuskalarini eyishmaydi.

Hozir dreysenalar hayotiga ta'sir qilishni boshqa usullari ustidan izlanishlar olib borilmoxda. Bu usullar qatoriga molyuskalar yashash tarziga salbiy ta'sir qilish va ular funksiyasini buzush kiradi. Hozircha dreysenalar molyuskalarini bilan o'sishga qarshi kurashish muammosi oxirigacha echilmagan.

8.9. O‘zanni kuzatish va o‘zan rostlash inshootlarini ishlatish

Dunyo amaliyotida daryo o‘zanlarini ishlatish daryolarda joylashgan gidrotexnika inshootlarining yuqori va pastki beflarida,daryolarning o‘zan rostlash inshootlari joylashgan uchastkalarida hamda daryolarning kemalar qatnovi tashkil qilingan uchastkalarida olib boriladi. Daryo o‘zanlarini ishlatish o‘zanlarni kuzatish, o‘zanlarni odatiy ishlatish va ulardan muz, muz bo‘lakchalari to‘plami hamda toshqin suvlarini xavfsiz o‘tkazish,daryo qirg‘oqlarini himoya kiluvchi inshootlarni ishlatish va o‘zan rostlash inshootlarini ta‘mirlash ishlarni o‘z ichiga oladi.

Gidrotxnika inshootlari xududlari (yuqori va pastki b’eflari) da daryo o‘zanlarini ishlatish xususiyatlari shundan iboratki, bu erda suv oluvchi (suv o‘tkazuvchi, to‘suvchi) inshootlarga etarli miqdorda suvni etkazib berish, yo‘naltirish va o‘zanda suvni olib ketish, ularga iloji boricha kamroq oqizindilar tushishini ta‘minlash lozim bo‘ladi. Bu talab to‘g‘onli va to‘g‘onsiz suv olish inshootlarida bir xil bajarilishi kerak.

Daryolarning kemalar qatnovi tashkil qilingan uchastkalarini ishlatishda, bunday uchastkalar kemalar qatnovi talablariga javob berishlari lozim, ya’ni oqimning yo‘l qo‘yiladigan tezligi va chuqurligiga, o‘zani esa ichki suv yo‘llari klasslariga mos o‘lchamlarga ega bo‘lish lozim.

Daryolardagi o‘zan rostlash inshootlari joylashgan uchastkalarni ishlatish xususiyatlari shundan iboratki,bu erda o‘zan rostlash va himoyalash inshootlari texnik holati muntazam nazorat qilib borilishi hamda o‘z vaqtida ta‘mirlanishi bilan birga, daryolar o‘zanlarini ishlatishning barcha turlariga mansub, daryo o‘zanini o‘zgarishi ustidan ham kuzatishlar olib boriladi, shuningdek qirg‘oqlarni mustahkamlash ishlari bir vaqtini o‘zida bajarilib boriladi. Agar bu ishlarni bir vaqtida olib borilmasa, inshootlar o‘zan oqimiga yoki teskarisi oqim inshootlarga salbiy ta‘sir qilib, inshootlarni jiddiy shikastlanishlarini keltirib chiqarishi mumkin. Bu holatlarda inshootlarni kuchaytirish, ya’ni balandligi yoki uzunligini oshirish yoki aksincha umuman inshootlarni olib tashlash zaruriyati paydo bo‘ladi. Bundan tashqari daryo tubida oqimning sarfini o‘zgarib turishiga mos, tub oldida hosil bo‘lgan oqizindilar uyumlari (gryadalar) orqali, oqim va oqizindilarni inshootlarga salbiy ta‘sirini kamaytirish maqsadida, «yo‘l» ochilib (prorezlar kilinib) zemsnaryadlar yoki zemlecherpalkalar yordamida suv ostida, tub chuqurlashtirilib boriladi. Albatta bunday ishlarni amalga oshirishga bo‘lgan talab muntazam olib beriladigan kuzatish ishlarni natijasida belgilab boriladi.

Kuzatish ishlarni tarkibiga o‘zan va inshootlarning texnik holatini har kuni ko‘z bilan kuzatish, nazorat-o‘lchov asboblari yordamida davriy kuzatish (geodezik usulda inshootlarni cho‘kishi, o‘prilishi, siljishi, o‘zan ko‘ndalang va bo‘ylama profilini

o'zgarishini, exolot yordamida o'zanni yuvilishi, loyqa cho'kishi, umuman tub oldi okizindilari harakatini kuzatish va sh.o'. ishlari, daryoning suv sarfi va suv sathini kuzatish, havo va suvning haroratini kuzatish, daryoning sersuvlik (toshqin, polovode) va kamsuvlik (mejen) davrlari, ularning davomiyligi, kelishi va pik davrlarini kuzatish va boshqa ishlar kiradi.

Kuzatish ishlarini olib borish uchun daryoning tartibga solingan uchastkasida 10...12 V (bu erda V – asosiy o'zanning kengligi) oraliqda:

- reyka bilan jihozlangan gidrometriya posti bo'lishi va u dim egri chizig'idan tashqarida joylashgan bo'lishi kerak;

- suv bosishi yoki qirg'oqning yuvilish zonasidan chetga chiqarilgan asosiy reper o'rnatilgan bo'lishi lozim;

- o'zan deformatsiyasini kuzatish uchun ikkita suv o'lhash stvor (ulardan biri mahalliy turdag'i suv olgich inshoot uchun tartibga solish ishlari olib borilayotgan asosiy oqim o'zanida joylashtiriladi, ikkinchisi esa suv olib keluvchi kanalda joylashtirilgan bo'ladi) jihozlangan bo'lishi kerak;

- daryodagi suv sathini o'zgarishini (maksimal, normal va minimal sathlarni ko'rsatadigan kamida uchta ishchi reperlar o'rnatilgan bo'lishi lozim;

- dim egri chizig'ining tarqalishi, yuvilishlarning o'ta xavfli joylari, qiyaliklarni o'prilish chegaralarini belgilaydigan belgililar o'rnatilgan bo'lishi kerak;

Vaqtinchalik tartibga soluvchi qurilmalarni yo'nalishini belgilash va joylashtirish uchun ular qo'shimcha stvor va belgilari bilan jihozlanishi hamda o'rnatilishi zarur, bu belgilarsiz vaqtinchalik qurilmalarni joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.


Kanalning bosh qismida uni holati va ishini xarakterlaydigan stvorlar va belgililar o'rnatiladi; bu erda, kanal qirg'og'ida kamida uchta reper, kanal o'zanida esa kanal ishini va yo'l qo'yiladigan suv sathini belgilaydigan uch reper, shuningdek (suv olib keluvchi kanal boshi va oxirida) reyka bilan jihozlangan ikkita gidrometriya posti o'rnatiladi.

Inshootlar deformatsiyasi (cho'kishi), tubi va qirg'og'ini yuvilishini kuzatish hamda ularni ta'mirlash va qayta qurish loyihasini tuzishga ma'lumotlar olish uchun barcha inshootlar, dambalar yoki shporalar usti belgilari (inshootni o'lchamiga qarab) 3...5 nuqtada , suv sathi va tubi uch nuqtada ko'rsatilib vaqt-vaqt bilan nivelirlanib turiladi. Nivelirlash ma'lumotlari maxsus jurnalga kiritib boriladi.


Aniqlangan barcha o'zgarishlar o'zan rostlash va himoyalash inshootlari bor uchastkaning planida (bunday plan menzula yordamida bajarilgan bo'lsa mashtabi 1:2000 bo'ladi) o'z aksini topishi lozim va ular kuzatish jurnallariga o'zgarish hamda

shikastlanish aniqlangan vaqt, joyi, kelib chiqishining taxminiy sababi, tavsifi ko'rsatilib yozib quyiladi.


Kuzatish natijasida olingan ma'lumotlarga qayta ishlov beriladi, o'znlarni bir birini ustiga tushirilgan qo'ndalang profillari va boshqa grafiklar chiziladi. Misol uchun Amudaryoning 29-35-travers dambalari joylashgan uchastkaning 18.09.1987 y holati 1:20000 mashtabda (8.17 – rasm) va o'zanning 74 va 75 – stvorlarida bir birini ustiga tushirilgan profillari keltirildi (8.18, 8.19 - rasmlar).



8.17 - rasm. Amudaryoning 29...35-travers dambalari joylashgan xududning 18.09.1987 y plani (s'emka daryoning chap qirg'og'i bo'ylab olingan).



8.18 - rasm. O'zanning 74 – stvordagi bir-birini ustiga tushirilgan profillari.



8.19 - rasm. O'zanning 75 – stvordagi bir-birini ustiga tushirilgan profillari.

Inshootlarning buzulishlariga yog'och qismlarini chirishi, metall elementlarni (simlar, trosslar va sh.o'.) zanglab chirishi, suv va oqizindilarning salbiy ta'siri (edrilish) ostida mexanik edirilishi, oqim ta'sirida inshootlar ostini yuvilishi, muz oqish davrida inshootlarni shikastlanishlari sabab bo'lishi mumkin.

Daryolardan mayda muz bo'lakchalari to'plami va muzni o'tkazish uchun dar-yo silliq chizilgan qirg'oqlarga ega, burlish radiusi 4...5 kenglikka teng, o'zan pog'onasiz, tor uchastkalarga ega bo'lmasa, birdan vertikal sinishga ega bo'limgan bo'lsa ta'minlanadi.

Daryolarning ishlatish jarayonida, ayrim paytlarda, o'zanning suv o'tkazuv-chanlik qobiliyatini oshirishga to'g'ri keladi, buning uchun o'zan va poyma yog'och, to'nka, buta, yirik o'simliklardan tozalanadi, suvning o'zandagi harakatiga to'skinlik kiluvchi va (ko'pol) yirik g'adir – budurlik hosil bo'lishiga olib keladigan toshlar, suvga cho'kkan daraxtlar, to'nkalar suv yo'lidan olib tashlanadi, qirg'oq bo'rtiklari kesib olinadi, silliq burilishlar hosil qilinadi, o'zanda suvni sun'iy dim bo'lishiga olib keladigan eski inshootlar (ko'priklar, dambalar, svaylar, tegirmonlar va sh.o.) ko'chiriladi, o'zan to'g'rilanadi, tubi chuqurlashtiriladi.

Ayrim holatlarda suv sarfi va toshqinni o'sishi shunday kuchli va jadal bo'ladiki, buni yaxshi tayyorlangan o'zan ham o'tkaza olmasligi mumkin, bunda suv toshib hududlarni bosib ketishi yoki dambalardan suv oshib tushishi mumkin. Bu holatda ekspluatatsiya xizmati suvni o'tkazishga tayyor turishi, suv sarfini kamaytirish tadbirlarini qo'llay olishi kerak. Buning uchun suvning bir qismi boshqa tomonga bu-rib yuboriladi, misol uchun orada joylashgan soylik, pastlik, chuqurliklarga tashlash mumkin. Oqib kelayotgan suvni suv omborida ushlab qolishga harakat qilinadi yoki yuqorida joylashgan suv dimlovchi inshoot orqali ushlab qolish yoki sarfni bir qismini sug'orish, baliq ko'paytirish va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan tabiiy xajmlarga tashlash orqali ushlab qolinadi.

Ba'zida bu maqsad uchun boshi himoya qilinadigan o'zandan suv oladigan oxiri esa shu uchastka oxiriga kelib qo'shiladigan aylanma kanallar orqali ham ortiqcha sarf o'tkaziladi. Bir qism suv sarfi boshqa daryolarga, agar u kam suvli bo'lib tashlash xavfli bo'lmasa, tashlanadi.

Suv oqar sarfini kamaytirish kombinatsiyalashgan usullarda suv oqarning muayyan holati, yashash joylari va sanoat ob'ektlarining joylashushi, topografik, gidrologik va boshqa shart – sharoitlardan kelib chiqib belgilansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Daryolarda o'zan rostlash va himoyalash inshootlarini ishlatish tajribasini Respublikamizning qirg'oqlarni himoyalash dambalari va o'zanlarni tartibga solish inshootlari boshqarmasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy shaxrida joylashgan) misolida ko'rib chiqamiz. U Amudaryoning Tuyamuyin gidrouzelidan boshlab to Taxiatosh gidrouzeligacha bo'lgan 230 km lik uchastkasida, yuqorida sanab o'tilgan ishlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyat olib boradi. Daryoning Xorazm vi-

loyatidan o'tgan uchastkasida esa bunday ishlar Xorazm viloyati tumanlararo kanallar boshqarmasi tasarrufidagi dambalar uchastkasi tomonidan amalga oshiriladi.

Qirg'oqlarni himoyalash dambalari va o'zanlarni tartibga solish inshootlari boshqarmasi yuqorida sanab o'tilgan texnik qarov ishlari (ekspluatatsion tadbirlar) dan tashqari quyidagi texnik qarov ishlarini ham amalga oshirib boradi: dambalar, shporalar tanasi va boshqa himoyalash inshootlariga sharoitdan kelib chiqib tosh, shox – shabba bostirish, ular ostini yuvilishiga (podmiv) qarshi mustahkamlash ishlarini olib borish, dambalar orasiga daraxt ko'chatlari ekish va ularga agrotexnik ishllov hamda qarovni amalga oshirish. Bunday ishlarni boshqarmada himoya ishlari deb nomlash qabul qilingan.

Himoya va avariya – tiklash ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish uchun boshqarma tomonidan uchastkalarda, mavjud inshootlar hajmining 10% miqdorida, zaxira materiallari tayyorlab qo'yilgan, ular maxsus joy (omborxona) larda saqlanadi.

Joriy ta'mirlash ishlari 20% gacha hajmda shikastlangan o'zan rostlash va himoyalash inshootlarida o'tkaziladi, kapital ta'mirlash esa 20% ko'p shikastlangan inshootlarda, loyiha asosida amalga oshiriladi.

Avariya – qayta tiklash ta'mirlashlari ishda uzulishni keltirib chiqaradigan ayrim shikastlanishlar yoki butun tizimini yoki ayrim himoyalash – tirtibga solish inshootlarini normal ishlatish buzulganda amalga oshiriladi.

Avariya – oldini olish ta'mirlashlari inshootlarni keyinchalik buzulishlariga aniq xavf paydo bo'lganda, shuningdek inshootlarda xavfli shikastlanishlar aniqlanganda amalga oshiriladi.

Bunday avariya – ta'mirlash ishlari bevosita defekt aniqlangandan so'ng bajarijadi, ishni tezkor bajarish talab qilinganda bazan bu ishlar loyihasiz (loyiha ishni bajarish davrida, bir vaqtda tayyorlanib) amalga oshiriladi.

Qirg'oqlarni himoyalash dambalari va o'zanlarni tartibga solish inshootlari boshqarmasi, misol uchun, 2006 yilda ajratilgan mablag'ning 75% ga yaqinini himoya ishlari (texnik qarov ishlari – ekspluatatsion tadbirlar) ga, 12% joriy ta'mirlash ishlariga, 3% dan ortig'ini kapital ta'mirlash ishlariga, 10% dan ortig'ini esa materiallarni avariya zahirasini tayyorlab qo'yishga sarflagan. Bu ma'lumotlar daryo o'zanini ishlatishda asosiy salmoq ekspluatatsion tadbirlar – texnik qarov ishlarini bajarishga to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Boshqarma olib borgan kuzatishlar shuni ko'rsatganki, daryoda suv sarfi 460 m³/s dan 1500 m³/s gacha oshganda suv sathi 59...91 sm. ga, o'rtacha 79 sm. ga ko'tarilgan, bu davr 2006 yil 25.05 dan 30.08 gacha 98 kun davom etgan. Daryoda ikki marta muzlash kuzatilgan. Muzlashning birinchi davri 02.01 dan 16.02 gacha

to‘g‘ri kelgan, daryoning 9 nuqtasida tiqilish hosil bo‘lgan, u suv sathini 1 m ga ko‘tarilishiga olib kelgan. Tiqilishlar 18 soat ichida bartaraf qilinib suv toshishini oldi olingan. Muzlash havo harorati – 18 ...23°S bo‘lganda vujudga kelgan. Daryo havo harorati +8...19°S bo‘lganda muzdan bo‘shagan.

Daryoning ikkinchi muzlashi 20 kun (01.12 dan 20.12 gacha) davomida Kang-shartal uchastkasida kuzatilgan, bunda havo harorati – 14 ...16°S ni tashkil qilgan, muzdan tushishi (erishi) 4 kun davom etib, bu payti havo harorati + 5...6°S bo‘lgan.

Bunday dalillarni judayam ko‘p keltirish mumkin, ammo shuni aytish lozimki daryolarni himoyalash va o‘zan rostlash uchastkalarini ishlatish bo‘yicha, mahalliy sharoitda kelib chiqib ishlatish qoidalari tuzilgan bo‘ladi, unda amalga oshiriladigan barcha ishlarning bajarish tartibi, vaqt va usullari ko‘rsatilgan bo‘ladi. Bundan tashqari xar bir uchastka o‘z pasporti va kuzatish jurnallariga ega bo‘ladi. Pasportlarga barcha inshootlar, toshqin va kam suvli (mejen) davrlaridagi daryo oqimining yo‘nalishi ko‘rsatilgan planlar, texnik va mavjud inshootlarning bajarilish chizmalarini ilova qilingan bo‘ladi. Ularda naturada uchastkaning mavjud inshootlari va uchastkaning holati hamda sozligini tezkor ko‘rib (tekshirib) chiqish imkoniyatini beradigan belgilar, nazorat yo‘llari ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Biz bu mavzuda o‘zanlar va o‘zan rostlash inshootlarini ekspluatatsiya qilishning o‘ziga xos bo‘lgan tomonlarinigina yoritib o‘tdik. Gidrouzellar tarkibiga kirgan o‘zan rostlash va himoyalash ishlari, shuningdek o‘zanni ishlatish masalalari yuqorida mos ravishda gidrouzellar turlarini ishlatishga bag‘ishlangan mavzularda ko‘rib chiqilgan.

8.10. Gidromelioratsiya tizimi gidrotexnika inshootlarini ishlatish

Gidromelioratsiya tizimlarida quyidagi gidrotexnika inshootlari ishlatiladi:

-ochiq sug‘orish tarmoqlarida- quvurli o‘tkazgichlar va regulyatorlar, tezoqarlar, vaqtinchalik sug‘orgichlarga suv ochgichlar, dyukerlar, novlar, yomg‘ir suvini o‘tkazuvchi inshootlar, ko‘priklar – o‘tkazgichlar, piyodalar ko‘priklari;

-ochiq zax qochirish – namlantirish tarmoqlarida – quvurli o‘tkazgichlar, ochiq regulyatorlar – o‘tkazgichlar , ochiq perepadlar, ko‘prik – o‘tkazgichlar, piyodalar ko‘priklari;

- yopiq sug‘orish tarmog‘ida – suv oluvchi inshootlar, oraliq va oxiridagi suv tashlamalar, suv qo‘yigichlar, ko‘rish quduqlari, armaturalarni joylashtirish uchun quduqlar, tirkaklar, quyilish inshootlari;

- lotokli kanallarda – regulyatorlar – o'tkazgichlar, suv qo'ygichlar, suv bo'lgichlar, o'tkazgichlar, burilishlar, perepadlar, tashlamalar;
- sholichilik ochiq tarmoqlarida – sug'orgichdan chekga va chekdan chekga suv qo'ygichlar, chekdan tashlamaga suv qo'ygichlar, perepadlar, ochiq sug'orish tarmoqlari inshootlari;
- sholichilik yopiq tarmoqlarida – suv olgich inshootlar, suv qo'ygich – regulyatorlar, suv tashlama – regulyatorlar, suv qo'ygich – suv tashlama – regulyator;
- kanallar, quvurlar, lotoklar, yo'llar va sh.o'.

Gidromelioratsiya tizimlarida qurilgan gidrotexnika inshootlarining xususiyatlariiga: ko'p sonliligi va namunaviy (tipovoy) loyihalar bo'yicha yig'mi hamda yig'mi – yahlit temir betondan, metall va sun'iy materiallardan ishlaganligi (qurilganligi) kiradi. O'mi kelganda shuni takidlash kerakki, hozir 120 dan ortiq namunaviy loyihalar mavjud, ularda 100 ga yaqin qurilish konstruksiyalari qo'llanilgan.

Xuddi shunday cho'kma gruntlarda qurilgan meliorativ inshootlar ham o'ziga xosdir. Xususan ular yuqori ko'zg'aluvchanlikka ega va suv o'tkazmaydigan deformatsion choklar bilan tutashgan, funksiyasi jihatidan mustaqil yoki qo'shma konstruksiyalardan iborat, fazoviy – qattiq seksiyalardan tuzilgan. Undan tashqari bu inshootlar o'tirishni notejisligini pasaytirish uchun xizmat qiladigan qurilmalarga ega, misol uchun maxsus oraliqlar va taqsimlash qatlamlari orqali tekis namlaydigan vositalarga ega. Notejis o'tirish deformatsiyalarini bartaraf qilish uchun flyutbetlar osti bo'shliqlarini to'ldirish, shuningdek inshootlar cho'kishi va qiyshayishini to'g'rilash uchun bosim ostida aralashmalar yuboriladigan teshiklar, vintlar va boshqalar nazarda tutilgan.

Gidromelioratsiya tizimlari gidrotexnika inshootlarini yuqorida keltirilgan xususiyatlari va o'ziga xosligini hisobga olib, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari, uning ekspluatatsiya xizmati ularga muntazam ahamiyat berishi kerak.

Gidromelioratsiya tizimlaridagi muhim ekspluatatsion tadbirlarga inshootlarga o'z vaqtida texnik qarovni amalga oshirish va ularni ishchi holatini ta'minlash, buning uchun ular texnik holatini muntazam kuzatib borish, lozim bo'lsa ularni ta'mirlash ishlari kiradi. Inshootlarga texnik qarov ishlariga kanallarni (qo'l kuchi yoki mexanizmlar yordamida, albatta fermer va dexqonlarni jaib qilib) loyqadan, o'pirilish va siljishlardan tushgan to'kilmalardan tozalash, buzulgan joylarda qiyaliqlarni to'g'rilash va tekislash, kanallar tubi, qiyaliqlari, bermalaridagi, himoya vallaridagi, yo'l to'kmalari va kyuvetlardagi o'simliklarni o'rib olish; suv qabul qilgichlar, kanallar va boshqa inshootlarga tushgan suvni harakatiga halaqit qiladigan begona narsalarni olib tashlash, kanallar o'zanlarini ayrim uchastkalarini o'z vaqtida mus-

to‘g‘ri kelgan, daryoning 9 nuqtasida tiqilish hosil bo‘lgan, u suv sathini 1 m ga ko‘tarilishiga olib kelgan. Tiqilishlar 18 soat ichida bartaraf qilinib suv toshishini oldi olingan. Muzlash havo harorati – 18 ...23°S bo‘lganda vujudga kelgan. Daryo havo harorati +8...19°S bo‘lganda muzdan bo‘sagan.

Daryoning ikkinchi muzlashi 20 kun (01.12 dan 20.12 gacha) davomida Kang-shartal uchastkasida kuzatilgan, bunda havo harorati – 14 ...16°S ni tashkil qilgan, muzdan tushishi (erishi) 4 kun davom etib, bu payti havo harorati +5...6°S bo‘lgan.

Bunday dalillarni judayam ko‘p keltirish mumkin, ammo shuni aytish lozimki daryolarni himoyalash va o‘zan rostlash uchastkalarini ishlatish bo‘yicha, mahalliy sharoitda kelib chiqib ishlatish qoidalari tuzilgan bo‘ladi, unda amalga oshiriladigan barcha ishlarning bajarish tartibi, vaqt va usullari ko‘rsatilgan bo‘ladi. Bundan tashqari xar bir uchastka o‘z pasporti va kuzatish jurnallariga ega bo‘ladi. Pasportlarga barcha inshootlar, toshqin va kam suvli (mejen) davrlaridagi daryo oqimining yo‘nalishi ko‘rsatilgan planlar, texnik va mavjud inshootlarning bajarilish chizmlari ilova qilingan bo‘ladi. Ularda naturada uchastkaning mavjud inshootlari va uchastkaning holati hamda sozligini tezkor ko‘rib (tekshirib) chiqish imkoniyatini beradigan belgililar, nazorat yo‘llari ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Biz bu mavzuda o‘zanlar va o‘zan rostlash inshootlarini ekspluatatsiya qilishning o‘ziga xos bo‘lgan tomonlarinigina yoritib o‘tdik. Gidrouzellar tarkibiga kirgan o‘zan rostlash va himoyalash ishlari, shuningdek o‘zanni ishlatish masalalari yuqorida mos ravishda gidrouzellar turlarini ishlatishga bag‘ishlangan mavzularda ko‘rib chiqilgan.

8.10. Gidromelioratsiya tizimi gidrotexnika inshootlarini ishlatish

Gidromelioratsiya tizimlarida quyidagi gidrotexnika inshootlari ishlatiladi:

-ochiq sug‘orish tarmoqlarida - quvurli o‘tkazgichlar va regulyatorlar, tezoqarlar, vaqtinchalik sug‘orgichlarga suv ochgichlar, dyukerlar, novlar, yomg‘ir suvini o‘tkazuvchi inshootlar, ko‘priklar – o‘tkazgichlar, piyodalar ko‘priklari;

-ochiq zax qochirish – namlantirish tarmoqlarida – quvurli o‘tkazgichlar, ochiq regulyatorlar – o‘tkazgichlar, ochiq perepadlar, ko‘prik – o‘tkazgichlar, piyodalar ko‘priklari;

- yopiq sug‘orish tarmog‘ida – suv oluvchi inshootlar, oraliq va oxiridagi suv tashlamalar, suv qo‘ygichlar, ko‘rish quduqlari, armaturalarni joylashtirish uchun quduqlar, tirkaklar, quylish inshootlari;

- lotokli kanallarda – regulyatorlar – o'tkazgichlar, suv qo'ygichlar, suv bo'lgichlar, o'tkazgichlar, burlishlar, perepadlar, tashlamalar;
- sholichilik ochiq tarmoqlarida – sug'orgichdan chekga va chekdan chekga suv qo'ygichlar, chekdan tashlamaga suv qo'ygichlar, perepadlar, ochiq sug'orish tarmoqlari inshootlari;
- sholichilik yopiq tarmoqlarida – suv olgich inshootlar, suv qo'ygich – regulyatorlar, suv tashlama – regulyatorlar, suv qo'ygich – suv tashlama – regulyator;
- kanallar, quvurlar, lotoklar, yo'llar va sh.o'.

Gidromelioratsiya tizimlarida qurilgan gidrotexnika inshootlarining xususiyatlariiga: ko'p sonliligi va namunaviy (tipovoy) loyihalar bo'yicha yig'mi hamda yig'mi – yahlit temir betondan, metall va sun'iy materiallardan ishlaganligi (qurilganligi) kiradi. O'rni kelganda shuni takidlash kerakki, hozir 120 dan ortiq namunaviy loyihalar mavjud, ularda 100 ga yaqin qurilish konstruksiyalari qo'llanilgan.

Xuddi shunday cho'kma gruntlarda qurilgan meliorativ inshootlar ham o'ziga xosdir. Xususan ular yuqori ko'zg'aluvchanlikka ega va suv o'tkazmaydigan deformatsion choklar bilan tutashgan, funksiyasi jihatidan mustaqil yoki qo'shma konstruksiyalardan iborat, fazoviy – qattiq seksiyalardan tuzilgan. Undan tashqari bu inshootlar o'tirishni notejisligini pasaytirish uchun xizmat qiladigan qurilmalarga ega, misol uchun maxsus oraliqlar va taqsimlash qatlamlari orqali tekis namlaydigan vositalarga ega. Notekis o'tirish deformatsiyalarini bartaraf qilish uchun flyutbetlar osti bo'shilqlarini to'ldirish, shuningdek inshootlar cho'kishi va qiyshayishini to'g'rilash uchun bosim ostida aralashmalar yuboriladigan teshiklar, vintlar va boshqalar nazarida tutilgan.

Gidromelioratsiya tizimlari gidrotexnika inshootlarini yuqorida keltirilgan xususiyatlari va o'ziga xosligini hisobga olib, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari, uning ekspluatatsiya xizmati ularga muntazam ahamiyat berishi kerak.

Gidromelioratsiya tizimlaridagi muhim ekspluatatsion tadbirlarga inshootlarga o'z vaqtida texnik qarovni amalgalash oshirish va ularni ishchi holatini ta'minlash, buning uchun ular texnik holatini muntazam kuzatib borish, lozim bo'lsa ularni ta'mirlash ishlari kiradi. Inshootlarga texnik qarov ishlariga kanallarni (qo'l kuchi yoki mexanizmlar yordamida, albatta fermer va dexqonlarni jaib qilib) loyqadan, o'pirilish va siljishlardan tushgan to'kilmalardan tozalash, buzulgan joylarda qiyaliqlarni to'g'rilash va tekislash, kanallar tubi, qiyaliqlari, bermalaridagi, himoya vallaridagi, yo'l to'kmalari va kyuvetlardagi o'simliklarni o'rib olish; suv qabul qilgichlar, kanallar va boshqa inshootlarga tushgan suvni harakatiga halaqit qiladigan begona narsalarni olib tashlash, kanallar o'zanlarini ayrim uchastkalarini o'z vaqtida mus-

tahkamlash, qishqi davrga inshootlarni konservatsiyaga qo'yish, beton va temir-beton inshootlardagi kichik yoriqlar va o'yiqlarni suvab qo'yish, zatvorlarni ko'tarish va tushishini ta'minlaydigan ko'tarish mexanizmlari va qurilmalariga profilaktika qilish; korroziyadan saqlash uchun metallokonstruksiyalar va detallarni bo'yab qo'yish va h.k. ishlar kiradi. Elektrlashtirilgan ko'targichlar muntazam ravishda reviziya qilinadi va tekshirib boriladi. Elektr jihozlarini yomg'ir, qor, chang iflosliklar tushishidan himoyalash tadbirlari ko'rildi.

Ekspluatatsiya xizmati NO'Aning saqlanishi (reperlar, markalar) ustidan muntazam nazorat o'rnatadi.

Gidrotexnika inshootlarini ishlatish davrida hosil bo'lgan buzulishlarni kelib chiqish sabablari o'rganiladi, undan so'ng ularni oldini olish va bartaraf qilish tadbirlari ishlab chiqiladi, lozim bo'lsa konstruksiyalarni kuchaytirish choralar qo'rildi.

Ekspluatatsiya yo'llari yaxshi holatda ushlanadi. Haydov qismi va yo'l chetidagi qatta toshlar va begona narsalar olib tashlanadi, yo'l yuzasi tekislanadi, chuqur joylari ko'miladi, ko'priq va quvurlar soz holda ushlanadi. Haydov qismi nam gruntu iborat bo'lgan yo'ldan foydalanish qoidasi shundan iboratki, bahorda og'ir mexanizmlarni yurishiga ruxsat berilmaydi, aks holda yo'l qattiq deformatsiyalarini. Bahorgi va yozgi yomg'irlardan so'ng hosil bo'lgan notejisliklar tekislanib boriladi.

Ekspluatatsiya xizmati gidrometrik kuzatish vositalarining holatiga muhim ahamiyat beradi. Ekspluatatsion gidrometriya ko'p gidrometrik postlar, suv o'lchash qurilmalari, kuzatish quduqlari va suv sathini hisobga olish va tartibga solish uchun xizmat qiladigan boshqa moslamalarni o'z ichiga oladi.

IX. Suv oluvchi inshootlar va suv tindirgichlarni ishlatish

9.1. Suv oluvchi uzellardagi ekspluatatsiya tadbirlari

Suv oluvchi inshootlarini to'g'ri ishlatish uni samaradorligi, uzoq muddat ishlashligi va ish qobiliyatini oldindan belgilaydi. Xuddi boshqa tayinlanishga ega gidrouzellar singari, suv oluvchi uzel uchun ham gidrotexnika inshootlarini ishlatish ko'rsatmalari (ishlatish qoidalar) tuziladi. Ekspluatatsiya xizmati quyidagi ekspluatatsion tadbirlarni amalga oshiradi:

- suv oqar (daryo, kanal) ning har xil rejimlari uchun suv oluvchi uzel inshootlari va beflardagi suv sathlarini to'g'ri tartibga solinishini ta'minlash;

- suv oqardagi gidravlik sharoitga qarab gidrouzelga qo'yiladigan talablarga to'la rioya qilgan holda, gidrotexnika inshootlari orqali suv sarflarini o'tkazish, shuningdek suv taqsimlash (suvdan foydalanish rejasiga) grafigini bajarishga erishish;

- suvdan qo‘qim, suzib yuruvchi narsalar, to‘nkalar va sh.o‘. narsalarni tutib, olib tashlash yoki ularni suv tashlama to‘g‘on orqali xavfsiz o‘tkazib yuborish;
- gidrouzel inshootlari orqali mayda muz bo‘laklari to‘plami, muz, qorlarni tiqilish va shovush hosil qilmasdan o‘tkazib yuborish;
- yuqori befqa loyqa cho‘kishi va pastki befni oqizindilar bilan ko‘milishini oldini oladigan yoki bartaraf qiladigan tadbirlarni, lozim bo‘lsa yuqori befdan oqizindilarni gidravlik usulda yuvish yoki mexanik usulda chiqarib tashlash choralarini amalgga oshirish;
- inshootlar pastki beflarini haddan ortiq yuvilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- munta zam ravishda uzel inshootlari va jihozlarining texnik holatini kuzatib borish va ularga texnik qarovni amalgga oshirish;
- gidro texnika inshootlarini shikastlangan elementlarini o‘z vaqtida ta’mirlash;
- qurilish materiallari, jihozlar va moslamalarning avariya zahirasini tayyorlash, saqlash, sarflanganlarini o‘rnini to‘ldirish;
- avariya va avariya holatlarini zudlik (tezkorlik) bilan bartaraf qilish;
- munta zam ravishda inshootlar va jihozlarni estetik ko‘rinishini ushlab turish, shuningdek aloqa, yoritish va boshqa jihozlar ishini nazorat qilib borish.

Ushbu, yuqorida keltirilgan texnik tadbirlarni ekspluatatsiya xizmati, qoidasi, suv olishning quyidagi ekspluatatsion rejimlarida amalgga oshiradi: toshqini o‘tkazish (2...3 variant muqobilida) davrida, normal sharoitda ekspluatatsiya qilinayotganda (1...2 variant), yuz foyizlik suv olishda ($K_{in} = 1$), qishqi davrda ishlatalishda (bu erda, $K_{in} = Q_{in} / Q_g$, Q_{in} – suv olish sarfi, Q_g – daryo sarfi).

Suv oluvchi uzel inshootlarini tarkibidagi grunt to‘g‘on, o‘rab turuvchi dambalar, suv tashlovchi beton to‘g‘onlar, suv olib keluvchi va olib ketuvchi kanallar, shuningdek ulardagи jihozlar texnik holatini kuzatish, ularga o‘z vaqtida texnik qarovni amalgga oshirish, ularni ta’mirlash va mukammallashtirish ishlari darslikning yuqorida berilgan bo‘limlarida etarli bayon qilingan. SHuning uchun quyida suv oluvchi uzelni o‘ziga xos masalalar ko‘rib chiqiladi. Ular orasida sathlarni tartibga solish va suv olgich inshoot suv qabul qilgichiga eng kam oqizindi tushirish shartidan kelib chiqib zatvorlarni manyovrlash, yuqori befni loyqa bosishi va uni yuvish, shuningdek pastki befni oqizindilar bilan ko‘milishi va yuvilishiga qarshi qurashish bo‘yicha tadbirlarni amalgga oshirish eng dolzarb masalalar hisoblanadi

9.2. Suv tashlovchi va suv oluvchi inshootlar ning oraliqlarini ochish xususiyatlari

Suv oluvchi uzellar konstruksiyalarini xilma – xilligi o‘tkazayotgan suv sarflari, kompanovkalanishi, suv oluvchi inshoot va suv tashlovchi to‘g‘on oraliqlarining

soni, qattiq oqim, suvni olish koeffitsienti va boshqa parametrlar bilan xarakterlanib, har bir alohida suv tashlovchi to‘g‘on va suv olgich suv qabul qilgichlari uchun zatvorlarni manyovrash sxemasini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Suv berish grafigi va suv oqar rejimiga muvofiq to‘g‘on zatvorlarini manyovrash sxemasi suv qabul qilgich zatvorlarini ochish sxemasi bilan bevosita o‘zaro bog‘liq.

Suv tashlama to‘g‘onning oraliqlarini ochish. Toshqin suvlari sarfini o‘tkazayotganda suv oluvchi uzellarda sathlar farqi nisbatan kam. Bu holatda to‘g‘onning barcha oraliqlari ochiladi. Bunda beflarni tutashtirish rejimi shunday bo‘ladiki, pastki bef qurilmalaridan keyin mahalliy yuvilishlar vujudga kelmaydi.

Eng kam sarflar (mejen) da, qachonki pastki befda suv sathi past bo‘lsa yuqorida NDS belgisi ushlab turiladi, oqizindini ushlab qoluvchi ochiq galereyalar orqali mahalliy qiyshaygan oqim va yuqori yuvilishlarni keltirib chiqaradigan katta solishtirma sarflar o‘tkaziladi.

Suv qabul qilgich oldida to‘planib qolgan oqizindilarni yuvish davrida oqizindi ushlab qoluvchi galereyadan chiqishda, oqim katta tezlikka ega bo‘lishidan tashqari suv oluvchiga tutashgan to‘g‘onni yana bir yoki ikki oraliq‘ini ochish lozim bo‘ladi yoki ularni almashtiruvchi maxsus yuvuvchi oraliqlarni ochish lozim bo‘ladi. Bu holatda katta solishtirma sarf bilan markazlashgan oqim hosil bo‘ladi, u uyurma sohasi va katta mahalliy yuvilishlarni keltirib chiqaradi.

O‘rtacha toshqin sarfidan o‘zan shakkantiradigan sarfgacha o‘zgaradigan suv sarfi o‘tkazilganda to‘g‘ri yuvgichlar to‘liq ochiladi. Eng kam suv sarfidan o‘rtacha toshqin sarfigacha o‘zgaradigan suv sarflarida suv qabul qilgich zonasidagiga nisbatan suv sarflarini yuvgichlar zonasida ko‘paytirib, to‘g‘on oraliqlari orqali o‘tkaziladi. Bu suv oluvchi inshootga oqizindilar tushishini kamaytiradi.

Egri chiziqli suv olib keluvchi kanal va tub oqizindilarini kam miqdorda bo‘lgan sharoitida suv tashlama oraliqlari bosqichma – bosqich ochiladi: avval birinchi bosqichda qabariq qirg‘oqdan botiq qirg‘oqgacha, undan so‘ng ikkinchi bosqichida xuddi shu tartibda va h.k.

Agar suv oluvchi uzel oqizindilarini ushlab qoladigan egri chiziqli galereyaga ega bo‘lsa, undan eng kam sarfdan o‘rtacha toshqin sarfi oraliq‘idagi suv sarfi o‘tkazilayotganda, oqizindini yuvuvchi oraliq yopiq qoldiriladi. Bu oqizindilarini ushlab qoladigan galereya orqali oqizindilarini yaxshi tushirishga yordam beradi. Daryoda o‘rtacha toshqin sarfidan yuqori suv sarfi o‘tganda suv qabul qilgichga tutash yuvuvchi (promyivnik) ochiladi va oqizindilarni, agar toshqin sarflarini o‘tkazish shartiga bu to‘g‘ri kelsa ushlab qoladigan galereyalar yopiladi.

YOn suv olgich inshoot suv qabul qilgichi zatvorlarini manyovrash. Katta miqdordagi tub oldi oqizindilar bor daryolarda, suv olgichning hisobiy sarfidan kam suv olinganda, suv qabul qilgichga oqizindilarni kam tushirish maqsadida, suv qabul qilgichning butun fronti ishga tushiriladi va shandor ostanasi ko'tariladi. Suv olishning hisobiy sarfidan kam suv sarflarida va suv olish koeffitsienti $K_m \geq 0,5$ bo'lganda, suv regulyatorlarning pastki oraliqlari (шит ostidan) orqali olinadi, yuvuvchi oraliqlar yopiladi. Kam ta'minlanganlikka ega ko'p suv (pavodok) va suv olish koeffitsienti 0,2 ga teng yoki undan kam bo'lganda, suv regulyatorning yuqori qismidan yuvgich oraliqni ochib olinadi.

Frontal suv olgich inshoot suv qabul qilgichi zatvorlarini manyovrash. Kichik suv sarflarida, qachonki suv qabul qilgich oraliqlar 0,4 h gacha (h – suv olgich oldidagi chuqurlik) ochilganda, suv шит ostidan olinadi. Agar zatvorlarni 0,6 h dan ko'pga ochish lozim bo'lsa, unda suv olish uchun shandor ostonasini ishlatish yaxshi bo'ladi. Daryoda judayam ko'p tub oldi oqizindisi bo'lsa shandor ostanasi ko'tariladigan sxemasi qabul qilinadi.

Ko'ndalang sirkulyasiysi bor suv olgich inshoot suv qabul qilgichi zatvorlarini manyovrash. Toshqin suv sarfidan o'zan shakllantiradigan sarfgacha oraliqdagi suv sarfi o'tkazilayotganda va $K_m < 0,5$ bo'lganda suv qabul qilgich zatvorlarni manyovrash, boshqarishga qulaylik shartidan kelib chiqib qabul qilinadi. Bu holatda suv qabul qilgich oqizindilar tushishidan ko'ndalang sirkulyasiya yordamida himoyalanadi, K_m ning katta qiymatlarida ochiq holatda bo'lgan yuvuvchi tomon yo'nalgan oqimning dinamik o'qini barqarorligini ta'minlash zarur bo'ladi. Bu quyidagi usullardan birini qo'llab amalga oshiriladi: suv qabul qilgichning oraliqlarini bir qismini yopish lozim bo'lganda yuvgichdan eng uzoqda joylashgan oraliq yopiladi, bunda yuvgichga tutash oraliq to'liq ochiladi; suv qabul qilgichni шит ostidan oqish sharoitida ishlayotgan oraliqlarini qaysi biri yuvgichga yaqin joylashgan bo'lsa, o'shasi ko'proq ochiladi; qisman shandorlar bilan berkitilgan oraliqlarni ochilishini yuvgichga yaqinlashgan oraliqlardan boshlab ko'paytiriladi.

Agar oqizindilar yuqori befda akkumulyasiya qilinadigan bo'lsa manyovrash sxemasi boshqarishni qulaylashtirish shartidan kelib chiqib ixtiyoriy qabul qilinadi.

9.3. Inshootning yuqori va pastki beflarida loyqa bosishiga qarshi kurash

Ko'p miqdordagi (4...6 kg/m³ va undan ko'p) oqizindisi bor daryolarda qurilgan suv olish uzellarining loyqa bosishining asosiy sabablari: suvning dimlanishi va oqim tezligini kamayishi natijasida oqimning transportlash qobiliyatini sezilar pa-

sayishi; suv omborida oqizindilarni akkumulyasiya qilish uchun kam hajm borligi; uzelni kompanovkalashda oqimni dinamik o‘qini o‘zgarishga olib keladigan beflardagi o‘zanlarni qayta tashkil topishini etarli hisobga olmaslik; suv olishning yuqori foyizi; suv olish uzeli etarli darajada malakali ekspluatatsiya qilinmasliklari hisoblanadi.

Suv olish uzelini ishlatish davrida, yuqori va pastki beflarni loyqa bosishi mumkin bo‘ladigan sharoitda sathlar rejimi, yuvishlar rejimlari, yuvadigan sarfni va vaqtini to‘g‘ri tayinlanishlariga alohida ahamiyat beriladi.

Sathlar rejimi ma‘lum darajada beflarni oqizindilar bilan ko‘milishi va uzelni butunligicha o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq. Markaziy Osiyo, Kavkaz orti, SHimoliy Kavkaz, Qozoqiston suv oluvchi uzellarini ekspluatatsiya qilish tajribasi, 3...7 m napori bilan va ostonasi daryoning o‘rtacha belgisida bo‘lgan, suv oluvchi uzellar yuqori beflarini yuvishni ishlatishning dastlabki yillaridan boshlash zarurligini ko‘rsatgan. Tog‘li va tog‘ oldi xududlardagi gidrouzellarni ishlatishni boshlanishidan yuqori befida baland sath ushlanadi. Loyihadagiga nisbatan past sathlarda befning tepe uchastkalaridan kelayotgan yirik oqizindilar bevosita uzel inshootlarigacha cho‘zilib keladi. Undan keyin sathni ko‘tarilishi yuqori befni oqizindilar bilan ko‘milishiga yordam beradi.

Oqizindilar gryadasi gidrouzel stvoriga sekinroq harakat qilib kelishi uchun, toshqin paytida, yuqori befda, sathni iloji boricha yuqoriga ko‘tariladi. Tog‘ uchastkalarida, qachonki dim egri chizig‘i uzunligi uncha (1 km atrofida) ko‘p bo‘lmaganda, eng ko‘p sathni toshqin tushgan paytida ham ushlab turiladi, chunki bu vaqtda hali oqizindilarning ko‘p miqdordagi harakati kuzatilmaydi. Ko‘ndalang sirkulyasiyasi bor past naporli uzellarda (Farg‘ona turidagi) yuqori sathni ushlab turishga zaruriyat bo‘lmaydi, chunki bu erda ko‘ndalang sirkulyasiya kuchayadi va shuning bilan pastki befga oqizindilarni tashlash yaxshilanadi. Frontal turdag'i suv oluvchi uzellar yuqori beflarini oqizindi bosishini oldini olish uchun, toshqin kelishi bilan sath past ushlanadi, kuzgi-qishqi davrda esa sathni baland ushlashadi. Bu shartlarni bajarmaslik yuqori befni qayta shakllanishiga olib keladi va daryo shahobchalanadi, oqizindilar dan oralchalar, qumli sayoz joylar hosil bo‘ladi yoki oqizindilarning asosiy gryadasi suv olish uzeli stvoriga qarab siljiydi.

YUvish rejimi suv olish uzeli beflarini oqizindilar bilan ko‘milish shartlari bilan belgilanadi. YUvishlar soni daryoning gidrologik rejimi va suv olish koeffitsientiga bog‘liq. YUqori befni yilga 2 marta, gidrograf piki vaqtiga moslab yuvish kerak degan tavsiyalar ham mavjud. Bunda yuqori bef tubining belgisi sezilari ko‘tarilgan payti toshqinni past sathda o‘tkazib, yuqori befni yuvish mumkin bo‘ladi.

Suv olish koeffitsienti bir stvorda yuqori bo'lib, inshootdan pastga katta miqdorda oqizindilar tashlansa, suvning kam sarfida pastki bef oqizindilar bilan ko'miladi. Unda cho'kib qolgan, sathlarni ko'targan va gidrouzeldagi perepadni kamaytigan oqizindilarni, suv qabul qilgichga suv uzatishini to'xtatib, toshqin paytida yuvib yuboriladi.

Ko'ndalang sirkulyasiyasi bor (Farg'ona turi) inshootlarining yuqori beflari ham toshqin payti yuviladi. Bunda suv qabul qilgichni to'xtatishga extiyoj qolmaydi. YUqori befni katta miqdorda oqizindi bosganda, xuddi shunday toshqin paytida, sathlarni to'la tushirib va butun suv tashlama front bo'ylab solishtirma sarfni tekis taqsimlab, oraliqlarni to'la ochib qo'yib yuviladi. Bunda suv qabul qilgichga suv berishni to'xtatishni iloji bo'lmasa va mos ravishda yuqori befdagi suv sathni naporning yarim qiymatiga va undan ko'pga ($h = 5\dots7$ m bo'lganda) tushirib amalga oshiriladi. Toshqin ko'tarilayotganda eng kam suvli davrdan qolgan oqizindilar, toshqinna tushishida esa sersuvlik davrida cho'kib qolgan oqizindilar yuviladi.

Suv olish uzeli, shu jumladan Farg'ona turidagisida ham, yuvish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: avval yuqori befdagi suv sathini yuqori qilib, to'g'onnini o'rta oraliqlari orqali suvni markazlashgan holda va eng ko'p solishtirma sarflar bilan pastki bef yuviladi, undan so'ng yuqori bef suv sathini pasayuvchi egri chizig'ini hosil qilib, to'g'on oraliqlarini barchasi ochib qo'yilib, yuviladi. Katta toshqin paytlarida ham yuqori ham pastki beflarni yuvish maqsadga muvofiq bo'ladi.

YUvish uchun suv sarfi va yuvish muddati har bir muayyan holatda analog yoki hisob-kitob bo'yicha qabul qilinadi, so'ng esa ishlatalish davrida yuvish tajribalarini o'tkazib ularga aniqlik kiritiladi. YUvish davrida oqimning jo'shqin holatini ta'minlash muhim hisoblanadi. Bunda oqim tezliklari yuqori bo'lib qumli sayoz joylarni buzush va oqizindilarni transportlash imkoniyati paydo bo'ladi. Markaziy Osiyo sharoitida, SANIIRI ma'lumotlari (A.M. Muhamedov) bo'yicha unchalik katta bo'limgan o'rtacha yillik suv sarfi Q_{mj} bor daryolar uchun yuvish sarfi taqriban ($3\dots4$) Q_{mj} va o'rtacha yillik katta suv sarfiga ega daryolar uchun ($1\dots1,5$) Q_{mj} ga teng qabul qilinadi. YUvish sarfi o'rtacha yillik sarfdan $2\dots4$ marta ko'p qabul qilinishi kerak degan fikrlar ham mavjud. Agar yuvish uchun bunday sarflarni ta'min etishning iloji bo'lmasa, unda yuvish kam suv sarflarida amalga oshiriladi. Bunda dar-yodan pastki befga tashlanayotgan har qanday sarfdan yuvish uchun foydalanish mumkin bo'ladi. Toshqin tushishi paytida yuvish eng yaxshi samara beradi. Kam suvlilik paytida kam suv sarfi bilan yuvish, agar u suv olish sharoitini yomon ahvolga olib kelmasa, oqizindilarni unchalik katta bo'limgan kenglik va uzunlikga ega o'yiq hosil qilib yuvish imkoniyatini beradi.

Suv olish uzelini normal ekspluatatsiya qilishda yuqori befni 4...6 m napor bilan yuvish vaqt 3...4 soat qabul qilinadi, napor 6...7 m bo'lganda esa – 6...8 soat (A.M. Muhamedov ma'lumotlari). I.I. Kuxianidze esa bu vaqtini 8...10 soat qabul qilishni tavsiya qiladi. Bu fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, yuvish vaqtiga har bir gidrouzel uchun uni gidrologik va konstruktiv xususiyatlardan kelib chiqib aniqlik kiritilib borilishi zarur. Gidrouzelnini sezilarli darajada loyqa bosganda real sharoitdan kelib chiqib yuvish bir necha (ko'p marta) marta o'tkaziladi. Energetika gidrouzellarida yuvish vaqtini GESni profilaktikaga to'xtatilgan vaqtga to'g'rilanadi, bu vaqt 1 sutka va undan ko'p bo'lishi mumkin. YUvish davriy ravishda yuqori befda suv sathi ko'tarilib va agar pastki bef qurilmalari bunga yo'l qo'ysa, to'g'on oraliqlarini to'liq ochib suv tashlab, bir necha marta qaytariladi. Farg'ona turidagi suv olish uzelidagi GES uzoq muddatga to'xtatilganda beflarni umumiyligi yuvish 2...3 sutka davomida uzlucksiz o'tkaziladi, bunda yuqori befni yuvish uchun ketgan vaqt 1 sутkadan ko'pni tashkil qilmaydi. Qisman suv sathi pasaytirilgan holda (30% oraliqda) suv olish uzellarini yuvish vaqt 5...6 m napor bo'lganda, taxminan 2 martaga ko'paytiriladi.

YUvish paytida avval, agar ular bor bo'lsa, yuvuvchi oraliqlar ochiladi, undan keyin – suv qabul qilgichga yaqin joylashgan to'g'on oraliqlari ochiladi. YUqori befda suv sathini ko'tarish va bir vaqtida yuvuvchi oraliqlarni ochish yo'li bilan cho'ntak (karman) lar yuviladi. Bunda ko'p miqdorda o'rnidan qo'zg'atilgan oqizindilarni tushishidan qochish maqsadida suv olish inshooti yopib qo'yiladi. Daryoning sarfi qancha bo'lishidan qati nazar yuvish vaqtini 0,5...1 soatni tashkil qiladi. Xuddi shunday yuvish sxemasidan napor 2...3 m bo'lgan, tog' xududlarida joylashgan, suv olish uzellarida ham foydalilanildi.

Kam suvlik davrda oqizindilarni yaxshi yuvish uchun toshlar, yuvilmaydigan bo'lib qotib qolgan (samootmastka) joylar olib tashlanadi va oqim oqadigan kerakli joylar o'yib qo'yiladi.

9.4. Loyqani cho'ktirish maqsadida suv tindirgichlarni foydalanish

Suv tindirgichda loyqa cho'ktiriladigan davrda ekspluatatsiya xizmatining asosiy vazifasi – oqimni undan chiqishida yo'l qo'yiladigan loyqalikni ta'min etishdir. Buning uchun barcha kanallar va himoyalananadigan uchastkalarni transportlash qobiliyatini bilish zarur. SHu maqsadda (shu uchastka uchun) oqizindini har bir fraksiyasi i alohida $\rho_{tr,i}$ topish imkoniyatini beradigan har qanday ucul bilan kanal uchastkasining transportlash qobiliyati aniqlanadi. Suv tindirgichga kirishdagi haqiqiy (amalda)

mavjud har bir fraksiyaning loyqaligi $\rho_{ent,i}$ ni bilib, suv tindirgichda cho'ktiriladigan fraksiyaning loyqaligi hisoblanadi.

$$\rho_{s,I} = \rho_{ent,i} - \rho_{tg,i} \quad (9.1.)$$

suv tindirgichda cho'ktiriladigan barcha fraksiyalarning loyqaligi

$$\rho_s = \sum \rho_{si},$$

bo'ladi.

YUvilishlar oralig'i intervalida oqizindilarni cho'kib qoladigan taxminiy hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$W = 86,4 Q_s T \rho_s / \gamma_{dr} \quad (7.2.)$$

bu erda Q_s – suv tindirgich suv sarfi, m^3/s ;

T - suv tindirgichni loyqa bosish vaqt, sut;

ρ_s – suv tindirgichda cho'ktiriladigan fraksiyalar loyqaligi, kg/m^3 ;

γ_{dr} – suv tindirgichda cho'ktiriladigan oqizindilarning $1,2\dots1,4 \text{ t/m}^3$ ga teng o'rtacha zichligi.

Ammo suv tindirgichda cho'ktirib qoldirilgan oqizindining amaldagi hajmi hisoblangan hajmga nisbatan ko'p yoki oz bo'lishi mumkin, chunki cho'kish jarayoni suv tindirgichga kirish sharoiti, undagi suvning tezligi, to'lqin va sh.o'. larning mavjudligiga bog'liq.

SHuning uchun suv tindirgichni ishlatish davrida uning kameralariga kirishdan oldin solishtirma sarfni tekis taqsimlanishini ta'min etish zarur bo'ladi. Bu bosh regulator zatvorlarini bir tekis ochish va tezliklarni to'g'rilashga xizmat qiladigan panjaralarni o'rnatish orqali erishiladi. Bunda suv tindirgichda to'xtab qolgan va uyurum zonalarsiz oqim rejimi ta'minlanadi. Suv tindirgichdagi suv sarfi, uni loyqa bosish darajasi va unga kirishdagi loyqalikga bog'liq ravishda hisoblangan sathlarga mos suv sathlari ushlab turilishi lozim. Ishlatish jarayonida sathlar rejimi muayyan sharoitdan kelib chiqib korrektirovka qilib boriladi.

Davriy ravishda, suv tindirgichni loyqa bosishi davrida, kamida $3\dots5$ marta, suv tindirgichdan keyin yo'l quyiladigan loyqalikni ta'minlash shartidan kelib chiqib, suv tindirgichni loyqa bosishi to'g'risida xulosa qilish va undan suv sathlariga korrektirovka kiritish uchun cho'kib qolgan oqizindilar sirti o'chanadi. O'chanlar 10...15 stvorda olib boriladi, bunda suv tindirgich boshida o'chanov stvorlari zichroq belgilanadi, oqizindilar kam cho'kkani oxirigi uchastkada esa siyrak belgilanadi. Suv tindirgich kameralari kengligi bo'ylab solishtirma sarf bir tekis taqsimlanganda,

o'Ichovlarni oqim o'qi bo'ylab amalga oshirishga yo'l qo'yiladi. Aks holda, har bir stvorda, cho'kib qolgan oqizindilar sirti belgilari 3...5 nuqtada o'chanadi.

Suv tindirgichlarni ekspluatatsiya qilishda muntazam kuzatuvlar olib borish va oqim loyqaligi hamda oqizindilarini fraksion tarkibini suv tindirgichga kirish va chiqishda aniqlash uchun laboratoriya tahlillarini o'tkazish muhim ekspluatatsion tadbirlar hisoblanadi. SHu maqsadda gidrometriya usulida muntazam ravishda suvdan namunalar olib boriladi va maxsus laboratoriyada loyqaligi tahlil qilinadi. Namunalar yukga qo'yilgan GR - 15 M turidagi batometr – butilka yordamida olinadi. Bu asbob suv chuqurligi 1...1,5 m, oqim tezligi 2,5 m/s gacha bo'lganda qo'llaniladi. Bundan tashqari shtangaga o'matilgan RR - 16 M turidagi betometr – butilkadan ham foydalilaniladi. Bu asbob ham 1...3,5 m chuqurlikda oqim tezligi 1 m/s gacha bo'lganda namuna olish uchun qo'llaniladi. Xuddi shunday tadqiq qilinadigan qatlordan bir vaqtida haroratni o'chaydigan va suvdan namuna olish uchun GR - 18 turidagi batometr ham ishlataladi. Hajmi 3 litr bo'lgan GR - 61 turidagi modernizatsiya qilingan vakumli batometr oqim tezligi 3 m/s gacha bo'lgan 20 m gacha chuqurlikdan, oqim tezligi 1 m/s gacha, 10 m gacha chuqurlikdan integratsiyalashgan usulda suvdan namuna oladi.

Suv tindirgichda yuvish shartini to'g'ri baholash uchun, davriy ravishda undagi oqizindi cho'kindilarini tahlil qilib borish zarur bo'ladi. SHu maqsad uchun GR-69 turidagi, tub uupi bilan tub oqiziqlaridan namuna oladigan GR - 86 turidagi namuna olgichdan, D4 - 0,025 turidagi tubni kovlab oladigandan, GR-91 turidagi shtangali tubni kovlab olgichlardan foydalaniladi.

Oqizindilarini fraksion tarkibi laboratoriya sharoitida GR - 82 fraksiometri yoki PI - 22 turidagi pipetkali qurilma yordamida aniqlanadi. PI - 22 qurilmasi oqizindi va gruntlar fraksion tarkibini yiriklik 0,05 mm va undan kam bo'lganda namuna olish va tahlil qilish uchun ishlataladi. U suspenziyani 6 tagacha namunasidan bir vaqtini o'zida tahlil olish imkoniyatiga ega. GGI ishlab chiqqan GR-82 fraksiometri 1 dan 0,05 mm gacha oraliqda fraksiyalarga ajratib, qumli oqizindilarini granulometrik tarkibini aniqlash uchun xizmat qiladi. U har xil yiriklikdagi qattiq zarrachalarni gidravlik yiriklikka teng tezlik bilan turgan suvda tushish xossasidan foydalanishga asoslangan. Asbob tarkibiga diametri 50 mm va uzunligi 1565 mm bo'lgan silindrik shisha trubka kiradi. Trubkani pastki oxiri konus ko'rinishidagi qisqarishga ega bir biri bilan rezina va maxsus qisqichlar bilan tutashtirilgan, u joyga shisha trubkalar mahkamlanadi. Asbob oqizindilar bilan namunani gidravlik yiriklik bo'yicha fraksion tartibga ajratish imkoniyatini beradi.

Eng ko‘p loyqalik odatda daryo toshishi va kuchli yomg‘ir suvlarini o‘tish davrida kuzatiladi. Bu holatda suv tindirgichga kirayotgan oqim umumiy loyqalik va fraksion tarkibini bilish uchun har kuni tahlil qilib borish talab qilinadi, bu suv tindirgichni kanallarida yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan loyqa bosishini oldini olish choralarini ko‘rish va kerakli rejimini ta‘minlash imkoniyatini beradi. Tekislik joylardagi daryolarda, kuchli yomg‘irli davrlarda, muallaq holdagi oqizindilarning loyqaligi 3...5 dan 20 kg/m³ gacha va undan ko‘pga o‘zgaradi. Bu holatda ba‘zan suv tindirgichda kanallarni loyqa bosishiga yo‘l qo‘ymaydigan rejimni ta‘minlashni iloji bo‘lmaydi. Bu holatda suv olish inshootining suv qabul qilgichiga suv berishni chegaralash lozim bo‘ladi. Ayrim holatlarda suv olish inshooti to‘liq yopiladi.

Suv tindirgichda oqizindilarni cho‘kish sharoiti shamolli obi – havoda, buning ustiga shamol yo‘nalishi suv tindirgich o‘qi yo‘nalishiga mos bo‘lib qolganda qiyinlashadi. Bu holatda to‘lqin hosil bo‘ladi ,u oqimni yuqori turbulentligini va oqizindilarni cho‘kishini yomonlashtiradigan sharoitni keltirib chaqaradi. Kanalga yo‘l qo‘yladigan loyqalikni ta‘min etish uchun suv omboridan hisobiy suv sathlariga tuzatmalar kiritib borish zarur bo‘ladi. A.I. Egorov ma’lumotlariga ko‘ra shamolli obi – havoda oqizindilarni cho‘kish foyizini kamayishi, shamolni 10 m/s tezligigacha oraliqda xaqqoniy bo‘lgan, quyidagi bog‘lanish orqali baholanishi mumkin:

$$R_{\omega} = R_o - 1,5 \cdot v_{wi}^{1,1} \quad (9.3.)$$

bu erda R_o – shamol bo‘lganda oqizindilarni cho‘kish foyizi;

v_{wi} - suv tindirgichdagi suv sathidan 2 m balandlikdagi shamol tezligi, m/s.

9.5. Suv tindirgichlarni loyqa cho‘kindilardan tozalash

Suv tindirgichlar gidravlik, mexanik va kombinatsiyalashgan usullarda tozalanadi.

Tozalashning gidravlik usuli eng arzon usul hisoblanadi, u betonli suv tindirgichlarda ko‘proq qo‘llaniladi. Gidravlik yuvishdan oldin loyqa bosgan kamera yopiladi, suv suv tindirgichni boshqa kamerasi orqali o‘tkaziladi. Agar suv tindirgich bir kameralik bo‘lsa, unda kanalga suvni tindirmsandan olish imkoniyatini beradigan maxsus suv qabul qilgich orqali beriladi. Suv tindirgichni yuvishni suv olish uzeli inshootlarini ishlatish qoidalarida belgilangan suv sarflari bilan amalga oshiriladi. Ammo uning qiymati ishlatish jarayonida korrektirovka qilib borilishi zarur. YUvish suv sarfi ($0,5\dots1 Q_{s, \theta}$, oraliqda va undan ko‘p qabul qilinadi. Suv tindirgich oxiridagi regulyatorini yopib va boshidagisini hamda yuvadigan regulyatorlarni ochib qo‘yib

yuvish amalga oshiriladi. Bosh regulator odatda шит ostidan oqim o'tkazib ishlaydi. Suv tindirgichda tezoqardagidek harakat rejimi o'rnataladi, bunda oqim tezligi 4...6 m/s ga etadi. Bu holda oqim katta transportlash qobiliyatiga ega bo'ladi, u 100...200 kg/m³ ga etadi. Etarli perepad bo'lgan sharoitda suv tindirgichni yuvish uchun ketgan vaqt bir necha soatdan 1 sutkagacha vaqtini tashkil qilishi mumkin.

YUvishlar orasi intervali suv tindirgich konstruksiyasi va uni ishlatish qoidalari bo'yicha belgilangan ish rejimi sharoitiga bog'liq. Suv tindirgichning unchalik katta bo'lmagan kameralarini tezroq loyqa bosadi, katta hajmli kameralarni esa sekinroq loyqa bosadi. Sug'orish tizimi daryo tomonidan dim holatda, ayrim oraliqda ishlaydigan suv tindirgichlarida, qachonki daryoda sath va sarflar katta, oqim loyqaligi unchalik ko'p bo'lmasa yuvishlararo interval 1 oyga va undan ko'pga etishi mumkin. Bu holatda yuvishning boshlanishi ancha keyinga qoldirilishi, daryoda suv sathi past bo'lgan muddatga o'tkazilishi mumkin. Issiq iqlimli xududlarda katta loyqalikda oqizindilar uzoq, 1 oy va ko'p muddatda va asosan suv tindirgichni bosh qismida cho'kadi. Bu holatda, unda suvning unchalik katta bo'lmagan chuqurligida, oqizindi yotqiziqlarida kichik suv o'tlari o'sib ketadi, ular ildizlari oqizindilar yuqori qatlamini mustahkamlaydi, bu esa o'z navbatida yuvishni qiyinlashadiradi. Odatdagi oqizindilarni yuvishning qanoatlantiradigan shartini ta'minlash uchun oqim tezligi 1,8...2 m/s va undan ko'p bo'lishi kerak, yotqiziqlar sal – pal o'sgan bo'lsa – 3...4 m/s va undan ko'p bo'lishi lozim.

Suv tindirgich kichik perepadda, qachonki daryo tomonidan yuvish traktida dim bo'lsa, vaqtincha yuvishni to'liq emas, balki qisman amalga oshirish mumkin. Ammo imkoniyat paydo bo'lishi bilan to'liq yuvilishi lozim. Aks holda suv tindirgich kameralaridagi oqizindilarni nafaqat mayda suv o'tlari bosadi, balki u vaqt o'tishi bilan zinchlashadi (yotaverib zinchlashadi), ularni gidravlik usulda yuvish qiyinlashadi. YUvish vaqtida daryo uchastkasiga loyli suv (pulpa) tashlanayotgan joyga ahamiyat beriladi, chunki u joyda loyqa uyulib qolib dim hosil bo'lishi va tashlash traktini o'tkazuvchanlik qobiliyati kamayishi mumkin.

Tozalashning mexanik usuli gidromexanizatsiya vositalari (zemsnaryadlar yordamida) dan foydalanishga asoslangan. Suv tindirgichning tuproqli o'zanini tozalash uchun suv tindirgich o'lchamlari va zemsnaryadlar ish unumdorligidan kelib chiqib zemsnaryadlar markalari tanlanadi. Kamera o'qi bo'ylab papilonaj sxemada harakatlanadigan va VNIIGiM da ishlab chiqilgan zemsnaryadlar kovlaydigan (zaboy) front kengligi 30 m bo'lganda eng foydalii. 40...45° burchak ostidagi joylashgan qiyaliklari bor uch burchak shaklli suv tindirgichlarni tozalash uchun F.S. Salaxov taklif qilgan qo'zg'aluvchan sifon qurilmasidan foydalanish mumkin. Tuproq o'zanli

keng suv tindirgichlar va magistral kanallarni tozalash uchun ilashimli va ilashimsiz gruntlarda ishlaydigan, ish unumi $180 \text{ m}^3/\text{soat}$ bo'lgan ZRS - G turidagi zemlesoslar qo'llaniladi, shuningdek M3 - 8, MZ - 10 va MZ - 11 va boshqa zemlesoslar ishlatiladi.

Beton qoplamasi bor suv tindirgichlarni tozalash uchun maxsus zemlesoslarning nusxalari ishlab chiqilgan, lekin bir qator sabablarga ko'ra ulardan hozircha amaliyotda foydalaniilmaydi.

Kombinatsiyalashgan tozalash tuproq o'zanli, kameralar devorlari va qiyaliklari betondan qilingan, suv tindirgich tubi esa mustahkamlovchisiz qilingan sharoitlarda qo'llaniladi. Bu holatda zemsnaryadlarni ishlatish xususiyati shundan iborat bo'ladiki, beton mustahkamlovchi asosidan ortiqcha gruntni kovlab chiqarish xavfi paydo bo'ladi, bu uni buzulishiga olib keladi. Suv tindirgichni gidromexanik tozalashda, o'z vaqtida, yuvib chiqarilgan oqizindini qo'yish joyi tayyorlanishi lozim. SHu maqsadda chiqarilgan loyqa buldozerlar yordamida vaqtiga vaqtiga bilan tekislanib turiladi.

Ba'zida suv tindirgichlarni oqizindilardan tozalash uchun ekskavator va buldozerlardan ham foydalaniлади. Bu usul to'g'onsiz suv olish inshootlarining kanal – suv tindirgichlarini tozalashda keng qo'llaniladi. Ammo har bir holatda tozalash usulini tanlash texnik – iqtisodiy asoslash yo'li bilan amalga oshiriladi.

X. Baliqlarni o'tkazuvchi va himoyalovchi inshootlarni ishlatish

10.1. Baliqlarning biologik qonuniyatları

Markaziy Osiyoda baliqlarning 110 ga yaqin turi uchraydi. Baliqlarning har biri urug' qo'yish uchun chuqurlik, suvning harorati, gaz bilan to'yilganligi, tubini o'simlik bosganlik holati, oqizindilar rejimi, suvning kimyoviy tarkibi, biologik shart-sharoit, tiniqlik va boshqalar bilan xarakterlanadigan qulay joy qidiradi. Ko'chib yuradigan baliqlar (osyotr balig'i, oq baliq (tuya baliq), sevryuga, losos va boshq.) uchun urug' qo'yadigan joyda tub shag'al tosh – yirik qumli, yarim ko'chmanchi (sazan, lesh, vobla, sudak, taran balig'i, karp) baliqlari uchun – odatda poymadagi tub o'tli bo'lishi kerak. O'tiroq baliqlar bir joyni o'zida hayot kechiradi va urug' qo'yish uchun ko'chib yurmaydi.

Ko'pchilik tutib olinadigan baliqlar urug' qo'yish uchun daryoning tepasiga boradi, undan so'ng urug'dan chiqqan (malki) baliqchalar oqim bo'yicha doimiy yashash joyiga kelib tushadi. Baliqlarni tabiiy yashash sharoitiga gidrotexnika inshootlari (halaqit) to'sqinlik qiladi, shuning uchun ham ko'chib yuruvchi va yarim ko'chmanchi baliqlarni ishlab chiqarish birdan yomonlashgan. Baliqlar zahirasi

faqtgina ularni tutish bilan kamaymaydi, balki tabiiy urchish joylarini buzulishi, suv olish inshootlarida kichik baliqchalarini o'lishi, baliqchilik qoidalarini buzulishi, baliq xo'jaligi tadbirlarining hajmini etarli emasligi, suv havzalarini ifloslanishi, ko'p suv suv xo'jaligi ehtiyoji uchun ishlatalishi, qo'zg'aluvchi mexanizmlar, shu jumladan nasos stansiyalari va GES lar tomonidan baliqlarni jarohatlanishi yoki umuman ularni o'ldirilishi, suv sathi va sarfini o'zgarib turishi, baliqlarni o'tkazuvchi inshootlar va ularni ishlash mukammalashmaganligi sababli kamaymoqda.

Baliq zahiralarini qayta tiklash va saqlash uchun, gidrouzellar orqali baliqlarni urchish joylariga o'tishini yaxshilash bo'yicha, malakali tadbirlar o'tkazilishi kerak. Bunda Gidroprektning NISi, ichki suvlar biologiyasi instituti, hayvonlar evolyusion morfologiyasi va ekologiyasi instituti, GOSNIORX, NIMI va boshqa ilmiy tashkilotlar tadqiqotlari asosida baliqlarning xarakter belgilari (biologik qonuniyatlar) hisobga olinishi zarur. Baliqlar migratsiyasi davrida o'zan relefi, oqim xarakteriga qarab ko'zi bilan yo'l topadi. Bundan tashqari baliqlar yo'l topishiga nur, elektr, akustik (tovush), issiqlik, kimyoviy va boshqa signallar ham ta'sir qiladi. Ammo ularning baliqlar xarakteriga ta'siri haliyam kam o'r ganilgan.

Seld balig'i, lesh va boshqa baliqlar suvni yuza qismida migratsiya qiladi, sevryuga, osyotr balig'i, laqqa baliq va boshqa baliqlar suvning tubi oldi zonasida migratsiya qiladi. Osyotra baliqlari teng chuqurliklar chizig'i (izobat) bo'ylab, tub oldi zonasida, relef yon – bag'ri ustida, qirg'oq bo'yи sayozliklarini chetlab o'tib harakatlanadi. Baliqlarni faol harakatlanishi jadal oqimga ega uchastkalarda kuzatiladi. Uyurum zonalari baliqlarni yo'ldan chiqaradi. Uyurumda baliqlar odatda, aylana bo'yicha oqimga qarshi harakatlanadi. Notekis tezliklari bor oqimda bir tomonga yo'nalgan harakat kuzatiladi. Bir xil tezliklarga ega katta xududni egallagan tinch turgan suvda yoki oqimda baliqlar shamol oqimiga qarshi harakatlinib bir tekis taqsimlanadi. To'siq (devor, transheya, pog'ona va sh.o.) ga kelganda baliqlar o'tish joyi izlab to'siq bo'ylab oqimga qarshi harakatlanadi. Gidrotexnika inshootlarini ishlatalida bu omillarni hisobga olish baliqlarni jalb qilish va o'tkazish maqsadida to'g'on zatvorlarini to'g'ri manyovrashni oldindan belgilaydi. Ammo faqat baliqlarni jalb qilishning sifat tomonlarini bilish, etarli emas, chunki kiraverishdag'i kichik tezliklarda ($0,15\ldots0,25$ m/s atrofida) ko'pchilik baliqlar oqim harakatini sezishmaydi va unda yo'l topishi olmaydi. Ayni paytda oqimning shunday tezligi (olib ketadigan) mayjudki bunda baliqlar bu tezlikni qiyinchilik bilan bosib o'tishadi. SNiP 2.06.07-87 ga muvofiq baliqlarni jalb qiladigan oqimning eng qulay tezligi: osyotra baliqlari (osetr, sevryuga, oq baliq va boshq.) uchun – $0,7\ldots1,2$ m/s, losos baliq (losos, syomga, gorbusha va boshq.) lari uchun – $0,9\ldots1,4$ m/s, yarim ko'chmanchi (lesh,


sudak, zog‘ora baliq, vobla va boshq.) baliqlar uchun – 0,5...0,8 m/s ni tashkil qiladi. SHunday bo‘lsada amalda baliqlarni jalb qiladigan tezliklar har doim ham yuqoridagi tezliklarga to‘g‘ri kelavermaydi. Masalan, V.N.SHkura Don daryosi Koschetovskiy va Nikolaevskiy gidrouzellardan oлган ma‘lumotlarga ko‘ra, bu tezliklar osyotralar uchun – 1,9...2 m/s; sellar uchun – 1,3...1,6 m/s, chexonlar uchun 1,3...1,5 m/s, karplar uchun – 1,1...1,3 m/s, leмлар uchun – 1,1...1,3 m/s tashkil qilar ekan. Extimol jalb qiluvchi tezliklarni bunday farqlanishiga faqatgina baliqlarni turlari emas. balki suv havzaning holati, undagi o‘rtacha tezliklar, pastki befda solishtirma sarflarni taqsimlanish xarakteri va gidrouzelning xususiyati, shuningdek boshqa omillar ta’sir qiladi. Bundan tashqari V.N.SHkura ma‘lumotlariga ko‘ra oqimning jalb qiluvchi zonasida 0,026 gradienti bilan tezlikning notejis taqsimlanishi mavjud bo‘lishi kerak. SHundan kelib chiqib aytish mumkinki gidrouzel ekspluatatsiya qilinayotganda baliqlarni jalb qilish tezliklariga aniqlik kiritib borish zarur bo‘ladi.

Bir qator gidrouzellarda olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatganki, har xil baliqlarda sutka bo‘yicha migratsiya ritmi kuchli ravishda o‘zgargan. Kunduzi eng ko‘p migratsiyani sold, leш, oq karp, chexon, sudak va boshqa baliqlar amalga oshirgan, kechasi va tunda esa laqqa baliq, sudak, gustera, karplar va boshqalar amalga oshirgan, sutka bo‘yi, shundan kechasi ko‘proq migratsiyani osetr, sevryuga va boshqa baliqlar amalga oshirgan. SHuning uchun ham xulosa qilib aytish mumkinki gidrouzellar baliqlarning sutkalik faoliyatini e’tiborga olib ekspluatatsiya qilinishi zarur.

10.2. Baliqlarni o‘tkazuvchi shlyuzlarni ishlatalishning texnologik sxemalari va baliqlarni o‘tkazuvchi boshqa inshootlarning xususiyatlari

Baliqlarni o‘tkazuvchi shlyuz (10.1 – rasm) siklik ravishda quyidagi operatsiyalarni amalga oshirib ishlaydi.

1 – operatsiya –baliqlarni jalb qilish.Bu holda yuqori ish kamerasining zatvorlari tushiriladi, xuddi inshootning o‘zidagidek kameraga kiraverishning suvli fazasida jalb qiluvchi tezlik hosil qiladigan shartdan kelib chiqib uning klinketlari ochib qo‘yiladi. Pastki zatvor esa jalb qiladigan tezlikni hosil qiladigan sarfni o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ixtiologik maydoncha tushirilib, majbur qiluvchi (pobuditelnoe) qurilma ko‘tarilgan to‘rli tasmasi bilan baliqlarni yig‘ichning bosh qismada bo‘ladi.



10.1. – rasm. Baliqlarni o’tkazuvchi shlyuz:

1 – yuqori nov; 2 – (shlyuzlovchi) ish kamerasi; 3 – zatvorlar; 4 - majbur qiladigan qurilma; 5 – baliqlarni yig‘uvchi; 6 – ixtiologik maydonchasi.

2 – operatsiya – baliqlarni tortib olish. Jalb qilish davrining oxirida zatvor klinketlari bir oz yopiladi. Bunda berilayotgan sarf kamayadi. Baliqlar jalb qiluvchi tezliklari bor zonaga o‘tishga harakat qiladi, baliqlarni yig‘gichga kiradi va u bo‘yicha klinketlari joylashgan joyga siljiydi. SHunday qilinib baliqlarni ish kamerasiga tortib olish amalgala oshiriladi.

3 – operatsiya – baliqlarni ish kamerasiga o’tkazish. Majbur qiluvchi qurilma tasmasi vertikal holatga (tushiriladi) keltiriladi va uni ish kamerasiga suriladi. Tasma bilan birga baliqlarni yig‘gichga kirgan baliqlar suriladi. Baliq o’tkazuvchi shlyuzning boshqa mexanizmlari 2 – operatsiya holatida bo‘ladi.

4 – operatsiya – baliqlarni shlyuzlash. 3 - operatsiya oxirida ish kamerasining pastki zatvorlarini ko‘targan holda majbur qiluvchi qurilma ish kamerasiga suradi. Pastki zatvor va uning klinketlari yopiladi. YUqori zatvoring klinketlari yordamida ish kamerasi to‘ldiriladi.


5 – operatsiya – baliqlarni hisobga olish, ko‘rikdan o’tkazish va ixtiologik maydonchaga tanlab olish. Ish kamerasini to‘ldirish oxirida yuqori zatvoring klinketlari yopiladi, majbur qiluvchi qurilma ixtiologik maydonchaga jips olib kelindi. Baliqlar ixtiologik maydoncha joylashgan zonada bo‘ladi, u esa tepa yuzaga ko‘tariladi. Baliqlar hisoblanadi, tekshirib ko‘riladi va tamg‘alash uchun tanlab olinadi.

6 – operatsiya – yuqori befga baliqlarni chiqazish. Ixtiologik maydonchaning tasmasi ish kamerasining tubiga tushiriladi. YUqori zatvor ko‘tariladi. Vertikal tasmasi bilan majbur qiluvchi qurilma lotok boshiga suriladi va shu bilan baliqlar yuqori befga qo‘yib yuboriladi.

7 – operatsiya – ish kamerasini bo'shatish. YUqori zatvor tushiriladi, uning klinketlari baliqlarni jalg qilish rejimi uchun ochiladi. Pastki zatvor ish kamerasini bo'shashiga qarab ko'tariladi, majbur qiluvchi qurilma esa baliqlarni yig'gich lotokning (dastlabki holat) uchastkasiga surib qo'yiladi.

Baliqlarni o'tkazuvchi shlyuzning yuqorida bayon qilingan ishlash sxemasi Don daryosi Kochetovskiy gidrouzellida, NIMI bevosita kuzatishlar olib borgan jarayonida qabul qilingan. Gidrouzel 1972 yildan buyon ekspluatatsiya qilib kelinadi va unda baliqlarni o'tkazuvchi inshootlarning eng samaratilishi qurilgan. Bu inshoot orqali oq baliq, osyotr, sevryuga, sterlyad, karp, lepi, sudak, seld, chexon va boshqa bir necha xildagi baliqlar o'tkaziladi.

SHuningdek gidrouzelda baliqlarni yig'uvchi va transportirovka qiladigan suzuvchi qurilma (10.2 – rasm) mayjud, u o'zi yurar konteyner va suzuvchi baliqlarni yig'gichdan tashkil topgan. O'zi yurar konteyner ekspluatatsiya paytida baliqlarni yig'gichning yuqori tomonidan qo'yiladi. Suzuvchi qurilmaning oxiri (torets) ochiq bo'lgani uchun ham tashkil bo'lgan lotok orqali jalg qiladigan oqim tranzit qilib o'tkaziladi. To'yintirish uchun qo'shimcha nasoslar ishga tushiriladi, u jalg qiluvchi tezlikni tartibga soladi. Baliqlarni yig'uvchi kamera to'lib borishi moboynida o'zi yurar konteyner (baliqlarni tashigich) ga suriladi, uning yordamida baliqlar yuqori befga tashiladi. Suzuvchi qurilma baliqlar eng ko'p to'planadigan joylarga o'rnatiladi.



10.2. – rasm. Baliqlarni yig'ish va trasportirovka qilish uchun suzuvchi qurilma:
1 – o'zi yurar konteyner; 2 – baliqlarni suzuvchi – yig'uvchi; 3 – tutashtiruvchi qurilma.

Baliqlarni jalg qilish vaqtining davomiyligi V.N. SHkura (NIMI) ma'lumotlariga ko'ra: osyotr baliqlari uchun – 60 min, seld va chexonlar uchun – 90 min, karp va lepi uchun – 120 min. ni tashkil qiladi. Baliqlarni tortib olish vaqt 15

min qabul qilinadi. Tortib olish davrini davomiyligini ko‘paytirish inshootga kiradigan baliqlarni kamayishiga olib keladi.

Baliqlarni siljitim uchun ketadigan vaqt har bir siklda 60...90 min.ni tashkil qiladi va u inshootning konstruksiyasi hamda undagi naporga bog‘liq. SHunday qilib bir siklni o‘tkazish uchun 2...3 soat vaqt ketadi.

Ishlatish tajribasi shuni ko‘rsatganki, pistki befda yuqori befga baliqlarning asosiy qismini o‘tkazish uchun 2...3 soat, ba‘zi bir holatlarda undan ko‘p vaqt ketadi.

Har xil konstruksiyalı baliqlarni ko‘targichlar va baliqlarni o‘tkazgichlar o‘zlariga xos xususiyatlarga ega, ammo ayrim operatsiyalarni bajarilishi, xususan baliqlarni jalb qilish bir biridan juda kam farq qiladi. Baliqlarni o‘tkazuvchi inshootlarni ishlatilish sharoitlari ularni ishlatish bo‘yicha ko‘rsatma (qoida) larda etarli darajada batafsil bayon qilinadi.

Baliqlarni o‘tkazadigan inshootlar ishlatilayotganda oqimning charchagan baliqlarni chiqarish zonasidagi tezliklari kam bo‘lishi va baliqlar uni oson engib o‘tishi ustidan kuzatib boriladi. Bu tezliklar tutashgan to‘g‘onni suv o‘tkazuvchi oraliqlarning yoki boshqa inshootlarning ish rejimiga bog‘liq. Bunda oqim bilan baliqlarni pastki befga olib ketilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

To‘g‘onni barcha oraliqlarini ochish talab qilinadigan suv olish uzeli beflaridagi oqizindilarni yuvishda, yuvishni baliqlarni urchishga eng ko‘p o‘tish davri bilan birga olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu holatda yuqori befga baliqlar yoppasiga o‘tishi mumkin.

YOsh baliqchalarni urchish zonasidan oqim bo‘yicha pastga olib ketish ko‘p vaqtida o‘z-o‘zidan kechadi. Bu masala judayam kam o‘rganilgan. Past naporli gidrouzellarda baliqlar to‘g‘on va boshqa inshootlarning ochiq oraliqlari orqali ham o‘tish qobiliyati ega. SHuning uchun baliqlarni jarohatlanishini oldini olish maqsadida ularni pastki befda shashka, pirs, yoruvchi (rastekateli) va sh.o+. energiya so‘ngdirgichlari bo‘lgan oraliqlardan o‘tkazilmaydi.

To‘g‘on zatvorlarini manyovrlash sxemasini, asosan baliqlarni urchishga o‘tish davrida, jalb qiluvchi tezlik bilan eng ko‘p baliqlarni jalb qilish sharoitini yaratadigan, baliqlarni o‘tkazish inshooti ishi bilan bog‘lab amalga oshiriladi.


10.3. Baliqlarni himoya qiluvchi inshootlardan foydalanish

Baliqlarni himoya qiluvchi inshootlar samaradorligining asosiy mezonlarini ko‘pchiligi 10.3 – rasmda ko‘rsatilgan, ular suv olish inshootdan kafolotlangan suv o‘tkazishni ta‘min etish, tutiladigan (promisllovie) baliqlarning o‘lchami 12 mm dan

ko'p bo'lgan kichiklarini 70-80% himoyalash va boshqa joyga burish, konstruksiyaning oddiyligi va ishonchlilikidan iborat.

Baliqlarni himoya qiluvchi inshootlarni ishlatalish davrida:

- ekranlashtirilgan to'siq (to'r, jalyuz va boshq.) ga kiraverishda solishtirma sarfni tekis taqsimlanishi va katakda me'yoriy tezlik v_{se} ni ta'min etish kerak;
- ekran bo'ylab baliqlarni burib yuboruvchi qurilmada oqimning taxminan v_{se} dan 1,5 marta ko'p va olib ketuvchi tezligidan baland tezligini hosil qilish zarur;
- oqim tashkil qiluvchi ($0,02 \dots 0,1$) Q_m (bu erda Q_m – suv oluvchi inshoot suv sarfi) sarf bilan uyurum struykali to'siq (zavesa) hosil qiluvchi gidravlik ekranlarni muntazam ishlashini ta'min etish lozim;



10.3. – rasm Baliqlarni himoya qiluvchi inshootlarning asosiy sxemalari:
 a – baliqlarni burgichi bilan tekis to'r; b – baliqlarni burgichi bilan tasmani aylanadigan to'r; v – baliqlarni burgichi bilan konusli; g – baliqlarni elektrli chegaralovichilar; d – aylanib o'tuvchi kanallar; e – siljiyidigan zonali to'siqlar; j – suv olish inshootlarini soyabonsimon ogolovkasi; I – baliqlarni ajratib qo'yuvchi ekran; 2 – yuvuvchigi qurilma; 3 – baliqlarni olib ketuvchi trakt; 4 – aylanadigan to'r; 5 – nasos stansiyasi; 6 – nasos stansiyasi suv oluvchisi; 7 – komusli baliqlarni ajratib

qo'yuvchi; 8 – baliqlarni chegaralovchi elektrodlar; 9 – vertikal siljiydigan zonalni baliqlarni chegaralovchi; 10 – soyabonsimon ogolovka.

- suv qabul qilgichi elementlarining silliq oqib o'tuvchilari (ortiqcha bo'rtiklarsiz) bor suv olish inshootiga kiraverishda eng qulay oqimni hosil qilish kerak;

- mexanik ekranlar va boshqa konstruksiyalarga yosh baliqchalarni kelib urilishi va jarohatlanishidan saqlash uchun ularni burib yuborish lozim;

- struykali yo'naltiruvchi nasadkalardan chiqayotgan oqimning tezligini 14 m/s dan ko'p bo'lmasligini ta'min etish kerak, bu yosh baliqlarni jarohatlantirmsandan burib yuborish imkoniyatini beradi;

- suv olish inshooti sarfi va struykali – uyurimli to'siqning samaradorligini hisobga olib kataklarda 0,25...0,5 m/s ko'p bo'limgan tezlikni ushlab turish lozim; bunda ekranlashtiruvchi tizimlardagi sathlar farqi 0,15 m dan oshib ketmasligi lozim, chunki, aks holda, yosh baliqlar to'rga yopishib qoladi, jaroxatlanadi va to'mni to'ldirib qo'yadi;

- quvurlarni bosimli oqimi, baliq nasoslariga va boshqa nasoslarga tushmasliklari uchun baliqlarni burib yuborilishni ta'min etish zarur;


- baliqlarni himoyalash tadbirlarini ko'proq suv manbasida o'tkazish kerak, ya'ni ular suv oluvchi inshootga kiraverishda o'tkazilishi kerak;

- 150...200 m oraliqda nisbatan uzun bo'limgan baliqlarni olib ketuvchi kanallarni qurish zarur.

Baliqlarga g'ov bo'lувчи, uzunligi 25 m gacha bo'lgan tasma, sarfi 10...15 m³/s bo'lgan suv olish inshootlarida baliqlarni himoyalanishini (B.S.Malevanchik) ta'min qiladi. To'r yoki boshqa ekranga yopishgan yosh baliqlarni yuvib yuborish uchun suv quvadigan qurilmalar ekranlari tekisligi bo'ylab o'rnatilgan qurilma baliqlarni jarohatlanish va o'lish foizini kamaytirish imkoniyatini beradi.

Imkoniyat mavjud bo'lganda, misol uchun statsionar (qo'zg'almas) nasos qurilmalari (SNP 50/80, SNP 230/40, SNA 500/10 va boshq.) dan foydalilaniganda suv baliqlar deyarli yashamaydigan qatlamdan olinadi. Bunda kerakligiga qarab g'ov qurilmalari (zaponlar, zonalar g'ovlari) dan foydalananiladi. Agar bu tadbirni o'tkazishni iloji bo'lmasa, unda yosh baliqlarni yoppasiga tushishi davrida, sutkaning ma'lum bir vaqtida suv olish to'xtatiladi. B.S.Milevanchik ma'lumotlariga ko'ra baliqlarga g'ov bo'lувчи qurilma (8.4 – rasm) suv olinadigan kesimda 0,1 m/s dan ko'p bo'limgan tezliklarni hosil qilish sharoitidan kelib chiqib joylashtiriladi. Qo'zg'atiladigan baliqlarga g'ov bo'lувчи qurilma mobil bo'lishi va baliqlar bi-

ologiyasini hamda yosh baliqlar yashaydigan qatlamni o‘zgarishni hisobga olib konstruksiyaga tezkor korrektiv kiritish imkoniyatini berishi kerak.



10.4. – rasm. Baliqlarni ajratib qo‘yuvchi qurilma sxemasi.

1 – suv oluvchi kanal; 2 – boshqarish binosi; 3 – tayanchlar; 4 va 5 – vertikal siljiydigan va qo‘zg‘almas zonalgi g‘ovlar.

Vaqtinchalik suv olish qurilmalarini, doimiylari singari, bir tomoni ichiga botgan (botiq) qirg‘oq oldidagi burilishda o‘rnatish tavsiya qilinmaydi, u erda oqim o‘zi bilan yosh baliqchalarini olib ketishi mumkin. Ularni suv olish inshootlariga tushishidan samarali himoya qilish uchun tasmani 180° burish va joyiga qo‘yish yo‘li bilan tasma gidravlik yoki mexanik usulda tozalanadi. Ammo issiq iqlimli regionlarda plankton qurinishida mayda (soch tolasidek suv o‘tlari paydo bo‘ladi, ular kichik teshikchalar ni yopib va to‘ldirib qo‘yadi. Bunday to‘rlarning o‘tkazuvchanlik qobiliyati birdaniga kamayadi. Evfrat daryosi (Iroq) da o‘tkazilgan tadqiqotlar bunday o‘tlar 4 mm teshikcha (yacheyka) li to‘rni 50 % ko‘pini 2...5 soatda to‘ldirib qo‘yanligini ko‘rsatgan. Bunda plankton bilan to‘lib qolgan to‘rni yuvish, xattoki suvning kuchli struykasi os-tida ham, qiyin bo‘lib qoladi. Bu holatda «Felludja» suv olish uzeliga, issiq iqlim sharoitida, to‘rni tozasiga almashtirish, so‘ng esa qolgan to‘rni ўetka yordamida mexanik usulda tozalash tavsiya qilingan. Mexanik usulda tozalash to‘rni $+30\ldots45^{\circ}\text{S}$ da 15 min quritilgandan so‘ng amalgalash oshirilgan.

Quzg‘aluvchan suv olish qurilmalarida, odatdagi sharoitda, ROP (baliqlarni himoyalovchi,, yuviladigan oqim almashtirgich) ogolovkasi qo‘llaniladi, undan 50...500 l/s suv sarfi bilan nasos stansiyalariga suv olishda keng qo‘llaniladi. ROP ogolovkasi tarkibida ichki porforatsiya (teshikchali) korpus, konus shakkli tashqi porforatsiya qilingan qoplama va konus cho‘qqisiga joylashtirilgan hamda to‘yintirish uchun quvur bilan ta‘minlangan oqim almashtirgich bor.

Baliqlarni himoya qiluvchi qurilmalar mexanizmlari va metall konstruksiylarini tekshirib chiqish va ishchi holatda ushlash yo‘li bilan o‘z vaqtida profilaktika ishlari o‘tkazilib boriladi. SHu maqsadda ular muntazam ravishda zanglash, qo‘qim, oqizindisi va boshqa begona narsalardan tozalanadi, bo‘yaladi va o‘sishdan himoyalanadi. Suv olish inshooti qish davrida ishlayotganda suv oluvchi suv qabul

qilgichi oldidagi mayda muz bo‘lakchalari to‘plamini ushlab qolish tadbirleri o‘tkaziladi, qurilmalar muzlashdan saqlash uchun isitiladi (5.7 ga qarang).

Baliqlarni ajratib qo‘yuvchi qurilmalarning olib qo‘yiladigan elementlari ishlamaydigan davrda profilaktika o‘tkazish, ta’mirlash va saqlash uchun olib qo‘yiladi. Baliqlarni ajratib qo‘yuvchi qurilmalarning eng zarur ma’suliyatlari qismlari omborxonalarda saqlanadi.

XI. Suv omborlarini ishlatish

11.1. Suvomborini qurish davrida bajariladigan ishlari.

Gidrouzellarni bevosita kuzatish (натурные нablyудениya) ekspluatatsiya ishlarining tashkil etuvchi qismi sifatida, gidrouzellar qurilishi boshlangan paytdan boshlab olib boriladi. Ularning natijalari loyihaning qurilish ishini olib borish qismiga aniqlik kiritish imkoniyatini beradi. Inshootlarini ishlatish davrida esa bu ma’lumotlar kuzatish natijalarini tahlil qilish uchun asosiy, boshlanish holati sifatida xizmat qiladi.

NO‘Alarini, qoidasi, qurilish tashkiloti o‘rnatadi. Ularni sozlash va gidrouzel qurilishi davrida kuzatib borish bevosita kuzatish va tadqiqotlar olib borish bo‘yicha mutaxassis boshchiligidagi maxsus guruh tomonidan amalga oshiriladi, ular loyiha hujjatlari, jihozlar va bino bilan ta’milnadi. Qurilish tugagandan so‘ng, ob’ekt ishlatishga topshirilishi bilan, qoidasi, bu guruh ekspluatatsiya xizmati shtatiga o‘tkaziladi. NO‘Alari normal ishlashi uchun mas’uliyat bovosita kuzatish guruhi rahbariga yuklanadi. Agar NO‘Alari o‘rnatilmasdan qolsa qurilish ishlari davom etirilmaydi. NO‘Alarini o‘rnatilishi, kuzatish ishlari olib borish, kuzatish natijalariga qayta ishlov berish va tahlil qilish ustidan mualliflik nazoratini loyiha tashkiloti olib boradi.

Bevosita tadqiqotlarni olib boruvchi guruh tarkibiga, odatda guruh rahbari (bevosita kuzatishlar bo‘yicha mutaxassis), o‘rinbosari, asbobshunoslar, ularni tuzatish bo‘yicha slesarlar, slesar-elektriklar, operatorlar, kuzatuvchilar, texnik-chizmakashlar kiradi. NO‘Alarini o‘rnatish yoki ko‘p sonli kuzatishlar olib borish bo‘yicha katta hajmdagi ishlarni bajarish davrida, guruh tarkibi ko‘paytirilishi, keyinchalik ish hajmi kamayganda esa kamaytirilishi mumkin. Bevosita kuzatishlarni olib borayotgan guruhning tarkibini, kuzatish ishlari aloqasi bo‘limgan, boshqa ishlarni bajrish uchun jalb qilishga ruxsat berilmaydi (qati man qilinadi). Vaqtincha bevosita tadqiqotlarni olib borayotgan guruhga qurilish-montaj ishlarida band bo‘lgan mutaxassislar (geodeziyachilar, armaturachilar, kovsharlagichlar, yog‘och ustalari, burg‘ulovchilar va boshq) yuborilishi mumkin. Guruh rahbari bevosita texnika bo‘limi boshlig‘iga yoki bosh injenerga buysinadi.

Suvomborini qurilishi davrida NO'Alari va ularning elementlari shikastlanmasligi uchun barcha choralarini ko'rish lozim bo'ladi, buning uchun NO'A yaqinida ko'p sonli texnika va ishchilarni to'plab qurilish-montaj ishlarini olib borishga yo'l qo'yilmaydi, NO'A o'rnatilishi yoki ularga xizmat ko'rsatilishi bilan bog'liq barcha teshik va bo'shliqlar latta-putta bilan berkitiladi yoki mitlar bilan yopib quyiladi hamda qurilish qo'qimi (musor)dan tozalanadi. Bundan tashqari NO'Alarni montaj qilish texnologiyasini bajarilishi (sifati), ularning gidroizolyasiya qilinishi va o'rnatilgandan so'ng ishslash qobiliyati kuzatib boriladi.

Beton va temir-beton inshootlar, qurilish davrida ishlatilayotganda: to'g'on asosining deformatsiyalanishi, qoya tosh (skala) bilan beton kontakt qilgan joydagи choklarning holati, betonlash bloklarining harorat rejimi, bloklar yoki yaxlit betonlarning harorat-zo'riqish holati, yaxlit betonlarda yoriqlar hosil bo'lishi, vaqtinchalik qurilish, sementatsiya qilish lozim bo'ladigan choklarini ochilishi, beton seksiyalarini gorizontal siljishi, to'g'on asosining filtratsiyaga qarshi bosimi, yuqori seysmik faol tumanlarda yirik, yuqori naporli gidrouzellarda injenerlik – seysmik kuzatuvlarni olib borishga imkoniyat beradigan seysmik o'lchov appartlari tizimining ishchalik qobiliyati ustidan kuzatuvlar olib boriladi. Bunda shuni e'tiborga olish lozimki, ko'p holatlarda, tuman seysmikligi, suv ombori va grunt massivini katta hajmdagi suv bilan to'ldirilganda oshib ketadi. Suv ombori DNS belgisigacha to'ldirishi bilan, NO'Alari ko'rsatmalarga muvofiq to'la hajmda ishlashi lozim.

Grunt materiallardan to'g'on va boshqa inshootlar qurilayotganda, shuningdek suv ombori qisman to'ldirilayotgan sharoitda cho'kish, inshootlar elementlarining siljishi, to'g'on tanasi va asosidagi filtratsion rejim va g'ovvaklik bosimi, inshootlarni zo'riqish-deformatsion holati kuzatib boriladi.

Er osti inshootlari, misol uchun tunnellar qurilayotganda suffoziya va suyuq loy hosil bo'lish jarayonlariga, bir qator holatlarda – er osti suvlarini yirik uzilgan tektonik buzulishi, g'ovvak (bo'sh) qumli – glinali yoki yirik siniqli jinslar, karst bo'shliqlari zonalarini yorib o'tishiga muhim ahamiyat beriladi. Tunnellar qurilishida tektonik buzulish zonalarini aylanib o'tishga harakat qilinadi, bo'lmasa qatta miqdorda suv tushib qurilishini borishini qiyinlashtirib qo'yadi.

Suv o'tkazuvchi inshootlarni qurish sharoitida, ko'p holatlarda, qurilish yog'ochlari muz, baliqlar va boshqa suzuvchi jismlarni o'tkazish muammosi hosil bo'ladi. CHunki bu payti shu maqsadlar uchun ishlatiladigan maxsus inshootlar hali tayyor bo'lмаган, yoki umuman yo'q bo'ladi. SHuning uchun, ba'zida, daryo bo'ylab qulay joyda baliqlar tutib olinib, sisternalarga solinib, urchitish uchun daryoning yuqori qismiga qo'yib yuboriladi.

218,5 m balandlikka ega Dvorshak (AQSH) to‘g‘onida qurilish davrida baliqlarni yuqori befga o‘tkazib yuborish uchun maxsus baliq tutgich va unchalik katta bo‘limgan baliqlar yurgich (рыбокод) qurilgan, undan baliqlar, nisbatan katta bo‘limgan $85 \text{ m}^3/\text{s}$ suv sarfida, o‘tkazilgan. Baliq tutgich bilan baliqlar ushlanib, keyin avtomobil transportida tashilib yuqori befga qo‘yib yuborilgan.

Qachonki, yuqori bef zonasida katta hajmlarda yog‘och tayyorlanadigan bo‘lsa, unda yog‘ochlarni o‘tkazish uchun maxsus inshoot (lotok) quriladi. Ba’zan, bu maqsad uchun tunnellardan foydalaniladi. SHunday ish, misol uchun Xeles (SHvetsiya) gidrouzelida amalga oshirilgan. Bunda tunnel ko‘ndalang kesimi maydoni 130 m^2 , kengligi – 13 m, burilish radiusi 130 m. li burilishga ega bo‘lgan. YOg‘ochlar tunnelda oqimning naporsiz rejimida oqizilgan. Xuddi shunday, Manikuagan-3 (Kanada) to‘g‘onida yog‘ochlar diametri 16,8 m. li, qoplamasiz qilingan tunneldan, suv sarfi $1460 \text{ m}^3/\text{s}$ ga etkazilib o‘tkazilgan, muz esa naporsiz rejimda o‘tkazilgan. YUqori befga yog‘ochlarni kirish teshigiga yo‘naltirib turish uchun zapon qurilgan.

Muz, suv to‘sгich (peremyschka)lari bilan qisqartirilgan o‘zandan o‘tkazilayotganda, tiqilish hosil qildirmasdan o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Yirik gidrouzellarni qurish amaliyoti shu paytgacha muz tiqilishi judayam kam bo‘lganligini ko‘rsatgan, chunki o‘zanni qisqargan uchastkasi, qoidasi, har doim ham muz o‘tkazish uchun etarli (80 m. dan ko‘p) bo‘lgan. Ammo asosiy inshootlarni o‘rab turuvchi peremyschkalar, bo‘lishi mumkin tiqilish va muzni urilishiga chidamli bo‘lishi kerak. SHuning uchun ham ularning bosimli qirrasiga muzni qochiradigan qurilma (ldootboynik) quriladi. Beton to‘g‘on o‘rkachi (tepasi), transheyali va boshqa suv tashlamalar, shuningdek beton inshootlarning vaqtinchalik teshiklari orqali muzni o‘tkazish murakkab. Bu maqsadlar uchun foydalaniladigan oraliqlar kengligi kamida 12 m bo‘lishi kerak. Ammo Krasnoyarsk GESida 6 m li kenglikga ega oraliqdan muz o‘tkazilgan. Bu holda yuqori befga suv sathi ko‘tariladi, u muz erib mustahkamligini yo‘qotguncha bir necha kun ushlab turiladi. Undan keyin suv ochilib pastki befga tushirib yuboriladi.

Agar bo‘lg‘usi suv ombori kosasi tubida torf qatlamlari yotsa, unda suv ombori to‘ldirgandan so‘ng, ular qalqib chiqishi mumkin, bunday holat Rybinsk suv omborida kuzatilgan. O‘shanda qalqib chiqqan torf maydoni 3 km^2 ni, qalinligi esa $2\dots2,5 \text{ m}$ ni tashkil qilgan. Torfli orolchalar orasi muz bo‘laklari bilan to‘lib qolgan. Torfli orolchalar uchun inshootlarga kelishini oldini olish uchun orolchalar portlatilgan, bo‘laklari lebedka (ko‘targich) bilan tortib kelinib, loyqa o‘tkazuvchi oraliqlar orqali pastki befga tushirib yuborilgan. Novosibirsk suv ombori to‘ldirlayotganda qalqib chiqqan torf to‘g‘onning suv tashlama oraliqlari orqali o‘tkazilgan, buning uchun ko‘p

miqdorda suv bekorga tashlab yuborilgan. Bu elektr energiyasi ishlab chiqarilishiga salbiy ta'sir qilgan.

Kamskiy, Surskiy, Sayano-SHushinsk va boshqa suv omborlari to'ldirilayotganda beton inshootlar oldida katta miqdorda yog'ochlar va yog'och chiqindilari to'planib qolgan. Kamskiy suv omborida yog'och materiallarni bir qismini pastki befga tushirib yuborishgan, qolganini esa suzuvchi vositalar yordamida tutib olinib, chiqazib tashlangan. Surskiy suv omborida ishlatishning dastlabki birinchi yilda, suv ombori to'ldirilayotganda, toshqin payti katta miqdordagi yog'och materiallari, oraliqlari kengligi 14 m bo'lgan suv tashlama to'g'on orqali, pastki befga tashlangan. Keyinchalik (1984 y) yuqori qiyalik plitalarini singani ma'lum bo'lgan, uning sinishini sabablaridan biri shu yog'och materiallarni o'tkazish deb taxmin qilingan.

O'rab turuvchi peremylchkalar to'sib turgan gidrotexnika inshootlari qurilishi jarayonida, inshootdan keyingi joylar diqqat bilan kuzatib boriladi. Kuzatishlar toshqin o'tkazilayotganda muz yurish davrida va asosan tiqilish va shovush hosil bo'lganda kuchaytiriladi. Peremylchkalarda bo'lishi mumkin shikastlanishlarni, o'z vaqtida bartaraf qilish uchun, yaqin orada qurilish materiallari zahirasi va mexanizatsiya resursi ushlanadi (tosh, shебен, shag'al tosh, sement, metalloprokat, brizent, yog'och materiallari, qoplar, sim, transport vositalari, suzish vositalari va sh.o').

Kotlovan va peremylchkalar tubi orqali sizib o'tayotgan filtratsiyaga alohida ahamiyat beriladi. Buni kuzatish uchun nazorat skvajinalari burg'ulanadi, ular depressiya egri chizig'ini holatini kuzatib borish imkoniyatini beradi. Peremylchka ustiga grunt to'kib va mustahkamlangandan so'ng kotlovandan suv chiqazib tashlanadi. Bunda, bir tomonдан kotlovandan tezroq suvni chiqazish lozim bo'lsa, ikkinchi tomonidan kotlovanda suv sathini birdan tez tushishi peremylchkani kotlovan tomondagi qiyaligini buzulishiga olib kelishi mumkin. SHuning uchun ham sizib chiqayotgan filtratning tarkibi kuzatib boriladi. Agar filtratda loyqa bo'lsa, demak grunt suffoziysi mavjud. Bu holda yuqori filtratsiya manbasi aniqlanadi va u qo'shimcha grunt to'kib bartaraf qilinadi. Qurilish davrida gidrotexnika inshootlarini kuzatish tajribasi, peremylchkalar bilan chegaralangan kotlovandan suvni tortib chiqazib tashlashda suv sathini pasayishi yirik donador va qoya toshli gruntlar uchun 0,5...0,7 m/sut, o'rtacha donador gruntlarda 0,3...0,4 m/sut, mayda donador gruntlarda 0,15...0,2 m/sut dan oshib ketishiga yo'l qo'ymaslikni ko'rsatgan. Yirik gidrouzellarda kotlovanlardan suvni tortib chiqazish davomiyligi bir necha haftadan bir necha oygacha vaqtini tashkil qiladi. Ba'zida bu muddat suv sathini pasaytirish jadalligi bilan emas, balki suv tortuvchi qurilmalar quvvatidan kelib chiqib belgiliga.

nadi. Qurilish paytida ishlatalish davridagidek boshqa muammolar ham vujudga kelishi mumkin, ularni hal qilish yo'llari, darslikning boshqa bo'limlarida berilgan.

11.2. Suv omborini ishga tushirish

Gidrotexnika inshootlarini ishida eng mas'uliyatlidir davrlardan biri ularni ekspluatatsiyaga topshirishdir. Bunda ma'lum bir chegarada, bir tomonidan inshootlar qanchalik muvaffaqiyatli loyihalanganligi, ikkinchidan esa – inshootlarni napor ostidagi ishi baholanadi. Inshootlarni ishga tushirish juda ehtiyyotkorlik bilan va amalda inshootlar, NO'A ko'rsatkichlari ustidan uzlaksiz kuzatishlar olib borilib, amalga oshiriladi. Bu ishlar, odatda gidrotexnika inshootlarini ishlatalish bo'yicha yuqori mala-kali mutaxassislarni jalb qilib o'tkaziladi.

Inshootlarni ishga tushirish tushirish oldi, suv omborini to'ldirish va inshootlar orqali svuni o'tkazish davrlariga bo'linadi.

Ishga tushirish oldi davrida quyidagi ishlar amalga oshiriladi: qurilgan inshootlarni loyiha mos qurilganligi aniqlanadi va tekshirib chiqiladi; ishga tushirish paytida grunt suvlari sathi, konstruksiylar, NO'A holati va ularning etarli o'rnatilganligi tekshirib chiqiladi; gidrouzel inshootlarini ishga tushirishning kalendar rejasi ishlab chiqiladi, unda sinash tartibi, ishga tushirish rejimi, kuzatishlar aks ettiriladi. Suv ombori kosasi va uning qirg'oq oldi zonasasi va sh.o'. uchun sanitariya tadbirlari kompleksi bajariladi. Suv ombori kosasini tayyorlanishiga alohida ahamiyat beriladi. Bunda suv sathi ko'tarilib – tushish chegarasidan kesib olingen daraxtlarni to'nkalarini kovlab olib tashlanadi. Suv ombori kosasi chegarasi ichidagi qurilmalar, chorpachilik fermalari, qabristonlar va boshqa qurilmalar olib tashlanadi. Torf massivlarini qalqib chiqishi baholanadi va bunday xodisani oldini olish choralar ko'rildi. Zonadan qolib ketgan qurilish materiallari, mexanizmlar, moslamalar olib chiqiladi. Pastki befdan, birinchi navbatda vaqtinchalik qurilmalar, chiqindilar, qurilish bloklarining yirik o'lchamli qoldiglari, plitalar, metallokonstruksiylar va sh.o'. olib tashlanadi.

Suv oborini to'ldirish paytida yon-bag'ir (sklon), qirg'oqlar o'prilishi mumkin. SHuning uchun bunday jarayonlar bo'lish, bo'lmasligi baholanib chiqiladi, bo'lishi mumkin zarar bashorat qilinadi, uni kamaytirish choralar amalga oshiriladi. Inshootlar orqali suv o'tkazilishdan oldin ularning gidromexanik va mexanik jihozlarining normal ish qobiliyatiga ishonch hosil qilinadi. Kutilmagan shikastlanish va buzulishlarni bartaraf qilish uchun qurilish materiallari, moslamalarning kerakli zahira hajmi tayyorlab qo'yiladi. Gruntli inshootlar asosida joylashgan nuqtali pezometrlar ko'rsatkichlari tekshirib ko'rildi. Agar gidrostatik bosim nulga teng bo'lmasa, unda pezometrik tarmoqning ish qobiliyati tekshirilib ko'rildi va ishchan holatga keltiriladi.

Suv omborini to'ldirish bosqichma-bosqich, sekin-asta, bir necha navbat bilan amalga oshiriladi, bunda har safar barcha inshootlar va ularning elementlari. NO'A tekshirilib boriladi. Alovida ehtiyojkorlik bilan karst va kuchli yoriqli jinslarda joylashgan suv omborlari to'ldiriladi. Filtratsiya suvlarini markazlashgan holda (loyqa va rangli bo'lib) chiqishi, to'ldirishni to'xtatish lozimligidan darak beradi, ayrim xavfli holatlarda esa suv sathi, filtratsiya sababini aniqlaguncha va manbalari bartaraf qilinguncha pasaytirib turiladi. Suv omborini to'ldirish tezligi gruntli to'g'on tanasi va asosida filtratsiyaning yo'l qo'yiladigan tezligidan kelib chiqib qabul qilinadi. Bunda filtratsion oqim gradienti gruntu suffoziyasiga yo'l qo'ymaydigan qiymatdan oshib ketmasligi kerak.

Gruntli inshootlarda filtratsion rejim o'rnatilgandan va suv bilan to'yingandan so'ng, ular o'z-o'zidan zichlashadi. Bunda inshootlarning ko'ndalang o'qiga parallel yoriqlar hosil bo'lishiga olib keladigan inshootlarning ayrim elementlarini deformatsiyalanishi vujudga kelishi mumkin, bu yoriqlar, ko'p holda, yuqori qiyalik brov-kasi bo'ylab, undan unchalik katta bo'limgan masofada vujudga kelishi mumkin. Stvor tor bo'lganda, qachonki stvor koeffitsienti ikkidan kam bo'lsa, to'g'on o'rkachida, daryo oqimi yo'nalishi bo'ylab joylashadi. Suv ombori to'ldirilayotganda va to'g'on tanasi suvga to'lib borishi bilan, uning o'qiga parallel to'g'on prizmasining yoki filtratsiyaga qarshi qurilmaning (yadro, ekran, diafragma va sh.o'.) notejis cho'kishi ham hosil bo'lishi mumkin. Yirik toshli materiallardan yadroli qilib, baland naporli qurilgan to'g'onlarni ishlatalish davrida, bunday yoriqlarning kengligi 20...40 sm gacha, uzunligi 10...15 m gacha etishi mumkin. Gruntli to'g'on bo'sh asos ustida qurilgan bo'lsa (G.M.Goldenberg usuli bo'yicha) to'ldirish avval yuqori suv to'sgich (peremyichka) qurib, u bilan to'g'on tanasi orasidagi bo'shliqqa 0,25...1 m/sutka tezlikda nasoslar yordamida suv quyib amalga oshiriladi. Bu holatda, maboda avariya vujudga kelsa, peremyichki bilan to'g'on orasidagi suvni zudlik bilan tushirib yuborish mumkin bo'ladi.

Suv ombori to'ldirilayotganda sekin-asta pastki befga ham suv beriladi, bunda o'zan deformatsiyasi ustidan muntazam kuzatib boriladi. Agar «quruq» pastki befga nisbatan kam suv sarfi tushirilganda qochirilgan gidravlik sakrash hosil bo'lsa, u risberma mustahkamlovchilarini ostini yuvib ketishi mumkin. Turg'un bo'limgan rejimda katta masofada o'zan jadal yuvilishi mumkin. 4...5 m/s tezlik bilan mayda zar-rachali qum va qumloq gruntuqdagagi o'zanda harakatlanayotgan suv oqimining loyqaligi 150...200 kg/m³ ga etishi mumkin. Bu holatda inshootning xavfli yuvilishi va ostini yuvib ketish uchun 10...20 min, ba'zida undan ham kam vaqt etarli bo'ladi. Mayda

zarrachali qum va gil gruntlarda jadal yuvilish hosil bo‘lishining xarakterli belgisi – bu oqimning qo‘ng‘ir yoki qoramtilrangga ega bo‘lishidir. SHag‘al tosh – galichnikli gruntlarda zarrachalar oqimning tub oldi zonasida harakatlanadi va ko‘zga tashlanishi qiyin bo‘ladi.

Inshootning zatvorlarini ishini napor ostida sinab ko‘rish, ishlatish rejimi doirasida o‘tkaziladi, boshqa holatlarda mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan maxsus asoslash bo‘lishi lozim.

Ishga tushirish davrida kuzatuvlar inshootlarni doimiy ishlatish davridagiga nisbatan ko‘proq o‘tkaziladi. Beflardagi suv sathlari va o‘tkazilayotgan sarflarni kuzatish kunu-tun olib boriladi, to‘g‘on asosi va tanasidagi filtratsion rejim, filtratsiya sarfi, grunt suvlarli sathi, suvning harorati va filtratning kimyoviy tarkibi – har kuni kuzatiladi (tekshiriladi). Beton to‘g‘on tanasi orqali sizib o‘tgan suvdan tahlil (namuna) ishga tushirish davrida 2...3 marta olinadi, vaqtı-vaqtı bilan kuzatish quduqlari, galereyalar va sh.o‘. lardagi suv sarfi o‘lchanadi. Gorizontal va vertikal siljishlar, choklar zichlagichlarining ishlashi, choklarni ochilishi va yoriqlar hosil bo‘lishi 5...7 sutkaga 1 marta kuzatiladi.

Kerakli boshqa kuzatishlar ham muayyan sharoitdan kelib chiqib soni yuqori qaytarilish bilan o‘tkaziladi. Inshootlar, ular elementlari, asoslar qirg‘oq tutashmalari normal ishlashidan chetga chiqishlar aniqlangan holatlarda, kuzatishlar aniqlangan kamchiliklar bartaraf qilinguncha yoki jarayonlar turg‘unlashguncha tez-tez olib boriladi.

11.3. Suvombori zonasida ekologik tadbirlar

Tabiatni muhofaza qilishning ekspluatatsion tadbirlari tashkiliy – xo‘jalik, agroo‘rmon melioratsiyasi, agrotexnik, o‘tloqlar melioratsiyasi, gidrotexnika inshootlari va suvni muhofaza qilish zonasida hamda suv ombori akvatoriyasida ekologik muvozanatni ushlab turishga yo‘naltirilgan boshqa ishlar majmuidan tashkil topadi. Ularni ekspluatatsiya xizmati: sanitariya me‘yorlarga muvofiq suv omborida suv sifatini ushlash, suv manbalarini ifloslanishdan himoya qilish, suv ombori xududidagi hosildor erlarda shamol eroziyasiga yo‘l qo‘ymaslik, suv omborini loyqa va o‘simliklar bosishiga qarshi kurashish, suv omboriga zaharli moddalar, pestitsid va mineral o‘g‘itlarni tushishiga yo‘l qo‘ymaslik, sanoat korxonalarini, chorvachilik fermalari, neftni qayta ishslash sanoati korxonalarini oqava suvlari bilan suv hovuzlari ifloslanishini oldini olish, suv ombori suv manbalarini oldida neft omborlari, qabristonlar va hayvonlar qabristonlarini hamda sh.o‘. joylashtirilishini taqiqlash, suv ombori zonasida o‘rmon – himoya ekinlarini ushlab turish va himoyalash maqsadlarida amalga oshiradi.

YUqorida sanab o'tilgan masalalarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun ekspluatatsiya xizmati suv omborini ishlatalish bo'yicha ko'rsatma (qoida) larga ega bo'lishi kerak, ularda suv omboriga oqova yoki ishlab chiqarish – fakel suvlarini otvod qiladigan barcha ishlatalayotgan va qurilayotgan sanoat, xo'jalik - maishiy, qishloq xo'jaligi va boshqa ob'ektlarni ro'yxati ko'rsatilishi kerak. Ularda oqova suvlarni tashlash uchun qo'yiladigan shart va talablar, shuningdek suv omboriga oqova suvlarini, hatto tozalashdan so'ng tashlash yo'l qo'yilmaydigan korxonalar ro'yxati ham berilishi lozim.

Suv ombori xududida tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish uchun suvni muhofaza qilish zonasasi, sanitariya zonasasi, qirg'oq bo'yи polosa (tasma) si oldindan belgilanadi. Bulardan tashqari, qatiy rejimli qo'riqlanadigan zona ajratiladi, u bevosita suvni dimlovchi, suv o'tkazuvchi va boshqa eng ma'suliyatli gidrotexnika inshootlari atrofida o'rnatiladi (belgilanadi).

Suv omborini suvni muhofaza qilish zonasasi – qirg'oq bo'yи xudud (polosa) hisoblanadi, unda suv omborini kerakli texnik holatini ushlab turishga yo'naltirilgan tadbirlar majmui amalga oshiriladi. Bu zonaning chegarasi loyiha bilan belgilanadi va u NDS dagi suvning qirg'oq bo'ylab chizig'i (urez) dan 500...2000 m va undan ko'pni tashkil qiladi. Bu erda hovuzni ifloslanishini oshiradigan yangi korxonalarini qurish va eskilarini kengaytirish, 2 km dan kam masofada aviatexnika yordamida changlatish o'tkazish, pestitsidlar va boshqa zaharli moddalardan foydalanish, mineral o'g'itlar, kimyoiy moddalar, yonilg'i - moylash mahsulotlari omborlarini joylashtirish, chorva boqish, agar suvni muhofaza qilish tadbirlarida nazarda tutilmagan bo'lsa o'rmonni kesib olish, qabristonlar, hayvonlar qabristonlarini va sh.o'. larni joylashtirish taqiqplanadi.

Sanitariya zonasasi sanitariya tadbirlarini o'tkazish uchun xizmat qiladi, hovuzni tayinlanishi va foydalanishiga qarab u uch tasma (polosa) dan iborat bo'lishi mumkin. NDS da suv chegarasi (urezi) dan sanitariya zonasasi chegarasigacha masofa 100 m dan 1000 m gacha o'zgaradi. Suvni muhofaza qilish zonasiga nisbatan bu zonaga yuqori talablar qo'yiladi.

Qirg'oq bo'yи zonasasi – bu erlarini haydash, avtomobilarni, qayiqlarni, bog'dorchilik uchastkalari uyushmalari, bolalarning lagerlari va sh.o'. larni joylashtirish taqiqlangan territoriya. U suv chegarasidan er sirtining nishoblligiga qarab 35...100 m masofada kuchli yuviladigan, qayta shakllanishini hisobga olib qo'shimcha kengaytiriladi.

Suv omborini kerakli texnik holatini ushlab turishga yo'naltirilgan eng samarali tadbirlardan biri qirqoq bo'yи zonasida o'rmon daraxtzorlarini hosil qilishdir. Himoya

o'rmon daraxtlarini muayyan sharoitdan kelib chiqib bir, ikki yoki uch poyas eqiladi. Birinchi - qirg'oqni mustahkamlovchi poyas NDS zonasida, suvni ko'tarilib – tushishiga chidaydigan daraxtlardan 2 – 3 qator qilib eqiladi. Ikkinci poyas FDS dan yuqorida joylashadi va u erroziyaga qarshi poyas hisoblanadi hamda u quriqlikka chidamlı daraxtlardan eqiladi. O'rmon himoya polosalari muntazam o'z vaqtida yagonalash, (lozim bo'lganda) o'tash ,sug'orish, hayvonlar eb qo'yishidan, kesib olinishidan himoyalash, shuningdek ularni shoxlarini butash va sh.o'. ishlardan iborat tadbirlarni o'tkazishni talab qiladi. Ba'zida o'rmon polosalarida er usti suvlarini ushlab qolish uchun, o'rmon polosasi pastki chetida yon – bag'irga ko'ndalang joylashgan o'rab turuvchi himoya ko'tarma (val) lari quriladi.

Suv omborlarini qurish va ishlatish amaliyotida erroziyaga qarshi gidrotexnika inshootlaridan keng qo'llaniladi, ular erroziya jarayonlarini oldini oladi. Ularga: suvni ushlab qoluvchi (ko'tarmalar – kanalchalar, terrassalar, ko'tarmalar – terrassalar), suvni yo'naltiruvchi (tog' yon – bag'ir kanalchalar, ko'tarmalar – sochib yuborgichlar, kanalchalar – sochib yuborgichlar, suv yo'naltiruvchi ko'tarmalar), suv tashlovchi (tezoqarlar, perepadlar, konsolli suv tashlamalar va boshq.), shuningdek tub (zapruda (to'g'on), yarim zapruda, perepadlar, ostonalari) inshootlari kiradi.

Ko'tarmalar – kanalchalar gidrologik sharoit va joyning relefni hisobga olib quriladi, joyning sirtini nishobligi $6\dots10^0$ dan ko'p bo'lmasligi lozim.

Ko'tarmalar – terrassalar nishobligi $4\dots7^0$ bo'lgan suv yig'iladigan maydonlarda quriladi, ular bir biridan $25\dots200$ m masofada joylashtiriladi.

11.4. Akvatoriyyadagi asosiy ekspluatatsiya tadbirlari

Suv omboridagi suvning talab qilinadigan sifatini ushlab turish uchun eng samarali tadbirning biri – bu suvning shunday oquvchanligini ta'minlashdan iboratki, bunda suv yil bo'yi kamida 10 marta yangilansin. Ammo suv omborini ekspluatatsiya qilishda bunday shartni bajarish qiyin. Suvning kerakli sifatini ta'minlaydigan ikkinchi tadbir – suvni sayozlanishiga qarshi kurashishdir. Ma'lumki chuqurligi 2 m gacha bo'lgan sayoz joy suv o'simliklarini hosil bo'lishi va suvni «gullashi» uchun yaxshi sharoit hisoblanadi. Ular o'rab turuvchi dambalar qurish yo'li bilan bartaraf qilinadi. Agar bu iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamas, unda sayoz joylarda (15...20% gacha) baliq urchitiladigan joy yoki biologik hovuz sifatida foydalilanildi. Suvni tozalash bo'yicha uchinchi tadbir bu suvni qumli va shag'al toshli ko'tarmalar oralig'idagi plyajlardan filtrlab o'tkazishdir. Misol uchun SevNIIGiM ning suv resurslari gidrologiyasi Qozon bo'limining ma'lumotlariga ko'ra, uzunligi 1 km bo'lgan plyaj-dagi qumli qiyalik to'lqin balandligi 20 sm bo'lganda $120 \text{ m}^3/\text{soat}$ suvni filtrlagan va

qayta ishlagan. Suv omborlarini ekspluatatsiya qilishda qo'llaniladigan istiqbolli to'rtinchı tadbır - mikrosuv o'simliklari va yuqori suv o'tlari (makrofiti) bilan biologik hovuzlarni fotosintezlaydigan aeratsiyasi bilan bir yoki ikki bosqichli hovuzlar, shuningdek bioplotno va botonik maydoncha hosil qilishdir. Bu holatda oqova suvlardan neorganik birikmalar (azot, fosfor, kaliy, xlor, sulfat, gidrokarbonat, kalsiy, magniy, temir va biotsid moddalar va og'ir metallarni qo'shib boshqa ko'p birikmalar) singdiriladi va ajratib olinadi.

YUqorida keltirilgan tadbirlar alohida – alohida ham, bir biriga qo'shilgan holda ham, shuningdek boshqa qo'shimcha ishlar bilan birga ham o'tkaziladi. SevNI-IGiM ning Qozon bo'limini ma'lumotlariga ko'ra suv omborida bir vaqtida quyidagi ishlar olib borilganda ijobjiy effektga erishiladi:

- daryolar, soylar joylashgan zonalarda biologik hovuz (prud) lar, bioplotno yoki botanik maydonchalar yuqori suv o'tlari (qamish, nina bargli qovg'a va boshq.) ni suniy o'tirish yo'li bilan tashkil qilinadi, bu o'tlar suv oqarga kelib tushadigan sanoat korxonalari, chorvachilik fermalari va sh.o'. lar oqova suvlari bilan kelgan iflosliklari tutib qoladi va bartaraf qiladi;

- suv omborlari qirg'oqlarini erroziya va buzulishdan himoya qilish va mustahkamlash, bu tez o'sadigan o't va butalar ekib o'stirish orqali erishiladi, bundan tashqari ular dalalardan yuvib keltirilgan o'g'itlar, pestitsidlar, biogen elementlar va sh.o'. larni ushlab qoladi;

- suv ombori qirg'oq zonasida (qamish va sh.o'.) qamishzor hosil qilish, ularni ildizlari ko'payib tuproqni mustahkamlaydi, tanalari bir birlari bilan o'ralishib tirik to'rnii hosil qiladi, ekishga hech qanday sarf – xarajat talab qilmasdan har yili yangilanadi.

Bu o'tlar qumloq, glina, il gruntlarda, hattoki graviyda tez o'sadi.

O'simliklar qirg'oq bo'y lab, kichik daryolar quyilishida, suv tinch turgan joylarda va boshqa suv turadigan issiq joylarda kengligi 5...10 m polosa bilan va qirg'oq bo'y lab, suvli maydonni 40% ni bosadigan qilib efiladi. O'simliklarni ekish ildiz bo'laklari, chimliklari bilan birga amalga oshiriladi. Ekish kuzda er maydoni suvdan bo'shagan payti olib borilsa yaxshi natija beradi, 2..3 yilda ular ko'p maydonni egal-lab olishadi.

11.5. Suv omborlarida kuzatish ishlari


Suv omborlarini o'lchamlari, konfiguratsiyasi, tumanining gidrografiysi, geologiyasi, tartibga solinish xarakteri, iqlim sharoiti va daryodagi suv ombori gidrouzelini ekspluatatsion rejimi yuqori va pastki beflardagi jarayonlarga har xil

ta'sir qiladi. Oqimni ko'p yillik tartibga soluvchi suv omborlari beflardagi suv sathi, oqim tezligi, to'lqin va issiqlik rejimi, bug'lanish, muzlash rejimi, o'zandagi jarayonlar gidroqimyoviy, gidrobiologik va boshqa ko'rsatgichlarni tubdan o'zgartirib yuboradi. Kichik suv omborlari daryoning odatiy sharoitidagi jarayonlarni buzadi, shuning bilan u tabiiy jarayonlarga o'z tuzatmalarini kiritadi. SHuning uchun ham suv omborlari ustidan muntazam kuzatuvlar olib boriladi.

Kuzatish punktlarini joylashuvi suv ombori loyihasi ishlab chiqilayotganda belgilanadi. Kuzatishlar beflardagi suv sathlarini o'zgarishi, suv omborini loyqa va o'simliklar bosishi, to'lqinlanishi, qirg'oqlarini emirilishi, o'prilish jarayonlari, mu-zlash rejimi, suvning harorati, suv omborining gidroqimyoviy rejimi, suvning sifati va boshqa sh.o*. lar ustidan olib boriladi.

Suv sathini kuzatish suv o'lhash postlarida suv hajmini, xududning suvgaga ko'milgan maydonini va gidrouzelning suv o'ztkazuvchi oraliqlari orqali yoki suv oluvchi qurilmadan o'tayotgan suv sarfini hisob – kitob qilish uchun olib boriladi. Suv o'lhash posti suv sathini o'lhash imkoniyatini beradigan mos ravishdagi qurilmalar va suv o'lhash qurilmasining aniq balandlik holatini aniqlash uchun nive-lirlash belgilari bilan jihozlanadi. Nivelirlash belgilarini joylashuv o'rni quyidagi talablardan kelib chiqib topiladi: suv omborida suvning eng past sathida kamida 0,5...1 m chuqurlik zahirasini va ochiq havza bilan erkin suv almashinuvini ta'min etishi kerak; kuzatishlar olib boriladigan joy muz bosishi, shamoldan to'lqinlanishi va o'chovlarni olib borish uchun engil borib keladigan bo'lishi lozim. Suv o'lhash postlarini yirik suv olish inshootlari, suvni oqib kelib qo'shiladigan joylari, kuchli deformatsiyalanadigan qirg'oqlar yaqinida o'rnatish tavsiya qilinmaydi. Suv omborlari-da va pastki beflarda, qoidasi, reykali postlar, daryolarda esa svayli postlar qo'llaniladi. Suv o'lhash postlarining plandagi joylashuvi eskizi, svaylar boshchalari yoki reyka nuli, reperlar balgilari bilan qirg'oq ko'ndalang profili va postning qis-qacha tavsifi ilova qilingan post pasporti tuziladi. Suv sathini suv o'lhash postlarining muqobil (variant) lari 11.1 – rasmda ko'rsatildi. Odadagi sharoitda suv sathi 1 sm anqlikda har kuni ertalab soat 8.00 da o'lchanadi. Toshqin payti kuzatuvlar har soatda o'tkaziladi. Olingan ma'lumotlar bo'yicha sathlarni o'zgarish grafigi quriladi va suv omborining hajmi aniqlanadi.

Suv ombori to'ldirilishi bilan tutashgan xududlarda grunt suvlarning sathi ko'tariladi. Buning natijasida xudud botqoqlanishi, qo'shimcha ko'lchalar hosil bo'lishi, tuproq qatlami, o'simlik dunyosi, grunt suvlari tarkibi va sh.o*. o'zgarishi mumkin.



11.1 – rasm. Suv o'lhash postlarida suv sathini o'lhash variantlari:
a – ikki svay bo'yicha; b – kuzatish nulidan pastda joylashgan suv sathi bo'lganda; v – erkin sathda to'lqinlanish bo'lgan sharoitda. O'lchamlari sm. da.

Suv ombori to'ldirilishi va bo'shatilishida qiyaliklarni turg'unligi va mustahkamlovchilarini butunligini ta'min etish zarur. O'rtacha hajmli suv omborini to'ldirish tezligi, uning pastki va o'rta qatlamlari uchun $0,5\dots1$ m/sut, yuqori qatlami uchun – $0,25\dots0,5$ m/sut, yuqori qatlaming 2...3 m uchun – $0,05\dots0,1$ m/sut. Bo'shatish tezligi: yuqori sathlar uchun – 0,3 m/sut, o'rta sathlar uchun – 0,5 m/sut, pastki uchun – 1 m /sut. Ammo bu tezliklar muayyan geologik, gidrogeologik va boshqa sharoitlar bilan bog'lanishi lozim.

Suv ombori ishlatalayotgan davrda pastki befga tindirilgan oqim tashlanadi, shuning uchun pastki bef o'zanida umumiy yuvilish va o'zanning pasayishi kuza tiladi, bu urilma va pastki bef risbermasida beflarni tutashishini yomonlashtiradi. YUqori befda oqizindilar cho'kadi va suv omborini loyqa bosadi.

Loyqa bosishini kuzatish, bir necha stvorlarda, chuqurliklarni o'lhash yo'li bilan, oqizindilarini cho'kkani qalinligi (qatlam) ni aniqlab borishdan iborat. Stvorlar soni muayyan sharoitdan kelib chiqib belgilanadi (taxminan 10...15 olinadi). Stvor uzunligi 300 m dan ko'p bo'limganda chuqurliklar diametri 6...10 mm, har 5...10 m da belgiga ega va har 50...70 m da po'kak o'rnatilgan, tortilgan tross yordamida amalga oshiriladi. Stvor uzunligi 300...500 m dan ko'p bo'lganda o'lchovlar qirg'oqqa o'rnatilgan teodolit yordamida o'lchov nuqtasi o'rnini aniqlab olib boriladi. CHuqurliklar, kichik chukurlikda, boshmoq – tagligi bor xoda (shest) bilan. katta (4...5 m dan ko'p) chuqurliklarda belgi qo'yilgan trossga osilgan yukdan tashkil top-

gan lot bilan o'lchanadi. Yirik suv omborlarida o'zi yozadigan exolotlardan foydalanildi.

Oqizindilarning granulometrik tarkibi va hajmiy og'irligini aniqlash uchun har bir stvordan 5...7 namuna olinadi. Suv omborini ishlatishning dastlabki 2...3 yilda bu ish har yili, undan keyin esa kerak bo'lganda va oqizindilar jadal cho'kkani joylarda yoki qirg'oq deformatsiyaga uchragan joylarda olib boriladi (bajariladi).

Suv omborini o't bosishi loyqa bosishiga o'xshab hajmini kamaytiradi. Uning ustidan kuzatish yoz vaqtida ko'z bilan yoki instrumentlar yordamida olib boriladi. O't bosishining chegarasi teodolitning baza chizig'iga nisbatan burchak bo'yicha dalnomeri (uzoqni o'lchagichi) yordamida aniqlanadi. Bu ishni amalga oshirish uchun gidrotexniklar, topograflar va gidrobiologlar jaib qilinadi.

To'lqinlanishni kuzatish gorizontga nisbatan ma'lum bir burchak ostida qiyalikga o'rnatilgan va o'lchov shkalasi bilan ta'minlangan reykalar bo'yicha olib boriladi. Ayrim holatlarda qiyalikka bo'yab qo'yilgan, suv bilan yuviladigan reykani o'rnatish mumkin. To'lqin balandligi buyoqni yuvish chizig'i bo'yicha topiladi yoki to'lqin o'lchagich vexa (ishorat qozig'i), to'lqin o'lchagich, to'lqin yozgich (to'lqinlanishni o'zi yozib boruvchi) yordamida o'lchanadi.

Katta akvatoriyadagi to'lqinlanishni aerofotos'emka yordamida kuzatiladi. Ma'suliyati kam holatlarda to'lqinlanishni ko'z bilan kuzatish yordamida ballarda baholash mumkin.

SHamol tezligi ko'l anemometri yoki o'zi yozar bilan, uning yo'nalishi esa – flyuger yordamida aniqlanadi.


Suv omborini qirg'oqlarni emirilishini kuzatish suv omborini loyqa bosish, qirg'oq bo'yи zonasasi oldida bir qismi qirg'oqning yuvilishi mahsulotlarini cho'kishi natijasida sayozlik hosil bo'lishi darajalarini baholash imkoniyatini beradi. Bunda quyidagilar amalga oshiriladi: qirg'oq bo'yи ko'z bilan tekshirilib chiqiladi va qirg'oqning suv ostida qolgan uchastkalari bo'yicha materiallar yig'iladi; qirg'oq bo'yи polosasi topografik s'emka qilinadi; ko'ndalang kesimlar va chuqurliklar niveлиovka qilinadi; o'prilish jarayonlarini rivojlanishini kuzatish, gruntdan namunalar olishni qo'shib emirilish ehtimoli bor uchastkalar geologik va gidrogeologik tadqiqotdan (tekshiruvdan) o'tkaziladi. Asosan gidrouzel inshootlariga kelib qo'shiladigan (tutashadigan) qirg'oqlar, injenerlik himoyasi va engil yuviladigan uchastkalar kuzatiladi.

Eng xarakterli zonalarda bir birida 50...100 m masofada kamida uchta ko'ndalang kesim ajratiladi va belgilanadi, ular teodolit yo'li bilan bog'lanadi va suv ombori ichiga 200 m gacha eyiladi, ularning chuqurliklari o'lchanib IV klass nive-

lirovka qilinadi. Ko‘ndalang kesimida fiksatsiya (belgi) qilingan nuqtalarga bir bira- dan 10...20 m masofada metall shtotr qoqiladi, SHtysrlarning boshi er yuzidan 0,5 m ga chiqib turadi. Kuzatuvlar geodeziya asboblari yordamida olib boriladi. O‘lchashlar bilan birgalikda qirg‘oqlarni o‘prilish yoki yuvilish xarakteri (yoriqlar hosil bo‘lishi, tog‘ jinslari katta bo‘laklarini o‘prilishi, siljishlar, to‘kilib tushishlar va sh.o‘.) uchast- kalarning geologik va gidrogeologik tuzilishi ko‘rsatilib, yozilib boriladi. Kuzatishlar natijasida yirik mashtabli, injenerlik – geoliya shart - sharoit kartasi tuziladi, kar- tada qirg‘oq 300 m gacha tushiriladi. SHuningdek suv ombori qirg‘oq bo‘yi zonasasi suv urezidan 200 m tubini izobatlardan kartasi tuziladi.

Qirg‘oqlarni emirilishini instrumentlar yordamida kuzatish bahorda, toshqin o‘tgandan keyin va yomg‘irlar mavsumi tugagandan so‘ng kuzda olib boriladi (o‘tkaziladi). Geologik tahlil yiliga 1 marta, ayrim holatlarda esa undan ham ko‘p o‘tkaziladi.

O‘prilish (siljish, ko‘chish) jarayonlarini kuzatishda qirg‘oqlar umumiy ko‘rik (rekognossirovka) dan o‘tkaziladi, deformatsiyalar, drenaj tizimlari holati tasvirlanadi va o‘prilish (siljish, ko‘chish) lar kutilayotgan xarakterli uchastkalar bo‘yicha xulosalar tayyorlanadi. Bunda o‘prilishni (siljish, ko‘chishni) xarakterlaydigan uzilish pog‘onasi chetini joylashishi, o‘prilish siljishi, ko‘chish tili, yirik va o‘rtalari yoriqlar, suv to‘xtagan uchastkalar, siljish sirti chegarasi va boshqa detallar ko‘rsatiladi. Tax- min qilinayotgan (kutilayotgan) o‘prilishning holati joyida va planshetda belgilanadi, shuningdek ma‘lum bir (berilgan) davrdan keyin eng xarakterli joylarning rasmi soli- nadni va fotosurati olinadi. O‘prilish va stvorlarni joylashtirish sxemasi 11.2 – rasmida ko‘rsatilgan. Stvorlar har 25...50 m da joylashtiriladi. Instrumentlar yordamida ku- zatish uchun o‘prilish va uning orqasida markalar joylashtiriladi, markalar suv ostida yoki suv ustida joylashgan yaqin reper bilan bog‘lanadi. Markalar orasi masofasi markalar soni 3...4 ta bo‘lishidan kelib chiqib qabul qilinadi. Kuzatishlar qorlar erib ketgandan so‘ng bahorda va jadal yog‘ingarchilik tugagandan so‘ng kuzda olib boriladi. Ixtiyoriy shaklda tuzilgan jurnallarga kuzatishlar olib borilgan sana, masofasi, chuqurligi va o‘lchangan joyi, kuzatishlarning davomiyligi yozib boriladi va o‘prilish jarayoni tasvirlanadi.




11.2 – rasm. O'prilish (siljish, ko'chish) sxemasi (a) kuzatuv stvorlarini joylashuvi (b): 1 – ildiz massivi; 2 va 3 – o'prilish cheti va devori; 4 – ajralish yorig'i; 5 – o'prilish bosqichi; 6 – o'prilish tanasi; 7 – o'prilish to'shagi; 8 – suv turib qolgan joy; 9 – do'ppayish yorig'i; 10 – o'prilish tili; 11 – o'prilish asosining deformatsiya-si; I...X – tayach belgilar; 1'...11' – o'prilishdagagi markalar.

Suv usti qismidagi unchalik katta bo'lмаган о'prilish (erib tushish) lar temir – betonli panjaralar о'rnatilib mustahkamlanadi. Panjaralar ichiga grunt to'ldiriladi va svaylar yordamida asosiy massivga mustahkamlanadi. Bir qator holatlarda о'prilishlarni kontrforsli tirkak devorlar о'rnatish yo'li bilan oldi olinadi. CHuqurlikda joylashgan va katta о'prilishlar qoqiladigan tizimlar yoki burg'ilab qoqiladigan svaylar ($d = 520 \dots 1080$ mm) yordamida ushlab qolinadi.

Grunt suvlarini urib chiqishidan kelib chiqadigan о'prilishlarni shu oqimlarni drenaj yordamida ushlab chiqarib yuborish orqali oldini olish mumkin.

Muzlar rejimi uch asosiy davr bilan xarakterlanadi: muzlash, muzni turib qolishi va muzdan ochilish. Muz hosil bo'lish jarayoni odatda qirg'oq bo'yи suvini mu-zlashidan boshlanadi, u qirg'oqga keng bo'lib yopishadi, so'ng esa uzliksiz muzli qoplama hosil bo'ladi. Suv omborlarida qish kirib kelishi bilan muzlash boshlanishi va muzlikni turib qolishi, muzlash hosil bo'lishining qo'rinishlari, muz qoplamasining holati va uning deformatsiyalanishi, muzlash qalinligi, qor qatlami qalinligi, mu-zlikning ochilishi (erishi), muz bo'laklarini suzishi (yurishi) va sh.o'. kuzatib boriladi. Asosan kuzatishlar ko'z bilan olib boriladi. Muz qalinligini o'chash uchun standart muz o'chagich reyka qo'llaniladi, u 11.3 – rasmida ko'rsatildi. Ushbu rasmda muz qalinligini o'chashning variantlari ham berilgan. Muz qalinligi har 5 sutkada (oyning 5, 10, 15, 20, 25 sanasida) va oyning oxiri sanasida o'chanadi. Bu maqsad uchun muz qalinligi bo'ylab qirg'oqdan kamida 3 m masofada quduq burg'ilanadi. Muz qalinligi

0,15 m ko‘p bo‘lganda o‘lchovlar qirg‘oqdan 20...30 m masofada olib borilishi mumkin.



11.3 – rasm. Quduq qisman suvgaga to‘lganda (a) hamda suv sathi muz qatlamidan yuqori (b) va past (c) bo‘lganda muz o‘lchagich reykalar yordamida muz qalinligini o‘lchash: 1 – ish holatidagi o‘lchov reykasi; 2 – muz.

Suv omborlarida muz qalinligi odatda daryolardagiga nisbatan 15...20% ko‘p bo‘ladi. Muzlash rejimini kuzatishda xavfsizlikni ta‘minlash nuqtai nazaridan shuni nazarda tutish kerakki, odatda qirg‘oq oldida muz qalinligi suv omborining ochiq yuzasidagiga nisbatan har doim ko‘p bo‘ladi. Yirik suv omborlarida muz joyida eriydi, o‘rta va kichik suv omborlarida, katta toshqin suvi mavjud bo‘lganda, muz maydalanim suv tashlovchi oraliqlar orqali pastki befga tushirib yuboriladi.

Suvni haroratini kuzatish suv urezidan 3 va 20...30 m uzoqlashgan vertikallar bo‘ylab, sutkada 1 marta soat 12 da beflarda o‘lchab boriladi. Harorat yuza zonada (yuzadan 0,5...1 m da), tub oldi qatlamda va suv omborining chuqurligiga qarab o‘rta qatlamda o‘lchanadi. Haroratni o‘lchash uchun metall, plastmassa yoki yog‘och g‘ilofdag‘i buloq termometrlaridan foydalaniladi, ularning aniqligi $\pm 0,2^{\circ}$ S. SHU maqsad uchun ishlatalidigan elektrik termometrlarniki esa $\pm 0,5^{\circ}$ S.

Suv omborining gidroqimyoviy rejimi suvning bug‘lanishi, muzlik hosil bo‘lishi, qirg‘oqlar yuvilib ochilib qolganda yuviladigan tuzlarni paydo bo‘lishi sharoitlari bilan belgilanadi. Bu tuzlar pastki befga tashlanayotgan va suv omboridagi suvlarning odatdag‘i mineralizatsiyasini oshirib yuboradi. Suvning kimyoviy tarkibini kuzatish standart (majburiy) va maxsus kuzatish-larga bo‘linadi. Standart kuzatishlar doimiy kuzatish punktlarida olib boriladi, bu kuzatishlarning maqsadi - suv omboridagi suvni oqova suvlar bilan ifloslanish darajasini aniqlashdan iborat. Maxsus kuzatishlar maxsus dastur bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilayotganda olib boriladi. Standart kuzatishlarda suvdan namuna suv urezidan 20...30 m masofada, suv

yurmaydigan zonalarda, suv o'tlari ko'paygan joylarda, suv urezi oldidagi qiyaliklardan olinadi. Kichik chuqurlikka ega suv omborida suv namunasi yuqori qatlam (0,5 m chuqurlik) va tub oldi qatlam (tubdan 0,5 m balandlikda) lardan olinadi. CHuqur (10 m dan ko'p) suv ombrlarida namunalar vertikal bo'yicha uch nuqtadan olinadi. Batometrlar yordamida olingan namunalar butiklarga quyiladi va kimyo laboratoriyasiga jo'natiladi. Butilkaga namuna olingan sana va joy ko'rsatilib etiketka yopishtiriladi. Laboratoriya namuna to'la yoki qisqartirilgan kimyoviy tahlildan o'tkaziladi. To'liq tahlil uchun namuna har choraklikda 1 marta, qisqartirilgan tahlil uchun esa har oyning 10 yoki 15 sanasida jo'natiladi. Kimyoviy tahlil natijalari maxsus jurnalga namuna olingan sana, vaqt, harorat, suv sathi, stvor, vertikal va sh.o. lar ko'rsatilib yozib qo'yiladi.

XII. Gidrotexnika inshootlari va ularning mexanik jihozlaridagi buzulish holatlari

12.1. Umumiy holatlар

Gidrotexnika inshootlaridagi avariylar sanoat, fuqaro, transport va boshqa inshootlardagidan farqli o'laroq nafaqat inshootning o'zini bahosi bilan belgilanadigan zararni qayta tiklash, balki oqim bo'yicha pastda joylashgan boshqa ob'ektlarni buzulishi va shikastlanishi, suv bosishi natijasida keltirilgan zararlari bilan xarakterlanadi. Bu gidrotexnika inshootlarini loyihalash, qurish va ishlatishda e'tiborga olinishi kerak.

Yirik to'g'onlar bo'yicha Halqaro komissiyaning ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 800 mingdan ko'p, har xil turdag'i to'g'onlar mavjud, ulardan 50 mingga yaqinining balandligi 15 m dan ko'p. Yig'ilgan ma'lumotlar bunday o'chamdag'i to'g'onlarning buzulishi va shikastlanishi bilan bog'liq mingdan ko'p avariya bo'lib o'tganligini ko'rsatgan. Beton to'g'onlar uchun buzulishning o'rtacha yillik takrorlanishi - $(0.5\dots2) \cdot 10^{-4}$, grunt to'g'onlar uchun - $(2,5\dots5) \cdot 10^{-4}$ tashkil qilmoqda. 70-yillarda qurilgan zamonaviy to'g'onlarning o'rtacha buzulish ehtimolligi 10^{-5} ni tashkil qiladi. Oxirgi 200 yil ichida 600 ko'p yirik to'g'onlarning avariya va buzulishlari kuzatilgan. Ularning chet mamlakatlardagi umumiy va avariyalari soni (1990 yilgacha bo'lgan ma'lumotlar bo'yicha) mos ravishda: AQSH - 3197 va 331, Yaponiyada - 1874 va 16, Buyuk Britaniyada - 436 va 32, Hindistonda - 375 va 3, Ispaniyada - 335 va 5, Fransiyada - 277 va 4, Avtraliyada - 230 va 29, SHveysariyada - 100 va 4, GFRda - 67 va 3 ni tashkil qilgan. Yirik to'g'onlar bo'yicha Halqaro Komissiyaning

ma'lumotlariga ko'ra, avariya va buzulishlar: inshootlar asosi va poydevori qismi gruntini noto'g'ri baholash (55%), suv tashlamalarning o'tkazuvchanlik qobiliyatini etarli emasligi (23%), konstruksiyalarini past mustahkamligi (14%) va boshqa sabablar (8%) oqibatida vujudga kelmoqda. S.E. Mirsxulavaning ma'lumotlariga ko'ra esa 40-45% buzulishlar – loyihalashda yo'l qo'yilgan xatolar, 20% - ishlab chiqarish xatolari, 30% - ishlash sharoitini buzulishi xatolari, 5...7% - eyilish va edrilish natijasida vujudga kelmoqda.

Keltirilgan ma'lumotlar avariya va buzulishlarning asosiy qismini to'g'onlar asoslari va qirg'oqga tutashmalarda kechadigan jarayonlarni etarli hisobga olmaslik, daryoning hisobiy suv sarfini pasayishiga olib keladigan gidrologik rejimini past o'r ganilganligi va to'g'on materialining mustahkamligini yo'qolishi orqasida avariya va buzulishlar vujudga kelayotganligini tasdiqlamoqda.

To'g'onlar avariyalari katta miqdordagi ziyonga olib keladi. Djostatun (AQSH, 1937 y.) to'g'oni avariysi 100 mln. dollar, Teton (AQSH, 1976 y.) – 400 mln. dollar, Malpase (Fransiya, 1959 y.) to'g'oni – 70 mln. dollarga tushgan. To'g'onlar avariyalarda insonlar qurban bo'lishlari: Vayont (Italiya, 1963 y.) to'g'onida 3000 kishini, Oros (Braziliya, 1960 y.) to'g'oni – 1000, Malpase – 421 kishini hayotdan ko'z yumishlariga olib kelgan..

MDX xududlarida hozirgi paytgacha yirik to'g'onlarning buzulishi kuzatilmagan, ammo kichik to'g'onlarni buzulishlari uchrab turadi. Misol uchun 1930 yilda Qoradaryoda, 30 yillik ishlatishdan so'ng past bosimli to'g'onning uqtli qismi, 1955 yilda Lujiskiy GES tuproq to'g'oni buzulgan. Kaxov suv ombori 1955 yilda to'ldirilayotganda o'rab turuvchi dambaning 200 m uzunligida 50 ming m³ hajmida pastki qiyaligi sirg'alib tushgan. 1987 yili Tojikistonning Saragozon suv omborini vaqtinchalik dambasining buzulishi 58 oilani bosh panasiz qoldirgan, beton ko'priklaridan sel temir yo'l izini yuvib, chorvachilik fermasini olib ketgan.

Eng yirik avariya Italiyaning Vayont to'g'onida bo'lib o'tgan. O'sha vaqt u balandligi 261,6 m li, baland arkali to'g'on bo'lган. Suv omboriga 20 s ichida uzunligi 2 km, maydoni 2 km² va hajmi 270...300 mln. m³ bo'lган juda katta tog' massasi qulab tushgan, bu tog' massasi avariyaning sezilmaydigan suriluvchanlikka ega bo'lган. Tog' massasi katta tezlik bilan daradan sakrab o'tib qarama-qarshi tomon-dagi yon-bag'ir ustida 140 m. balandlikka turib qolgan. To'g'on o'rkachi ustida 150 m balandlikka ega to'lqin hosil bo'lган, ammo to'g'on shikastlanmasdan qolgan.

12.2. Grunt to‘g‘onlardagi buzulish va avariya holatlari

Yirik to‘g‘onlar bo‘yicha Halqaro komissiyaning ma‘lumotlari ko‘ra grunt to‘g‘onlarning ishonchligi kontrfors va arkali to‘g‘onlar ishonchligi bilan taxminan bir xil. Eng ko‘p mahalliy materiallardan (tuproqdan, tosh tuproqli, tosh to‘kma) qurilgan to‘g‘onlar buzulishi kuzatilgan. Taxminan 80% to‘g‘onlar qurilish paytida yoki doimiy ishlatalish davrida o‘rkachi orqali suvni oshib tushishi, asosi va tanasidan kuchli filtratsiya sababli buzulgan. Bunda, asoslarni buzulishi – 25%, tanasi buzulishi – 47%, suv tashlamalarining buzulishlari 23% va boshqa sabablar bilan 5% to‘g‘onlarda kuzatilgan. Grunt to‘g‘onlarning buzulishlarini boshqa sabablariga: drenaj tizimining etarli ishonchli emasligi, to‘g‘onni bir qismi bo‘sh allyuvial yot-qiziqlarda joylashib, boshqa qismi – mustahkam asosda bo‘lgandagi kuchli filtratsiya natijasidagi erroziya va yuvilishlar, to‘g‘onni notejis cho‘kishi, katta o‘lcham (masshtab)li saysmik jarayonlarga o‘tadigan mikroseysmik jarayonlar, sezilarli o‘prilish jarayonlari va boshqalar kiradi.

Mikroseysmik jarayonlar taxminan yirik suv omborlari qurilganda, asos gruntinga qo‘sishmcha yuqori yuklama tushganda, buning ustiga asos tog‘ jinsiga va qirg‘oq tutashmalari qatlamlariga bosim ostida suv singib kirganda, tektonik yoriqlarda ilashimlik kuchi pasayganda hosil bo‘ladi. Bu jarayon Mid Leyk (AQSH), Kariba (Zambiya), Kremasta (Gretsiya), Koynopgar (Hindiston) va boshqa to‘g‘onlarda kuzatilgan.

Quyida ba’zi bir to‘g‘onlarda bo‘lib o‘tgan avariylar yoki buzulishlarga missollar ko‘rib o‘tamiz.

Xel Xoul (AQSH) to‘g‘oni – tosh-tuproqli, qiya yadro bilan, loyiha bo‘yicha balandligi 125 m, o‘rkachi bo‘yicha uzunligi 475 m bo‘lgan. To‘g‘onga tuproq to‘kilishi davrida diametri 4 m li tunnel qurilgan bo‘lgan. 1964 y. toshqin boshlanishi davriga kelib yadro to‘g‘on prizmasidan 41,5 m past qilib bitqazilgan bo‘ladi. Toshqin payti, hali qurib bitqazilmagan to‘g‘ondan suv toshib tushgan va tosh to‘kma orqali sezilarli kuchli filtratsiya hosil bo‘lgan. Pastki qiyalikda hosil bo‘lgan suv oqimi to‘g‘on asosi va qiyaligini jadal yuvib boshlagan. To‘g‘on orqali $340 \text{ m}^3/\text{s}$ suv sarfi o‘tgan va u 535 m^3 tog‘ jinsini yuvib ketgan.

Oros (Braziliya) to‘g‘oni ham tosh tuproqli, balandligi 54 m, glina gruntu markaziy yadroga ega bo‘lgan. Asosi qoya toshdan iborat bo‘lgan, pastki prizmasi allyuvial gruntga tayangan bo‘lgan. 1960 yili toshqinni vodosliv orqali 200 m li belgidagi o‘tkazib yuborish rejalashtirilgan. Ammo qurilish cho‘zilib ketgan. Kuchli yomg‘ir daryodagi suv sarfini $2250 \text{ m}^3/\text{s}$ ga etkazgan, bu payti qurilayotgan inshootning belgisi 183 m da bo‘lgan. 24 soat ichida belgini 190 m ga etkazishgan, ammo bu


etarli bo'lmagan, suv ombori to'lib ketgan. Suv oldin o'rkach orqali 0,35 m qalinlikda qatlam hosil qilib tushgan, so'ng esa to'g'on tanasidan 800 ming m³ gruntni olib chiqib ketgan. 34 soatdan keyin pastki befga 730 mln.m³ atrofida, 9600 m³/s eng ko'p sarf bilan suv tashlangan. Harbiy qismlarning tezkor yordami bilan aholi evakuatsiya qilingan. SHunday bo'lsada, toshqin keltirib chiqargan bu avariya natijasida, 40 ming kishi qurban bo'lgan.

11.1.da aytib o'tilgan *Titon* (AQSH) to'g'oni tosh-tuproqli, yadroli, balandligi 93 m, o'rkachi bo'yicha uzunligi 760 m bo'lgan. To'g'on asosi bo'shliqlarga ega va yoriqlari bor tog' jinsidan iborat reolitdan tashkil topgan. YAdro uch qator 91 m li skvajinada va tashqi skvajinalar oralig'i (qadami) 6 m markaziyligi qatori – 3 m bo'lgan, in'eksija qilingan parda bilan tutashtilrilgan. Avariya boshlanishigacha in'eksion parda hali qurilib bitirilmagan bo'lgan. 1976 yilning iyunida to'g'oni qirg'oq oldi qismida, pastki befda 1,25 l/s atrofida filtratsiya hosil bo'ladi. 2 sutkadan keyin bu uchastkadagi filtratsiya oshib ketadi va uning sarfi 1,4...1,7 m³/s ga etadi. Z0 minutdan keyin esa suv sarfi 2 m³/s ga ko'tariladi. Titon to'g'oni pastida joylashgan uch shahardan aholini evakuatsiya qilish boshlanadi. YAna 1 (soatdan keyin filtratsiya sarfi 28 m³/s ga etadi. YUvilish daganagi (voronka) hosil bo'ladi va u jadal to'g'on to'kmasiga yaqinlashadi hamda uni yuvib ketadi. 1...1,5 soatdan keyin avariya hosil bo'ladi. 14 kishi qurban bo'ladi, 2000 kishi jarohatlanadi va 30000 kishi bosh panasiz qoladi. Buning ustiga kommunikatsiyalar, qurilmalar va dambalar buzuladi, yo'llarni loy bosadi, qishloq xo'jaligi ekinlari, kanallar, daraxtlar yakson bo'ladi. Avarianing aniq sababini aniqlashni imkoniyati bo'lmaydi. Titon to'g'oni avariyasini har tomonlama tekshirib chiqqan maxsus komitet buzulishga olib kelishi mumkin bo'lgan quyidagi sabablarni ko'rsatadi: to'kmaning asos va qirg'oq bilan tutashgan joylaridagi in'eksion parda orqali filtratsiyani katta miqdorda hosil bo'lishi; yadroning o'ng qirg'oq qismidagi ko'ndalang yoriqlar orqali filtratsiya; in'eksion pardani aylanib o'tgan filtratsiya. SHuni aytib o'tish lozimki, to'g'onda NO'A o'rnatilgan bo'lganda filtratsiya manbalarini aniqlash va o'z vaqtida chora ko'rishni iloji bo'lar edi. Ekspert komiteti rahbarining fikricha bu to'g'oni qayta tiklash sarf - xarajati yangi to'g'oni qurish bahosi bilan tengdir.

San-Fernando pastki (AQSH) to'g'oni grunt yuvib kelib to'kilib qurilgan, yadrosi bor va uni usti qismiga grunt to'kilgan (12.1,a – rasm), balandligi 43 m va o'rkachi bo'yicha uzunligi 640 m. 12 sekundga cho'zilgan 9 ball atrofidagi seysmik ta'sirda, to'g'oni 400 m uzunligidagi yuqori qismi o'pirilib tushgan (12.1,b – rasm). Buzulish tepe qiyalik boshqa ko'p yuvma to'g'onlarga nisbatan ancha tik kilib qurilgan uchun hosil bo'lgan.

Gorkov GES to'g'oni (MDX) grunt yuvib kelinib to'kib qurilgan, atrofida ikki qatlamlı teskari filtri bilan yotqizilgan quvurli drenaji bor. To'g'onni o'ng qismida, quvurli drenaj joylashgan zonada, 1958...1959 yillarda diametri 0,6...1,25 m, chuqurligi 0,5...1,8 m li 22 ta daganak hosil bo'lgan paytda, drenaj quvurlarida sizib o'tgan suv bilan birga qum paydo bo'lgan. Ayrim joylarida quvur qum bilan ¾ qismigacha to'lib qolgan. Zudlik bilan ta'mirlash ishlarini olib borish lozim bo'lgan. SHikastlanishning sababi drenaj quvurlari zvenolari tutashmalarini buzulishi va quvurlar oxirining qirralarini shikastlanishi bo'lgan. SHurf kovlash usuli bilan ayrim uchastkalarda teskari filtrning qaliligi 15...20 sm (yirik donador qum va shag'al tosh 8...10 sm qatlamda) ekanligi aniqlangan, bu loyihada belgilanganidan sezilar - 40 sm ga farq qilgan. Buning ustiga, asosdagи suglinokli linzalar qurilish paytida olib tashlanmagan.

Rovallen (Avstraliya) to'g'oni markaziy glinali yadroси bilan, balandligi 43 m., o'rкachi bo'ylab uzunligi 579 m qilib qurilgan. U qurilgandan keyin bir yil o'tgandan so'ng, to'g'on yadrosining qirg'oqqa tutash vodoslivga yaqin joyida, shartli diametri 1,4 m va chuqurligi 1,3 m o'yiq hosil bo'lgan. SHuning uchun zudlik bilan suv ombori suvdan bo'shatilgan va suv sathi 0,3 m/sut tezlik bilan 7,6 m ga tushirilgan, shu bilan xavfli suffoziyadan qutilib qolingan. Avariya sababi - yadro va beton devor orasidagi kontaktni sifatli qilinmaganligi va yo'l qo'yib bo'lmaydigan gradient hosil bo'lishidir.



12.1- rasm. San-Fernando pastki to'g'oni:

a - avariyyagacha; b - buzulishdan keyin; 1 - bosilib (tekislangan) grunt; 2, 4 - yuvib olib kelingan grunt; 3 - yuvib olib kelinib to'kilgan yadro; 5 - allyuviy; 6 - qoya tosh; 7 - depressiya egri chizig'i; 8 - qulab tushish zonasasi.

Keltirilgan misollar grunt to'g'onlar buzulishining ikki holatda vujudga kelishi: toshqin va er qimirlashi paytida hosil bo'lishini ko'rsatdi. Ammo ko'pchilik grunt to'g'onlarning buzulishi va avariya holatlari ishlatalish davrida o'z vaqtida, gidromexanik jihozlarni normal ishlashini ta'minlab, suv tashlamalarni kerakli holatini ushlab, suv omborini bo'shatishda yo'l quyiladigan tezlikni ta'minlab, tik yon-bag'irlar, filtratsiya (asosan beton, metall elementlar bilan to'g'on gruntu, asosi kontakti) ni kuzatib, bartaraf qilinishi mumkin.

Gidrotexnika inshootlarini loyiha asosida sifatli qilib qurish va qurilgan inshootni malakali ishlatalish muammosi dolzarb muammo bo'lganligi sababali, shu o'rinda gruntli inshootlardagi bir avarianing kelib chiqish sabablarini Toshkent viloyatining CHinoz tumani xududidagi YAngiobod suv yig'uvchi ko'li dambasi misolda ko'rib chiqamiz.

Ko'lda Toshkent shaxridan keladigan oqava suvlar to'planadi. Ko'lning suvi ichishga yaroqsiz, ammo 25-30 yildan buyon undan suv sug'orishga ishlatib kelinadi. Bir vaqtlar, bu erda, temir yo'lchilarni yordamchi xo'jaligi bo'lgan, ular yordamchi xo'jalikni suv bosishdan saqlash, ko'l suvini to'plab, sug'orishga ishlatalish maqsadida, bir jinsli (suglinok-soz tuproq) gruntidan uch qator dambalar qurib, ko'lni uch qismga bo'lishgan. Hozir bu erlarda 55 fermer xo'jaligi faoliyat yuritmoqda va ular 43 nasos qurilmasi yordamida ko'ldan suv olishib 800 ga dan ortiq erni sug'orib, dexkonchilik qilishmoqda.

Avariya uchragan, ko'lni boshidagi damba o'rkachi (tepasi) bo'yicha kengligi 12 m, eng ko'p balandligi 7 m, bosimli va bosimsiz qiyaliklar $m \approx 1.0$ qilib qurilgan. Dambada diametri 1,0 m li temir-beton qurvurli suv o'tkazgich qurilgan (12.2 - rasmga qarang). Damba tanasi (8) dagi, ushbu (2) suv o'tkazgichning tutashtiruvchi choklari konstruksiyasi loyiha va qurilish amaliyotiga zid ravishda, sementli aralashma tiqib quyib yuborilganligi, buning ustiga damba tanasi gruntu tarkibida (depressiya egri chizig'idan pastki zonada) tuzlar bo'lganligi sababli, choc konstruksiyasi ichidagi aralashma sifati keyinchalik buzulgan, aralashma erib quvurga tushib ketgan.


Quvur ichidagi oqim so'rish effektini hosil qilganligi sababli, damba depressiya egri chizig'i zonasidan suvni va suv bilan birga gruntu quvur ichiga so'rib tushirilishiga olib kelgan, natijada damba tanasida, suv o'tkazgich ustida «tashqi yuvilish» daganani (voronka) hosil bo'lgan, avariya holati vujudga kelgan. Ushbu avariya holatini, temir-betonli quvurni oldiga peremichka (suv to'sgich) qo'yib, **quvurni ochib**, choc konstruksiyasini to'g'rilash va suv o'tkazgich ustini **etarli zichlikda** grunt

to'kib shibbalab bartaraf qilish o'rniga dambani chap qirg'og'iga tutash uchastkasida, suv o'tkazish uchun $d=0,8$ m li metall quvur o'rnatilgan va temir-betonli suv o'tkazgich zatvori yopib qo'yilgan.

Metall quvur o'rnatilgan joy yorilgan, avariya bo'lib o'tgandan so'ng avariya oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha ishlar boshlangan payti (29.01.2007 y) dambani kuzatganimizda, dambani metall quvur o'rnatilgan chap qirg'oq oldi (5) uchastkasi yuvilgan, temir-beton quvurli suv o'tkazgich ustida tashqi (4) daganak hosil bo'lgan, dambani bosimli frontida bir qism yuqori qiyalik (10) o'pirilib tushgan, to'g'on o'rkachi ustida bo'ylama va ko'ndalang yoriqlar (6) hosil bo'lganligini kuzatdik (12.2 – rasm). Dambani bosimli qiyaligini o'pirilib tushishiga sabab , damba yorilgandan so'ng bosimli frontda suv birdan tushib ketgan, hali o'z holatini yo'qotmagan depressiya egri chizig'i zonasidagi suv (7) siljish chizig'i bo'ylab sizib chiqib gruntu o'pirib, (8) holatiga tushishiga olib kelgan. Avariyaga olib kelgan sabablar fikrimizga quyidagilar:

1. Damba loyihasiz, suv to'lqini, depressiya egri chizig'i hisob-kitob qilinmasdan qurilgan, gruntuning kimyoviy tarkibi o'rganilmagan.
2. Qurilish davrida, temir-beton quvur tutash choklari konstruksiyasiga rioya qilinmagan, to'g'on tanasi etarli darajada zichlanmasdan qurilgan.
3. Ishlatish qoidalari ishlab chiqilmagan, kuzatish ishlari olib borilmaydi.
4. Ta'mirlash ishlari qoidalariغا rioya qilinmagan, metall quvur yon filtratsiya yo'lini uzaytiradigan diafragmasiz, buning ustiga grunt etarli zichlanmasdan qurib yuborilgan, natijada quvur sirti bo'ylab filtratsiya yo'li ochilgan, u depressiya egri chizigi zonasidan ko'p miqdorda grunt zarrachalarini olib chiqqan va damba shu joyidan yorilgan.

Damba loyiha bilan qurilsa, buning ustiga qurilish sifati o'z vaqtida tekshirilib borilsa, quruvchi tashkilot qurilish me'yorlari va qoidalari bajargan bo'lar edi, ishlatish malakali, to'g'ri tashkil qilinganda, damba texnik holati o'z vaqtida kuzatib borilganda, o'z vaqtida avariyanı oldi olingen bo'lar edi va x. q. Bunday avariya holtlari barcha inshootlarda shu jumladan GES va nasos stansiyalari tarkibiga kiruvchi inshootlarda ham uchrashi mumkin.



12.2 – rasm. YAngiobod suv yig'uvchi ko'li bir jinsli grunt dambasining avriyadan keyingi holati sxemasi:

1- temir-betonli qurvur o'tkazgichning suv qabul qilgichi (ogolovkasi); 2 – temir-betonli qurvur $d = 1,0 \text{ m}$; 3 – metall qurvur ($d=0,80 \text{ m}$); 4 – o'yilish daganagi; 5 – suv yorib, yuvib ketgan uchastka; 6 – to'g'on o'rakchidagi bo'ylama va ko'ndalng yoriqlar; 7 – siljish sirti; 8 – o'pirilib tushgan grunt uyumi; 9 – to'g'on tanasi; 10 – to'g'oni o'pirilib tushgan uchastkasi. O'lchamlari, m.da.

12.3. Beton va tosh to'g'onlardagi buzulish va avariya holatlari

Beton to'g'on avariyalari va buzulishlarining asosiy sabablari asos jinslarini yuk ko'tarish qobiliyatini etarli hisobga olmaslik yoki asos bilan inshoot kontaktida og'irlilik kuchini notejis tarqalishidir. Bundan tashqari buzulishlarni asos tog' jinsining siljuvchan (suriluvchan)ligi, ularni emirilishi, drenaj yoki sementatsiya qilingan pardani ishdan chiqishi, asosdagи yuqori filtratsiya va boshqalar keltirib chiqaradi. Arkali to'g'onlar avariyalining asosiy sababi qoya toshli asos jinsini yuk ko'tarish qibiliyatini pasayishidir.

Qo'yida beton to'g'onlar avariyalari va buzulishlariga misollar keltiramiz. Misol uchun Malpassee (Fransiya) to'g'oni balandligi 60 m, yupqa silindrik arkadan iborat bo'lgan, arka asosining qalinligi 6,91 m, o'rakchida esa 1,5 m ni tashkil qilgan. 1959 yili to'g'on buzulgandan so'ng 421 kishi qurban bo'lgan, ko'p moddiy zarar etkazilgan. Kuchli yomg'ir suv omboridagi suv sathini oshirib 100 m belgicha etkazgan, vodosliv o'rakchi 100,4 m bo'lgan. Bunda tub oldi suv qo'ygichining diskli zatvori avtomatik ravishda ochilishi kerak bo'lgan, ammo avtomatika ishlamay qol-

gan. Belgi 100,12 m bo'lganda navbatchi kuzatuvchiga zatvorni qo'l bilan ochishga topshiriq bergen. 1,5 soatdan so'ng suv sathi 3 sm ga pasaygach, kuzatuvchi inshootni tashlab ketgan, u ketgandan keyin 25 min o'tgandan so'ng to'g'on bordaniga buzulgan. Maxsus komissiya buzulishning bir qator mumkin bo'ladigan sabablarini ko'rib chiqqan, ular: seysmik ta'sir, shu jumladan yaqin orada qurilayotgan avtomobil yo'lidagi portlatishlar, deversiya, meteorit tushishi, tub oldi suv quyigichini ishlatish qoidasidani chetga chiqishlar, beton ishlarining sifatini pastligi, to'g'on mustahkamligini hisoblashdagi xatoliklardan iborat bo'lishi mumkin deb taxmin qilingan.

Ekspertlarning xulosasiga ko'ra, chap qirg'oq ustunini 208 sm ga siljishi, qoya toshli asos mustahkamligini va unda yoriqlari mavjudligini etarli hisobga olmaslik natijasida, to'g'on buzulgan.

Vega-de-Tera (Ispaniya) to'g'oni balandligi 34 m, kontrforsli qilib qurilgan. Kontrfors betondan bosimli plita qo'yib tosh terma qilingan. To'g'on 3 yillik ishlatishdan so'ng 1959 yilda buzulgan. Bunda suv ombori suvgaga DNS gacha to'ldirilgan bo'lgan. Avariya natijasida 17 ta kontrfors yuvib ketilgan. Tosh termaning elastiklik modulli hisobiy kerakli elastiklik modulidan bir muncha kam bo'lganligi sababli to'g'on buzulgan. Kontrforsning yuqori tayanch qismini cho'zilishga zo'riqishi 5 MPa dan oshib ketgan. Bosimli beton plita bu holatda kontrforsga tayangan va konsol sifatida ishlagan, chunki uning asosi yaxshi biriktirilmagan bo'lgan. Asosda cho'zuvchi va yuqori urinma kuchlanish hosil bo'lgan, bu kontrforslarni surilishiga olib kelgan.

Chikkaxole (Hindiston) gravitatsion to'g'oni, balandligi 36,7 m, 1968 yili qurilgan, ishlatishning to'rtinchı yilidan keyin buzulgan. Bu to'g'on ham oxakli aralashma bilan tosh terma qilib qurilgan. Suv tashlovchi inshooti kengligi 10 m, balandligi 3 m, $450 \text{ m}^3/\text{s}$ suv sarfini o'tkazadigan 4 oraliqli vodoslivdan iborat bo'lgan. 3 sutka davom etgan kuchli yomg'ir $1150 \text{ m}^3/\text{s}$. toshqinni keltirib chiqargan. To'g'on o'rakchidan suv toshib chiqqan. To'g'on tanasida chuqurligi 14,3 m, o'rakchi bo'yicha uzunligi 122 m va tubi bo'yicha kengligi 26 m bo'lgan o'yiq hosil bo'lgan. Buning ustiga sel toshqini paytida elektr ta'minoti tizimida avariya vujudga kelgan va vodoslivlar ustidagi zatvorlarni ko'tarishga mo'ljallangan elektrik lebedka ishdan chiqqan.

Islom (Hindiston) to'g'oni kontrforsli, tekis plitalarga ega, daryo tubidan 12,2 m va tishi (zub) ning eng past nuqtasidan 16 m balandlikga ega qilib qurilgan. To'g'on qalinligi 0,46 m bo'lgan 67 kontrforsga ega bo'lgan, kontrforslar esa tekis bosimli qoplama va qalinligi 0,31 m bo'lgan poydevor plitaga ega bo'lgan. Avariyanadan bir kun oldin, uchastkalardan birida poydevor plitasi teshigidan sizib

o‘tayotgan suvning sarfi ko‘paygan. Avariya bo‘lgan kunda kontrforslardan birining poydevor plitasi ostidan suvning sezilarli oqimi chiqqan, yuqori bef dagi suv sathi esa 0,6 m ga pasaygan. Zatvorni ko‘tarishni iloji bo‘lmagan, to‘g‘on buzulgan. Poydevor plitasi hosil bo‘lgan o‘yiqga tushib ketgan, tagi yuvilgan kontrfors yiqilgan. To‘g‘onning 5 seksiyasi pastki bef gaga olib chiqilgan, 3 tasi shikastlangan. YUqorida keltirilgan dalillardan ko‘rinib turibdiki, buzulish tish va tish asosining suv o‘tkazmaydigan grunti uchastkasidagi poydevor plitasi ostidan grunt yuvib ketganligi natijasida vujudga kelgan. CHunki asosda sifatsiz geologik qidiruv olib borilgan yoki loyha past texnik darajada ishlab chiqilgan.

To‘g‘onlarning avariya va buzulishlarning keltirilgan misollari, shuningdek ular sabablarining tahlili, muntazam ravishda 4...5 yilga kamida 1 marta beton to‘g‘onlarning holatini nazoratdan o‘tkazish kerakligini ko‘rsatmoqda.

12.4. Suv tashlama va mexanik jihozlardagi buzulishlar

Ishlatish davrida suv tashlamalar, ko‘p holatlarda, yuqori tezlikka ega oqim ta‘siri ostida bo‘ladi, u sezilarli gidrodinamik yuklama, past bosimli zonalar, oqimning yuqori turbulentligini hosil qiladi. Ushbu jarayonlar inshootlar ayrim elementlarining turg‘unligini pasaytiradi, ularni tebranishlariga, kavitsion emirilishga, shuningdek pastki befini sezilarli mahalliy yuvilishiga olib keladi. Ularni hosil bo‘lishini hisobga olmaslik yoki sabablarini bilmaslik shikastlanish, avariyalarga, ba’zi holatlarda esa gidrouzel katastrofasiga olib keladi, bu katta ziyonlarni keltirib chiqaradi

YUqoridagi fikrlarni tasdig‘i sifatida quyidagi misollarni keltiramiz.

Evklide de Kunya va Armondo Sales de Oliveyra (Braziliya) to‘g‘onlari mos ravishda oqim bo‘yicha yuqori va pastda (orasi 10 km) joylashtirilgan va tosh-tuproqdan bunyod qilingan edi. Birinchisining balandligi 53 m, o‘rkachi bo‘yicha uzunligi 305 m bo‘lib, 1977 yilda o‘ng qirg‘og‘i oldida taxminan 40% ga, ikkinchisi esa (balandligi 35 m, o‘rkachi bo‘yicha uzunligi 660 m) – 25% ga buzulgan, chunki bunda, bir qism suv inshootlarni aylantirib qurilgan kanal orqali yo‘naltirilgan. Buzulish – birinchidan, o‘z vaqtidan 0,01% ta‘minlanganlik bilan sel hosil bo‘lganda, ekspluatatsiya xizmatining aybi bilan suv omboridagi suvni sathi pasaytirilmagan, ikkinchidan, vodoslivlar zatvorlarini kechikib va to‘liq ochilmaganligi sababli vujudga kelgan.

Karnafuli (Bangladesh) to‘g‘oni har birining kengligi 12,2 m bo‘lgan 16 oraliqdan tashkil topgan va to‘g‘on tanasida joylashgan suv tashlamaga ega bo‘lgan. Betonli yaxlit devor ko‘rinishidagi, o‘rkachi belgisi 24,46 m bo‘lgan suv tashlamaning markaziy qismi slansda joylashgan, pastki qismi belgisi 15,19 m bo‘lib, ikki

yuqori qatorda qalinligi 0,46 va pastki qatorda qalinligi 1 m beton plitalar bilan yopilgan, qiyaligi koeffitsienti 2 ga teng grunt to‘g‘on qiyaligi hisoblanadi. Suv tashlama $12700 \text{ m}^3/\text{s}$ suv sarfiga hisoblangan. Ishlatishning birinchi yili (1961) da, $3400 \text{ m}^3/\text{s}$ suv sarfli toshqin paytida (16 tadan) 11 ta plita buzulgan, ular orqasida esa chuqur o‘yiq hosil bo‘lgan edi. Vujudga kelgan vaziyatda (kuchli yomg‘ir payti) suv tashlama kuzatish (ko‘rib chiqish) ishlarni olib borish uchun bir kunga to‘xtatilgan va qaytadan ishga tushirilgan. Ikki haftaga bir marta, vaqt - vaqt bilan to‘xtatish yuvilish tugaganini va plitalar buzulishi to‘xtaganligini ko‘rsatgan. YOmg‘irli toshqin o‘tgandan, suv urilma hovuz (quduq) suvdan bo‘shatilgandan keyin buzulishning yakuniy tasviri ma’lum bo‘lgan.

Qiyalik ostonasida o‘yiq hosil bo‘lgan. Kalinligi 1 m li pastki beton plita surilgan va singan, ulardan ba‘zi birlari o‘yiqga tushib ketgan. Plitalarning bir qismi suv urilma hovuz tubiga tushib qolgan. Suv urilma hovuzning suv urilma plitasi ham shikastlangan va zudlik bilan ta‘mirlanishni talab qiladigangan bo‘lgan. Avariyanidan keyin modelda o‘tkazilgan tadqiqotlar, avariya suv tashlama oraliqlarini notejis ochish paytida hosil bo‘lgan yuqori ko‘taruvchi bosim sababli kelib chiqsanligini ko‘rsatgan.


Uelnot Gruv (AQSH) to‘g‘oni balandligi 33,6 m, asosi bo‘yicha kengligi 32,1 m va o‘rkachi bo‘yicha kengligi 3 m bo‘lgan, qiyaligiga quruq holda terilgan tosh tashlamadan tashkil topgan. Suv tashlamasi zatvorlarini ishonchli ishlamasligi oqibatida, toshqin payti, ularni ko‘tarish imkoniyati bo‘lmagan, suv o‘rkach orqali toshib chiqqan. Bunda to‘g‘on qiyaliklari judayam tik bo‘lgan, ularni turg‘unligi suv ombori to‘lgan payti chegara qiyamatiga ega bo‘lgan. To‘g‘on to‘liq buzulgan, 129 kishi qurban bo‘lgan.

Grand Kuli (AKSH) to‘g‘oni suv tashlama frontining uzunligi 503 m, balandligi 169 m va vodosliv ustidagi solishtirma suv sarfi $55,6 \text{ m}^3/\text{s}$ bo‘lgan, qoya toshning katta bo‘lagi o‘pirilib tushishi natijasida suv urilma buzulgan.

Dnestr daryosidagi Dubossar gidrouzulining suv tashlama to‘g‘oni kengligi 13 m li 8 ta oraliqga ega bo‘lgan, oraliqlar tekis zatvorlar bilan jihozlangan. Uning suv tashlama to‘g‘oni, suv urilmasi va risbermasi bo‘ylab qirqimi 12,3 - rasmda ko‘rsatilgan. Inshoot loyihadan chetga chiqishlar bilan qurilgan. CHetki (birinchi va sakkizinchisi) oraliqlarda zatvorlarni qisman ochish imkoniyatini beradigan stopor reykasi o‘rnatilmasdan qolgan. Risbermadan keyingi mustahkamlovchilar tadqiqotchilarning tavsiyalariga muvofiq qurilmagan: tosh to‘kma o‘rniga egiluvchan bog‘lanib plitalar yotqizib yuborilgan (ammo quyida ko‘rsatilgandek bu buzulishni keltirib chiqaruvchi asosiy sabab emas). 1956...1957 yillardagi tekshirib chiqishlar egiluvchan

bog'lamali plitalardan iborat mustahkamlovchi qisman buzulganligi va uning oxirgi qatori ostidan tosh to'kma yuvib olib chiqib ketilganligini ko'rsatgan. Bir qator plitalar osilib qolgan, ular tagida bo'shliqlar hosil bo'lgan. Eng katta buzulish to'rtinchisi va beshinchi oraliqlar qarshisida bo'lib o'tgan. Mustahkamlovchidan keyin chuqurligi 8,5 m li chuqurlik hosil bo'lgan. 1959 yili xil kattalikdagi tosh tashlash yo'li bilan ta'mirlangan. Ammo keyingi to'rt yil ichida, yuvilish davom etgan. Ikkinci marta ta'mirlangan: yuvilish daganagi qiyaligi bo'ylab galka va shebendan to'kma qilingan, to'kma ustiga esa 0,2...0,3 katallikka ega tosh 1 m qalinlikda yotqizib yopilgan. 1967...1969 yillardagi toshqinni o'tkazishida, egiluvchan mustahkamlovchi yana qayta, katta miqdorda buzulgan. Maxalliy yuvilish daganagining chuqurligi beton mustahkamlovchi belgisidan past, 10...11 m ga etgan. 1978 yili og'irligi 2.3. t tetraedrlar qo'llanilib uchinchi ta'mirlash bajarilgan, ular tosh tashlamaning qolgan qismini ustiga yotqizilgan. Egiluvchan mustahkamlovchilar qaerda qolgan bo'lsa, ular ustida armaturalar bilan bog'langan yangi plitalar yotqizilgan. Ammo 1978 va 1979 yillardagi toshqin ta'mirlangan mustahkamlovchini yana deformatsiyalanishiga olib kelgan.

Yangi plitalar eskilari bo'ylab siljigan, ulardan ba'zi birlari ag'darilib tushgan, yoki suv bilan olib ketilgan. Tetraedrlar oqim bo'ylab pastga surilib ketgan. Hozirgi paytda ekspluatatsiya xizmatiga zatvorlarni manyovrlashning sinab ko'rilgan sxemasi taklif qilingan. Dubossar gidrouzelining pastki befini buzulishining asosiy sababilari: loyiada muvaffaqiyatsiz konstruktiv qaror qabul qilinganligi, tub oldi suv tashlamalari ishlagaganligi, bunda ishlatish sharoitidan chetga chiqilganligi, qurilish davrida loyihadan chetga chiqilganligi va to'g'lonni ishlatish davrida zatvorlarni manyovrlashning noqulay sxemasi qabul qilinganligidir. Keltirilganlardan ko'rinish turibdiki, gidrouzelda texnik chetga chiqishlar kompleksi mavjud bo'lgan, bu pastki bef mustahkamlovchisining oxirgi uchastkasini bir necha marta qayta-qayta buzulishiiga olib kelgan.



12.3 – rasm. Dnestr daryosidagi Dubossar gidrouzelining suv tashlamasi bo'yicha qirqimi: 1 – shag'al tosh-qumli gruntlar; 2 – glinasimon mergel; 3 – o'rtacha zichlikdagi ohaktosh; 4 – mergel; 5 – shpunkt; 6 – tubning yuvilishgacha bo'lgan sirti. O'chamlari m.da

Krasnoyarsk GESi vodoslivli to'g'oni umuman qanoatlantirrali holatda bo'lgan, 1985 yilda shikastlanishning ikki manbasi hosil bo'lgan, ular vodoslivning uchinchi va beshinchi oraliqlardan keyin, noska-tramplin oxirida joylashgan. Deformatsiya choki zonasida beton buzula boshlagan, o'yilish yuzasi 3m^2 , chuqurligi 0,5 m bo'lgan. Taxmin qilinishicha, buzulishning sababi beton ishlarini sifatsiz bajarilishi va yuqori tezlikka ega oqim ta'sirida shu oqim o'tayotgan sirtni himoyalash uchun qo'llanilgan betonning tarkibini etarli asoslanishlarsiz tanlanganligidadir.

Suv urilma hovuzlarni buzulishlarining asosiy sabablariga: kavitsatsiya eroziyası, gidrodinamik kuchlar ta'sirida plitalar turg'unligini yo'qolishi, oqizindilar bilan edirilish va ularga toshlar, yirik betonli qo'qimlar, metall va temir betonli narsalar va sh.o'. kiradi. Ba'zida toshlar hovuzga mustahkamlovchilar buzulganda uyurumlar bilan olib kelinib tushiriladi. Qo'p holatlarda yirik toshlar yon-bag'irlardan uzilib ularga tushadi. Suv urilma hovuzlarni buzulishi yuqori tezlikga ega ($50\dots55\text{ m/s}$ gacha) oqim bo'lganda ham vujudga kelishi mumkin, bu uzulgan yaxlit betonlar va qo'qimning mexanik ta'siri bilan birga keladigan yuqori gidrodinamik yuklamani keltirib chiqaradi, shu holat Sayano-SHushensk GESida kuzatilgan. Suv urilma hovuzlarning ko'p buzulishi Sausel (Turkiya), San Esteban (Italiya), Bxakra (Hindiston) va boshqa to'g'onlarda kuzatilgan.

AQSHining bir qator gidrouzellaring suv o'tkazuvchi oraliqlari suv urilma hovuzi bor konusli zatvorlar bilan jihozlangan, rezonans holatiga kirgan, ammo statik yuklamaga hisoblangan baland ajratish devorlari buzulgan. Bunday xol To'polon suv ombori suv chiqazgichi konusi zatvorida ham kuzatilgan. Gidrotexnika inshootlari zatvorlarini shikastlanishlarining asosiy sabablariga: zatvorlar ishini o'ziga xosligini loyihalashda etarli hisobga olmaslik, muzlash, ustida muz qotib qolishi, ishlatishning noto'g'ri usullarini qo'llash, texnologik sabablar va boshqalar kiradi. Mexanik jihozlarni noto'g'ri ishlatishga misol qilib *Panshet* (Hindiston) to'g'onidagi avariyanı keltirish mumkin. To'g'on balandligi 56,6 m, ochiq qirg'oq oldi suv tashlama bilan qurilgan. Jadal yomg'irlar davrida zatvor ujiti izga tushirilgan va zatvor ochilishi 0,61 m bo'ladigan holatda zanjirga osib qo'yilgan bo'lgan. Bu sharoitda suv o'tkazilayotganda sezilarini gidravlik zarba hosil bo'lgan, natijada suv tashlama choklari deformatsiyaga uchragan. Dinamik yuklama va choklar deformatsiyalanishi o'z navbatida grunt to'g'on tanasini jadal cho'kishini keltirib chiqargan. 2,5 soat ichida to'g'on 1,37 m ga o'tirgan (cho'kkani) va buzulgan.

Ishlatish amaliyotida, toshqin paytida zatvorlarni ko'tarishni iloji bo'limgan ko'p holatlar mavjud. Suvi toshib o'rakchidan oshib tushgan va to'g'oni buzulgan ho-

latlarga misol taraqasida yuqorida aytib o'tilgan Uelnot Gruv to'g'oni avariyasini ko'rsatish mumkin.

Mexanik jihozlarni ishlatish davrida har doim ham zatvorlarni isitish, ular oldida havo bilan oqim tashkil qilish yoki hech bo'lmasa muzni maydalab sindirish ishlari o'tkazilmaydi. Bu ishlar muzni harorat kengayishida statik bosimi ta'sirini oldini oladi. Xuddi shunday sabab bilan (AQSH) Knokok to'g'oni zatvorlari bir vaqtida egilib ketgan.

Zatvorlar izlariga suzib kelgan qo'qimlar tushishi natijasida zatvorlarni erkin yurishiga yo'l qo'ymay, qo'targich vintlar qiyshayib ketgan holatlarga yuqorida ko'p misollar keltirg'anmiz.

Zatvorlar buzulishlarining yana bir sababiga, ekspluatatsiya xizmati mavjud zatvorlar konstruksiyalari va ularni ishlatish tartiblarini etarli bilmasliklarini ham kiritish mumkin.

12.5. Boshqa inshootlardagi shikastlanish va avariylar

Boshqa inshootlardagi shikastlanish va avariylar judayam har xil bo'lishi mumkin. Ularning faqat ba'zi bir xarakterlarini ko'rib chiqamiz. 1975 yili CHerkeysk GES pastki befida, suv tashlama tramplinidan keyin, o'zanga 300 ming m³ atrofida qoya toshli grunt o'pirilib tushgan. O'pirilib tushish sababi – suv tashlama ishlaganda massiv suvgaga to'yinib turg'unligini yo'qotganligidir. Bunda pastki befdagi suv sathi birdan va ko'p miqdorda ko'tarilgan, to'g'on galereyasi pastki ikki yarusi suvgaga ko'milib qolgan. O'zanni tozalash murakkab va mehnat talab qiladigan ishlar majmuidan iborat bo'lib qolgan. SHu gidrouzelning yaqinida, bir necha turg'un turmagan qoya tosh bloklar (1,5...2 ming m³ gacha) o'pirilib tushgan, ular suv omborini to'ldirilishida suvgaga ko'milib qolishgan.

Murakkab avariya holati San Esteban (Italiya) to'g'oni tunnelli suv tashlamasida vujudga kelgan. Tunnel naporsiz rejimga hisoblangan bo'lgan. Ekspluatatsiya sharoiti pastki befda yuqori suv sathi turgan payti uni ishlatishni taqozo qilgan. Tunnel suvgaga ko'milgan bo'lgani uchun ham uni ichida gidravlik sakrash hosil bo'lgan. Qoya toshni uzulish zonasida tunnel qoplamasining temir-betonli halqasi buzulgan. Tunnelga sinish zonasini to'ldirib turgan maxsulotlar kelib tusha boshlagan, bu sinishni kunduzgi (tashqi) joyida o'yiq og'iz hosil qilgan. Avariya shikastlanishlarini bartaraf qilish katta hajmda tog' va boshqa ishlarni bajarishni taqozo qilgan.

Bundan 60...70 yil avval Boulder (AQSH) gidrouzelidagi diametri 15,2 m bo'lgan suv tashlamaning tunnel qoplamasini va qoya toshli asosi kavittatsion eroziya natijasida buzulgan. Tunnel orqali 390 va 1070 m³/s suv sarfi o'tkazilgan, bu

hisobiyga nisbatan mos ravishda va 19% ni tashkil qilgan, suv tezligi 36 m/s gacha etgan. Tunnel qoplamasini buzulgandan so'ng qoya toshda chuqurligi 13,7, kengligi 9,5, uzunligi 35 m bo'lgan chuqur hosil bo'lgan. SHuningdek kavitationsion buzulishlar Aldeodavilo (Ispaniya), Infeynilo (Meksika), Movtail (AQSH) va boshqa gidrouzellarda kuzatilgan. Xuddi shunday o'yilish (2002 y) Rovotxo'ja gidrouzeli chap qirg'oq (Darg'om) kanali tunnelida kuzatilgan.

Ko'p miqdorda oqizindilar bor tog' daryolarida betonning emirilishi va unga yirik oqizindilar, galka, katta tosh va sh.o'. urilishi natijasida suv o'tkazuvchi traktlar shikastlanishi kuzatilgan. Bunga misol qilib Sox daryosidagi, 1947 yilda qurilgan, *Sari Qurg'on* suv olish uzelining 6 suv tashlama oraliqdan iborat suv tashlama inshootning buzulishini keltirish mumkin, undagi oqizindilarning tarkibi yirik qum va gel-technikdan iborat bo'lib, yirikligi 300...350 mm ga etadi. Granitli yirik toshli qoplama bilan qoplangan beton sirti ishlatishning birinchi yilidayoq 1,2 m chuqurlikgacha buzulgan. Vodoslivning ayrim joylari qalinligi 25 mm li metall listalar bilan qoplangan suv urilmasiga 1 m oraliqda butobeton to'ldirilib relslar o'matilgan edi. 1950 yilgi toshqin buto betoni bilan relslarni va metall listlarni - buzgan edi. Keyinchalik vodosliv rels va shveller bilan to'shamma qilinib, ularga qalinligi 25 mm li po'lat listlar kavsharlangan.

Kuy Mozor nasos stansiyasi 1965 yilda ishga tushirilgan. Gidromexanik jihozlari, bosimli quvurlari korroziyaga uchragan, eskirgan, Avankamerasida, suv qabul qilgichi oldidagi tekis zatvor kuchli korroziyaga uchraganligi sababli qoplama o'zining loyihibiy qalinligini yo'qtgan, 2003 yil zatvor yopilib nasos ta'mirlanayotganda oldidagi sal ko'tarilgan suv bosimini ko'tara olmagan, egilib ketgan, natijada kamera ichida ishlayotgan 1 kishi suv tagida qolib halok bo'lgan.

2 - Jizzax nasos stansiyasi 1982 yili ishga tushirilgan. Bir vaqtlar bu erda bosimli quvurlarning ikkalasi bir biri bilan quvur qo'yilib ularни qoldirilgan, shu peremyslichka keyinchalik kovsharlanib yopilgan. Buning ustiga bu erda, bosimli quvurlar nasoslardan tutashtiruvchi quvur va umumiy quvurga teskari ikkilik quyib ulangan. Tadqiqotlarimiz teskari ikkilikda, nasoslar qo'snilish davrida, suvning avtotebranma harakati, ma'lum bir vaqt ichida mavjud bo'lishini ko'rsatgan. SHU avtotebranma harakat ikki qatlam qoplamani 2002 yilda yorib yuborgan, nasos stansiyasi binosi barcha elektr jihozlari bilan suvni tagida qolgan, katta sarf-xarajatlar bilan nasos stansiyasi ishi 2 haftadan keyin qayta tiklangan. Xuddi shunday avtotebranma harakat «Bobotog» nasos stansiyasi bosimli quvuri ikkinchi tayanchini vertikal yorilishga olib kelgan, K-2-2 nasos stansiyasida esa quvurlarni ulab turuvchi flanetsni qisman uzganligi kuzatilgan (2005...2007 yy.). Sunday yuklama ostida, kor-

roziya ta'sirida bosimli quvurlarni yorilishi 2003 y Qizil tepa nasos stansiyasida ham kuzatilgan, yorilish nasos agregatidan keyin, bino ichida quvurda vujudga kelgan.

Bosimli quvurlarni korroziyasi natijasida yorilishi Respublikamiz GESlarida kuzatilmagan. Ammo GESlar tarkibiga kiruvchi inshootlarda boshqa xarakterdagi buzulishlar uchrab turadi. Masalan SHahrixon GESlar kaskadi 5A-GESi da kotlovan qiyaligida grunt suvlari depressiya egri chizigi kunduzgi yuzaga yaqin kelib qolib qiyalikni o'prilishi xavfini keltirib chiqqargan edi, hozir uni oldi olingen. Tolig'ulon - 3 GESi pastki befi dim bo'lib ishlab, bino ichiga suv sizib kirib, bino turg'unligiga solayotgan xavfini oldi olingen. SHahrixon GESlar kaskadi 6-GES derivatsion kanali yon-bag'irdan o'tgan, uning chap dambasida yuvilish va er teshar hayvonlar ini mavjudligi natijasida dambani yorilish xavfi mavjud edi, oldini olish uchun qoplamlar bilan mustahkamlash loyihasi ishlab chiqilgan va u amalga oshirilmoqda.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin, ammo shuni aytib o'tish lozimki GES va nasos stansiyalari inshootlarining buzulishi va avariya holatlari sabablari muayyan holatlarda har xil bo'ladi, ularni bartaraf qilishda, shu sharoitlar hisobga olinishi zarur.

XIII. Ta'mirlash va qayta tiklash ishlari


13.1. Grunt inshootlar tepasi va qiyaliklaridagi buzulishlarni ta'mirlash

Suv dimlovchi grunt inshootlarni ishlatalish jarayonida to'g'on tepasi (o'rkachi) va tanasiga loyiha belgisigacha yana grunt solish, yuqori qiyalikka, uni kolmatatsiya qilish maqsadida suglinok solish, ko'ndalang va bo'ylama yoriqlar va bo'shliqlarni berkitish (butlash), mustahkamlovchilarini ta'mirlash, chimlash, o't ekish va boshqa ishlarni amalga oshirish zaruriyati vujudga keladi. Ko'pchilik past naporli to'g'onlarda, bu ishlar kalendar yil davomida bajariladi, chunki bu holda mazkur ishlar joriy ta'mirlash ishlari sifatida amalga oshiriladi. Qiyaliklarni o'pirilishi va sirpanib chiqishi, oldindan ko'zda tutilmagan yirik o'lchamli o'yiqlar, chuqr yoriqlar va seysmik ta'sir ostida vujudga kelgan boshqa deformatsiyalar, sel yoki toshqin oqimi natijasida shikastlanishlar avariyalarga mansubdir.

To'g'on o'rkachi va qiyaliklarida ko'ndalang va bo'ylama yoriqlar mavjud bo'lganda yoriq o'qi bo'ylab pastiga qisqarib boradigan trapetsiodal transheya, yoriqdan 0,3...0,5 m past chuqurlikda (13.1,a – rasm) va yoriq uzunligidan har bir tomoniga 1 m dan uzun qilib kovlanadi. Transheya, agar gruntni almashtirishga maxsus

asoslash bo'lmasa, to'g'on qanday gruntdan tashkil topgan bo'lsa, o'sha grunt bilan to'ldiriladi. Grunt 10...15 sm dan qatlam-qatlam qilib, loyiha zichligigacha shibbalab (trambovka qilib) yotqiziladi. Depressiya egri chizig'idan past yoriqlar bartaraf qilini-yotganda, yoriqga ko'ndalang qilib qisqa qulf qilinadi (13.1,b – rasm), u transheya bo'ylab kontakt filtratsiyasini oldini oladi. YOriqlarni butlash, odatda yilning issiq paytida bajariladi. Qishqi paytda ta'mirlash ishlari olib borilayotganda transheya erigan grunt bilan to'ldiriladi, qatlamlar yotqizilayotganda qatlamlar devorlari va transheya tubini muzlashiga yo'l qo'yilmaydi. Agar transheyadagi suv sathi yuqori befdag'i suv sathidan past bo'lsa, unda ta'mirlash ishlari olib borilayotgan joy shpunkt bilan o'rabi qo'yiladi.

CHir-Yurt to'g'onida 7 ball er qimirlashi natijasida bo'ylama yoriqlar hosil bo'lgan, o'rkach va parapet buzulgan edi. Ta'mirlash ishlarini bajarishda yuqori, yumshagan grunt qatlami 2...4 m chuqurlikgacha olib tashlangan, yadroagi suglinok zichligi $1,55 \text{ t/m}^3$ tashkil qilgan. Undan keyin yadro butun yuzasi bo'ylab og'ir shibalabin zichlangan. SHundan keyin to'g'onga loyihaga muvofiq yana grunt solingan va zichlangan. SHuningdek paraped, piyodalar yo'ilagi, mustahkamlovchilar va boshqalar qayta tiklangan.



13.1 – rasm Grunt to'g'onlar yoriqlarini butlash:

a – bo'ylama; b – ko'ndalang; 1 – to'g'on o'rkachi; 2 – yoriqlar; 3 – transheya; 4 – transheya qulfi; 5 – shpunkt bilan ajratib (o'rabi) qo'yish. O'lchamlar m da.

YAdroli CHorvoq to'g'onida, qurilish jarayonida, ko'ndalang va bo'ylama yoriqlar hosil bo'lgan. Bo'ylama yoriqlardan birining uzunligi 450 m,


maksimal ochilishi 18 sm va chuqurligi 6 m gacha bo'lib, u pastki tayanch prizmaga o'tish zonasining kontaktida yuzaga kelgan. Ko'ndalang yoriqlar, yoriq bo'y lab yo'nalgan shurfda hosil qilingan shponka bilan butlangan, bo'ylamalariga esa – chuqurligi 1 m bo'lgan transheyadan mayda qum yuvib tushirilgan. Qum kichik porsiyalar bilan uzlusiz suv oqimida yuborib turilgan, yuvib tushirish transheya sirtida qum qatlami hosil bo'lganda tugatilgan.

O'rakchga odatdag'i usul bilan grunt solingan, bunda oldin yuza yumshatilgan, mustahkamlovchi material vaqtinchalik to'kmaga (otval) surib qo'yilgan, yuza tekislangan va barona qilingan, o'rakchdag'i grunt eng maqbul namlikka etkazilgan, karer materiali eng maqbul namlash bilan to'kilgan, tekislangan va zichlangan. Loyiha belgisiga etish bilan birga yo'l tasmasi qurilgan.

O'pirilgan qiyaliklarni qayta tiklash yoki ularni yotiqliq qilish, yumshoq qo'chib tushgan gruntni surish yo'li bilan amalga oshirilgan, qiyalikning butun balandligi bo'y lab (ko'ndalang usul) qiya qatlama yoki qiyalikni butun uzunligi bo'y lab gorizontal qatlamlar bilan grunt to'kilgan va zichlangan (13.2 – rasm). To'kish (solish) uchun material sifatida o'sha ko'chib tushgan gruntdan, to'kish texnologiyasiga rioya qilinib, foydalanilsa bo'ladi. To'qiladigan gruntning turg'unligini oshirish uchun pastki qiyalikdan grunt bosqichma bosqich

$$b_s = mh_s + 0,5 \text{ m} \quad (13.1)$$

kenglikda kesib olinadi.



Bu erda m – ta'mirlashdan keyingi qiyalik koefitsienti;
 h_s – o'yilish balandligi, shibbalovchi mexanizm xarakteristikasiga bog'liq, odatda 0,15...0,25 m qabul qilinadi.

13.2 – rasm. Grunt to'g'onlar qiyaliklarini kengaytirish va yotiqlashtirish sxemalari:

a va b – bo'ylama va ko'ndalang usullar; v – gruntni katok bilan zichlash; 1 – to'g'on o'rakchi; 2 – ta'mirlashgacha bo'lgan pastki qiyalik; 3 – loyiha bo'yicha qiyalik; 4 – grunt to'kish qatlami va zichlash; 5 – zichlangan grunt; 6 – buldozer bilan tekislanayotgan grunt; 7 – katok

Bo'ylama usulda maydonning eng kam kengligi zichlash uchun qabul qilingan katok, buldozer yoki avtosamosval kengligidan 0,5...1 m ga ko'p qabul qilinadi.

Grunt inshootlar to'kmalarini er kemiruvchi (ondatra, suv qunduzi, yumron qoziq, krot, kalamush va boshq.) hayvonlar in qurib, buzganda (misol uchun, yumron qoziqning kanal dambasidagi inini 29.01.2007 y. olingan rasmini 13.3 – rasmda keltirdik) in oxirigacha kovlanadi, so'ng grunt shibbalanilib qayta ko'miladi. Bundan tashqari inlarga suv quyilib, so'ng inga glinali yoki qum-sementli aralashma quyib berkitilishi ham mumkin. Ayrim holatlarda inlarga kimyoiy «qulfi» qilinadi va transheya gruntu qatlam-qatlam zichlab etarli namlikga etkazib to'ldiriladi.

Oqish paydo bo'lganda ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash zarur. YUqori filtratsiya mavjud joylarga avval, tepa qiyalikda polietilen plenkadan, ustiga gruntundan yuk bostirib plastir (yamoq) qo'yildi, pastki qiyalikda esa ustiga grunt materialdan yuk bostirib vaqtinchalik drenaj qilinadi. Undan keyin filtratsiya sababi aniqlanadi va ta'mirlanadi.



13.3 – rasm. YUmronqoziqning kanal dambasidagi ini.

YUqori qiyalik toshli mustahkamlovchilarini, ham quruqlikdan turib ham suzish vositalardan turib, ta'mirlashadi. Qiyalik ta'mirlanayotganda suv omborini ancha bo'shatishga to'g'ri keladi, bu elektr energiyasi ishlab chiqish yoki ko'proq maydonni sug'orish nuqtai nazaridan o'zini oqlamaydi. Suv ostida ta'mirlashda, pontonlardan iborat, qo'zg'atgich, o'lchov vositalari va toshni qiyalikga tushirish qurilmasiga ega suzuvchi platforma yig'iladi. Reyka – futshtok yordamida chuqurlik

o'chanadi va buzulish zonasini hajmi aniqlanadi, u oldindan ta'mirlanadigan uchast-kachalarga bo'lib chiqiladi. Undan so'ng ishni bajarishga kirishiladi. Ta'mirlash uchun materiallar barjalar yordamida olib kelinadi. To'kish qalinligi toshning hisobiy diametrini kamida 2,5...3 martasiga teng qabul qilinadi va ularni yotqizilishi platformadan pastga vertikal tushiriladigan reyka-futshtok yordamida nazorat qilib boriladi.


Tosh suvgaga tubi ochiladigan shalandalardan, o'zi tushiradigan barjalardan, qirg'oqga o'rnatilgan yoki suzuvchi kranlardan foydalanib, o'zi to'kadigan konteynerlardan, qirg'oqdan buldozer bilan surib tushirib yoki avtosamosvallar yordamida va boshqa vosita hamda usullardan foydalanib to'qiladi. Toshni to'kish usuli texnik-iqtisodiy mulohozalar va texnik imkoniyatdan kelib chiqib tanlanadi.

YUqori qiyaliklarni gidrotexnik zinch, quruq asfalbeton yotqizish yo'li bilan ta'mirlash hali respublikamiz amaliyotida qo'llanilmagan, lekin bu usul ko'p chet mamlakatlarda keng miqyosda qo'llaniladi, u qiyalikga issiq holda yotqiziladi va zinchlanadi (13.4 – rasm). Buzulgan qiyalikka asfaltbetonli qoplama yotqizilishidan oldin, qiyalikka qum-shag'al toshli grunt solinadi, u tekislanadi va zinchlanadi. Asos 20 g/m^2 gerbitsid va 200 g/m^2 xlorli ohak bilan ishlanadi. Qoplama to'shalayotganda asos zaharli ximikatlar bilan zaharlanadi, isitib suyultirilgan bitum yoki $1\dots2,5 \text{ kg/m}^2$ sarf bilan bitumli emulsiya bilan ishlanadi. Qiyaliklarni ta'mirlash uchun 13.1 - jadvalda keltirilgan asfaltbetonlardan foydalaniladi.

Asfaltbetonlar tarkibi, %

13.1 - jadval

Komponentlari	Asfaltbeton		
	qumli	mayda donador	g'ovvakli
IIIleben (zarrachalarining kattaligi 15 mm gacha)	-	10...25	40...65
Maydalangan tosh (kroshka) (o'lchami 5 mm gacha)	20...35	40...65	20...35
O'rtacha donador qum (o'lchami 2 mm gacha)	40...65	15...25	15...25
Xlorli kukun (donalari o'lchami 0,15 mm gacha)	15...20	15...25	0...5
Tolali to'ldiruvchi-asbest	1...15	1...3	-
Neft bitumi	8...1	7...10	5...7



13.4.- rasm. To'g'on qiyaligi mustahkamlovchisini asfaltobeton qoplama bilan qayta tiklash: 1 – qiyalikni buzulish chegarasi; 2 – qumli-shag'al tosh grunt bilan to'ldirilgan o'yiq; 3 – zaharli kimyoviy moddalar bilan zaharlanadigan zona; 4 – asfaltobetonli qoplama; 5 – ishlov berilgan sirt.

YOtqizilayotgan asfaltobetonning harorati $+130^{\circ}$ S kam bo'Imasligi kerak. Asfaltobeton qoplamaning suv o'tkazmaslik qobiliyatini oshirish uchun, uning sirtiga qaynoq bitum eritmasi to'qiladi, $5\dots10\text{ kg/m}^2$ hisoblab ustiga maydalangan tosh yoki yirik donador qum sepiladi hamda engil katok bilan zichlanadi. Asfaltobeton qoplama qalinligi naporga qarab, $3\dots4\text{ sm}$ dan $9\dots12\text{ sm}$ gacha qabul qilinadi. U quyidagi afzalliliklarga ega: yuqori suv o'tkazmaslik; yoriq hosil bo'lishiga mustahkam, deformatsiyalanadi. SHuning uchun bunday qoplamadan keng foydalaniladi. Uning kamchiliklariga: uning muz qalinligi 1 m dan ko'p bo'lganda, havzadan tezlik bilan (50 sm/sut dan ko'p) suv sati tushirilganda, 3 m balandlikdagi to'lqin ta'sir qilganda buzulishlari kiradi.

YUqori qiyaliklarni ta'mirlashda, shuningdek suzuvchi vositadan maxsus qurilma bilan suv ostiga qo'yib asfalt yoki mayda donador qumli asfaltbetondan ham foydalaniladi. Unchalik katta bo'Imagan shikastlanishlarda, avval mustahkamlovchi sirti bosim ostidagi suv bilan yuviladi, keyin esa ular ustiga, suv ostida, $100\dots120\text{ kg/m}^2$ sarf bilan aralashma qo'yiladi. Sezilarli katta buzulishlarda shikastlangan uchastkalarga uesteben qatlami sepiladi va, agar kerak bo'lsa, teskari filtr o'matiladi. Illəben ustiga tosh yoki yirik uesteben sepiladi. Beton yoki asfaltning mavjud sirti mustahkamlovchi buzulgan zonani aylantirib bosim ostidagi suv bilan tozalanadi va ta'mirlanadigan uchastkaga suv ostida, asfaltli aralashma qo'yiladi. Avval deformatsiyaga uchrab ko'tarilib qolgan plitalar olib tashlanadi yoki buzuligan past uchastkalariga tashlanadi. Mazkur usul qiyaliklar yotiqligi 1:2\dots1:3 bo'lganda, buzulish dajaranisiga qarab qo'llaniladi. Asfaltli yoki asfaltobetonli qoplama mustahkamlovchingiz buzulmagan qismini ustiga $1,5\dots2,0\text{ m.ga}$ tushishi (yotishi) kerak. Asfaltli aralashma $80\dots85\%$ yirik donador qum yoki (donalari o'lchami 5 mm gacha bo'lgan) mayda


shag‘al, 12...20% ohak tosh yoki dolomit kukuni (poroshogi) va 14...18% bitumdan tashkil topadi. Quyiladigan mayda donador asfaltobeton tarkibida 1...2% bog‘lovchi kam va 25...40% shubeen (zarachalari o‘lchami 20 mm gacha) bo‘ladi.

To‘g‘onlar va dambalarning yuqori qiyaliklari, ba’zida, armaturalangan asfaltli tyufyak (to‘sak) dan foydalaniб suv ostida ta’mirlanadi, ularning o‘lchamlari: kengligi 1,75...3,5 m, uzunligi 6...7 m, qalinligi 5...6 sm bo‘ladi. Armaturasi esa diametri 3...5 mm li, kataklari o‘lchami 10x100 mm dan 150x200 mm gacha bo‘lgan sim to‘rdan iborat bo‘ladi. To‘r kengligi bo‘yicha tyufyak kengligidan 5...7 sm ga kam, uzunligi bo‘yicha uning uzunligidan 15...20 sm ga ko‘p qilib tayyorlanadi. Tyufyak o‘rtasiga metall to‘r joylashtirilgan ikki qatlam asfalt yoki asfaltobetondan iborat qilib yasaladi. Tayyorlanishida u katoklar bilan zichlanadi va +20...40°С gacha sovutiladi. Tayyor bo‘lgan tyufyak diametri 2,5...4 m li g‘altak (baraban) ga o‘raladi, undan keyin yotqiziladigan joyga transportda olib kelinadi. Qiyalik tekislanadi, uning suv usti qismiga gerbitsidlar bilan ishlov beriladi. Undan keyin kran yoki lebedka yordamida tyufyak qiyalik brovkasiga oqim yo‘nalishiga perpendikulyar qilib yotqiziladi. Tyufyakni bir uchi yog‘och brus bilan o‘rkachga mahkamlanadi va kran yoki lebedka yordamida qiyalik bo‘ylab tyufyak o‘rami ochib yuboriladi. Tyufyaklar bir birini ustiga sal yopadigan yoki yonma-yon turadigan qilib yotqiziladi, so‘ng choklariga asfaltli germetik quyib to‘ldiriladi. Tutashtirilmalar sifati, suv ostiga tushuvchilarni tushirib tekshirib chiqiladi. Germetik, misol uchun 80...88% (donalari o‘lchami 5 mm li) yirik donador qumdan, 12...20% ohak tosh yoki dolomit kukunidan, 14...18% bitumdan, 2,5...3% yuqori polimer qo‘shimchalardan tashkil topadi.

YUpqa betonli qoplamlarning deformatsiya choklari, shikastlanish xarakteridan kelib chiqib, har xil usullar bilan ta’mirlandi.

Plita asosi shikastlanmagan bo‘lib, zichlagichlar buzulgan holatda ta’mirlash Gidroprekt taklifi bo‘yicha quyidagi usullardan birini qo‘llab bajariladi.

1. CHok BITEP yoki boshqa turdagи bitumli – polimer germetiklar bilan zichlanadi. Zichlashdan oldin quruq chok chang va qo‘qimdan tozalanadi va chok devorlari suyuq bitum yoki mastika bilan gruntovka qilinadi. CHokning pastki qismiga zich qilib bitum shimdirligан kanat tiquiladi, ustidan bitumli polimer mastika quyiladi. So‘ng chok usti sementli aralashma bilan butlab qo‘yiladi (13,5,a – rasm).



13.5 – rasm. Betonli mustahkamlovchilar deformatsiya chokini ta'mirlash: a va b – plitalar ostida o'yiq bo'lmaganda; v va g – plitalar ostida o'yiq bo'lib, mos ravishda plita turg'unligi buzulgan va buzulmagan holatlar uchun; 1 – sementli aralashma; 2 – plitalar oxirini gruntovka qilinishi; 3 – bitumli-polimer germetik; 4 – bitum shimdirligani kanat; 5 – polimer aralashma; 6 – epoksid-kauchukli kompozitsiya; 7 – shishaplastik tasma; 8 – bitum qatlami; 9 – armatura; 10 – plita (qoplama); 11 – buzulgan mustahkamlovchi chegarasi; 12 – grunt to'kma; 13 – plitka to'shama; 14 – bitumli material. O'chamlari m da.

2. Devorlar gruntovka qilingandan so'ng chokga g'ovvak rezinali jgut (PRP, poroizol, gernit) tiqiladi, uning ustidan qalinligi 0,2 mm dan kam bo'limgan polietilenli plenkadan antiadgezion to'shama joylashtiriladi. Tayyorlangan chokka KB-0,5, GS-1, U-30M va boshqa turdag'i tiakolli mastika quyiladi. CHokning yuqori qismi sementli aralashma bilan butaladi.

3. Betonga epoksidli – kauchukli kompozitsiya bilan shakl berilgan rezinali poliiobutilen, shisha tolali materialdan zichlagich tasma (lenta) elimlanadi (13.5,b – rasm).

Bunday usullardan Kaxov sug'orish tizimi magistral kanalida, SHimoliy Donets-Donbass kanalida, Sukleyskiy sug'orish tizimida va boshqalarda foydalanilgan.

YUqorida keltirilgan deformatsiya chokini ta'mirlashning uch usulidan mustahkamlovchi ustidagi napor 10...15 m bo'lqanda qo'llanilsa bo'ladi.

Plita osti sohasida gruntni yuvilib chiqib ketishi natijasida bo'shliq hosil bo'lganda, agar plitalar turg'unligi buzulmagan bo'lsa, ta'mirlash quyidagicha amalga oshiriladi. CHoklar orqali yoki maxsus burg'ulangan skvajina orqali hosil bo'lgan bo'shliq shag'al tosh-qumli aralashma bilan to'ldiriladi. Ta'mirlanadigan uchastkani butun uzunligi bo'ylab kengligi 1...1,2 m li yaxlit plita-nakladka qilinadi. Ularni eski betonga mahkamlash (biriktirish) uchun himoya – deformatsiya ramasining oxiri eski mustahkamlovchining ochilib qolgan armatura yoki maxsus burg'ulanib o'rnatilgan ankeriga kovsharlanadi. Undan keyin plita-nakladka armaturalashtiriladi va betonlashtiriladi, bunda asosga oldindan bitum surtiladi (13.5,v – rasm). SHu usul bilan Kremenchug suv ombori qiyaliklaridagi mustahkamlovchi plitalar ta'mirlangan.

Katta qo'rg'on suv ombori to'g'onida yuqori qiyaliklarni mahkamllovchi plitalar joyidan qo'zg'almagan, choklari butun holatda bo'lsa ham tagida (ultra tovushli asbob yordamida) bo'shliqlar (1999-2000 y.y.) borligi aniqlangan. Bo'shliq hosil bo'lishining sababi to'g'on gruntni tarkibida gips bo'lgan deb taxmin qilindi. So'ng bo'shliqlarni bartaraf qilish uchun bolg'a yordamida engil zarba berib plita ostidagi bo'shliq chegarasi belgilab olindi va shu chegara bo'ylab 3-4 joyidan perforator yordamida teshiklar ochildi. Teshiklarni biridan bosim ostida birga bir nisbatda glina - sementli aralashma yuborildi. Qolgan teshiklardan aralashmani chiqishi bo'shliq to'lganini bildirdi.

Plita ostidan grunt yuvilib chiqib ketgan va mustahkamlovchi butunligini yo'qotib singan, o'tirgan, yorilgan holatda ta'mirlash ishlarini quyidagicha amalga oshirish tavsiya qilinadi. Ishdan chiqqan plitalar olinib, bo'shliqlarga grunt solib tekislanishi, shibbalanishi yoki qum yuvib tushirilishi lozim. Bunda, albatta, teskar filtr, drenaj ta'mirlanishi lozim. Undan so'ng choklar joylashgan joylarga plita-to'shama (podkladka)lar yotqizilib, ustida bitumli material yopilishi lozim. Armaturalar o'rnatilib, ular eski plitalar armaturalariga mahkamlanishi, so'ng esa eski beton sirti ho'llanib (yuvinib) ta'mirlanayotgan joy betonlashtirilib tashlanishi lozim (13.5,g – rasm).

Qiyaliklardan grunt massasini siljib (surilib) tushib ketishini oldini olish uchun, qoidasi, svaylar qoqib, grunt inshootning asosiy massiviga mustahkamlanadi. Ammo bu usul nisbatan qimmat.

Past naporli inshootlarda ba'zan gruntni kimyoviy mustahkamlaydigan svaylar dan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, bu ish Voljsk GESi himoya dambelarida amalga oshirilgan. Buning uchun chuqurligi 2,5...3 m li skvajina shaxmat shaklide 3 x 1,5 m to'r bo'yicha burg'ulangan, ularga diametri 50 mm in'ektorlar joy ~~lesz~~ qilinadi. Skvajinani qiyalik sirtidagi usti, yog'li glina bilan in'eksiya aralashma chiqmasi, digan

qilib. tampon qilingan. In`eksiya aralashmasi yaxshilangan korbamid smolasi (UKS) ning suvli eritmasi bo`lib. uning tarkibi qotirgich – xlorli ammoniy (4% smola masasidan) qo`shilgan grunt massasining 15...20% miqdoridan iborat bo`lgan. Aralashmadagi smola va suvning nisbati 1:0,5 ni tashkil qilgan.

Hosil bo`lgan svaylar aralashmani glina va gilli qatlamchalar bilan suglinokni 1 m gacha tarqalish radiusiga mos noto`g`ri shaklga ega bo`lgan. Olingan namunalarni sifilishga mustahkamligi suvga to`yingan holatda 1 MPa ni, ilashimliligi esa 0,24 MPa ni tashkil qilgan.

13.2. Grunt to`g`onlar, asoslari va qirg`oqqa tutash qismlari orqali suvni jadal sizib o`tishini bartaraf qilish

Gruntli gidrotexnika inshootlarini ishlatalish jarayonida pastki qiyalik oyog`i zonasida buloq (grifon), sizib o`tishning boshqa shakkllari kuzatilishi mumkin. Misol uchun Qamashi suv omborida qiyalikning o`ng bortida (22.07.2003 y.) filtratsiya, Ko`rg`on tepa suv omborida to`g`oni pastki befida 0,01...1 l/s sarfga ega bir necha buloqchalar (17.03.2002 y.), Qizilsuv suv omborida qirg`oqlarga tushamalarda (22.06.2003 y.), No`g`oylisoy suv omborida (19.06.2003 y.) filtratsiya suvlarini chiqishi, Pachkamar suv omborida 5 l/s sarf bilan filtratsiya suvini markazlashgan chiqishi (11.09.2002 y.), Sobirsov suv omborida (27.07.2003 y.), Tusunsov suv omborida (15-16.03.2001 y.) filtratsiya suvidan botqoqlanish hosil bo`lganligi, Tuyamo`yin suv ombori Sultonsanjar dambasida 128 m belgisida pastki befda (fevral,2001 y) 11+15 piketda buloq paydo bo`lganligi kuzatilgan. Mazkur holatlardan eng yomoni buloq (grifon) hosil bo`lishidir, bu to`g`onni avariya holatida ekanligini bildiradi. YUmshoq gruntlardan tashkil topgan qirg`oqlardan filtratsiya suvlarini jadal chiqishi, qirg`oq tutashmalarini o`prilishi va to`g`ondan keyingi xududlarni botqoqlanishiga olib kelishi mumkin.

Filtratsion jadal deformatsiyalarni bartaraf qilish uchun qirg`oqlar bo`ylab 2...5 m chuqurlikdagi transheyalarga drenaj yotqizish mumkin. Qumli gruntlarda quvurli, ko`p miqdorda gilli zarrachalari bor gruntlarda esa tyufyak shaklidagi cho`zilgan drenajlar quriladi. Bunda teskari filtr to`g`ri tanlanishi kerak.

Suv o`tkazmaydigan va suv o`tkazadigan qatlamlar navbatma-navbat almashib kelganda, pastki bef tomonga ko`tariluvchi yo`nalishda buloq va ayrim manba shaklida suvning filtratsiyasi hosil bo`lishi mumkin. Ularni bartaraf qilish uchun daryo o`zaniga suv chiqadigan qilinib drenaj quriladi, to`g`on pastki qiyaligi oyog`ida esa qumli, uzunligi 20...50 m, qalinligi 2...3 m li yuklanma qilinadi. Poymada, aholi

punkti yoki korxonalar joylashgan bo'lsa erlift, chuqurlik nasoslari va sh.o'. qo'llab chuqur vertikal drenajlar quriladi.

Ko'p holatlarda suv omborida yoriqlari bor, ba'zida ohaktosh (gips) dan iborat asos va qirg'oq tutashmalari orqali yuqori filtratsiya natijasida ko'p miqdorda suv yo'qolgan holatlar mavjud. Bu holatda yuqori filtratsiya zonasining holati aniqlanadi va sementatsiya, bitumizatsiya, glinizatsiya yoki kombinatsiyalashgan usullardan biri qo'llanilib bartaraf qilinadi.

Balandligi 52 m bo'lgan O'rtato'g'ay (Qirg'iziston) to'g'onida (K.K. Kazakboev va boshq.) to'g'on tanasi orqali jadal (150...240 m/sut) filtratsiya kuzatilgan. Uning sababi karer materialida mayda zarrachali qum etarli miqdorda bo'lmagan hamda to'g'on tanasi katta, 60 sm qalinlikda qatlamlar to'kilib qurib yuborilgan, bunda materiallar tushirilishida, ularning segretatsiyasi vujudga kelgan, ya'ni grunt tabiiy fraksiyalarga ajralgan. Filtratsiyaga qarshi kurashishning quyidagi usullari ko'rib chiqilgan: yuqori qiyalikda suv o'tkazmaydigan ekran qilish; gruntda betonli – svayli devor hosil qilish yo'li bilan to'g'on tanasiga diafragma qurish, quvur orqali sementli – glinali aralashmani bosim bilan yuborib in'eksiya pardasi qurish. Ulardan in'eksiya pardasi qurish usuliga afzallik berilgan. Grunt to'g'onlarni ishlatish amaliyoti filtratsiyaga qarshi bunday pardalarni ishonchli ishlashini ko'rsatgan (GRES-2 dagi Qorag'onda to'g'oni, Irkutsk GRESi, Serr-Ponson, Fessenxeym, Silvanshteyn, Mishon va boshq.gidrouzellar) (K.K.Kazakboev va boshq. ma'lumotlari), chunki bu holatda keng, kam suv o'tkazadigan yadro hosil qilinadi, material to'g'on tanasi materiali bilan deyarli bir xil bo'lib qoladi. Bunda suv omborini bo'shatish talab qilinmaydi.

13.3. Grunt inshootlardagi suvni sizib o'tishiga qarshi elementlar va drenaj tizimlarni ta'mirlash

Grunt to'g'onlar yadrolari va ekranlarida yoriqlar hosil bo'lishlarining asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi:

- to'g'onlar asoslarining yon-bag'ir va o'zanlarda notejis cho'kishi, shuningdek to'g'onning yuqori qismida cho'zuvchi zo'riqish paydo bo'lib, uning zo'riqish-deformatsion holati; bu holatda yoriqlar eng ko'p to'g'onga ko'ndalang yo'nalgan bo'ladi;

- asosni bir xil zichlanmasligi oqibatida har xil cho'kish keltirib chiqaradigan to'g'on ko'ndalang profili ayrim qismlarini notejis deformatsiyalanishi; bu holatda vujudga keladigan yoriqlar, ba'zida 7 m va undan ko'p chuqurlikgacha borib etadi va qoidasi to'g'on bo'ylab joylashadi.

Eng xavflisi ko'ndalang yoriqlar. Ko'p holatlarda, ular to'liq yoki ayrim uchastkalari qoya tosh yoki yarim qoya tosh gruntdan tashkil topgan qirg'oqga tutash to'kma to'g'onning zonalarida hosil bo'ladi.

To'g'on elementlarini har xil zichlashishi natijasida o'tish zonasida yadroni osilib qolishi, misol uchun balandligi 93 m bo'lgan Hayttjuvet (Angliya) to'g'oni va boshqa to'g'onlarda kuzatilgan. Bu jadal (60 l/s gacha) filtratsiya bilan birga kuchgan, filtratsiya esa suv ombori 70 m atrofida chuqurlikkacha to'ldirilgandan so'ng hosil bo'lgan.

Ekranning sezilarli va buning ustiga notejis cho'kishi natijasida uning qirg'oqga tutashish zonalarida ham yoriqlar hosil bo'lishi mumkin. Ularning hosil bo'lish sabablari o'xshash (analogichnyiy) xarakterga ega.

Grunt yadro va ekranlar har xil usullar bilan qayta tiklanadi: svaylar qoqiladi (buronabivnye svai); gruntda (yadroda) uzlusiz devor o'rnatiladi; shpuntlar qoqiladi; gruntga in'eksiya qilinadi; polimer plenka yotqiziladi; shponka qilinadi; yuvib qum kiritiladi, ochish yo'li bilan ta'mirlash o'tkaziladi.

Svaylar qoqish (buronabivnye) shunday ketma-ketlikda quriladi. Inshoot o'qi bo'ylab transheya qaziladi, bu svay uzunligini kamaytiradi va unda burg'ulash aggregatini joylashtirish uchun vaqtinchalik yo'l yotqiziladi. Gruntda kerakli chuqurlik (30...50 m) gacha, ular devorlarini mustahkamlash uchun glinali yoki bentonitli (glinadan 10...15 marta kengayadigan) aralashmalardan foydalanib, skvajina burg'ulanadi. Unga yo'naltiruvchi metall (obsadnaya) quvur tushiriladi. Undan keyin ikkinchi skvajina burg'ulanadi, ungayam yo'naltiruvchi metall quvur tushiriladi. Birinchi skvajinadan tushirilgan yo'naltiruvchi metall quvur sug'urib olinadi (lozim bo'lsa unga armaturali karkas tushiriladi) va u, glinali aralashmani siqish bilan, quvurni vertikal surish(siljitim) usulida betonlashtiriladi. Birinchi skvajina betonlashtirilgandan so'ng; uchinchi skvajina burg'ulanadi va unga yo'naltiruvchi quvur tushiriladi. Ikkinci skvajinadan quvur sug'urib olinadi va u birinchidagidek betonlashtiriladi. Quvurni vertikal siljish usuli bilan qolgan barcha svaylar betonlashtiriladi va bir biriga tutashgan svaylardan iborat uzlusiz devor hosil qilinadi. Ba'zida skvajinalar qattiqlashgan material bilan bir vaqtida 3...4 tadan burg'ulanadi. Skvajinalar diametri 0,4...1 m qabul qilinadi. Bu pardaga qo'yiladigan gradient va mavjud burg'ulash apparatidan kelib chiqib belgilanadi. Aralash skvajinalar markazlari orasi skvajina diametrining ikki qiymatidan kam qabul qilinadi.

YAdro yoki ekranlarni qayta tiklashning chet ellarda, eng ko'p tarqalgan usuli - bu oldindan, qiyaliklarni o'pirilib tushishdan saqlash maqsadida glinali aralashma bilan, undan keyin esa suv ostida betonlashtirish usulida qotib qoladigan material bilan

to'ldirib, o'yiq (prorez) hosil qilish yo'li bilan gruntda uzlusiz devor qurish hisoblanadi. Gruntda prorez (transheya) hosil qilish uchun (uzunligi 5...10 m) ayrim seksiya yoki uzlusiz transheya kovlanadi. Ikkinchi navbat seksiyasini kovlash, to'ldiruvchi - material qotgandan va kerakli mustahkamlikni olgandan so'ng (odatda 10...20 sut. dan keyin) boshlanadi. Seksiyalararo yaxshi kontakt hosil qilish uchun ikkinchi navbat seksiyasi elementlari birinchi navbat seksiyasiga 0,3...0,5 m o'yib kiritiladi. Prorezlar 50 m chuqurlikkacha SVD-500 R burofrezer agregati (komplektida burg'ulash stanogi bor) bilan kovlanadi. Bu agregat tishlariga gidravlik uzatma yoki naporli shtanga bilan harakat beradigan greyfer bilan ta'minlangan. UKS-30M turidagi erlifti bor zarbali - kanatlari stanok chuqurligi 100 m gacha bo'lgan prorezlarni kovlash imkoniyatini beradi.

Ba'zida gruntda devor hosil qilish uchun kam filtratsiya koefitsientiga ega grunt aralashmasidan foydalaniladi. Bu holatda uning qalinligi 4 m gacha etadi.

Unchalik, chuqur bo'limgan (20 m gacha) filtratsiyaga qarshi parda (zavesi) lar, ba'zida 0,2 m gacha yupqa, qotib qoladigan materialdan qilinadi. YUmshoq gruntlarda transheyalarni kovlash, skvajinaga tushirilgan va oxirida uchta soplosi bir joyga to'plangan quvurga ega monitor orqali, suv-havoli struyka bilan olib boriladi. Ikki soplo orqali 40...50 MPa bosim ostida suv-havoli aralashma yuboriladi. Ishlov berib yumshatilgan grunt sirtga qo'shni skvajina orqali olib chiqiladi, transheya esa uchinchi soplo orqali bentonitli-sementli aralashma bilan to'ldiriladi. SHuningdek transheya qulflari tutashmaga ega metall svaylar qoqib, so'ng chiqarib olinib ham qilinadi. Svay tortib olinishi moboynida hosil bo'lgan bo'shliq glina-sementli yoki svay ichidan o'tgan, maxsus quvur orqali glinali aralashma bilan to'ldiriladi. Glina sementli aralashma, taxminan (S:G:S) 550:244:735 kg/m³ (sement: glina : suv) tarkibga ega bo'ladi. Glinali suspenziya chuziluvchanligi (qayshqoqligi) 0,2 dan kam bo'limgan glinadan hosil qilinadi. (Glinaning fraksion tarkibi: zarrachalar 0,05 mm dan ko'p – 10 %, 0,005 mm kam - 30% kam bo'limgan tarkibga ega bo'lishi lozim).

Bo'sh yoki oldindan yumshatilgan gruntlardagi yadrolarni ta'mirlash uchun. Ba'zida, odatdagi shpuntlar yoki qulflari tutashmasi bor gidroshpuntlardan foydalaniladi.

Kuchli suv o'tkazuvchanlikka ega gruntlarda, suyuq oyna yoki ohak qo'shib yuqori yopishqoqli suspenziyalardan foydalaniladi. Suspenziya zichligini oshirish og'irlashtiruvchi (barit, magnizit, gematit va boshq.) qo'shimchalar qo'shish bilan amalga oshirilishi mumkin.

Filtratsiyaga qarshi elementlarni ta'mirlash ishlarini bajarishda, in'eksiyadan quyidagi holatlarda foydalaniladi: filtratsiyaga qarshi yangi element (yadro, tish,

ponur, parda va sh.o'.) qurish yoki mavjudlarini kuchaytirish lozim bo'lganda, er qimirlashdan keyingi avariyyada, inshoot elementlarini ko'zda tutilmagan cho'kishlarida, katostrofik toshqinda va sh.o'; filtratsiyaga qarshi elementlar qurilishi tugallanmaganda; filtratsiyaga qarshi elementlarning inshootlar elementlariga tutashgan kontaktida fizik, kimyoviy suffoziya yoki boshqa deformatsiyalar bo'lganda.

SHikastlangan filtratsiyaga karshi elementlarga in'eksiya qilish grunt yoriqlari va g'ovvaklariga zich to'ldiruvchi hosil qilib, er osti suvlarining harakatiga to'sqinlik qiladigan tampon aralashmalarini majburan kiritib amalga oshiriladi. Aralashmalar maxsus nasos qurilmalari bilan bosim ostida, bir yoki bir necha qator burg'ulangan skvajinalar orqali yuboriladi.

(Gidroproekt ma'lumotlari bo'yicha) tampon aralashmalar sifatida: sementatsiya qilishda:

- sementli, $s/s = 20...0,4$ suv -sementli nisbat bilan;
- sementli - qumli, $s/q = 0,5...4$ nisbat bilan;
- sementli - glina qumli, $(g+q)/s = 0,5...15$;
- sementli - glinali, $g/s = 0,5...10$,

glinizatsiya qilishda:

- glina - silikatli, glina tarkibi $400...850 \text{ kg/m}^3$ va silikat natriy (suyuq oyna) qo'shilmasi quruq glina tarkibini $0,1...10\%$ miqdorida;

- bentonitli - silikatli, tarkibida $100...300 \text{ kg/m}^3$ bentonit va $0,5...1,5 \text{ kg/m}^3$ silikat natriy bo'lgan;
silikatizatsiya qilishda,

- qumli gruntlarda - avval suyuq oyna, so'ng esa grunt sementatsiyalanishini tezlashtirish uchun kalsiy xlor aralashmasi;

- mayda donador, changsimon qumlar, suyuq loy (plastun) lardan - qotirgich (ortofosfor yoki reagent qo'shilmasi bilan oltingugurt kislotosi) bor suv yopishqoqli-giga yaqin yopishqoqlik bilan suyuq oyna,
aralashmalardan foydalanadi.

Undan tashqari sementatsiya qilishda kul - qo'shma, tosh uni, (o'rtacha diametri $d < 0,1...0,15 \text{ mm}$) sariq tuproq va boshqalardan ham keng foydalaniladi. Sementli aralashma tarkibiga (sement massasining $0,5...5\%$ miqdorida) bentonit, suyuq oyna (silikat natriy), kalsiy xlor, ishqor, sulfatlari - achitqi va boshqa yuza-faol moddalar qo'shiladi, ular sementli aralashma strukturasi hosil bo'lishini kamaytiradi va g'ovvakliklarda aralashmani siljuvchanligi (qo'zg'aluvchanligi) ni oshiradi. Lozim bo'lganda sement massasiga nisbatan $0,02...0,05\%$ miqdorida alyumin kukuni bilan kengaytiruvchi sementli aralashmalardan foydalaniladi. Aralashmalarни yuborish va

sementatsiya qilishni nazorat qilish shu sohaga oid maxsus adabiyotlarda batafsil berilgan. In'eksiya qilishda skvajina diametri 30...200 mm oralig'iда qabul qilinadi. Sementatsiya skvajinalari orasi masofasi bиринчи navbat uchun 6...16 m, ohirgisi uchun esa - 2...3 m va undan ko'p belgilanadi.

Glinizatsiya va bitumizatsiya diametri 25...35 mm bo'lgan in'ektorlar orqali amalga oshiriladi. Yirik va o'rta qumlarni silikatizatsiya qilishda radius 1 m dan 0,3...0,4 m gacha o'zgaradi. Uni gazli silikatizatsiya qiluvchi yordamida ko'paytirish mumkin, u ketma-ket suyuq oyna va qotirgichni bosim ostida yuborishdan iborat.

Agressiv muhitlarda gruntlarni smolalash keng qo'llaniladi, bunda gruntlar qotirgich bilan karbamidli fenolformaldigid yoki boshqa sintetik smolali aralashma bilan mustahkamlanadi. Ammo bu usuldan, uning bahosi qimmat bo'lgani uchun, jundayam kam foydalaniladi, foydalanilsa ham maxsus asoslashlar bilan amalga oshiriladi.

Gruntli yadro va ekranlar polimer plenkali materiallar yordamida qayta tiklanishi mumkin, ular mustahkamligi, uzoq ishlashligi,sovusqa chidamliligi, suv o'tkazmasligi, ulanish texnologiyasi, bahosi va perspektivada qo'llanilishi bo'yicha har xil xarakteristikaga ega. Ko'pchilik holatlarda polietilen, polivinilklorid va polipropilenlardan, polipropilen sovuqqa past chidamlilikka ega bo'lsa ham, keng foydalaniladi. Plenka eskirishini kamaytirish uchun, u tayyorlanayotganda har xil stabilizatorlardan foydalaniladi. Stabilizatsiya qilingan, qalinligi 0,2 mm plenkalarning xizmat muddatlari, MDX markaziy tumanlarida 35...40 yil, janubiy tumanlarda, shu jumladan respublikamizda 25...30 yildan kam bo'lмаган muddatlarni tashkil qiladi.

Polimer plenkali materiallar qo'llanilib, ekranni yuqori qismini ta'mirlash ishlari bajarishda, suv omboridagi suv sathi pasaytiriladi, yuqori qiyalikning ustki qatlami olib qo'yiladi, polimer materiallardan ekran yotqiziladi, keyin uning ustiga yuqori sifatli grunt to'kib yuklanma qo'yiladi. Polietilen plenka qalinligi

$$S = 0,075 \cdot H \cdot \gamma_o \cdot d_m^{0,4} \sqrt{E / \sigma^3} \quad (13.2)$$

formula bilan aniqlanadi.

Bu erda N - napor, m; γ_o - suvning zichligi, g/sm³ ;

d_m - tagiga solingen qatlama gruntu g'ovvakligining o'rtacha diametri, mm

$$d_m = 0,535 \sqrt{\eta \frac{n}{1-n} d_{17}} \quad (13.3)$$

η va n - mos ravishda tagiga solingen qatlama gruntingin bir jinsli emaslik va g'ovvaklik koefitsienti;

d_{17} - grunti massasi bo'yicha 17% dan kam zarachalari bor fraksiyaning diametri, mm;

E - polietilenning hisobiy elastiklik moduli, MPa;


σ - polietilenning cho'zilishga hisobiy mustahkamlik chegarasi, MPa.

Plenkaning elastiklik moduli 70 MPa dan, cho'zilishga mustahkamligi chegarasi esa 10 MPa kam bo'lmasligi kerak. Tagiga solingen qatlarni grunti zarachalarining yirikligi odatda 6 mm dan kam bo'ladi. Uning qalinligi 0,3...0,4 m, himoya qatlaminiki esa 0,4...0,5 m bo'ladi.

Plenkaning uzoq ishlashlik muddati va plenka bo'ylab gruntning ishqalanish koeffitsientini oshirish uchun grunt ustidan tol (qora qog'oz) bilan himoyalanadi. Plenka tasmasi tutashmalari elim bilan yopishtiriladi, eritib yopishtiriladi yoki qatlamlari bir biri ichiga kiritilib, ustidan zinch qilib grunt bilan bostiriladi. Plenka to'g'ri tasma qilinib elpis'ichsimon shaklda, bosqichma-bosqich yoki kutilayotgan deformatsiyadan, plenkali qoplama va uning fazoviy yo'nalishidan kelib chiqib zigzag shaklida yotqiziladi.

Gruntli yadro va ekranlarni shponkasi, yuzini ochish ishlarini va qum yuvib to'ldirish vositasida ta'mirlash usullari yuqorida 13.1 da berildi.


Suffoziya hosil bo'lishi nuqtai nazaridan glinali yadroning xavfli joyi, uning beton inshoot, masalan vodoslivga tutashmasi hisoblanadi. SHunday shikastlanish 1968 yilda Avstralijaning tosh tuproqli to'g'onlarining birida (balandligi 43 m) bor - yo'g'i 1 yilgina ishlatilgan to'g'onda kuzatilgan. YAdroning beton vodoslivga tutashmasida, o'rakchga yaqin pastki qiyalikda diametri 1,4 va chuqurligi 1,3 m li o'yiq hosil bo'lgan. Suv ombori 0,3 m/sut tezlik bilan zudlikda 7,6 m ga bo'shatilgan. Qazilgan shurf va burg'ulangan skvajinalar yordamida suffoziyaning sababi aniqlangan, sababi - balandligi 2,4 m li uchastkalardan birida morena (muzi bor grunt) gruntuidan qo'shimcha filtr mavjud bo'limgan. SHag'al toshli pastki filtr glinani himoyalash uchun ishonchli filtr bo'lib xizmat qila olmagan. Ta'mirlash ishlari to'rt hafta ichida bajarilgan. YAdroni devorga tutashgan joyida, qoya toshli asosgacha korobka shaklidagi po'lat shpundan diafragma urib kiritilgan. Morena gruntuidan qilingan pastki filtrlarning shurf tubidan pastdag'i holati ma'lum bo'limganligi uchun, bu filtr sementatsiya qilib tashlangan, shurfning teskari to'kmasidan keyin - shpunt devori atrofidagi grunt ham sementatsiya qilingan (13.6 - rasm). Xuddi shunday, avval shponkasiz bo'lgan beton devorning deformatsion choki ham sementatsiya qilingan.



13.6 - rasm. YAdroni betonli tutashtiruvchi devorga tutashgan uchastkasini ta'mirlash: 1 - tutashtiruvchi devor; 2 - shpuntli devor; 3 - glinadan iborat teskari to'kma; 4 - qo'shimcha filtrning teskari to'kmasi; 5 - teskari filtr; 6 - tosh to'kma; 7 - morena suglinokdan yadro; 8 - shag'al toshli filtr; 9 va 10 - sementli va kimyoiy aralashmalarni bosim ostida yuborish uchun skvajinalar.

Gruntli to'g'onlarning filtratsiyaga qarshi muzlagan elementlarini, keskin iqlim sharoitida, qayta tiklashda,sovutuvchi ishchi moddani tabiiy ichki sirkulyasiya qiladigan, mavsumiy ishlaydigan termosvay (qurilma) lar qo'llaniladi. Ular suyuqliqli (kerosin) va parli-suyuqliqli (ammiaq, freon, propon va boshq.) bo'ladi. Birinchi holatda sirkulyasiya (gruntda) isitiladigan zichliklar farqi (havoda) sovutuvchining sovuq qatlami ta'siri ostida amalga oshiriladi. Ikkinci holatda gruntdan issiqlikni yuzaga uzatilishi fazali almashish hisobiga amalga oshiriladi. 13.7 - rasmida parli-suyuqlik sirkulyasiya tizimi yordamida termosvay o'rnatish sxemasi keltirilgan, u quyidagicha ishlaydi.

Kuzgi - qishqi davrda ishchi moddaning kondensatorda parları, kondensatsiyaga uchraydi va tomchilab yoki struya shaklida pastga bug'laningichga oqib tushadi. Termosvayning pastki qismidagi ishchi modda gruntdan issiq olib qiziydi va bug'lanib kondensator qismiga ko'tariladi. Keyin sikl qaytariladi. YOzda, qachonki havo harorati grunt haroratiga yaqin yoki baland bo'lganda par kondensatsiyaga uchramaydi va termosvay ishini to'xtatadi. Agar yozgi davrda filtratsiyaga qarshi muzlagan pardada yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajada erish xavfi paydo bo'lsa, u temlotexnik hisob kitoblar bilan aniqlanadi, unda gruntni qo'shimcha ravishda muzlatish qo'llaniladi.



13.7 - rasm. Muzlatuvchi tizimlar sxemalari:

a - par - suyuqlikli sirkulyasiyal; b va v - havoni bosim ostida yuborish va so'rib olishda majburiy ishlataladigan; 1 - kondensator; 2 - quvur; 3 - par; 4 - erigan va muzlagan gruntlar chegarasi; 5 - muzlagan grunt; 6 - suyuqlik; 7 - havo chiqishi uchun teshik; 8 va 9 - tashqi va ichki quvur; 10 - berkitma; 11 - kollektor.

Svaylar orasi muayyan sharoitdan kelib chiqib, taxminan 1,5...2,5 m tayinlanadi. Hozirgi davrda eng ko'p, havoli muzlatuvchi tizimlardan foydaliladi (13.7,b,v - rasm), u ikki ichki va tashqi quvurlardan tashkil topgan muzlatuvchi kolonkada atmosfera havosining past haroratli sirkulyasiyasiga asoslangan. Tashqi quvur pastida berkitib qo'yilgan, ichkisi esa shunday o'rnatilganki, uning pastki oxiri va tashqi quvur berkitmasi orasida 20 sm atrofida oraliq (zazor) hosil bo'ladi. Bir ventilyator 35...45 tadan kolonnani guruhlaydi. Tashqi quvur diametri 100...219 mm ga teng qabul qilinadi, ichkisi - 31...189 mm. Muzlatuvchi tizimlar Irelya, Dolgaya, Ayaundja, Pevek, Styschkan va boshqa daryolarda qurilgan to'g'onlarda foydalangan.

Grunt inshootlar drenaj tizimlarining shikastlanishlari (ta'mirlash ishlarini bajarish shartidan kelib chiqib) quyidagi turlarga bo'linadi: grunt to'g'onlar drenajlarining shikastlanishlari; pastki qiyalikka chiqishi bilan depressiya egri chizig'ini

ko'tarilishi: kanallar tubi va qiyaliklariga yotqizilgan teskari filtrlar ishini buzulishi; drenaj skvajinalarini ishdan chiqishi; drenaj tizimlarini loyqa bosishi va sh.o'. Quyida drenaj tizimlarini qayta tiklash bo'yicha bajariладigan ta'mirlash ishlariga misollar keltirilgan.

Qoidasi, pastki qiyaligi drenaj bilan jihozlangan grunt to'g'onlarni ishlatalish davrida, ko'p holatlarda, to'g'on tanasidan drenajga qum kelib tushishi kuzatiladi, bu drenaj teskari filtrini sifati yomon qilib o'rnatilganligi, perforatsiya qilingan quvur ustiga to'kilgan tarkib yomon tanlanganligi yoki drenaj quvurlari tutashmalarini buzulishini keltirib chiqargan sezilarli notejis cho'kishlar oqibatida yuzaga kelganligini bildiradi. Drenaj normal ishlagagan holatda, filtratsiya qilib chiqqan suv qiyalikga singadi, uni turg'unligini birdan kamaytiradi. Bunda o'pirilib tushadigan daganak (Karkidon gidrouzeli) va qiyalikni o'pirilib tushish holatlari kuzatilishi mumkin. O'pirilib tushishlar o'lchamlari bir necha metrdan bir necha o'n metrga etishi mumkin. Drenaj ishining buzulishi - jiddiy shikastlanish hisoblanadi. Quyida drenajni ta'mirlashning Gorkov to'g'onida (V.D.Jebrakovskaya va N.F. Silantev) qo'llanilgan ishlarini xarakterli ketma - ketligi bayon qilinadi (13.8 – rasm):

- ta'mirlanadigan drenaj uchastkasining quvurida, oqim bo'yicha kuzatish quduqlari tepasi va pastida yog'och tiqin o'rnatiladi, uni yoriqlari diqqat bilan berkitiladi; .yuqorida joylashgan drenaj uchastkasidan suv yaqindagi kuzatish qudug'idan pastda joylashgan kuzatuv qudug'iga nasos yordamida olib tashlanadi;

- qiyalikni suvgaga to'zinib erib oqib tushishini oldini olish uchun kotlovan perimetri bo'ylab shpunt qoqib chiqiladi;

- shpuntli devorga parallel, uning tashqi tomonida ninafiltrli qurilma montaj qilinadi, uning yordamida suv so'rib olib tashlanadi, shuning bilan grunt suvlari sathi pasaytiriladi;

- ta'mirlanadigan uchastkani butun uzunligi bo'ylab drenaj konstruksiyasi va o'lchamlariga qarab asosi bo'yicha kengligi 3...4 m li kotlovan kovlab ochiladi;

- qumga to'lib qolgan, defektli quvur drenajning boshqa shikastlangan uchastkasi ochib olinadi; asosi loyiha belgisigacha tozalanadi;

- drenaj quvuri va teskari filtr qayta tiklanadi, undan so'ng suv sathini pasaytiruvchi qurilma ishdan to'xtatiladi;

- drenaj ustiga yaxshi filtratsiya qiladigan grunt 1 m atrofidagi qalinlikda solinadi, so'ng shpunt sug'urib olinadi;

- qiyalik zichlanib to'qiladi, uni o'lchamlari loyihaga mos bo'lishi kerak;

- yog'och tiqinlar chiqazib olinadi, nasos ishdan to'tatiladi.


Drenajda ta'mirlash ishlari olib borilayotganda, suv sathini pasaytiruvchi qurilish filtrlarining yaxshi holati va suv chiqazishning sutka bo'yи olib borilishi ta'minlanadi, aks holda depressiya egri chizig'i ko'tarilib ketadi va qiyalik kotlovanga o'pirilib tushadi. Kiyalikni yuvilishidan qochish uchun ninafiltrlarni gidravlik usulda tushirilishi mumkin emas. Teskari filtrning eski va yangi qatlamlarini tutashishiga muhim ahamiyat beriladi.

Grunt to'g'onlarni qurish texnologiyasini buzulishi inshootni ishlatish davrida depressiya egri chizig'ini ko'tarilib ketishiga va pastki qiyalikka suvni sizib chiqishi ga olib keladi. SHunday qilib, to'g'onga grunt sifatsiz yuvib solinishi va kovlab olin-gan jinslardan karer yaxshi tozalaramaganligi va to'kmadagi boshqa chetga chiqishlar kam filtratsiya koeffitsientiga ega qatlamlar hosil qiladi. Bu holatda filtratsiya oqimi qatlamlar yo'nalishiga qarab, har xil ayrim qismlarga bo'linib ketadi, qoidasi bu oqimlar sirtga sizib chiqadi.

Suvni sizib chiqishini bartaraf qilish uchun (13.9 - rasm) to'g'on qiyaligida diametri 250...400 mm li, qatlamlar yotishi chuqurligiga teng (8...15 m) skvajinalar burg'ulanadi, ular shag'al tosh va shag'al - qumli material bilan to'ldiriladi. Planda suvni yutib oladigan skvajinalar shaxmat tartibida, orasi 5...10 m qilib joylashtiriladi. Ularning soni va o'lchamlari muayyan injenerlik-geologik sharoitdan kelib chiqib qabul qilinadi. Ta'mirlash davrida depressiya egri chizig'ini pasaytirish uchun, xuddi yuqoridagidek ninafiltrli qurilmalardan foydalaniladi, bu qurilmalar diametri 25 mm, butun uzunligi bo'ylab perforatsiya (teshikchalari) diametri 4 mm bo'lgan quvurdan iborat bo'ladi. Perforatsiya quvuri atrofiga teskari filtr drenaj konstruksiyasidan kelib chiqib qatlami qalinligi 10...30 sm qilinadi.


Ochiq magistral kollektorlar, drenaj kanallari, to'g'on oldi kyuetlar va boshqa inshootlarni ishlatish tajribasi, kanal qiyaligi va tubiga yotqizilgan teskari filtr to'kmasi va tarkibini sifatsiz tanlanishi oqibatida uni mustahkamlovchi elementlar ishdan chiqishini ko'rsatgan. Bu holatda ta'mirlash quyidagicha amalga oshiriladi. SHikastlangan uchastka (peremylchikalar) suv to'sqichlar qurib o'rab olinadi. YUqorida joylashgan kanal uchastkasidan pastki uchastkaga suv nasos yordamida olib tashlanadi yoki aylantirma kanal orqali tushiriladi.

Ta'mirlanadigan uchastka atrofida sutka bo'yи suvni chiqazib olib tashlaydigan ninafiltrlar o'rnatiladi, ular kanalni quritadi va uning qiyaliklarini filtratsiya oqimi gidrodinamik ta'siri ostida o'pirilib tushishidan saqlaydi.



13.8 - rasm. Grunt to 'g'onlar quvurli drenajini ta'mirlash sxemasi:

1-kuzatish qudug'i; 2-nasos; 3-tiqin; 4-ninafiltrlar so'ruvchi kollektori o'qi; 5-shpunktli devor o'qi; 6-drenajdan suvni chiqazuvchì nasos; 7-teskari filtr; 8-ta'mirlash davridagi grunt suvlarining sathi.



13.9 - rasm. Pastki qiyalikka suvni sizib chiqishini bartaraf qilish sxemasi:

1 - supes va suglinok qatlamlari; 2 - ta'mirlashgacha depressiya egri chizig'ining holati; 3 - qiyalikka suvni sizib chiqish zonasasi; 4 - suv yutadigan skvajinalar; 5 - drenaj; 6 - ta'mirlashdan so'ng depressiya egri chizig'ining holati.

Ayrim holatlarda, grunt suvlari sathi tushirilgan bo‘lganda, zumpf (chuqurcha) qilib yuzadan suvni chiqazib tashlash etarli bo‘ladi. Quritilgan kanal uchastkasidan mustahkamlovchi va teskari filtr olib tashlanadi. Kiyaliklar, kanal tubi, teskari filtrlar va mustahkamlovchilar loyihaga mos qayta tiklanadi. Bunda teskari filtrlar va kanal mustahkamlovchilarining eski va yangi qatlamlarini to‘g‘ri tutashtirilishiga alohida ahamiyat beriladi. Ta‘mirlash ishlari tugatilgandan so‘ng peremyschka va foydalanilgan moslama va jihozlar ehtiyyotlik bilan olinadi.

Xududlarni suv bosishidan himoyalash uchun, qoidasi, drenaj skvajinalaridan foydalaniladi. Misol sifatida Kuybishev suv ombori tumanidagi drenajlar tizimini aytilib o‘tish mumkin. Xuddi shunday Jizzax bosh nasos stansiyasi xududining 4 tomoniga qurilgan vertikal drenajlarni ham eslash mumkin. Kuybishev suv ombori drenaj skvajinalari chiziqli qator bo‘ylab 7,9 km uzunlikda himoya dambasiga parallel xar 160 m joylashgan 408 skvajinadan iborat. Drenaj skvajinalari filtrlovchi materiali fizik yoki kimyoviy kolmatitsiyaga uchrashi natijasida ishdan chiqishi mumkin. Drenaj skvajinalarini ishchanlik qobiliyati pnevmoimpulsli, mikroportlatish, reagent yuborish, kombinatsiyalangan usullar qo‘llanilib qayta tiklanadi.

Drenaj skvajinalariga pnevmoimpuls usulida ishlov berilganda pnevmosnar-yadlardan foydalaniladi, ular skvajina filtri bo‘ylab 6...15 MPa bosim ostida siqilgan havo porsiyasini avtomatik ravishda qo‘yib yuborishga asoslangan. Siqilgan havo ta’sirida skvajina filtrida, o‘zgaruvchan yo‘nalish bo‘yicha, filtratsion oqimning impulsi to‘lqin zarbasi hosil qiladi, u kolmatatsiya bo‘lib qolgan qatlamni buzadi. Kuybishev gidrouzelida ta‘mirlashlararo davri yarim yildan ko‘p bo‘lmagan, xizmat muddatlari 3...4 yilni tashkil qilgan skvajinalar uchun bu usul qo‘llanish mumkinligini ko‘rsatgan.


Drenaj skvajinalarida mikroportlatish uchun detonatsiya qiladigan shnurlardan foydalanilgan. U portlatilganda skvajina filtrining butun uzunligi bo‘ylab zarba va aks zarba to‘lqinlari hosil bo‘ladi, ular hosil bo‘lgan gaz pufakchalar bilan birga filtr va filtri oldi zonadagi kolmatatsiya mahsulotining uzluksizligini buzadi. Bunday ishlov berish natijasida skvajinaning suv berish qobiliyati (debit) 2... 5 marta va undan ko‘pga oshadi. Dastlabki qiymatiga nisbatan skvajina xizmat muddati 5...10 yilni tashkil qilib, debiti 45...65% gacha qayta tiklanadi. Ta‘mirlashlararo davr 6...12 oy ni tashkil etadi.

Kolmatatsiya bo‘lib qolgan materialning kimyoviy tarkibi ma’lum bo‘lib, eritgichni qo‘llash iqtisodiy foydali bo‘lsa, reagentlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kimyoviy ishlov berilgandan so‘ng hosil bo‘lgan reaksiya mahsulotlari, skvajinadan va filtr oldi zonasidan, suv bilan birga chiqazib tashlanadi. Reagent sifatida kislotali, ishqorli, tuzli aralashmalar yoki poroshok shaklli tarkiblar ishlataladi. Kuy-


büshhev gidrouzelida skvajinaga ishlov berish uchun konsentratsiyalangan xlorid kislotadan foydalanilgan. Bir skvajinaga ishlov berish vaqtı 1 soatdan ko'p bo'limgan. Poroshok shaklli reagentlar skvajinaga kompressordan siqilgan havo yordamida yuborilgan.

Drenaj skvajinalarini ishchanlik qobiliyatini kombinatsiyalangan usulda ishlov berib qayta tiklash, ko'p holatdarda, ta'mirlashlararo muddatni 2,5 ... 3 yilgacha uzaytiradi. Ammo, qanday usuldan foydalanish muayyan sharoitdan kelib chiqib belgilanishi zarur.

Asos turg'unligini oshirish uchun unchalik katta bo'limgan suv o'tkazmaydigan qatlama ostidagi, grunt suvlari naporini kamaytirish maqsadida filtr shaklida bosimni kamaytiruvchi skvajinalar quriladi. Ishlatish davrida, skvajinaga tushiriladigan quvur tashqi sirti bo'ylab suv o'tkazmaydigan qatlama orasida kontakt bo'yicha filtratsiya hosil qilishi mumkin, bunday holat Moskva nomli kanal to'g'onlarining birida quzatilgan. Skvajina atrofidagi buzulgan gruntlar zonasini to'sish uchun silikatizatsiya qilish va katta o'lchamli, tushiriladigan metall quvurlarni urib kiritish xar doim ham ijobiyl natijalar bermaydi. Bu holatda filtratsiya quyidagi yo'l bilan bartaraf qilinadi (14.10 - rasm). Avariya uchragan skvajina atrofiga shpundan aylana chegaralab qo'yuvchi, suv o'tkazmaydigan qatlamaqacha qoqiladi. SHpunktli to'siq (ograjdenie) tashqi tomonidan suvga tushiriladigan nasoslar bilan jihozlangan, bir necha (4...5) suvni pasaytiradigan skvajinalar quriladi. SHpunktli devor yopilmasi ostidan grunt skvajina zonasiga olib tashlanadi, u shunday amalga oshiriladi, bunda suv o'tkazmaydigan qatlama pastiga 3...5 m etmasdan suv o'tkazmaydigan qatlama qolgan qismini suv yormaydigan bo'ladi. Suvni pasaytiradigan qurilmalar nafaqat shpunkt bilan hosil qilingan quduq (kolodets)ga suvni kelishini kamaytiradi, balki bosimli suv pezometrik naporini ham tushiradi. Kuduqning pastki va yuqori qismlarida, qoidasi, beton yostiqlar qilinadi, ular orasidagi fazo esa suglinok yoki glina bilan sisatlizichlanib to'ldiriladi.



13.10 – rasm. Suv (bosimini) pasaytiruvchi kontakt bo'yicha filtratsiyani bartaraf qilish:
1 – avariya uchragan skvajina; 2 – betonli yostiq; 3 – suglinokli tigin; 4 – glina; 5 – shpunktli to'siq; 6 – suglinok; 7 – filtrning ishchi qismi; 8 – suv yuradigan gruntlar; 9 – suvni pasaytiruvchi skvajina.



Quvurli drenaj loyqadan, ikki kuzatish quduqlari orasidagi joylashgan uchastkadan, suv oqimi yo'nalishida yuvish usulida tozalanadi. O'z oqimi bilan va majburiy usulda yuvishlar mavjud. O'z oqimi bilan yuvish usulida quvur pastki va yuqorida joylashgan quduqlarda ,yopib qo'yiladi va yuqorida joylashgan quduq suvgaga to'ldiriladi va yuvish amalga oshiriladi.Pastda joylashgan quduqdan quvur birdan ochilganda (tiqin olinganda), katta tezlik bilan quvurda yotgan oqim oqizindini (cho'kindi)larni yuvib ketadi. Undan so'ng oqizindini pastki joylashgan quduqdan chiqazib tashlanadi, xuddi shunday qolgan boshqa uchastkalar ham yuviladi. Oqizindilarni majburiy yuvish quvurga shlang bilan, bosim ostida suv yuborish va sunvi pastda joylashgan quduq orqali chiqazib tashlash orqali amalga oshiriladi.

Diametri 0,3 dan 0,8 m gacha bo'lgan kollektorlarni yuvish uchun PK-0,8, D-910A turidagi maxsus mashinalardan foydalaniladi. Ayrim holatlarda ulardan drenajlarni yuvish uchun ham foydalanish mumkin. Zich oqizindilarni olib tashlash uchun kovshli snaryad yoki maxsus mitlardan iborat tozalash moslamalari mavjud, ular oqizindini quvur bo'yicha lebedkalar yoki suv bosimi ostida olib chiqib tashlaydi.

Drenajlarni tarkibida temir bo'lgan oqizindilardan tozalash kimyoviy usulda amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun tiqin bilan berkitib quylgan drenaj uchastkasiga oltingugurt kislotasi va konsentratsiyasi 1,2...2 % li biosulfat yoki oltingugurt dvuokisi, quvurda suv bo'lgan holatda, sutka moboynida, yuboriladi.

Drenaj tizimlaridan o'simliklar o'sib ketishiga qarshi kurashish uchun qishloq xo'jaligi gerbitsidlaridan foydalaniladi. Ammo bunday usul atrof muhitni himoya qilish nuqtai nazaridan kelib chiqib judayam kam qo'llaniladi.

13.4. YAxlit beton inshootlardagi umumiy va mahalliy buzulishlari bartaraf qilish

Beton gidrotexnika inshootlarini buzulishlari fizik-kimyoviy, fizik-mekanik korroziya, kavitations ta'sirlar, mahalliy deformatsiyalar, oqizindilar va katta o'lchamli narsalar, zARBalar va sh.o'. dan emirilishlari natijasida vujudga keladi. Odatda shikastlanishlar kovaklar, o'yiqlar, sinishlar, yoriqlar, erozion chuqurchalaridan tashkil topadi.

Mahalliy shikastlanishlarni bartaraf qilish bo'yicha ishlar to'rt siklga bo'linadi: beton sirtini ta'mirlash uchun tayyorlash, beton aralashmasini tayyorlash, betonlash va betonga qarash.

Betonning shikastlangan sirtni tayyorlash yangi betonni eskisi bilan mustahkam ilashishini ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Sirtni mekanik va kimyoviy usulda tayyorlash mavjud. Sirtni mekanik tayyorlash usuli eng ko'p qo'llaniladi, u quyidagi ketma – ketlikda amalga oshiriladi. Ta'mirlanadigan sirtdan (agar bor bo'lsa) sementli

plenka tushiriladi va u metall şetka, perforator bolg'asi, qum struykali apparat va boshqalar yordamida kertik qilinib. o'yilib g'adir – budur qilinadi. Mustahkam betongacha kovaklar, yoriqlar va illatlar ochiladi. Toza betongacha mazut, bitum, neft, yog' dog'lari olib tashlanadi. Ochilib qolgan armaturalar zangdan tozalanadi. Lozim bo'lganda skvajinalar burg'ulanadi, tayanchlar va qo'shimcha armaturalar o'rnatiladi. Betonlashdan oldin beton sirti siqilgan havo yordamida changdan tozalandi, ho'llanadi yoki suv struyasi bilan yuviladi.

Qayta ishlov beriladigan sirdagi chokning yuqori mustahkamligini ta'minlash uchun (adgezion) oraliq qatlama surtiladi, u sementli aralashmadan, kolloidli – sementli aralashma yoki kolloidli – sementli elimdan yog'li qilib tayyorlanadi.

Beton aralashmasi tebratgichlar bilan zichlanadi. Bunda harorati aralashma haroratidan +5° S kam bo'lgan asosga beton yotqizishga yo'l qo'yilmaydi. Betonning harorat rejimi, betonni markasi mustahkamligini 50% miqdoriga etguncha, kuzatib ta'minlanib turiladi, ya'ni bu ish 7...14 sut davom etadi. Havo harorati –10°S gacha bo'lganda betonlash ochiq bloklarda «termos» usulida amalga oshiriladi, ya'ni issiq beton musbat haroratlari sirt ustiga yotqiziladi, undan so'ng issiq izolyasiya qiluvchi material bilan o'rab qo'yiladi. Havoning harorati –10°S dan past bo'lganda beton maxsus qurilgan issiqxonada (teplyak) ichida yotqiziladi, u erda +5...10° S dan past bo'lmagan musbat harorat ushlab turiladi.


YOriqlar hosil bo'lishini oldini olish uchun, ochiq sirlarni barcha turdagicha sirlardan himoya qilish nazarda tutiladi, portlandsementli beton 7 sutka davomida suv sepib sug'oriladi, 14 sutka davomida suvgaga plastik qiluvchi qo'shimcha qo'shib sug'oriladi.

Unchalik, chuqur bo'lmagan shikastlanishlarda beton sirtini qayta tiklash uchun torkretlashdan keng foydalaniladi, bu usul dastlab Volxov GESida qo'llanilgan edi. Ammo armatura to'risiz u uzoqqa chidamaydi (3...5 yil). Armatura turi 15...20 yilga etadigan sifatlari qoplamani ta'minlash imkoniyatini beradi. SHuning bilan birga torkretning sifati bu ishni bajaradigan ishchilar (xodimlar)ning malakasiga ko'p darajada bog'liq. Torkretlanadigan sirt diqqat bilan iflosliklar, bo'shab qolgan beton qatlamlar, kovak va yoriqlar, hosil bo'lgan qatlamlardan tozalanadi, yuviladi va siqilgan havo bilan puflanadi. Armatura yopishib qolgan beton, loy va zangdan tozalanadi. Sirt perforator bolg'asi yoki ko'pol charx toshi (doirasi) bilan qayta ishlanadi. Sirtni tayyorlash va uni torkretlash bo'yicha ishlar: vertikal tekisliklar uchun – osma kajavalar (belanchaklar) dan, qiya tekisliklar uchun esa qo'zg'aluvchan va o'rkachdan boshqariladigan sirpangichlardan foydalanib amalga oshiriladi.

Betonni torkret bilan faol ta'mirlash ishlarini bajarish texnologiyasini VNIIG ishlab chiqqan. Bu texnologiyada yuza – faol moddalar – plastiklashtiradigan moddalar: suv bilan birga qo'shiladigan sulfatli – hamirturishli achitqidan foydalaniladi.

Faollashtirilgan torkretdan shartli diametri 10 sm gacha bo'lgan kovaklarni ta'mirlashda, suvning ediruvchanlik va zarbali ta'siriga qarshilik qiladigan sirtlar hosil qilishda foydalaniлади. Uni egiluvchan va qattiq asosga havo va asosning harorati $+5^{\circ}$ S dan past bo'lganda, yomg'ir yoki tezligi 10 m/s dan ko'п shamolda yotqizish (tushirish) man qilinadi.

Torkret uchun markasi 400 dan kam bo'lmagan sement, odatda to'ldiruvchi sifatida kvarsli yoki kvarsli – dala shpatli qum qo'llaniladi. Torkret yotqizish uchun asosiy jihoz – mos moslamalari bilan sement-pushka (13.11 – rasm) hisoblanadi. SHlang uzunligi 25...30 m bo'lganda sement-pushkadagi bosim 0,25...0,3 MPa tashkil qilishi lozim. SHlangni keyingi har 20 m uzunligini ortishiga bosim 0,025 MPa ko'paytiriladi. Suv bosimi sement-pushkaning ishchi bosimidan 0,1...0,15 MPa ga ko'п bo'lishi kerak. Bir vaqt ni o'zida vertikal sirtga yotqiziladigan qatlarning eng ko'п qalinligi 40 mm ni tashkil qiladi, gorizontal sirtga esa: pastdan tepaga – 20 mm va tepadan pastga 100 mm bo'ladi. Navbatdagi qatlama oldingi qatlama qotib ushlab qolgandan so'ng yotqiziladi. Torkretlashning eng maqbul parametrlari sakrab tushib qoladigan material miqdori, vertikal sirtlarga yotqizishda 20...25% da oshmasligi kerak, gorizontal sirtlarga: pastdan tepaga 10...12%, tepadan pastka 3,5...5% dan oshmasligi lozim.



13.11 – rasm. Torkret yotqizish jihozining sxemasi:

1 – qum ombori; 2 – qurutuvchi baraban; 3 – sement va qumli bunker; 4 – sement ombori; 5 – dozatorlar; 6 – tabranma tegirmon; 7 – aralashitrgich; 8 – sement-pushka; 9 – kompressorr; 10 – suv uchun bak; 11 – soplo.

Vertikal, armaturalashmagan sirtni torkret qilishda sopla sirtga perpendikulyar qilib to'g'rilanib ushlanadi, gorizontal sirtlarga esa vertikal holatdan bir muncha qiya qilinadi. Armaturalashtirilgan yuzalarni torkret qilishda perpendikulyar yo'nalishdan 15...20 $^{\circ}$ ga sopla qiya, 65...80 sm masofada ushlanadi. Yotqizilgan torkiret kamida 3...5 sutka nam holatda ushlanadi.

CHuqurligi va davomiyligi bo'yicha katta shikastlanishlarga ega, o'zgarib turuvchi sath zonasidagi ta'mirlashlar opalubka (beton qo'yish uchun qolip) va betononaslardan foydalanib bajariladi. Qayta ishlov berilgan shikastlanishlarga anker (tayanchlar) o'rnatiladi va ularga armaturalar mahkamlanadi. Metall yoki yog'och (taxtali) opalubkalardan foydalaniadi, ularga shtutser shaklidagi flansi bor patrubkalar qo'yiladi. Opalubka balandligi bo'ylab bir necha teshik ochiladi, ular betonlash paytida suv chiqib turishiga xizmat qiladi. Beton nasos yordamida alohida patrubka orqali uzatiladi, unga jo'mragi bilan quvur mahkamlanadi, 0,2...0,3 MPa bosim ostida betonli aralashma shikastlanishning pastki qismiga kelib tushadi. Uni teshiklardan chiqishi moboynida teshiklar yog'och tinqinlar bilan berkitilib boriladi. Ish suv sathi maksimal tushirilganda bajariladi.


Suv osti qismida beton diqqat bilan mog'orlanish, il, o'sish mahsulotlaridan tozalanadi, opalubkani suvgaga tushuvchilar o'rnatib berishadi.

Filtratsiyani bartaraf qilish yoki kamaytirishni talab qiladigan, betonning shikastlangan joylarini ta'mirlash uchun alyuminat natriy qo'shimchalari (Al_2O_3 , Na_2O) bor betondan foydalaniadi, u glinazem (alyuminiy oksidi) gideri va texnik o'yuvchi natriy aralashmasidan tashkil topadi. Preparatni zavodlar zichligi 1,34...1,44 t/m³ bo'lgan aralashma ko'rinishida tayyorlab chiqaridi. Alyuminat natriyli aralashmalar tez birikadi, yuqori suv iste'mol qiladi va suv bilan yuvilishga qarshi turg'unlik xossalariiga ega. Ular qatlamlashmaydi va o'zidan suvni ajratmaydi. Alyuminat natriyli qo'shimchalari bor beton, shuningdek beton konstruksiyalardagi nam (ho^l) illatlarni butlash, betonning ho'l sirti bo'ylab torkretlash yoki oddiy usulda bajariladigan suv o'tkazmaydigan suvoq qilish, bosim ostida yoriqlar va sh.o'.larni butlash uchun qo'llaniladi.

Kavitsiya yoki oqizindilar ta'sirida mexanik edirilgan sirtlar, ba'zida maxsus betonning har xil ko'rinishidan biri bo'lgan plastobeton yordamida ta'mirlanadi, unda sement o'miga sintetik smola ko'rinishidagi, ishqorli muhitda furfurolni atseton bilan kondsatsiyasi (birikishi) mahsuloti bo'lgan furfurolli-atsetonli monomerdan foydalaniadi. Uning qotish tezligi, tarkibiga qarab, bir necha o'n minutdan bir necha oygacha o'zgarishi mumkin. Plastobeton oddiy betonga nisbatan edirilishga taxminan 10 marta mustahkam. Uni qayta ishlov berilgan va quritilgan sirtga yotqiziladi, bu eski beton bilan eng ko'p ilashimlikni ta'minlaydi.

Betonning kavitsion shikastlanishlari ko'p holatlarda epoksid smolalar, epoksidli – kauchikli materiallar, polimerbetonlar, polimer aralashmalar, polimer elimilar, mastikali polimerli lok-bo'yoq qoplamlalar va sh.o'. bilan butaladi. Kavitsiyadan buzulgan vodosliv sirti ta'mirlashdan so'ng mustahkam, bir jinsli, silliq,

bo‘rtiklarsiz bo‘lishi kerak. Kavitsion eroziya natijasida hosil bo‘lgan kovaklar chuqurligiga qarab uch guruhga bo‘linadi: I chuqurligi 20 sm dan ko‘p, II – 5...20 sm, III guruh – 5 sm dan kam. I guruh kovaklari ta’mirlanayotganda diametri 25 mm li sterjenden qadami 25x25 sm li armatura to‘ri qo‘llaniladi. Ular maxsus o‘matilgan diametri 32 mm, qadami 50x50 sm li ankerlarga kavsharlanadi. II guruh kovaklarini ta’mirlash, diametri 20 mm, qadami 50x50 sm ankerlar qo‘llanilib, amalga oshiriladi, ularga diametri 10 mm va qadami 10x10 sm armatura sterjenlari kavsharlanadi. Chuqurligi 5 sm gacha bo‘lgan kovaklar ankerovka va armatura qilinmasdan butaladi.



13.12 – rasm. YAxlit beton inshootlarni ta’mirlash sxemasi:

a – qiya vodosliv qirrasi; b – vertikal qirradagi mahaliy shikastlanish; v – ustun; 1 – ta’mirlanadigan beton element; 2 – qo‘zg‘aluvchi telejka; 3 – lebedka; 4 – qo‘zg‘aluvchan bunker; 5 – blok; 6 – opalubka; 7 – armatura to‘ri; 8 – beton o’tkazg‘ich (olib boruvchi); 9 – buzulish konturi; 10 – ankerlar; 11 – torkretlash zonasi; 12 – soyabon; 13 – nakladka; 14 – qurib qoldirilgan burchaklar. O‘lchamlari, sm. da.

YAxlit beton inshootlarni ta’mirlashning Gidroproekt taklif qilgan sxemasi 13.12 - rasmida keltirilgan. Vodosliv sirtini ta’mirlashda lebedka 3 bilan jihozlangan qo‘g‘aluvchan telejka 2 dan foydalaniladi (13.12,a – rasm). Qurilish materiallari va

moslamalari kran yoki lebedka yordamida uzatiladi. Vertikal qirradagi mahalliy shikastlanishni ta'mirlash sxemasi 13.12,b – rasmda berildi. Opalubka eski betonga bruslar yordamida jips qilib qo'yiladi, bruslar qo'shimcha anker 10 ga mahkamlanadi.

Voljsk GES ustunlarini 10 dan 40 sm gacha chuqurlikda buzulishi, sathni o'zgaruvchi zonasida (balandligi 9 m) betonlashtirilgan, kichikroq shikastlanishlari torkret bilan butalgan. Ustun atrofida egri chiziqli, qalinligi 8...10 mm li metall opalubka o'rnatilgan, uni (pastki qismida) mavjud metall qoplama pastdan kavsharlab qo'yilgan, paz (iz)lar tomonidan esa qurib qoldirilgan burchak (ugolok) larga kavsharlangan (13.12,v – rasm). Qo'shimcha, opalubka chuqurligi 30 sm li maxsus burg'ulangan shpurlarga o'rnatilgan, diametri 28 mm li, qadami 60x60 sm li ankerlarga kavsharlangan. SHpurlar gorizontal yuzaga nisbatan 30° burchak ostida burg'ulangan, ankerlar ularga o'rnatilgandan so'ng, bir uchi qiyshaytirilib gorizontal holatga keltirib qo'yilgan. Opalubkani yuqori qismida betonlashtirishga qulay bo'lsin uchun soyabon biriktirilgan. Betonlash uchun mayda shag'al toshli to'ldiruvchi (o'lchami 5...20 mm) bilan V 22,5, W8, F 300 betonlardan foydalanilgan. Kerak bo'lganligi uchun ta'mirlashdan so'ng metall qoplama o'z joyida qoldirilgan.

13.5. SHponka, chok, yoriqlardan suvni oqib chiqishini bartaraf qilish va betonning suv o'tkazmaslik qobiliyati hamda mustahkamligini qayta tiklash

O'lchami $0,15 \times 0,15$ dan 1×1 m gacha bo'lgan asfaltli shponka (bir biriga mustahkamlaydigan detal) lar beton to'g'onlar va boshqa yaxlit beton inshootlar qurilishida, ular bo'shliqlari qurilish qo'qimi, sementli aralashmalar g'urralaridan qiyin tozalanishi, montaj paytida isitish tizimi elektrodlarini tutashtirilishi va uning past oquvchanligi orqasida to'ldiruvchidan foydalanishiga qaramasdan keng qo'llaniladi. Temir-beton koritasini chok bo'shligiga sisfatsiz jipslashuvi shponkani aylanib o'tadigan, masalan harorat-cho'kish choklari orqali filtratsiyani keltirib chiqaradi. SHponkalarni ta'mirlash qiyin kechadi. SHponkalar orqali filtratsiyani bartaraf qilishning eng samarali va nisbatan oddiy usuli, ularning asfaltli materiallarini elektr toki bilan qizdirish hisoblanadi. Bu usulda Ust-Kamenogorsk, Nijnekamskiy, Koxovskiy, Dneprovskiy va boshqa GESda foydalanilgan. Asfalt shponkalarni, misol uchun par, qaynoq havo yordamida qizdirish usuli har doim ham ijobjiy natija bermagan (Dneprovskiy to'g'oni).

Stansionar qizdirish tizimi ishlamay qolgan holatda, asfalt shponkalarda uning butun chuqurligi bo'ylab skvajinalar burg'ulanadi. Har bir skvajinaga yangi elektrli kizdirg'ich o'rnatiladi, u ichida izolyatorli sterjeni bor quvurdan iborat bo'ladi. Undan

keyin shponka qizdiriladi va yangi issiq mastika quyiladi. Qish paytida, shponkaning yuqori qismini halqali koronka bilan namuna olib burg‘ulash mumkin. Burg‘ulash sarfi 18 m³/soat dan kam bo‘lmasan suv bilan faol yuvib, uzunligi bo‘yicha diametri 159 dan 76 mm gacha o‘zgaradigan uch sharoshkali doloto bilan amalga oshiriladi. Bu mastikani burg‘ulovchi instrumentga yopishib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi va qurvur ichi bo‘shlig‘ida tiqin hosil bo‘lishini oldini oladi. Bunda shponka uzunligi bo‘ylab uning kichik kengligi va katta chuqurligini hisobga olib, skvajina holatining yuqori aniqligi ta’minlanadi.

Diametri 40...60 mm elektr qizdirgichlarni, uzunligi 3...5 m li, skvajinada yig‘ish jarayonida joyida, uni butunligicha yig‘ish imkoniyatini beradigan rezbali tutashmalar bilan tayyorlanadi (14.13 - rasm). Bunda issiqqa chidamli material (oynattekstolit, asbosifer, keramika) dan qilinligi 40 mm shayba shaklida tayyorlangan izolyatorlar hamda qurvur ichki diametri orasidagi oraliq (3...4 mm) ga rioya qilinadi. Elektr qizdirgichning katta (10...40 m va undan ko‘p) uzunligida va harorat 180 dan 200° S gacha o‘zgarganda sterjen bir necha o‘n santimetrga cho‘ziladi, shuning uchun ham uni elektr qizdirgich ichida bemolol kengayishiga etarli bo‘shliq bo‘lishi kerak. Ayrim holatlarda, qachonki elektr qizdirgich o‘zining xususiy og‘irligi ostida pastga tushirilmasa, uni domkrat yordamida oxirigacha siqiladi. Ammo uni turg‘unligini yo‘qotmaslik uchun bu operatsiya juda ehtiyyotlik bilan amalga oshirilishi kerak. SHponkani qizdirish vaqtin tashqi havoning haroratiga bog‘liq ravishda 2...4 sutkani tashkil qiladi. Ish sikli mastikani oxirigacha qo‘yish - qizdirish - oxirigacha qo‘yish bir necha marta qaytariladi.

Elektr isitish yordami bilan asfaltli mastikali shponkani qayta tiklash va uni siqilgan havo bilan zinchlash 13.14 - rasmida ko‘rsatilgan.


SHponka ustiga zinch qilib metall ogolovka montaj qilinadi, u beton massivga 0,8...1 m chuqurlikda ankerovka qilib tashlanadi. Bitumli mastikada skvajina burg‘ulanadi, unga montaj jarayonida yig‘iladigan elektr isitgich o‘rnataladi. Mastika suyuq holatga kelguncha isitiladi. Undan keyin metall ogolovkadagi shtutser orqali siqilgan havo bo‘shliqni to‘ldirib, asfaltli mastika ostiga yuboriladi. Kerakligiga qarab mastika qo‘yib boriladi. Bayon qilingan usul Ust-Kamengorsk GESida qo‘llanilgan. Kuchli ifloslanish sababli shponkani qayta tiklashni iloji bo‘lmasa, unda sal boshqa joyda skvajina burg‘ulanadi, u elektrodlar bilan jihozlanadi va bitumli mastika qo‘yiladi. Qator holatlarda yangi shponka ostidagi kuzatish qudug‘idan foydalaniladi.

Deformatsiya yoki deformatsion - cho‘kish choklari buzulganda, uning zinchlagichlari orqali yuqori filtratsiya kuzatiladi. Undan tashqari suv chokka tushib, manfiy harorat paytida muzga aylanadi. Bunda mahalliy kuchlanish oshib ketadi, u

betonni buzushi mumkin. SHuning uchun choklarni o‘z vaqtida, asosan ikki usuldan birini qo‘llab ta’mirlash talab qilinadi, ular: chokga germetizatsiya qiladigan materialni in’eksiya qilish, chokni elimlovchi material bilan germetizatsiya qilishdan iborat. Ko‘p holatlarda kombinatsiya qilingan usul qo‘llaniladi.

SHikastlangan chokni ta’mirlash quyidagicha amalga oshiriladi. Undan buzulgan zichlash vositalari (sementli yoki bitumli to‘ldiruvchi, mastika, chirigan taxta va sh.o‘.), kichik to‘ldiruvchilar, chang va loy tozalab olib tashlanadi. Lozim bo‘lsa chok bo‘laklab ochiladi. Undan keyin germetizatsiya qiluvchi material bilan betonni birikib ketishiga halaqit qiladigan yog‘li, bitumli yoki boshqa materiallar olib tashlanadi. CHokga yangi, smola surtilgan taxta o‘rnataladi va ustidan bitumli mastika quyiladi. Uning ustidan sementli aralashma bilan yaxlitlanadi (monolit qilinadi). Bu operatsiyalar uchun pnevmatik yoki elektrik instrumentlardan: otboyka bolg‘asi, qum struykali apparatlar, kompressorlar, shunigdek qo‘l bilan ishlatiladigan moslamalar: po‘latli yoki soch tolali metkalar, zubilo (temir kesish, tosh tarashlash va sh.k. ishlatiladigan iskinasimon asbob) lar, lomlar va boshqalardan foydalaniлади. Yangi smola langan taxtani chokka o‘rnatish va uni butlash bolg‘alar, kuvalda (og‘ir bolg‘a) lar, lomlar va boshqa moslamalar yordamida amalga oshiriladi. Undan keyin to‘shamani ochiq yuzasiga biriktiruvchi tarkib surtiladi va mastika chokga pnevmatik yoki qo‘l bilan ishlaydigan shpritslar, shpatel bilan in’eksiya qilinadi. In’eksiya qilinadigan material sifatida tiokol va boshqa mastikalardan keng foydalaniлади.


Ko‘p holatlarda ta’mirlash uchun tozalangan va tayyorlangan chokga maxsus rolik bilan surtib yoki metall lopatkalarini qo‘llab gernitli, proizolli to‘shamalar, smola shimidirilgan qop-qanor tijiladigan mato yoki kigiz kiritib o‘rnataladi. Mastika tekislangandan so‘ng germetik yuzasi sementli aralashma yoki alyumin bo‘yog‘i bilan quyosh radiatsiyasidan himoya qilinadi. Suv o‘tkazmaydigan choklarni deformatsiyalanishi va betonga birikish xossalari ta’minlanadi.



13.13 - rasm. Elektr qizdirgich sxemasi:
 1 - elektr kabeli; 2 - diametri 20 mm li sterjen; 3 - izolyasiya qiladigan tepe vtulka; 4 - tayanch; 5 - qizdirgich osgichi; 6 - diametri 60 mm li tashqi quruv; 7 - izolyator shaybasini mustahkamlash uchun mugtali eritib kavsharlangan bo'rtma; 8 - mufta; 9 - izolyator shaybalari; 10 - kavsharlanma; 11 - nakonechnik. O'lchamlari m. da.

13.14 - rasm. Elektr isitish yordamida asfaltli mastika bilan shponkani qayta tiklash va uni siqilgan havo bilan zichlash: 1 - siqilgan havo bilan shponkani zichlash uchun ogolovka (og'iz); 2 - elektr isitgich; 3 - anker; 4 - shponka; 5 - beton. O'lchamlari mm. da.

Elimlanadigan turdag'i armogermetiklar yordamida choklarni germetizatsiya qilish, germetikni betonga biriktirish va uni yuqori deformatsiyalanish xususiyati hisobiga amalga oshiriladi. Armogermetik sifatida, misol uchun ustiga tiakol mastika surtilgan oyna xolost (kanafli material)dan kesilgan tasmalar ishlataladi. Deformatsiya choklari va gidrotexnika inshootlari beton elementlaridagi ko'zg'aluvchan yoriqlarni Gidropunkt jamlagan ta'mirlash sxemasi 13.15 - rasmda keltiriladi.



13.15 - rasm. Beton inshootlar deformatsiya choklari va yoriqlarini ta'mirlash: a - betonni yuzasi quruq bo'lganda qo'zg'aluvchan yoriqni himoya qoplamasи; b - xuddi shunday, chok bo'laklab ochilmaganda; 1 - yoriq; 2 - yoriqni bo'laklab ochish chegarasi; 3 - bitumli gruntovka; 4 - bitumli himoya qoplama; 5 - ujeben; 6 va 8 - tarkibi mos ravishda 1:1 va 2:5 bo'lgan sementli aralashma; 7 - yog'och yoki egiluvchan to'shma (prokladka); 9 - mastika; 10 - misli plastinka; 11 - mastikali tig'in. O'chamlari m. da.

Kengligi 1...1,5 sm yoriq chuqurligi 8...10 sm, kengligi 10...12 sm qilib kengaytirib va chuqurlashtirib bo'laklab ochiladi. Zaboy (kovlangan) qismi bitumli gruntovka bilan qayta ishlov beriladi va qalinligi 2 sm qatlama-qatlama qilib bitumli qoplama yotqiziladi. Bunda bitumli qoplamaning oxirgi qatlami ustiga fraksiyasi 5...10 mm gacha bo'lgan ujeben sepiladi (13.15, a - rasm). Bo'laklab ochilgan shaklning qolgan qismiga 1:1 sementli aralashma surtiladi, undan so'ng u odatdag'i sementli aralashma bilan to'ldiriladi va yoriq yo'nalishiga teskari kesimni yumshatish uchun yog'och yoki elastik prokladka o'rnatiladi. Ochilgan armaturaga bitumli mastika bilan yaxshi ishlov beriladi (surtiladi).

Kattaroq yoriqlar (1,5...5 sm) 13.15,b - rasmida ko'rsatilgandek ta'mirlanadi. Choklar qirralari yumoloqlanadi, yoriq bo'ylab tashqi qirrasi 10...15 sm undan uzoqlikda, chuqurligi 5 sm li kanavka (kanalcha) o'yiladi. Keyin yoriqlar mastikali tig'in bilan yopiladi, undan keyin mis materialli kompensatsion plastinka qo'yilib qotiriladi, ularning oxirlari kanavkaga kiritiladi, ustidan sementli aralashma to'ldiriladi. Plastinka ichi bo'shilg'i ham germetizatsiya qiladigan mastika bilan to'ldiriladi.

Choklar zichlagichlari va yoriqlarni ta'mirlashning boshqa usullari ham mavjud. Volgograd GESi shlyuzini harorat - cho'kish choki, kengligi 40 sm atro-

fida metall list bilan yopilgan, anker boltlariga rezinali prokladkani biriktirish yo‘li bilan ta’mirlangan, prokladka va beton sirti orasiga esa asfaltli mastika quyilgan. YUqori Svir GESi shlyuzida 45° atrofida burchak ostida burg‘ulangan skvajina orqali mastika bosim ostida shponkaga kiritilgan, bunda chokning yuza tomoni yuqoridagi variantda bayon qilingandek monolit qilingan.

Katta maydonli va hajmli yaxlit betonni suv o’tkazmasligi va mustahkamligini qayta tiklash quyidagi in’eksiya (sementlash, smolalash, silikatlash, sintetik latekslar yuborish va boshqa), gidroizolyasiya (issiq va sovuq mastika, plenka, polimer materiallar bilan) va kombinatsiyalashgan usullar bilan bajariladi.

Betonni in’eksiya qilishda, Gidropunkt ma’lumotlari bo‘yicha, qabul qilin-gan skvajinalarni joylashtirish sxemasi 13.16 – rasmda keltirilgan.


Yoriqlar va choklarni zichlashda muayyan sharoitdan kelib chiqib skvajinalarni bir yoki ikki tomonlama sxemasi qo’llaniladi (13.16,b – rasm). Odatda afzallik ikki tomonli sxemaga beriladi. Skvajina chuqurligi, beton qalinligi 2 m bo‘lganda birinchi va ikkinchi navbatlar uchun mos ravishda 1 va 0,5 m (betonni kam qalinligida u kamayadi) qabul qilinadi.

Skvajinalar sirt tekisligiga nisbatan 45 yoki 60° burchak ostida joylashtiriladi. Ularning diametrлari 32...52 mm va undan ko‘p qabul qilinadi. Ular orasi bir tomonlama sxema bo‘yicha 1 m, ikki tomonlama sxema bo‘yicha 2 m qilib belgilanadi. Betonni uzuksiz in’eksiysi qaerda alohida yoriqni ajratishni iloji bo‘lmagan uchastkalarda bajariladi. Bu holatda skvajina chuqurligi 0,5...5 m oralilig‘ida qabul qilinadi va ular shaxmat tartibida joylashtiriladi. Skvajinalar kolonkali yoki pnevmozarbali stanoklar bilan burg‘ulanadi. YAxlit betonda suvning markazlashgan chiqish joylari mavjud bo‘lganda skvajinalar ular atrofida guruh qilib 0,25...1 m masofada joylashtirildi.

Agar beton nafaqt – yoriqlar, balki kovaklarga ham ega bo‘lsa, ularni zichlash uchun qo‘srimcha siqib turadigan plitalardan foydalaniлади.

In’eksiya qilish usullarini qo’llash sohasi va ular uchun materiallar muayyan sharoitdan kelib chiqib tanlanadi. 0,2 mm dan ko‘p ochilgan va solishtirma suv yutuvchanligi $0,05 \text{ l}/(\text{min} \cdot \text{m}^2)$ dan ko‘p choc va yoriqlar sementning har xil 300...600 markalaridan foydalaniб sementlash yordamida germitizatsiya qilinadi. Smolalash karbamid smolasи (ba’zida qo’shiluvchilar bilan) va shovul (okislat) kislotasidan tashkil topgan gel shakilli aralashmalarni betonga bosim ostida yuborish hisoblanadi. SHavel kislotosi beton va metallga nisbatan inertlikka ega. Aralashma betonning nam sirtiga yuqori adgeziyasi bilan xarakterlanadi. Smolalash betonning musbat haroratida, mustaqil usul sifatida, betonni solishtirma suv yutuvchanligi $0,1 \text{ l}/(\text{min} \cdot \text{m}^2)$ bo‘lganda, shuningdek qo‘srimcha usul sifatida sementatsiya qilingandan so‘ng o’tkaziladi. Ishlatish davrida davriy ochilish va qis-qarish ta’siri ostida bo‘lgan deformatsion choklarni zichlash uchun smolalash smo-

la asosida taylorlangan, lateks bilan modifikatsiya qilingan (smola, ўavel kislotasi, sintetik lateks) aralashmlari qo'llanilib bajariladi. Smolalash uchun rezina yoki asbest kroshkalari va boshqa komponentlar ham mavjud.



uchun skvajinalar; 3 – kuzatish galereyasini zichlash uchun skvajinalar; 4 – I navbat skvajinalari; 5 – II navbat skvajinalari; 6 – filtratsiya qiladigan chok yoki yoriq; 7 – III navbat skvajinalari. O'lchamlari m. da.

Sintetik latekslardan, alohida, kam (sokin) filtratsiya qiluvchi etarli mustahkamlikka ega betonlarni zichlashda foydalaniлади.

Silikatlash (suyuq shishani bosim ostida yuborish) solishtirma suv yutuvchanligi $0,01 \text{ l}/(\text{min} \cdot \text{m}^2)$ dan kam betonlarni zichlash uchun, qachonki betonda halil sementni gidrolizi va gidrotatsiya jarayoni tugamagan (3 yilgacha) da qo'llaniladi. Undan ham mustaqil usul sifatida va sementlashdan so'ng qo'shimcha usul sifatida qo'llaniladi. Bu maqsad uchun toza natriy silikati, ham uning aralashmalaridan foydalaniлади. Qator holatlarda, silikatlashlarda ikki komponent aralashmalaridan foydalaniлади: natriy silikati va qotiruvchi sifatida xizmat qiladigan ўavel kislotasi. Silikatlashning bunday ko'rinishi ikki aralashmali deb nomlanadi va u betonning har qanday yoshida solishtirma suv yutuvchanligi $0,01 \text{ l}/(\text{min} \cdot \text{m}^2)$ dan kam bo'lganda qo'llaniladi.

Qaynoq asfaltli gidroizolyasiya filtratsiya qiladigan naporli, vertikal sirtga yaqin sirtlarni ta'mirlashda qo'llaniladi. Bunda sirt quruq, yoriqlarni eng ko'п

13.16 – rasm.

In'eksiya usuli bilan betonni zichlash uchun skvajinalarni joylashtirish sxemasi:

a – gravitatsion to'g'on profilida; b – suv sizib o'tayotgan yoriq va choklarni zichlashda; v – beton sirtini uzlusiz in'eksiya qilishda; g – filtratsiyani nuqtali manbasini bartaraф qilishda; 1 – naporli qism betonini zichlash uchun skvajinalar; 2 – pastki qismi betonini zichlash

ochilishi 0,2 mm ko‘p bo‘limgan bo‘lishi kerak. Gidroizolyasiyadan oldin sirt tekislanadi, tozalanadi, ustida o‘yiqchalar hosil qilinadi va erigan bitum bilan gruntovka qilinadi. Gidroizolyasiya bir necha (kamida 3 marta) qatlam qilib surtiladi. Asfaltli aralashma bir qatlamining qalinligi 4...7 mm, asfaltli mastikaniki – 2...5 mm ni tashkil qiladi. Keyingi qatlam oldingi qatlam +5...20°S gachasovugandan so‘ng surtiladi. YUqori mexanik mustahkamlik shartiga muvofiq asfaltli mastikaga nisbatan asfaltli aralashma mustahkamroq hisoblanadi. Asfaltli aralashmada 40..45% (massasi bo‘yicha) qum bor, asfaltli mastikada esa u yo‘q. Asfaltli mastika bitum va poroshok shaklli tolali to‘ldiruvchidan tashkil topgan. Havoning manfiy haroratida gidroizolyasiyadan oldin beton sirti isitilishi zarur.

Sovuq gidroizolyasiya asosan sezilarini harorat o‘zgarishiga ega bo‘limgan yopiq inshootlar uchun qo‘llaniladi. YOriqlar hosil bo‘lishiga mustahkamligini oshirish uchun u qop-qanor materiali yoki oynato‘rlar bilan armatura qilinadi.

SHunigdek gidroizolyasiyaning boshqa ko‘rinishlari, shu jumladan torkret bilan himoya qilinadigan plenkali gidroizolyasiya ham qo‘llaniladi. Bunda ish quyidagicha amalga oshiriladi: sirt tozalanadi va tekislanadi, undan so‘ng qadami 1...2,5 m qilib ankerlar o‘matiladi; ular o‘rnatilgan joylarga qalinligi 0,2 mm bo‘lgan poetilen plenkalar eliminandi, turg‘un o‘tirtiriladi, shuningdek butun sirtga bitum bilan ikki qavat (qatlam) plenka yopishtiriladi; undan so‘ng sirtga qalinligi 3 mm li bitum qatlami surtiladi. Bitum harorati +120° S dan ko‘p bo‘lmasligi lozim. Ankerlarga metall to‘r osiladi. To‘r bo‘ylab qalinligi 3 sm li torkret qilinadi. Muhim mas’uliyatli binolar va keskin iqlim sharoitda, gidroizolyasiya uchun epoksidli kauchukli emallar va boshqa maxsus tarkiblardan foydalaniladi.

13.6. Gidrotexnika inshooti pastki befida ta’mirlash ishlarini olib borish

Suv tashlovchi gidrotexnika inshootlarini ishlatalish tajribasi qo‘proq pastki beflar buzulayotganligini ko‘rsatmoqda. Buzulish sababini to‘g‘ri aniqlash ta’mirlash ishlarining asoslangan loyihasini tuzish imkoniyatini beradi. Pastki beflar qurilmalarini buzulishlarining asosiy sabablariga: yuqori gidrodinamik yuklamlar; noto‘g‘ri ishlatalish (zatvorlarni manyovrlash); suv urilmaga tushib, uzoq vaqt hovuzda aylanib, urilib turadigan, beton massivlar elementlari, qoya toshlaridan o‘pirilib tushgan va boshqa yirik o‘lchamli bo‘laklar; konstruksiyaning nomukammalligi; inshootni qurilishi tugallanmasdan ishga tushirish; ko‘zda tutilmagan jarayonlar va sh.o‘. kiradi. Ular zamirida, beflarni tutashtirilishida, pastki befida hosil bo‘ladigan gidravlik sakrashlarning har xil turlari yotadi.

Ma’lumki, gidravlik sakrashning ikkinchi tutashgan (h_c) chuqurligi - pastki befdagi o‘zanning odatiy chuqurligi (h_b) ga tang bo‘lganda *mukammal gidravlik sakrash* hosil bo‘ladi, bu holatda gidravlik sakrash shovvadan chiqish joyida hosil

bo'lib, notekis taqsimlangan gidrodinamik yuklama vujudga kelmaydi va pastki bejni yuvilishi (buzulishi) juda kam uchraydi. Ikkinci tutashgan chuqurlik (h_c) pastki befdagi o'zanning odatdag'i chuqurligi (h_b) dan kichik bo'lsa $ko'milgan gidravlik sakrash$ hosil bo'ladi va uni yuza qismida, shovvadan chiqish joyida, suv urilmada, ikki chetida oqimga teskari yo'nalgan simmetrik uyurum zonalari vujudga keladi, bu ayniqsa suv urilma shovvadan keyin birdan kengaysa ko'p uchraydi, u suv urilmani yon qiyaliklarini yuvilishi (buzulishini) keltirib chiqarishi mumkin. Gidravlik sakrashning ikkinchi chuqurligi o'zanni odatiy chuqurligidan ko'p bo'lsa, ya'ni $h_c > h_b$, bo'lsa, gidravlik sakrash ikkinchi chuqurligi kesimidagi solishtirma to'la energiya, o'zandagi energiyadan ko'p bo'lib, gidravlik sakrashni ℓ kochirilgan masofadan keyin, energiyalar tenglashgan zonada hosil bo'lishiga majbur qiladi, bunday gidravlik sakrashga *qochirilgan gidravlik sakrash* deyiladi. Gidravlik sakrashning bunday turi ko'p holatlarda inshoot o'tkazayotgan suv sarfi hisobiy eng ko'p suv sarfidan oshib ketganda uchraydi. Bunda ko'proq suv urilmaning tubi buzuladi.

Eng ko'p sarfda qochirilgan gidravlik sakrash hosil bo'lishi va natijada suv urilma buzulishiga misol qilib, chap qirg'oq Korasuv kanalining 9+20 piketidagi suv taqsimlash inshootini keltirish mumkin (13.17 – rasm). Suv taqsimlash inshooti eng ko'p 200 m³/s suv sarfiga hisoblangan, uning yuqori befidan chap tomonga Handam kanaliga (31 m³/s), o'ng tomonida Toshto'g'izoz kanaliga (2 m³/s) suv olinadi. Qorasuv daryosiga tashlamaning kanalda suv to'xtatilgan paytdagi pastki befi ko'rinishi (10.01.2007 y. holatiga) 13.17 - rasmida keltirildi. Rasmdan pastki befga o'rnatilgan pirslar (1) ning bir donasi suv oqimi bilan urib tushilgan va inshootdan 8...12 m masofada yuvilish daganagi hosil bo'lganligi ko'rrib turibdi. YUvilish daganagining boshlanishi (2) qochirilgan gidravlik sakrashning boshlanishiga to'g'ri keladi. Bu inshootda, pastki befdi yuvilish avval ham bir necha marta vujudga kelgan, yuvilish daganagi fundament bloklari (3) terib ta'mirlangan. Ammo buzulish haliyam davom etmoqda. Bundan tashqari, bu inshoot yuqori bevida, eng ko'p suv sarfi hisobiy sarfdan oshib ketganligi sababli napor oshib ketgan, u drenaj quduqlarini ham buzulishiga olib kelgan, drenaj quduqlaridan teskari filtr materiallari ham chiqib ketgan.

Xuddi shunday noto'g'ri ishlatish oqibatida buzulishga yana bir misol, u zatvorlarni noto'g'ri manyovrlashdagi buzulish kabi, to'suvchi inshoot oraliqlarining, yuqori befdi suv sathini ko'tarish , shuning bilan Bo'zsuv nasos stansiyasi suv olib keluvchi kanaliga suv berishni yaxshilash maqsadida vodoslivlari o'rakchiga har xil qalinlikdagi beton plitalarni qo'yish oqibatida vujudga kelgan (13.18 - rasm). Bu inshoot pastki bevida hosil bo'lgan qiyshiq gidravlik sakrash chegarasi 13.18 - rasmida ko'rsatildi. Bunda hosil bo'lgan qiyshiq gidravlik sakrash pastki bef

shovvasi oxiridan chap tomonga qanchalik yuvib kirganligini baholash o'quvchining o'ziga havola.

Ta'mirlash ishlari loyihasini tuzishda ta'mirlash davridagi suv sarfini qanday qilib va qanday usullar bilan (boshqa suv o'tkazuvchi inshootlar yoki suv tashigich (vodovod), aylanma kanal va sh.o'. ko'rinishida vaqtinchalik maxsus inshootlar qurib) o'tkazishga muhim ahamiyat beriladi.


Ta'mirlash ishlarini olib borish usullari va davrlari muayyan sharoit va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib aniqlanadi. Faqat toshqin paytida ishlaydigan gidrotexnika inshootlari, ishlamaydigan davrda, qachonki pastki bef suvdan holi bo'lganda ta'mirlanadi. Har doim suv ostida bo'ladigan inshootlar elementlari quyidagi usullar bilan ta'mirlanadi: suzuvchi vositalar ustidan turib suv ostida bet-onlash; zichlab betonlash; betonni qoplarga solib yotqizish; badya yordamida beton yotqizish; sortirovka (saralangan) qilingan tosh yoki tog' jinslarini to'kish; qurilish konstruksiyalari, suv qochirilib (vodootliv) suv to'seich (peremyschka) lar bilan o'rab beton yoki tosh yoqizish; in'eksiya qilish; kombinatsiyalashgan usulda va sh.o'.

Hozirgi vaqtida suv ostida betonlash ko'p qo'llanilmoqda. Uning asosini bet-on aralashmasi, sement aralashmasi yoki sement hamirini suv ostida, qachonki ular sezilarli o'zgarishlarga chidamsiz bo'lganda, berilishini ta'minlash tashkil qiladi. Suv ostida yotqizaladigan betonning mustahkamligini loyiha bo'yicha inshootlarga tayinlangan mustahkamlikdan 10-20% ga ko'p tayinlanadi. Bunda, ko'p holatda, plastik qiluvchi va havo qo'shilishini ta'minlaydigan qo'shimchalardan foydalniladi. Beton, suv ostiga tushuvchilar brigadasi o'rnatadigan va so'ng echib oladigan opalubka yotqiziladi.

Suv ostida betonlash, qoidasi quvurni vertikal siljitim yoki ko'tarilib chiquvchi aralashma usulida amalga oshiriladi.



13.17 - rasm. CHap qirg'oq Qorasuv kanali 9+20 piketidagi suv taqsimlash in-shootining Qorasuv daryosiga suv tashlamasi pastki befini ko'rinishi: 1 - pirslar; 2 - yuvilish daganagi; 3 - fundament bloklari.




Kuvurni vertikal siljitim usulida betonlash (13.19 - rasm) chuqurlik 1...50 m va yotqiziladigan qatlam qalinligi 1 m dan kam bo'lgagan holatlarda olib boriladi. Beton aralashmasi betonlashtiriladigan blokga suv qalinligi ostiga quvur bo'yicha uzluksiz yuboriladi. Betonlashning to'liq vaqtি ichida beton aralashmasiga suvni minimal tushishi, chuqurlik 10 m gacha bo'lganda 0,8 m, chuqurlik 10...20 m bo'lganda 1,2 m, chuqurlik 20 m dan ko'p bo'lganda 1,5 m bo'lishi kerak. Blokdagi beton aralashmasining sathi ko'tarilib borilishi bilan quvur ham ko'tarilib boriladi. Uning diametri 200...300 mm qabul qilinadi. Betonlashtirish oldidan bun-

13.18 - rasm. Qiyshiq gidravlik sakrash oqibatida inshoot pastki befini yuvilishi.

ker klapan (tiqin) yopib qo'yilib to'ldiriladi. Undan so'ng tiqinni ushlab turgan arqon uziladi (kesiladi) yoki klapan tortib yuboriladi, bu quvur beton bilan tekis (havoli tiqinsiz) to'lishi uchun qilinadi, sekin-sekin suv siqib chiqariladi. Betonning qattiq aralashmasi quvur bo'ylab yaxshi siljishi uchun, unga tebratma (vibrator) mustahkamlanadi, bu holda quvurni eng kam suvgaga cho'kishini (tushishini) 30...35% kamaytirish mumkin bo'ladi.

Ko'tarilib chiquvchi aralashma usulini ikki bosqichda, alohida betonlashga o'xshatishadi: yirik to'ldiruvchi (tosh, şebe) yotqizish va armatura to'ri bilan chegaralangan, maxsus shaxtaga bir biridan 2...2,5 m masofaga o'rnatilgan, diametri 50...200 mm li quvur bo'ylab sementli aralashmani yuborish (15.19, b - rasm). Quvurdan chiqadigan aralashma suvni siqib chiqaradi va tepaga ko'tariladi. Unchalik baland bo'Imagan (2 m gacha) bloklarda, ba'zida qo'zg'almas quvurlar qo'llaniladi, so'ng inshootda qoldiriladi. Baland bloklarda quvurlar shunday ko'tariladiki, bunda ularning aralashmaga kirib turishi kamida 0,8 m bo'lishi lozim. Betonlash chuqurligi 20 m gacha bo'lganda, to'ldiruvchi sifatida yirik toshdan, katta chuqurliklarda (50 m gacha) esa - şebenden foydalaniлади. Bu usul inshootning suv osti qismining mustahkamligi 10...15 MPa bo'lganda qo'llaniladi.



13.19 - rasm. Suv ostida betonlash sxemasi: a va b - quvurni vertikal siljitish va ko'tarilib chiquvchi aralashma usullari bilan; 1 - bunker; 2 - quvur; 3 - suv; 4 - opalubka; 5 - beton; 6 - armatura to'ri bilan chegaralangan (ajratib qo'yilgan) shaxta; 7 - tosh yoki şebe; 8 - aralashma bilan to'ldirilgan joy.

Zichlash usuli kam amalgalarga oshiriladi, faqat qiyaliklarni 1,5 m gacha chuqurlikda armaturasiz betonlashtirishda qo'llaniladi. Betonlashtirilayotgan blok qiyaligidan 25...30 sm masofada qattiq beton to'qiladi, u avval yotqizilgan, ammohali ilashmagan beton ustiga zichlanadi. SHunday qilib, betonlashtiriladigan blok qiyaligi qirg'oqdan, avval o'rnatilgan opalubkaga qarab surib boriladi.

Betonni qoplarga solib yotqizish usuli avariya holatlarida, suv osti inshootlari qurish va yirik o'yilarni butlashda qo'llaniladi. Ish odatda suv ostiga tushuvchilar tomonidan qo'l kuchi bilan bajariladi. Suv o'tkazadigan, mustahkam materialdan tikilgan hajmi 20...30 l li qoplar 2/3 qismiga aralashma bilan to'ldiriladi va yotqiziladigan joyiga transportda olib kelinadi. Suv ostiga tushuvchilar ularni chocklarini bog'lab yotqizishadi. Koplarni zichlab yotqizilishini ta'minlash uchun unchalik katta hajmga ega bo'Imagan (2...7 l) beton sig'adigan soni unchalik ko'p bo'Imagan qoplar ham tayyorlab qo'yiladi. Aralash-

qatorlarini o'zaro birikishini hosil qilish maqsadida yotqizilgan qoplar diametri 10...12 mm li o'tkir metall shtyrlar bilan tикиб qо'yiladi.

Badya yordamida beton yotqizish usuli zich, qattiq gruntlarda joylashgan gidrotexnika inshootlaring tushiriladigan quduqlari, kolonna qobiqlari, fundament plitalarini qurishda foydalilanildi. Beton qorishma betonlashtirish bloklariga, suzuvchi vositalar yoki qirg'oqdan turib kran yordamida sig'imi 0,1...0,4 m³ li badyalarda uzatiladi. Badyalar oldin yotqizilgan betonga iloji boricha 5...10 sm chuqurlikka kiritiladi. Bu usulning kamchiligi - beton qatlamlashib qolishi mumkinligidir.

Quyida Rybinsk suv omboriga quyiladigan SHeksna daryosining SHeksna gidrouzelidagi suv o'tkazuvchi inshootning pastki befini suv ostida betonlashdagi ta'mirlash ishlarining ketma-ketligi bayon qilinadi. Ishlatishning dastlabki yillarida, texnik sabablarga ko'ra GES ning yuza suv tashlamasi orqali suv tashlangan, bunda ko'proq gidroagregatlari hali montaj qilinmagan, o'ng suv tashlamadan foydalanilgan. Pastki befdagi suv sathi past bo'lgandagi, toshqindan oldingi suv tashlash suv urilma va risbermani shikastlanishiga olib kelgan. Ta'mirlash 10 m chuqurlikda olib borilgan. Buzulgan beton sirtini har birining maydoni 30 m² bo'lgan bloklarga ajratilgan. Bunda choklar drenaj teshiklari bilan birga qilib barilgan. Qo'qim va oqizindidan tozalangan blok sirtiga kengaytiriladigan oyoqdagi gorizontal ramadan tashkil topgan metall shablon (shakl) lar joylashtirilgan.


SHablonlar suvda suzuvchi kran yordamida tushirilgan va tushirilishi maxsus reyka yordamida tekshirilib, aniqlik kiritib borilgan. SHablon perimetri bo'ylab suvga tushuvchilar qattiq beton qorishmasi (V 15) bor qoplardan devor terishgan, drenaj teshiklarining joylariga metall qurvular o'rnatishgan. SHunday shaklda hosil qilingan blok yirikligi 40...70 mm va g'ovvakligi 40...45% bo'lgan, yuvilgan ёбен bilan to'ldirilgan. To'ldirilgan blok yaqinda yotgan qalinligi 0,25 m, burchak (ugolok) lar o'ralgan temir-betonli plitalar bilan yopilgan. Plitalar diametri 63 mm li in'eksiya quvurini o'rnatish uchun teshiklar qilingan. pastki tomonidan (2x4 sm) tirkishli kesilgan joyi bo'lgan quvurlar oxiri o'tkirlashtirilgan. quvurlar egiluvchan shlanglar yordamida suv sirtidan baland qilib qo'yilgan. Plitalar pastki qismida armaturalar chiqarib qo'yilgan, plita ёбенга qo'yilganda armaturalar bilan kirib bosib turgan. Plitalar orasidagi choklar yuvilgan ёбен bilan plita tepasigacha to'ldirilgan va blokga sementli hamir qo'yilgandan so'ng listli metalldan bo'lgan tasma bilan yopilgan, o'z navbatida ular plitani o'rab turgan burchaklarga suv ostida kavsharlash yo'li bilan kavsharlab qo'yilgan. Blok bir martada, suzuvchi vositadan turib quvurni ko'tarmasdan qo'yib to'ldirilgan. Suzuvchi vosita usti olib qo'yiladigan daganakli va diametri 50 mm egiluvchan shlangi bor beton aralashtiruvchi mexanizm bilan jihozlangan. Uning to'ldirilishini choklardan sementli hamir chiqishiga qarab suv ostiga tushuvchilar

bildirib turishgan. Tajriba blokidan olingan beton namunasining mustahkamligi 37 MPa bo'lgan.

Suv to'sgich bilan o'rab olib ta'mirlash usuli suvi chiqazib tashlanib (voodootliv) inshootlarning suv urilma plitalari, risberma va elementlarini ta'mirlashda qo'llaniladi va u quyidagi tartibda amalga oshiriladi: suvi quritilgan kotlovandan kuchsizlanib qolgan begona, shuningdek turg'unligini yo'qotgan yoki osti yuvilgan plitalarning buzulib tushgan mahsulotlar chiqazib tashlanadi, yuvilish natijasida hosil bo'lgan bo'shlqlarga zichlanib shag'al tosh yoki shag'al toshli qumli aralashma to'qiladi; yangi beton bloklarga yotqiziladi.

Energiya so'ndirgichlar yoki beton qoplamlarini o'stirishda eski betonda shpurlar burg'ulanadi, sementli aralashma qo'yib yoki epoksid smola asosidagi kompozitsiyalar bilan elimlab, ularga ankerlar o'rnatiladi.

Kotlovanni o'rab turuvchi suv to'sgich (peremylchka) lar muayyan sharoitdan va mavjud qurilish materialidan kelib chiqib joylashtiriladi (13.20 -rasm). Ko'p holatlarda quyidagi suv to'sgichlar qo'llaniladi: ekrani bilan toshdan, qumdan; suglinok va boshqa mahalliy gruntandan; ryajli (tosh bilan to'ldirilgan tubsiz qutilar); har 1...1,5 m da qo'yib chiqilgan, shpuntli taxtalar qoplangan, gidroizolyasiya qilingan va tosh solinib yuklama qilingan "eshak" qatoridan. Ekrani sifatida qumli qoplar bilan yuklangan brizent yoki polietilen plenka xizmat qilishi mumkin. Suvini quritish suvni zumpf (to'g'rilangan chuqurcha) lardan nasos qurilmalari yoki ninafiltrlar yoki kombinatsiyalashgan usulda so'rib chiqazib tashlash yo'li bilan amalga oshiriladi.



13.20 - rasm. Suv osti beton konstruksiyalarini ta'mirlash uchun suv to'sgichlar turlari:

a - gruntli material bilan yuklama qo'yilgan ryajli; b - ekrani bilan toshli; v - taxtali qoplama va brizenti bilan «eshak»li; g - kesilgan suv urilma quduqda mustahkamlangan yog'och karkasli; d - beton transheyani kesib o'tuvchi; I - brezentli zichlagich; 2 - qumli to'kma; 3 - qumli-glinali grunt; 4 - tosh; 5 - glinali gruntidan ekrani; 6 - shag'al tosh; 7 - gruntli qoplar; 8 - smola qilingan yog'ochli shpunt; 9 -

"eshak"lar; 10 - smola qilingan kigizli to'shama; 11 - panjarali karkasli tutashtirma; 12 - po'lat tortqilar.

Inshootlarning suv osti vertikal elementlarini ta'mirlash, chuqurlik 15 m gacha bo'lganda, doira yoki to'rburchak shakkli suzuvchi zatvorlar yordamida bajariлади, ularни suv ostiga tushirish yoki yuzasiga ko'tarish mos ravishda suv yoki havo bilan to'ldirilgan ballast kameralar yordamida amalga oshiriladi. Zatvorlar qoplamasi yog'ochdan yoki metalldan tayyorlanadi. Zatvor belgilangan joyga qo'yilgandan so'ng, u to'g'on chetiga anker boltlariga mahkamlanadi va yog'och bruslar, latta-putta, dag'al polotno va sh.o'. lar bilan zichlanadi. Suv chiqazib tashlangandan so'ng shikastlangan sirtni ta'mirlashga tushiladi.

Ayrim holatlarda gidrotexnika inshootlarining suv osti elementlarini ta'mirlashda suzuvchi ochiq kesson (ichiga odam tushib ishlaydigan suv o'tmas kamera) lardan foydalanish usuli o'zini oqlaydi. Kesson tubsiz va qopqoqsiz metall qutidan iborat bo'ladi. Kessonning pastki qismi zichlagichga ega bo'lishi va ta'mirlanadigan uchastka, masalan, vodosliv, flyutbet va sh.o'. sirtiga mos bo'lishi kerak. Kesson suzuvchi vositalar yordamida suvga tushiriladi, zichlanadi, ichidan suv chiqarib tashlanadi va inshoot joyida ta'mirlanadi.

Simlyansk GESi suv urilma plitasi asosida hosil bo'lgan bo'shliqni to'ldirish tajribasi ahamiyatga molikdir. Suv urilma plitalarida skvajinalar burg'ulangan, ularga shag'al tosh - qumli materialni elimlash yo'li bilan tayyorlangan svaylar tushirilgan. Suvli muhitda elim erib ketgan, ko'rsatilgan material suv urilma plita ostida hosil bo'lgan bo'shliqni to'ldirgan.

13.7. Tunnel va quvurli inshootlarni ta'mirlash xususiyatlari

Tunnelli inshootlarning shikastlanishlarini asosiy sabablariga loyihalarning past sifati va er osti ishlarini etarli darajada olib borilmasliklari kiradi. Birinchi sabab: hisoblash sxemasini noto'g'ri tanlanishi orqasida qoplamlardagi choklarni (10...50 mm) ochilishi; loyihalash jarayonida bashorat qilish kiyin bo'lgan tog' bosimini notejisligini etarli hisobga olmaslik oqibatida uzunligi 40 m gacha bo'lgan tunnel qoplamlarida yirik yoriqlar hosil bo'lishi; betonning edirilishi va mustahkamligini pasayishini sifatsiz bashorat qilish oqibatida qoplamlarni oqizindilar bilan yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajada (30...70 sm gacha) edirilishilariga olib keladi. Ikkinchisi: beton qoplamani (bo'shliq hosil bo'lishi, o'yiq, chuqur, teshik, kovak va sh.o'. 60 sm gacha chuqurlikda va undan ko'p hamda bir necha metr uzunlikda hosil bo'lishi) shikastlanishlariga; tunneldan filtratsiya manbarini ishlatish davrida bartaraf qilmaslik (sementatsiya skvajinalarini likvidatsiya qilinmaganligi, tunnel bo'ylab betonlash bloklari orasidagi vertikal choklar butalmaganligi, ish choklari sirti butalmaganligi va sh.o'.); texnologik jarayonlarni

buzulishi keltirib chiqargan defekt (qoplama orqali bo'shliqlarini to'ldirilmaganligi, beton ishlari olib borilgandan so'ng to'ldiruvchi sementatsiya o'tkazishda vaqt bo'yicha sezilarli uzilishlar, shuningdek beton qoplama va sementli - tamponajli aralashmani torayishi, beton kerakli mustahkamlikka erishmasdan oldin ishga tushirish, kavsharlash ishlari texnologiyasini buzulishi va boshq.) larga olib keladi.

Beton qoplamada hosil bo'lgan yoriqlar kirishmaydigan (toraymaydigan) yoki kengayuvchan in'eksiya tarkibini qo'llab ta'mirlanadi. Bunda quyidagi operatsiyalar bajariladi: yoriqni ta'mirlashga tayyorlash, himoya qatlamini surtish va in'eksiya qilish. Birinchi ish yoriqni kengligi bo'yicha 10...15 sm va chuqurligini 5...10 sm qilib bo'laklab ochish, siqilgan havo bilan changdan tozalash (produvka), kuritish va atseton yoki boshqa uni almashtiradigan aralashma bilan yuvishdan iborat bo'ladi. Undan so'ng unga 2...3 sm chuqurlikda diametri 2...3 sm li, uzunligi 5...10 sm shtutserlar o'rnatiladi. Ikkinci operatsiyani bajarishda yoriq va unga tutash uchastkalar epoksid elimi bilan gruntovka qilinadi, yangi gruntovka qilingan yoriq va unga tutash uchastkalarga 0,2...0,5 m kenglikda sirtga polimer aralashmadan himoya qatlami surtiladi. Uchinchi operatsiya oldidan yoriqlar shtutser orqali 0,5...1 MPa bosim ostida havo bilan changdan tozalanadi va atseton bilan yuviladi. In'eksiya mexanizatsiyalashgan moslama yoki shprits yordamida qo'l bilan amalga oshiriladi. Avval pastki zona, so'ng sekin-sekin yuqoriga ko'tarilib in'eksiya qilinadi. Ish tugashi bilan shtutser yoriqdan sug'urib olinadi, undan qolgan chuqurlik esa epoksid elimi yoki polimer aralashma bilan butab quyiladi. Past haroratda polimerizatsiya jarayonini tezlashtirish uchun ta'mirlanadigan uchastkalar isitiladi.

Suv o'tkazadigan choklar, yoriqlar va boshqa zich bo'limgan joylarni monolit (butunlash) uchun sintetik smolalar asosiga ega plastobeton, oyna plastobeton yoki armoplastobetonlar ham ishlataladi, ular etarli mustahkamlikka ega, ko'p vaqt xizmat qiladi, cho'zilish va siljishda deformatsiyalanadi, mahkam yopishadi va suv o'tkazmaydi. Temir-beton qoplamatagi cho'kish choklari va yoriqlar ta'mirlash jarayonida, tunnel perimetri bo'yicha, ular 15...30° burchak ostida yaqin oradagi armatura ochilgunchi, ochiladi. Tunnel aralash seksiyalarini bo'lishi mumkin siljishini oldini olish maqsadida, armaturalar qisqa sterjenlar bilan kavsharlab qo'yiladi. Qayta ishvlov berilgan sirtga avval qalinligi 1...1,5 mm li epoksidli gruntovka qatlami surtiladi, so'ng o'tish uchastkasiga qalinligi 10 mm elastik plastobeton qilinadi. Oxirgi butash asosiy armoplastobeton tarkibi bilan bajariladi va gruntovka qilinib qayta ishvlov beriladi.

Qoplamani, napor bo'yicha chegaralamasdan, filtratsiyaga qarshi himoyalash uchun kolloidli sementli aralashma bilan gidroizolyasiya suvog'i qo'llaniladi (portlandsement aralashmasi, kvarts kukuni (poroshogi), ohaktosh poroshogi, TES

kuli, qurilish sumi, marshit tabiiy materiali va suv). Suvoq qilish oldidan beton sirti metall uestka, qum struykali agregat bilan diqqat bilan tozalanadi, yuviladi va siqilgan havo bilan quritiladi. Suvoq surtishda sirtga o'yiqlar qilinadi, bo'shab qolgan beton va notekisliklar chopib (urib) tushiriladi.

YOriqlari, sinib tushgan joylari, bo'shliqlari, o'yiqlari, kovaklari va sh.o'. ga ega, kuchli filtratsiyasi bor qoplamlar quyidagi usullardan birini qo'llab ta'mirlanadi:

- qalinligi (hisoblab ko'rib) 8...12 mm metall bilan qoplanadi, bunda quvur orti (qoplama orti) bo'shliq aralashma uzatadigan nasos yordamida aralashma bilan to'ldiriladi; ish hajmi katta bo'lganda tunnelda relslar yotqiziladi va u bo'ylab seksiyalar metall qoplamlari o'rnatiladigan joyiga olib boriladi;

- qalinligi 3...4 sm, diametri 2,5...5 mm li, qadami 10x10 sm armatura to'ri bo'ylab faol torkret bilan qayta tiklanadi;

- katta shikastlanishlarda qalinligi 5...6 sm, diametri 10 mm li, qadami 10 x 10 sm li armatura to'ri bo'ylab temirli torkret qo'llaniladi. Torkret sifati 15...20 sutka o'tgandan so'ng bolg'a bilan urib ko'rib tekshiriladi.

Qoplama orqasidagi aniqlangan bo'shliqlar zudlik bilan bartaraf qilinadi, bunda qoplama ishining statik sharoiti yaxshilanadi va tunneldan suvni filtratsiyasi kamayadi. Qoplama orqasiga bosim ostida kiritish uchun arzon aralashmadan foydalaniлади. Bunday aralashmalarga issiqlik gidrostansiyalari chiqindilaridan bo'lgan kul (zola) qo'shilgan sementli-kulli aralashmalar kiradi, ular 30...50% sementni iqtisod qiladi. SHuningdek glinatsementli aralashmalardan ham foydalaniladi. Xuddi shunday glina qumli sementli aralashmalar ham qoplama orqasiga yuborilishi mumkin.

13.8. Gidromelioratsiya tizimi inshootlarni ta'mirlash

Gidromelioratsiya tizimlari inshootlarini ekspluatatsiya qilish davrida quyidagi shikastlanishlar vujudga keladi: yoriqlar, kovaklar, o'yiqlar, burchak va qirralarni sinishlari, sirtni qatlamlashib ko'chib tushishlari, choklarni ishdan chiqishi va gidroizolyasiyani buzulishi; ayrim bloklar, mustahkamlovchi plitalarni buzulishlari; bloklar va plitalar turg'unligini yo'qolishi; ko'priklarni ishdan chiqishi; gidromexanik jihozlar ishini izdan chiqishi; mahalliy yuvilishlar daganagi, o'yiqlar hosil bo'lishi; beflarni loyqa bosishi va ularda o'simliklar o'sib chiqishi; inshootlar ositidan, ularni aylanib o'tib yoki grunt to'g'onlar va dambalar orqali filtratsiya hosil bo'lishi; qoplama, mustahkamlovchi va sh.o'. buzulishi.

Sinish va o'yiqlarni ta'mirlash qaerda buzulish (gorizontal yoki vertikal sirtlarda) hosil bo'lishiga qarab har xil usullar bilan bajariladi.

Gorizontal sirtda yotadigan plita chokining qirrasini sinishi hosil bo'lganda, ta'mirlash shunday ketma-ketlikda bajariladi: sinish sirti chang, ifloslik, yog'li

dog'lardan tozalanadi; yuviladi yoki siqilgan havo bilan tozalanadi; ta'mirlanayotgan beton klassidan past bo'Imagan klassli mayda to'ldiruvchi bilan aralashma yoki beton tayyorlanadi; sinish bo'shlig'i bilan to'ldiriladi, u vibrator (tebranish hosil qiladigan mexanizm), metall shibbalagich yordamida va shtyk urib shibbalanadi. Bunda vibrator eski betonga tegib qolmasligiga ahamiyat beriladi. Beton qotgandari so'ng chokdan taxta va plenka olib tashlanadi, chok germetizatsiya qiluvchi material bilan butaladi.

Sinishing vertikal qirralari har xil usullar bilan ta'mirlanadi. Beton yoki temir - beton sirtidagi unchalik katta bo'Imagan sinishlar aralashma bilan suvab qo'yiladi. Ancha chuqurlari ikki shtutserli opalubka o'matish yo'li bilan ta'mirlanadi. Pastki shtutser orqali aralashma bosim ostida tepadagisidan chiqquncha yuboriladi. Vertikal burchaklarni sinishini bartaraf qilish uchun jips qilib qisib quyiladigan opalubkalardan foydalaniladi. Hosil bo'lган bo'shliqga beton qo'yiladi, bunda oldindan ta'mirlanadigan sirt ta'mirlashga tayyorlanadi, so'ng qorishma tebranish hosil qilinib zichlanadi. Bu uchastka atmosfera ta'sirlari (quyosh, yomg'ir bilan qor) dan himoya qiladigan plenka yoki boshqa material bilan yopiladi.

Kanallarning yig'ma va yaxlit betonli hamda temir-betonli qoplamlarini choklari sementli aralashma yoki proizolli to'shama bo'ylab polimer mastika yordamida armogermetika, bitumli-polimer mastika, rezinali shponka, polietilin qistirma va sh.o'. yordamida germetizatsiya qilinadi. 13.21 - rasmida kanallar qoplamasining choklarini germetizatsiya qilishning ba'zi bir variantlari ko'rsatilgan. Bu borada boshqa texnik qarorlar ham bo'lishi mumkin, shu jumladan ularni kombinatsiyalashgan holatda qo'llanilishi bir biriga nisbatan plitalarni suruluvchanligini ta'minlaydigan va armogermetikning kompensatsiya qiladigan salqib (osilib)


turishiga ega zichlagichlar, ko'proq cho'kuvchi va namdan shishadigan gruntlarda qo'llaniladi (13.21,v, g, d, e, m, n, o, p - rasm). CHoklarni ta'mirlash quyidagicha bajariladi. CHokdan eski zichlagich qoldiqlari (mastika), chirigan taxtalar, sementli aralashma va sh.o'. olib tashlanadi va chang, iflosliklardan tozalanadi. Geometrizontsiya qiladigan vosita o'rnatiladi. CHokga mastika, aralashma quyiladi, ular tekislanadi, ortiqchalar olib tashlanadi.

Gidromelioratsiya tizimlari gidrotexnika inshootlarining sezilarli buzulish-larga uchrab turadigan konstruktiv bloklarining yig'ma, yig'ma-yaxlit elementlari almashtiriladi yoki buzulganlari o'miga yaxlit (monolit) bloklar betonlashtiriladi. Birinchi usul kam mehnat talab qiladi va inshootni ta'mirlashdan so'ng ishlatish imkoniyatini beradi. Ammo har doim ham kerakli bloklar topilmasligi mumkin. SHuning uchun birinchi usulni qo'llashni iloji bo'lmasa, unda ikkinchi yoki uchunchi usullardan foydalaniladi.

SHikastlangan konstruktiv bloklar quyidagicha almashtiriladi. Ular gruntdan xalos qilinadi va bir biridan uziladi. Kran yordamida bloklar butunligicha yoki oldindan u bo'laklarga bo'linib, qismlarga bo'lib chiqarib olinadi. Asos ta'mirlanadi; yangi blok montaj qilinadi va choklari butaladi.

Bloklar almashtirilayotganda seksiyalarni mustahkamlashga harakat qilinadi. Cho'kadigan va shishib chiqadigan gruntlarda shunday yig'iladigan elementlarni qo'llash tavsija qilinadiki, bunda ular fazoviy – qattiq seksiyalarni hosil qiladi. Yig'iladigan elementlarning nomenklaturasi suv xo'jaligida qo'llaniladigan temir-beton konstruksiyalarning unifikatsiya (bir xillashtirilgan) qilingan nomenklurasiga mos bo'lishi kerak. Bunda, agar buzulishning sababi yo'l qo'yib bo'lmaydigan deformatsiyalar hisoblanadigan bo'lsa, unda cho'kuvchi gruntlar ancha sifatli gruntlar (qum, shag'al tosh – qumli gruntlar va boshq.) ga almashtirilishi mumkin. Teskari to'kma eng maqbul namlikka ega grunt bilan zichlanib amalga oshiriladi.

Odatda uzunligi 6...8 m, chuqurligi 40...120 sm bo'lgan lotok-kanallar quyidagicha ta'mirlanadi. Kran yordamida shikastlangan konstruksiya olib quyiladi, aralash lotoklar oxirlari zichlash vositalaridan tozalanadi. Lotokni yangi seksiyasi o'rnatiladi, nivelerlanadi, yog'och ponalar bilan qotirib qo'yiladi. Germetizatsiyani ta'minlash uchun chokdag'i germetizatsiya qilinadigan elementlar mahkamlanadi. Agar lotok – kanal tuproqqa kirishi (o'tirishi) yoki poydevor yoki ustunni ishdan chiqishi sababli buzulgan bo'lsa, unda bu elementlar almashtirilib montaj qilinadi yoki ular loyihamiy holatiga o'rnatiladi. Bevosita gruntli asosga o'rnatilgan lotoklar tayanch plitalari, lotok seksiyalari, zichlagichlar va sh.o'. sozlanib yoki almashtirilib ta'mirlanadi. SHishib chiqadigan gruntlarda tayanch poydevori 0,5...1 m muzlash chuqurligidan pastga o'rnatiladi.




13.21- rasm. Kanallar qoplamalari choklarini germetizatsiya qilish:

a, v – sementli aralashma bo'ylab polimer mastika bilan; v – ixtiyoriy qistirma bo'yicha polimer mastika bilan; g – armogermetik bilan; d – sovuq asfaltli aralashmasi bor armogermetik bilan; e – ixtiyoriy qistirma bo'yicha bitumli – polimer mastika bilan; j – polietilen plenka bilan; z – rezinalni shponka bilan; i – qop – qanor materiali ustiga bitumli mastika bilan; k – sementli aralashma yoki taxta (ko'rsatilmagan)li polietilen plenka bilan; l – elastik kompozitsiya bilan to'ldirilgan egiluvchan eng bilan; m – ankerli qirrali egiluvchan burchak shaklli tasma bilan; n, o, p – ko'paytirilgan kompensatsion qurilma bilan; 1 – polimer mastika; 2 – qistirma shaklidagi adgeziyaga qarshi qatlama bilan; 3 – sementli aralashma; 4 – proizol to'shama; 5 – qalinligi 0,5 sm elimlangan armogermetik; 6 – sovuq asfaltli aralashma; 7 – bitumli mastika surtilgan oyna xolost (material); 8 – bitumli polimer mastika; 9 – adgeziyaga qarshi to'shama; 10 – shlakpaxta; 11 – polietilen plenka; 12 – profilli rezinalni tasma; 13 – bitumli mastika; 14 – qop-qanor materiali; 15 – elastik kompozitsiya bilan to'ldirilgan egiluvchan eng; 16 – plastik material; 17 – ankerli qirrali elastik tasma; 18 – to'shama; 19 – profilashtirilgan polietilen; 20 – kompensatsion salqib turuvchi; 21 – elimlangan mastik germetik; 22 – «konstop» turidagi profilashtirilgan elastik qistirma.

plenka bilan; l – elastik kompozitsiya bilan to'ldirilgan egiluvchan eng bilan; m – ankerli qirrali egiluvchan burchak shaklli tasma bilan; n, o, p – ko'paytirilgan kompensatsion qurilma bilan; 1 – polimer mastika; 2 – qistirma shaklidagi adgeziyaga qarshi qatlama bilan; 3 – sementli aralashma; 4 – proizol to'shama; 5 – qalinligi 0,5 sm elimlangan armogermetik; 6 – sovuq asfaltli aralashma; 7 – bitumli mastika surtilgan oyna xolost (material); 8 – bitumli polimer mastika; 9 – adgeziyaga qarshi to'shama; 10 – shlakpaxta; 11 – polietilen plenka; 12 – profilli rezinalni tasma; 13 – bitumli mastika; 14 – qop-qanor materiali; 15 – elastik kompozitsiya bilan to'ldirilgan egiluvchan eng; 16 – plastik material; 17 – ankerli qirrali elastik tasma; 18 – to'shama; 19 – profilashtirilgan polietilen; 20 – kompensatsion salqib turuvchi; 21 – elimlangan mastik germetik; 22 – «konstop» turidagi profilashtirilgan elastik qistirma.

Lotok – kanallar tutashtirilmalarini germetikligini qayta tiklashda eng ko'p lotok oxiri qismining konstruksiyasiga qarab poroizol qistirma va politmer yoki bitumli-polimer mastikalar yordamida choklarni zichlash qo'llaniladi (13.22 – rasm). Poroizol chirmovi (bog'i) doira, uchburchak yoki to'rt burchak shaklida tayyorlanadi. Ular ustiga seksiyalar qo'yilganda chirmovlar chegaralovchi oraga qo'yuvchi hisobiga, qalinligining 50% dan ko'p bo'limgan miqdorga siqiladi. Undan so'ng tutashtirilma bo'shilig'iga mastika qo'yiladi. Chok kengligi 20 mm kam bo'limgan qiymatda qabul qilinadi.



13.22 – rasm. Lotok – kanallar choklarini germetizatsiya qilish:

a, b – poroizol to'shama va polimer mastika bilan; v, g – poroizol to'shama va bitumli – polimer mastika bilan; 1 – poroizol; 2 – polimer mastika; 3 – adgeziyaga qarshi qatlam; 4 – tayanch plitasi yoki ustun egari; 5 – bitumli – polimer mastika; 6 – yog'ochdan chegaralovchi qistirma.

Ta'mirlash sifati, zichlagich o'rnatilishidan oldin beton sirtini diqqat bilan tayyorlanishiga ko'p bog'liq bo'ladi. SHu maqsadda sirtdan aralashmani qotib qolgan yopishmalar urib tushiriladi, ўetkalar bilan supurib olinadi, siqilgan havo bilan changdan tozalanadi. YOg'li dog'lar beton bilan birga benzin yoki atseton shimdirilgan tampon bilan yuvib olinadi.

13.9. Gidrotexnika inshootlarini ta'mirlash - qayta tiklash ishlari tashkil qilish

Gidrotexnika inshootlarini ta'mirlash – qayta tiklash ishlari tashkil etishni quyidagi sxema bo'yicha amalga oshirish tavsya qilinadi.



Foydalanuvchi tashkilotlar suv ta'minotini yaxshilash, inshootlar beflaridagi oqizindilarga qarshi kurashish, svuni singib, sizib ketishini oldini olish maqsadida qayta qurish va inshootlarni oxirigacha jihozlash (dooborudovanie), inshootlar ishi va suv berishni avtomatlashtirish, telemexanik qurilmalar bilan jihozlash, yangi dispatcherlik tizimi va kompyuterlashgan boshqaruvni joriy qilish kabi ishlarini har yili perspektiv (3-5 yillik) rejasini tuzib vazirlikdan tasdiqlatib, unga o'zgartirishlar kiritib boradi. Bunday ishlarni bajarilishi texnik loyihalar, smetalar, chizmalar asosida kapital ta'mirlash, oxirigacha jihozlash, qayta qurish, zamonaviyashtirish surʼ - xarakatlardan qoplanadi.

Mablag'lashtirish nuqtai nazaridan imkoniyat tug'ilganda perspektiv rejadan ba'zi bir ishlar joriy yil rejasiga kiritilib boriladi. Bundan tashqari kuzatish va o'lchash ishlari (ishlab-chiqarish tadqiqotlari), inshootlarni ko'rikdan o'tkazish na-

tijalari, kadastr ma'lumotlari asosida ta'mirlash ishlari hajmi va qiymati bo'yicha joriy (10 % gacha) va kapital (10% dan ko'p) turlarga ajratilib joriy yil ta'mirlash ishlari rejasini tuziladi va vazirlikdan tasdiqlatib olinadi.

O'rni kelganda shuni aytish kerakki foydalanuvchi tashkilotlarning o'zlarini va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi katta va alohida muhim suv xo'jaligi ob'ektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish Davlat (maxsus vakolotli organ – «Davsvuxo'jaliknazorat») inspeksiysi yuritadigan kadastrlar mavjud. Ularda inshootlarning tarkibi va holati, holatining son va sifat qo'sratkichlari haqidagi ma'lumotlar beriladi. Foydalanuvchi tashkilotlarning o'zlarini yuritadigan kadastrni asosini inshootlarning pasporti va unga kiritilayotgan o'zgarishlar, kamchiliklar tashkil qiladi, u har yili yuritiladi, maxsus vakolatli organ yuritadigan kadastr gidrotexnika inshootlari kadastr deb nomlanadi va u har 5 yilda 1 marta hisobga olinadi. Qaysi kadastr bo'lishidan qati nazar, ularda keltirilgan buzuqliklar va nosozqliklar, shikastlanishlar ta'mirlashlar rejasiga kiratilib bartaraf qilib borilishi lozim.

Avariya - tiklash ishlari rejalashtirilmaydi, ammo bunday holat vujudga kelgan taqdirda, vujudga kelgan avariya – tiklash ishlari oldindan tayyorlab qo'yilgan materiallarni avariya zahirasi yordamida ekspluatatsiya xizmatining barcha ishchi-xizmatchilari, texnika va mexanizmlari, lozim bo'lsa, xududdagi boshqa tashkilotlarning ishchi kuchi va texnikasini jalb qilib qisqa vaqt ichida kechasiyukunduzi bajariladi. Qilingan avariya – tiklash ishlari tuman xoqimiyatlari tuzgan sel va toshqin komissiyasi hisobotida ko'rsatilib, qabul komissiyasining dalolatnomasi bilan qabul qilindi.

Barcha holatlarda ham bajarilgan ta'mirlash – tiklash ishlarining sifati vokalatlari organlar va foydalanuvchi tashkilot tomonidan nazorat qilib borilishi zarur.

XIV. Gidrotexnika inshootlarini rekonstruksiya qilish

14.1. Gruntli to'g'onlarni rekonstruksiya qilish


Gruntli to'g'on o'rkachi (tepasi) belgisini, ko'p holatlarda, suv omborini bo'shatmasdan yoki qisman bo'shatib ko'tariladi. To'g'onne, qoidasi pastki qiyalikdan boshlab ko'tariladi (o'stiriladi). Bu, qachonki, yuqori qiyalik rekonstruksiya gacha o'rnatalgan mustahkamlovchisi o'z vazifasini bajarayotgan bo'lsa mumkin bo'ladi va bu holatda suv omborini suvdan bo'shatmasa ham bo'ladi. Grunt to'g'onlarni ko'tarish (o'stirish) ning har xil sxemalari 14.1 – rasmda keltirildi.

Glinali gruntlardan bo'lган bir jinsli to'g'onning o'rkachi to'g'onne qaytadan to'kilgan qismiga gruntli ekran qilish yo'li bilan o'stiriladi. Bunda gruntli ekran katta filtratsiya koeffitsientiga ega gruntuandan to'qiladi (14.1,a – rasm). Bu holatda rekonstruksiyadan keyin ham eski to'g'on drenajidan foydalaniladi.

Mahalliy materiallardan ekranli yoki yadroli ko'rinishdagi filtratsiyaga qarshi qurilmasi bor to'g'onlarni qo'shimcha ekran, yadro, burg'ulab «qoqilgan»

devor, shpunkt, polietilenli plenka yoki ular kombinatsiyasi qo'llanilgan ekran qurish yo'li bilan o'stiriladi (14.1, b,v, d – rasmlar). Agar ekranlar va diafragmalar grunt bo'lмаган metariallardan qurilgan bo'lsa, unda, ularni, odatda asfaltbeton, temir-beton, polietilen plenka va sh.o'. foydalanib ko'tariladi (14.1, e, j – rasm). Yotiqlashtirilgan yuqori qiyaligi bor to'g'onlar suv omboridagi suv sathini o'lik hajm sathigacha tushirib, pastki va yuqori qiyalikga grunt to'kib va yuqori qiyalikni mustahkamlab o'stiriladi (ko'tariladi) (14.1, z – rasm). Agar rekonstruksiya qilinadigan to'g'on yotiqlashtirilgan pastki qiyalikga ega bo'lsa, unda yuqori qiyalikni eskisini ustiga to'qiladi, pastkisi esa tikroq qilinadi (14.1, i – rasm). Qumli gruntlardan qurilgan bir jinsli to'g'onlar, qachonki ularning drenajlaridan keyinchalik foydalanib bo'lmaydigan bo'lsa, yangi drenaj qurilib pastki qiyalikdan o'stiriladi (14.1, k – rasm).

To'g'onlarni unchalik ko'p bo'lмаган (bir necha metrga) o'stirilishda o'rkachdan pastga qarab kengayib boradigan betonli devor yoki paraped qurish mumkin, bunday ish Kosonsoy to'g'onida bir vaqtarda qilingan (14.1, l – rasm). Tadjen to'g'oni o'rkachi pastki qiyaligi tikroq qilinib, qo'shimcha grunt to'kilib o'stirilgan. Bunday holatda parapet qursa ham bo'ladi (14.1, m – rasm). Parapet yoki shpuntlarni yuqorida tilga olingan to'g'onlarni o'stirish usullari bilan kombinatsiyasi ham amalda qo'llanilishi mumkin.




14.1 – rasm. Gruntli to'g'onlarni ko'tarish (o'stirish) sxemalari:

a – glinali gruntlardan bir jinsli to'g'on; b – ekran bilan; v – gruntli materiallardan yadrozi bilan tosh to'kma; g – pastki va yuqori qiyaliklardan grunt to'kilganda yadrozi bilan; d – pastki qiyalikdan grunt to'kib va o'rakch zonasida shpunkt qurib yadrozi bilan; e – grunt bo'limgan materiallardan ekran bilan; j – diafragmasi bilan; z – nishob yuqori qiyaligi bilan bir jinsli; i – yotqizilgan yuqori qiyaligi bilan bir jinsli; l – qiyaliklarini yotiq qilish talab qilinmaydigan bir jinsli to'g'on; m – pastki qiyaligi katta ehtiyyot koeffitsientiga ega bir jinsli; I – eski to'g'on; II – to'g'oni ko'tarilgan qismi.

SHunday qilib to‘g‘onlarni o‘sirish ishi texnologiyasini yaxshilash maqsadida, grunt to‘g‘onlarni pastki qiyaligidan boshlab o‘sirilib borilsa yaxshi bo‘ladi. Bunda yuqori qiyalik iloji boricha tikroq olinadi. Kontakt sirtidagi o‘simlik qatlami olib tashlanib sirt o‘yiq-o‘yiq qilinadi, bunda birinchi navbatda to‘g‘on tanasi bilan to‘qiladigan grunt orasi yaxshi tutashadi. Drenaj tizimi, iloji boricha o‘zgartirilmasdan qoldiriladi, bunda pastki befga suvni chiqishi ta’minlanadi. To‘g‘onni, ayniqsa qurilib tugatilmagan qismining, cho‘kishi ishonchli kontakt bilan bajarilgan filtratsiyaga qarshi elementlarning butunligini buzmasligi kerak. Rekonstruksiya qilinadigan variant iqtisodli va ishonchli bo‘lishi lozim.


Grunt to‘g‘onli gidrouzelni rekonstruksiyasiga misol qilib Chernorechinsk suv ombori suv bosimli frontini o‘sirishni (1983 y.) keltirish mumkin. Bu ish loyihasi Ukrugiprovodxoz tomonidan ishlab chiqilgan. Rekonstruksiya suv ombori hajmini ko‘paytirish maqsadida amalga oshirilgan, suv ombori suv ta’minoti va sug‘orish uchun ishlatiladi. Loyihani amalga oshirish salbiy ekologik vaziyatni ham bartaraf qilgan. To‘g‘on balandligini 28 m dan 36 m gacha o‘sirish suv ombori hajmini 2 martaga ko‘paytirgan. Rekonstruksiyagacha to‘g‘on suglinokli yadro bilan shag‘al tosh, шебен ва shag‘al tosh – galechnikli gruntundan to‘kilgan edi. Rekonstruksiyagacha suv tashlama suv olib keluvchi kanali bilan tezoqardon iborat bo‘lgan. Rekonstruksiya paytida, to‘g‘on pastki tomonidan qalinligi 7 m li ekran o‘sirilib, shag‘al tosh va graviyli gruntundan to‘kilgan, ekran suglinok, shag‘al toshli glina va yirik qumdan yasalgan. Bunda ekranning eski va yangi qismlarini sifatli tutashishiga alohida ahamiyat berilgan. Ekran qalinligining bunday qalinligi karerde kerakli gruntuning mavjudligidan kelib chiqib belgilangan (14.2 – rasm). Napor ko‘payishi bilan bog‘liq filtratsiyani oshishidan qochish maqsadida to‘g‘on asosida, chapki nishoblik (yon-bag‘ir) oldida, chuqurligi 30...35 m li 276 m uzunlikda bir jinsli sementatsiya qilingan parda (zavesa) nazarda tutilgan. Pastki qiyalik oyog‘i ostida tosh to‘kma prizmali drenaji bor drenaj tyufyagi o‘rnatalgan. Pastki qiyalik ko‘p yillik o‘t ekish yo‘li bilan mustahkamlangan. O‘sirishning naporli dambasi markaziy kam suv o‘tkazadigan prizmali va filtratsiyaga qarshi tishdan iborat bo‘lgan. Bunda eski to‘g‘onning o‘rkachi (tepasi) bermaga aylantirilgan. O‘sirilgan to‘g‘onning yuqori qiyaligini mustahkamlovchi yaxlit temir-beton plitalardan yasalgan. To‘g‘oni to‘qiladigan qismini mavjud to‘g‘on bilan tutashadigan joyidagi o‘simlik o‘sib turgan qatlama 0,5 m ga hamda qatlamlashtirilgan drenaj olib tashlangan. Ekranni o‘sirishda ham uning tepa qatlami 1 m kesib olib tashlangan.



14.2 – rasm. Chernorechinsk suv ombori gruntli to‘g‘onining ko‘ndalang kesimi: 1 – mavjud ponur va ekran; 2 – bir qator tishli terilma; 3 – mavjud to‘g‘on tepasi (o‘rkachi); 4 – yaxlit temir-beton plitalar; 5 – paraped; 6 – o‘sirilgan ekran; 7 – mavjud to‘g‘on tanasi; 8 – o‘sirilgan to‘g‘onning tanasi; 9 – drenaj tyufyagi; 10 – tosh to‘kma qilib qurilgan drenaj prizmasi; 11 – suglinok va glina uesteban va galka bilan; 12 – shag‘al tosh – galechnikli gruntlar; 13 – yoriqli argillitga o‘xshash glina; 14 – argillitga o‘xshash glina.

Tezoqarning bosh qismida balandligi 7,7 m bo‘lgan vodosliv to‘g‘oni qurilgan (14.3 – rasm). Suv olgichning kirish qismi rekonstruksiya qilingan.


CHernorechinsk gidrouzelni rekonstruksiya qilinayotganda ishlatib turilgan, bu bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Xususan, bosimli dambada, chuqurligi 6 m li tishni unchalik katta bo‘limgan uchastkalar (50 m dan) qilib qurilgan, chunki filtratsiya suvlari jadal kelib turgan, toshqin mavjud suv tashlama va uning boshida qurilayotgan tub oldi suv qo‘ygichi bor beton to‘g‘on orqali o‘tkazilgan. Unchalik katta bo‘limgan sarflar suv olgichning zahira quvuri orqali o‘tkazilgan.



14.3 – rasm. Tezoqarning bosh qismiga qurilgan vodosliv to‘g‘onining ko‘ndalang kesimi: 1 – ponur; 2 – tub oldi suv qo‘ygichi; 3 – vodosliv; 4 – ko‘rish (kuzatish) galereyasi; 5 – pezometr; 6 – argillitga o‘xshash grunt.

V.Kolarov (Bolgariya) tosh to'g'onida (balandligi 48 m) tanasida gorizontal (765 m gacha) va vertikal (695 m gacha) deformatsiya vujudga kelgan: to'g'on tanasini birdan o'zgargan joylari va pastki bef tomonidan uning o'rakchida yoriqlar hosil bo'lgan. To'g'on rekonstruksiya qilinayotganda keyingi siljishlarni oldini olish uchun 1:4 :1 ,34 (M400 putssolan sementi: qum : suv) tarkibdagi qum – sementli aralashma bosim ostida yuborilib, tosh terma yaxlitlangan. Olib borilgan ishlar lokal deformatsiyalar hosil bo'lishini oldini olish imkoniyatini bergen, ekranni ishonchli ishlashini ta'minlagan va inshootni harorat rejimini yaxshilagan. Rekonstruksiya paytida, shuningdek suv tashlama o'rakchi 1,1 m ga o'stirilgan,bu suv omborini hajmini 4 mln m³ ga ko'paytirish imkoniyatini bergen.

14.4 – rasmida Medeo (Qozoqiston) dagi tosh tashlama to'g'onning qirqimi keltirilgan.Bu to'g'on, 1973 yilgi favqulodda sel paytida, sel suv ombori deyarli oqizindilarga to'lib qolganligi sababli, rekonstruksiya qilingan.




14.4 – rasm. Medeodagi tosh to'g'oni o'stirish sxemasi:

1 va 3 – eski va yangi to'g'onlar tanasi; 2 – suv omborini sel oqizindilari bilan to'lib qolgan hajmi.

14.2. Beton to'g'onlarni rekonstruksiya qilish

Beton to'g'onlarni rekonstruksiya qilish, asosan o'rakchini belgisini ko'tarish, to'g'on turg'unligini oshirish,yuqori filtratsiyani bartaraf qilish va boshqa maqsadlar uchun amalga oshiriladi. To'g'onlar o'stirilayotganda asosiy qiyinchilik to'g'onlarning umumiyligi turg'unligini, to'g'oni eski va yangi qo'yilmalari orasidagi birgalikda ishlayotgan sharoitda tutashmaning kontaktining turg'unligi va ishonchliliginini ta'minlashning murakkabligi hisoblanadi. Beton to'g'onlarni o'stirish o'rakchini rekonstruksiya qilinishi, pastki, yuqori bef tomoniga yoki ikkala tomonga to'g'oni kengaytirish, kontrforslar qurish,beton yuklama (Farxod to'g'oni) qilish va sh.o'. yo'llar bilan amalga oshiriladi. Rekonstruksiya qilish suv omborini to'la yoki qisman suvdan bo'shatib yoki bo'shatilmasdan bajariladi.

Agar to‘g‘on turg‘unlik va mustahkamlikning etarli zahirasiga ega bo‘lsa, unda uni yuqori qismi o‘siriladi, bunda eski va yangi terma orasida ishonchli kontakt ta’minlanishi lozim (14.5, a - rasmga qarang).




14.5 – rasm. Gravitatsion to'g'onlarni o'tirish sxemalari: I – eski to'g'on; II – to'g'oni kuchaytiradigan konstruksiyalar.

Mustahkamlik va turg'unlik etarli bo'limganda o'rkach o'stiriladi va to'g'on asosi ankerlashtiriladi. Eski to'g'onga o'stirilgan qismida ankerlashtirilgan holatlar bo'lishi mumkin (14.5, b – rasm). To'g'on ko'p o'stirilayotganda, yoki turg'unligi va mustahkamligi past zahiragi ega bo'lganda, naporli qirra tikligi saqlangan holda o'stirish pastki qirra va o'rkachdan amalga oshiriladi (14.5,v – rasm), yoki yuqori

befda joylashtiriladigan konsol qurish yo‘li bilan (14.5,g – rasm) amalga oshiriladi. To‘g‘onning pastki qiyalik va o‘rkachida o‘sirish ishlarini amalgalashuv sathini pasaytirmasdan, inshootlarni ekspluatatsiya qilib turish imkoniyatini beradi. Rekonstruksiya qilinadigan to‘g‘onning profili uni asosiga ankerovka qilinishi hisobiga siqilganroq qabul qilinadi (14.5,d – rasm). Agar suv ombori suvdan bo‘shatiladigan bo‘lsa unda to‘g‘on ham yuqori bef tomondan, ham pastki bef tomondan o‘siriladi (14.5, e, j – rasm). YUqori bef tomonga beton to‘g‘onni profilini kengaytirish eski to‘g‘onni suv o‘tkazuvchanligini pasaytiradi. To‘g‘on pastki tomondan kengaytirilayotganda qurilish choklari iloji boricha bosh zo‘riqishlar yo‘nalishi bo‘ylab yo‘naltiriladi. Pastki tomondan kontrforslar bilan qo‘ltiqlanib turiladigan vertikal (14.5,z – rasm) va qiyshaygan (14.5,i – rasm) temir – beton devor qurish juda iqtisodli. Ayrim holatlarda, qachonki beton qanolantirarsiz holatga ega, asosi esa – mustahkam qoya toshda bo‘lsa, yuqori bef tomondan bir yoki bir necha tirkovich bilan ta‘minlangan qiyshiq temir – beton devor quriladi. 14.5,k – rasmda Mesvan (Norvegiya) to‘g‘onini rekonstruksiya qilish sxemasi keltirilgan, u tirkovich qo‘yib bajarilgan. Bu holatda, odatda temir – beton asosiga ishonchli segmentli parda nazarda tutiladi. Qo‘rib o‘tilgan sxema beton to‘g‘onga ta’sir qiladigan ortiqcha filtratsion va gidrostatik bosimdan qutulish imkoniyatini beradi.

Agar to‘g‘on o‘rkachi o‘sirilgandan so‘ng turg‘un bo‘lmay qolsa unda, yuqori qirrasiga tushayotgan cho‘zilish zo‘riqishini pasaytirish uchun, pastki bef tomondan grunt to‘qiladi, u yuklama rolini bajaradi (14.5, l - rasm). To‘g‘onlarni o‘sirishning ko‘rib chiqilgan sxemalarini, shuningdek kombinatsiyalashgan holda ham qo‘llash mumkin. Bunda, ko‘p holatlarda to‘g‘onni asosi bilan ankerovka qilish o‘zini oqlaydi. Bunga misol bo‘lib Gauden (Angliya) to‘g‘oni xizmat qilishi mumkin, uning ankerlaridagi kuch 1400 t va undan ko‘pni tashkil qilgan.

Zaporojes gidrouzel (DneproGES) naporini 1 m ga oshirish 100 ming kVt qo‘sishma quvvat olish imkoniyatini bergen. 14.6 - rasmda DneproGES to‘g‘oni ning chap qirg‘oq vodosliv seksiyasini rekonstruksiysi, misol tariqasida, keltirilgan (GES belgilangan quvvati 828 ming kVt).




14.6 - rasm. DneproGES to'g'oni chap qirg'oq vodosliv seksiyalarini rekonstruksiya qilish sxemasi: 1 - ilgarigi suv tashlama to'g'on; 2 - ustun; 3 - suv tashigich; 4 - GES binosi. O'lchamlari m da.

Kontrfors to'g'onlar ham gravitatsion to'g'onlar singari o'sha usullar bilan o'stiriladi, ammo bunda konstruksiyani xususiyatidan kelib chiqadigan o'ziga xoslik hisobga olinishi zarur. YAxlit ogolovkali to'g'onlar, o'rkachini rekonstruksiya qilish va kontrforslar orasidagi bo'shliqni betonga to'ldirish yo'li bilan o'stiriladi (14.7,a - rasm).

Hisob - kitoblar to'g'onning dastlabki balandligi 15...20% oshganda to'g'on turg'unligi ham oshishini ko'rsatgan. SHunday usul Burgomillodo (Italiya) to'g'onida qo'llanilgan. Ba'zida kontrfors to'g'onlar kontrforslarini balandligini o'stirilishi va o'rkachi belgisi oshirilishi yo'li bilan ham o'stiriladi. (14.7,b,v,g - rasm). Bunda kontrforslar eski to'g'onning (plitalari, arkasi yoki ogolovkasi) bosimli qoplamasи yo'g'onlashtiriladi yoki ikkilantirilgan kontrforslar orasi monolit qilinadi, shuningdek qo'shimcha qattiqlik qobirg'asi o'rnatiladi. Suv omborini bo'shatmasdan


turib kontrfors to'g'onlar, shuningdek o'rkach rekonstruksiya qilinib yoki pastki bef tomondan gruntli to'kma to'shalib o'stiriladi (14.7, d,e - rasm).



14.7 - rasm. Kontrfors to'g'onlarni o'stirish sxemalari:

I - eski to'g'on; II - to'g'oni kuchaytiruvchi konstruksiyalar.


14.8 - rasmda Possum - Kingdom (AQSH) suv tashlama to'g'onini rekonstruksiya qilinishiga misol keltirilgan, uning natijasida DNS 3 m ga ko'tarilgan va tom ko'rinishli zatvorlar segment zatvorlariga almashtirilgan.



14.8 - rasm. Possum - Kingdom to'g'onini rekonstruksiya qilish sxemasi:
a va b - rekonstruksiyagacha va undan keyingi o'rkach va zatvorlar

Arkali to'g'onlar, ko'p holatlarda, naporni oshirish yoki betonni monolit qilish uchun rekonstruksiya qilinadi. Bunda avval qurilgan to'g'onning qalinligini oshirish lozim bo'lib qoladi. O'stirishda yangi arkali to'g'on quriladi, u mavjud arkaga pastki bef yoki yuqori bef tomondan tutashadi (14.9, a,b - rasm).

Ammo shuni nazarda tutish lozimki, suv ombori suvdan bo'shatilmasdan turib, daraga arkani o'yib kiritish murakkab bo'lganligi sababli, uni pastki bef tomonidan joylashtirish maqsadga muvofiq emas, chunki bunda eski to'g'onning tayanchi susayadi va to'g'on buzuladi. Arka pastki bef tomonidagi betonning torayishi jarayoni oqibatida, eski betondan ajralib ketishi mumkin va shuning bilan arkaning eski va yangi betoniga lokal yuklanmasi kelib chiqishi mumkin. Arkali to'g'onlarni pastki qirrasi tomonidan kuchaytirib o'stirish mumkin bo'ladi (14.9, v - rasm). Bundan tashqari arkali to'g'onlarni balandlik bo'yicha o'stirib va pastki bef tomonidan vertikal va gorizontal tekislik bo'ylab qattiqlik qobirg'asi qurib kuchaytirish usullari ham mavjud.



14.9 - rasm. Arkali to'g'onlarni rekonstruksiya qilish sxemalari:
I – eski to'g'on; II, III va IV – to'gonni o'stirish navbatlari


Ikki tomoni ochiq arkali – konsolli panjara uzliksiz temir – betonli gumbaz yoki silindrik qoplama bilan kuchaytirilishi mumkin, ular pastki bef tomonidan quriladi (16.9, g,d – rasm). Bunda arka konstruksiyasining uzliksiz qoplamasini 16.9, e – rasmida ko'rsatilgandek joylashtirilsa qattiqroq bo'ladi.

14.3. Suv tashlama, suv oluvchi inshootlar, suv tindirgichlar, magistral kanallarni rekonstruksiya qilish xususiyatlari

Suv tashlovchi inshootlarni suv o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish texnologiya jihatidan etarli darajadagi murakkab masala hisoblanadi. Ko'p hollarda bu masala suv tashlovchi inshoot naporini oshirish yo'li bilan amorti-

ladi. Ammo, ba'zida vodoslivning yuqori qismidagi beton bo'laklab, urib chopib tashlanadi yoki qo'shimcha, ochiq yoki yopiq turdag'i suv tashlama quriladi. Mavjudlariga tutashgan, qo'shimcha suv tashlama oraliqlarni qurish, odatda, maqsadga muvofig emas, chunki bunda bir qator texnologik va konstruktiv murakkablik (suv omborini bo'shatish, mavjud beton inshootlarga tutashishning murakabligi va sh.o'.) lar kelib chiqadi. 14.8 – rasmida inshoot naporini oshirib, suv o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishning mumkin bo'ladigan sxemasi keltirilgan, bunda vodoslivga ko'proq suyurilik beriladi, uning sarf koeffitsienti oshiriladi va shuning bilan bir vaqtida ishchi zatvorlar almashtiriladi.

Vilyulskiy GESida, gidrouzelni ishlatish jarayonida gidrologik ma'lumotlarga aniqlik kiritilishi sababli, DNS ni 2 m ga ko'tarish lozim bo'lib qolgan, bu suv omborining yangi DNS gacha to'ldirilgan holatida, yozgi – kuzgi favqulodda toshqinni o'tkazish uchun kerak bo'lgan. Buning uchun suv tashlamanning noyob segmentli zatvori (kengligi 40 m, balandligi 14 m, napori 13,2 m va og'irligi 437 t) rekonstruksiya qilishni talab qilgan, suv tashlama 5200 m³/s svuni o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lgan. Zatvorni tepasidan o'stirishni iloji bo'lмаган, chunki uning oshirilgan gidrostatik yuklamasidan tushadigan yukini, pastki metall konstruksiya ko'tara olmaydigan bo'lgan. SHunda balandligi 2 m, ustidagi napori 15,2 m bo'lgan qo'shimcha, kavsharlangan segmentli zatvor tayyorlashga va uni mavjud zatvor ostiga vodosliv ostonasi ustiga quyishga qaror qilingan (14.10 – rasm).



14.10.-rasm. Vilyulskiy to'g'oni suv tashlamasi zatvorini rekonstruksiya qilish sxemasi:

1-qiyshiq qo'yilgan ta'mirlash zatvori; 2-telejaksi bilan estakada; 3-segmentli zatvorning rekonstruksiya qilingan ko'targich mehanizmi; 4-mavjud segmentli zatvor; 5-qo'shimcha zatvorning tayanch sharniri; 6-qo'shimcha zatvorni yig'ish uchun montaj estakadasi; 7-qo'shimcha zatvor.

Qo'shimcha va mavjud zatvorlar, o'zar qoplamasini bo'ylab boltlar bilan va ko'ndalang diafragmalar payvandlanib qattiq qilib tutashtirilgan. Ish bevosita vodosliv ostonasida ta'mirlash zatvorlarini yopib qo'yib amalga oshirilgan. Ta'mirlash zatvori, har birining kengligi 2 m bo'lgan 16 seksiyadan iborat bo'lib oraliqni balandlik bo'yicha to'la yopgan. Seksiyalar orasidagi zichliklar kigiz va brizent o'ralgan quvur yordamida ta'mirlangan.

Past naporli suv oluvchi inshootlarni suv o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish, xuddi shunday, gidrouzel naporini oshirib, suv qabul qilgichning yangi oralig'ini qurish, zatvorlar balandliklarini o'stirish yo'llari bilan yoki suv oladigan to'sinni rekonstruksiya qilish vositasida amalga oshiriladi.

Agar yuqorida sanab o'tilgan tadbirlar qimmat bo'lsa, unda suv oluvchi inshootning qo'shimcha suv qabul qilgichini qurish varianti ko'rib chiqiladi. Ko'p holatlarda suv qo'yiladigan lotokni oqimga ko'ndalang qo'yib (ustunlarda) suv olish maqsadga muvofiq bo'ladi, u magistral kanal bilan ochiq yoki yopiq inshoot ko'rinishida tutashtiriladi. Suv oluvchining suv o'tkazish qobiliyatini oshirish masalasi muayyan sharoitdan kelib chiqib, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar bilan belgilanadi.

Derivatsiyaga, erlarni sug'orishga va suv ta'minotini yaxshilashga suv beruvchi kanallarni suv o'tkazish qobiliyatini oshirishga to'g'ri kelganda suv tindirgichlar ham rekonstruksiya qilinadi.

Bunda, avval, mavjud suv tindirgichni kanallarni suv o'tkazish qobiliyati oshirilgan holatida ishlatish mumkinligi varianti ko'rib chiqiladi. Davriy, mexanik va yoki kombinatsiyalashgan tozalash bilan ishlaydigan suv tindirgichlar har doim zahira hajmga ega bo'ladi, unda yuvilishlar orasida oqizindilar akkumulyasiya qilinib turiladi. Suv tindirgich yuvilgandan so'ng u hisobiy suv sarfida, suv sathi tushgan holatda ishlaydi, bunda loyqa cho'kadigan kanalni himoyalash maqsadida yo'l qo'yiladigan loyqalik chiqazilib turiladi. SHuning uchun suv tindirgichda suv sathini ko'tarib ko'proq suv sarfi o'tkazish mumkin. Ammo, bunda, yuvilishlar orasi intervali qisqaradi. Bunday tadbir ekspluatatsion xarakterga ega, ammo u ko'p holatlarda amalga oshirilishi mumkin. Agar bu tadbirlar bilan ham suv tindirgichning suv sarfini oshirishni iloji bo'lmasa, bunda suv tindirgich kameralari soni, ular kengligi va uzunligi o'zgartiriladi. Ayrim holatlarda qo'shimcha suv tindirgich quriladi va u magistral kanal bilan tutashtiriladi. Suv oluvchi uzel yuqori befida DNS ko'tarilgan sharoitda, suv tindirgich kameralari devorlari ko'tariladi (o'stiriladi), bu ham suv o'tkazish qobiliyatini oshiradi.

Kanallarni rekonstruksiya qilish, ularni tayinlanishi, trassirovka qilingan sharoiti, unda beton va temir-beton inshootlarning mavjudligi, suv oluvchi inshootda suv sathini oshirishni iloji borligi yoki yo'qligi, qoplamasini mavjudligi va sh.o'. larga qarab har xil bo'ladi. Sug'orish kanalini, sug'orishlararo davrda, ba'zi bir uchastkalarni rekonstruksiya qilish uchun ishdan to'xtatib turish mumkin, bunga aholi suv ta'minoti uchun xizmat qiladigan kanallarda yo'l qo'yib bo'lmaydi. Katta uzunlikda gruntdan o'tgan kanallarni to'xtatmasdan kengaytirish mumkin, bunda er qazish texnikalari, gidromexanizatsiya vositalaridan keng foydalaniлади.

14.4. Gidrotexnika inshootlarini rekonstruksiya qilishni texnik – iqtisodiy asoslash

Gidrotexnika inshootlarini rekonstruksiya qilishning maqsadga muvofiqligi texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar bilan asoslanishi zarur.

Ishlab turgan gidrotexnika inshootning rekonstruksiya qilishini iqtisodiy sa-maradorligi, ishlab turgan inshootni (gidrouzelni) keyingi ishlatalish varianti (3d) ni rekonstruksiya varianti (3 rek.) sarf – xarajatlari bilan solishtirib aniqlanadi. Agar, bunda $3_{rek} \geq 3$ d, unda hisobi yilda iqtisodiy jihatdan inshootni rekonstruksiya qilish maqsadga muvofiq emas. $3_{rek} < 3$ d, bo'lsa, hisobi yildan boshlab inshootni rekonstruksiya qilish keyingi ishlatalishiga nisbatan iqtisodiy foydali bo'ladi. Agar bunda bir qator inshoot (gidrouzel) larni rekonstruksiya qilish navbatini aniqlash zarur bo'lsa, unda quyidagi parametrdan foydalanish mumkin:

$$K_i = (3_{d,i} - 3_{rek,i}) / 3_{rek,t} \quad (14.1)$$

Birinchi o'rinda qaysini K_i parametri eng ko'p bo'lsa shu inshoot rekonstruksiyaga qo'yiladi.

Keltirilgan sarf - xarajatlarni quyidagi, ma'lum bo'lgan, bog'lanish orqali hisoblab topiladi:

$$Z_i = K_i E_n + S_i \quad (14.2)$$

Bu erda K_i - i variant bo'yicha kapital qo'yilmalar, so'm; E_n - kapital qo'yilmalarning me'yoriy koefitsienti, u 0,15 ga teng; S_i - i variant bo'yicha har yillik ishlab chiqarish joriy sarf xarajatlari (tannarx), so'm.

K_i va S_i xarakteristikalar kapital qo'yilmalar va yillik mahsulotning to'la (absolyut) yig'indisi qiymati bilan ham, xuddi shunday iste'mol effekti (hajm, sifat, mahsulot tarkibi va sh.o'.) tengligi asosida yotgan variantlarni to'la taqqoslashga majburiy rioya qilib solishtirma qiymati

(1 ga ga, 1 m³ suvg'a, 1 kVt ga va sh.o'.) bilan ham ifodalanishi mumkin. Variantlar, har qanday holatda, ob'ektlar turi, sarf – xarajat vaqt va samara olinishi, sarf – xarajat va samarani ifodalash uchun qabul qilingan baholar, oddiy va kengaytirilgan ishlab chiqarishga taalluqli sarf – xarajatlar xarakteri va samaradorligi, samaradorlikni hisoblash uchun qo'llaniladigan bahoviy va natural ko'rsatgichlarni hisoblash usullari; kapital qo'yilma hajmiga kiradigan sarf – xarajatlar; atrof-muhitga ta'siri va samaradorligi aniqlanishi talab qilinadigan ko'rsatgichdan tashqari, boshqa omillar bo'yicha taqqoslanadigan bo'lishi kerak.

Kapital qo'yilmalarni amalga oshirilishi davri ichidagi har xil yillar sarf – xarajatlarni bazis yiliga keltirish kerak bo'ladi, chunki har yillik kapital qo'yilma va ishlab chiqarish chiqimlari yillar bo'yicha o'zgarib turadi. Vaqt omilini mos yilning keltirilgan sarf – xarajatlarini keltirish koefitsientiga ko'paytirish yo'li bilan hisobga olish mumkin, u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\alpha_t = (1 + E_{n,n})^{t-t}$$

bu erda

$E_{n,p} = 0,1$ ga teng qabul qilinadigan me'yoriy keltirish koefitsienti;
 τ va t – bazis va joriy yil.

Bazis yili sifatida rekonstruksiya qilinayotgan inshootning birinchi ishlatish yili qabul qilinishi mumkin. Bir qator yil davomida yoki har xil muddatlarda kapital qo'yilmalarni amalga oshirish sharoitida, shuningdek agar har yillik chiqim va ishlab chiqarish hajmi ishlatish yillari bo'yicha o'zgarib tursa, sarf – xarajatlar α_t koefitsientiga ko'paytirish yo'li bilan bazis yiliga keltiriladi.

Quyida, keyinchalik ishlatiladigan variant va inshoot (gidrouzel) rekonstruksiya qilinadigan variant bo'yicha keltirilgan sarf xarajatlarni aniqlash yo'llarini qurib chiqamiz.

Keyinchalik ishlatiladigan variant bo'yicha keltirilgan sarf – xarajatlar, umumiy ko'rinishda, quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Z_d = Z_{def} + Z_{nad} + S_{g.t.s.} \quad (14.4)$$

bu erda, Z_{def} – suv resurslari defitsiti (etishmovchiligi), elektrenergiyasi ishlab chiqarilishi, suv uzatish; yuklarni tashish va sh.o'.larni kompensatsiya qilish imkoniyatini beradigan almashtiriladigan inshootlar yoki tadbirlar bo'yicha keltirilgan sarf – xarajatlar, so'm;

Z_{nad} – suv bilan elektrenergiyasi ishlab chiqarish, suv uzatish, yuklarni tashish va sh.o'. larni ta'minlash ishonchliligin pasayishini kompensatsiya qilish imkoniyatini beradigan almashtiriladigan inshootlar yoki tadbirlar bo'yicha keltirilgan sarf – xarajatlar, so'm;

$S_{g.t.s.}$ – mavjud gidrotxnika inshooti (gidrouzel)ni keyinchalik ishlatish bo'yicha har yillik chiqimlar.

Agar kompensatsiya uchun yangi gidrotxnika inshootlari yaratilgan bo'lsa Z_{def} va Z_{nad} lar qiymatini (16.2) bog'lanish orqali hisoblash mumkin. Bundan tashqari ular quyidagicha taxminan aniqlanishi mumkin:

$$Z_{def} = Z_v W; \quad Z_{nad} = f(P) \quad (14.5)$$

bu erda Z_v – bir birlikdagi suv, elektr energiyasi, tashiladigan yuk va sh.o'. larni rekonstruksiya qilinmagan sharoitdagi bahosini baholashning tutashgan (yiriklashtirilgan) iqtisodiy ko'rsatgichlari, so'm;

W – rekonstruksiya qilinmagan sharoitda suv, elektr energiyasi ishlab chiqarish, yuk tashishning etishmagan hajmi;

R – ishonchliligini pasayishi hisobga ish faoliyatidagi inshootning avariysi ehtimolligi.

Mavjud inshoot (gidrouzel) ni keyingi ishlatishi bo'yicha har yillik chiqimlar (joriy sarf – xarajatlar) va quyidagi bog'lanish orqali hisoblanadi:

$$C_{R.R.C.} = \sum_1^{T_{k_r}-1} C_{\kappa,p} \alpha_t + \sum_1^{T_o} C_{T,p} \alpha_t + \sum_1^{\gamma_{\kappa}-1} C_{\gamma_k} \alpha_t \quad (14.6)$$

bu erda S_{k_r} – bir kapital ta'mirlashga ketadigan sarf – xarajatlar, so'm;

S_{t_r} – bir o'rtacha yillik joriy ta'mirlash sarf – xarajatlari, so'm;

S_{ek} – ob'ektni kerakli ishchi holatini ushlab turish bilan bog'liq va kapital hamda joriy ta'mirlashlar tarkibiga kirmagan sarf – xarajatlar, so'm;

t – kapital va joriy ta'mirlashlar o'tkaziladigan yillar yoki ishlatish jarayonida ob'ektni kerakli holatini ushlab turish bo'yicha sarf – xarajatlar;

$\gamma_{k_r} - 1$ – ishlatish T_o davri ichida hisobiy yilgacha inshootni kapital ta'mirlashlar soni, u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\gamma_{\kappa,p} - 1 = T_o / T_{\kappa,p} - 1 \quad (14.7)$$

T_o – inshootni hisobiy yilgacha ishlatish hisobiy davri, yillar;

T_{k_r} – ish faoliyatidagi inshoot (gidrouzel) ni kapital ta'mirlash davriyligi, yillar

$$\gamma_{\gamma_k} - 1 = T_o / T_{\gamma_k} - 1 \quad (14.8)$$

T_{ek} – inshootni kerakli ishchanlik qobiliyatini ushlab turish bilan bog'liq keltirilgan sarf – xarajatlar davriyligi.

Rekonstruksiya qilinadigan gidrotexnika inshooti varianti bo'yicha keltirilgan sarf – xarajatlar quyidagi bog'lanishlar orqali aniqlanadi:

$$\beta_{pek} = E_n (K_{pek} + K_{\kappa} + \Phi_{om} + \Phi_{us}) + C_{pek} \quad (14.9)$$

bu erda K_{rek} – smetalar bo'yicha aniqlanadigan inshoot (gidrouzel) ni re konstruksiyasiga ketadigan kapital qo'yilmalar hajmi, so'm;

K_{κ} – inshootni rekonstruksiya qilish davrida suv omboridagi suv ni sathini pasayishi natijasida suvni, elektr energiyasi ishlab chiqarilishi, yuklarni tashilishi va sh.o'. yo'qotilishi lardagi kompensatsiya sarflari, so'm;

Φ_{os} – inshoot rekonstruksiya qilinayotganda tugatilayotgan, demon taj qilinayotgan jihozlar, detallar, uzellar va sh.o'. lar qoldiq summasi, so'mda, u quyidagi formiula bilan

aniqlanadi:

$$F_{ost} = F_{bal.} (1 - N_{ar} T_f) \quad (14.10)$$

F_{bal} – inshoot yoki jihozning balans qiymati, so‘m;

N_{ar} – inshoot yoki jihoz bo‘yicha to‘la qayta tiklash uchun amortizatsiya ajratmasining me‘yori, u balans bahosiga nisbatan foizlarda asosiy inshootlar bo‘yicha aniqlanadi;

T_f – rekonstruksiya qilish momentiga inshootning amaldagi xizmat muddati, yillar;

F_{likv} – rekonstruksiya qilinadigan inshoot elementlarining demontaj qilinadigan jihoz, detallar, qurilmalar va sh.o‘. tugatish bahosi, so‘m;

S_{rek} – rekonstruksiya qilinadigan inshoot (gidrouzel) ni ishlashiga ketadigan har yillik chiqimlar, so‘m.

Gidrouzelni rekonstruksiya qilish kompleks ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin, shuning uchun uni samaradorligini xalq xo‘jaligini mos sohasida alohida masalalarni hal qiladigan alternativ variantlar samaradorligi bilan taqqoslash orqali baholash kerak bo‘ladi. Xo‘jalik hisobida hisob – kitob qilinishi sharoitida kompleks tayinlanishga ega gidrouzel bo‘yicha sarf – xarajatlar, suv xo‘jaligi kompleksi ishtirokchilari, alohida sohalar, idoralar, birlashmalar, korxonalar orasida, ular oladigan iqtisodiy samaraga proporsional bo‘lib yuboriladi.

Glossariy

Gidrotexnika inshooti – suv boyliklari (resurslari)dan foydalanish va atrofdagi muhitga suvni salbiy ta’sirini yo‘qotish yoki pasaytirish maqsadida quriladigan muhanlislik inshooti.

Gidrouzel (gidrotexnika inshootlar bo‘g‘ini) – bir joyda qurilgan va ishlash sharoiti bo‘yicha bir – biri bilan bog‘langan bir necha gidrotexnika inshootlar yig‘indisi.

Daryo gidrouzeli – daryoga qurilgan gidrotexnika inshootlar bo‘g‘ini.

Gidrotexnika inshooti ishonchligi – bu gidrotexnika inshootidan foydalanish sharoitida buzilmasdan qo‘yilgan vazifalarni sifatli bajarishi.

Konstruktiv ishonchlilik ko‘rsatkichlari – inshootlarning mustahkamligi, barqarorligi, suv o‘tkazmasligi, sovuqqa chidamligi.

Texnologik ishonchlilik ko‘rsatkichlari – bu bosim, suv sarfi, suv omborining hajmi, elektr quvvati ishlab chiqarish, suv olishni, suv berishni va suv chiqarishni ta’minlash, baliqlar, kemalarni o‘tkazish.

Arxitektura ko'rsatgichi – landshaft no'qtai nazaridan arxitektura talablariga mos kelishi, yuzasining fakturasi, rangi, tashqi ko'rinishi va hokazolarni mavjudligi.

Uzoq muddat ishslash xususiyati - daryo gidrouzeli tarkibidagi gidrotexnika inshootlarni belgilangan vaqtgacha o'zning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini ishdan chiqarmasdan saqlab qolishi qobiliyati.

Remontga, ta'mirlashga yaroqligi xususiyati - gidrotexnika inshootlarini buzilishi va shikastlanishini tuzatish uchun vaqt va mablag' sarflab tiklash imkoniyati mavjudligi.

Gidrotexnika inshooti eskirishi yoki ishdan chiqishi - gidrotexnika inshootiga quylgan talabni qisman yoki bajarilmasligi.

Gidrotexnika inshooti jismonan eskirishi – inshoot o'zning boshlangich texnik qobiliyatlarini (mustahkamligi, barqarorligi, oqimning ortiqcha quvvatini so'ndirish, suv o'tkazmaslik, salbiy haroratlarga chidamligi va boshqa qobiliyatlarini) qisman yo'qotilishi.

Gidrotexnika inshootni ma'naviy eskirishi - mavjud gidrotexnik inshootini zamon va texnikaviy taraqqiyot darajasi talablariga muvofiq kelmasligi.

Joriy ta'mirlash (remont) - inshootning konstruktiv elementlari yoki mexanik jihozlarini almashtirmasdan tuzatish.

Gidrotexnik inshootini kapital ta'mirlash - gidrotexnika inshootini (elementlarini) to'liq o'zgartirish yoki almashtirish.

Defekt jadvali - gidrotexnik inshootida yuz bergan o'zgarishlarni shakli, turi va hajmini ko'rsatuvchi jadval.

O'pirilish – qo'shimcha kuch ta'sirida grunt massasini uzilib tushishi.

Ko'chish - turli jinsli grunt qatlamini tutashgan joyidan siljishi.

Suv bilan to'yingan o'pirilishlar - gruntni suv bilan to'yinishi ta'sirida ko'chishi.

To'kilmalar – qiyaliklaridangi yoki tik qirg'oqlardagi grunt bo'laklarini harakati.

YOriqlar – tashqi kuch yoki notekis cho'kishi ta'sirida inshootda yuzaga keladigan o'zgarish.

Egatlar – yog'ingarchilik ta'sirida qiyaliklarda yuzaga keladigan ariqchalar.

CHo'kish – inshoot osti yoki tanasidagi gruntni zichlanishi yoki unda yuz bergan suffoziya ta'sirida paydo bo'lgan chuqr joylari.

CHo'kish yoriqlari – inshoot cho'kishidan hosil bo'lgan yoriqlar.

Burtib chiqishi – inshoot bosimi yoki filtratsiya oqimi ta'siri ostida grunt inshoot tanasi yoki asosidagi gruntning ko'tarilishi.

SHishib chiqishi – gruntning muzlashi yoki erishi sababili suvga to'yib zichligini yo'qotgan gruntni ko'tarilishi.

YUvilishi - suvning harakati natijasida qiyaliklardagi yoki tekisliklardagi gruntni yuvilishi.

. **Muz yoki suzuvchi jismlar ta'sirida yuz bergan kuchish chiziqlari** – inshoot qirg'oqlarini muzlar yoki suzuvchi jismlar ta'sirida gruntning emirilishi.

Ho'l dog'lari – inshootdag'i suv izlari, dog'lari.

Suvni kuchsiz sizib chiqishi – qiyalikdan suv tomchilari shaklida sirpanib tushadigan yoki grunt yuzasida kichik halqobcha shaklida yig'iladigan suv.

Suvni kuchli sizib chiqishi – inshoot sirtida sizib chiqqan suvni jilg'a bo'lib oqishi.

Gruntning qaynab turishi (grifonlar) – suv va bog'lanmagan grunt aralashmasining ayrim katta bo'limgan foyvoralar shaklida filtratsiya oqimining chiqishi, inshoot asosidan filtratsiya chiqishi joyida pastki qiyaligi chegarasidan so'ng kuzatilishi mumkin.

Buloqlar – qirg'oqlar, inshootlarda, kotlovanlarda, pastki befning quruq o'zanida yoki to'g'onning pastki qiyaligida (yon bag'rida) to'plangan filtratsiyaning ayrim suv oqimlari shaklida chiqishi.

Reperlar – Balandlik asosidagi dastlabki belgilari, ular barcha foydalanilishi (ekspluatatsiyasi) davrida ko'zg'almaydigan. Ular niveler yordamida inshootning ayrim nuqtalarini balandligidagi joylashuvini aniqlash uchun xizmat qiladilar.

Markalar – tekshiriladigan (tadqiqotlangan) inshootga yoki uning asosiga o'rnatiladigan va u bilan birga suriladigan (joyini o'zgaradigan) plandagi nuqtasi fiksatsiyalangan (aniqlangan) asboblardir. Markalarning reperlarga nisbatan surilishiga (joyini o'zgartirishiga) qarab inshootlar ko'chirishlarini aniqlashadi.

Ko'rsatkichlar – arning ustidagi belgilari, ular inshootlarning o'qini, ularning burlish joyini, er ostidagi tadbirlar (drenajlar, ekranlar, o'zaklar, o'lhash stvorlar va hokazolar) va konstruksiyalarning boshlanishi va oxiridagi joylarini ko'rsatadilar.

Stvor belgilari – inshootning uzunligi bo'yicha uzunlik masofalarini aniqlash (fiksatsiyalash) uchun o'rnatiladigan belgilari.

Pezometrlar - inshootlar tanasining ayrim nuqtalarida va asosida pezometrlik bosimini o'lhash uchun xizmat qiluvchi asboblar.

Adabiyotlar

1. Altunin V.S. Meliorativnye kanaly v zemlyanых ruslax. – M.: Kolos, 1979. – 256 s.
2. Altunin S.T. Vodozaborognye uzly i vodoxraniliща. –M.: Kolos, 1964. - 431 s.
3. Artamonov K.F. Regulirovochnye soorujeniya pri vodozabore na rekakh v predgornykh rayonax. Frunze, izd. AN Kirgizistan, 1965. - 344 s.
4. Achkasov G.P., Ivanov E.S. Texnologiya i organizatsiya remonta meliorativnykh gidrotexnicheskix soorujeniy. – M.: Kolos, 1984. – 174 s.
5. Bakiev M.R., Tursunov T.N., Durmatov J. Suv xo'jaligi tashkilotlari ekspluatatsiya xizmati ishini tashkil etish buyicha ko'rsatmalar. O'zR Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, TIMI. –T.: 2006 y. – 24 b.
6. Boyko M.D. Texnicheskoe obslujivanie i remont zdaniy i soorujeniy. – L.: Stroyizdat, 1986. – 254 s.
7. Bochkarev YA.V., Ovcharov E.E. Osnovy avtomatiki i avtomatizatsii proizvodstvennykh protsessov v gidromelioratsii. –M.: Kolos, 1981.–332 s.
8. Gidrotexnicheskie soorujeniya/ N.P. Rozonov, YA.V.Bochkarev, V.S.Lapshenkov i dr.; Pod red N.P.Rozonova. – M.: Agropromizdat, 1985. – 432 s.
9. Daniel D.Bredlou, Aleksandro Polmeri, Salman M.A. Salman Normativno – pravovaya baza bezopasnosti plotin. Sravnitelnyy analiticheskiy obzor. Vsemirnyy bank. – M.: Izd. «Mir», 2003, - 174 s.
- 10.Zamarin E.A. Fandeev V.V. Gidrotexnicheskie soorujeniya. – izd. 3 e, - M.: Gos izd. Selkhoz.literatury, 1954. - 560 s., il.
- 11.Irrigatsiya Uzbekistana, v chetyrekh tomakh, tom I, II, III, IV, - T.: Fan 1975, 1975, 1979, 1981.
- 12.Kaveshnikov N.T. Ekspluatatsiya i remont gidrotexnicheskix soorujeniy. – M.: Agropromizdat, 1989. – 272 s. il.
- 13.Kazakboev K.K., Hamraev N.R., Dianov V.G. Plotiny Sredney Azii. T., «Uzbekistan», 1973, - 192 s. il.
- 14.Katodnaya zaščita ot korrozii oborudovaniya i metallicheskix konstruksiy gidrotexnicheskix soorujeniy. VSN 39-84 / Minenergo.- L.: 1985. – 46 s.
- 15.Kompleksnye naturnye gidravlicheskie issledovaniya vodosbrosnykh soorujeniy. Sb. nauchnykh trudov Gidroproekta /L.A.Goncharov, V.A. Komarov, L.D. Lentyaev i dr. – M.: 1983. – Vyp. 91. – s. 9...20.
- 16.Muhamedov A.M. Ekspluatatsiya gidrouzlov na rekakh, transportiruyushchix nanosy. – T.: «Fan», 1976. – 240 s. il.
17. Metodicheskie ukazaniya po borbe s zatorami i zajorami lda. VSN -028 – 70. – L.: Energiya, 1970. – 148 s.

18. Metodicheskie rekomendatsii k sostavleniyu proekta razmeshcheniya kontrolno-izmeritelnoy apparatury v betonnykh gidrotehnicheskix soorujeniyax. P41-70 / Minenergo, - L.: VNIIG, 1971. – 102 s.
19. Mamarasulov S.M. Ekspluatatsiya orositelnyx sistem na promyshlennoy osnove. Obzornaya informatsiya № 10, - M. SBNTI Minvodxoza, 1972. -84 s.
20. Mirsxulava S.E. Nadejnosc' gidromeliorativnyx soorujeniy. – M.: Kolos, 1974. – 172 s.
21. Natalchuk M.F., Axmedov X.A., Olgarenko V.I. Ekspluatatsiya gidromeliorativnyx sistem. – M.: Kolos. 1983. – 279 s. il.
22. Naturaльnye nablyudeniya i issledovaniya na betonnykh i jelezobetonnykh plotinax. P 16-84. – L.: VNIIG, 1985. – 108 s.
23. Perexvalskiy V.S., Salov A.N., Uglanov M.A. Podvodno – texnicheskie raboty na rechnom transporte. – M.: Transport, 1986. – 254 s.
24. Polojenie o texnicheskem obslujivanii i remonte vnutrioxyaystvennoy meliorativnoy sistemy i soorujeniy na ney v Uzbekskoy SSR. – T.: SANIIRI, 1987.- 64 s.
25. Polojenie. Otraslevaya sistema nadzora za bezopasnostyu gidrotehnicheskix soorujeniy elektrostansi Minenergo. RD RUz 34 – 586 – 98. –T.: Minenergo RUz.,1998. – 38 s.
26. Pravila texnicheskoy ekspluatatsii orositelnyx sistem. – M.: 1975.- 43 s.
27. Polojenie ob avariynom zapase materialov, instrumenta i oborudovaniya na vodoxraniliščах, kanalax, gidrouzlax i nasosnyx stansiyax (Utverđen Kabinetom Ministrov RUz 24.01.2000 g.). – T. Minselvodxoz RUz., 2000 g. – 45 s.
28. Postanovlenie Prezidenta RUz «O merax po predupređeniyu chrezvychaynyx situatsiy, svyazannix s pavodkami, selevymi, snegolavinnymi i opolznevymi yavleniyami, i likvidatsii ix posledstviy», № PP-585 ot 19 fevralya 2007 g. – T.:
29. Postanovlenie Kabineta Ministrov RUz «O sovershenstvovanii organizatsii deyatelnosti Ministerstva selskogo i vodnogo xozyaystva Respubliki Uzbekistan», № 290 ot 28 iyunya 2003 g. – T.:
30. Postanovlenie Kabineta Ministrov RUz «Ob utverđenii Polojeniya o vodoohrannyx zonax vodoxranilišč i drugix vodoemov, rek, magistralnyx kanalov i kollektorov, a takje istochnikov pitevogo i bytovogo vodosnabjeniya, lechebnogo i kulturno – ozdorovitelnogo naznacheniya v Respublike Uzbekistan», № 174 ot 7 aprelya 1998 g. – T.:
31. Postanovlenie Kabineta Ministrov RUz «O limitirovannom vodopolzovanii v Respublike Uzbekistan» № 385 ot 3 avgusta 1993 g. - T.:

32. Polonskiy G.A. Mekanicheskoe oborudovanie gidrotehnicheskix soorujeniy. – M.: Energiya, 1974. – 344 s.
33. Popchenko S.N. Gidroizolyasiya soorujeniy i zdaniy. – L.: Stroyizdat, 1981. - 304 s.
34. Rekomendatsii po naturnym nablyudeniyam i issledovaniyam filtratsiy v podzemnykh gidrotehnicheskix soorujeniyax. P.10-83. –L.: VNIIG, 1983. - 138 s.
35. Rekomendatsiya po nablyudeniyam za napryajenno – deformirovannom sostoyanii betonnykh plotin. P 100-81. –L.: VNIIG, 1982. - 144 s.
36. Rekomendatsii po organizatsii i provedeniyu naturnykh nablyudeniy i issledovaniy vozdeystviya potoka na gidrotehnicheskie soorujeniya i ruslo reki v nijnem bafe. P 70-78. – L.: VNIIG, 1978. – 56 s.
37. Rekomendatsii po zashite sistem texnicheskogo vodosnabjeniya elektrostansiy ot obrastaniya mollyuskom dreyssenoy. P 72-78. – L.: VNIIG, 1978. – 31 s.
38. Rukovodstvo po naturnym nablyudeniyam za deformatsiyami gidrotehnicheskix soorujeniy i ix osnovaniy geodezicheskimi metodami. P – 648. – M.: Energiya, 1980. – 198 s.
39. Rukovodstvo po opredeleniyu ekonomiceskoy effektivnosti povysheniya kachestva i dolgovechnosti stroyitelnykh konstruksiy /NIIJB Gosstroya. – M.: 1981.
40. Rukovodyashie ukazaniya po zashite ot korrozii mekanicheskogo oborudovaniya i metallokonstruktii gidrotehnicheskix soorujeniy lakokrasochnymi pokrytiyami / Minenergo. – L.: 1976. - 104 s.
41. Serkov V.S. Ekspluatatsiya gidrotehnicheskix soorujeniy i gidroelektrostansiy. – M.: Energiya, 1977. – 228 s.
42. Sokolov V.V., Nikitin P.P. Podvodnye obsledovaniya transportnykh soorujeniy. – M.: Transport, 1986. – 178 s.
43. Spravochnik po gidravlicheskim raschetam /pod red. P.G.Kiseleva. – M.: Energiya, 1972. – 240 s.
44. Tipovaya instruksiya po ekspluatatsii orositelnykh kanalov. –T.: SANIIRI, 1959.- 24 s.
45. Tipovaya instruksiya po ekspluatatsii uzlovykh soorujeniy so sbrosom, raspolojenniykh na kanalakh orositelnykh sistem. – T.: SANIIRI, 1959. -20 s.
46. Tipovaya instruksiya po ekspluatatsii vodoxraniliщ dlya nujd orosheniya, emkostyu do 10 mln.m³ VSN 33 -3.02.01 – 84.– M.; 1982. - 110 s.
47. Tipovaya instruksiya po texnicheskoy ekspluatatsii rechnykh plotinnyx vodozaborov orositelnykh sistem. VSN 33 – 3.02-88. – M., 1983. -58 s.
48. Tipovye pravila ekspluatatsii vodoxraniliщ emkostyu do 10 mln. m³ i bolee. RD 33 – 3. 2.08-87. Izd. ofitsialnoe. M., 1987. – 154 s.

- 49.Tursunov T.N. Polojenie o sentralizovanom obsledovanii i otsenke texnicheskogo sostoyaniya gidrotxnicheskix soorujeniy v Respublike Uzbekistan. – T.: KM RUz.,2001 g. – 23 s.
- 50.O‘zbekiston Respublikasining «Gidrotxnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida» gi qonuni, - T., 1999.
- 51.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Suv xo‘jaligini boshqarashni tashkil etishni takomillashtirish haqida» gi 2003 yil 21 iyuldagи 320 - qarori.
- 52.O‘zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida» gi qonuni, - T., 1993.
- 53.Sementatsiya skalnyx osnovaniy gidrotxnicheskix soorujeniy. VSN 34-83 /Minenergo. – L., 1984. – 54 s.
- 54.SHirkat xo‘jaliklari va suvdan foydalanuvchi uyushmalarining gidrotxniklari uchun qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi», 2000. – 120 b.
- 55.SHNQ 3.01.04-04 «Qurilishi tugallangan ob‘ektlarni foydalanishga qabul qilish. Asosiy holatlar». – T.; O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi. 2004.

Nº t.r.	Mavzu nomi	bet
I	Kirish. Respublikamiz territoriyasida gidrotexnika inshootlarini rivojlanish tarixi	5
II	Gidrotexnika inshootini foydalanishga topshirish	
2.1	Inshootni qurish davrida bajariladigan nazorat ishlari	17
2.2	Qurilishi tugallangan gidrotexnika inshootni foydalanishga topshirish	18
2.3	Gidrotexnika inshootini ekspluatatsiya qilish qoidalarini tuzish bo'yicha ko'rsatmalar	21
2.4	Qurilishi tugallangan inshootda tadqiqot ishlari	23
III	Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar	
3.1	Gidrotexnikak inshootlarini ishlash sharoitlari	27
3.2	Respublikamizda suv va gidrotexnika inshootlaridan foydalanish to'g'risida qabul qilingan qonunlar, qarorlar va hujjalalar	33
3.3	Gidrotexnika inshootini ishonchli va barqaror ish faoliyatiga ta'sir qiluvchi omil	40
3.4	Respublika suv xo'jalik soxasida ekspluatatsiya xizmati	44
3.5	Suv xo'jalik tizimida dispatcherlik xizmati	59
3.6	Suv xo'jalik tizimida suv taqsimlash ishlari	64
IV	Gidrotexnika inshootlari ekspluatatsiya xizmati tomonidan bajariladigan asosiy ishlari	
4.1	Umumiy qoidalari	71
4.2	Gidrotexnika inshootlari ekspluatatsiya xizmatining asosiy vazifalari	72
4.3	Gidrotexnika inshootlari ekspluatatsiya xizmati ishini tashkil qilish	73
4.4	Gidrotexnika inshootlarida ekspluatatsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun ko'rsatiladigan xizmat (servis) turlari	76
4.5	Gidrotexnika inshootlarni bexatar ishlatish ko'rsatkichlari	77
4.6	Gidrotexnika inshootlarining texnik holati va bexatar ishslashini nazorat qilish (kuzatish) ishlari	78
4.7	Gidrotexnika inshootlariga texnik qarov ishlari	82
V	Kanal tizimida ekspluatatsiya xizmati	
5.1	Ishchi - xizmatchilarni sonini belgilash	84
5.2	Kanalni foydalanishga topshirish davrida ularni suvgaga to'ldirish va suvdan bo'shatish rejimi. Kanaldagi filtratsiya jarayoni.	88
5.3	Kanal o'zanida loyqa cho'kishi va o'simliklar o'sishiga qarshi	94

	kurash. Qish davrida kanaldan foydalanish xususiyatlari	
5.4	Kanalda tutashtiruvchi va suv o'tkazuvchi inshootlarni ishlatish	104
VII	Suv tusuvchi grunt inshootlarni texnik holatini kuzatish	
6.1	Ko'z bilan kuzatish	109
6.2	Inshootdagi holatni kuzatish uchun qo'llaniladigan reperlar, markalar va asboblarning konstruksiyalari hamda ularning joylashishi	113
6.3	Grunt to'g'onlardan suvni sizib o'tishini kuzatish uchun qo'llaniladigan pezometrlar va ularni joylashishi	127
6.4	Gruntli inshootlardagi zo'riqish holatni kuzatish	143
VII	YAxlit beton inshootlarini texnik holatini kuzatish	
7.1	Ko'z bilan kuzatish	145
7.2	Inshootlarni cho'kishi, gorizontal siljishi va egilishini kuzatish uchun qo'llaniladigan asbob - uskunalar	149
7.3	Inshootlarni yoriq va choklarni kuzatish uchun qo'llanila-digan asboblarning konstruksiyalari hamda joylashtirushi	154
7.4	Betonning mustahkamlik xarakteristikalari va zo'riqish-deformatsiyalangan holatini aniqlash	159
7.5	Gidrotexnik inshooti tanasi va asosdan o'tayotgan filtratsiya suvini ta'sirini kuzatish	166
7.6	YAxlit beton inshootlardagi nazorat-o'lchov asboblarini shartli belgilash va ularni joylashishiga misollar	168
7.7	YAxlit inshootlar holatini kuzatish ma'lumotlarini tahlil qilish	172
VIII	Suv o'tkazuvchi inshootlar va ularning mexanik jihozlarndan foydalanish	
8.1	Suvni muzlash holati. Muz va qorlarni tiqilib qolishiga qarshi kurashish	174
8.2	Muz, mayda muz bo'laklari to'plami va boshqa suzib yuruvchi jinslarni suv o'tkazgichlar oraliqlari va o'zanni toraygan joylaridan (qurilish davrida) o'tkazish	177
8.3	Pastki bef dagi yuvilishlarni kuzatish	181
8.4	Oqimi katta tezikka ega gidrotexnika inshootlarini texnik holatini kuzatish	183
8.5	Zatvorlarni manyovrash	186
8.6	Toshqin davri va avariya sharoitidagi ekspluatatsiya tadbirlari	190
8.7	Inshootdagi mexanik jihozlarni ishlatish	198
8.8	Gidrotexnika inshooti elementlarining korroziyasi va sirtlarini o'sishiga qarshı kurashish	210
8.9	O'zanni kuzatish va o'zan rostlash inshootlarini ishlatish	219
8.10	Gidromelioratsiya tizimi gidrotexnika inshootlarini ishlatish	225
IX	Suv oluvchi inshootlar va suv tindirgichlarini ishlatish	
9.1	Suv oluvchi uzellardagi ekspluatatsiya tadbirlari	227
9.2	Suv tashlovchi va suv oluvchi inshootlarning oraliqlarini ochish	228

	xususiyatlari	
9.3	Inshootning yuqori va pastki beflarida loyqa bosishiga qarshi kуrash	230
9.4	Loyqani cho'ktirish maqsadida suv tindirgichlarni foydalanish	233
9.5	Suv tindirgichlarni loyqa cho'kindilardan tozalash	236
X	Baliqlarni o'tkazuvchi va himoyalovchi inshootlarni ishlatish	
10.1	Baliqlarning biologik qonuniyatları	238
10.2	Baliqlarni o'tkazuvchi shlyuzlarni ishlatishning texnologik sxemalari va baliqlarni o'tkazuvchi boshqa inshootlarning xususiyatlari	240
10.3	Baliqlarni himoya qiluvchi inshootlardan foydalanish	243
XI	Suv omborlarini ishlatish	
11.1	Suvomborini qurish davrida bajariladigan ishlari.	247
11.2	Suvomborini ishga tushirish	251
11.3	Tabiatni muhofaza qilishning ekspluatatsiya tadbirlari	253
11.4	Akvatoriyadagi asosiy ekspluatatsiya tadbir	255
11.5	Suv omborlarida kuzatish ishlari	256
XII	Gidrotexnika inshootlari va ularning mexanik jihozlaridagi buzulish holatlari	
12.1	Umumiy holatlari	263
12.2	Grunt to'g'onlardagi buzulish va avariya holatlari	265
12.3	Beton va tosh to'g'onlardagi buzulish va avariya holatlari	270
12.4	Suv tashlama va mexanik jihozlardagi buzulishlar	272
12.5	Boshqa inshootlardagi shikastlanish va avariylar	276
XIII	Ta'mirlash va qayta tiklash ishlari	
13.1	Grunt inshootlar tepasi va qiyaliklaridagi buzulishlarni ta'mirlash	278
13.2	Grunt to'g'onlar, asoslari va qirg'oqga tutash qismlari orqali suvni jadal sizib o'tishini bartaraf qilish	287
13.3	Grunt inshootlardagi suvni sizib o'tishiga qarshi elementlar va drenaj tizimlarni ta'mirlash	288
13.4	YAxlit beton inshootlardagi umumiy va mahalliy buzulishlarni bartaraf qilish	301
13.5	SHponka, chok, yoriqlardan suvni oqib chiqishini bartaraf qilish va betoning suv o'tkazmaslik qobiliyati hamda mustahkamligini qayta tiklash	306
13.6	Gidrotexnika inshooti pastki befida ta'mirlash ishlarini olib borish	313
13.7	Tunnel va quvurli inshootlarni ta'mirlash xususiyatlari	321
13.8	Gidromelioratsiya tizimi inshootlarni ta'mirlash	322
13.9	Gidrotexnika inshootlarini ta'mirlash - qayta tiklash ishlarini tashkil qilish	327
XIV	Gidrotexnika inshootlarini rekonstruksiya qilish	
14.1	Gruntli to'g'onlarni rekonstruksiya qilish	328

14.2	Beton to‘g‘onlarni rekonstruksiya qilish	333
14.3	Suv tashlama, suv oluvchi inshootlar, suv tindirgichlar, magistral kanallarni rekonstruksiya qilish xususiyatlari	338
14.4	Gidrotexnika inshootlarini rekonstruksiya qilishni texnik – iqtisodiy asoslash	341
	Glossariy	344
	Adabiyotlar	347

Оглавлений

№	Название темы	стр
I	История развития гидротехнических сооружений на территории Республики	5
II	Ввод в эксплуатацию гидротехнических сооружений	
2.1	Контрольные работы выполняемая во время строительства сооружений	17
2.2	Ввод в эксплуатацию построенных гидротехнических сооружений	18
2.3	Инструкция по составлению правил эксплуатации гидротехнических сооружений	21
2.4	Научно-исследовательские работы в построенных сооружениях	23
III	Информация по эксплуатации гидротехнических сооружений	
3.1	Условия эксплуатации гидротехнических сооружений	27
3.2	Приняты законы, постановления и документы по использованию водных ресурсов и гидротехнических сооружений в Республике	33
3.3	Факторы, влияющие на надежно и устойчиво работу гидротехнических сооружений	40
3.4	Эксплуатационная служба в водном хозяйстве Республики	44
3.5	Диспетчерская служба в водохозяйственной системе	59
3.6	Распределение воды в водохозяйственной системе	64
IV	Основные работы, выполняемые службой технического обслуживания гидротехники	

4.1	Общие положения	71
4.2	Основные задачи службы эксплуатации гидротехнических сооружений	72
4.3	Организация эксплуатационная служба гидротехнических сооружений	73
4.4	Виды сервисов для осуществления эксплуатационных мероприятий на гидротехнических сооружениях	76
4.5	Показатели безопасной эксплуатации гидротехнических сооружений	77
4.6	Работы по надзору (наблюдение) за техническим состоянием и безопасностью эксплуатации гидротехнических сооружений	78
4.7	Работы по техническому уходу за гидротехническими сооружениями	82
V	Эксплуатационная служба система каналов	
5.1	Определение количества работников эксплуатационная служба	84
5.2	Режим наполнения и опражнения канала при вводе в эксплуатацию. Процесс фильтрации в канале.	88
5.3	Фильтрация воды, борьба с застанием и засорением в каналах Особенности эксплуатации каналов в зимних условиях	94
5.4	Особенности эксплуатации сопрягающих и водопроводящих сооружений	104
VI	Наблюдения за грунтовыми водоподпорными сооружениями	
6.1	Визуальные наблюдения	109
6.2	Назначение, конструкция и размещение реперов, марок и приборов для наблюдения за перемещениями сооружений	113
6.3	Конструкция, размещение пьезометров и других устройств для наблюдения за фильтрацией в грунтовых плотинах	128
6.4	Наблюдения за напряженным состоянием грунтовых сооружений	143
VII	Наблюдения за массивными бетонными сооружениями	
7.1	Визуальные наблюдения	145
7.2	Конструкции и принцип размещения приборов для наблюдения за осадками, горизонтальными перемещениями и наклонами	149
7.3	Конструкции и принцип размещения приборов для наблюдения за трещинами и швами	154
7.4	Способы определения прочностных характеристик и напряженно-деформированного состояния бетона	159
7.5	Способы наблюдения за фильтрацией через бетон и основание	166
7.6	Условные обозначения и примеры размещения контрольно-	168

	измерительных аппаратур в массивных бетонных сооружениях	
7.7	Анализ состояния массивных сооружений по данным наблюдений	172
VIII	Эксплуатация водопропускных сооружений и механического оборудования	
8.1	Ледовые образования. Борьба с заторами и зажорами	174
8.2	Пропуск льда, шуги и других плавающих тел через водопропускные отверстия и суженные русла (в строительный период	177
8.3	Наблюдения за размывами в нижнем бьефе	181
8.4	Особенности наблюдений за гидротехническими сооружениями с высокоскоростными потоками	183
8.5	Маневрирование затворами	186
8.6	Эксплуатационные мероприятия в период пропуска паводка и в аварийных условиях	190
8.7	Общие положения по эксплуатации механического оборудования	198
8.8	Средства борьбы с коррозией и обрастанием гидротехнических сооружений	210
8.9	Наблюдения за руслами и эксплуатация регуляционных сооружений	219
8.10	Эксплуатация гидротехнических сооружений гидромелиоративных систем	225
IX	Эксплуатация водозаборов и отстойников	
9.1	Эксплуатационные мероприятия на водозаборных узлах	227
9.2	Особенности открытия пролетов водосбросной плотины и водоприемника водозабора	228
9.3	Борьба с занесением верхнего и нижнего бьефов наносами	230
9.4	Эксплуатация отстойников в период осаждения наносов	233
9.5	Очистка отстойников	236
X	Эксплуатация рыбопропускных и рыбозащитных сооружений	
10.1	Биологические закономерности поведения рыб	238
10.2	Технологическая схема эксплуатации рыбопропускного шлюза и особенности других рыбопропускных сооружений	240
10.3	Эксплуатация рыбозащитных сооружений	243
XI	Эксплуатация водохранилищ	
11.1	Эксплуатация водохранилищных гидроузлов в строительный период .	247
11.2	Пуск водохранилищных гидроузлов в эксплуатацию.....	251
11.3	Эксплуатационные природоохранные мероприятия	253
11.4	Основные эксплуатационные мероприятия по акватории	255
11.5	Наблюдения на водохранилищах	256

XII	Анализ повреждений и аварий гидротехнических сооружений	
12.1	Общие положения	263
12.2	Повреждения и аварии грунтовых плотин	265
12.3	Повреждения и аварии бетонных и каменных плотин	270
12.4	Повреждения водосбросов и механического оборудования	272
12.5	Повреждения и аварии других сооружений	276
XIII	Ремонтно-восстановительные работы	
13.1	Ремонт повреждений на гребнях и откосах грунтовых сооружений	278
13.2	Устранение повышенной фильтрации через грунтовые плотины, основания и береговые примыкания	287
13.3	Ремонт противофильтрационных элементов и дренажных систем грунтовых сооружений	288
13.4	Устранение общих и местных повреждений бетонных массивных сооружений	301
13.5	Устранение течей через шпонки, швы, трещины и восстановление водонепроницаемости и прочности бетона	306
13.6	Проведение ремонтных работ в нижнем бьефе гидротехнических сооружений	313
13.7	Особенности ремонта туннельных и трубчатых сооружений	319
13.8	Особенности ремонта гидротехнических сооружений гидромелиоративных систем	321
13.9	Организация ремонтно-восстановительных работ гидротехнических сооружений	327
XIV	Реконструкция гидротехнических сооружений	
14.1	Реконструкция грунтовых плотин	328
14.2	Реконструкция бетонных плотин	333
14.3	Особенности реконструкции водосбросов, водозаборов, отстойников, магистральных каналов	338
14.4	Технико-экономическое обоснование реконструкции гидротехнических сооружений	341
	Глоссарий	344
	Литература	347

Contents

No	Lesson description	str
I	Introduction. The history of hydraulic structure development in the Republic	5
II	Handing over hydraulic structures into operation	
2.1	Inspection works, performed during construction of structures	17

2.2	Putting finished hydraulic structures into operation	18
2.3	Instructions on regulation appraisal on hydraulic structure operation.	21
2.4	Scientific research works in completed structures	23
III	Information on hydraulic structure operation	
3.1	Hydraulic structure operation conditions	27
3.2	Law, regulations and documentation on water resource use and hydraulic structure operation in the Republic	33
3.3	Factors, influencing on safe and stable operation of hydraulic structures	40
3.4	Operational service in water management of the Republic	44
3.5	Dispatching service in water management system	59
3.6	Water distribution in water management system	64
IV	Main works, performed by operational service of hydraulic structures	
4.1	General provisions	71
4.2	Main tasks of hydraulic structure operational service	72
4.3	Organization of hydraulic structure operational service	73
4.4	Types of services for carrying out operational procedures on hydraulic structures	76
4.5	Indicators of safe operation of hydraulic structures	77
4.6	Inspection (observation) works on hydraulic structures technical conditions and safe operation	78
4.7	Maintenance works of hydraulic structures	82
V	Operational service of canal systems	
5.1	Determining the amount of workers for operational service	84
5.2	Filling and draining regime of canals while handing them over for operation. Filtration process in canals	88
5.3	Water seepage, control of vegetation and sedimentation in canals. Operational features of canals in winter periods	94
5.4	Operational features of conjugation and water conveyance structures	104
VI	Observation of earth fill water retaining structures	
6.1	Visual observations	109
6.2	Function, structure and location of benchmarks, marks and devices for observation of structure movement	113
6.3	Structure, location of piezometers and other devices for observation of filtration in earth fill dams	128
6.4	Observation of earth fill structure stressed state	143
VII	Observation of massive concrete structures	
7.1	Visual observations	145
7.2	Structure and concept of device location for observation of settling, horizontal movement and skewing	149
7.3	Structure and concept of device location for observation of cracks and joints	154
7.4	Methods for determining strength characteristics and deformation	159

	mode characteristics of concrete	
7.5	Methods for observation of filtration through concrete and base	166
7.6	Notation and examples for location of control and measurement devices in massive concrete structures	168
7.7	Analyzing the state of massive concrete structures according to observation data	172
VIII	Operation of discharge structures and mechanical equipment	
8.1	Ice formations. Control of jamming	174
8.2	Discharge of ice, sludge and other floating objects through discharge openings and narrowed channels (during construction period)	177
8.3	Observation of erosion in tail race	181
8.4	Particularities of observation on hydraulic structures with high flow velocity	183
8.5	Water gate maneuvering	186
8.6	Operational procedures during flood discharge and emergency conditions	190
8.7	General provisions on operation of mechanical equipment	198
8.8	Control means for corrosion and vegetation of hydraulic structures	210
8.9	Observation of channels and operations of control structures	219
8.10	Operation of hydraulic structures in water reclamation systems	225
IX	Operation of water intake structures and detention ponds	
9.1	Operational procedures in water intake systems	227
9.2	Particularities of opening spans in spill dams and inlets of water intake structures	228
9.3	Control of sedimentation of head race and tail race	230
9.4	Operation of detention ponds during sedimentation period	233
9.5	Cleaning the detention ponds	236
X	Operation of fishways and fish protection structures	
10.1	Biological features of fish behavior	238
10.2	Technological scheme of fishway sluice operation and features of other fishway structures	240
10.3	Operation of fish protection structures	243
XI	Operation of water reservoirs	
11.1	Operation of water reservoir systems during construction period	247
11.2	Putting water reservoir hydrosystems into operation	251
11.3	Operational nature-conservative measures	253
11.4	Main operational measures on water areas	255
11.5	Observations in water reservoirs	256
XII	Analysis of damage and emergencies in hydraulic structures and their mechanical equipment	
12.1	General provisions	263
12.2	Earth fill dam damage and emergencies	265
12.3	Concrete and rock fill dam damage and emergencies	270

12.4	Spillway and mechanical equipment damage	272
12.5	Damage and emergencies in other structures	276
XIII	Repair and restoration works	
13.1	Repair of damage on crests and slopes of earth fill dams	278
13.2	Eliminating the filtration through earth fill dams, bases and bank joints	287
13.3	Repair of filtration control elements and drainage systems in earth fill dams	288
13.4	Eliminating the overall and local damage of concrete massive structures	301
13.5	Eliminating the leakage through splines, joints, cracks and restoration of concrete impermeability and strength	306
13.6	Carrying out repair works at tail race of hydraulic structures	313
13.7	Repair features of tunnel and pipe structures	319
13.8	Repair features of hydraulic structures in water reclamations systems	321
13.9	Organization of repair and restoration works in hydraulic structures	327
XIV	Reconstruction of hydraulic structures	
14.1	Reconstruction of earth fill dams	328
14.2	Reconstruction of concrete dams	333
14.3	Reconstruction features of spillways, intake structures, detention ponds, main canals	338
14.4	Technical and economic assessment of hydraulic structure reconstruction	341
	Glossary	344
	References	347

Аннотация

В данном учебнике рассмотрены вопросы компоновки и условия работы существующих в Республике гидротехнических сооружений, группы и перечень основных работ выполняемых службой эксплуатации гидротехнических сооружений, надзор за техническим состоянием грунтовых и массивных бетонных сооружений, эксплуатация водопропускных сооружений и их механических оборудований, каналов и сооружений на них, водозаборов и отстойников, рыбопропускных и рыбозащитных сооружений, водохранилищ, эксплуатация гидроузлов в строительный период, передача их в эксплуатацию и организация натурных исследований, анализ повреждений и аварий гидротехнических сооружений, ремонтно-восстановительных работ, а также реконструкция гидротехнических сооружений.

Abstract

The given textbook discusses the issues of arrangement and operation conditions of the existing hydraulic structures in the Republic, groups and lists of main works, performed by hydraulic structure operation department, inspection of the technical condition of earth fill and massive concrete structures, operation of discharge facilities and their mechanical equipment, canals and structures in them, water reservoirs, hydrosystem operation during construction period, their handover into operation and organization of field research, repair and reconstruction works, and reconstruction of hydraulic structures.

**Bakiev Masharif Ruzmetovich
Raxmatov Norqobul**

**Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish
(Darslik)**

Muharrir: prof. YAngiev A.A.
Musahhih: Jaxonov A.

Bosishga ruxsat etildi
Qog‘oz o‘lchami
Hajmi
Buyurtma №
TIMI bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent – 700000. Qori-Niyoziy ko‘chasi, 39-uy.

Аннотация

В данном учебнике рассмотрены вопросы компоновки и условия работы существующих в Республике гидротехнических сооружений, группы и перечень основных работ выполняемых службой эксплуатации гидротехнических сооружений, надзор за техническим состоянием грунтовых и массивных бетонных сооружений, эксплуатация водопропускных сооружений и их механических оборудований, каналов и сооружений на них, водозаборов и отстойников, рыбопропускных и рыбозащитных сооружений, водохранилищ, эксплуатация гидроузлов в строительный период, передача их в эксплуатацию и организация натурных исследований, анализ повреждений и аварий гидротехнических сооружений, ремонтно-восстановительных работ, а также реконструкция гидротехнических сооружений.

Abstract

The given textbook discusses the issues of arrangement and operation conditions of the existing hydraulic structures in the Republic, groups and lists of main works, performed by hydraulic structure operation department, inspection of the technical condition of earth fill and massive concrete structures, operation of discharge facilities and their mechanical equipment, canals and structures in them, water reservoirs, hydrosystem operation during construction period, their handover into operation and organization of field research, repair and reconstruction works, and reconstruction of hydraulic structures.